

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI
O‘ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI

BAHODIR ESHOV

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT
VA MAHALLIY BOSHQARUV
TARIXI

Toshkent 2014

SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov Vatan tarixining barkamol insonni shakllantirishdagi o‘rniga yuksak baho berib: «Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo‘lmaganidek, o‘z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo‘lmaydi»¹, – degan edi.

O‘zbekiston tarixini xolisona va haqqoniy o‘rganish masalasiga yurtboshimiz asarlarida alohida urg‘u berib, o‘zbek xalqi davlatchiligi tarixidagi boy an‘analarni tadqiq etish masalasi dolzarb muammo tarzida ta’kidlanadi². Shu bois Prezident Islom Karimovning tashabbusi bilan 2012-yil 27-yanvarda «O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzurida O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha jamoatchilik kengashini tashkil etish to‘g‘risida» qaror qabul qilindi³.

Haqiqatan ham, Vatan tarixini chuqur o‘rganish, tadqiq etish, uning boy va sermazmun sahifalariga bugungi kun nuqtai nazaridan atroflicha xolisona baho berish davr talabidir. Chunki tarixni o‘rganmay, barkamol avlodni shakllantirib bo‘lmaydi.

Vatan tushunchasi tarixiy xotira, tarixiy ong zamirida shakllanadi. Vatan tuyg‘usi esa yoshlik davridan vujudga kelib, ildiz otib, takomillashib boradi. Ushbu tuyg‘uning takomili o‘rta va oliy ta’lim muassasalaridagi gumanitar ta’lim, eng avvalo, Vatan tarixini o‘rganish orqali mustahkamlanadi.

O‘zbekiston tarixi nihoyatda uzoq yo‘lni bosib o‘tgan. Mamlakatimizni g‘oyat murakkab va mashaqqatli hayot sinovlariga dosh berib bugungi istiqloлга erishuvda yuz minglab Vatandoshlarimizning ulkan hissasi borligini e’tirof etmoq joizdir. Qolaversa, eng qadimgi davrlardan boshlab jahon sivilizatsiyasi o‘choqlaridan biri hisoblangan yurtimizda mahalliy xalqlarga xos mislsiz tarixiy-madaniy jarayonlar bo‘lib o‘tgan. O‘lkamiz hududlari dunyo tamadduni tarixiy taraqqiyotida o‘chmas iz qoldirgan olimu fuzalolar, davlat arboblari, buyuk sarkardalar bilan haqli ravishda faxrlansak arziydi. Chunki O‘zbekiston tarixi kelajagimiz bunyodkorlari

¹ *Каримов И.А.* Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва таракқиёт йўли. – Т., 1992, – Б. 71.

² *Каримов И.А.* Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т., 2011. – Б. 165-166.

³ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2012. – 5-сон.

bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashda, ularga Vatan tuyg‘usini yanada teranroq anglashda, milliy g‘urur va iftixor, vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, «o‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q»¹.

Ushbu o‘quv qo‘llanmasi Vatanimiz tarixining qadimgi tosh davridan boshlab, hozirgi kunigacha bo‘lgan ulkan davrni o‘z ichiga oladi. Mavzularni yoritish jarayonida muammolarning tub mohiyati, tarixiy-madaniy jarayonlarning asoslari, omillari va rivojlanishi, sabablari, oqibatlari va natijalari sharhiga e’tibor berildi. Shuningdek, mualliflar Vatanimiz hududida bo‘lib o‘tgan tarixiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar haqida xolisona xulosalar chiqarishga intilganlar.

Mualliflar tarixiy manbalar, ilmiy tadqiqotlar va tariximizga oid adabiyotlarni o‘rganish asosida, boy va sermazmun uzoq va mashaqqatli tariximizni sodda va tushunarli tarzda yetkazishga harakat qildilar. Albatta, ushbu qo‘llanmada bayon qilingan tarixiy davrlar, voqyealar, bosqichlar hamda sanalar hozirgi mustaqillik davri nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilgan va xolis baho berilgan. Biroq ularni yoritishda o‘quvchi-kitobxonlarda muayyan takliflar, fikr-mulohazalar tug‘ilishi mumkin. Kitobni yanada mukammal holga keltirish, to‘ldirish hamda fundamental darajada takomillashtirish yuzasidan fikrlar bo‘lsa, bajonu dil qabul qilamiz.

¹ *Каримов И. А.* Юсак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б.4.

I bob

O‘ZBEKISTON TARIXI FANINING PREDMETI, NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA AHAMIYATI

1-§. O‘zbekiston tarixi fanining predmeti va vazifalari

O‘zbekiston tarixini o‘rganish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish vazifasini faqat o‘z Vatani tarixini yaxshi bilgan, qalbida unga xizmat qilishni muqaddas burch ekanligini his qilgan, ijtimoiy faol fuqarolarni tarbiyalash orqali hal etish mumkin. Shuning uchun ham, O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan Vatanimiz tarixi va madaniyatini ta’lim-tarbiya tizimining barcha muassasalarida o‘rganish muhim siyosiy vazifa sifatida belgilandi¹.

«Tarix» so‘zi, aslida, arabcha bo‘lib, o‘zbek tilida «voqyealar, o‘tmish haqida aniq hikoya qilish» ma’nosini anglatadi.

O‘zbekiston tarixi jahon tarixining tarkibiy qismi bo‘lib, o‘z predmeti va vazifalariga ega. O‘zbekiston tarixi fanining predmeti eng qadimgi zamonlardan bugungi kungacha xalqimiz hayotida kechayotgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy jarayonlarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va inqirozga uchrashi qonuniyatlarini o‘rganishdan iborat. Boshqacha aytganda, O‘zbekiston tarixi ajdodlarimiz hayoti bilan bog‘liq voqyealar rivojining mantig‘i, sabab va oqibatlarini, asrlar davomida to‘plangan tajriba hamda saboqlarni o‘rganadi.

O‘zbekiston tarixini o‘rganish zarurati quyidagilardan kelib chiqadi.

*Birinchi*dan, bugungi kunda O‘zbekiston hududida istiqomat qilayotgan xalqlarning tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Tarixiy manbalar, xalq og‘zaki ijodi namunalari yurtimiz jahon tamadduni beshiklaridan biri bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu qadimiy va tabarruk zamindan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlar yaratilgan va sayqal topgan. Miloddan avvalgi va undan keyingi davrlarda bunyod etilgan inshootlar, osori-atiqalar, bu zaminda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me’morchilik va shaharsozlik san’ati rivoj topganidan dalolat beradi.

¹ Qarang.: *Karimov I.A.* Vatan sajdago‘x kabi muqaddasdir. T.3. – T., 1996. – B. 38.

Mustaqillik sharofati bilan ajdodlarimizning ilmiy, axloqiy va diniy bilimlari, asrlar davomida turli sohalarida to‘plagan boy tajribasi, qarashlari, milliy qadriyatlarini to‘liq o‘rganish, ularni O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, demokratik huquqiy davlat qurish, mamlakatimizni buyuk davlatlar qatoriga ko‘tarish, xalq farovonligini yuksaltirishdek olijanob maqsadga xizmat qildirish muqaddas burchimizdir.

*Ikkinchi*dan, O‘zbekiston tarixini fan sifatida o‘qitib, ijtimoiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish orqali rivojlanish qonuniyatlari, sabab va oqibatlarini aniqlash va tushuntirib berish bilan yoshlarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, intellektual qobiliyatini yuksaltirish maqsadlariga erishiladi. Tarixiy jarayonlarning tasodifiy, o‘zaro bog‘lanmagan emas, aksincha, muayyan rivojlanish qonuniyatiga, mantig‘iga ega hodisalar ekanligini tushunib yetgan ongli inson aldanmaydi. Zero, u har bir narsani aql va mantiq tarozisiga solib ko‘radi va to‘g‘ri xulosa chiqara oladi.

*Uchinchi*dan, O‘zbekiston tarixi millatimizning o‘zligini anglashga salmoqli hissa qo‘shadi. Aynan O‘zbekiston tarixini o‘rganish jarayonida xalqimizning o‘zligini anglashga bo‘lgan ehtiyoji to‘laroq ta’minlanadi. Prezident Islom Karimovning ta’kidlashicha: «Yurtimizni yangi bosqichga, yangi yuksak marraga olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yorug‘ g‘oya kerak. Bu g‘oyaning zamirida xalqimizning o‘zligini anglash yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o‘zlikni anglash mumkin emas»¹.

*To‘rtinchi*dan, mustaqil davlatimizning kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotida o‘zini oqlagan insonparvar demokratik rivojlanish yo‘lini tanlashi, turli siyosiy partiyalar, harakatlar va birlashmalar faoliyatida ishtirok etayotgan fuqarolarning davlatimizning barqaror rivojlanishi uchun siyosiy ongi va madaniyati yuksak darajada bo‘lishi talab etiladi. O‘zbekiston tarixi fani jahondagi ilg‘or demokratik kuchlarning, davlatlarning tajribalarini umumlashtirish asosida fuqarolarning siyosiy madaniyatni shakllantirish orqali, ularni boshqarish ishlarida ishtirok etishida xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatib berish kabi bir qator siyosiy-amaliy vazifalarni ham bajaradi.

*Beshinchi*dan, tarix ijtimoiy fan sifatida barkamol avlodni tarbiyalashda dolzarb ahamiyatga ega. Yurtboshimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, «Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlar tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda»².

¹ *Karimov I. A.* Biz kela jagimizni ўz qўlimiz bilan kuramiz. T. 7. – T., 1999. – B. 137–153.

² *Karimov I.A.* Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot ijlida. T.6. – T., 1998. – B.127.

2-§. O‘zbekiston tarixini o‘rganishning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslari

Tarixni o‘rganishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari deganda voqeya, hodisa, jarayonlarni, tarixiy shaxslarning faoliyatini to‘g‘ri, haqqoniy yoritish, xolisona tahlil qilishning umume’tirof etilgan, shuningdek xususiy qonun-qoidalari va uslublari majmui tushuniladi.

O‘zbekiston tarixining ilmiy-nazariy va metodik asoslari quyidagi hujjatlarda o‘z aksini topgan:

- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari;
- Oliy Majlis, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa hujjatlar;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridagi ilmiy xulosalar va metodologik ko‘rsatmalar;
- Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirliklari, Ichki ishlar vazirligining qaror va ko‘rsatmalari;
- jahon va O‘zbekiston tarixiga oid ilmiy adabiyotlardagi xulosalar.

Qayd etilgan hujjatlar tarkibiga kirgan uchta manbani alohida ko‘rsatish lozim deb hisoblaymiz. Bular Prezident Islom Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q» asari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston tarixini yaratish va nashr qilish to‘g‘risida» (1996 y.) va «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi (1998y.) qarorlaridir. Ushbu hujjatlarda O‘zbekiston tarixini yaratish va o‘rganish muammolari, konsepsiyasi, ilmiy-nazariy asoslari batafsil yoritilgan.

O‘zbekiston tarixi fani boshqa ijtimoiy fanlar kabi o‘zining muayyan qonun-qoidalariga ega. Ular umumiy va maxsus usullarga bo‘linadi. Jumladan, umumiylik, dialektik metod, obyektivlik (xolislik), tarixiylik va boshqa bir qancha qoidalarni kiritish mumkin. Tarixiy hodisalarni chuqurroq o‘rganish uchun maxsus usullardan foydalaniladi. Ularga: statistik, matematik, sotsiologik tadqiqot usullarini kiritish mumkin. Aynan shu jihatlarda tarixiy hodisalarning miqdor va sifat o‘zgarishlarini tahlil qilish asosida ilmiy xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Quyida asosiy qoidalarni izohlab berishga harakat qilamiz.

Dialektik metod — olamning yagona va yaxlit ekanligi, unda sodir bo‘layotgan hodisalar, voqyealarning umumiy va o‘zaro bog‘liqligi, uzluksiz harakatda ekanligi, ziddiyatli rivojlanishi haqidagi ta’limotdir.

Dialektik metodologiya O‘zbekiston tarixini jahon, shuningdek Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi bilan bog‘liq holda o‘rganishni taqozo etadi. Haqiqatan ham, Markaziy Osiyo ushbu hududda yashovchi xalqlar

uchun yagona iqtisodiy va ma’naviy makon bo‘lib kelgan. Mazkur ulkan hududda yashovchi urug‘, qabila, qavm, elatlar etnik jihatdan o‘zaro ta’sir va aloqada bo‘lgan. Shu sababli, O‘zbekiston tarixini qo‘shni mamlakatlar tarixi bilan bog‘liq va bir xalqni ikkinchisiga qarama-qarshi qo‘ymagan holda o‘rganish kerak.

Obyektivlik. Tarixiy voqyealarni o‘rganishning ushbu asosiy qoidasi butun borliqning, har bir tarixiy hodisaning inson xohish-irodasiga bog‘liq emasligini ta’kidlagan holda, ularni qanday bo‘lsa shundayligicha, xolisona, hech qanday o‘zgartirishlarsiz, aniq hujjatlar, ishonchli dalillar asosida, ularning ko‘p qirrali, qarama-qarshi salbiy va ijobiy tomonlarini bir butun yaxlit holda, bir qutbga jamlangan hodisa sifatida o‘rganish demakdir. Obyektivlik tarixiy hodisalar va shaxslarni siyosiy va mafkuraviy qarashlardan xoli tahlil etilishini taqozo etadi.

Tarixiylik. Tarixiy voqyealarga aniq bir tarixiy davr ichida birin-ketin paydo bo‘lgan tarixiy jarayon sifatida qarashni talab qiladi hamda ularning bir zaruriy bosqichdan ikkinchi zaruriy bosqichga o‘tish izchilligini ochib beruvchi kalit hisoblanadi. Bu qoida har bir hodisani, eng avvalo, uning kelib chiqishidagi tarixiy shart-sharoitlarni o‘rganishni, so‘ngra jahondagi boshqa voqyealar rivojiga qanday ta’sir o‘tkazganligini, ular bilan o‘zaro aloqasini tahlil etib, ilmiy xulosalar chiqarish zarurligini e’tirof etadi. Boshqacha aytganda, tarixiy hodisalar va shaxslar faoliyatini tahlil qilishda har bir davrning o‘z mantig‘idan kelib chiqishi zarur. Aks holda, noto‘g‘ri xulosa chiqarilishi muqarrardir.

Milliy va mahalliy xususiyatlarni hisobga olish. Millat va elatlar o‘zaro teng huquqli bo‘lib, o‘z taqdirini o‘zi hal qilish huquqiga ega. Shu bois, tarixiy voqeya va hodisani o‘rganishda milliy va mahalliy xususiyatlarni, ya’ni har bir millat va elatning tili, dini, hududi va ishlab chiqarish usuli, ruhiyati, urf-odatlarini, rasm-rusmlari, an’analari va marosimlarini to‘laligicha, har tomonlama hisobga olgan holda o‘rganish va ish yuritish muhim. Mazkur qoidaga rioya qilish o‘tmish zamonlardagi kabi qabih niyatlar yashiringan mustamlakachilik siyosatining «progressiv» natijalari haqida xayoliy xulosalar chiqarishga imkon bermaydi.

Darhaqiqat, o‘sha davrga chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatini amalga oshirish uchun qurilgan temir yo‘l, telegraf yoki sanoat korxonalariga qarab emas, balki 1917-yilgacha Markaziy Osiyoda umumiy aholining 95 foizidan ortiqrog‘ini tashkil qilgan mahalliy xalqning turmush darajasi qanday o‘zgarganligi, siyosiy, iqtisodiy huquqlari qanday ro‘yobga chiqarilgani, milliy va ma’naviy ehtiyojlari qay darajada qondirilgani, turmush tarzi, e’tiqodi ixtiyoriy yoki majburiy ravishda o‘zgartirilganiga qarab baho berish ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi.

Ijodiy yondashuv. Obyektivlik va tarixiylik omillarini to'ldirib turuvchi omillardan biridir. Ilm-fan bir joyda to'xtab qolmaydi, ya'ni yangi manbalar ochiladi, izlanishlar orqali yangi ilmiy xulosalar chiqariladi. Ulardan tarixiy jarayonlar, shaxslarni baholashda foydalanish obyektiv haqiqatni tiklashga yordam beradi.

Bundan tashqari, ijodiy yondashuv har bir manbaning asl nusxa yoki soxta ekanligini qayta-qayta tekshirib ko'rishni, ularni muayyan sharoitlarda hisobga olish va qiyoslashni talab etadi.

Tarixni o'rganishda *ijtimoiy yondashuv* qoidasi. Tarixda hech bir jamiyat bir xil aholi qatlamidan iborat bo'lmagan. Barcha davrlarda turli jamiyatlarda ayni vaqtning o'zida har xil ijtimoiy toifalar, sinflar, tabaqalar yashab, hamkorlik qilganlar. Manfaatlar turlicha bo'lgani bois ular o'rtasida ziddiyatlar paydo bo'lgan, lekin aynan shu ziddiyatlar jamiyatni taraqqiyotga yetaklagan. Ijtimoiy yondashuv tarixiy jarayonlarni, aholining barcha tabaqalari manfaatlarini, turli ta'sir etuvchi omillarini hisobga olib, birini ikkinchisidan ustun qo'ymagan holda o'rganishni taqozo etadi.

3-§. O'zbekiston tarixini o'rganishning asosiy

manbalari va uni davrlashtirish

O'tmishni o'rganishda tarixiy manbalar nihoyatda muhim hisoblanadi. Ular shartli ravishda moddiy va yozma manbalarga bo'linadi.

Moddiy manbalarga mehnat qurollari, harbiy aslahalar, tanga pul, uy-joy, qabr, idish-tovoq, devoriy tasvir, qal'a, shahar kabilar kiradi. O'zbekiston tarixiga tegishli moddiy manba namunalar respublikamiz muzey va ko'rgazmalarida o'z aksini topgan. Qadimiy Samarqand, Buxoro, Xiva, Qarshi, Termiz, Toshkent, Marg'ilon kabi shaharlarning o'zi haqiqiy tarixiy ma'lumotlar manbalaridir. Ular yozma ma'lumotlar bo'lmagan yoki yo'qotilgan qadimiy davrlarni o'rganishda ayniqsa katta yordam beradi.

Yozma manbalarga tosh, daraxt po'stlog'i, teri, suyaklarga yozilgan bitiklar; kitob va qo'lyozmalar, davlat boshliqlari, boshqaruv organlari, siyosiy va jamoat tashkilotlarining hujjatlari; turli mulkiy munosabatlar aks ettirilgan qog'ozlar va shu kabilar kiradi.

Respublikamiz Konstitutsiyasi, umumiy va oliy ta'limga oid qonunlari, hukumat qarorlari hamda O'zbekiston Prezidentining farmonlari tinglovchi va talabalar uchun asosiy tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bu borada Prezident Islom Karimovning asarlarini alohida qayd etish zarur. Ularda o'tmishni o'rganishning mohiyati va metodologiyasi, yuksak

ma'naviyatni shakllantirish, o'zlikni anglashning ma'naviy taraqqiyot uchun ahamiyati, tarixiy, milliy qadriyatlar, diniy e'tiqodlarni tiklash kabi muammolar bayon etilgan bo'lib, ularni bilish va amalda qo'llash o'sib kelayotgan yosh avlod uchun nihoyatda muhim vazifadir. Bundan tashqari, ular o'tmishga va bugungi kunimizga taalluqli boy tarixiy ma'lumotlar keltirilgan manba hisoblanadi.

Misol tariqasida Islom Karimovning tarixni o'rganishga oid ba'zi g'oyalari eslatib o'tish maqsadga muvofiqdir: «Dastlab yangisini qurish, uni amalda sinab ko'rish, so'ngra esa eskini barbod qilmasdan sinab ko'rilganlarini yangicha qo'llash lozimdir»¹. «Tarix bu bizlarniki, achchiq bo'lsa ham, chuchuk bo'lsa ham, u biz uchun hayotdan saboq va xulosalar chiqarish uchun xizmat qiladi»². «...Xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdiridagina chinakam tarix bo'ladi»³.

Hozirgi kunda O'zbekiston kutubxonalarida tarixga va ijtimoiy hayotning boshqa sohalariga bag'ishlangan 25 mingdan ortiq qo'lyozma, 28 ming toshbosma nodir asarlar saqlanadi. Respublikamiz kutubxonalarida tarixning turli jabhalari yoritilgan minglab ilmiy, publitsistik, badiiy adabiyotlar, davriy matbuot materiallari mavjud bo'lib, har kim ularni o'rganish orqali O'zbekiston tarixi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishi mumkin.

O'zbekiston tarixini o'rganishda uni to'g'ri davrlashtirish katta ahamiyatga ega. Bugun tarixni davrlashtirishga turlicha yondashuvlar yuzaga kelgan. Masalan, sobiq sovetlar davrida kishilik jamiyatining rivojlanishi formatsiyalarga, ya'ni ibtidoiy jamoa tuzumi, quldorlik tuzumi, feodalizm, kapitalizm, sotsializm va uning yuqori bosqichi kommunizmga bo'lib o'rganilgan.

XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi voqaealar bu usul o'zini oqlamaganini, zero bir formatsiyaning, ya'ni davrlar almashinuvining ishlab chiqarish munosabatlari va ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishidagi nomutanosibliklar bilan izohlash o'zining nomukammalligini ko'rsatdi. Materiya birlamchi, ong ikkilamchi ekanligi to'g'risidagi materialistik falsafiy g'oyalar jamiyat rivojlanishida ma'naviyatning ahamiyati kamsitilishi va ijtimoiy hayotning tanazzulga yuz tutishiga sabab bo'ldi.

Tarix fanida davrlashtirishga boshqacha yondashuvlar ham mavjud.

¹ *Каримов И.А.* Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Т., 1996. – Б. 83.

² *Каримов И.А.* Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т. 7. – Т., 1999. – Б. 45.

³ *Каримов И.А.* Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б. 97.

Masalan, arxeolog olimlar tarixni mehnat qurollari yasalgan xomashyoga, sanoat rivojlanishining darajasi, madaniyatning past yoki yuksakligi kabi omillarga qarab davrlashtiradilar. Bu har gal tadqiqotchilarning qanday mavzuni tanlagani, qanday maqsadni o'z oldiga quyganiga qarab amalga oshirilgan.

Bugun olimlar O'zbekiston tarixiy taraqqiyotini quyidagi yirik davrlarga bo'lib o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar:

- ibtidoiy jamoa tuzumi;
- qadimgi davr: davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi;
- O'rta asrlar davri;
- Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davri;
- mustabid sovet hokimiyati hukmronligi davri;
- milliy istiqlol davri.

Mazkur davrlashtirish ham kamchilikdan xoli emas, shu bois olimlarimiz bu masala ustida ishlab, uni takomillashtirishi maqsadga muvofiq.

4-§. O'zbekiston tarixini o'rganishning ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatidagi o'rni

Ma'lumki, tarix fanini o'rganish masalasi respublikamizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Chunki tarix insonning o'zligini anglashi, o'zida yuksak ma'naviyatni shakllantirishida muhim o'rin tutadi. Prezident Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, «tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». O'zbekiston tarixini chuqur o'rganish jarayonida quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'linadi:

– yurtimiz zaminida yetishib chiqqan buyuk allomalar, davlat arboblari, sarkardalarning mamlakatni adolatli boshqarish, jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, insonlarda yuksak ma'naviyatni shakllantirish borasidagi ulkan va qimmatli ilmiy va adabiy merosini o'z ongiga singdirish va undan mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, yurt farovonligini oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilishda foydalanish ichki ishlar idoralari xodimlarining muqaddas burchidir;

– tarixni o'rganish jarayonida jamiyatda amalga oshirilayotgan xayrli tadbirlar tufayli yurtda tinchlik va farovonlik ta'minlanishi, aksincha, har qanday chuqur o'ylanmay ko'rilgan choralar mamlakatning siyosiy, iqtisodiy beqarorligi va tanazzuliga sabab bo'lishini anglaydilar;

– tarixiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida ular ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tahlil qilish va mustaqil xulosalar chiqarishni o'rganadilar, ularga asoslangan holda voqyea-hodisalar oqibatini va kelajakni bashorat

qilish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Bu pirovardida, tinglovchilar va ichki ishlar idoralari xodimlarining tarixiy tafakkurini shakllantirishda muhim omil bo'ladi. Tarixiy tafakkur, o'z navbatida, o'zlikni anglashning muhim vositasidir;

– ma'lumki tarix, jumladan O'zbekiston tarixi ham, xalqlarning ozodlik, Vatan mustaqilligi uchun olib borgan keskin kurashlari jarayonida yuzaga kelgan. Ajdodlarimiz Vatan ozodligi yo'lida jonlarini fido qilganlar. Ushbu misollar orqali ichki ishlar xodimlari faqat mustaqil yurtda inson huquqlari va erkinliklari himoya qilinishiga, ular taraqqiyot, farovonlik, adolat qaror topgan sharoitda yuzaga chiqishiga ishonch hosil qiladilar. Bu esa pirovardida vatanparvarlik, insonparvarlik, adolatparvarlik kabi tuyg'ularni shakllantiradi;

– kishilik jamiyatining kelajagini nafaqat yuksak iqtisodiy taraqqiyot, ilg'or texnologiyalar, balki yuksak ma'naviyat ham belgilab berishi tarixiy haqiqatdir. Yurtboshimiz Islom Karimov bu borada shunday fikr bildiradi: «...Insonga xos orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o'ylaymanki o'rinli bo'ladi»¹;

– tarix yurtda osoyishtalik, jamiyatda barqarorlikni ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish, unga qarshi kurashish, aholining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonidir. Ushbu tarixiy tajribani o'zlashtirish, huquqbuzarlik va jinoyatlarning sodir bo'lish sabablari hamda oqibatlarini bilish ichki ishlar idoralari xodimlarining bugungi amaliy faoliyati uchun ahamiyatlidir.

Shunday qilib, ichki ishlar idoralari xodimlarining O'zbekiston tarixi fanini bilishi nafaqat ularning ilmiy dunyoqarashi va tarixiy tafakkurini boyitadi, balki ularning amaliy faoliyati uchun ham zarurdir.

5-§. Prezident Islom Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida O'zbekistonning yangi tarixini yaratish vazifasining qo'yilishi

Yurtimiz tarixi boy va betakror. Lekin sobiq sovetlar davrida tariximizga mensimay qaraldi, buyuk allomalarimizni o'rganishga «o'tmishni ideallashtirish» deb baho berildi. Chunki jamiyatimiz tarixini o'rganish milliy ongning yuksalishiga olib kelishi muqarrar edi.

Mustaqillik tufayli Vatanimiz tarixini o'rganish, uni ma'lum mafkuraviy qarashlardan xolos qilish, tarixiy haqiqatni tiklash va uning

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б. 67.

asosida fuqarolar ongida milliy ma'naviyatni shakllantirish dolzarb vazifa etib belgilandi.

Ushbu masalaga 1998-yilda Prezident Islom Karimovning tarixchi olimlar va jurnalistlar bilan suhbatida alohida e'tibor qaratildi. Suhbatda, jumladan, quyidagi g'oyalar ilgari surildi:

1) o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi va uni o'zlashtirgan shaxs yuksak ma'naviyatli, irodali inson bo'la oladi;

2) sovetlar davrida yaratilgan tarix mutlaqo yaramaydi, shuning uchun O'zbekistonda mustaqillikning mohiyatidan kelib chiqib, yurtimizning ilmiy asoslangan yangi tarixini yaratish zarur;

3) o'zbeklar qaysi xalqlarning qonuniy vorislari, ularning xalq bo'lib shakllanishiga qaysi omillar ta'sir qilgan, xalqning kelib chiqishini aniqlash uchun qanday metodologiyani qo'llash lozimligini aniqlash, xalqni nomi emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilish, tarixining tag-tomirigacha o'rganish dolzarb vazifadir;

4) yaratilayotgan tarix buyuk ajdodlarimizning ma'naviy merosini saqlab qolish va avlodlarga yetkazish, xalqimizning umumjahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini qadrlashga qaratilishi lozim;

5) tariximizni tashqaridan bo'ladigan har qanday tajovuzdan asrash tarixchi olimlarning muhim vazifasidir.

Bu g'oyalar O'zbekiston tarixini o'rganish borasida ishlab chiqilgan konsepsiyada o'z aksini topdi. Mazkur konsepsiyaning asosiy g'oyalari quyidagilardir:

– O'zbekiston hududida tub aholi va ular ajdodlarining ko'p ming yillar davomida o'troq holda yashab kelganligi hamda mahalliy madaniyatning boy qadimiy ildizi bo'lganligini qayd etish;

– O'zbekistonda davlatchilikning paydo bo'lishi va o'zbek xalqining shakllanishi jarayonida asosan dehqonchilik bilan shug'ullangan tub o'troq aholining hal qiluvchi omil bo'lganligini nazarda tutish. Bugungi o'zbek xalqi tarixan shu zaminda yashagan xalq shajarasining davomi, shu yerda shakllangan turmush tarzi va madaniyatining vorisi ekanligini e'tirof etish;

– O'zbekistonda davlatchilikning kelib chiqishida miloddan avvalgi III-II ming yillarda shakllangan va sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik xo'jaligi, hunarmandchilik va mahsulot ayirboshlash asosiy omil bo'lganligini anglash;

– O'zbekistonda davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida tub aholining urf-odatlari, an'analari va ma'naviyati azaldan jamiyatni birlashtiruvchi omil bo'lganligini tan olish;

– O'zbekistonda ijtimoiy hayotning shakllanishini butun Markaziy

Osiyo miqyosida qadimiy madaniy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni qamrab olgan siyosiy-ijtimoiy hodisa sifatida talqin etish;

– Vatanimizning rivojlanishi o'z xususiyatlari va qonuniyatlariga egaligi, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga muhim hissa qo'shganligini e'tirof etish.

6-§. Islom Karimov yuksak ma'naviyatni shakllantirishda tarix fanining roli to'g'risida («Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asari asosida)

Prezident Islom Karimov ma'naviyatga shunday ta'rif berdi: «... Ma'naviyat — insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan mezondir»¹. Shu bilan birga, ma'naviyat bugun O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarning samarali amalga oshirilishida muhim vositasidir.

Prezident Islom Karimov o'z asarida millatning tarixi, buyuk o'tmishdoshlarimizning bebaho ma'naviy merosi, madaniy boyliklari, ko'hna tarixiy yodgorliklarini yosh avlodning ma'naviyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan omillarga kiritadi.

Jumladan, uch ming yil ilgari qadimgi Xorazmda yaratilgan «Avesto»ning tub mohiyatini belgilab beradigan «Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal» to'g'risidagi g'oyalar bugungi ma'naviy ideallarda ham o'z aksini topmoqda.

Yaqinda 1000 yilligi tantanali ravishda nishonlangan, xalq og'zaki ijodiyotining noyob durdonasi bo'lgan «Alpomish» dostoni bugun ham vatanparvarlikdan saboq beradi, odil va haqgo'y bo'lish, yurtimiz, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlash, or-nomusimiz, ota-bobolarimiz ruhini har qanday tajovuzlardan asrash va himoya qilishni o'rgatadi.

Prezident Islom Karimov ma'naviyatni shakllantirishda xalqimiz ilk O'rta asrlar davridan e'tiqod qilib kelayotgan islom dinining ahamiyatiga alohida e'tibor bergan. Islom ta'limoti o'tgan davrda xalqimizning nafaqat asosiy e'tiqodiga, balki turmush tarziga aylandi. Bu ta'limot *haqiqatgo'ylik, poklik, insonparvarlik, bag'rikenglikka* da'vat qilib, odamzotni doimo *ezgulikka* chorlab keldi, sinovlardan o'tgan qadriyatlar va an'analarni saqlab qolishda muhim vosita bo'lib xizmat qildi.

¹ Ўша асар. – Б. 19.

Islom ta'limotini turli zararli g'oyalardan saqlash hamda rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan buyuk o'tmishdoshlarimiz Imom Buxoriy, Iso at-Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'ioniy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshbandiy ma'naviy meroslaridagi ezgu fikrlari bugun ham shaxsning axloqiy, ma'naviy qiyofasini shakllantirishda ulkan ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbek xalqining ko'plab buyuk namoyandalari jahon ilm-faniga, adabiyotiga qo'shgan hissani chuqur o'rganish yoshlarga o'z xalqi, Vatani o'tmishidan faxrlanishni o'rgatadi. Ulug' ajdodlarimiz al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, al-Beruniy, Ibn Sino, az-Zamaxshariy kabi allomalar bemisil ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bilan jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida o'chmas iz qoldirganligini bugun dunyo e'tirof etmoqda.

Davlatimiz rahbari mazkur ulug' zotlarning hayot yo'li va qoldirgan merosini to'liq tasvirlashgina emas, balki ular timsolida ma'rifat, ilmu fan, madaniyat, din va boshqa barcha sohalarni o'zida mujassamlashtirgan xalqimizning boy merosini o'sib kelayotgan yosh avlodga yetkazish dolzarb vazifa ekanligini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, Prezident asarida buyuk sarkarda va allomalardan Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy hamda yaqin o'tmishda yashab o'tgan ma'rifatparvarlardan Maxmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir va boshqa shu kabi adib va ma'rifatparvarlarning xotirasini asrab-avaylash, abadiylashtirish, Qori Niyoziy, Habib Abdullayev, Said Ahmad, Ozod Sharofiddinov, Halima Nosirova kabi minglab ilm-fan, adabiyot va san'at vakillarining ilmiy-ijodiy merosi yurtimizdan yangi arboblar yetishib chiqishiga zamin bo'lishi kerakligi qayd etiladi.

Yurtimiz tarixidagi bunday buyuk siymolarning ma'naviy merosi nafaqat bugungi, balki ertangi avlodning ham ma'naviy boyligiga aylanib, xalqimizga kuch-quvvat va madad berishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish kerak.

II bob

O'ZBEKISTONDA DAVLATCHILIKKA O'TISH DAVRI. ILK DAVLAT UYUSHMALARI

1-§. O'zbekiston hududida ibtidoiy jamiyat

Yer yuzida odamning qanday paydo bo'lganligi va rivojlanish bosqichlarini bilish tadqiqotchilarni qadimdan qiziqtirib kelgan. Ushbu masalada turli davrlarda yashagan mutafakkirlar turlicha fikr bildiradilar. Qadimgi dunyo faylasuflari odamning kelib chiqishini turlicha yondashuvlar asosda tushuntirib berdilar. Qadim zamonlardan boshlab o'tgan vaqt davomida jamiyat va inson hayotida mislsiz o'zgarishlar yuz berdi. Ammo muammoga yondashuv uslublarida jiddiy o'zgarishlar yuz bermadi. Tadqiqotchilarning aksariyat qismi inson mehnat va aqliy jihatdan kamol topishi natijasida vujudga kelganligini ta'kidlasalar-da, odamni xudo yaratganligi yoki o'zga koinotdan kelib qolganligi hamda boshqa nazariyalar tarafdorlari ham saqlanib qolgan.

Insoniyat paydo bo'lishi to'g'risida ilmiy yondashuv tarafdorlarining qayd etishlaricha, odamlar hozirgi qiyofa va aqliy salohiyatga ega bo'lishi uchun uzoq rivojlanish bosqichini bosib o'tgan. Bu jarayon fanda «antropogenez» deb ataladi. Eng qadimgi odamlar mehnat qilish va mehnat qurollaridan foydalanish qobiliyati bilan boshqa jonzotlardan farq qilgan. Tabiat kuchlariga qarshi yashash uchun kurash olib borib, ular atrof muhitni va o'zini ham o'zgartirganlar. Bunday o'zgarishlar dastlab juda sekin yuz bergan va uzoq vaqt davom etgan.

Odamlarni qiyofasining o'zgarishi va yashagan davriga ko'ra homo xabilislar («homo-habilis» – bilag'on odam) va homo sapiyenslar («homo-sapienes» – ongli odamlar)ga bo'lib o'rganamiz. Eng qadimgi odamlar bundan 3-3,5 mln. yil oldin paydo bo'lgan va uzoq vaqt davomida ongi va qiyofasi o'zgarib borgan. Ularning ilk topilmalari Zinjantrop (habash odam) yoki Avstralopitek (Janub maymuni) deb nomlangan. Taxminan 1 mln. – 700-600 ming yil ilgari yashagan odam Pitekantrop (maymun odam) deb ataldi. Eng qadimgi odamlar turkumining yakunlovchi vakili Sinantrop (Xitoy odami) bundan 600-500 ming yil ilgarigi yashagan.

Eng qadimgi odamlar gavdalarini tik tutib yurgan, mehnat qurollari yasab, ulardan foydalana bilganlar. Qadimgi odamlarning qurol yasay bilishi va shu qurollardan foydalana olishi ularni hayvonot olamidani ajratib turgan.

Insoniyat rivojlanishining keyingi bosqichida yashagan odamlar Germaniyaning Neandertal darasidan (1856-yilda) topilgan odam qoldig'iga ko'ra «Neandertal odam» deb ataladi. Neandertal odami yashagan davrda mehnat qurollarining turlari ko'payib, sifati yaxshilangan. Og'ir mehnat va boshqa shart-sharoitlar ta'sirida uning qiyofasi o'zgarib, hozirgi odamlarga yaqinlashib borgan. Neandertal odami homo xabilisrning rivojlanish jarayonini yakunladi.

So'ngi paleolit davrida antropogenez jarayoni tugadi. Homo xabilislar homo sapiyenslar bilan almashdi. Homo sapiyenslarning ilk topilmasi Fransiyaning Kro-Manyon g'oridan topilgan odam qoldiqlariga ko'ra kromanyon odami deb ataladi. Kromanyon odami hozirgi odamdan ongi va tashqi qiyofasiga ko'ra deyarli farq qilmaydi.

XX asrning 80-yillarigacha Markaziy Osiyoda eng qadimgi odamlar taxminan 100 ming yil oldin yashagan deb taxmin qilinardi. Arxeolog O'. Islomov boshchiligida Farg'ona vodiysida ilk paleolit davriga oid Selungur (So'x tumani) g'ori o'rganildi. G'ordan juda ko'p ibtidoiy tosh qurollar topilgan. Tosh qurollarining yoshi 1 mln. yildan ziyodroqdir. Selungur topilmalari orasidan qadimgi odam jag' suyaklari, tishlari va yelka suyaklari eng ahamiyatlisidir. Fanda «Farg'ona odami» – «Fergantrop» deb nomlangan bu qazilmadan topilgan odam qoldiqlari yurtimizda yashagan eng qadimgi odam haqidagi tasavvurlarimizni yanada kengaytirdi. Fergantrop odam qoldiqlarini taxminan pitekanthrop odamning tengdoshi ekanligi to'g'risida xulosa qilishimizga imkon beradi. Bu topilma Markaziy Osiyo, xususan O'zbekistonning insoniyat paydo bo'lib, rivojlangan o'choqlaridan biri ekanligini isbotladi.

Ilk paleolit (Ashel madaniyati) davriga oid odamlar makonlari Ko'lbuloq (Shimoli-sharqiy O'zbekiston, Toshkent viloyati), Qizilolmasoy va Toshsoy (Ohangaron), Tyanshan etaklaridagi Onarcha (Qirg'iziston), Pomir etaklaridagi Qorator (Janubiy Tojikiston)dan topib o'rganilgan. Ulardan juda ko'p tosh qurollar topilgan. Qurollar soddaligi, qo'polligi, turlarining kamligi jihatdan farqlanadi. Odamlar jismoniy va aqliy jihatdan hozirgi qiyofadagi odamlardan ajralib turgan. Ular termachilik va ovchilik bilan shug'ullanganlar hamda tabiat oldida juda ojiz bo'lib, undagi mavjud tayyor mahsulotlarni o'zlashtirib yashaganlar.

O'rta paleolit (Mustye madaniyati) davriga oid makonlar Markaziy Osiyoda ko'plab aniqlangan va o'rganib chiqilgan. Dastlabki yodgorlik Teshiktosh (Surxondaryo) g'ori 1938-yilda A.Okladnikov tomonidan ochilgan. Teshiktosh g'oridan juda ko'p mehnat qurollari va, eng asosiysi, 9 yashar bolaning skelet suyaklari topilgan. Shuningdek bu davrga oid Omonqo'ton (Taxtaqoracha dovoni, Samarqand), Qo'tirbuloq va Zirabuloq

(Zarafshon vodiysi), Qorabura (Vaxsh vohasi), Jarqo'rg'on (Shimoliy Tojikiston), Obirahmat (Toshkent viloyati), Ko'lbuloqning yuqori qatlamlari (Toshkent viloyati), Qizilnur (Qizilqum), Tossor (Qirg'iziston), Og'zikichik (Tojikiston), Xo'jakent (Toshkent viloyati), Qopchig'ay (Qirg'iziston) kabi manzilgohlar o'rganilgan.

Qadimda iqlim o'zgarishi tufayli muzlik davri boshlangan. Odamlar ko'proq g'orlarda joylashganlar. Kichik issiqsevar hayvonlar qirilib ketib, shimol bug'ulari, mamontlar, ulkan ayiqlar paydo bo'lgan. Odamlar ulkan hayvonlarni jamoa bo'lib ov qilishga o'tganlar.

So'nggi paleolit (orinyak, salutre va madlen madaniyatlari) davri. Bu davr Samarqand, Ho'jag'or va Ko'lbuloq madaniyatlariga ajratib o'rganiladi. Samarqand shahrida bu davrga oid o'rganilgan madaniy qatlamdan 25-30 yoshli kromanyon qiyofali ayolga tegishli yelka suyak qismlari, pastki jag' va tishlar topilgan.

Odamlarning hayoti va turmush tarzida katta o'zgarishlar bo'lgan. Odamlar g'orlardan chiqib, yengil turar joylar — chayla va yarim yerto'lalarda yashay boshlaganlar. Ular vohalar bo'ylab tarqalib, tekisliklarda, daryo va ko'llar bo'ylarida joylashganlar hamda qarindosh-urug'chilik jamoalariga bo'linganlar. Jamiyatda juft oilalar paydo bo'lgan. Urug'lar birlashib, urug' jamoasini tashkil etgan. Urug'da ona hukmron (matriarxat) bo'lgan. Xo'jalikda odamlar ovchilik, termachilik va baliqchilik bilan shug'ullanganlar. Olovni sun'iy hosil qilish kashf etilgan. Mehnat qurollari takomillashib, ularning turlari ko'paygan va sifati yaxshilanib borgan. Tabiiy shart-sharoitlar ta'sirida odamlar irq'larga bo'lingan. Odamlar orasida dastlabki diniy qarashlar paydo bo'lgan.

Mezolit (o'rta tosh) asri Markaziy Osiyoda mil. avv. XII-VII ming yilliklarni qamrab olgan. Mezolit davriga oid Machay (Surxondaryo), Obishir (Farg'ona vodiysi), Bo'zsuv, Qo'shilish (Toshkent), Aydabol, Jayronquduq (Ustyurt), Oshxona, Chilchorchashma (Tojikiston), Darai sho'r (Vaxsh vohasi) manzilgohlari o'rganilgan.

Mezolit davrida iqlim barqarorlashib, muzlik chekingan. Hayvonot olami va o'simliklar dunyosi o'zgarib borgan. Yirik hayvonlar o'rmini kichik tuyoqli, tez yuguruvchi hayvonlar egallagan. Issiqsevar yovvoyi boshqoqli o'simlik va daraxtlar ko'payib borgan. Takomillashtirilgan mikrolitlar – mayda qurollar paydo bo'lgan. Dastlabki murakkab moslama – o'q-yoy kashf etilgan. Yovvoyi hayvonlar – it, qo'y, echki kabilar qo'lga o'rgatilib, xonakilashtirilgan. Markaziy Osiyoning ba'zi joylarida termachilikdan yovvoyi o'simliklarni xonakilashtirish hamda ovchilikdan chorvachilikka o'tish boshlandi. Diniy e'tiqod takomillashib borgan. Ko'hitong tog'idagi Zarautsoy qoyasiga (hozirgi Surxondaryo viloyati)

chizilgan suratlar esa tasviriy san'atning vujudga kelganligidan dalolat beradi.

Neolit (yangi tosh asri) davri mil. avv. VI-IV ming yilliklar bilan chegaralanadi. Markaziy Osiyoda bu davrda Joytun, Kaltaminor va Hisor madaniyatlari rivojlangan. Odamlar baliqchilik, ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik va qisman hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Neolit davri turli sharoitlarda yashagan odamlarning mehnat qurollari mezolit davridagiga nisbatan takomillasha borgan.

Joytun mil. avv. VI-V ming yilliklarga oid madaniyatdir. Aholisi dehqonchilik, chorvachilik, qisman ovchilik bilan shug'ullangan. Joytunda Markaziy Osiyodagi dastlabki dehqonchilik madaniyati rivojlangan. Qo'lda ishlangan sopol idishlar mintaqadagi ilk kulolchilik mahsulotidir.

Kaltaminor madaniyati mil. avv. V-IV ming yilliklarga oid yodgorlik. Uning dastlabki makonlari Amudaryoning quyi qismida va Xorazm hududidan topilgan. Keyinchalik Zarafshon etaklaridagi Darvozaqir makoni, Katta va Kichik Tuzkon, Qorong'isho'r, Poykent makonlari, Hisor madaniyati o'rganilgan. Kaltaminorliklar baliqchilik va ovchilik bilan, Darvozaqir va Hisor aholisi esa chorvachilik bilan ham shug'ullanganligi aniqlangan.

Neolit davrida kashf etilgan tosh boltalar ancha keng tarqalgan. Ho'jalikda ishlab chiqarish shakli – dehqonchilik va chorvachilikka o'tilgan. Markaziy Osiyoning janubida dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik shakllari yuzaga kelgan bo'lsa, shimoldagi tabiiy sharoitning noqulayligi tufayli termachilik, ovchilik va baliqchilik saqlanib qolgan.

Mis-tosh (eneolit) davri mil. avv. IV ming yillikning oxiri – III ming yillikning boshlarini o'z ichiga oladi. Bu davrda tarixda birinchi marta mis metall qurollardan foydalanilgan. Mis yumshoq va egiluvchanligi sababli tosh qurollarni to'liq siqib chiqara olmadi. Shuning uchun bu davr mis-tosh asri deb yuritiladi.

Eneolit davrida Janubiy Turkmanistondagi Anov va Namozgohtepa manzilgohlarida uy-joylar xom g'ishtdan qurilgan. Moddiy topilmalar orasida mis qurollar tosh qurollarga nisbatan kam bo'lgan. O'zbekistonda eneolit davriga oid manzilgohlar juda kam o'rganilgan. Yuqori Zarafshonda joylashgan Sarazm manzilgohining eneolit davriga oid qatlamida aholi dehqonchilik bilan shug'ullanganligini ko'rsatadi. Dasht, tog' va tog' oldi hududlarida yashovchi aholi asosan ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullangan. Chorvachilik ilk rivojlanish bosqichida bo'lgan.

Bronza davri mil. avv. III ming yillikdan I ming yillikning boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr ilk, rivojlangan va so'nggi bronza davrlariga bo'linadi.

Xorazmda bronza davriga oid Tozabog'yob madaniyati o'rganilgan. Tozabog'yobliklar orasida dehqonchilik keng tarqalgan. Madaniy qatlamlardan zeb-ziynat buyumlari, hayvon suyaklari, sopol idishlar, tosh va bronzadan ishlangan qurollar topilgan. Xorazmda so'nggi bronza davriga oid manzilgoh Amirobod madaniyati (mil. avv. IX-VIII asrlar) deb nomlangan.

Quyi Zarafshonda bronza davriga oid Zamonbobo madaniyati o'rganilgan. Zamonboboliklar chaylasimon kulbalarda istiqomat qilib, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Shuningdek, hunarmandchilikning kulolchilik, bronzani eritib undan har xil ashyolar yasash, ayniqsa toshni ishlash texnikasi ancha rivojlangan.

O'zbekistonning janubidagi bronza davri yodgorliklariga Sopolli madaniyati (mil. avv. II ming yillikning boshi va o'rtalari) degan nom berilgan. Sopolitepa O'zbekistonning eng qadimgi dehqonchilik manzilgohi hisoblanadi. Unda binolar paxsa va xom g'ishtdan qurilgan. Kulolchilik mahsulotlari charxda tayyorlangan. Paxta va tabiiy ipakdan to'qilgan buyumlar qoldiqlari mavjud. Sopolli madaniyati O'zbekistonda bronza davrida shaharlarning vujudga kelishi uchun shart-sharoitlar yetilganligini ko'rsatdi.

Miloddan avvalgi II minginchi yillar oxiriga oid Farg'ona vodiysidan topib o'rganilgan yodgorliklar Chust madaniyati nomi bilan ma'lum. Chustliklar sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik, to'qimachilik, ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullangan. Ushbu madaniyat Farg'ona vodiysida qadimgi dehqonchilik madaniyati shakllanganligini ko'rsatdi.

Mil. avv. I minginchi yillik boshlarida mamlakatimizda temirdan foydalanishga o'tilgan. Ilk temir qurollar mil. avv. IX-VIII asrlarga oid bo'lib, uning mintaqada keng tarqalishi mil. avv. VII-VI asrlarga to'g'ri kelgan. Temir qurollar mehnat unumdorligini keskin oshirgan. Bu davrda hunarmandchilik yuksalgan, kulolchilik charxi, naqsh bilan bezatilgan sopol buyumlar keng tarqalgan. Temirchilik bosqoni, qo'l tegirmoni kashf etilgan, metallga ishlov berish rivojlangan.

Mil. avv. II ming yillikka kelib, Markaziy Osiyoning dasht hududlariga chorvador qabilalar o'rnasha boshlagan. Ular istiqomat qilgan makonlardan topilgan moddiy manbalar Andronov madaniyatiga mos keladi. Bronza davridan boshlab Markaziy Osiyoda etnik jarayonlar boshlangan.

Qadimgi dehqonchilik o'lka bo'ylab yoyilgan. Mil. avv. II ming yillikda chorvachilik dehqonchilikdan ajralib chiqqan. Dasht va tog' oldi hududlarida yashagan aholi asosan chorvachilik bilan shug'ullangan. Birinchi mehnat taqsimoti yuz berib, dehqonchilikdan chorvachilik ajralib

chiqqan. Shu bois mintaqada ikki madaniyat shakllana boshlagan. Birinchisi – dehqonchilik uchun qulay mintaqada joylashgan qabilalar dehqonchilik madaniyatini yaratgan bo‘lsalar, ikkinchisi – dasht va tog‘ oldi yaylovlarda chorvachilik madaniyati vujudga kelgan.

Bronza davrida urug‘chilik tuzumi saqlanib qolgan, lekin ona urug‘i o‘z mavqeyini yo‘qotgan. Xo‘jalikda erkaklarning mavqeyi mustahkamlanishi sababli ona urug‘i o‘rnini ota urug‘i (patriarxat) tuzumi egallagan.

Markaziy Osiyo hududida yozuvning paydo bo‘lishi xronologiyasida keyingi tadqiqotlar natijasida ma‘lumotlar o‘zgargan. Ilgari ilk yozuv mil. avv. V-IV asrlarda paydo bo‘lgan deb hisoblanardi. 2000-yilda Janubiy Turkmanistondagi Gonurtepa manzilgohida mil. avv. III ming yillikka oid mixxat yozuvida tayyorlangan sopol muhr topildi. Mesopotamiyadagi Sargon muhrlarini (mil. avv. 2250-2200 yy.) eslatuvchi Gonurtepa muhri mahalliy xomashyodan tayyorlangan. Mixxat yozuvi bilan birga Jarqo‘ton yodgorligidan sopolga bitilgan 47 ta belgidan iborat piktografik yozuv topilgan. Ushbu ma‘lumotlarga tayanib, O‘zbekistonda ilk yozuv bronza davrida vujudga kelgan deb xulosa chiqarish mumkin.

Bronza davrida sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik Markaziy Osiyo xo‘jaligining asosini tashkil etgan. Bu jarayon janubiy Turkmaniston, Tojikiston va O‘zbekistonning janubida bronza davrida, Toshkent vohasi, Farg‘ona vodiysi hududlarida esa ilk temir davrida shakllanib rivojlangan. Dehqonchilik rivojlanishi natijasida qo‘shimcha mahsulot va xususiy mulk shakllari paydo bo‘lgan. Ilk davlat uyushmalari sun‘iy sug‘orish birmuncha qulay bo‘lgan Amudaryo (yuqori, o‘rta, quyi) oqimlari bo‘ylarida, Murg‘ob vohasida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida shakllanib rivojlangan.

Jamiyat hayotida metallning keng yoyilishi ham dastlabki davlatchilikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Markaziy Osiyoning bronza va ilk temir davriga oid yodgorliklaridan (Sopolli, Jarqo‘ton, Qiziltepa, Anov, Ko‘zaliqir, Afrosiyob, Daratepa, Chust, Dalvarzin va boshq.) metall qurollar topilib o‘rganilgan.

So‘nggi bronza davrida Sopolli, Oltintepa, Gonur, Jarqo‘ton, Afrosiyob kabilarda kulolchilik mahallalari paydo bo‘lgan. Toshga, metallga, yog‘ochga, suyakka ishlov berish keng tarqalgan. Hunarmandchilikning ixtisoslashuvi ortiqcha mahsulot ko‘payib borganidan dalolatdir.

O‘zaro ayirboshlash, savdo-sotiq va madaniy aloqalar davlatchilik shakllanishiga ijobiy ta‘sir etgan. Bronza davrida ko‘chmanchi chorvadorlar va o‘troq dehqonlar o‘rtasida mol ayirboshlash va madaniy aloqalar yanada jadallashgan. Mintaqa ichidagi aloqalar bilan davlatlararo aloqalar ham rivojlangan. Miloddan avvalgi III ming yillikdayoq Eron, Hindiston, Mesopotamiya va Misr bilan iqtisodiy va madaniy aloqalar o‘rnatilgan.

2-§. O‘zbekistonda davlatchilik shakllanishining xususiyatlari (shahar-davlatlar) va ilk davlat birlashmalari

Mil. avv. III–II ming yilliklarga kelib Markaziy Osiyoning iqtisodiy taraqqiyoti ilk shaharlar paydo bo‘lishiga imkon yaratdi. Ilk shaharlar dastlabki davlatchilik shakllanishida asosiy omillardan biri bo‘lib, bu ikkala jarayon uzviy holda kechgan. Mil. avv. II asr o‘rtalarida kichik shahar-davlatlar shakllangan.

O‘zbekistonning turli hududlaridagi qadimgi shaharlar xarobalari o‘rganib chiqilgan. Tadqiqotlar shaharlardagi arxeologik topilmalardan ayrimlarining yoshi 2700-3000 yildan kam emasligini ko‘rsatdi. Afrosiyob, Ko‘ktepa (Samarqand), Qiziltepa (Surxon vohasi), Uzunqir, Yerqo‘rg‘on (Qashqadaryo vohasi) va boshqalar shular jumlasiga kiradi. O‘zbekistonda dastlabki shaharlar Shimoliy Baqtriyada (Surxon vohasi) yuzaga kela boshladi, keyin So‘g‘diyona (Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro vohasi), Xorazm va Farg‘ona hududlariga tarqalgan. Shaharlar sug‘orma dehqonchilik rivojlangan vohalarda, qadimgi savdo yo‘llari bo‘ylarida, hukmdorlar qarorgohlari atroflarida paydo bo‘lgan. Ular vujudga kelgan davrdan boshlab siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diniy va harbiy markaz vazifasini bajara boshlagan.

Qadimgi shahar-davlatlar va davlat uyushmalari tuzilganligi to‘g‘risida arxeologik ma‘lumotlar bilan birga qadimgi yozma manbalar, shu jumladan, «Avesto» (qat‘iy qonunlar ma‘nosini anglatadi) to‘plami qimmatli ma‘lumotlar beradi. «Avesto» miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida yuzaga kelgan zardushtiylik dinining muqaddas to‘plamidir. Unda ahmoniylargacha bo‘lgan geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, diniy va boshqa ma‘lumotlar joy olgan.

Avestoda jamiyatda ijtimoiy guruhlar: kohinlar (atravanlar), harbiylar (rataistralar), dehqon-chorvadorlar (vastyra-fshuyant), hunarmandlar (xutlar) tabaqalari to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan. Kohinlar va harbiylar hukmron tabaqalar bo‘lib, hokimiyatni boshqarganlar. Ayniqsa, kohinlarning mavqeyi baland bo‘lgan. Oila, qishloq, tuman, shahar va viloyatlar unvonli diniy yo‘lboshchilar tomonidan boshqarilgan.

Podsho va uning a‘yonlari kelib chiqqan harbiylar tabaqasining mavqeyi ham baland bo‘lgan. Asosiy ishlab chiqaruvchilar dehqonlar, chorvadorlar va hunarmandlar bo‘lgan. Avestoda qullarning mavjudligi bayon etilgan. Ular jamiyat hayotida katta rol o‘ynamagan.

Avestoda qayd etilishicha, jamiyat quyidagi to‘rtta ma‘muriy hududiy birlikka bo‘linadi: oilaga tegishli bo‘lgan turar joylar (nmana); qishloqlar (vis); tumanlar (zantu); viloyat – o‘lka (daxyu). Ushbu birliklarning har biri o‘z yo‘lboshchisiga ega bo‘lgan. Oila boshlig‘i – nmanopati, qishloq

boshlig'i – vispati, tuman oqsoqoli-zantupati, viloyat boshlig'i – daxyupati deb yuritilgan. Viloyatlar ustidan hukmronlik qiluvchi mansabdor shaxs «daxyusasti» bo'lgan. Bunday uyushmaning hukmdori «butun daxyular daxyupatisi» deb atalgan. Shuningdek, «kavi», «sastar» va «xatra» kabi boshqaruv bilan bog'liq unvonlar ham bo'lgan. «Kavi» (forschada «kay») unvoni katta o'lkalar podsholari, ba'zan kichik mulklar hukmdorlariga ham berilgan. Qal'alar, tumanlar va viloyatlar hukmdorlariga «Sastar» unvoni berilgan. Podsho (daxyupati) bir vaqtning o'zida bosh harbiy va bosh qozi (sudyu) hisoblangan. Podsho o'zining harbiy qo'shiniga ega bo'lgan.

O'zbekistonning qadimgi tarixini o'rganishda “Avesto” bilan birga boshqa yozma manbalar, Qadimgi Eron bitiklaridan, Yunon-rim tarixchilaridan Gerodot, Ktesiy, Arrian, Kursiy Ruf, Strabon va boshqalarning asarlaridan, o'lkamizda arxeologik tadqiqotlar olib borgan tadqiqotchilarning asarlaridan qimmatli ma'lumotlar olish mumkin.

Markaziy Osiyoda mil. avv. VI asrning o'rtalariga kelib xalqlarning shakllanishi jarayoni tugagan, ularning hududiy joylashuv chegaralari, viloyatlarning ma'muriy chegaralari paydo bo'lgan. Mil. avv. VII-VI asrlarda O'zbekistonning dehqonchilik vohalarida so'g'diyalar, baqtriyaliklar va xorazmiylar, tog', dasht va cho'llarda saklar va massagetlarning chorvador qabilalari yashagan. Ular turkiy va eroniy tillarda so'zlashganlar.

Davlatlarning yuzaga kelishi murakkab jarayon bo'lib, turli xalqlarda o'ziga xos xususiyatlarni yuzaga keltiradi. Davlatlar yuzaga kelishining «Sharq yo'li» va «Yevropacha yo'li» mavjud. Osiyocho ishlab chiqarish usuliga asoslangan «Sharq yo'li»da yerga xususiy mulkchilik bo'lmagan; iqtisodiyotning asosini sun'iy sug'orma dehqonchilik tashkil etgan; sun'iy sug'orish (irrigatsiya) inshootlarini jamoalar kuzatib turgan; dehqonchilik jamoasi jamiyatning birlamchi bo'g'inini tashkil etgan; yer va irrigatsiya inshootlari davlat mulki bo'lgan; boshqaruvchilar tabaqasi yuzaga kelgan. Osiyocho ishlab chiqarish usuli Misr, Bobil, Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo kabi hududlarda yoyilgan.

Davlat yuzaga kelishining «Yevropacha yo'li»da xususiy mulkchilik shakllanishi tufayli kelib chiqqan jamiyatning ijtimoiy mulkiy tabaqalanish (tabaqalar shakllanish) jarayoni asosiy omil bo'lgan.

Markaziy Osiyoda davlatchilikning yuzaga kelishi jarayoni janubdan shimolga qarab kengayib borgan. O'zbekistonning janubiy qismida ilk davlatchilikka o'tish davri miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalari va ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. IX-VIII asrlar davlat tashkilotlarining rivojlanishi jarayoni mintaqaning katta qismiga yoyilgan. Mil. avv. VII-VI asrlarda Qadimgi Baqtriya, Xorazm va So'g'diyonada davlat uyushmalari yuzaga kelgan.

«Katta Xorazm» (Avesto tilida – Xvarizam, qadimgi fors tilida – Xvarazmish, qadimgi yunon tilida – Xorasmiya) davlatiga oid tarixiy ma'lumotlar juda kam. Xorazmdagi yirik sug'orish inshootlari, mustahkam mudofaa inshootlarining qurilishi (Ko'zaliqir, Ding'alja) mil. avv. VI-V asrlarga to'g'ri keladi. Qadimgi Xorazmning hududi to'g'risida aniq ma'lumotlar yo'q. Xorazmning chegaralari taxminan o'rta Amudaryodan Orol dengizigacha bo'lgan hududlarni qamrab olgan. Unda ishlab chiqarishning qurilish va hunarmandchilik turlari rivojlangan. O'sha davrga oid bronza va temir qurollar, sopol urchuqlar, igna, bigiz va sopol idishlar juda ko'p topilgan. Ularga ishlov berish uslubi jihatidan Marg'iyona, Baqtriya va So'g'diyona topilmalariga o'xshab ketadi.

Qadimgi Baqtriya davlat uyushmasiga Surxon vodiysi, Afg'onistonning shimoli-sharqi, Tojikistonning janubiy qismi, shuningdek Marg'iyona va So'g'diyona ham kirgan deb taxmin qilinadi. Mil. avv. VIII-VII asrlarda Qadimgi Baqtriya davlati yuksalgan. Davlatning poytaxti Baqtra shahri bo'lgan. Mamlakat rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy tizimga ega bo'lgan. Tashqi siyosatda Yaqin Sharq va Old Osiyo mamlakatlari bilan aloqalar o'rnatgan.

So'g'diyona o'lkasi Zarafshon va Qashqadaryo vohalarini o'z ichiga olgan. VIII-VII asrlarga oid Sangirtepa, Yangitepa, Chiroqchitepa, Yerqo'rg'on manzilgohlari o'rganib chiqilgan. Olingan ma'lumotlar bu o'lka aholisi asosan o'troq dehqonchilik bilan shug'ullanganidan dalolat beradi.

Mil. avv. VII-VI asrlarda Qadimgi Baqtriya, Xorazm va So'g'diyona davlatlarining aholisi turkiy va forsiy tilda so'zlashgan. Ularning madaniy an'analari ham bir-biriga juda yaqin bo'lgan. Bunday o'xshashlik turar joylar qurilishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Asosan savdo yo'llari bo'ylab tayanch istehqomlar qurish odat tusiga kirgan. Uy-joylar va jamoat binolari qurilishida inshootlarning mudofaa xususiyatiga katta e'tibor berilgan.

Shunday qilib, Xorazm va Baqtriya davlatlaridagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarni o'rganar ekanmiz, diyorimizda miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida shahar-davlatlar asta-sekin davlat uyushmalariga birlashdi. Davlat uyushmalari ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti jihatidan qadimgi sharq sivilizatsiyalarining boshqa markazlariga o'xshash bo'lgan.

3-§. Markaziy Osiyo xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi ozodlik kurashi

Mintaqadagi rivojlangan ishlab chiqarish, davlatchilikning mavjudligi va madaniy hayotda erishilgan yutuqlar qudratli qo'shni davlatlarda katta qiziqish uyg'otgan. Mil. avv. VI asr o'rtalarida Ahamoniylar davlati

Markaziy Osiyoni bosib olish uchun yurish boshlagan. Bu davlat qulay xalqaro shart-sharoit, mo'tadil boshqaruv, ahamoniy hukmdorlarining iqtidori va shaxsiy jasorati kabi shart-sharoitlar ta'sirida qisqa vaqt davomida saltanat darajasiga ko'tarilgan. Uning tarkibiga Hind daryosidan Egey va O'rta dengizgacha bo'lgan Osiyo mamlakatlari, Misr, Liviya (Shimoliy Afrika) va Bolqon yarim orolining bir qismidagi hududlar kirgan. Markaziy Osiyodagi ahamoniylarning bosqinchilik yurishlariga dastlab Kir II qo'mondonlik qilgan. Ahomaniylarning bosqinchilik yurishlarini ikki bosqichga bo'lib o'rganamiz. Birinchi bosqich miloddan avvalgi 545-539-yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda ahamoniylar Parfiya, Marg'iyona va Baqtriyani egallagan. Ikkinchi bosqich 539-530-yillarni o'z ichiga oladi. Bunda Kir II massaget ko'chmanchi qabilalarini bo'ysundirish uchun urushlar olib borgan. Malika To'maris rahbarligidagi massagetlar ahamoniylarni tor-mor keltirgan. Kir II ning o'zi ham janglardan birida halok bo'lgan.

519-518-yillarda Saklar o'lkasiga Doru I qo'mondonligidagi harbiy yurishlar ham qattiq qarshilikka duch kelgan. Saklarga Skunxa qo'mondonlik qilgan. Saklar ahamoniylarga qarshi urushda partizanlar urushi taktikasini qo'llaganlar. Qahramon Shiroq ahamoniylar qo'shinini cho'lu biyobonlarda adashtirib, ularga katta talafot yetkazgan. Mintaqada forslar hukmronligi o'rnatilganidan keyin ham ozodlik urushi to'xtamagan.

Saltanat tarkibiga kiritilgan yerlarda Ahomoniylar boshqaruvi o'rnatilgan. Ahomoniylar davlatiga shahanshoh (shohlar shohi) rahbarlik qilgan. Shahanshoh hokimiyati fors zodagonlariga, katta imtiyozlarga ega bo'lgan ozod fors jamoalariga, shuningdek bosib olingan viloyatlarning mahalliy zodagonlariga tayangan. Hukmdor saroyida Kengash tashkil etilgan. Shahanshoh davlat ahamiyatiga molik qaror qabul qilishda Kengash bilan maslahatlashgan. Davlatning poytaxti Suza shahri bo'lgan. Ma'muriy-hududiy tuzilishi jihatidan saltanat 20 ta satraplikka bo'lingan. Satrapliklar bir necha viloyat va o'lkalardan tashkil topgan. Satraplar lavozimiga forslar tayinlangan. Satrap o'zi noiblik qilgan hududda bosh qozi vazifasini ham bajargan.

Davlat hududi to'rtta harbiy okrugga bo'lingan. Har bir okrug harbiy boshlig'i markazdan tayinlanib, bevosita shahanshohga bo'ysungan. Bosib olingan hududlar va chegara rayonlarda harbiy gornizonlar joylashtirilgan.

Mil. avv. VI-IV asrlarda Markaziy Osiyoda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot rivojlangan. Aholi asosan sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan. Hunarmandchilik ham yuqori darajada taraqqiy etgan. 1877-yilda Kobadiyon bekligi (Tojikiston) hududida «Amudaryo hazinasi» nomi bilan mashhur bo'lgan xazina topilgan. Xazinadagi qimmatbaho metallardan

ishlangan buyumlar mahalliy ustalar tomonidan yasalgan bo'lib, mil. avv. V-IV asrlarga oiddir.

So'g'diyona juda ko'p shahar va qishloqlari bo'lgan o'lka edi. Shahar atroflarida aholi dehqonchilik bilan shug'ullangan. Zarafshon daryosi vohadagi eng katta suv manbai bo'lib, sug'oriladigan yerlarga kanallar orqali suv chiqarilgan. Dehqonchilik bilan birga hunarmandchilik va savdo-sotiq ham rivojlangan.

VI-IV asrlarda Xorazmda shahar aholisi asosan hunarmandchilik bilan shug'ullangan. O'troq aholi bilan yonma-yon ko'chmanchi chorvadorlar yashagan. Ular o'rtasida iqtisodiy va madaniy hamkorlik bilan birga doimiy to'qnashuvlar bo'lib turgan.

Ahamoniylar davlati madaniyati, tili, urf-odati va an'analari jihatidan keskin farq qilgan elatlardan tashkil topgan edi. Shu bois, bu elat ular mustaqillikni qo'lga kiritish uchun kurash olib borgan. IV asrda saltanatning zaiflashganidan foydalangan Xorazm mustaqillikni qo'lga kiritgan.

Mil. avv. IV asrning o'rtalarida Bolqon yarim orolidagi Makedoniya davlati kuchayadi. Yunon shahar-davlatlarini bo'sundirgan Makedoniya qo'shini podsho Aleksandr (Sharqda Iskandar) boshchiligida mil. avv. 334-yilning bahorida Ahomoniylar davlatiga bostirib kiradi. Mil. avv. 334-yil may (Granik daryosi yonida), 333-yil noyabr (Issa shahri, Suriya chegarasida), 331-yil oktabr oylarida (Gavgamela, Shimoli-sharqiy Mesopotamiyada) bo'lib o'tgan hal qiluvchi janglarda fors qo'shinlari batamom mag'lubiyatga uchragan.

Mil. avv. 329-yilning bahorida Makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari Oks (Amudaryo)ni kechib o'tib, Markaziy Osiyoga yurishini davom ettirgan. Navtaka viloyati (Sharqiy Qashqadaryo), Marokanda (Samarqand) qisqa vaqt davomida bosib olingan. Lekin mahalliy so'g'diy aholi dushmanga qarshi urushga chiqqan. Aleksandr Ustrushona (Samarqand va Jizzax oralig'ida) tog'li hududi aholisini qiyinchilik bilan yenggan. Lekin Yaksart (Sirdaryo) daryosining o'ng qirg'og'ida jangovar saklar qo'shiniga duch kelgan. Baqtriya va So'g'diyona hududlarida ham Aleksandrga qarshi qo'zg'olonlar boshlanib ketgan.

So'g'diyonada mil. avv. 329-yilning kuzida Spitamen boshchiligidagi qo'zg'olonni (Maroqandada) bostirish uchun Aleksandr qo'shinlarni jo'natgan. Makedoniyalik Aleksandrning asosiy kuchlar bilan saklarga qarshi yurishi muvaffaqiyatsiz tugagan. Farnux qo'mondonligida Maroqandaga jo'natilgan qo'shinlar ham Spitamen boshchiligidagi vatanparvaar kuchlardan yengiladi. So'g'diyonaning deyarli barcha aholisi Spitamenni qo'llagan. Mil. avv. 328-yilning bahoridan bosqinchilarga qarshi kurash davom ettirilgan. Aleksandr 30 ming kishilik qo'shin bilan So'g'diyonadagi

qo'zg'olonlarga qarshi urushni davom ettirgan. Bu urushlarda juda ko'p mahalliy aholi qirilib ketgan. 328-yil oxirida Spitamen o'ldiriladi. Spitamen halok bo'lganidan so'ng asosan tog' qal'alari qo'zg'olon o'choqlariga aylangan. Aleksandr umumxalq qo'zg'olonini bostirish uchun mahalliy aholiga nisbatan siyosatini tubdan o'zgartirgan. Zardo'shtiy kohinlarga erkinliklar berib, o'zi ham bu dinni qabul qilgan. Qo'zg'olon boshliqlari Oksiart, Sisimitr, Xoriyen kabilar afv etilgan. Mahalliy hukmdorlar bilan qarindoshlik munosabatlari o'rnatilgan. Aleksandr Oksiartning qizi go'zal Roksanaga (Rohshanakka) uylangan. Bunday o'zgarishlar natijasida mahalliy zodagonlar Iskandar hokimiyatini tan olib, uning xizmatiga o'ta boshlaganlar. Mil. avv. 327-yil oxirida So'g'diyonadagi qo'zg'olonlar bostirilgan.

Mil.avv. 323-yilda makedoniyalik Aleksandr Bobilda to'satdan vafot etganidan keyin uning diadoxlari (hukmdorlar, amaldorlar) o'rtasida hokimiyat uchun kurash boshlanadi. Mil.avv. 312-yilda Aleksandrning sarkardalaridan biri Salavka kurashda ustun kelib, Bobil, Suziana, Midiya, Old Osiyo, Eron va Markaziy Osiyo hududlarida o'z hukmronligini o'rnatdi. Salavka mil. avv. 293-yilda o'g'li Antiox I ni Sharqiy satraplarga hokim etib tayinlaydi.

Salavkiylar davrida Baqtriya, Marg'iyona, So'g'diyona va Parfiya hududlarida shaharlar yuksaldi. Marokanda, Baqtra, Niso kabi ko'plab qadimgi shahar xarobalaridagi topilmalar bu hududlarda hunarmandchilik, savdo-sotiq va xo'jalik ishlari rivojlanganligidan dalolat beradi.

Mil. avv. III asrning 60-50-yillariga kelib salavkiylar davlatida hokimiyat uchun kurash keskinlashdi. Mil. avv. 250-yilga kelib dastlab Parfiya, keyin esa Yunon-Baqtriya salavkiylar davlatidan ajralib chiqib o'zlarini mustaqil deb e'lon qildilar.

Parfiya haqidagi dastlabki ma'lumotlar mil. avv. VII asrga oid Ossuriya hujjatlarida uchraydi. Mil. avv. VI asrning boshlarida Parfiya kuchli Midiya hukmronligi ostiga tushib qoladi. Mil. avv. 247-yilda Parfiyada Arshak boshchiligidagi parmlar qabilasi hokimiyatni egallaydi. Parfiya davlatining kuchayishi Mitridat I hukmronligi bilan bog'liqdir. Mitridat I dastlab Ekbatanni, keyin esa Hindistonni bosib oldi. Mil.avv. 141-yilda Bobil bo'ysundirildi. Shu tariqa Parfiya qudratli davlatga aylandi. Mitradat II davrida Rimning kuchli raqibiga aylanadi. Milodning III asriga qadar Parfiya davlatiga Arshakiylar sulolasi hukmronlik qilgan. Milodning 207-222-yillarida Vologez V hukmronligi davrida Parfiya davlati ikkiga bo'linib ketgan (213-y.). Shu davrda Fors yerlarida vujudga kelgan sasoniylar davlati Parfiya saltanatini ag'darib tashlagan.

Yunon-Baqtriya davlatiga Diodot asos solgan. Uning gullab-yashnagan davri mil. avv. III asrning ikkinchi yarmi va mil. avv. II asrning

birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Mil. avv. 250-140-130-yillarda Yunon-Baqtriya davlatiga Diodot, Yevtidem, Yevkratid, Geliokl kabi podsholar hokimiyatni boshqarganlar. Mil. avv. II asrning ikkinchi yarmiga kelib ko'chmanchilar zarbalari ostida Yunon-Baqtriya davlati barham topdi.

Mil.avv. III asrning boshlarida Salavkiylar davlati tarkibidan **Qang'** davlati ajralib chiqadi. Davlatning asosini Sirdaryoning o'rta oqimida yashovchi qang'lar tashkil etgan. Qang' davlati hududi kengayib boradi. Mil. avv. II asrning boshlariga kelib sharqda Farg'ona vodiysi (Dovon), shimoli-sharqda usun, yuyechji qabilalari, shimoli-g'arbda Sarisu daryosi, g'arbda, Sirdaryogacha borgan. Toshkent vohasi, Talas vodiysi va qisman Chu vodiysining quyi oqimidagi yerlar uning markazi hisoblanar edi. Mil.avv.II-I asrlarda Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlar va Xorazm bo'ysundiriladi. Davlat podsho tomonidan idora etilgan. Podsho o'z oqsoqollari bilan maslahatlashib ish tutgan. Podsho saroyi qoshidagi kengashda davlat siyosati bilan bog'liq muhim masalalar maslahat orqali hal qilingan.

Qang'ar madaniyati Toshkent vohasidagi Qovunchitepadan topib o'rganilgan. Qovunchi madaniyati Toshkent vohasi, Sirdaryo o'rta oqimi, Yettisuv va Shimoliy Farg'onada keng tarqalgan. Milodiy V asr o'rtalariga kelib qang'arlar yeridagi aholi Eftalitlar davlati tarkibiga kiritildi.

Mil. avv. III-II asrlarda **Dovon** (Da-yun, Farg'ona) davlati tashkil topdi. Davlatni podsho boshqargan. Davlat boshqaruvida u oqsoqollar kengashiga tayanib ish ko'rgan. Oqsoqollar mamlakatning ichki va tashqi siyosati bilan bog'liq muhim masalalarni hal etganlar. Mamlakatning poytaxti Ershi shahari edi. Dovon davlatida dehqonchilik madaniyati yuqori darajada rivojlangan. Mashhur zotdor otlarni yetishtirish bilan o'troq aholi shug'ullangan.

III bob

O'ZBEK XALQINING ETNIK SHAKLLANISHI

1-§. O'zbek xalqining shakllanishini o'rganishning tarixiy, ma'naviy, siyosiy ahamiyati

Xalqimizning yashab turgan yurti, ona tili, madaniyati tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi doimo kuchli bo'lgan. Bu – tabiiy xol. Odamzod borki avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'z tug'ilib o'sgan qishloq shahar, xullas, Vatanining tarixini bilishni istaydi. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «har qaysi inson men shu millat farzandi ekanman, mening ajdodlarim kimlar bo'lgan, millatimning ibtidosi qayda, uning oyoqqa turish, tiklanish, shakllanish jarayoni qanday kechgan, degan savollarni o'ziga berishi tabiiydir... Tarixiy ildizini izlagan odam, albatta, bir kun mana shunday savollarga duch keladi va aminmanki, to'g'ri xulosalar chiqaradi»¹.

Bugungi kunda o'zbek xalqining jahon xalqlari orasida tenglar ichida teng bo'lib yashashi kabi azliy orzularini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratildi, o'zbek xalqining izzatini joyiga qo'yish davlat siyosatining ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Ko'zda tutilgan ushbu maqsad, *birinchidan*, o'zbek xalqining qachon kelib chiqqanligi, qaysi elat va qabilalardan shakllanganligini aniqlash; *ikkinchidan*, tarixiy adolatni tiklash; *uchinchidan*, shu asosda tinglovchilarning milliy ongini shakllantirish orqali ularni O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash uchun kuch-quvvati va aql-zakovatini ayamaydigan Vataniga sadoqatli etib tarbiyalash davr talabidir.

O'zbek xalqining kelib chiqish tarixini o'rganishning dolzarb ahamiyatga ega ekanligi quyidagilar bilan belgilanadi:

– o'zbeklar jahon sivilizatsiyasining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan xalqlar qatoriga kiradi. Ko'p mamlakatlarda o'zbeklar diasporasi ularning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynaydi. Masalan, Afg'onistonda 3 mln., Tojikistonda 1,2 mln., Qirg'izistonda 550 ming, Qozog'istonda 330 ming, Tukmanistonda 320 mingdan ortiq, Saudiya Arabistonida 400-700 ming atrofida o'zbeklar istiqomat qiladi.

¹ Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан курамиз. Т. 7. – Т., 1998. – Б. 136–137.

– o'zbeklar yurtimiz aholisining deyarli 80 foizini tashkil qiladi. Shuning uchun respublikamizning kelajagi, ravnaqi ko'proq shu xalq bilan bog'liqdir;

– millatning o'zligini anglashi uning tarixini chuqur o'rganishdan boshlanadi. O'zligini anglagan millat tarixiy tajribadan saboq oladi, qanday jamiyatda yashayotganini tushunib yetadi, ijtimoiy hayotni ijobiy tomonga o'zgartirishga harakat qiladi;

– o'zbeklar umuminsoniy qadriyat bo'lgan O'zbekistonda ko'p millatli xalqlar bir oila bo'lib, tinch-totuv yashamoqda. Bu esa, respublikada istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillarining g'urur bilan «men O'zbekistonlikman» deyishiga shart-sharoitni yuzaga keltiradi;

– o'zbeklarning shakllanishini ilmiy asosda o'rganish o'zbek millatining tarixini soxtalashtirishga, turli g'ayriilmiy g'oyalarni ilgari surishga qaratilgan harakatlarga yo'l bermaydi.

2-§. Kishilar birligining tarixiy shakllari (qabila, elat, xalq) va millat tushunchalarining mazmuni

Qadimdan qon-qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan, bir tomirga borib taqaladigan, turmush tarzi, yashash sharoiti bir xil bir necha oilalar birikuvidan *urug'lar* hosil bo'lgan. Urug' jamoasining o'z yetakchisi – oqsoqoli bo'lgan. Urug' jamoasi ov qilish, termachilik, oziq-ovqatni taqsimlash, jamoani boshqarishga mas'ul bo'lgan. Bugungi kunda an'anaviy jamiyatlarda saqlanib qolgan urug'lar ibtidoiy davrdagi tushunchani aks ettirmaydi, faqat kishilarning qaysi uruqqa mansubligini bildiradi, xolos.

Qabila (arab. urug', urug'-aymoq, bir ota-onadan tarqalgan bir necha urug' uyushmasi) bir necha urug'larning birlashuvi natijasida tashkil topgan. Qabilaning o'ziga xos tili, hududi qabila a'zolarining o'zaro hamkorligi, qabila nomi, o'ziga xos an'analari bo'ladi.

Eron manbalarida Markaziy Osiyoda sak qabilalarining ba'zi uyushmalari tilga olinadi. Masalan, Saka Xaumavaraka – Murg'ob vodiysi, Amudaryoning yuqori oqimida, Oloy, Farg'ona vodiysida, Saka Tigraxauda Amudaryoning quyi oqimidan Orol dengizining shimoligacha keng hududlarda yashaganlar. Qadimgi yunon tarixchilarining ma'lumotlariga qaraganda Markaziy Osiyoda ikkita yirik qabila – massaget va saklar istiqomat qilgan.

Turmush sharoitini yaxshilash, tashqi dushmanlar va tabiiy ofatlardan himoyalash uchun qabilalar o'zaro aloqa o'rnatishga majbur bo'lgan. Natijada ular qo'shilib, birlashib ketgan. Ularning yetakchisi, guruhning

nomi bilan yangi etnik birlik – elat yoxud xalq shakllangan. Xalq hududiy, iqtisodiy, til va madaniy umumiylik asosida tarkib topadi. Tarixdan ma'lumki, aksariyat hollarda hududimizda istiqomat qilgan xalqlar yashagan joy nomlari, ya'ni baqarlar, xorazmiylar, so'g'dlar, davanlar deb atalgan.

«Millat» tushunchasi bir etnos (xalq)ga tegishli bo'lmay, kengroq ma'noga ega. Millat til, ma'naviyat milliy o'zlikni anglash, ruhiyat, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi ijtimoiy aloqalar bilan bog'langan, mustaqil subyekt sifatida o'ziga xos moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning etnik birligi. Millat muayyan hududda barqaror yashab, tarixiy taraqqiyot davomida rivojlanib kishilarning ma'naviy-ruhiy salohiyati yagonaligi asosida shakllanadi.

Akademik A. Asqarovning fikricha, o'zbek xalqining millat sifatida shakllanishi XIX asr oxiri XX asr boshlaridan boshlandi. Bu davrda xalq o'z nomi bilan atalgan davlatda, uning tili davlat maqomiga ega bo'ldi. Davlat mustaqilligi dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etiladi. Iqtisodiy-siyosiy, ma'naviy va boshqa tizimlar yaratildi. Bugun O'zbekistonda istiqomat qiladigan barcha aholiga «o'zbek millati» iborasini ishlatib bo'lmaydi, chunki bugun respublikada turli millat va elat vakillaridan tashkil topgan yagona ijtimoiy birlik shakllanmoqda. Uning nomi «o'zbekistonlik» deb ataladi.

3-§. Miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalaridan milodiy VIII asrgacha bo'lgan davrda Markaziy Osiyoda yuz bergan siyosiy va etnik jarayonlar

O'zbek xalqining shakllanish jarayoni tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi bronza davridan boshlangan¹. O'zbekiston hududida qadimdan yashab kelgan sug'diylar, baktriylar, xorazmiylar, farg'onaliklar, qang'lilar va ko'chmanchi sak – massaget etnik birliklari o'zbek xalqining asosini tashkil etgan. Ularga uzoq davr mobaynida janubi-g'arb tomondan mintaqamizga kirib kelgan forsiy va shimoli-sharq tomondan kirib kelgan turkiy qabilalar assimillatsiyalashgan. Shu o'rinda qayd etish lozimki, xorazmiylar, baktriylar va sug'diylar faqat forsiy tillar lahjasida so'zlashmagan, balki turkiy va forsiy laxjalarda so'zlashuvchi qabilalar aralashib yashagan.

Eramizdan avvalgi 250- yilga kelib, 300 yil ahamoniylar, undan keyin yunonlar mustamlakasiga qarshi davom etgan to'xtovsiz kurash natijasida

¹ Qarang: *Asqarov A. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи.* – Т., 2007. – Б. 240.

hududimizda Yunon-Baqtriya mustaqil davlati vujudga keldi. Lekin uzoq davom etgan mustamlaka davri elatlarning turmush tarzi, madaniyati, ma'naviy, diniy e'tiqodlariga ta'sir qilmay qolmas edi. Jumladan, xorazmliklar, so'g'dlar, baktriyaliklarning eroniy tillarning muayyan lahjasida so'zlashishi, diniy va madaniy plyuralizm mavjudligi buning tasdig'i bo'lib xizmat qiladi.

Yunon–makedon istilosi va salavkiylar sulolasi hukmronligidan so'ng miloddan avvalgi III asr boshlarida Toshkent vohasida va Sirdaryoning o'rta va shimoliy oqimida Qang' davlati vujudga kelgan. Uning kuchaygan davri miloddan avvalgi II-I asrlarga to'g'ri keladi. Mazkur davrda Qang' davlati tarkibiga Kesh-Shahrisabz, Zarafshon, Toshkent viloyati, Buxoro, Xorazm vohalari va bir qancha boshqa hududlar kirgan. Mamlakat aholisining asosiy tarkibi turkiy elatlar bo'lgan, yetakchi qabila qang'lar edi. Ular Zarafshon vodiysi va Xorazm vohasining tub aholisi bilan qorishib o'zbek xalqining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmida Sharqiy Turkistondan So'g'diyona, Baqtriya va Farg'ona hududlariga turkiy elatlar kirib kela boshladi. Ularni xitoy manbalarida yuyejilar (kushonlar) deb atalgan. Ba'zi tarixiy ma'lumotlarga qaraganda ular aslida turkiy qavmlarga tegishli bo'lib, Sirdaryoning quyi oqimlarida istiqomat qilganlar, lekin Aleksandr Makedonskiy yurishlari davrida siquvga dosh bera olmay, sharqqa ko'chib o'tganlar. Keyinchalik sharqdan bo'lgan xunlarning tazyiqi natijasida yana Markaziy Osiyoga ko'chib kelganlar va bu yerda 300 yilcha o'z hukmdorligini o'rnatganlar. Kushonlar davlatining eng kuchaygan vaqti Kanishkaning hukmdorligi davriga to'g'ri keladi. Kushonlar saltanati Xitoyning shimoliy-g'arbiy qismini, butun Markaziy Osiyoni qamrab olgan. Kushonlar davrida turli elatga mansub aholi o'zaro yaqinlashib, birlashib o'z madaniyati va ma'naviyatini boyitib bordi. Kushonlardan keyin ularning o'rnini eftaliylar, keyinchalik esa Turk xoqonligi egalladi va o'z faoliyatini arablar bosqiniga davom ettirdi. Turk xoqonligi hukm surgan VI – VII asrlarda Farg'ona, Toshkent viloyatlariga turkiy etnosga mansub urug'-qabilalarning kirib kelishi kuchaydi. Ularning ko'pchiligini qarluqlar tashkil etardi. Qo'shib ketgan turkiy elatlar o'troqlashib, asta-sekin o'z tillarini mahalliy aholiga berdilar va aksincha, tub joy aholining yuksak madaniyatini o'zlariga sindirib bordilar.

Shunday qilib, miloddan oldingi II ming yillik o'rtalaridan milodiy VII asrgacha turkiylar, forsiylar, hindular, saklar, toharlar, massagetlar, baqtriyaliklar, chochliklar o'troq va ko'chmanchi holda yashaganlar. Agar shunday bo'lsa, o'zbeklar qaysi etnosning davomchilari bo'lishi mumkin, degan haqli savol tug'iladi. Bu borada keng tadqiqotlar o'tkazgan rus

olimlaridan L.N.Gumilyov, S.P.Tolstovlar o'zbek tarixchilaridan B.Axmedov, A.Asqarov, K.Shoniyozov va boshqalar bir to'xtamga kelganlar. Bu fikrni umumlashtirgan holda quyidagi g'oya aks etadi: O'zbekiston hududida va uning tevarak-atrofida ikki ming yil davom etgan etnogenetik jarayonlar natijasida, ya'ni so'g'diylar, xorazmiylar, baqtriyaliklar va saklarning shu zaminda bronza davridan boshlab, ular bilan yonma-yon yashab kelgan turkiyzabon qabila va qavmlar bilan aralashuvi, qorishuvi natijasida «o'zbek xalqi» shakllana boshladi. L.N.Gumilyovning shohidlik berishicha, so'g'diylar, xorazmiylar, parkanliklar forslardan ko'ra ruhiy, iqtisodiy, jug'rofiy, ijtimoiy jihatdan turklarga juda yaqin bo'lganlar. Markaziy Osiyoda turkiy qavmlar qatlami doimo kuchayib borgan. Bu jarayon Kushonlar, Qang'lar, Eftaliylar va Turk xoqonligi davlatlarining tashkil topishi bilan ko'proq bog'liq. Uzoq yillar davomida Markaziy Osiyo chet el bosqinchilari mustamlakachilik siyosatining ta'sirida bo'ldi. Ular bu yerdagi etnik jarayonlarga ta'sir ko'rsatmadi deb bo'lmaydi, lekin obyektiv tarzda davom etayotgan voqeyelikni o'zgartira olmadilar. Aksincha, bosqinchilarning ko'pchiligi mintaqadagi yuksak madaniyat ta'sirida mahalliy aholining tarkibiga singib ketganlar. Turli urug', qabila, elatlarning halq bo'lib shakllanishi uchun uzoq muddat talab qilinadi, turli bosqichlardan iborat jarayonlarni boshidan kechirishi kerak. Bosqichlarni faqat shartli ravishda belgilab olish mumkin. Bu borada tarixchi olimlar o'rtasida yakdillik yo'q deyish mumkin. Masalan, akademik A.Asqarov o'zbek xalqining shakllanishi uchun bosqichdan iborat deb hisoblaydi.

Birinchi bosqich ibtidoiy jamoa tuzumi oxiridan (bronza davridan) boshlanib, o'rta asrlarning taxminan IX asrigacha davom etadi. Bu davrda xududiy, iqtisodiy-xo'jalik, etnomadaniy, til, siyosiy uyushma hamda antropologik birlik shakllanadi. Antropolog T.K.Xodjayov uzoq vaqt 500 ga yaqin paleantropologik seriya materiallarini o'rganib, hozirgi o'zbek va tojiklarga tegishli bo'lgan «ikki daryo oralig'i tipi» miloddan avvalgi ming yillikning oxiri, milodiy yilning boshlarida dastlab Sirdaryoning o'rta va quyi havzasida shakllangan, degan xulosaga keldi. So'ngra bu tip vakillari millodiy I- II asrlarda Farg'ona vodiysi, Xorazm vohasiga kirib borganligi aniqlangan.

Ikkinchi bosqich XI-XII asrlarda Qoraxoniylar G'aznaviylar, Saljuqiylar davlati doirasida nihoyasiga yetib, XIX asrning o'rtalarigacha davom etdi. XI asrda Qoraxoniylar bilan birga Turonzaminga Oltoy, Yettisuv va Sharqiy Turkistondan Movarounnahrqa ko'chib kelgan bir talay qabilalar: turgashlar, to'xsinlar, qorliqlar, chig'illar, o'g'izlar, arg'in va boshqa turkiyzabon qabilalar o'lkaning turkiy etnik qatlami ustunligini bir

qadar ta'minladi. O'zbek xalqi «to'la shakllanganligi» haqidagi fikrga qo'shilish bilan birga shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, bu jarayon keyingi ming yillik davomida to'xtab qolgani yo'q. O'zbeklarning xalq sifatida shakllanishiga ularning etnostrukturasi, tili, dunyoviy qarashlari, milliy madaniyati nuqtai nazaridan aytarli salmoqli o'zgarishlar sodir bo'lmagan taqdirda ham, keyingi etnik, siyosiy, madaniy jarayonlar o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmasdi. Bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

– mo'g'ul bosqinchilari bilan birga Movarounnahrqa Oltoy, Sharqiy Turkiston, Yettisuv sarhadlarida istiqomat qilgan turkiy qabilalarga mansub aholining kirib kelishi keyinchalik aholi orasida turkiylarning mavqeini yanada mustahkamladi, mo'g'ullar turkiylashib bordi;

– turkiylardan bo'lgan Temur va temuriylar sulolasining davlat boshqaruvini egallashi turkiy xalqlarni yetakchilar qatoriga olib chiqdi. Turkiy til davlat tili maqomini olishi darajasida ko'tarildi. «Temur tuzuklari» asosida o'zbek davlatchiligi qonun-qoidalarini yaratiladi;

– buyuk mutafakkir alloma hazrat Mir Alisher Navoiy tomonidan bugungi o'zbek tili poeziyasi va adabiyotiga asos solindi. Movarounnahr zaminida o'ziga xos o'zbek xalqi ma'naviyati shakllana boshladi;

– ana shu davrda Dashti qipchoqdan o'zbek qabilalarining Movarounnaxrga kirib kelishi natijasida bu yerdagi xalqlar o'zining bugungi «o'zbek» atamasiga ega bo'ldi.

Uchinchi bosqich XIX asr oxiri XX asr boshlaridan hozirgi kungacha davom etmoqda. Bu davrda o'zbeklar o'z nomi bilan ataladigan davlatiga ega bo'ldi. 1924 yilda milliy davlat chegaralanishining o'tkazilishi va O'zbekiston SSRning tashkil topishi munosabati bilan bu yerda yashaydigan turkiy zabon xalqlar haqli ravishda o'zbek deb atala boshlandilar. Ahmadali Asqarovning fikrini inkor etmagan holda, O'zbekistonning mustaqillik davrini alohida to'rtinchi bosqichga ajratilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Xalqning shakllanish bosqichlariga o'zgacha yondashishlar ham mavjud.

Shunday qilib, o'zbeklar Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan o'troq va ko'chmanchi xalqlarning vorislari hisoblanadi. Shu bois o'zbeklarni muayyan etnosning davomchilari emas, balki shu yerda yonma-yon yashab kelgan xalqlarning qorishmasidan paydo bo'lgan alohida xalq deyish mumkin.

XI – XII asrlarda o'zbek xalqi shakllanishining nihoyasiga yetganligining belgilari. Tarixchi olimlardan B.Ahmedov, A.Asqarov, K.Shoniyozov va boshqalar XI- XII asrga kelib, o'zbek xalqi shakllanishining nihoyasiga yetganligini yakdillik bilan tan oladilar. Urug'lar, qabilalar, elatlar halq darajasiga ko'tarilishi uchun bir qancha jarayonlarni

o'z boshidan kechirishi, ularning takomillashishini taqozo qiladi. Xalq bo'lish uchun muayyan mezonlar bo'lishi shart. Shu jumladan, ma'lum hududda istiqomat qilish, antropologik yaqinlikka madaniy, ma'rifiy til va siyosiy birlikka erishish lozim. Yuqoridagi olimlarning XI – XII asrlarga kelib o'zbek xalqi shakllanishining nihoyasiga yetganligi to'g'risidagi xulosasi asosida sanab o'tilgan mezonlar yotadi.

*Birinchi*dan, antropolog olim T.Q.Xo'jayovning tadqiqotlariga ko'ra, o'zbeklarning antropologik qiyofasi (ilmiy tushuncha «ikki daryo oralig'i tipi») eramizdan avvalgi III – II asrlarda shakllanib bo'lgan. Keyingi etnik jarayonlar o'zbeklar qiyofasining tashqi ko'rinishini deyarli o'zgartirib yubormagan.

*Ikkinchi*dan, Turonzamin deb atalmish hududga ko'plab turkiy tilli qavmlarning kirib kelishi (Narshaxiyning shohidlik berishicha turkiy xalqlar bu hududda qadimdan yonma-yon yashagan) bu yerda turkiy tilning (o'zbek tilining) ustuvor mavqegaga ega bo'lishiga olib keldi. Turkiy tilning qorliq – chig'il lahjasi asosida eski o'zbek tiliga asos solindi. U hududdagi aksariyat aholining umumiy tiliga aylandi va ilk o'zbek tilidagi yozma adabiyot darajasiga ko'tarildi. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'at atit-turk», Hoja Ahmad Yassaviyning «Hikmat» asarlari mana shu davrning noyob mahsulidir.

*Uchinchi*dan, Qoraxoniylar hukmronligi davrida tub joy aholining turmush tarzi, ma'naviy, madaniy hayotida, urf-odatlarida ham sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xududda turli xalqlarning o'troqlashuvi natijasida, bir tomondan, ular mahalliy aholining qadriyatlarini o'zlashtirsalar, ikkinchi tomondan, o'zlarining qadriyatlarini o'lka hayotiga olib kirdilar. Buning natijada yuqori darajadagi madaniy, ma'naviy, ruhiy umumiylik tarkib topdi.

*To'rtinchi*dan hududda o'rnashib olgan turkiyzabon elatlarning islom dinini qabul qilishi umumiy ma'naviy muhitning shakllanishiga ijobiy ta'sir qildi. Islom ta'limoti asosida ilgari turli elatlarga mansub bo'lgan qavmlar birlashdi.

*Beshinchi*dan ulkan hududda Qoraxoniylar sulolasi boshchiligidagi davlatning tashkil topishi hududda iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning rivojlanishiga olib keldi. Pirovardida, iqtisodiy va siyosiy birlik vujudga keldi.

Shunday qilib, ikki daryo oralig'ida yashovchi aholi hozircha o'z nomiga ega bo'lsada, ko'p qirrali yagona xalq shakllanishi yakunlandi. «O'zbek» atamasi bu xalqqa keyinroq berildi. «Xalqimizning shakllanishi yakunlandi», deganda keyinchalik hech qanday o'zgarish bo'lmaganini anglatmaydi. Aksincha, xalqning rivojlanishi, takomillashuvi davom etdi,

yangi qirralari ochildi, asosiy belgilari saqlanib qoldi. Demak, bugungi o'zbek xalqining milliy qadiryatlari shakllanishi XI – XII va undan oldingi asrlarga borib taqaladi.

O'zbek xalqining o'z nomiga ega bo'lishi. Tarixiy ma'lumotlardan ma'lum bo'ladi, avvalroq xalq shakllanadi, keyinroq esa o'z nomiga ega bo'ladi. O'zbek xalqi ham shunday jarayonni boshidan kechirdi. Yuqorida bayon qilinganidek o'zbek xalqining shakllanishi XI – XII asrlarda nihoyasiga yetgan bo'lsa ham XVI asrda Movarounnaxrga Dashti Qipchoqdan Shayboniyxon boshchiligidagi ko'chmanchi o'zbeklar kirib kelganidan keyin o'z nomiga ega bo'ldi. «O'zbek» atamasini faqat ko'chmanchi Abulxayrxon va uning nevarasi Muxammad Shayboniyxon boshchilik qilgan ko'chmanchi o'zbeklar davlati bilan bog'lash yetarli asoslanmagan bo'lardi. «O'zbek» atamasi XIII- XIV asrlarda yashagan Juvayniy va Rashiddinlarning asarlaridan ham bizga ma'lum. Oltin O'rdaning sharqiy qismida yashagan va Oltin O'rda xoni (1312-1342-y.) O'zbekxon qo'shini tarkibiga kirgan ko'chmanchi xalq «o'zbek» etnik termini bilan atalgan. Nizomiddin Shomiy bilan Sharafiddin Ali Yazdiy ham Amir Temurning Oltin O'rdaga qilgan yurishini ta'rif qilganlarida, To'xtamishxonning lashkarlariga nisbatan o'zbek atamasini qo'llaydilar. O'zbek atamasi muayyan urug' yoki elatga nisbatan ishlatilmasdan, Dashti Qipchoqda istiqomat qilgan turkiy qavmlarni birlashtiradigan siyosiy tushuncha sifatida qo'llanilgan. «O'zbek» atamasining paydo bo'lishiga ikki xil yondashuv mavjud. *Birinchi* — o'ziga bek, ozod erkin xalq ma'nosida ishlatilgan. *Ikkinchi* — turkiylashgan mo'g'ul xonlaridan O'zbekxon boshqargan qabilalarga nisbatan ishlatilgan, degan fikr bor. Prezident bu xususida shunday muloxaza yuritadi: «O'zbek millati O'zbekxon nomidan tarqalgan emas, balki O'zbekxon o'zbek millati nomini o'ziga ism qilib olgan bo'lsa ajab emas»¹.

Ikki qarashni ham qabul qilish mumkin.

Yana bir muammoga aniqlik kiritish lozim. Ya'ni Dashti Qipchoqdagi o'zbeklar bilan Movarounnaxrdagi turkiylarning qanday umumiy tomonlari va farqlari bor? Bir qancha tarixchi va etnograf olimlarning fikricha, Movarounnaxr, Xuroson, Dashti Qipchoqda taxminan 90 dan ortiqroq turkiy tilda so'zlashuvchi o'zbek urug'lari istiqomat qilgan. Shundan taxminan 20 ta urug' Shayboniyga tegishlidir. O'troq yashaydigan Movarounnaxrdagi turkiy urug'lar Dashti Qipchoqliklardan faqat turmush tarzi bilan farq qilganlar. *Birinchi* — o'troq turmush tarzi bo'lsa,

¹ *Каримов И.А.* Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т. 7., – Т., 1999. – Б.301.

ikkinchisi — ko‘chmanchilikdir. Qolgan jihatlari: urf-odatlar, ma‘naviyati, dini bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Bu ikki xalq orasida XII-XIII asrlarda ham savdo-iqtisodiy, madaniy aloqalar, quda-andachilik mavjud bo‘lgan.

Shayboniyxonning Temuriylar bilan to‘qnashuvini o‘zbeklarning ikki sulolasini Movarounnaxrdagi siyosiy hokimiyat uchun kurashi deyish maqsadga muvofiq. Shayboniyxonning Movarounnaxrga kirib kelishi bu yerdagi etnik jarayonlarga deyarli ta‘sir qilmagan, aksincha o‘troq aholi tarkibiga singib ularning eng yaxshi an‘analarini davom ettirgan. Ularning hududning madaniy- ma‘naviy rivojlantirishga qo‘shgan hissasi temuriylarnikidan kam bo‘lmagan. Shayboniyxon Movarounnaxrdagi turkiylarga o‘z nomini berganligi bilan tarixda qoldi. Keyinchalik (1924-yilda) O‘zbekiston SSR tashkil qilinishi tufayli o‘zbek nomi bilan ataladigan davlatga ega bo‘ldi, ya‘ni o‘zbek atamasi qonuniylashdi.

4-§. Milliy davlat chegaralanishining o‘tkazilishi va uning o‘zbek xalqining shakllanishiga ta‘siri

1917-yilning oktabrida qurolli to‘ntarish amalga oshirilganidan keyin sobiq sovet hokimiyati ko‘pmillatli mamlakatda o‘zining milliy siyosatini belgilab oldi. Unga ko‘ra, milliy qadriyatlarni inobatga olmaydigan yangi ijtimoiy birlik – «sovet xalqini» shakllantirish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Juda bo‘lmaganda milliy masala sotsializm qurishga xizmat qilishi kerak edi. Shu asosda markazlashgan unitar davlat barpo qilish rejalashtirildi. 1920-yilga kelib Turkistonda milliy ozodlik harakati shu darajada avj oldiki, sovet hokimiyatining taqdiri mavhum bo‘lib qoldi. Ushbu masalani muhokama qilgan Rossiya kompartiyasining siyosiy byurosi vaziyatning murakkablashishi Turkiston komunistlarining shovinistik (ulug‘ millatchilik) siyosati, ya‘ni mahalliy aholini mensimaslik, milliy qadriyatlarni va manfaatlarini poymol qilish borasidagi hattiharakatlari Chor Rossiyasi imperiyasidan o‘n chandon o‘tib ketganligini tan olish bilan birga, Turkistonni uchta respublikaga, Turkmaniston, O‘zbekiston va Qozog‘istonga bo‘lib tashlash to‘g‘risida qaror qabul qildi. Bu masala 1924-yilda Markaziy Osiyoda milliy davlat chegaralanishi o‘tkazish jarayonida hal qilindi. Bu o‘rinda nahotki markaziy sovet hokimiyati milliy respublikalarga mustaqillik berishdan cho‘chimadi degan savol tug‘ilishi mumkin. *Birinchi*dan, milliy respublikaning tashkil qilinishi avj olgan milliy ozodlik harakatini yumshatish maqsadida amalga oshirildi, chunki «mana sizlarga mustaqillik berdik endi tinchlaninglar» deyish uchun asos bo‘ldi. *Ikkinchi*dan, mustaqillik ataylab to‘liq berilmadi. Respublikalar shunchaki rasmiyatchilik nuqtai nazaridan e‘lon qilindi. Aslida

Respublikani boshqarib turadigan kompartiyaning faqat viloyat huquqiga ega bo‘lgan tashkiliy qismi sifatida qoldi. Boshqacha aytganda, markazdan rahbarlik mustamlakachi davlatning «bo‘lib tashla va hukmronlik qil» degan shioriga mos keladi. *Uchinchi*dan, milliy respublikalar orasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarni bartaraf qilish uchun markaz milliy respublikalarning ichki ishlariga aralashib turishga imkon yaratdi.

O‘zbek xalqi, shuningdek turkmanlar va qozoqlar ham mustaqil bo‘lmasa-da, o‘z nomlari bilan ataladigan davlatga ega bo‘ldilar, lekin milliy davlat chegaralanishi bir qancha salbiy oqibatlariga olib keldi. Avvalo, bir qancha millat vakillari o‘z nomlari bilan ataladigan respublikadan chetda qolib o‘zlarining milliy ehtiyojlarini to‘la qondirish imkoniyatidan mahrum bo‘ldilar. Undan tashqari, suv resurslaridan foydalanish, ekologik masalalar, qarindosh-urug‘chilik aloqalarini rivojlantirish va boshqa bir qator muammolar paydo bo‘ldi.

O‘tmishda milliy masalada yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni tan olish bilan birga bugungi kunda qarindosh respublikalar o‘rtasida o‘zaro manfaatdorlik munosabatlarini rivojlantirish, mintaqada xavfsizlikni ta‘minlash uchun harakatlarni targ‘ibot-tashviqot qilish dolzarb vazifa bo‘lib qoldi. Faqat shu yo‘l bilan ular o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish va barcha millat vakillarining ehtiyojlarini to‘laroq qondirish mumkin.

Sobiq sovetlar davrida kommunistik partiyaning baynalmilallik niqobi ostida milliy qadriyatlarni yo‘q qilishga qaratilgan siyosatining bosimiga qarshi o‘laroq o‘zbek xalqining shakllanishi davom etdi, uning yangi qirralari ochildi. Aynan shu davrda Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Cho‘lpon, Oybek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon kabi yozuvchi va shoirlar, Qori Niyoziy, Xabib Abdullayev, Obid Sodiqov va boshqa shu kabi ko‘plab olimlar, Tamaraxonim, Xalima Nosirova, Olim Xo‘jayev, Shukur Burxonov kabi san‘at ustalari o‘zbek ma‘daniyati, ma‘naviyati va san‘atini jahonga tanitdilar.

5-§. O‘zbekiston Respublikasining etnik siyosati va yangi ko‘pmillatli ijtimoiy birlikning shakllanishi

Mustaqillik o‘zbek xalqining milliy rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishga sharoit yaratdi. Shu xususida Prezident Islom Karimovning so‘zlarini eslash darkor. U shunday degan edi: «Bizning oliy maqsadimiz – mustaqillik edi. Bunga erishdik. Mustaqillikning oliy maqsadi – o‘zbek xalqining izzatini joyiga qo‘yish»¹. Masalani bunday

¹ *Каримов И.А.* Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т., 1996. – Б.107.

qo'yishning o'z mantig'i bor: respublika aholisining aksariyat qismi o'zbeklardir. Shu bois, birinchi navbatda, mamlakatimizdagi tinchlik va barqarorlikning kafolatchisi aynan shu xalq hisoblanadi. Lekin bu fikr davlatimizda o'zbeklar manfaatini bu yerdagi 130 dan ortiq millat vakillarining manfaatlarini kamsitilishi hisobiga hal qilishni bildirmaydi. Bunday bo'lishi ham mumkin emas. Respublikada istiqomat qiladigan barcha xalqlarning teng huquqligi qonun bilan mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida: «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar», deb belgilab qo'yilgan.

O'zbek xalqining milliy ongini yuksaltirish, uning qadr-qimmati, milliy, tarixiy, diniy qadriyatlarini tiklash, urf-odatlarini hurmat qilish, erkin rivojlanishi uchun sharoit yaratilayotganligi xususida so'z yuritir ekanmiz, ushbu tadbirlar respublikada yashaydigan barcha millat vakillariga ham to'g'ridan – to'g'ri aloqadorligini doim yodda tutamiz. Chunki Islom Karimovning so'zlari bilan aytganda: «O'zbekiston aholisining ko'p millatli o'zbek xalqining milliy o'zligini anglashi va ma'naviy qayta tiklanishining o'sishi bilan chambarchas bog'liq holda jamiyatni yangilash, uni demokratlashtirishga undovchi zo'r kuch bo'lib xizmat qilmoqda¹».

Respublika mustaqillikka erishganidan buyon o'zbeklarning o'zligini anglash jarayoni juda tezlashib ketdi. Bunga quyidagi omillar sabab bo'ldi:

– mustaqillik tufayli o'zbeklarning o'tmishi haqida xolisona, adolatli fikr yuritish uchun imkoniyat tug'ildi. Natijada milliy madaniyatimiz va ma'naviyatimiz shakllanishiga ulkan hissa qo'shgan va uni jahonga tanitgan Imom Buxoriy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Imom Termiziy, Xoja Axmad Yassaviy, Amir Temur va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimizning faoliyati va ijodiga alohida e'tibor qaratilishi natijasida ular xalqimizning tom ma'nodagi milliy iftixori bo'lib qoldilar;

– o'zbek tiliga qonun yo'li bilan davlat tili maqomi berilishi o'zbek xalqi ruhining tiklanishiga, millat ma'naviy-axloqiy ideallarining mukammalroq shakllantirishga keng imkoniyat yaratib berdi;

– xalqining ma'naviy yuksalish yo'lidagi ishlarini muvofiqlashtirish va ilmiy asosda tashkil qilish maqsadida ma'rifiy-ma'naviy tarbiya, targ'ibot bilan bog'liq davlat va nodavlat tashkilotlarning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi ta'sis etildi. Uning asosiy vazifalaridan biri

¹ *Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. Т. 6. – Т., 1998. – Б. 79.*

etib milliy qadriyatlarimiz va ulug' mutafakkirlarimiz merosidan butun xalqimiz, jumladan, yoshlarimizning ham bahramand bo'lishiga, islom dinining insonparvarlik falsafasi, g'oyalari yosh avlod qalbidan joy olishiga ko'maklashish rejaları belgilandi;

– milliy ruhiyatni tarbiyalashning asosi bo'lgan Vatanimizning haqqoniy tarixini yaratishga va uni barcha o'quv maskanlarida o'qitish masalalariga alohida e'tibor berildi va shu maqsad yo'lida yana boshqa bir qancha tadbirlar belgilandi;

– milliy totuvlikni ta'minlashda 130 dan ortiq milliy-madaniy markazlar bugungi kunda har bir millatning tili, madaniyati, urf-odatları va rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy Vatan bilan aloqa va munosabatlarini jonlantirish, milliy his-tuyg'ularni namoyon bo'lishiga keng xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi milliy va etnik muammolarni o'z-o'zidan hal qilmaydi, bunga davlatning ushbu masalada faqat turli manfaatları muvofiqlashtirishga qaratilgan oqilona siyosatining natijasi sifatida qarash mumkin. Shuning uchun davlatning xalq ma'naviyatini yuksaltirishga, o'zligini tanishga qaratilgan chora-tadbirlari nafaqat o'zbeklar ruhiyatiga, balki ba'zi bir etnik guruhlarga, mintaqaviy urug'-aymoqchilik birlashmalariga ta'sir qilishini hisobga olishi lozim.

Ushbu muammolarni hal qilishda respublikada ko'pchilikni tashkil qilgan o'zbeklarning roli alohida ahamiyatga ega. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, o'zbek xalqi ruhining tiklanishi, millat ma'naviy-axloqiy masalalarning shakllanishi chuqur milliylik va umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan hodisadir. Respublikada yashayotgan xalqlar o'ziga xosligini yo'qotmagan holda umumiy ruhiyatga xulq-atvor falsafasiga ega bo'lmoqdadir. Bu esa mustaqillik yillari mobaynida millatlarning totuvlik manbai bo'lib kelgan yagona ma'naviy ruhiy negizni vujudga keltirdi. Mustaqillik tufayli xalqning ma'naviyatini shakllantirish borasida yangidan-yangi talablar qo'yilmoqda. Ular Islom Karimovning «Turkiston» gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblarida aniq belgilab berilgan: «Bu vazifa erkin fuqarolik jamiyatining ma'naviyatini shakllantirish, boshqacha aytganda, ozod o'z haq-huquqlarini yaxshi taniydigan, boqimandalikning har qanday ko'rinishini o'zi uchun or deb biladigan, o'z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, ayni zamonda o'z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatları bilan uyg'un holda ko'radigan komil insonlarni tarbiyalashdan iboratdir¹». Albatta, bu vazifani

¹ *Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан қураимиз. Т. 7. – Т. 1999. – Б. 304.*

amalgaga oshirish faqat o'zbeklar emas, balki O'zbekistonning barcha aholisiga taalluqli. Agar xalq o'z qobig'iga o'ralib, jahon tajribasidan ajralib qolsa, bu jarayon yanada og'irroq kechib, cho'zilib ketadi. Mustaqillik sharoitida mamlakatdagi siyosiy barqarorlikni ta'minlash respublika aholisining farovonligini yuksaltirish, moddiy va ma'naviy erkinligini to'laroq qondirish murakkab vazifani so'zsiz bajarishning kafolatidir. O'z navbatida, barqarorlikning negizi O'zbekistonning milliy, etnik yakkidilligini ta'minlashga bog'liq. Buning uchun respublika rahbariyati mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston barcha xalqlar uchun «Umumiy uy» shiori asosida o'z faoliyatini ko'p elatli xalqlarning bir oila bo'lib farovon turmush kechirishini ta'minlashga qaratmoqda. Islom Karimovning ta'kidlashicha: O'zbek madaniyatining umuminsoniy mohiyati ma'naviy-ruhiy qadriyatlarining va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi bu birlikning negizini tashkil etadi¹. O'zbekiston aholisini tashkil qilgan barcha millat vakillari «men rus, qozoq, tojik, qirg'iz, yoki turkman deyish o'rniga g'urur bilan men O'zbekistonlikman»- desin. Kelajakda shunday bo'ladi ham, chunki respublikada milliy masalada o'rnatilgan tartib bo'yicha hech qaysi millat vakili kamsitilmaydi. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Respublikaning eng yuqori organlaridan boshlab viloyat, shahar, tuman, qishloqlar boshqaruvigacha istisnosiz turli millat vakillari bab-baravar ishtirok etmoqdalar. U yoki bu millat vakillari uyushibroq yashagan hududlarda ular o'z ona tillarida bilim olish imkoniyatiga egalardir. Televideniya maxsus xalqaro telekanal tashkil qilingan. Shuningdek radioda rus, qozoq, tojik va boshqa tillarda eshittirishlar olib boriladi.

Xullas respublikaning etnik va milliy siyosati aholining yakdil, yakqadam qilishga qaratilganligi nafaqat xalqimiz, balki chet el siyosatchilari tomonidan ham e'tirof etilayotganligi haqiqatan ham, bu o'zgarishlar mamlakatimizda siyosiy barqarorlikning asosiy omili ekanligidan dalolat beradi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va uning tarixiy ahamiyati. O'zbekiston xalqining mustaqillikka intilishining bir ko'rinishi 1989 yil 21 oktabrda O'zbekistonda davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishida namoyon bo'ldi. Bu bilan mamlakatimizda o'zbek tilining xalq va davlat hayotidagi o'rni va ahamiyati qayta tiklandi. Davlat tili haqidagi qonunga o'zbek tili o'zbek xalqining ma'naviy mulki ekanligi, uning ravnaqi, qo'llanishi va muhofazasi davlat tomonidan ta'minlanishi belgilab qo'yildi. O'sha paytda mazkur qonun qabul qilinishi faqat o'zbek tili

¹ *Каримов И.А.* Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. Т. 6. – Т., 1998. – Б.129.

mavqeyini oshirish bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki siyosiy masala edi. Chunki u mustamlakachilik yillarida poymol qilingan insonparvar urf-odatlarimiz, ma'naviy-madaniy qadriyatlarimizni tiklash yo'lida mustaqillikka erishish uchun olib borilayotgan harakatlarning bir bosqichi bo'ldi.

Qonunning qabul qilinishi uchun o'sha paytdagi respublika rahbari Islom Karimovdan ulkan siyosiy jasoratni talab qildi va u hech ikkilanmasdan barcha mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi.

Ammo davlat tili haqidagi 1989 yilda qabul qilingan qonunda o'z davrining ruhi sezilib turardi, jumladan, sotsialistik voqyelik, kommunistik mafkurani muhofaza qilish, rus tilining yuksak mavqeyini saqlab qolish va shunga o'xshash mustaqil davlat maqomiga to'liq mos kelmaydigan jihatlardan ham bor edi. Ularning barchasi 1995 yil 21 oktabrda qabul qilingan qonunning yangi tahririda chiqarib tashlandi. Yangi tahrirdagi qonun mustaqil davlatning barcha talablariga mos keldi. Qonun qabul qilinganidan keyingi davrda oliy davlat, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarida korxonalar muassasa va tashkilotlarda ish yuritishni o'zbek tilida olib borishga o'tildi. Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, ko'chalari, geografik o'rinlarining nomlariga yagona milliy shakl berildi va o'zbek tilida yozib qo'yildi. Shuningdek, O'zbekiston xalqining qadriyatlariga mos kelmaydigan kommunistik g'oya bilan bog'liq atamalar iste'moldan chiqarib tashlandi.

Давлат тили ҳақидаги қонуннинг қабул қилиниши республикада истиқомат қиладиган бошқа миллатлар тилининг ривожланишига монелик қилмади. Бугунги кунда мактабларда таълим 7 тилда, радиоэшиттиришлар ва теле кўрсатувлар 20 га яқин тилларда олиб борилмоқда. Бугун Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси ўзбек гуруҳларида барча фанлар давлат тилида ўқитилиши таъминланди. Бу албатта, ўқув-тарбия жараёнининг сифат ва самарасини оширишга хизмат қилмоқда. Давлат тили ҳақидаги қонун ўзбек тилининг янада ривожланиши ва бойиши учун замин бўлди. Ўзбек тилига аввал истеъмолда деярли учрамайдиган мустақиллик, маънавий, миллий ғоя, тадбиркорлик, фуқаролик жамияти каби иборалар кириб келган бўлса, илгари истеъмолдан чиқарилган девон, вазир, ҳоким, вилоят, туман, муҳаррир, сармоя, талаба ва шу сингари кўплаб сўз ва иборалар ўзбек тилида тикланди. Шунингдек тилимиз демократия, бозор муносабатлари билан боғлиқ бир қанча, биз учун янги бўлган янги сўз ва иборалар билан бойиб бормоқда. Ўзбек тилига бўлган эътибор халқимиз қадр-қимматини тиклашга ва мустаҳкамлашга хизмат қилмоқда.

IV bob
I-VII ASRLARDA O‘ZBEK DAVLATCHILIGI

1-§. Kushon davlati

Mil. avv. II asrning ikkinchi choragida (mil. avv. 172-161-yillar oralig‘ida) yuyechji qabilalari xunnlarning siquvida Markaziy Osiyoning janubiga ko‘chgan. Keyinchalik yuyechjilar janubi-g‘arb tomon siljib borib, mil.avv. 140-130-yillarda Dahya (Baqtriya)ga bostirib kirdi. Bosib olingan hududlar Katta yuyechji davlati tarkibiga kiritildi. Mamlakat beshta hokimlik (Xi-xeu)ka bo‘lingan, ular Xyumi, Shaunmi, Guyshuan, Xise va Dumilardan iborat edi. Mil. avv. I asrning oxiri—mil. I asrning boshlarida Guyshuan hokimi Kudjula Kadfiz mustaqil hokimliklarni birlashtirib shohlar-shohi unvonini oldi. Markazlashgan davlat hukmron qabilaning nomi bilan Kushon deb atalgan.

Kudjula Kadfizning vorisi Vima Kadfiz (Kadfiz II) pul islohoti o‘tkazib, oltin tangalar zarb etgan. U mamlakat hududini kengaytirish siyosatini davom ettirib, Hindistonning bir qismini bosib oldi. Qo‘shni davlatlar bilan savdo-sotiq rivojlandi. Rim saltanati bilan aloqalar o‘rnatildi.

Kushon podsholigi Kanishka davrida gullab-yashnagan. Panjob, Kashmir viloyatlari qo‘shib olingan. Poytaxt Dalvarzindan (Surxondaryo), Peshovar (Afg‘oniston) atroflariga ko‘chirilgan. Mamlakat hududi Shimoliy Hindiston, Afg‘oniston, Markaziy Osiyoning janubi, Sharqiy Turkiston mulklaridan tashkil topgan.

Kushonlar davrida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojlangan. Sug‘orma dehqonchilik bilan birga chorvachilikka katta e‘tibor berilgan. Xorazm va Zarafshonda ko‘plab sug‘orish inshootlari qurilgan. Dehqonchilik qurollari takomillashtirilgan, temir uchli omochlardan keng foydalanilgan, chig‘ir yordamida dalalarga suv chiqarilgan.

Kushonlar davriga oid Ayritom, Afrosiyob, Dalvarzintepa, Zartepa, Kampirtepa, Eski Termiz, Xolchayon kabi shahar qoldiqlari o‘rganilgan.

Milodiy III asrning birinchi yarmida Vasudeva va Kanishka III hukmronligi davrlarida Kushon podsholigi zaiflashdi. III asrning ikkinchi yarmidan boshlab Eron sasoniylari hujumlari natijasida mamlakat hududi keskin qisqargan.

Xioniylar davlati. IV asrning o‘rtalarida Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududlarida yashagan qo‘chmanchi Xiyon (xon) qabilalari

Markaziy Osiyoning janubi-g‘arb tomoniga ko‘cha boshladilar. Grumbat boshchiligida xioniylar 353-yilda Co‘g‘diyoni bosib olgan. IV asrning 70-yillariga kelib Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan hududlar egallandi. Xiyoniylar qudratli Sosoniylar davlatiga qarshi kurash olib borishga majbur bo‘lgan. Xiyoniylar dastlab sosoniylar shohi Shopur II (309-379) qo‘shinlarini yenggan bo‘lsa-da, katta yo‘qotishlar evaziga davlat mustaqilligini saqlab qolgan. Ular sosoniylarga qarshi kurashda Kidoriylar davlati bilan yaqinlashishga harakat qilgan.

Kidoriylar davlati. IV asrda kidor urug‘i oqsoqoli Sidolo yoki Kidor («Kidara») rahbarligida qabilalar ittifoqi yuzaga kelgan. 412-437-yillarda kidoriylar istilochilik urushlari olib borib Tohariston va Gandxarani egallagan. V asrning 20-yillarida Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan hududlarga Sirdaryo va Orol bo‘ylari orqali kirib kelgan kidoriylar So‘g‘diyoning g‘arbiy va janubiy qismi, Amudaryo bo‘ylaridagi hududlarni bosib oldi. Shu tariqa, poytaxti Balx shahrida joylashgan kidoriylar davlati tarkibiga Amudaryoning o‘ng va chap qirg‘og‘idagi yerlar birlashtirildi.

Kidoriylar davlatiga tajovuzkor sosoniylar qo‘shini hujumlari katta talafot keltirgan. Ayniqsa, 456-yildagi sosoniylar qo‘shinidan qaqshatqich zarbaga duchor bo‘lgan kidoriylar qudratini qayta tiklay olmadi. Zaiflashib qolgan kidoriy qabilalari Eftalitlar hujumlari natijasida Markaziy Osiyoni tark etdi. Shimoliy Hindistonga chekingan kidoriylar Guptalar davlatini bosib oldi. Shimoliy Hindistondagi kidoriylar davlati 75 yil mavjud bo‘lgan.

2-§. Eftalitlar davlati

IV asrning ikkinchi yarmida Baktriyada eftalit qabilalari ittifoqi tashkil topgan. Qabilaning kelib chiqishi to‘g‘risida turli ma‘lumotlar berilgan. Arab manbalarida eftalitlar turkiylarning (tukyuye), rus manbalarida massagetlarning, Vizantiya manbalarida xunnlarning avlodlari sifatida qayd etilgan. O‘zbekistonlik ayrim tadqiqotchilar ularni Toxaristonda yashagan baktr qabilalaridan kelib chiqqan deb hisoblaydilar¹.

Eftalitlar hukmdori Vaxshunvor Eftalon boshchiligida 457-yilda Chag‘aniyon (hozirgi Surxon yerlari), Toxariston va Badaxshon hududlarini birlashtirdi. Keyinchalik So‘g‘diyona, Qobul va Panjob vodiysi, Kuchu, Qashg‘ar va Xo‘ton (Sharqiy Turkiston) bosib olingan. Vujudga kelgan qudratli davlat Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkiston, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Eron mintaqalari hududlarini birlashtirdi.

¹ Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. I қисм. –Т., 2000. – Б. 61.

Eftalitlar davlati qudratining ortib borishi sososniylarni tashvishlantirmay qolmas edi. Sosoniylar da'vogarlik qilgan hududlarning bosib olinishi ikki davlat o'rtasidagi ziddiyatlarni yanada keskinlashtirdi. Eron shohi Peruz Eftalitlarga qarshi uch marta yurish qilgan. Bu yurishlar uning uchun halokatli bo'lgan. Uchinchi yurishda Peruz jang maydonida halok bo'lgan. Peruzning vorislari Kubod (488-531) va Anushervon (531-579) eftalitlarga o'lpon to'lagan va yaxshi qo'shnicilik aloqalarini saqlashga majbur bo'lgan.

Eftalitlar davlatini podshoh boshqargan. Uning hokimiyati cheklanmagan. Taxt sulola vakillari orasida eng munosib deb topilgan nomzodga o'tgan. Mamlakat viloyatlarga bo'lingan bo'lib boshqarilgan. Viloyatlar noib (satrap) lar tomonidan boshqarilar edi. Bo'ysundirilgan hududlar boshqaruvida mahalliy zodagonlar xizmatidan foydalanilgan. Mamlakat poytaxti Poykand (Boykent) yoki Balx bo'lganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Hukmdorlar davlat boshqaruvida kuchli qo'shinga tayangan. Qo'shinning asosini otliq askarlar tashkil etgan.

Mamlakat aholisining asosiy qismi qishloq va shaharlarda yashovchi ziroatkorlardan iborat edi. Dasht va tog'oldi hududlarida ko'chmanchi chorvadorlar yashagan. Tohariston va So'g'dda dehqonchilik va bog'dorchilik rivojlangan. Qashqadaryo va Zarafshon vohalarida g'alladan tashqari sholi ham yetishtirilgan. Paxta ekini maydonlari kengaygan. Tog' va tog'oldi hududlarida aholi yilqichilik bilan shug'ullangan. Farg'ona vodiysida zotdor otlar urchitilgan.

Ilk o'rta asrlarda shaharlar va ularning aholisi tez ko'payib borgan. Ularni moddiy ta'minlash zarurati qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talabni oshirdi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirish faqat yirik sug'orish inshootlarini qurish va yangi yerlarni o'zlashtirish bilan hal etilar edi. Yangi yerlarni o'zlashtirish ishlariga urug' va qishloq oqsoqollari rahbarlik qilgan. Ulardan keyinchalik katta yer egalari tabaqasi shakllangan. Vujudga kelgan yangi tabaqa dehqonlar (qishloq hokimi) deb atalgan. Dehqonlar yerlarini boshqa tabaqalarning mulklari hisobiga ham kengaytirib borgan. Yirik yer egalarning tazyiqida mulkidan mahrum bo'lgan ziroatkorlar yerini ijaraga olib ishlashga majbur edi. Dehqonlar yerlarini ijaraga olib ishlovchi va ularga qaram bo'lib qolgan ziroatkorlar kadivarlar deb yuritilgan. Kadivarlar soni erkin ziroatkor kashovarz (qo'shchi)lar hisobiga ko'payib borgan.

V asrda ekin maydonlarining asosiy qismi qishloq jamoalariga tegishli edi. Jamoa yer egaligi kashovarlarning yer va suv mulklarining birlashtirilishidan tashkil etilgan. Yerlarning bir qismi ibodatxonalarga tegishli bo'lib, ular vag'nze deb yuritilgan. Ko'chmanchi chorvadorlar

yashaydigan hududlarda chorva yaylovlar qabila va urug' jamoalari hamda ularning oqsoqollari – biylar tasarrufida edi.

Hunarmandchilikning kulolchilik, shishasozlik, chilangarlik, bo'zchilik, zargarlik, qurolsozlik kabi turlari rivojlangan. Shaharlar tez suratlar bilan ko'payib borgan. Zarafshon vohasida Rivdod, Kushoniya, Xariman, Arqud, Romiton, Varaxsha, Poykand kabi savdo hunarmandchilik shaharlari mavjud edi.

Eftalitlar davrida tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlandi. Tashqi savdoda asosiy hamkorlar Eron, Vizantiya, Hindiston va Xitoy davlatlari bo'lgan. Xalqaro tranzit savdo yo'lining iqtisodiyot uchun ahamiyatini yaxshi bilgan eftalitlar «Buyuk Ipak yo'li»ning mamlakat hududidan o'tgan tarmog'ida qattiq nazorat o'rnatgan. Ichki bozorda karvon savdosidagi vositachilikda so'g'diylar forslar bilan raqobat qilgan.

Markaziy Osiyo savdogarlari mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan xalqaro savdoda ishtirok etgan. Oltin, kumush, Badaxshon la'lidan tayyorlangan mahsulotlar, rangli shisha va shisha buyumlar, turli xil mevalar, ip-gazlama, qorako'l teri, zotdor otlar qo'shni davlatlarga chiqarilar edi.

Ichki savdoda Buxoro, Poykand, Samarqand va Xorazmning mahalliy hokimlari tomonidan zarb qilingan mis chaqalar muomalada bo'lgan. Tashqi savdoda eftalitlar va sosoniylar kumush tangalaridan foydalanilgan. Tovar-pul munosabatlari markaziy va mahalliy hokimiyat vakillari tomonidan qattiq nazorat qilingan.

Eftalitlar davrida feodal munosabatlarning rivojlanishi ijtimoiy muammolarni keskinlashtirdi. Amaldorlar va yirik mulkdorlarning zulmi va asorati kuchaydi. Jamiyatda mehnat ahli huquqining poymol etilishiga qarshi adolat va qonuniylikni talab qiluvchilar harakati yuzaga keldi. Mehnatkash fuqarolarning g'alayonlari ko'payib bordi.

VI asr boshlarida Eron va Markaziy Osiyoning ayrim hududlarida mazdakiylar harakati bo'lib o'tdi. Mazdak Hamdadon (470-529) boshchiligidagi bu harakat ijtimoiy-diniy tus oldi. Harakatning g'oyaviy asosi zardushtiylik mafkurasi edi. Mazdakiylar adolat uchun kurash jamiyatda boyliklardan teng foydalanish huquqining tan olinishga olib keladi deb hisoblagan. Tenglikka erishish uchun «z» harfi bilan boshlanuvchi to'rt narsani (zamin (yer); zar (boyliklar); zo'rlik (hokimiyat); zan (ayollar)ni) adolatli taqsimlashga da'vat etgan. Harakatda aholining turli tabaqalari ishtirok etgan. Uning davlat tuzumiga jiddiy havf solishi sababli 529-yilda Mazdak hibsga olinib qatl etildi. Kubodning o'g'li Xusrov I Anushervon (531-579) davrida o'tkazilgan islohotlar natijasida mazdakiylar harakati barham topdi.

Eftalitlar davrida madaniyatga ko'chmanchi chorvadorlar an'analarning ta'siri kuchaydi. Ular ta'sirida moddiy yodgorliklar dag'al ko'rinish

olgan va sodda ishlov berilgan. Xorazm, Buxoro va Qashqadaryo vohalaridan topilgan madaniy yodgorliklarda bunday o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Toxariston va Sharqiy So'g'dda madaniy an'analar kuchli bo'lganligi bois mahalliy an'analar saqlanib qolgan.

Diniy e'tiqodda tolerantlik g'oyalari ustuvorlik qilgan. So'g'dda otashparastlik keng yoyilgan, Toxariston va Sharqiy Turkistonda budda diniga e'tiqod qiluvchilar ko'pchilikni tashkil etgan. Moniylik, mazdakiylik, nasroniylik va iudaizm dinlariga e'tiqod qiluvchilar ham bo'lgan. Dindorlar orasida zardushtiylar ko'pchilikni tashkil etgan.

V-VI asrlarda alifboning takomillashuvi jarayoni davom etdi. Mamlakatda Samarqand, Xorazm va Eftal alifbolari muomalada bo'lgan. Eftalitlar alifbosi baqtriya alifbosi asosida yaratilgan. Alifbo 25 ta harfdan iborat bo'lib, xat chapdan o'ngga qarab yozilgan. Eftalit alifbosi namunalar Zangtepa, Qoratepa, Afrosiyob xarobalaridan, Kofirqal'adan topilgan.

3-§. Turk hoqonligi

Turkiy elatlar qadimdan Dnepr daryosining quyi oqimidan Oltoygacha, Ural tog'laridan Shimoliy Eron va Shimoliy Afg'onistongacha bo'lgan hududlarda yashagan. Bu hududlarda yashagan til madaniy birligi asosida birlashgan qabilalarni turk nomi bilan atashni 542 yil bilan qayd etilgan manbalardan ko'rish mumkin. Turk so'zi kuchli, baquvvat degan ma'nolarni anglatadi.

VI asrning boshlarida Oltoyda (Janubiy Sibir va Janubiy Mo'g'uliston) hukmdorlar Asan (Asyan) va Tuu (460 – 525) davrlarida turkiy qabilalar ittifoqi vujudga kelgan. Tuuning o'g'li Bumin 552 yilda Turk hoqonligi davlatiga asos soldi. Davlat hukmdori hoqon (turkcha – kagan) deb yuritilgan. Oltoydagi Utukan shahri hoqonlikning poytaxti edi. VI asrning o'rtalarida Turk hoqonligi chegaralari eftalitlar davlati bilan tutashadi. Hoqonlik eftalitlarga qarshi kurashda Sosoniylar davlati bilan ittifoq tuzgan. Eftalitlar bilan dastlabki to'qnashuv 552–553 yillardagi Istemi qo'shinining yurishida yuz bergan. Hoqonlik qo'shinlari 563–567- yillar davomida eftalitlarga ketma-ket zarba berib, Eron chegaralarigacha bo'lgan hududlarni egallagan.

Hoqonlik bosib olgan hududlarda ilgari boshqaruv tizimi saqlangan. Turkiy aslzodalar asosan bosh qarorgohlarda o'rtnashib olib bo'ysundirilgan xalqlarni mahalliy hukmdorlar yordamida boshqarar edi. Bunday boshqaruv tartibi siyosiy tarqoqlikning kuchayishi va mahalliy hukmdorlarning mustaqil siyosat yuritishiga olib keldi.

Turk hoqonligi davrida Zarafshon, Amudaryo va Qashqadaryo vohalarida 9 ta mustaqil hokimlik vujudga keldi. Ular orasida Samarqand,

Buxoro, Xorazm va Choch (Toshkent) hokimliklarining nufuzi baland edi. Mustaqil hokimliklar o'rtasida siyosiy hukmronlik uchun kurash borar edi.

Mamlakatdagi o'zaro urushlar va ijtimoiy zulmning kuchayishi sababli 585-586 yillarda Buxoroda qo'zg'olon ko'tariladi. Unga turk shahzodasi Abro'y boshchilik qiladi. Qo'zg'olonchilar tuzgan hukumat ko'pchilik aholi manfaatiga mos siyosat yuritdi. Yirik mulklar cheklandi, zodagonlar ustidan qattiq nazorat o'rnatildi. Siquvga olingan yirik mulkdorlar Turkistonga qochdi. Lekin hoqonlik hali qudratli edi. Hoqon Qora Churin yuborgan qo'shinlar qo'zg'olonni bostirdi.

VI asrning 80-yillari oxirlarida boshlangan o'zaro urushlar 603 yilda hoqonlikning ikki qismga bo'linishi bilan yakunlandi¹. Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkiston va Jung'oriya (Xitoyning shimoli-g'arbi) hududlarini birlashtirgan G'arbiy turk hoqonligi; Mo'g'ulistonda Sharqiy turk hoqonligi vujudga keldi. G'arbiy hoqonlik hukmdorlarining yozgi qarorgohi Isfijob yaqinidagi Mingbuloqda, qishki qarorgohi Suyob shahrida joylashgan.

Hoqon To'n yabg'u (To'n shoh) davrida markaziy hokimiyatni kuchaytirish va viloyatlar ustidan nazorat ishlarini yaxshilash maqsadida ma'muriy islohot o'tkaziladi. Viloyat hokimlariga «yabg'u» unvoni berildi. Hokimlar hoqonning noiblari deb e'lon qilindi. Viloyatlarga «tudun» unvoni bilan hoqonning vakillari yuborildi. Tudunlarga viloyat noiblarining faoliyatini nazorat qilish va soliq siyosatini tartibga solish vakolati berildi.

Hoqonlikda davlat hokimiyati hukmron sulola qo'lida markazlash-tirildi. Hukmdorning hokimiyati urug'-aymoq udumlariga tayangan harbiy ma'muriy boshqaruvga asoslangan. Taxt otadan-farzandga emas, balki kattadan-kichikka, akadan-ukaga, kichik amakidan-katta jiyanga (udal tartibida) o'tar edi. Hoqon oliy hukmdor bo'lib, uning hokimiyati cheklanmagan. Hoqonga davlatni idora etishida ko'p sonli qarindoshlari va davlat boshqaruv apparati yordam bergan. Davlat hokimiyatida rahbarlik lavozimlari hoqonning qarindoshlari va urug'i vakillari orasida taqsimlangan. Hoqondan keyin turuvchi mansabdor shaxsga *yabg'u* (bahodir) unvoni berilgan. Yabg'u birinchi amaldor – vazir vazifasini bajarar edi. Yabg'ularga taxtni egallash uchun da'vogarlik huquqi berilmagan. Taxt vorisi *tegin* (shahzoda) deb yuritilgan. Bu unvon faqat sulola vakiliga berilar edi. Hukmdorning joylardagi noibi (nazoratchisi) *tudun* deb atalgan.

Ijtimoiy munosabatlar huquq normalari asosida tartibga solingan. Qonunga ko'ra, davlatga qarshi jinoyatlar (qo'zg'olon, xiyonat)ga va odam o'ldirgan kishiga o'lim jazosi berilgan. Kishining jinoyat sodir etganligi isbotlansa, tana a'zolarini kesib tashlash amaliyoti keng qo'llanilgan. Fuqaroga mulkiy zarar yetkazgan kishi o'n barobari miqdorida tovon to'lagan.

¹ *Гафуров Б.Г.* Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. – Душанбе. 1989. – С. 271.

Soliq to'lovchi aholining asosiy qismini chorikor-hunarmandlar va ziroatkorlar tashkil etgan. Qullar hamda turli toifadagi xizmatkorlar ijtimoiy tabaqalarning eng pastida turgan. Ko'chmanchi turklarning asosiy qismi kambag'al chorvadorlar va ovchilardan iborat edi. Ular *budun* yoki *qora budun* deb atalgan.

Hoqonlik davrida shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy markaz sifatidagi o'rni tobora ortib bordi. Buxoro, Samarqand, Ishtixon, Toshkent, Isfara, Qubo (Quva), Koson kabi shaharlar ancha taraqqiy etgan savdo-sotiq va hunarmandchilik markazlari bo'lgan. Ular Buyuk Ipak yo'li xalqaro savdosida faol ishtirok etgan. Mahalliy hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan to'qmachilik, zargarlik buyumlari, qurol-aslahalar nafis, sifatli va xaridorgir bo'lib turli yurtlarga chiqarilgan.

4-§. Madaniy hayot va diniy e'tiqodlar

Turk hoqonligi davriga oid madaniy yodgorliklar mintaqamizda juda kam saqlanib qolgan. Bolaliktepa, Varaxsha, Afrosiyob, Panjikent va Quva xarobalarida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar o'sha davrda me'morchilik, tasviriy san'at va haykaltaroshlik taraqqiy etganligini ko'rsatadi.

Turk hoqonligi hukmronligi davrida yozuvning takomillashuvi jarayoni davom etdi. Uning turlari ko'payib bordi. Oromiy, So'g'd va Xorazm yozuvlari bilan birga turk yozuvlari muomalada bo'lgan. Turk-ruin, Urxun-Enasoy yozuvi, Kultegin bitiklari, Bilga hoqon yodnomasi va boshqa topilmalar turk yozuvi tur jihatdan xilma-xil bo'lishi bilan birga qadimiylikda boshqa yozuvlardan ortda qolmaganligini bildiradi. 1970-yilda Almati yaqinidagi «Issiq» degan joydan topilgan va fanga «Issiq yozuvi» nomi bilan kirgan turkiy yozuv, uning tarixi miloddan avvalgi II-I asrlarga borib taqalishini ko'rsatadi.

Hoqonlikda yashagan xalqlarning diniy e'tiqodi turlicha edi. Markaziy Osiyoga kirib kelgan turkiy xalqlar tabiat jismlariga (yer-suv, quyosh, oy, daraxt va h.k.), jonzotlarga (bo'ri, tuya va h.k.), ruhlar (animizm)ga, xudolarga sig'ingan. Osmon xudosi Tangri turk qavmlarining oliy xudosi hisoblangan. Ruhning abadiyligi, odam o'lganidan keyin ham narigi dunyoda hayotini davom ettirish to'g'risidagi tasavvurlar mavjud edi.

Ko'chmanchi turklar diniy e'tiqodi bilan birga, zardushtiylik, otashparastlik, buddaviylik va nasroniylik (xristianlik) dinlari rivojlandi.

Kishilik jamiyati tarixida turli siyosiy, diniy va etnik an'analarga ega bo'lgan davlatlar va xalqlar o'rtasidagi manfaatli madaniy va iqtisodiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirishda savdo yo'llari beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan. Ular qatorida Buyuk Ipak yo'li alohida o'rin tutgan. U Atlantika okeani qirg'oqlaridan Tinch okeani sohillarigacha cho'zilib, butun Osiyo qit'asi bo'ylab O'rta yer dengizi davlatlarini Uzoq Sharq davlatlari bilan birlashtirgan.

Qadimda Yaqin va O'rta Sharqdagi turli o'lkalar va tarixiy-madaniy viloyatlarni bog'lab turgan karvon yo'llarining vujudga kelishi neolit davriga (mil. avv. VI-IV ming yilliklarga) borib taqaladi. Lekin bizga ma'lum savdo tranzit yo'llari bronza davriga kelib paydo bo'ldi. Bronza davrining yirik karvon yo'llaridan biri «Lojuvard yo'li» deb atalgan. Mesopotamiyada Badaxshondan olib kelingan lojuvard xaridorgir edi.

Bronza davridagi yana bir yo'li Badaxshondan janubi-sharqqa tomon Afg'oniston orqali Markaziy Osiyoning qadimgi xalqlarini Mesopotamiyaning shaharlari – Ur, Uruk, Kish, Lagash va boshqalar bilan bog'lagan.

Bronza davrining uchinchi yo'li Markaziy Osiyoning janubidagi Baqtriya va Marg'iyonani Hindistondagi Xarappo va Mohinjo Daro madaniyat markazlari bilan bog'langan. Mil. Avv. II ming yillikka kelib Farg'ona va Choch hududlari ham Qadimgi Sharq bilan aloqalar o'rnatdi.

Bronza davrida karvon yo'llari orqali qimmatbaho toshlar, fil suyagi, metall va undan ishlangan buyumlar, taqinchoqlar, ba'zi hollarda chorva mollari va g'alla tashilgan.

Mil. Avv. I ming yillikning birinchi yarmiga kelib «Shoh yo'li» vujudga keldi. Bu yo'lining bir tarmog'i mil. Avv. VI-IV asrlarda Kichik Osiyo shaharlarini hamda O'rta Yer dengizi bo'yidagi Efes, Sardi shaharlarini Eronning markazlaridan biri Suza bilan bog'lagan bo'lsa, yana bir tarmog'i Erondan Baqtriya orqali So'g'diyona, Toshkent vohasi va Qozog'iston hududlaridan o'tib Oltoygacha borgan.

Tadqiqotchilarning fikricha, mil. Avv. III asrning oxiri—II asrlarda xalqaro ahamiyatga va aniq yo'nalishga ega bo'lgan savdo-tranzit yo'li shakllana boshlaydi. Bu yo'li XIX asrning ikkinchi yarmida (1877) nemis olimi Vilgelm Rixtgofer tomonidan («Xitoy» kitobida) «Ipak yo'li» deb ataldi va keyinchalik butun dunyo tadqiqotchilari tomonidan «Buyuk Ipak yo'li» deb e'tirof etildi.

Miloddan avvalgi III asrga kelib, Xitoy bilan aloqalar o'rnatila boshlangan. Xitoy imperatori U Di miloddan avvalgi 138-yilda o'z elchisi Chjan Syanni ko'chmanchi qabila xunnlariga qarshi kurashda ittifoqchi izlash uchun jo'natadi. U Markaziy Tyanshan dovonidan o'tib, Issiqko'lga va undan Farg'ona vodiysiga yetadi. Chjan Syan o'zining imperatorga yozgan bayonnomasida savdo-sotiq uchun qulay yo'llarni ko'rsatadi. Keyinchalik bu Buyuk Ipak yo'li degan nom oladi.

Buyuk Ipak yo'lining uzunligi 12 ming kilometrni tashkil qilgani sababli, savdogarlarning juda ozchiligi bu yo'lini to'liq bosib o'tgan. Asosan, ular navbatma-navbat sayohat qilganlar, ba'zida, tovarlarini yarim yo'lda ayirboshlash bilan kifoyalangan. Yo'li bo'ylab, karvonlar o'tuvchi shahar va qishloqlarda karvonsaroylar joylashgan. Ularda savdogarlar, karvon xizmatchilariga barcha shart-sharoitlar muhayyo bo'lgan.

Buyuk Ipak yo‘li Xitoydan bir necha tarmoqlarga ajralgan. Bosh yo‘l Dunxuan, Xami, Turfon, Kashmir, O‘zgan, O‘sh, Quva, Andijon, Qo‘qon, Samarqand, Buxoro va Marv orqali o‘tgan. Marvda (Turkmanistonning hozirgi Mari shahri) Buyuk Ipak yo‘li tarmoqlarga — shoh yo‘llarga ajralgan. Shoh yo‘llardan biri Xorazm orqali Volgaga, Sharqiy Yevropaga olib borgan. Shunday qilib, Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo tovarlari Rossiya, Kiyev, Novgorodga, keyinchalik Moskvaga yetib borgan. Moskva bozorlarida asosan Sharq, hind savdogarlari savdo qiluvchi qatorlar mavjud bo‘lib, ular «hind qatorlari» deb nomlangan. Boshqa bir shoh yo‘l Balx va hozirgi Afg‘oniston yerlari orqali Hindistonga olib borgan. Uchinchi Bag‘dod tomonga, undan O‘rta yer dengiziga o‘tgan. Bu yerda tovarlar kemalarga ortilib, Misr, Vizantiya, Italiyaga olib ketilgan.

Buyuk Ipak yo‘lining asosiy yo‘llaridan tashqari, ularga tutashib ketuvchi kichik shahobchalari ham mavjud edi. Ma‘lumki, shu davrda «oltin yo‘l» mavjud bo‘lgan. Bu yo‘l Qurama va Oloy tog‘lari hamda Zarafshon daryosining afsonaviy boyliklari bilan bog‘liq holda shunday deb atalgan. Yana «kumush» yo‘l ham mavjud bo‘lib, undan Markaziy Osiyo kumushi ortilgan karvonlar shu metall yetishmaydigan davlatlar Volga Bulg‘oriyasi, Kiyev Rusi va Yevropa mamlakatlariga olib o‘tilgan.

XV-XVI asrlarda Xitoy va Hindistonga yangi dengiz yo‘llarining ochilishi natijasida tovarlar dengiz orqali olib chiqila boshlanganda savdo aloqalarida Markaziy Osiyo savdogarlarining ishtiroki davom etgan. Markaziy Osiyoga XVI-XIX asrlarda ham Xitoy ipaklari, ipak keyim-kechaklar va chinni buyumlari kelib turgan.

XVI asrdan Markaziy Osiyo va Xitoy o‘rtasidagi diplomatik aloqalar susayib bordi. Bunga sabab dengiz yo‘llarining ochilishi, feodal urushlarning avj olishi, Shayboniylar va Eron safaviylari o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarning keskinlashuvidir. Markaziy Osiyo shaharlarining boshqa davlatlar savdo markazlaridan ajralib qolishi karvon yo‘llari orqali amalga oshiriladigan savdo-sotiq aloqalari pasayib ketishiga sabab bo‘ldi. Bu holat Markaziy Osiyoning xalqaro savdo aloqalariga salbiy ta‘sir etgan¹.

Buyuk Ipak yo‘lini o‘rganish va qayta tiklashga O‘zbekiston rahbariyati ham alohida e‘tibor qaratmoqda. Chunonchi, respublikamiz hududida uyushtirilgan ekspeditsiyalar natijasida ko‘pgina tarixiy-madaniy obidalar tadqiq etildi. Qadimgi yo‘llar va yo‘nalishlar aniqlandi, milliy-ma‘naviy boyligimiz hamda an‘analarimiz o‘rganildi. Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari Xalqaro Instituti ochilgan bo‘lib, uning asosiy

¹ *Фуломов Х., Татибаев А.* Марказий Осиё ва Жаҳон тарихи. – Т. 1993. – Б.13-14.

yo‘nalishlaridan biri Buyuk Ipak yo‘li va uning bo‘ylarida joylashgan shaharlarni o‘rganishdir.

Prezident Islom Karimov ta‘kidlaganidek, «Diyorimiz kishilari qadim zamonlardan o‘zlariga ma‘lum Insoniyat bilan hamfikir bo‘lib keldilar, yaqindan aloqa bog‘lab turdilar. Osiyoning qa‘ridan yaqin Sharqqa, Ovrupoga va Afrikaga olib boradigan Buyuk Ipak yo‘li, butun madaniy olamga taniqli olimlar va mutafakkirlar, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva singari davlatlar va shaharlar yaratuvchilari bo‘lmish ulug‘ ajdodlarimizning ijodiyoti o‘zining ulug‘vorligi va go‘zalligi bilan hozirgacha hammani lol qoldirmoqda»¹.

O‘zbekiston BMTning «Tranzit yuk tashish hamkorligini rivojlantirish orqali savdo-sotiqni kengaytirish dasturi»ning faol ishtirokchisi. Bu dastur Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligida amalga oshirilib, ularning dengiz portlariga chiqishlariga imkon beruvchi va Buyuk Ipak yo‘lining tiklanishiga asos bo‘ladigan tranzit transport yo‘lagi yaratish sohasidagi o‘zaro hamkorlik yo‘nalishlari ishlab chiqilmoqda.

1993-yilning may oyida Bryusselda Yevropa komissiyasi tomonidan Markaziy Osiyo va Kavkaz hamda Yevropa Ittifoqi davlatlari vakillarining uchrashuvi tashkil etildi. Uchrashuvda TRASEKA Yevropa – Kavkaz – Osiyo transport yo‘lagini tashkil etish masalasi ko‘rib chiqildi. Bu uchrashuv Buyuk Ipak yo‘lini tiklash sari qo‘yilgan birinchi qadam bo‘ldi. Unda Pekin bilan Istambulni birlashtiruvchi, Transosiyo magistralining asosiy qismi bo‘lgan Tadjan-Saraxs-Mashhad temir yo‘l tarmog‘i qurilishi belgilandi. 1997-yilning may oyida O‘zbekiston ham o‘z hissasini qo‘shgan Mashhad—Saraxs, Saraxs—Mashhad temir yo‘li ochildi.

O‘zbekiston temir yo‘l qurilishi bilan birga Andijon—O‘sh—Irkishtom—Qashqar avtomobil yo‘llari qurilishi va rekonstruksiyasida ishtirok etdi. Bu yo‘llar Xitoy va Pokistonga hamda Buxoro—Saraxs—Mashhad—Tehron va Termiz – Hirot—Qandaxor—Karochoiga, Hind okeaniga chiqishga imkon berdi.

Xulosa qilib aytganda, ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda Eftalitlar va Turk hoqonligi kabi davlatlarning vujudga kelishi mintaqadagi turkiy qabilalarning jiplashuviga xizmat qildi va bir qator turkiy xalqlarning shakllanishiga asos soldi.

¹ *Каримов И.А.* Ўзбекистон, миллий истиклол, иқтисод, сиёсат, мафкура.Т.1. –Т..1996, – Б.78.

V bob
**IX-XII ASR BOSHLARIDA O‘ZBEK DAVLATCHILIGI. SIYOSIY,
IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT**

1-§. Arab istilochilarining Markaziy Osiyoga yurishi

VII asrning boshlarida Arabiston yarim orolida feodal munosabatlar shakllana boshlaydi. Arablarni birlashtirish harakatining markazi Hijozning bosh shahri Makka shahri edi. Markazlashtirish harakati ko‘pxudolikka qarshi kurash ko‘rinishini oladi.

Qurayish qabilasining hoshimiylar urug‘idan chiqqan Muhammad ibn Abdulloh (570-632) 610-yilda Allohdan vahiy kelayotganligini e‘lon qilib, arablarni rahmdil va qudratli, sahiylik bilan muruvvatlar ulashadigan yagona Allohga imon keltirishlariga da‘vat etdi. Madina aholisi musulmon jamoasi «umma» birlashtiriladi. Arablarni islom bayrog‘i ostida birlashtirish uchun kurash davom etdi. Arablar 630-yilda feodal islom davlatiga birlashtirildi. Muhammad (s.a.v.) payg‘ambar vafot etgach (632-y.), «Xulofoiy rashoddin» (haq yo‘ldan borgan sahih xalifalar) nomlarini olgan Abu Bakr, Umar, Usmon va Alilar (661-yilgacha) payg‘ambar siyosatini davom ettirib, Arabiston yarim orolida markazlashgan Arab xalifaligi (arabcha – o‘rinbosar degan ma‘noni anglatadi) davlatiga asos solinadi.

VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalifalik faol istilochilik urushlari olib borib, chegaralarini kengaytirishga harakat qildi. Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari bosib olindi. Arablar Amudaryodan (Jayhun) shimolda joylashgan yerlarga «Movarounnahr», ya‘ni «daryoning narigi tomonidagi yerlar» deb nom berganlar. hozirgi Afg‘onistonning shimoli, Eronning shimoli-sharqiy qismi hamda Janubiy Turkmanistondan Amudaryogacha bo‘lgan hududlar esa Xuroson deb yuritilgan. Xurosonning markazi Marv, keyinchalik Hirot shahri bo‘lgan.

Arablarning Movarounnahrda harbiy yurishlari maqsad va vazifalariga ko‘ra ikki davrga bo‘linadi: 1) 650-705-yillar, Movarounnahrda talonchilik yurishlar davri; 2) 705-715-yillar, Movarounnahrning to‘liq bosib olinishi davri.

651-yili noib Abdulloh ibn Amir hukmronligi davrida arablar Xurosondagi Nishopur, Obinahr, Tus, Jom, Obivard va boshqa katta-kichik qo‘rg‘on shaharlarni egalladilar. Balx yaqinidagi hal qiluvchi jangda (652-y.) arablar Balx shahrini egallashadi. 652-yil boshida Xuroson noibi

Abdulloh ibn Amir Chag‘oniyonni egallashga muvaffaq bo‘ladi. Bu esa ilk bor Movarounnahr yerlarini egallash edi. 654-yili Sug‘ddagi Maymurg‘ qal‘asiga arablarning birinchi hujumi bo‘ladi. 657-yili Chag‘oniyonga arablar qayta yurish qilib turklarga zarba berdilar. 661 yili hokimiyatga yangi Ummaviylar (661-750) sulolasining kelishi harbiy harakatlarning faollashuviga sabab bo‘ladi. Narshaxiyning yozishicha, 673-yilning kuzida xalifa Muoviyaning farmoni bilan Xuroson noibi Ubaydulloh ibn Ziyod Amudaryodan kechib o‘tib Buxoro viloyatiga bostirib kiradi, Poykand va Romitonni egallab, Buxoro shahrini qamal qiladi¹.

Xalifa Abdulmalik ibn Marvon (685-705) davrida arab bosqinining ikkinchi davri, ya‘ni, Movarounnahr yerlarini xalifalikka butunlay qo‘shib olish boshlanadi.

Xuroson noibi Qutayba o‘z harbiy yurishlarini 705-yil Balx viloyatini bosib olish bilan boshladi. Balxdan tashqari Qutaybaga Chag‘oniyon, Shuman va Markaziy Osiyoning janubidagi kichik viloyatlar bo‘ysunadi. 706-yili Qutayba katta qo‘shin bilan Movarounnahrda kirib keladi. Tarixchi Tabariyning ma‘lumotlariga ko‘ra, Qutayba eng obod va boy shaharlardan biri Poykandni egallaydi. Shahardagi og‘ir janglardan so‘ng Poykand arablar qo‘liga o‘tadi.

Poykand fojiasidan so‘ng Qutaybaga zarba berish maqsadida So‘g‘d podshosi Tarxun, Buxoro hukmdori Xunukxudod, Shopurkom hokimi Vardanxudod boshliq katta qo‘shin yig‘ildi. Ularga turklar yordamga kelib, 40 ming kishi atrofida qo‘shin to‘planadi. Qutayba qurshovda qoladi. Lekin lashkarboshi hiyla ishlatib, butunlay tor-mor bo‘lishdan qutulib qoladi.

708-709-yillar mobaynida Buxoro va uning atrofidagi yerlarga hujum boshlandi. Buxorxudot Tug‘shod qo‘shinlari tor-mor etiladi. U 710-yilda Samarqandga yurishga tayyorgarlik ko‘rayotgan vaqtda Xorazmdagi hokimiyat uchun kurashga aralashadi. 711-yilda Xorazmshoh Chag‘onning ukasi Xurzod boshliq xalq harakati bostiriladi. Xorazmshoh Chag‘on arablarga qaram bo‘lib qoladi. 712-yilda Qutayba bo‘ysundirilgan viloyatlar ko‘shini bilan birgalikda Samarqandga yurish boshlaydi. Samarqand hukmdori G‘urak (710-737) arablarga qattiq qarshilik ko‘rsatsa-da, yengiladi². Tuzilgan shartnomaga ko‘ra, G‘urak So‘g‘d, Kesh va Nasaf hokimi lavozimiga tayinlanadi. G‘urak 3 ming ta qo‘y, 50 ming misqol oltin, 2 mln. dirham pul, 2 ming bo‘lak gazmol to‘lash majburiyatini oladi. Qutayba Samarqanddan ketish paytida bu yerda o‘z ukasi Abdurahmon ibn Muslimni saralangan qo‘shin bilan qoldiradi. 713-yilga kelib

¹ *Наршахий Абу Бакр*. Бухоро тарихи – Т., 1991. – Б. 115–119.

² *Айний С. Муқанна исёни*. – Т., 1994. – Б.12–13.

Movarounnahrda Qutayba qo‘shinlariga jiddiy qarshilik ko‘rsatadigan kuch qolmadi. 715-yilda Qutayba Qashqargacha bo‘lgan yerlarni bosib oldi.

Arablar Markaziy Osiyoni o‘n yil davomida bosib oldi. Bunga sabab mintaqadagi siyosiy tarqoqlik, mahalliy hukmdorlarning shaxsiy manfaatlarini davlat manfaatidan ustun qo‘yishidir. Bosqin davrida arablar viloyat hokimlarining o‘zaro kurashidan ustalik bilan foydalangan. Ular mustaqil viloyatlarning o‘zaro birlashuviga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qildilar. Bundan tashqari, ozodlik uchun kurashgan xalq, mahalliy hukmdorlarning olib borgan noto‘g‘ri siyosati sababli mag‘lubiyatga uchradi.

Arablar o‘lkani bosib olish chog‘ida dehqonchilik vohalari cho‘lga aylandi, shahar va qishloqlar vayron etildi. Suv inshootlari buzib tashlandi. Ko‘pgina joylarda qurg‘oqchilik boshlandi. Arablar zulm va zo‘ravonlikni kuchaytirdi. Xalq ikki tomonlama zulm siyosati ostida qoldi. Bosqinchilar arablashtirish siyosatini olib bordilar. Movarounnahrda minglab arablar ko‘chirib keltirildi. Qutayba ibn Muslim mahalliy xalqlar uy-joylarining yarmini tortib olib, ko‘chirib keltirilgan arablarga bo‘lib bergan. Faqat Samarqand shahriga quraysh qabilasidan besh ming arab ko‘chib kelib joylashdi¹.

Movarounnahrda Arab xalifaligi mahalliy soliqlarni saqlab qolib, yangi yer solig‘i – xiroj (hosilning uchdan bir qismi), chorva, xunarmandchilik va savdo-sotiqdan zakot (daromadning qirqdan bir qismi), ushr (daromadning o‘ndan bir qismi) hamda juzya (boylar uchun 48 dirxam, o‘rta hollarga 24 dirxam, kambag‘allarga 12 dirxam) jon solig‘ini joriy qildi.

Bosqinchilar hukmronligining siyosiy negizini mustahkamlashda islom dinidan foydalandi. Markaziy Osiyo aholisi e‘tiqod qilgan zardushtiylik, moniylik, buddizm, nasroniy va boshqa dinlar soxta deb e‘lon qilindi. Ayniqsa zardushtiylikka qarshi keskin kurash olib borildi. Bosib olingan yerlarda bu dinning barcha ibodatxonalari yo‘q qilindi. Ularning ayrimlari o‘rniga masjidlar barpo qilindi. Zardushtiy adabiyot, xususan diniy kitoblar, so‘g‘d tilidagi nomalar yo‘q qilindi.

Islom dinini qabul qilgan mahalliy aholi vakillari dastlab xiroj va juzya soliqlaridan ozod etildi va boshqa imtiyozlar berildi. Namoz o‘qish uchun masjidlarga borganlarga 2 dirhamdan pul ulashilar edi. Masalaning nozik tomoni shundaki, islom dinining ko‘p jihatdan afzalligi, axloq va intizom nuqtai nazaridan ommaviylik xususiyati arablar bosib olgan mamlakatlar aholisi tomonidan uni tez orada qabul etilishiga sabab bo‘ldi. Aholi islomning mohiyatini anglaganidan keyin, unga rag‘bat va e‘tiqod paydo bo‘ladi. Savdo, maishiy hayot, zakot masalasida Qur‘on va shariat qoidalari

¹ *Наршахуй Абу Бакр*. Бухоро тарихи. – Т., 1991. – Б.128–130.

aholi tomonidan qabul qilindi. Alloh oldida musulmlarning tengligi dinning ahamiyatini kuchaytirar edi. Islomning xalqparvarlik ruhi uning qabul qilinishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi.

2-§. Arablar istibdodiga qarshi Movarounnahr xalqlarining ozodlik kurashi va uning oqibatlari

Arablarining bosqinchilik siyosatiga qarshi Markaziy Osiyo xalqlarining ozodlik kurashi to‘xtamadi. Soliqlarning ko‘pligi, arablashtirish siyosati, mahalliy aholi huquqlarining poymol etilishi ularning noroziligiga sabab bo‘ldi. Arab bosqinchilariga qarshi kurash umumxalq qo‘zg‘olonlar tusini oldi.

Movarounnahrda arab istibdodiga qarshi dastlabki yirik qo‘zg‘olon 720-722-yillarda So‘g‘diyona G‘o‘rak (So‘g‘d ixshidi) va Divashtich (Panjikent hokimi) boshchiligida bo‘lib o‘tdi.

725-729-yillarda xalifalikning og‘ir soliq siyosatiga qarshi Samarqand, Buxoro va Xuttalon viloyatlarida qo‘zg‘olonlar bo‘lib o‘tdi. Qo‘zg‘olon ishtirokchilari arab ma‘murlarining olib borgan siyosatiga norzilik bildirib ommaviy ravishda islom dinidan chiqadilar.

736-737-yillarda Tohariston va So‘g‘dda arablarga qarshi xalq qo‘zg‘olonlari bo‘lib o‘tdi. Faqat Nasr ibn Sayyor noibligi davrida (738-748) o‘lkada osoyishtalik o‘rnatildi.

746-yilda Xuroson va Movarounnahrda abbosiylik harakatiga boshchilik qilish uchun Abu Muslim (asli ismi Abduraxmon ibn Asad, taxminan 727-755-yillar) yuboriladi¹. Abbosiylarning ramziy rangi va bayrog‘i qora edi. Shuning uchun u qora kiyimliklar harakati deb nom olgan. Abu Muslim harakati tez orada butun Xuroson va Movarounnahrda yoyildi. 749-yilda Abu Muslim qo‘shinlari xalifalikning markaziy viloyatlariga ham kirib borib, Damashqni egallaydi. Xalifa Marvon II taxtdan ag‘dariladi, abbosiylardan Abulabbos Saffoh (749-754) xalifalik taxtini egallaydi. Xalifalik taxti abbosiylar sulolasi qo‘liga o‘tadi. Bunda Abu Muslimning o‘rni va xizmati nihoyatda katta bo‘ldi.

Abu Muslim abbosiylarni xalifalik taxtiga olib kelgan bo‘lsa-da, lekin undan asosiy taxt da‘vogari sifatida qo‘rqar edilar. Shu boisdan ham 755-yilda xalifa Abu Ja‘far Davonaqiy – Mansur (754-775) Makkaga kelgan Abu Muslimni hiyla bilan qo‘lga olib o‘ldiradi. Uning jasadi Samarqandga olib kelinib, Xo‘ja Temim Ansoriy maqbarasi yoniga katta hurmat bilan ko‘milgan. Abu Muslimning o‘chini olish uchun 755-yilda Rayda Sunbod

¹ *Айний С. Муқанна исёни* – Т., 1994. – Б. 16–17.

boshchiligida (70 kun davom etgan), Movarounnahrda Isxoq boshchiligida, 772-yilda Xurosonda Ustoz Siz boshchiligida va 782-yilda Jo'rajonda qo'zg'olonlar bo'lib o'tgan.

769-783-yillarda Movarounnahrda yirik «oq kiyimlilar» qo'zg'oloni bo'lib o'tgan. Bu qo'zg'olonning rahbari Hoshim ibn Hakim xalq orasida Muqanna (yuziga niqob kiygan ma'noda) nomi bilan tanilgan.

Muqanna Marv atrofida joylashgan Qozi qishlog'ida tug'ilgan. U kudungar (kigiz bosuvchi)lik hunarini o'zlashtirgan. Noyob iste'dod egasi bo'lib, juda ko'p qadimgi kitoblarni o'qigan. Xuroson noibi Abu Muslim davrida (750-755) sarxang-kichik lashkarboshi lavozimiga tayinlangan, xizmat pillapoyalaridan tez ko'tarilib, Abduljabbor Azdiy davrida (757-759) vazir lavozimiga tayinlangan. Davlat xizmatini o'tashi davomida Mazdakiylik g'oyasiga e'tiqod qiladi. Muqanna Xuroson amirining isyonida ishtirok etib, o'zini ijtimoiy adolat o'rnatuvchi maxdiy deb e'lon qiladi. Qo'zg'olon bostirilganidan keyin Muqanna zindonga tashlanadi. U zindondan qochib Marvga keladi. Bu yerda turib u aholini arab bosqinchilarini mamlakatdan haydab chiqarish va umumiy mulkiy tenglik o'rnatishga da'vat etadi. Muqannaning da'vatlari jamiyatning turli tabaqalari tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Lekin uning tarafdorlari Naqshab va Kesh shaharlarida ko'pchilikni tashkil etgan. U 776-yilda Marvdan Movarounnahrda o'tib Arab xalifaligiga qarshi qo'zg'olonga boshchilik qiladi. Qo'zg'olonning markazi Kesh yaqinidagi Som (Sanam) qal'asi edi. Tez orada butun Qashqadaryo vohasi qo'zg'olonchilar qo'liga o'tdi. Xalifa Abu Ja'far 776-yilda Jabroil ibn Yahyo boshliq qo'shinni Movarounnahrda yuboradi. Qo'zg'olonchilar bilan bo'lgan jangda Jabroil qo'shinlari yengiladi va Samarqandga chekinadi. Jabroilga yordamga yuborilgan qo'shin Termiz yaqinida qo'zg'olonchilar tomonidan tor-mor keltiriladi. Naqshab va Chag'aniyon qo'zg'olonchilar tomonidan egallanadi. 776-yildan qo'zg'olon Buxoro hududlarida avj olib, Eloq (Ohangaron vodiysi) hamda Shoshga o'zining kuchli ta'sirini o'tkazadi. Narshah qal'asida qo'zg'olonchilar to'rt oy davomida arab bosqinchilariga qarshi kurash olib bordilar. Bu janglarda arab bosqinchilari mahalliy zodagonlar ko'magida qo'zg'olonchilarni yengadi.

Samarqandda «oq kiyimlilar» arablarga qarshi ikki yil davomida kurash olib bordi. Xalifalikdan yordam olgan arablar qo'zg'oloni bostirdilar. Bosqinchilarga qarshi kurash 783-yilga qadar davom etdi. Som qal'asi uzoq davom etgan qamaldan keyin arablar tomonidan egallandi. Muqanna o'zini yonib turgan tandirga tashlab halok bo'ldi.

Muqanna boshchiligidagi oq kiyimlilar qo'zg'oloni mag'lubiyatga uchradi. Qo'zg'olonning mag'lubiyatga uchrashi sabablari quyidagilardan iborat:

1) qo'zg'olon ishtirokchilari uyushqoqlik bilan harakat qilmadi, uning asosini tashkil etgan dehqonlar o'z qishlog'idan bosqinchilarni quvib chiqarish bilan cheklangan;

2) xalq harakatining ommalashib ketganidan qo'rqqan mahalliy zodagonlar bosqinchilar tomoniga o'tib ketdi;

3) qo'zg'olonning uzoq vaqt davom etishi xalqni holdan toydirdi va qo'zg'olonning to'xtashiga olib keldi.

Muqanna qo'zg'oloni yengilgan bo'lsa-da, xalqning ozodlik uchun kurashi to'xtab qolmadi. Oq kiyimlilar qo'zg'olonidan so'ng, 806 yilda Rofe ibn Lays boshchiligida xalifalikka qarshi yana kuchli qo'zg'olon boshlandi. Bu qo'zg'olon Samarqandda boshlanib, Shosh, Farg'ona, Buxoro, Naxshab, Xorazm va boshka hududdarga ham yoyildi va xalifalikni larzaga keltirdi. Xuroson noibi Ma'mun mahalliy zodagonlar – Somonxudotning nabiralari Nuh, Ahmad, Yahyo va Ilyoslar yordami bilangina qo'zg'oloni bostirdi. Xullas, arablarga qarshi olib borilgan xalq qo'zg'olonlari Markaziy Osiyoda xalifalik hukmronligi ildizlariga bolta urdi va bu yerda mustaqil davlatlar vujudga kelishiga zamin yaratdi.

Markaziy Osiyo xalqlarining to'xtovsiz ravishda olib borgan kurashi arab xalifaligining tinkasini quritdi va xalifalik hokimlari mahalliy zodagonlar vakillarini xalifalik davlat hokimiyatining oliy darajalariga ko'tarishga majbur bo'ldilar.

3-§. Markaziy Osiyo hududida markazlashgan davlatlarning vujudga kelishi

Tohiriylar sulolasining inqirozga yuz tutishi natijasida IX asrda Movarounnahrda yangi — **Somoniylar** sulolasi paydo bo'ldi. Ma'munning xalifalik taxtini egallashida Movarounnahrlik Somon ibn Xudodning ham alohida xizmati bor edi. Shuning uchun ham xalifa Ma'mun o'ziga sodiq Somonxudod avlodlariga katta ishonch bildirib, ularga Movarounnahrning turli hududlarini mustaqil boshqarish huquqini topshirib qo'yadi. Ahmad 819-820-yillardan 864-865-yillargacha Farg'ona mulkida, No'h 812-820-yillardan 841-842-yillargacha Samarqandda, Yahyo 819-820-yillardan 841-842-yillargacha Samarqandda, Yahyo 819-820-yillardan 855-856-yillargacha Shosh va Ustrushonada hokimlik qiladilar.

Dastlabki davrlarda somoniylar tohiriylarga tobe bo'lib, ular orqali xalifalikka ma'lum miqdorda to'lovlar yuborib turganlar. Xalifalik xazinasiga Samarqand hududi 326 ming, Farg'ona – 280 ming, Shosh – 607 ming, Usturshon – 50 ming muhammadiy dirham miqdorida har yili to'lovlar yuborgan. Somoniylar, tohiriylardan farqli o'laroq, dastlab o'z

hududlarida kumush dirhamlar emas, balki mis tangalar zarb etganlar. Biroq asta-sekinlik bilan somoniy hukmdorlar o'z ta'sir doiralarini kengaytirib, o'lka mustaqilligini mustahkamlab borganlar. Ayniqsa, No'h ibn Asad vafotidan so'ng Nasr ibn Ahmad Somoniyning Samarqandga noib etib ko'tarilishi (855) hamda ko'p o'tmasdan Yahyo o'limidan keyin (856) Shosh va Ustrushon yerlarining ham uning tasarrufiga o'tishi Somoniylar davlati hududlarining birlashuvida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 865 yilda otasi Ahmad ibn Asad(865-892) vafotidan so'ng amalda Nasr Movarounnahrning birdan-bir yagona hukmdori bo'lib qolgandi.

Nasr I ibn Ahmad o'z davlatining sharqiy hududlarini ko'chmanchi qabilalarning hujumlaridan muhofaza qilish, so'ngra kuchli jangovar armiya tashkil qilish, Buxoro yerlarini tohiriylardan qaytarib olishdan iborat asosiy maqsad, vazifalarni ham muvaffaqiyatli hal eta oldi. Nasr Turkiston shahri tomon yurish qilib, ko'chmanchi qabilalar ustidan muhim g'alabaga erishadi. 874 yilda esa tohiriylarga qarshi ko'tarilgan Buxoro xalqi qo'zg'olondan foydalanib, Buxoroni ham o'z davlatiga qo'shib oladi. Buxoroni idora etishni Nasr ukasi Ismoilga topshiradi. Shu tariqa Movarounnahrning amaldagi mustaqilligi Nasr va Ismoil Somoniylar tomonidan ta'minlanib boshqariladi.

Nasr Ismoilni o'z noibi deb hisoblar edi. Ismoil ibn Ahmad Buxoroda o'z hokimiyatini mustahkamlab olgach, Samarqandga yuboriladigan soliqni yubormay qo'ydi. Shundan so'ng aka-uka o'rtasida nizo paydo bo'ladi: 886-yili Nasr va Ismoil qo'shinlari to'qnashdilar. Bu jangda Ismoil mag'lub bo'ldi va u vaqtincha Buxoro noibligidan tushirildi. Lekin ikki yil o'tgach aka-uka qo'shinlari o'rtasida yana to'qnashuv bo'ldi. Bu jangda Ismoilning qo'li baland keldi. Nasr qo'shini tor-mor qilindi. Movarounnahr hukmronligi Ismoil qo'lga o'tdi. Lekin Ismoil Nasrdan taxtni tortib olmadi va Nasr o'z vafotigacha (892-yili) somoniylarning boshlig'i sifatida Samarqandda qoldi.

Nasr vafotidan so'ng Ismoil davlat boshlig'i bo'ldi. Poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko'chirildi. O'zaro janjal va isyonlarni bartaraf etgach Ismoil 893-yili ko'chmanchilarga qarshi qo'shin tortdi va Tarozni egalladi. U bu yerda xonni va uning 10 ming qo'shinini asir olib, bu jangda katta harbiy o'ljani qo'lga kiritdi.

Ismoil arab bosqinidan keyin birinchi bo'lib o'zaro janjallar, bosqinchilar tomonidan talangan o'lkani buyuk va qudratli davlatga aylantirish uchun o'zining bor kuch-g'ayratini ishga soldi.

Qudratli va markazlashgan davlat tuzish uchun Ismoil birinchi navbatda mahalliy zodagonlar va savdogarlarning manfaatlarini ko'zlab ish tutdi. Davlatning iqtisodiy kuch-qudratini oshirish, qishloq xo'jaligini, xunar-

mandchilik va savdoning rivojlanishi uchun keng shart-sharoitlar yaratib berish lozim edi. Shu maqsadda Ismoil yaxshi qurollangan, katta va saralangan qurolli kuchlarni tashkil qilishga kirishdi. U ayniqsa, turk g'ulomlaridan iborat qismlarni tuzishga katta e'tibor berdi. Natijada Somoniylar davlati tez orada musulmon sharqidagi markazlashgan kuchli davlatga aylandi.

Somoniylar sulolasi hukmronlik qilgan yillar quyidagicha: No'h ibn Asad(819-842), Ahmad ibn Asad(842-864), Nasr I ibn Ahmad(864-897), Ismoil ibn Ahmad (897-907), Ahmad ibn Ismoil (907-914), Nasr II ibn Ahmad(914-943), Nux I ibn Nasr(943-954), Abdumalik ibn Nuh (954-961), Mansur I ibn Nuh(961-976), Nuh II ibn Mansur (976-997), Mansur II Nuh(997-999).

Somoniylar davlatida markaziy va viloyatlar boshqaruvi tizimi Ismoil Somoniy davrida uzil-kesil qaror topdi. Bu davlatda markaziy boshqaruv dargoh (saroy) va devon (mahkama) orqali amalga oshirilgan. Boshqaruvda amir (hukmdor)ning shaxsiy lashkari bo'lmish turk g'ulomlarining roli katta bo'lgan.

Eng obro'li, iqtidorli g'ulomlar xiyolboshi (otliq askarlar boshlig'i), so'ng xojib lavozimini egallaganlar. Amirning hamma hukm, farmoyishlarini ijro etuvchi sohibi xaros yoki amir (xaros) oliy siyosiy hokimiyatni boshqargan.

Davlat siyosati va mafkura islom diniga asoslangani uchun Somoniylar davlatida ham xalifalik boshqaruv tartiblarini takrorlovchi, ayni vaqtda esa mahalliy turkiy xalqlarning davlatchilikdagi tarixiy an'analarini o'zida mujassam qilgan davlat boshqaruv tizimi shakllantirildi.

Somoniylar saroyida ham devonboshilar, mirzaboshilar, miroxo'rlar va boshqa mansablar mavjud bo'lgan. Markaziy boshqarma 10 ta devondan iborat bo'lgan. Devonlarning eng kattasi vazir devoni hisoblanib, boshqalari unga bo'ysungan.

Somoniylar dalatidagi markaziy hokimiyat boshqaruvi ta'sirida xo'jalik hayoti ham o'sib asta-sekinlik bilan rivojlanib bordi. Mamlakat xo'jalik hayotida «iqto» mulklarining o'rni katta edi. Bu mulk egalari esa iqtidor deb yuritilgan. Iqtidorlar ko'pgina mulklarini davlat oldidagi alohida xizmatlari uchun yer va suv shaklida olganlar. Iqto shaklida hatto viloyatlar, vohalar, shahar va tumanlar hadya qilingan.

Somoniylar davrida xo'jalikning barcha sohalari, dehqonchilik va chorvachilik rivoj topdi. Sug'orish shaxobchalarining kengayishi, suv inshootlari (kanallar, ariqlar, to'g'onlar)ning ko'plab bunyod etilishi natijasida ziroatchilikning muhim tarmoqlari – g'allachilik, sholikorlik, polizchilik, bog'dorchilik tez o'sib bordi. Bu sohalar, ayniqsa Zarafshon,

Qashqadaryo, Shosh, Fargʻona vodiysi va Xorazm vohasida koʻproq rivojlandi. Murgʻob, Buxoro, Samarqand va Shosh atroflarida paxtachilik maydonlari kengaydi.

IX-X asrlar xoʻjalik hayotida hunarmandchilik ham alohida oʻrin tutgan. Shaharlarda toʻqimachilik, kulolchilik, degrezlik, chilangarlik, miskarlik, zargarlik, shishasozlik singari hunar turlari ancha rivojlandi. Bu esa shaharlar qiyofasining keskin oʻzgarishiga, ularda oliy imoratlar masjid, madrasalar, koʻrkam rastalaru karvonsaroylarning qad rostlashiga olib kelgan.

Buxoroda kumush tanga va dirham zarb qilingan. Narshaxiyning yozishicha, Buxoroda bayt-ut-tiroz, yaʼni toʻqimachilik korxonasi boʻlgan. Buxorodan zandanicha nomli matoni Shom, Misr, Rumga olib ketganlar.

Somoniylar davlati feodal yer egaligiga asoslanganligi tufayli undagi mulkiy boʻlinish ham turli xil shakllarga ega boʻlgan. Bular quyidagilardir:

- 1) mulki sultoniy – sulton (amir)ga tegishli yerlar;
- 2) mulk yerlari – xususiy mulk yerlari;
- 3) vaqf yerlari (machit, madrasa va boshqa diniy muassasalar tasarrufiga berilgan yerlar);
- 4) jamoa yerlari.

Olinadigan soliqqa qarab yerlar ikkiga boʻlingan:

- a) «Mulki xiroj» – xiroj yerlar, yaʼni soliq olinadigan yerlar;
- b) soliq toʻlashdan qisman yoki butunlay ozod etilgan yerlar.

Somoniylar davrida koʻpchilik dehqonlar turli xil soliq va toʻlov turlaridan tashqari davlat tomonidan koʻplab majburiyatlarni oʻtashga ham jalb etilgan. Suv inshootlarini tozalash, taʼmirlash, toʻgʻonlar, koʻpriklar, yoʻllar qurish shular jumlasidan edi. Bunday ogʻir ishlarga jalb qilingan odamlar haftalab, oʻn kunlab, baʼzan esa oylab oʻz hisobidan ishlab berishga majbur edilar. Qishloqlarda esa yersiz dehqonlarning koʻpchiligini kadivorlar, yaʼni yollanib ishlovchi korandalar tashkil etardi. Korandalar IX-X asrlarda «sherik» yoki «barzikor», Xurosonda esa «akkor» deb atalgan.

Somoniylar davlati tashqi tomondan har qancha kuchli boʻlib koʻrinsada, biroq u bir qator ijtimoiy ziddiyatlarni hal eta olmadi. Buning natijasida X asr oxiriga kelib bu hududda **Qoraxoniylardan** iborat yangi sulolaning hukmronligi vujudga keldi va mustahkamlanib bordi.

X asr oʻrtalariga kelib Yettisuv va Qashqar hududida yashovchi qorluq, chigʻil va yagʻmolarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim oʻzgarishlar sodir boʻladi. Avvaldan asosan chorvachilik bilan shugʻullanib kelgan bu qabilalar endilikda bir qator omillar taʼsiridan oʻtroq hayotga oʻta bordilar. Ularda dehqonchilik bilan shugʻullanish kuchli rivoj topdi. Shaharlar oʻsdi.

X asr oʻrtalariga kelib bu qabilalarning birlashuvi jarayoni yangi pallaga kirdi. Issiqkoʻl janubi va Qashqarda yashagan yagʻmolarning oʻzlaridan shimolda yashagan chigʻil qabilalari bilan ittifoq tuzishi bu birlashuvga negiz yaratdi. Ular Yettisuvga hujum uyushtirib, koʻp sonli qorluqlarni boʻysundirdilar. Ushbu qabilalarning hayoti va turmush tarzi, tili va madaniyati toʻgʻrisida mashhur turkshunos olim Mahmud Qoshgʻariy XI asrda «Devoni lugʻatit turk» yaʼni «Turkiy soʻzlar lugʻati» asarini yozgan. Qorluqlar toʻgʻrisidagi toʻla maʼlumotni nomaʼlum muallif tomonidan yozilgan «Hudud al Olam» kitobidan olish mumkin.

Markaziy Osiyoning Oltoy janubiy yonbagʻridan boshlanadigan sharqiy qismida, Markaziy Tyanshan etaklarida, Chu, Ili, Norin, Talas daryolari vodiylari boʻylab Pomirgacha boʻlgan hududlarda turk tilida soʻzlashuvchi xalqlar uyushmasi yashagan. Bu turk qabila va urugʻlari turlicha nomlar bilan atalsalarda, sheva jihatidagina bir-birlaridan farqlanadigan yagona bir tilda soʻzlashar edilar, ularning turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlarini bir xil boʻlgan. Ularning jismoniy baquvvatligi, tabiatidagi xususiyatlari, mardligi, urishqoqligi va epchilligi ham bir-biriga oʻxshagan.

Bu ulkan xalqlar tarkibiga turk qabila va urugʻlarining juda koʻplab guruhlarini: qarluqlar, chigʻillar, yagʻmolar, tuxsilar, uygʻurlar, oʻgʻuzlar, qipchoqlar kirgan. Bular orasida eng yirigi va madaniyatlisi qarluqlar boʻlgan. Qarluqlar yashagan mamlakat barcha turk xalqlari yashagan mamlakatlarga nisbatan eng boy va goʻzal boʻlib, oqar suvlari koʻp va iqlimi moʻtadil boʻlgan. Toroz tumani va Issiqkoʻl atroflarida joylashgan chigʻillar qoraxoniylar davlatida katta mavqeyga ega boʻlganlar.

Ular madaniy taraqqiyotda qarluqlardan orqada boʻlsalar-da, boy, toʻq va farovon turmush kechirganlar, chorvachilik bilan shugʻullanganlar, quyosh va yulduzlarga topinganlar.

Turk qabilalarining uchinchi yirik guruhi yagʻmolar edi. Ular Issiqkoʻlning janubida, Qashqar shahri tomonlarda, koʻpchilik qismi esa, Sharqiy Turkiston hududlarida koʻchib yurgan. «Hudud al Olam» muallifi yagʻmolarni madaniyatda orqada qolgan qabila edi, deb yozadi. Ular dehqonchilik bilan shugʻullanmaganlar, asosan yovvoyi hayvonlarni ovlash va moʻynachilikni oʻzlariga kasb qilib olganlar. Shu bois yagʻmolarning yilqi va qoʻy podalari koʻp boʻlgan va ular boshqa turk qabilalariga nisbatan nihoyatda jasur va jangovarliklari bilan mashhur boʻlganlar.

Qoraxoniylar davlatining vujudga kelishida yuqorida tilga olingan turkiy qabilalar muhim rol oʻynaganlar. Bu davlatning tashkil topishini Satuk Bugʻraxon nomi bilan ham bogʻlaydilar. Uncha aniq boʻlmagan maʼlumotlarga koʻra Qoraxoniylar davlatiga 930-yildan uning vafotiga qadar (955-yil, boshqa maʼlumotlarda 959-yil) hukmronlik qilib kelgan,

uning nomiga unvon sifatida «qora» soʻzi qoʻshilib Satuk Bugʻra Qora hoqon deb atalgan.¹ «Qora» iborasi qadimgi turkiy tillarda «buyuklik», «ulugʻlik» maʼnolarini anglatgan. Shu bois u buyuk hukmdor soʻziga tengdir.

Qoraxoniylar hukmdori Hasan Xorun Bugʻraxon barcha turkiy qavmlardan tashkil topgan lashkar bilan 992-yilda Movarounnahr sarhadlari sari yurish boshlaydi. Yoʻl-yoʻlakay Shosh, Fargʻona va boshqa oʻlkalarning xalqlari ham unga madad koʻrsatadilar. Bu davrda somoniylar har tomonlama tushkunlikka yuz tutib, hukmdorlarining nufuzi va taʼsiri keskin tushib ketgan edi. Somoniylar hokimiyatining asosiy tayanchi boʻlib kelgan turk gʻulomlari, ularning sarkardalari ham katta taʼsirga ega boʻlib, somoniy hukmdorlarning izmiga boʻysunmay qoʻygan edilar.

Bugʻraxonning 992-yilgi birinchi hujumidayoq Buxoroni egallashi shundan dalolat beradi. Hasan Bugʻraxon kasallanganligi tufayli Buxoroni tark etdi va yurtiga qaytish chogʻida yoʻlda halok boʻldi. Bundan foydalangan somoniylar vakili Noʻh II ning oʻgʻli Nasr Somoniy Buxoro taxtiga qayta chiqib oldi. Biroq qoraxoniylar 996-yilda Buxoro tomon yangi harbiy yurish boshlaydilar. Bu yurishga Nasr Bugʻraxon boshchilik qiladi. 999-yilga yilga kelib Buxoro toʻliq ishgʻol qilinadi. Butun Movarounnahr qoraxoniylar tasarrufiga oʻtadi.

1001-yilda, Sulton Mahmud Qoraxoniylar xoni Nasr bilan shartnoma tuzib, Amudaryoni ikki oʻrtadagi chegara qilib belgiladi. Somoniylar davlati oʻrnida ikki ulkan davlat tashkil topdi.

Qoraxoniylar oʻrtasidagi sulolaviy kurashlar oqibatida XI asrning 40-yillariga kelib xonlik ikkiga boʻlinib ketdi. Gʻarbiy xonlik markazi Buxoro boʻlib, unga Movarounnahr va Fargʻonaning gʻarbiy hududlari kirgan. Sharqiy xonlik markazi Bolasogʻun boʻlib, uning tarkibiga Talos, Isfijob, Shosh, Fargʻonaning sharqiy qismi, Yettisuv va Qashqar yerlari kirgan. Qoraxoniylarning yer, mol, dunyo va davlat talashib gʻaznaviylar, saljuqiylar va qoraxitoylar bilan olib borgan kurashlari oqibatida bu davlat kuchsizlanib qoldi. 1130-yilda Qoraxoniylar davlati saljuqiy Sulton Sanjarga butunlay qaram boʻlib qoldi. 1211-yilda Xorazmshoh Aloviddin Muxammad qoraxoniylarga soʻnggi zarbani berdi va qoraxoniylar sulolasini butunlay tugatdi.

Qoraxoniylar davri Markaziy Osiyo xalqlari hayotida muhim ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy oʻzgarishlarning roʻy berganligi bilan tavsiflanadi. Bu davrda oʻlka somoniylar davridagidek markaziy asosda emas, balki koʻproq

¹ Карим Шониёзов. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т., 2001. – Б. 329.

mahalliy-hududiy tarzda boshqarilar edi. Xonlar xoni hisoblangan Tamgʻachxon asosan Qashqarda turib, viloyatlarni idora qilishni mahalliy zodagonlar ixtiyoriga toʻla topshirib qoʻygan edi. Iloqxonlar oʻz hududlarini katta vakolatli hukmdorlari sifatida faoliyat koʻrsatib, amalda mustaqil siyosat yuritishga intildilar. Jumladan, poytaxti Samarqand boʻlgan Movarounnahr Iloqxoni Qoraxoniylar davlatida katta obroʻ va taʼsirga ega boʻlgan. Shu bois viloyat boshqaruvi maʼmuriyatida somoniylar davridagidek vazirlar, sohibbaridlar, mustafiylar va boshqa mansabdorlar faoliyat koʻrsatgan. Shaharlar esa shahar hokimi, rais va muhtasiblar tomonidan boshqarilgan. Tamgʻochxonlar mis tanga pullar zarb qilganlar.

Qoraxoniylar davrida ham musulmon ruhoniylari katta imtiyozga ega boʻlganlar. Bunga javoban ular mahalliy aholini itoatda tutishda hukmron sulolaga xolis xizmat qilganlar. Katta-katta yer-mulklar ularning tasarrufiga vaqf mulklari sifatida berib qoʻyilgan. Qoraxoniylar davrida aholi dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, ovchilik va savdo-sotiq bilan shugʻullangan.

Somoniylar davrida juda katta siyosiy kuchga ega boʻlgan dehqonlar, yirik yer egalari qoraxoniylar davriga kelib oʻzlarining ilgarigi mavqiyalarini yoʻqota bordilar. Chunki qoraxoniylar bu yirik yer egalari mulklarini tortib olib, asli kasbi-kori koʻchmanchi chorvachilik boʻlgan oʻz amaldorlari, lashkarboshilariga boʻlib bera boshladilar.

Qoraxoniylarda ikki poytaxt Qoshgʻar va Bolasogʻun sanalib, ulugʻxon shu shaharlardan birida qarorgohda oʻtirgan. Ulugʻ hoqon yoki xon ul-hoqon degan nomda yuritilgan. Arab manbalarida mazkur unvon sulton ul-salotin, fors tarix asarlarida shahanshohga muvofiq keladi. Aynan yuqoridagi oliy unvon qoraxoniylar davri kitoblarida tamgʻachxon deb ham yuritilgan.

Qoraxoniylarga qarashli yerlar tamgʻachxon tomonidan uning oʻgʻillari, qarindoshlari oʻrtasida taqsimlangan edi. Shu bois yer-mulk masalasida ota-oʻgʻil, amaki, jiyanlar hamda aka-uka-yu, amakivachchalar oʻrtasida doimiy nizolar yuz berib, u siyosiy ahvolga salbiy taʼsir koʻrsatib turgan.

Qoraxoniylar davlati boshligʻi lavozimi hoqonning taxti merosiy sanalgan. Maʼmuriy idoralar ikkiga: dargoh va devonga boʻlingan.

Hoqon harbiy qoʻshinlari cherik deyilgan, unga suboshi, yoki sipahsolor qoʻmondonlik qilgan. Qoʻshin oʻnlik, yuzlik, mingliklarga boʻlingan.

Qoraxoniylarda oddiy xalq budun deyilgan. Soliq toʻlovchi fuqaro raiyyat deb atalgan. Qabila boshliqlari bek deyilgan. Savdogarlar sart deb atalgan. Qoraxoniylar davlatida hunarmandchilik (kulolchilik, toʻquvchilik, shishasozlik, temirchilik, zargarlik), shuningdek ziroat va chorvachilik

mahsulotlarini qayta ishlovchi sohalar taraqqiy etgan. Shuningdek, qimmatbaho toshlar, oltin, mis, temir qazib olingan. Shaharsozlik inshootlari pishiq g'ishtdan bunyod etilgan.

Qoraxoniylar davrida ham, somoniylar davridagidek, shaharlar hayoti o'sib, rivoj topdi, hunarmandchilik turlari, savdo-sotiq sohalari ham ancha yuksaldi. Samarqand, Buxoro, Termiz, O'zgan, Toshkent, Marv, Isfijob va boshqa shaharlarning xalqaro karvon savdosidagi roli va mavqeyi ham muttasil oshib bordi.

Xorazm o'lkasi ko'p davrlar mobaynida turli hukmron sulolalar va ajnabiy davlatlarning diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan. Shu bois ham uni egallash uchun vaqti-vaqti bilan tashqi kuchlar harakat qilganlar. Bu esa Xorazmning o'z mustaqilligidan mahrum bo'lishiga sabab bo'libgina qolmay, uning iqtisodiy-madaniy rivojiga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, 1017-yilda Xorazm yerlari Sulton Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olingan bo'lsa, 1044-yildan esa u Saljuqiylar davlati tobeligiga tushib qolgan. XII asr o'rtalariga kelib esa sharqiy hududlardan bostirib kelgan qoraxitoylar deyarli butun Movarounnahrni ishg'ol etadi.

Saljuqiylar hukmdori Malikshoh davrida Xorazm mulkini mustaqil boshqarish huquqini qo'lga kiritgan turk o'g'loni Anushtagin va uning avlodlari Qutbiddin Muhammad (1097-1127) va Jaloliddin Otsiz (1127-1156) davrida Xorazmning siyosiy mustaqilligi kengaydi va uning ijtimoiy-iqtisodiy qudrati muttasil o'sib bordi. Bu hududdagi Gurganch, Qiyot, Kot, Hazorasp singari obod shaharlarning savdo-sotiq va hunarmandchilik markazlari sifatidagi mavqeyi to'xtovsiz yuksaldi. Tashqi savdoda Xitoy, Andaluziya, Rossiya, Yaqin Sharq mamlakatlari bilan aloqalar keng yo'lga qo'yilgan. Bu davrda Xorazm hunarmandchilikning 50 dan ortiq turlari xorijda yuqori baholangan.

Xorazmda Anushtaginlar sulolasining mustahkamlanishi, o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida Qutbiddin Muhammad garchi muhim rol o'ynagan bo'lsada, biroq uning butun hukmronlik davri saljuqiylar ta'siri doirasida kechdi. Shuning uchun ham Xorazmning mustaqil davlat sifatidagi o'rni va mavqeyi ko'proq uning o'g'li Otsiz(1127-1156) hamda anushtaginlarning keyingi avlodlari El Arslon(1156-1172), Takash (1172-1200) va Alovuddin Muhammad(1200-1220) davrlarida har jihatdan ko'zga tashlanadi.

So'nggi hukmdorlar Takash va Muhammad Xorazmshohlar davriga kelib esa Xorazm davlati o'rta asrlar davridagi eng qudratli saltanatga aylandi. Bir tomondan, buyuk Saljuqiylar davlatiga tobelik va ikkinchi tomondan sharqdan bostirib kelgan ko'p sonli qoraxitoylarga yiliga 30 ming dinor to'lab turish majburiyatini o'rinish va shu barobarida Xorazmning mustaqilligini ta'minlashda Xorazmshoh Otsizning xizmatlari katta bo'ldi.

Xorazmshoh Otsiz 1141-yilda qoraxitoylar bilan Sulton Sanjar o'rtasida yuz bergan qonli to'qnashuv va unda saljuqiylarning mag'lubiyatidan foydalangan Otsiz Xuroson yerlarini, Marv, Nishopur shaharlarini egalladi. 1152 yilda Jandga qo'shin tortib, uni Xorazm davlatiga qo'shib oldi. Otsizning vorisi El Arslon ham mamlakat mustaqilligini kuchaytirish yo'lida qoraxitoylar bilan janglar olib boradi.

El Arslon vafotidan(1172) foydalangan qoraxitoylar Xorazm hududiga bostirib kirdilar va uni o'lpon to'lashga majbur etdilar. Ammo Xorazm taxtini egallagan Takash(1172-1200) tez orada mohir davlat arbobi, tadbirkor va uddaburon hukmron sifatida o'z davlati qudratini yuksaltirishga muvaffaq bo'ladi. 1187-1193 yillarda u Nishopur, Ray va Marv shaharlarini bosib oladi. 1194 yilda esa saljuqiylar sultoni To'g'ru'l II ga kuchli zarba berib, Eronni egallaydi.

Uning ixtiyorida 150 ming harakatdagi va 200 ming kishidan ziyod zaxiradagi katta jangovar armiya mavjud bo'lgan. Uning katta va yirik davlati markazlashgan hokimiyat boshqaruviga ega bo'lgan. Unda oliy idora-devon mavjud bo'lib, davlatning butun ichki va tashqi siyosati vazir tomonidan amalga oshirilgan. Hokimiyatning muhim bo'g'inlarida Takashning xotini – Turkon xotiga qarashli qipchoq qavmlarining ta'siri kuchli bo'lgan.

Takashning o'rniga 1200 yil uning o'g'li Aloviddin Muhammad taxtga chiqdi. Bundan norozi bo'lgan Muhammadning o'gay og'asi, Nishopur hokimi Hinduxon taxt uchun kurashish maqsadida qo'shin to'plash uchun Marvga jo'nab ketdi. Ammo bir muammo bor ediki, u ham bo'lsa Takashning xotini va Aloviddin Muhammadshohning onasi Turkon xotin edi.

Davlat faoliyatining hamma asosiy kaliti uning qo'lida bo'lib, Muhammad faqat rasmiy hukmdor edi, xolos. Asosan turklardan tashkil topgan qo'shin Turkonxotiga bo'ysunardi. Harbiy boshliqlar moliya boshqarmasi uning o'z urug'i-bayotlardan edi. Uning qo'lidagi muhrda «Umidim faqat Allohdan» degan yozuv bor edi. Bu muhr hatto Xorazmshoh Muhammad muhridan qudratli edi. U nihoyatda qattiqqo'l edi. Chet ellik elchilarni o'zi qabul qilar, diplomatik munosabatlarni maslahatsiz hal etardi.

Turkon xotinning yaqin qarindosh-urug'lari deyarli barcha faxrlil davlat ishi lavozimlarini egallab oldilar. Samarqand shahrining boshlig'i Turkon xotinning og'asi To'g'ayxon, O'tror shahrining noibi uning qarindoshi Inalxon bo'lgan. Bundan tashqari, Muhammad Xorazmshohning kenja farzandi O'zlagshoh taxt vorisi deb e'lon qilinadi. Ayni vaqtda hali oqu qorani unchalik farqiga bormaydigan yosh go'dak voris O'zlagshoh Xorazm, Xuroson va Mozandaron noibi etib tayinlandi.(Bu yurtlar amalda Turkon xotinning mulklari hisoblanardi.) Boisi u O'zlagshohning onasi

Turkon xotinning urug'idan bo'lgan. Ayni vaqtda Muhammad Xorazmshohning katta o'g'li Jaloliddin Manguberdi (Manqaburun) esa chekkadagi kichkina bir viloyat – G'urning hokimligiga tayinlandi. Chunki uning onasi Oychuchuk boshqa urug'dan edi. Bu hol turk harbiy sarkardalarining ikki guruhi – Jalloliddinning onasi Oychechak va Turkon xotin qarindoshlari o'rtasida avj olib ketgan tarfakashlik kurashiga sabab bo'ldi va u buyuk Xorazm halokatini tezlashtirgan omillardan edi.

Xorazm davlatining eng yuksalgan cho'qqisi ham, uning inqirozi ham shu so'nggi Xorazmshoh nomi bilan bog'liqdir. Binobarin, uning hukmdorlik davrining murakkabligi, ziddiyatliliigi hamda fojealiligi boisi ham shundadir. Chunki, shuhratparastlik va jahongirlikka nihoyatda o'ch bo'lgan Sulton Muhammad o'zining 20 yillik hukmronligi davrida, bir tomondan, to'xtovsiz jangu jadallarda bo'lib, qancha-qancha hududlarni bosib olishga erishgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning davrida katta saltanat turli ichki va tashqi sabablarga ko'ra, inqiroz va chuqur tushkunlik holatini boshdan kechirdi. Bu esa oqibatda Xorazmshohlar davlatining qulashi va mo'g'ul istilosiga duchor bo'lishiga olib keldi.

Dastlab Muhammad Xorazmshoh katta qo'shin tuzib, zafarli harbiy yurishlar qildi, o'z davlat hududlarini kengaytirdi. Janubda Hindiqush tog'larigacha, janubi-g'arbda Fors qo'ltig'i, xalifalik davlati chegaralari-gacha, sharqda Yettisuvga qadar bo'lgan sarhadlarni egallashga muvaffaq bo'ladi.

1210-yilda Talos vodiysida qoraxitoylar bilan bo'lgan hal qiluvchi jangda ularni ham yengib o'z qudratini namoyon etdi. Ushbu g'alabalardan so'ng Xorazmshoh o'ziga ortiqcha bino qo'ydi, o'zini «Iskandari soniy» (Ikkinchi Aleksandr), «Xudoning yerdagi soyasi» deb atashgacha borib yetadi. Biroq aslida esa uning saltanati «usti yaltirog'u ichi qaltiroq» edi. Buning asosiy sababi, birinchidan, oliy hokimiyat chuqur ziddiyatga botgan edi. Hukmdor bilan uning hokimiyatparast, katta siyosiy mavqyega ega bo'lgan onasi Turkon xotin va uning turkiy zodagonlardan iborat muxolifatchi kuchlari o'rtasidagi ixtiloflar kuchayadi.

Ikkinchidan, markaziy hokimiyat tizimi bilan mahalliy hokimlar, beklar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, ularning o'zboshimcha xatti-harakatlarining kuchayib borayotganligi saltanatni inqirozga duchor etmoqda edi. Buning ustiga, hukmron tizimidan norozi bo'lgan keng ommaning g'alayonlari tobora faollashib bordi.

1206-1207- yillarda Buxoroda yuz bergan Malik Sanjar boshchiligidagi 1211- yilda Samarqandda ko'tarilgan kuchli bo'hronga yo'liqqanligidan dalolat beradi. Xorazmshoh Muhammadning kaltabin siyosati, bosqinchilik yurishlari xalqaro maydonda ham katta norozilikka sabab bo'ldi, u tobora

yakkalanib bordi. Hatto butun musulmon olamida ham bu davlatga nisbatan nafrat kuchaydi. Xalifalik davlati sharqdagi qudratli mo'g'ul davlati hukmdori Chingizxon bilan birlashib, Xorazmshohga zarba berish to'g'risida diplomatik yo'l bilan muzokaralar olib bordi.

Bularning hammasi pirovard natijada Xorazmshohlar davlatining chuqur ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy inqirozga uchrashiga olib keldi. Bu esa Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul bosqinchilariga Movarounnahr sarhadlariga bostirib kirish va uni ishg'ol etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berdi.

VI bob

MARKAZIY OSIYO XALQLARI HAYOTIDA IX-XII ASRLARDA YUZ BERGAN BUYUK UYG'ONISH (RENESSANS) DAVRI

1-§. Uyg'onish davrining jahon sivilizatsiyasiga ta'siri

Milliy davlatchiligimiz tarixida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan davr-Uyg'onish davridir (IX-XII asrlar). Ma'lumki, qadimiy madaniyat o'chog'i bo'lgan Markaziy Osiyoning qulay geografik joylashuvi, tabiati, iqlimi mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning avvalroq boshlanishini ta'minladi va Sharq bilan Farb, Mesopotamiya, Eron, Misr, keyinchalik Yunoniston va Rimni Xitoy va Hindiston bilan bog'lovchi, turli xalqlar madaniyatining chatishuvini ta'minlovchi halqa vazifasini o'tadi.

Movarounnahrda mustaqil davlatlarning tashkil topishi ularda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va madaniy hayotning ravnaqiga katta ta'sir ko'rsata boshladi. Buxoro, Samarqand, Urganch va Marv kabi shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida shakllanib, rivojlana boshladi.

Damashq, Qohira, Bag'dod, Kufa, Basra va boshqa shu singari katta shaharlarda Markaziy Osiyodan borib fan, madaniyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan avlod-ajdodlarimiz bu davrga kelib ko'paya bordi.

Bag'dod shahri Sharqning ilm-fan markazi sifatida olamga tanildi, chunki IX asrda bu yerda «Bayt ul-hikma» («Donishmandlar uyi») – Sharqning fanlar akademiyasi tashkil etildi. Bunga monand holda X asr oxirlarida Xorazmda ham xalifa Ma'mun davrida (995-997 yillar) «Donishmandlar uyi» – «Bayt ul-Hikma» – «Ma'mun Akademiyasi» (Xorazm akademiyasi) tashkil topdi. «Ma'mun Akademiyasi»da yaratilgan shart-sharoitdan Abu Rayhon Beruniy, Ibn-Sino, Abu Sahl Masihiy, Abulxayr Hammor, Nasr Iroq, Ibn Miskavayh kabi buyuk daholar bahramand bo'lib, ilmu ijod bilan shug'ullanganlar.

Xivaning 2500 yilligi nishonlangan 1997 yilda Islom Karimov farmoni bilan Xorazmda Ma'mun Akademiyasi qaytadan tiklandi. – «Bundan ming yil muqaddam odamzod tarixidagi ilk Akademiyalardan bo'lmish – Ma'mun Akademiyasi Xorazm zaminida tashkil topgani bilan har qancha faxrlansak arziydi Xorazm va Xiva zaminida yashagan Pahlavon Mahmud, Sulton Vays, Nosiriddin Rabg'uziy, Sulaymon Baqirg'oni, Bahouddin Valad va uning buyuk farzandi Jaloliddin Rumiy, Abulqosim

Al-Xorazmiy, Ismoil Jurjoniy kabi o'nlab va yuzlab allomalar, shoirlar va san'atkorlar nomini biz, bugungi avlod vakillari cheksiz ehtirom bilan tilga olamiz va boshimizga ko'taramiz»¹. Oradan ming yil o'tib tarixiy adolat qaror topdi va bu hol shubhasiz, o'zbek davlatchiligi tarixini tiklashda katta ahamiyat kasb etadi.

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda faoliyat ko'rsatgan markazlashgan davlatlarda yaratilgan siyosiy hamjihatlik, iqtisodiy-ma'naviy ehtiyojlar, shuningdek Buyuk Ipak yo'li orqali xorijiy mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarning keng rivojlanishi o'lkamizda qurilish, me'morchilik, adabiyot va san'at, hunarmandchilik, ilm-fan va dinning rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratdi.

Demak:

–Markaziy Osiyoda ishlab chiqarish munosabatlari qadimdan tarkib topgan Osiyochoa ishlab chiqarish usuli asosiga qurilgan edi. Unda davlat hokimiyati xal qiluvchi rol o'ynar edi. IX-XII asrlarda davlat mavqeining o'sishi iqtisodiy ahvolning yaxshilanishiga turtki berdi. Ko'chmanchilar xavfining tugatilishi, barqarorlik, yuksak dehqonchilik madaniyati, hunarmandchilik va boshqa sohalar iqtisodning rivojlanishiga turtki bo'ldi.

–Markaziy Osiyoning geografik joylashuvi va Buyuk Ipak yo'lidagi savdo aloqalari nafaqat iqtisodiy, balki (Sharq va G'arb o'rtasida) o'zaro ilmiy va madaniy tajriba almashuviga katta ta'sir ko'rsatdi. Buyuk Ipak yo'li orqali xalqaro aloqalarning rivojlanishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

– Markazlashgan davlatlarning vujudga kelishi – qadimdan asrlar davomida shakllangan milliy davlatchilik tajribasi mavjudligida (Xorazm, Kushon, Eftalitlar, Turk hoqonligi va boshqalar) edi. Chunki milliy davlatchilik an'analari o'lkamizda markazlashgan davlat tashkil topishiga turtki bo'ldi. Shu nuqtai nazardan Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar va Horazmshohlar davlatlari haqida gapirish mumkin.

– Markaziy Osiyoda tarixan yuksak ma'naviy madaniyat shakllandi. Ming yillar davomida vujudga kelgan ma'naviy qadriyatlar turli xil dinlar va xalqlar o'rtasidagi aloqalar zamirida rivojlandi. Markaziy Osiyo barcha jahon dinlari (zardo'shtiylik, buddizm, nasroniylik, islom) tarqalgan yagona hudud hisoblanadi. Biz o'rganayotgan davrda islom dinining davlat va jamiyat mafkurasi darajasiga ko'tarilishiga, Vatanimizning islom dini va madaniyati markaziga aylanishi, o'lkamizda fikhshunoslik, tafsir, tasavvuf ilmlarining rivoji shundan dalolat beradi. Islom dini davlat tayanchiga aylandi.

¹ Каримов. И.А. Хива шаҳрининг 2500 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи // Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлидан. Т. 6.– Т., 1998.

– Markaziy Osiyo davlatlarida hukmdorlar islom dini, ilm-fan va madaniyat namoyandalariga homiylik va rahnamolik qildilar. Albatta (hamma hukmdorlar ham emas) baʼzi hukmdorlar davrida saroyda olimu fuzalolar, din peshvolarining faoliyati uchun yaxshi sharoit yaratildi. Oʻz navbatida, ular davlatda ilm-fan va madaniyat ravnaqiga xizmat qilganlar.

Xulosa qiladigan boʻlsak, yuqorida keltirilgan omillar IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda Uygʻonish davri yuzaga kelishiga turtki boʻldi.

2-§. IX–XII asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-fan ravnaqi

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda fan, madaniyat va diniy ilmlar yuqori darajaga erishdi va olamshumul tarixiy ahamiyatga ega boʻldi. Bu davrga kelib arab, fors, turkiy va uygʻur tillarida nodir ilmiy asarlar yozgan mashhur olimlar yetishib chiqdilar.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850-yillar) qadimgi Xorazm diyorida tugʻilib, voyaga yetadi. Al-Xorazmiy yoshlik chogʻidan boshlab aniq va tabiiy fanlarni oʻrganishga qiziqadi, arab, fors, hind va yunon tillarini egalladi, bu tillarda yozilgan kitoblarni qunt bilan oʻqib, mutolaa qildi. U dastlabki taʼlimni xususiy muallimlardan oldi va soʻngra oʻsha davrning yirik maʼrifat markazlaridan biri boʻlgan Marv madrasasida oʻqidi. Xalifa Xorun ar-Rashidning oʻgʻli Maʼmun xalifalik taxtiga oʻtirgach (813-yil) u Muhammad Muso al-Xorazmiyni oʻzi bilan birga Bagʻdodga olib ketadi va u yerda tashkil etilgan «Bayt ul-Hikma»ga boshliq etib tayinladi. Bagʻdodda u Suriya, Iroq, Eron, Xuroson va Movarounnahr olimlari bilan ijod qiladi.

Xorazmiy matematika, geometriya, astronomiya, geografiya, tarix ilmi va boshqa fanlar sohasida barkamol ijod qilgan. Uning «Al Jabr val muqobala» («Tenglamalar va qarshilantirish»), «Hisob al-Hind» («Hind hisobi»), «Kitab surat al-Arz» («Yer surati haqida kitob»), «Kitab at-Tarix» («Tarix kitobi»), «Kitab al-Amal Bil Usturlabat» («Usturlob bilan ishlash haqida kitob») kabi asarlari olimga jahonshumul shuhrat keltirdi. Xorazmiy yaratgan 20 tadan ortiq asardan bizning davrimizgacha faqat 10 tasigina yetib kelgan¹.

Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Nosir al-Fargʻoniy 797-865 yillarida yashab ijod qiladi. Ahmad Fargʻoniy matematika, geografiya, astronomiya, tarix sohaslarida ijod qildi. Ahmad Fargʻoniyning ijodiy faoliyati Bagʻdodda ulugʻ mutafakkir olim Al-Xorazmiy rahbarligidagi «Bayt-ul-Hikma» bilan bogʻliqdir. U arab atamashunosligining paydo

boʻlishi va ilmiy taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshgan. Bagʻdod va Damashqda rasadxonalar qurilishida shaxsan qatnashgan. Ahmad Fargʻoniyning kitoblari dunyoga maʼlum va mashhurdir. «Kitob fi Usul ilm an-Nujum» («Falakiyot ilmining usullari haqida kitob»), «Falakiyot risolasi», «Falak asarlari sababiyati», «Al-Majistiy», «Ilm-xayya», «Al Fargʻoniy jadvallari», «Usturlob bilan amal qilish haqida», «Oy, yerning ustida va ostida boʻlganida vaqtni aniqlash risolasi», «Yetti iqlim hisobi», «Usturlob yasash haqida kitob» asarlarining qoʻlyozmalari Angliya, Fransiya, Germaniya, Misr, Hindiston, AQSH va Rossiyada saqlanmoqda¹.

Olim oʻzining ilmiy kashfiyotlari butun jahon ilm-fani va madaniyatiga ulkan va munosib hissa qoʻshdi. U 812-yilda quyosh tutilishini oldidan bashorat qilib berdi, yerning dumaloq ekanligini ilmiy dalillar bilan isbotlab, bir xil fazo yoritgichlarini har xil vaqtda koʻrilishini, tutilishini hamma joyda har xil kuzatish mumkinligini izohlab berdi.

XII asrdayoq olimning asarlari lotin tiliga tarjima qilinadi va Yevropaga tarqaladi. Yevropaliklar Ahmad Fargʻoniyning «Al Fraganus» deb ataganlar. Uning asarlarini lotin, nemis, ingliz, fransuz, rus va boshqa tillarga tarjima qilganlar.

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad Farobiy 873-yilda Forob (Oʻror) yaqinidagi Vasij shaharchasida tugʻilgan va 951-yilda Damashqda vafot etgan.

Farobiy Markaziy Osiyoning yirik qomusiy olimlaridan biri, Sharq uygʻonish davrining eng koʻzga koʻringan arbobi, Sharq falsafasining otasi hisoblanadi. Farobiy avval Forob, Buxoro va Samarqandda bilim oldi va turli tillarni oʻrgandi. Bagʻdodga kelgach, fanning turli sohalarini boʻyicha bilimlarini chuqurlashtirishda davom etdi. U ilmiy darajasini oshirgach, fanning deyarli barcha sohalarini egallab, 160 dan ortiq asar yozdi. Farobiyning riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, falsafa, tilshunoslik va adabiyotga oid asarlari butun olamga mashhur boʻldi. U yozgan «Aristotelning «Metafizika» asari maqsadlari haqida», «Tirik mavjudot aʼzolari haqida», «Musiqa kitobi», «Baht-saodatga erishuv haqida», «Siyosat al Madaniya» («Shaharlar ustida siyosat yurgizish»), «Fozil odamlar shahri», «Masalalar mohiyati», «Qonunlar haqida kitob», «Tafakkur yurgizish mazmuni haqida», «Mantiqqa kirish haqida kitob», «Falsafaning mohiyati haqida kitob» va boshqa asarlari buyuk olimning ilm va dunyoqarash doirasining beqiyos darajada kengligi va chuqurligidan

¹ Маънавият юлдузлари. – Т., 2001. – Б. 37-104.

¹ Анарбаев А. Ал-Фарғоний ва Марказий Осиё цивилизацияси // Халқ сўзи.– 1998. – 10 сент.

dalolat beradi¹. Farobiy «Al-muallim as-Soniy – «Ikkinchi muallim», «Sharq Aristoteli» degan mu'tabar unvonga sazovor bo'ldi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048-y.) o'z zamonasining barcha fanlari – fizika, matematika, astronomiya, geodeziya, tarix, geografiya va bir necha boshqa fanlarni puxta egallagan olim bo'lgan. U 362-xijriy yili (973-yil) Xorazmning qadimgi Kat shahrida tug'ildi. O'sha davrda Kat shahri Xorazmshohlar – Afrig'iylar sulolasining poytaxti bo'lib, Markaziy Osiyoning Xitoy, Hindiston, Yaqin Sharq davlatlari, Kavkaz va Sharqiy Yevropa davlatlari bilan bog'lab turuvchi savdo va madaniy markazlaridan biri edi. Beruniy bir qancha tillarni – so'g'diy, fors, hind, yunon va qadimgi yaxudiy tillarni ham o'rgangan. U Hindistonda bo'lar ekan, tez orada nafaqat Hindiston tarixi, madaniyati, hatto sanskrit tilini ham o'rganadi. Xorazmdagi Ma'mun Akademiyasining eng ko'zga ko'ringan faol ishtirokchilaridan biriga aylanadi. Shu bilan birga u shoh Ma'mun II ning eng yaqin maslahatchisi sifatida mamlakat siyosiy ishlarida ham faol qatnashadi.

Beruniy Urganchda yashagan davrda Ibn Sino bilan yozishma olib borgan. Ularning savol-javoblaridan 18 tasi bizgacha yetib kelgan. Bu yozishmalar Beruniyning tabiat falsafasi va fizika masalalari bilan qanchalik qiziqanligidan guvohlik beradi. Beruniy Kat shahrida muhim astronomik kuzatishlar o'tkazgan. Bu kuzatishlar uchun o'zi asboblar ixtiro qilgan. Beruniy 22 yoshida oldiniga Rayga, keyin Jurjonga keladi. Bu yerda mashhur tabib, astronom, faylasuf Abu Saxl Iso al-Masixiy bilan tanishadi va undan ta'lim oladi. Beruniy o'zining mashhur asarlaridan biri bo'lmish «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarini Jurjonda yoza boshlagan².

Keyinchalik, Beruniy G'azna shahrida 1017-yildan 1048-yilgacha hayot kechirgani ma'lum. Bu yillar Beruniy ilmiy faoliyatida juda ham mahsuldor davr bo'lgan.

Beruniy tabiat fanlarining rivojiga bebaho hissa qo'shgan olimdir. U o'zining ilmiy asarlarida dunyoning tuzilishi haqida fikr yuritganda Ptolemey fikriga suyansa ham, amalda yerning harakati haqida Ptolemey tartibiga zid keluvchi fikrlarni bayon qiladi. U «Geodeziya» asarida geotsentrizm bilan bog'liq bo'lgan ba'zi nazariyalarning to'g'riligiga shubha bilan qaraganligini ochiqdan-ochiq bayon etadi. Bu bilan u dunyoning geliotsentristik tuzilishi haqidagi nazariyani ishlab chiqishga hissa qo'shgan.

Beruniy o'z davrining katta matematigi ham bo'lgan. U matematika masalalariga bag'ishlangan asarlarida geometriya, arifmetika, algebra, sonlar nazariyasi, trigonometriya tushunchalarini ma'lum tartib bilan ta'riflaydi. Hozirgi zamon tadqiqotchilarining ko'pchiligi Beruniyning trigonometriya fanining rivojiga qo'shgan hissasini juda ham yuksak baholashadi. Ular Beruniyning trigonometriyaning matematikada mustaqil fan sifatida qaragan olim sifatida ko'rsatmoqdalar.

Abu Ali ibn Sino (980-1037-yillar) Buxoro yaqinida joylashgan Afshona qishlog'ida tavallud topgan. Otasi ziyoli, o'qimishli, bilimdon kishi bo'lib, asli Balxdan bo'lgan. Ibn Sino «Qur'oni Karim»ni yoshlik chog'idan yod ola boshlagan va bu bilan kifoyalaniq qolmay, otasi unga falsafa, hind hisobi kabi sohalarni ham o'qita boshlagan. Ibn Sino 17 yoshidayoq olim sifatida shakllanib, tabib degan nom chiqara boshlaydi. Somoniy amir Nuh ibn Mansurni og'ir kasaldan davolaydi. Mukofot sifatida somoniylarning saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga sazovor bo'ladi.

Ibn Sino haqiqiy ensiklopedik olim bo'lib, o'z davrining deyarli barcha fanlari bilan muvaffaqiyatli ravishda shug'ullangan va ularga oid ilmiy asarlar yaratgan. Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asarlari qayd qilingan bo'lsa ham, zamonlar o'tishi bilan ularning ko'pi yo'qolib ketgan va bizgacha faqat 242 tasi yetib kelgan¹.

Buyuk qomusiy olimdan juda katta meros qolgan. Jumladan, uning asarlaridan 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga, 43 tasi tabobatga, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi ruhshunoslikka, 23 tasi tibbiyot ilmiga, 7 tasi falakiyotga, 1 tasi riyoziyotga, 1 tasi musiqaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi odob ilmiga, 4 tasi adabiyotga, 8 tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan yozishmalarga tegishlidir². Ulug' hakimning tabobatga oid shoh asari albatta «Kitob al-Qonun fi-t-tib» («Tib qonunlari kitobi»)dir. Ibn Sino «Tib qonun»larini besh kitobga bo'lgan, bu kitobning jahonshumul ahamiyati shundaki, u XVIII asrning oxirlariga qadar Yevropaning tibbiyot o'quv yurtlarida asosiy o'quv qo'llanmasi bo'lib xizmat qilgan. Bobokalonimiz ham G'arbda, ham Sharqda «Avitsenna» va «Shayxur-Rais» nomi bilan shuhrat qozongan.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy (899-959-yillar) Buxoro yaqinidagi Narshax (hozirgi Vobkent tumanida) qishlog'ida 899 yilda tavallud topgan. Narshaxiyning ilmiy asarlari to'g'risida ma'lumotlar juda kam. Uning faqat «Tarixi Buxoro» («Buxoro tarixi») asari bizgacha yetib

¹ *Абу Наср Фаробий*. Фозил одамлар шахри. – Т., 1993. – Б. 6-12.

² *Қаюмов А. Абу Райхон Беруний*. Абу Али ибн Сино. – Т., 1987. – Б. 11-13.

¹ Ўша жойда.

² *Абу Али ибн Сино*. Тиб қонунлари. 3 жилдли сайланма. 1-жилд. – Т., 1992. – Б.3-9.

kelgan. Asar qo'lyozma nusxalarda va hozirgi zamon ilmiy tarixiy adabiyotlarda «Tarixi Narshaxiy», «Taxqiq ul-Viloyat» («Viloyat haqiqatini aniqlash»), «Axbori Buxoro» («Buxoro haqida xabarlar») kabi nomlar bilan atalib kelingan.

Narshaxiy «Buxoro tarixi» asarida Movarounnahr va Xorazm yerlarining arablar tomonidan bosib olinishi, mahalliy xalqning qo'zg'olonlari, xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid masalalar to'g'risida so'z yuritiladi. Asarda Somoniylar davlatining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy hayotiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Movarounnahr va Xuroson aholisining arab bosqinchilariga qarshi Muqanna boshchiligidagi qo'zg'oloni bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar ham bu asarda ma'lum darajada o'z ifodasini topgan. Narshaxiy saroy tarixchisi bo'lganligi sababli hukmron tabaqa siyosatini yoqlab, xalqning hokimiyatga qarshi chiqishini qoralagan.

Abu Abdulloh Ja'far Rudakiy (960-1041-yillar) taxminan 960-yilda Samarqand yaqinida joylashgan Panjrudak qishlog'ida tug'ilgan. Shuning uchun ham shoirning taxallusi shu tug'ilgan qishlog'ining nomidan kelib chiqib Rudakiy deyiladi. Yana boshqa manbalarda aytilishicha, o'sha davrda xalq cholg'u asboblari orasida «rud» nomli musiqa asbobi bo'lib, shoir uni chalishni juda yaxshi o'rgangan, shuning uchun ham shoir taxallusini shu asbobdan olgan deb ham hisoblaydilar.

Rudakiy fors-tojik she'riyatining asoschilaridan biri hisoblanadi.

Bizgacha Rudakiy qalamiga mansub «Kalila va Dimna», «Davroni oftob», «Sindnoma», «Nafis kurtaklar» kabi poemalardan parchalar yetib kelgan¹. Rudakiyning asarlari haqida gap yuritar ekanmiz, uning tili sodda, xalqqa juda ham tushunarli bo'lganligini ko'ramiz. Shuning uchun ham u xalq orasida shuhrat topgan. Uning asarlari hozirgi o'zbek tiliga ham tarjima qilingan.

Mavlono Jaloliddin Rumi (1207-1273-yillar) Markaziy Osiyolik mutafakkir olim, faylasuf, buyuk shoir. Jaloliddin Rumiyning she'riy ijodi *Fariduddin Attor* (1151-1221-yillar)ning ta'sirida shakllangan. Uning Shams Tabriziyga bag'ishlab yozgan she'riy devoni o'sha zamonda «Devoni Shams Tabriziy» nomi bilan mashhur bo'lgan. Devon 30 ming baytdan iborat. Jaloliddin Rumiyning 27 ming baytdan iborat «Masnaviyi Rumiysi» qariyb o'n yil davomida yozilgan bo'lib, Alisher Navoiy bu asarga juda katta baho bergan. Shoir o'z masnaviysida halq hikoyalari asosida mazmunli yumorga, badiiyatga boy jonli novellalar yaratgan.

Jaloliddin Rumi faqat shoirgina bo'lib qolmay, mashhur faylasuf hamdir. U «Mavlaviy» nomli tasavvuf maktabiga asos solgan. Rumiyni

¹ Ўзбек адабиёти тарихи. I жилд. – Т., 1977. – Б.113–114.

«Masnaviyi-ma'naviy» va «Fihi mo fihi» (Ichingdagi ichingdadur) nomli asarlari uni butun islom olamiga mashhur qilgan¹.

Pahlavon Mahmud (1247-1326-yillar) shoir va mutafakkir olim. U asli Ko'xna Urganchlik bo'lib, keyinchalik Xivada yashagan. U po'stindo'zlik va telpakdo'zlik bilan shug'ullangan. U nafaqat shoir, mutafakkir bo'libgina qolmay, Hindiston, Sheroz, Rumda beli yerga tegmagan kurashchi polvon ham edi. Xuddi shu ma'noda unga haqli ravishda «Pahlavon» taxallusi berilgan. Xalq ichida esa uni yana behad saxovatli, bag'rikeng, adolatli inson sifatida hurmati katta edi. U g'oliblikdan tushgan mukofotlarni yetim-yesir, nogironlarga hadya etar, po'stindo'zlik hunaridan kelgan daromadini atrofidagi kambag'allar bilan baham ko'rar edi. O'z yonidan hatto Xiva yaqinida maqbara barpo etgan. Shamsiddin Somiyning «Qomus ul-a'lom», Lutf Alibek Ozarning «Otashkadai Oraziy» asarlaridagi ma'lumotlarga qaraganda, u «Kanz ul-haqoiq» nomli masnaviy yaratgan. Bundan tashqari Pahlavon Mahmudning bizgacha ruboiylari yetib kelgan. Keyinchalik Pahlavon Mahmud daxmasi (1664-yil) ustiga 1810-1835-yillarda gumbazli xonaqoh, maqbara va ziyoratxona quriladi. U xalq orasida Polvon ota maqbarasi nomi bilan mashhur.

Turkiy tilda ijod qilgan yana bir olim *Nosiriddin Burhonuddin Rabg'uziydir*. U XIII asr oxiri- XIV asr boshlarida yashab, ijod qilgan. Bizgacha uning birgina «Qissai Rabg'uziy» (Qissasul anbiyo) asari yetib kelgan. Bu asarda muallif o'zini «Rabot o'g'uzining qozisi Burhon o'g'li Nosiriddin» deb tanishtiradi. Ushbu asar islom dinini qabul qilgan mo'g'ul beklaridan biri bo'lmish Nosiriddin To'qbug'aning iltimosiga ko'ra hijriy 709-(milodiy 1309-1310) yilda yozilgan. Asarda bayon etilgan ahloqiy fazilatlar, ta'lim-tarbiya, ma'rifat xususidagi fikrlar hozirgi kunga qadar o'zining dolzarb ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega².

Turkiy xalqlar tarixi, tili, madaniyati, urf-odatlarining bilimdoni, butun Markaziy Osiyoni kezib, xalqlar jonli tilidagi so'z va iboralarni, maqollarini qunt bilan o'rgangan olim *Mahmud Koshg'ariydir*³. U ko'p yillik izlanishlari natijasida «Devoni lug'atit turk» va «Javohiri-nahv», «Turk tili sintaksisi asoslari» asarlarini yozadi. Ming afsuski uning, oxirgi asari hanuzgacha topilmagan. Mahmud Qoshg'ariy juda ko'p safarlarda bo'ladi va o'zining asarlari uchun boy ma'lumotlar to'playdi. Mahmud

¹ *Жалоліддин Румий*. Маънавий-Маснавий. Куллиёт. I жилд. – Т., 1999. – Б. 5–10.

² *Носируддин Бурхонуддин Рабғузий*. Қиссаи Рабғузий. I китоб. – Т., 1990. – Б. 5–12.

³ Ўзбек адабиёти тарихи. I жилд. – Т., 1977. – Б.135–139.

Qoshg'ariyni butun ilm olamiga tanitgan asari uning «Devoni lug'atit turk» asaridir. Bu kitob arab tilida yozilgan. Bu nodir qo'lyozma asar 1914-yilda Turkiyaning Diyorbakir shahrida topilgan va hozir Istambul shahrida saqlanadi.

«Devoni lug'atit turk» asarida olim ko'p yillar davomida turkiy qabilalar orasida olib borilgan kuzatishlar asosida turkiy tillarni qiyosiy va tarixiy usullar bilan tahlil etib, bu tillarning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga harakat qilgan. Olimlarning fikricha, muallif ushbu tadqiqotida juda ko'p so'zlarning etimologiyasini ham juda aniq va to'g'ri izohlab bergan. Kitobda turkiy yozuv to'g'risida aniq ma'lumotlar berilib, 18 harfdan iborat turk (uyg'ur) alifbosi ham ko'rsatib o'tilgan.

XI asrda yashab ijod etgan yana bir buyuk olim, adib *Yusuf Xos Xojibdir* (Taxminan 1019-1020-yillarda tug'ilgan). Uning tarjimai holi, tug'ilgan yili va hayoti to'g'risida yozilgan biron-bir asar saqlanib qolmagan. U Qoraxoniylar sulolasining poytaxti Balasog'unda tug'ilgan va shu yerda ijod etgan. Hozirgi kunda Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilik» – «Saodatga eltuvchi bilim» deb nomlangan didaktik, badiiy-falsafiy asari bizgacha yetib kelgan bo'lib, boshqa asarlari ma'lum emas. Shoirning o'zi bu ishga roppa-rosa 18 oy sarflagan va unga puxta tayyorgarlik ko'rgan¹. Dunyodagi juda ko'p xalqlarning tillariga tarjima qilingan «Qutadg'u bilik» dostoni xalqimiz ma'naviy boyligining eng muhim durdonalaridan hisoblanadi.

Turkiy adabiyotning yana bir yirik vakili *Ahmad Yugnakiydir* (XII asrning ikkinchi yarmi – XIII asrning boshi). Uning hayoti va ijodiy yo'li to'g'risida hech qanday ma'lumot saqlanib qolmagan. Adibning bizgacha yetib kelgan yagona merosi «Hibatul-haqoyiq» («Haqiqatlar armug'oni»)dir². Ana shu asarning faqat bir joyida shoir o'z nomini tilga olgan. Bu asar Alisher Navoiy ijodidan ham munosib o'rin oldi. Doston dunyo xalqlarining bir necha tillariga tarjima qilingan bo'lib, 1480-yilda ko'chirilgan nusxasida uning 254 bayt va bir bobdan iborat ekanligi aytiladi. Doston turli boblarda payg'ambar va to'rt halifaga, sipohlarga bag'ishlangan va ularni xalqparvar, zakovatli va adolatli ulug'lar deb hisoblaydi.

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda islom madaniyati ham rivojlandi. Xalifalikdan ajralib chiqqan mustaqil davlatlar Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, G'aznaviylar va Xorazmshohlar davrida bu mustaqil markazlashgan davlatlarni yanada mustahkamlash uchun islom diniga,

uning ta'limotiga, tarixiy ahkomlariga e'tibor bir necha bor kuchaya boshlaydi. Shaharlarda masjidlar-madrasalar qurilishiga e'tibor berila boshladi. Masalan, manbalarning darak berishicha, Buxoroda dastlabki madrasa Kovushdo'zlar timi yaqinida barpo qilinadi. Hatto qonunshunoslar uchun ham maxsus «Faqihlar madrasasi» degan ixtisoslashtirilgan madrasa qurdirilgan. Bunday bilim maskanlarida Qur'oni Karim, Hadis ilmi va shariat asoslari har tomonlama mukammal o'rganilgan. Buxoro shu davrdan boshlab «Qubbatul islom» – «Islom dinining gumbazi» nomi bilan shuhrat topa boshlaydi. Sekin-asta markazlashgan davlatning asosiy mafkurasiga aylangan islom dini boshqa diniy qarashlarni siqib chiqarib, xalqni itoatda ushlab turish uchun qurol vositasini ham bajara boshlaydi.

Jamiyatda islom diniga, Qur'oni Karimga ehtiyoj kuchaydi. Ammo hamma ham Qur'oni Karimni o'qiy olmas, uning mazmunini chaqa olmas edi. Bu esa Qur'onning mazmunini sharhlash va tafsiriga talabni oshirdi. Natijada o'lkamizda Qur'oni Karimni sharhlovchi va uning tafsirini bayon qiluvchi asarlar yozgan ulug' islomshunos allomalar yetishib chiqdi. Imom Abu Mansur Moturidiy, Imom Abu Lays ibn Muhammad Samarqandiy, Imom Zamahshariy, shayx Najmiddin Kubro, Burhonuddin al-Marg'inoniy, Imom Nasafiylar ana shular jumlasidandir.

Hadischilikning rivojlanishida IX asr oltin davr hisoblanadi. Chunki Islom dunyosida eng nufuzli deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to'plamining mualliflari ham xuddi shu asrda yashab ijod qilganlar va yana ularning hammasi Markaziy Osiyo tuprog'ida yetishib chiqqanlar. Ular Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslim ibn al-Hajjoj, Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Imom Abu Dovud Sulaymon, Imom Ahmad An-Nasoniy, Imom Abu Abdullo Muhammad ibn Yazitlardir.

Имом Бухорий (809-870-йиллар) Бухорода туғилиб, шу yerda dastlabki bilimlarni oladi. So'ngra bilimni yanada chuqurlashtirish maqsadida Makka, Madina, Bag'dod, Damashq, Kufa, Nishopur kabi shaharlarga boradi. Imom Buxoriy hazrat¹lari jami 600 ming hadislarni to'plaganlar. Shulardan 100 ming «sahiyh» hadislarni va 200 ming «g'ayri sahiyh» hadislarni yoddan bilganlar. Hadislar ilmi bobida imom Buxoriyga teng keladigan biror kishi musulmon olamida bo'lmagan. Bu haqda 1998-yilda o'tkazilgan tantanalarda ko'plab ma'lumotlar keltirildi. Al-Buxoriyning 1225 yillik tavalludi munosabati bilan Samarqand yaqinidagi Xartang (hozirgi Chelak tumani) qishlog'ida juda katta ziyoratgoh majmui bunyod etildiki, bu O'zbekiston davlatining buyuk vatandoshimizga va

¹ Маънавият юлдузлари. – Т., 2001. – Б. 37–46.

² Ўша жойда. – Б.150–153.

¹ *Абу Абдуллох Мухаммад ибн Исмоил ал-Бухорий*. Хадис. 1-жилд. Ал-Жомий ас-сахийх. – Т., 1991. – Б.5.

o'tmish ma'naviyatiga, islom dini ta'limotiga bo'lgan yuksak ehtiromli izzat-hurmati nishonasidir.

Imom Buxoriydan ulkan va boy meros qolgan. Manbalarga ko'ra, Imom Buxoriy islom dini masalalariga bag'ishlangan 20 ga yaqin asar yozgan. Olimning «Al Adab al-Mufrad», «At-Ta'rix as-Sag'ir», «At-ta'rix al-Kabiyr», «Kitob al-Ilal», «Asomi us-Sahoba», «Kitob al-Kuna» va boshqa asarlari orasida shoh asar hisoblanmish «Al-Jomi' as-sahiyh» («Ishonarli to'plam») nomli hadislar kitobining tarixda birinchi marta to'liq holdagi to'rt jildi o'zbek tilida bosilib chiqdi¹. Islom ta'limotida Qur'oni Karimdan keyin ikkinchi o'rinda turadigan muqaddas kitob mana shu asar hisoblanadi.

Imom at-Termiziy (824-892-yillar) Termizdan uncha uzoq bo'lmagan Bug' qishlog'ida tug'ilgan. U ham Buxoriy singari Sharqning juda ko'p shaharlarida bo'lib, o'z bilimini oshirishga harakat qiladi. At-Termiziy hadislardan tashqari filologiya, tarixga oid asarlar ham yozdi. Uning 10 dan ortiq asarlari bo'lib, ular orasida «Jome at-Termiziy» yoki «Sunan at-Termiziy» (Ishonchli to'plam), «Ash-Shamoyil an-nabaviya» (Payg'ambarning alohida fazilatlarini) kabi asarlari alohida ahamiyatga sazovordir. At-Termiziyning kamolotida Al-Buxoriyning o'rni bebahodir.

IX-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda tafsir ilmi ham rivoj topdi. Xorazmlik allomalar Qur'oni Karim tafsiri bo'yicha muhim asarlar yozganlar. Qomusiy olim az-Zamahshariyning shoh asari bo'lgan va musulmon dunyosida keng tanilgan «Al-Kashshof» asari Quroni Karimga yozilgan mashhur tafsirdir. Asarning to'liq nomi «Al-Kashshof an haqiqit it-tanziyl va uyun il-ahoviyl fi vujuya it-ta'viyl» («Qur'ondagi berk haqiqatlarni va uni sharhlash orqali rivoyatlar ko'zlarini ochish»)dir. *Az-Zamahshariy* bu asarni yozishda mashhur bo'lgan tafsir, hadis, fiqh, ilm al-horiat, nahvu sarf, adab va boshqa shariat ilmlariga oid ko'plab manbalardan keng foydalangan.

Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Ahmad Jorulloh (taxallus-Allahning qo'shnisi ma'nosida) *Zamahshariy* (hozir Turkmanistondagi – Izmixshar qishlog'i 1075-1144-yillar)dan juda ko'p ilmiy meros qolgan. «Al-mufassal» – arab grammatikasiga oid «Asos al-balog'a» («Notiqlik asoslari») arab tilining izohli lug'ati bo'lib, «Muqaddimat al-arab» («Adabiyotga kirish») asari esa arab tilining so'z boyligiga bag'ishlanadi va butun islom dunyosida qo'llanilgan arab tilining ravnaqiga ulkan hissa qo'shdi. *Az-Zamahshariy* tafsir, hadis, ilm al-qiroat, tilshunoslik, adabiyot,

¹ Hadisning birinchi jildi 1991, to'rtinchi jildi 1992, uchinchi jildi 1995, ikkinchi jildi 1996 yilda chop etilgan.

jug'rofiyaga oid 50 dan ortiq asarlar yozgan. Shu bilan birga fiqhga taalluqli «Ruus al-masoiya fi-l-fikh» («Fiqh turli masalalarning muhimi (boshi)»), «Ar-Roiz fi-i'lm il-faroiz» («Meros huquqi ilmi bo'yicha mashq») nomli asarlar yozganligi uchun ham az-Zamahshariy Xorazm fiqh maktabining asoschisidir, deb aytishga haqli asoslar bor¹.

Buyuk faqih *Ali ibn Abu Bakr ibn Abd ul-Jalil al-Farg'oniy ar-Rishtoniy al-Marg'inoniy* 1123-yil 23-sentabrda tug'ilgan. U Qur'onni, hadis ilmlarini mukammal egallab, fiqh- islom huquqshunosligi borasida benihoya chuqur ilmga ega bo'lganligi va bu sohada beqiyos durdonalar yaratganligi tufayli Burhon ud-din val-l-milla va Burhoniddin al-Marg'inoniy nomlari bilan mashhurdir.

Marg'inoniydan boy meros qolgan. Uning bizgacha yetib kelgan asarlaridan, Kitob ul-Mashoyih (Shayhlar haqidagi kitob), Bidoyat al-muntaqiy (Boshlovchilar uchun dastlabki ta'lim), Kifoyat al-muntahiy (Yakunlovchilar uchun tugal ta'lim), Nashr ul-mazhab (Mazhabning yoyilishi), Kitob ul-mazid (Ilmni ziyoda qiluvchi kitob), Manosik ul-haj (Haj marosimlari), Majma ul-navozil (Nozil bo'lgan narsalar to'plami), Kitob ul-faroiz (Farzlar kitobi) va al-Hidoya asaridir. Marg'inoniyning al-Hidoya asari fiqh bo'yicha eng aniq, izchil, mukammal asar sifatida tan olindi. Hidoya bir necha asrlar davomida ko'p musulmon mamlakatlarida, jumladan, Markaziy Osiyoda ham huquqshunoslik bo'yicha eng asosiy qo'llanma hisoblanib keldi.

X-XIII asrlarda Markaziy Osiyo davlatlarida tasavvuf-so'fiylik ta'limoti rivoj topdi. So'fiylik (tasavvuf) islomdagi falsafiy-diniy oqimdir. Tasavvuf, ya'ni sufiylik islom dini asosida shakllangan diniy-falsafiy oqim bo'lib, poklangan, zohid, taqvodorlik ma'nosini anglatadi. IX-X asrlardayoq Iroq va Eronda uning yirik vakillari vujudga keladi. Movarounnahrda esa tasavvuf ta'limoti X asrdan boshlab yoyila boshladi. Hozirgi O'zbekiston hududida tasavvufning rivojlanishida Yusuf Hamadoniy ta'limoti muhim rol o'ynaydi. Manbalarda qayd etilishicha, *Yusuf Hamadoniy* 1043-1049-yilda Eronning Hamadon shahrida tug'iladi. Dastlabki bilimlarini Hamadon va Bag'dodda oladi. Imom G'azzoliy kabi buyuk allomalarni tarbiyalab voyaga yetkazgan shayx Abu Ali Farsadiyga shogirdlikka tushadi. Yusuf Hamadoniy umrining katta qismini Markaziy Osiyoda o'tkazgan. Hamadoniy ta'limotida vatanparvarlik g'oyalari o'z ifodasini topgan. Uni pir deb bilgan shogirdlaridan 213 nafari mashhur shayxlar bo'lib yetishgan ekan. Hamadoniy ta'limotidan Markaziy Osiyoda ikki tasavvuf maktabi – Yassaviylik va Naqshbandiylik kelib chiqadi.

¹Муқимов З. Мовароуннахр фикҳ мактаби. – Самарқанд, 1997. – Б.16-18.

Markaziy Osiyo hududida birinchi vujudga kelgan soʻfiylik oqimi Yassaviylikdir. Bu oqimga 1105-yilda Yassa (Turkiston) shahrida tugʻilgan *Ahmad Yassaviy*¹ asos solgan. Ahmad Yassaviy Buxoroda Yusuf Hamadoniydan taʼlim olgach, yana ona shahri Turkistonga qaytib keladi va shogirdlar tarbiyasi bilan shugʻullanadi. Madrasa va xonaqolar qurdiradi. Yassaviy taʼlimotining asoslari turkiy tilda yozilgan «Devoni Hikmat» asarida bayon etilgan. U oʻtroq va koʻchmanchi turkiy xalqlar orasida soʻfiylik taʼlimotini targʻib qilishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Yusuf Hamadoniyning yana bir shogirdi *Abduxoliq Gʻijduvoni* boʻlgan. Xoja Abduxoliq Gʻijduvoni Sharq falsafa tarixida oʻziga xos oʻrin egallaydi. Uning falsafiy dunyoqarashi tasavvufdagi Xojagon (Xojalar) xalqasida shakllandi. Agar bizgacha Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar»i meros boʻlib qolgan boʻlsa, Xoja Abduxoliq Gʻijduvoniyan «Risoi Shohibiya» «Risoi Shayxshuyuk Xazrati Abu Yusuf Hamadoni» kabi asarlar meros boʻlib qolgan. Xoja Abduxoliq Gʻijduvoni ustozidan koʻp narsalarni oʻrganar ekan, oʻzi ham koʻp hollarda mustaqil fikr yuritib, baʼzi masalalarda oʻz yoʻlini shakllantirishga harakat qilgan Xoja Abduxoliq Gʻijduvoni yuqorida qayd etilganidek, «Xojagon» (Naqshbandiya) tariqatining asosiy qonun-qoidalarini ishlab chiqqan buyuk allomadir.

Markaziy Osiyoda tasavvuf falsafasining rivojlanishida xorazmlik buyuk alloma, sarkarda, dinshunos olim, shoir Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Abdul Janob Najmiddin Kubro al-Xivakiy oʻziga xos munosib oʻrin tutadi². *Najmiddin Kubro* (1145-1221-yillar) – tasavvuf taʼlimotining Markaziy Osiyodagi yirik vakillaridan biri. Soʻfiylikdagi Kubraviya oqimining asoschisidir. Xivada tugʻilib, Misr, Tabriz va Hamadonda ilm olgan. Koʻhna Urganchga qaytib, oʻz taʼlimotini rivojlantirib, shu yerda yangi sufiylik oqimiga asos soladi. U «Favoix al-Jamol va fovotix al-Jalol» («Jamolning muattarligi va kamolotning egalari»), «As-usul al-ashara» («Oʻnta qonun va qoidalar») nomli qator risola va asarlar yozib, oʻz taʼlimotini takomillashtirishga erishdi.

Shunday qilib, tasavvuf Movarounnahr aholisining maʼnaviy hayoti bilan chambarchas bogʻlangan taʼlimot boʻlib, oʻrta asrning xalqparvar adib va mashoyixlari uni chuqur bilishga va u orqali ommaga ziyo va maʼrifat tarqatishga intilganlar.

IX-XII asrlarda Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, Uzgan va Marv kabi shaharlarda saroylar, masjid, madrasalar, minoralar, maqbaralar, tim va karvonsaroylar koʻplab qurila boshladi.

X asrlarga kelib binokorlikda tomi gumbaz bilan yopilgan kub shaklidagi binolar muhim ahamiyatga ega boʻla boshladi. Buxoroda Ismoil Somoniy qabri ustiga pishiq gʻisht bilan qurilgan goʻzal maqbara (Somoniy maqbarasi) fikrimizga misol boʻla oladi. Bu davrga oid masjidlar toʻgʻrisida soʻz yuritilganda, Buxorodagi Magʻoki Attoron, Poykand masjidi, Termizdagi Chorustun, Shahristondagi Childuxtaron masjidlarini qayd qilish mumkin. Somoniy davridayoq yirik shaharlar boʻlgan Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv, Qoraxoniylar davrida yanada kengaydi. Qoraxoni hukmdori Shams-ul-Mulk Buxoro yaqinida saroy barpo etadi va bundan tashqari Hazara qishlogʻi yaqinida Dingaron masjidini va uning yonida Barat-i-Malik nomi bilan mashhur boʻlgan karvonsaroy qurdiradi. Buxoro shahrida 1127-yilda Qoraxoni Arslonxon tomonidan mashhur imorat – Minorai Kalon barpo etildi. Vobkentda XII asrning oxirida Buxoro sadri Abdulaziz II tomonidan qurilgan minorani, Jarqoʻrgʻonda (Surxondaryo viloyati) Qoraxoniylar tomonidan 1108-1109-yillarda barpo etgan minorani, shuningdek Buxorodagi Nomozgohni va Attoriy masjidini alohida taʼkidlab oʻtish mumkin. XI-XII asr boshlarida Xorazmda ham koʻpgina binolar qad koʻtardi, jumladan, Urganchdagi Faxriddin Roziy va Shayx Sharif maqbarasini, koʻplab karvon saroylarni, Boʻronqalʼa, Naifqalʼa va boshqalarni aytib oʻtish mumkin. Shu bilan birga, bu davrda bir necha suv inshootlari – bandlar, novlar, koʻpriklar, sardobalar va korizlar qurilgan.

Xulosa qiladigan boʻlsak, ajdodlarimiz qoldirgan buyuk merosni, IX-XII asrlarda mamlakatimiz hududida yuz bergan chuqur ijobiy oʻzgarishlar, ilm-fan, madaniyatni rivojlanishini oʻrganar ekanmiz, ularning yaratilishida oʻzlarining buyuk hissalarini qoʻshgan buyuk allomalar, olimu fuzalolarning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida tutgan oʻrinlarini alohida taʼkidlashimiz kerak. Bularning hammasi mustaqil Oʻzbekistonda yosh avlodni milliy gʻoya, milliy mafkura, Vatanga muhabbat, sadoqat, gʻurur ruhida tarbiyalashda katta rol oʻynaydi.

¹ Яссавий хикматлари. – Т., 1996. – Б. 6–25.

² Маънавият юлдузлари. – Т., 2001. – Б. 153–159.

VII bob
MO‘G‘ULLAR ISTILOS VA ZULMIGA QARSHI KURASH.
JALOLIDDIN MANGUBERDI

1-§. Mo‘g‘ullar davlatinig vujudga kelishi

XIII asrning boshlarida ko‘chmanchi turkiy va tungus-manjur qabilalari mo‘g‘ullar tomonidan birlashtirildi. Mo‘g‘ullar hukmdori Temuchin (1155-1227-yillar) (mo‘g‘ulcha, temir ustasi) – kuchli va tadbirkor, mohir sarkarda – qabilalarni o‘z qo‘li ostida birlashtirgan shaxs edi.

Temuchin 1206-yili mo‘g‘ullarning umum qurultoyi (qurultoy halq xohishi degan ma‘noni anglatgan) ni chaqiradi. Qurultoyda u xon deb e‘lon qilinib, unga Teb-Tangriy «Chingizxon» degan faxriy nom beriladi. Chingiz so‘zi kuchli, buyuk degan ma‘nolarni anglatadi.

Qoraqurum shahri yangi davlatning poytaxti sifatida tanlandi. Mo‘g‘ul davlati – Yeke Mo‘ng‘ol ulus (buyuk mo‘g‘ul davlati) deb atalgan. Bu davlat harbiylashgan tizimga asoslangan. Qo‘shinlar o‘nlik, yuzlik, minglik va o‘n minglik (tuman)ka bo‘lingan. O‘nlikka o‘nboshi, yuzlikka yuzboshi, minglikka mingboshi va o‘n minglikka tumanboshilar boshchilik qilgan. Tuman deganda harbiy qism bilan birga, qo‘shinni doimiy to‘ldirishi kerak bo‘lgan besh–o‘n ming o‘tovli yoki 50 mingga yaqin aholisi bo‘lgan hudud tushunilgan. Tumanboshi o‘n ming jangchining qo‘mondoni bo‘lishi bilan birga, o‘z tasarrufidagi fuqarolarni boshqaruvchi hokim hisoblangan. Tumandagi barcha sudlov, jinoiy javobgarlik va fuqarolik ishlari uning tasarrufida edi.

Mo‘g‘ullar davlatining asosiy qonunlar to‘plami «Yasoq» deb atalgan. Uning asosida butun mamlakatda qattiq tartib o‘rnatildi. «Yasoq» qonunlarining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lgan:

1. Saylangan xon, «Yasoq»ga rioya qilishi to‘g‘risida qasam ichgan. Xalqqa «Yasoq»ga xiyonat qilgan xonni taxtdan ag‘darish va umrbod qamoq jazosiga hukm qilish huquqi berilgan.
2. Yagona Xudo (Tangri)ni tan olish belgilangan.
3. Turli din peshvolari, darveshlar, qozilar, tabiblar soliq to‘lashdan va og‘ir ishlardan ozod qilingan.
4. Buyruqsiz dushmani talon-taroj qilganlik uchun o‘lim jazosi belgilangan.
5. Urush davrida ayollarning gunohlarini afv etish lozimligi qayd etilgan.

6. O‘g‘rilarga nisbatan qattiq jazo belgilangan.

7. «Yasoq»da askarga yalpi qirg‘in uslubi faxrli ish ekanligi alohida uqtirilgan.

Harbiylashtirilgan tizimga asoslangan davlat to‘xtovsiz istilochilik urushlarini olib bordi. 1206-yilga qadar G‘o‘bi sahrosida yashovchi qabilalar bo‘ysundirildi. 1206–1211-yillar davomida Sibir va Sharqiy Turkiston hududlari bosib olindi. Yettisuvning shimoliy hududlari egallanganidan keyin davlat chegarasi bevosita Xorazmshohlar davlati bilan tutashgan. 1211-yilda Chingizxon Xitoyga hujum boshlaydi. 1215-yil boshlariga kelib Shimoliy Xitoy poytaxti Pekin ishg‘ol etiladi. 1217-yilda Xuanxe daryosining shimolidagi barcha yerlar mo‘g‘ullar tasarrufiga o‘tadi. 1218-yilga kelib G‘arb tomonda Yettisuv hududining qolgan qismi ham bo‘ysundiriladi.

Mo‘g‘ullar davlati qudratining tobora ortib borishi Chingizxonni jahonga hukmron bo‘lish maqsadini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratdi. Buning uchun jiddiy to‘siqlardan biri bu Xorazmshohlar davlati bo‘lgan.

2-§. Mo‘g‘ullar hujumi arafasida Xorazmshohlar davlati

XIII asrning boshlarida Xorazmshohlar davlati chetdan qudratli saltanat tarzida ko‘rinsa-da, ichdan tanazzulga yuz tutib tobora zaiflashib borayotgan edi. Sulton Muhammad Xorazmshoh (1200-1220) davrida mamlakat sarhadlarining kengaytirilishida erishilgan yutuqlar ham bu jarayonni to‘xtata olmadi. Sulton Muhammad boshchiligida 1203-yili G‘ur davlati, 1204-yili Hirot, 1207-yili Buxoro egallandi. 1210-yil sentabr oyida Sirdaryo bo‘yidagi Ilamish dashtida qoraxitoylar tor-mor qilindi. Mamlakat hududiga Movarounnahr, Xuroson, Mozandaron, Kirmon, Iroqi Ajam, Ozarboyjon, Seyiston, G‘azna, Balx, va Qandahor o‘lkalari kiritildi.

Sulton Muhammad Xorazmshoh davrida aholining ma‘murlar tomonidan tahqirlanishi, adolatsizliklar, soliq va majburiyatlarning ko‘pligi natijasida noroziliklar va qo‘zg‘olonlar boshlandi.

1212-yili Samarqandda qoraxoniylar Usmonxon boshchiligida isyon ko‘tarildi. Isyon qattiqqo‘llik bilan bostirildi. O‘zgangacha bo‘lgan hududda yashayotgan barcha qoraxoniylar qirg‘in qilindi.

Mamlakatda ichki vaziyat og‘ir bo‘lib turgan bir vaqtda mamlakat chegaralari mo‘g‘ullar davlati bilan tutashdi. 1215-yili Dashti qipchoq yurishida Xorazmshoh qo‘shinlari mo‘g‘ullarning Jo‘chi qo‘mondonligidagi qismlar bilan jang qildi. Jo‘chi qo‘shinlari Chingizxondan Muhammad Xorazmshoh qo‘shini bilan jang qilish to‘g‘risida buyruq olmagan bo‘lib,

qisqa vaqt davom etgan jangda raqibiga sezilarli zarba bersa-da, chekinadi. Shu vaqtdan boshlab Muhammad Xorazmshoh havfli raqibga duch kelganini anglaydi. U mo'g'ullar davlatidagi vaziyatni o'rganish maqsadida Bahovuddin Roziyni elchi sifatida Chingizxon huzuriga jo'natadi. Elchilar Pekinda qabul qilinadi. Chingizxon ularga iltifot ko'rsatib, ikki davlat o'rtasida tinchlik va hamkorlikka asoslangan aloqalarning saqlanib qolishi tarafdori ekanini aytadi. O'zini «Sharq hukmdori», Xorazmshoh Muhammadni «G'arb yerlarining egasi» deb ta'kidlaydi.

1217-yilda mamlakat hududlarini g'arbga tomon kengaytirishga intilgan Muhammad Xorazmshoh Arab xalifaligiga qarshi yurish qiladi. Bu urushda qo'shin tabiiy to'siqlar va yuqumli kasalliklar sababli katta talafot ko'rganligi bois to'xtatiladi. Xalifalikka qarshi urush tashqi siyosatda yo'l qo'yilgan katta hato bo'ldi. Chunki, u ko'pchilik ulamolar va din peshvolari tomonidan ma'qullanmaydi. Bu voqyealardan keyin Muhammadga qarshi muxolif kuchlarning saflari yanada kengaydi.

1218-yili Muhammad Xorazmshoh o'zaro nizolarni bartaraf etish maqsadida poytaxtni Samarqandga ko'chirdi. Yangi poytaxtdan Mo'g'ulistoniga yuborilgan elchilarga javoban Chingizxon Mahmud Yalavoch (Mahmud al-Aromiy) rahbarligida o'z elchilarini jo'natadi. Sulton Muhammad Xorazmshoh elchilarni 1218-yilning bahorida Buxoro shahrida qabul qiladi. Elchilar Muhammad Xorazmshohni Chingizxon «o'zining eng ardoqli o'g'illari qatorida» ko'rishini bayon etishadi. Xorazmshoh bunday bahoni o'zi uchun haqorat deb qabul qilgan bo'lsa-da, davlatlar o'rtasida shartnoma tuzishga rozilik beradi. Shu yili Chingizxon Sulton Muhammadga o'zaro shartnoma tuzish maqsadida katta savdo va elchilar karvonini jo'natadi. Savdo karvoni 450 ta savdogar va 500 ta tuyaga ortilgan qimmatbaho mollardan iborat edi. Karvon O'trorda Inalxonning buyrug'i bilan talanib, savdogarlari qirib tashlanadi. O'tror fojeasi to'g'risida xabar topgan Chingizxon Ibn Kafrojiy Bug'roni Xorazmshoh huzuriga elchilikka jo'natadi. Elchi Chingizxonning O'tror voqyeasiga aloqador bo'lgan kishilar jazolanishini talab qilganligini yetkazadi. Lekin Sultonning buyrug'i bilan Ibn Kafroj Bug'ro o'ldirildi. Shu asnoda, Chingizxon elchilar kurashida g'olib bo'ldi. Urushdan ko'proq manfaatdor bo'lgan Chingizxon o'zini xalqaro jamoatchilikka Xorazmshohning zo'ravonligidan aziyat chekkan taraf sifatida ko'rsata oldi. Ikkinchi tomondan musulmon dunyosini g'ayridinlar bosqiniga qarshi kurashda birlashuviga yo'l qo'yimadi.

Urush arafasida Xorazmshohlar davlatining yollanma qo'shini son jihatdan mo'g'ullarnikidan ko'proq, lekin jangovarlik darajasi past bo'lib, istilo, talon-taroj, o'lja olishga mo'ljallangan edi. Siyosiy tajriba borasida

ham Xorazmshoh Muhammad mo'g'ullarga qadar kuchli raqibga duch kelmagan. Xorazmshoh Muhammad o'z harbiy salohiyatiga haddan ortiq baho bergan.

Chingizxon Xorazmshohlar davlatidagi ichki vaziyat to'g'risida aniq ma'lumotlar to'play oldi. Ayni vaqtda qadimiy madaniyatga ega davlatni osonlik bilan yengib bo'lmasligini ham tushunar edi. Shu bois, bo'lajak urushga jiddiy tayyorgarlik ko'rib, unda g'alaba qilishga to'liq ishonch hosil qilganidan keyingina urush boshlashga qaror qilgan. Mo'g'ullar 1219-yil kuz faslida Xorazmshohlar davlatiga bostirib kirdi.

3-§. Mo'g'ullar bosqiniga qarshi kurash

Urush arafasida mo'g'ullarga qarshi kurash rejasini ishlab chiqish uchun Urganchda harbiy kengash chaqirildi. Kengashda davlat arbobi Shahobiddin al-Xivaqiy qo'shinni Sirdaryo bo'yiga to'plab, mo'g'ullarga hal qiluvchi zarba berishni taklif etdi. Shahzoda Jaloliddin ham shunga o'xshash taklifi bilan chiqadi. Lekin, Xorazmshoh mudofaa usulini tanladi. Bu usul har bir shahar va viloyatni dushmanga qarshi o'z kuchlari bilan kurash olib borishini nazarda tutar edi.

Dushmanga qarshi kurash rejasini amalga oshirilishi sababli chegarada jiddiy to'siqqa uchramagan Chingizxon O'tror shahri yaqinida qo'shinni 4 qismga bo'ldi. Chig'atoy va O'qtoy qo'mondonligidagi qo'shinning bir qismiga O'tronni egallash vazifasi yuklatildi. Ikkinchi qism Jo'chi boshchiligida Sirdaryoning yuqori oqimidagi Jand, Yangikent, Borchig'lig'kent, Sig'noq shaharlarni bosib olish uchun yuborildi. Uchinchi qismga Uloq no'yon va Suketu cherbi qo'mondonligida Xo'jand va Banokatni egallash vazifasi topshirildi. Chingizxon boshchiligidagi qo'shinning asosiy qismi Zarafshon vohasiga Buxoro hamda Samarqandga yurishni davom ettirdi.

O'tror mustahkam shahar-qal'a bo'lib, uning himoyachilari mo'g'ullarga qarshi olti oy davomida kurash olib bordi. O'tror hokimi Inalxon (G'oyirxon) 20 ming suvoriyga va Xorazmshoh yordam tariqasida yuborgan 50 ming kishilik «lashkari birun» qo'shinlariga boshchilik qildi. Shahar himoyachilariga yana Qoracha Hojib boshchiligidagi 10 ming kishilik qism yordamga keldi. Mo'g'ullar uzoq davom etgan qamaldan keyin shaharni egallab, uni vayron qildilar.

Buxoro yo'nalishida Chingizxon qo'shinlari Zarnuq (Zerinh) va Nur qal'alarini jangsiz qo'lga oldi. 1220-yilning fevral oyi boshlarida Buxoro shahri qamal qilindi. Buxoroda 12 ming kishilik shahar garnizoni va 20 ming kishilik «lashkari birun» qo'shinlari joylashtirilgan edi. Qo'shinga

sarkardalar Ixtiyoriddin Qo'shlu, Inanchxon Og'ulhojib, Hamid Pura Qoraxitoy, Suyunchxon, mo'g'ullardan qochib o'tgan uyg'ur sarkardasi Ko'kxon (Go'rxon) boshchilik qildilar.

Sarkarda Inanchxon qo'shini bilan dushman qurshovini yorib o'tib Amudaryoning chap qirg'og'iga o'tib ketdi. Hamid Pura Qoraxitoy jangida halok bo'ldi. Qo'shinning qolgan qismi Buxoroga chekindi. Kam sonli qo'shin bilan qolgan shahar aholisi dushman bilan taslim bo'lish to'g'risida muzokara boshlashga qaror qiladi. Badriddin qozi boshchiligidagi bir guruh oqsoqollar dushman bilan muzokara olib borish uchun vakil etib yuborildi. Chingizxon oqsoqollarga shaharni taslim bo'lish shartini qo'ydi. Dushman sharti qabul qilingandan keyin 10 fevralda mo'g'ullar shahriga kirdi. Shahar garnizonining Ko'kxon boshchiligidagi 400 nafardan iborat vatanparvarlari Buxoro arkida dushmanga qattiq qarshilik ko'rsatdi. Qo'shinning bir qismi mo'g'ullarga qarshi matonat bilan kurashganligi uchun shaharliklardan 30 ming kishi qirib tashlandi. Buxoro yoqib yuborilib, tirik qolgan shaharliklar qullikka hukm qilangan.

1220-yil mart oyi boshlarida Samarqand qamal qilindi. Shahar himoyachilari 110 ming kishilik harbiy garnizondan iborat edi. Shaharda mudofaa uchun barcha shart-sharoit mavjud edi. Biroq olib borilgan besh kunlik shiddatli janglardan keyin shahar ma'muriyati dushmanga taslim bo'lishga qaror qiladi. Chingizxon xuzuriga elchilar yuborilgan. Mo'g'ullar Samarqand bosh suv inshooti – «Jo'yi arziz – «Qo'rg'oshli novasi» ni buzib tashlab, shaharning suv ta'minotini to'xtatib qo'yan. Shaharning jomye masjidida kam sonli vatanparvarlar dushmanga taslim bo'lishni istamadilar va kurashni davom ettirdilar. Bundan g'azablangan Chingizxon shaharni talon-taroj qilishga buyurdi. Shahar qozisi va shayxulislom vakolati bilan olib chiqib ketilgan 50 ming kishidan tashqari barcha shaharliklar talandi, ko'pchilik qismi qirib tashlandi. Shahar to'liq vayron qilindi.

Muhammad Xorazmshoh mo'g'ullarning shiddatli hujumlari sababli qarorgohini tez-tez o'zgartirib turishga majbur bo'ldi. Buxoro va Samarqand shaharlari taslim bo'lganidan keyin hukmdor Balhdan Iroqqa qochadi. Ammo dushmanning ta'qibidan qutula olmadi. Iroqda ta'qibchilarni chalg'itishni uddalagan Muhammad Xorazmshoh Kaspiy dengizining janubidagi Ashuradi oroliga kelib o'rtnashadi. Bu yerda og'ir kasallikka chalingan Xorazmshoh 1220-yilning dekabr oyida vafot etdi. Muhammad Xorazmshohning vasiyatiga binoan Jaloliddin Manguberdi valiahd deb e'lon qilinadi.

Tashabbusni qo'lga olgan mo'g'ullar mamlakat ichkarisiga kirib bordi. Uloq no'yon va Suketu cherbi qo'mondonligidagi 20 ming kishilik qo'shin Xo'jand shahrini qamal qilgan. Ho'jand himoyasiga shahar hokimi

Temur Malik qo'mondonlik qildi. U shahar himoyasini mukammal tashkil eta oldi. Shu bois, mo'g'ullar Ho'jand uchun 5 oy davomida jang olib borishga majbur bo'ldilar. Shaharni dushman bosqinidan himoya qilishning iloji qolmaganidan keyin, mudofaachilar uning yaqinida joylashgan orolga ko'chib o'tib kurashni davom ettirdilar. Temur Malik uzoq davom etgan kurashdan keyin, qo'shinning qolgan qismini saqlab qolish uchun, ularni 70 ta kemaga joylashtirib, Sirdaryoning qo'yi qismiga chekinishga qaror qiladi. Borchilig'kent va Jand yaqinida mo'g'ullar qayiq'larni to'xtatdilar. Temur Malik mo'g'ullar qurshovini yorib o'tib, kam sonli vatanparvarlar bilan Urganchga yetib oladi.

Chingizxon 1220-yilning yozini jangsiz taslim bo'lgan Naqshob shahrida o'tkazadi. 1220-yilning kuzida Chingizxon mamlakat janubiga yurishni davom ettirib, Termiz shahrini qamal qiladi. Shahar mustahkam qal'aga ega edi. Shahar aholisi o'n bir kun davomida dushmanga qarshilik ko'rsatdi. Son jihatdan ustun dushman shaharni bosib olib, aholisini qirib tashladi.

1220-yilning kuzida mo'g'ullar Amudaryoning chap qirg'og'idagi yerlar va Xorazmni bosib olish uchun yurishni davom ettirdi. Asosiy e'tibor mamlakatning markazi Xorazmga qaratildi. Xorazmda joylashgan Urganch shahri musulmon Sharqida katta nufuzga ega edi. Shahar mo'g'ul bosqinchilari tomonidan 1221-yilning boshlarida qamal qilindi.

Urganch qamalidan oldin Jaloliddin Manguberdi shaharga keladi. Jaloliddinga qarshi muxolif kuchlar uyushtirgan fitna va boshqa nizolar sababli Jaloliddin Manguberdi shaharni tashlab ketishga majbur bo'ladi. Qipchoq sarkardalariga tayangan Xumortegin (Turkon xotuning jiyani) sulton deb e'lon qilinadi.

Mo'g'ullar shaharni qamal qilish uchun 100 mindan ortiq qo'shin to'playdi. Dushman shaharni bosib olish uchun qancha harakat qilmasin qamal 7 oy davom etdi. Mudofaa janglarida 100 mingdan ortiq vatanparvarlar halok bo'ldi. Himoyachilar saflarida birlikning yo'qligi, bosqinchilarning shafqatsizligi vatanparvarlarning g'alabaga ishonchini yo'qolishiga olib keldi. Himoyachilar qatorida sarosima boshlandi. Tahlikali vaziyatda Xumortegin tashabbusni o'z qo'lga olib, qo'shinning jangovar qobiliyatini mustahkamlash o'rniga, jonini saqlab qolish uchun shahar darvozalarini ochishni buyurdi va dushmanga taslim bo'ldi.

Shaharga yorib kirgan dushman har bir ko'cha va uyni katta talafotlar evaziga ishg'ol etib, shahar ichkarisiga kirib bordi. Himoya janglari befoйда ekanligini anglagan shaharliklar qolgan aholining hayotini saqlab qolish uchun taslim bo'ldilar. Lekin dushman taslim bo'lganlarni ayab o'tirmadi. Shaharliklardan 100 ming hunarmand ajratib olinib, qolgan aholi qirg'in

qilindi. Vayron bo'lgan shaharni yo'q qilish maqsadida mo'g'ullar Amudaryo to'g'onini buzib, suvga bostirdilar.

1221-yilning bahorida mo'g'ullar Amudaryodan janubda joylashgan yirik madaniyat markazlari bo'lgan Balx, Hirot, G'azna, Qandahor, Nishopur va boshqa shaharlarni egallash uchun yurishlarni davom ettirdi. Chingizxon Balx shahrini bosib olib, aholisini qirib tashladi. Bamiyon, G'azna, Qandahor, Gardiz, Valiyon va boshqa shaharlar qattiq janglar bilan ishg'ol qilindi.

Mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda Jaloliddin Manguberdi qahramonlik ko'rsatdi. Jaloliddinga G'azna, Bamiyon, al-G'ur, Bo'st, Takinobod, Zamin-Davora va Hindiston bilan chegaradosh yerlar mulk etib berilgan edi. Jaloliddinning mo'g'ullar bilan ilk to'qnashuvi Jand viloyatidagi Irg'iz dashtida bo'lgan. U Niso yaqinida 300 nafar askarlari bilan mo'g'ullarning 700 kishilik otradini tor-mor qiladi. Jaloliddinning ukalari O'zloqshoh va Oqshohlar Xurosonning Xabushan shahri yaqinida mo'g'ullarga qarshi jangda qo'lga tushib, qatl etiladi.

Jaloliddin Hirot hokimi Amin Malik bilan birgalikda Qandahor qal'asini qamal qilayotgan mo'g'ullar ustiga yurish qiladi. Uch kunlik jangdan so'ng mo'g'ullar tor-mor etiladi. 1221-yilning fevralida Jaloliddin G'aznaga keladi. Uning tarafdorlari soni kun sayin ko'payib 90-130 ming kishiga yetadi. 1221-yilning kuzida Jaloliddin mo'g'ullarning Tekechuk va Molgor boshchiligida Valiyon qo'rg'onini qamal qilayotgan qismini tor-mor etadi. 1221-yilning kuzida shimoliy Afg'onistonning Lagar daryosi bo'yidagi Parvona dashtida Jaloliddinning mo'g'ullarga qarshi muhim janglaridan biri bo'lib o'tgan. Unda sarkarda Shiki Xutuxuning 40 ming nafardan ortiq harbiy bo'linmasiga qaqshatqich zarba berildi.

Parvona jangidan so'ng qo'lga kiritilgan o'ljani bo'lishda sarkardalar o'rtasida ixtilof chiqadi. Sayfiddin O'g'roq va undan keyin boshqa ayrim lashkarboshilar qo'shini bilan ajralib chiqadi. Jaloliddin nihoyatda og'ir ahvolda qoldi va Sind (Hind) daryosi bo'yiga chekinadi. Daryo bo'yida Chingizxon bilan hal qiluvchi jang 1221-yilning 25-noyabrida bo'lib o'tgan. Unda kam sonli Jaloliddin qo'shini qahramonlik ko'rsatsa-da mag'lubiyatga uchradi. Jaloliddin tirik qolgan jangchilari bilan Sind daryosining narigi qirg'og'iga suzib o'tib mo'g'ullar ta'qibidan qutulib qoladi.

1223-yilning oxirlarida Jaloliddin Iroq va Eronda mo'g'ullarga qarshi kurashni davom ettirdi. Lekin uning ixtiyorida yirik harbiy qism bo'lmagan, mahalliy hokimlar mo'g'ullarga qarshi kurashdan voz kechib o'z hokimiyatini saqlab qolishga harakat qilar edi. Shu bois, ular Jaloliddinning mo'g'ullarga qarshi kurashini qo'llamadi. Jaloliddin mo'g'ullar bilan hamkorlik qilgan viloyat va o'lkalarga qarshi kurash olib borishga majbur

bo'ladi. Ana shu sababdan u 1226-1228-yillarda Gurjistonga yurishlar qilgan edi.

1227-yilda Jaloliddin Eronga yurish boshlagan mo'g'ullarga qarshi kurashda faollik ko'rsatdi. 1228-yil 25-avgustida Eronni zabt etish uchun kelgan Taynal no'yon boshchiligidagi mo'g'ul istilochilari tor-mor qilindi. Dushman mamlakat hududidan quvib chiqarildi. Lekin Jaloliddin bilan mahalliy hukmdorlar o'rtasidagi munosabatlar keskinlashdi. Bunga Jaloliddinning murosasizligi ham sabab bo'lgan. 1230-yil 10-avgustida mahalliy hokimlarning birlashgan kuchlari Jaloliddinning lashkariga zarba berdi. Qo'shinidan ajralib yolg'iz qolgan Jaloliddin 1231-yil 17-20-avgust oralig'ida qarindoshi xunini olmoqchi bo'lgan qurd tomonidan o'ldiriladi. Jaloliddinning vafotidan keyin Anushteginlar sulolasi tugadi. Movarounnahrda mo'g'ullarning hukmronligi o'rnatildi.

Jaloliddinning Vatan oldidagi xizmatlari mustaqil O'zbekistonda munosib baholandi. Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24-sentabrda 408-sonli qaroriga muvofiq buyuk sarkardaning tavalludi keng miqyosda nishonlandi. Urganchda sarkardaga ulkan memorial yodgorlik o'rnatildi, O'zbekiston Respublikasi FA tarix va sharqshunoslik institutlari, Xorazm Ma'mun akademiyasi, bir qator oliy o'quv yurtlariga uning nomi berildi va turli jamg'armalar ochildi.

4-§. Movarounnahr Chig'atoy ulusi tarkibida

Mo'g'ullar istilosidan so'ng Movarounnahr, Xorazm, Xuroson vohalarida ishlab chiqarish izdan chiqdi. Samarqand, Buxoro, Urganch, Xo'jand, Marv, Termiz, Balx, Nishopur va boshqa yirik shaharlar vayron qilinib, uzoq vaqt qayta tiklanmadi. Yirik sun'iy sug'orish shaxobchalari buzib tashlanganligi sababli, vohalarda suv ta'minotida keskinlik yuzaga keldi.

Yuqori sifati bilan shuhrat qozongan zargarlik buyumlari va qurol-aslaha yasash, nafis matolar to'qish va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish to'xtab qoldi. Karvon savdo yo'llari izdan chiqdi. Ilm-fan, madaniyat namoyandalari yurtni tashlab keta boshladilar. Mehnat ahli zulm va zo'ravonlikka, ochlik va qashshoqlikka mahkum etildi.

Chingizxon bosib olingan yerlarni o'g'illariga mulk sifatida bo'lib berdi. Bu mulklar ulus deb atalgan. Ulus boshqaruvchisiga xon unvoni berilgan. Saltanat tarkibidagi Janubiy Sibirdan Xorazm va Darbandgacha bo'lgan yerlar Jo'chiga, Oltoy tog'larining janubiy sarhadlaridan Amudaryo va Sindgacha bo'lgan yerlar Chig'atoyga, Xitoy va Mo'g'uliston taxt vorisi O'qtoygga, Eron va Xuroson Tuliga bo'lib berildi.

Mo'g'ullar ishlab chiqarish kuchlari rivojlanganligi darajasi jihatidan ancha ustun bo'lgan xalqlarni bo'ysundirishga erishdi. Lekin bu holat ularning ijtimoiy turmushida keskin o'zgarishlarga olib kelmadi. Mo'g'ullarning mahalliy aholi madaniyatini qabul qilish (assimilatsiya) jarayoni uzoq vaqt davom etdi. Davlat boshqaruvida o'troq dehqonchilik hududlarida mo'g'ul ma'murlari bilan birga mahalliy zodagonlar keng jalb qilingan. Masalan, Chig'atoy ulusining Movarounnahr o'lkasiga noib etib Mahmud Yalavoch tayinlangan. Uning ixtiyorida mo'g'ullarning tayanchi bo'lgan soliq yig'uvchi davlat xizmatchisi bosqoqlar, mahalliy hokimlar, dorug'alar – harbiy ma'murlar hamda mo'g'ul harbiy otradlari bor edi. Mahmud Yalavochga soliqlar tushumini muntazam nazorat etish va mo'g'ullarga qarshi g'alayonlarga yo'l qo'ymaslik vazifasi yuklatilgan.

Mo'g'ullar istibdodi davrida xalq ikki tomonlama ezilar edi. Ayniqsa, bosqinchilar joriy etgan soliq va majburiyatlar og'ir yuk bo'lib tushdi. Mahalliy soliqlar saqlab qolinganda holda dehqonlar yer solig'i «kalon» hosilning o'ndan bir miqdorida to'lagan. Chorva mol boshidan «qopchur» solig'i olingan. Qopchur 100 bosh chorvadan bir bosh miqdorida olinar edi. Davlat xazinasi uchun oziq-ovqat solig'i «shulen» joriy qilingan. Shulen har bir podadan ikki yashar qo'y, qimiz uchun har mingta otdan bir biya hisobidan olingan. Soliqlar asosan barot (ijara) tarzida mahalliy hukmdorlar tomonidan oldindan to'langan, so'ngra aholidan oshirilgan miqdorda undiriladi edi. Hunarmandlar «tamg'a» solig'ini to'lagan.

Yer egaligining davlat, mulk (xususiy yerlar), jamoa va vaqf (diniy idoralar ixtiyorida yerlar) kabi turlari mavjud edi. Davlat va mulk yerlarida chorakor dehqonlar mehnat qilishgan. Ijarador-o'rtahol dehqonlar esa muzoriylar deb yuritilgan. Qullar mehnatidan ham foydalanilar edi. Mo'g'ullar tomonidan in'om etilgan yerlar suyurg'ol (suv havzalari, dasht-yaylovlardan tashkil topgan yer maydonlari) nomini olgan. Mo'g'ullar muayyan xizmati uchun kishilarga turli yorliq va payzalar bergan. Payza qimmatbaho metall (oltin, kumush), jez yoki yog'och taxtalardan ishlangan buyumlar bo'lgan. Bunday payzaga ega bo'lgan kishilar aholidan turli yig'im, to'lovlarni talab qilib olish huquqiga ega edilar. Savdo yo'llarida bekatlar, «yom» (jom)lar qurilgan, ularga xizmat ko'rsatish va sarf-xarajat mahalliy aholi zimmasiga yuklatilgan. Mahalliy aholi umumiy hashar ishlarida qatnashishi va tekinga ishlab berishi shart edi.

Mo'g'ullar hukmronligi davrida savdo-sotiqni jonlantirish uchun past qiymatli tangalar muomalaga chiqarildi. Lekin aholi tomonidan ular qabul qilinmadi. Shu bois, savdo-sotiq mol ayriboshlov darajasiga tushib qoldi.

Mo'g'ullarning zo'ravonligi va zulmi, soliqlarning ko'pligi aholi turmushini yanada og'irlashtirdi. Zo'ravonlikka asoslangan tuzumga qarshi

qo'zg'olonlar ko'payib boradi. Ularning eng yirigi 1238 yilda Buxoro yaqinidagi Tarob qishlog'ida Mahmud Tarobiy boshchiligida bo'lib o'tgan edi. Qo'zg'olonning harakatlantiruvchi kuchlari hunarmandlar, dehqonlar va kambag'al aholi vakillari bo'lgan. Ular mo'g'ullar istibdodi va mahalliy hukmdorlarning zulmiga qarshi ozodlik kurashi olib borgan. Qo'zg'olonchilar Buxoroga yurish qiladi. Buxorolik shayx Shamsiddin Mahbubiy qo'zg'olonchilar safiga qo'shiladi. Mo'g'ul harbiylari va buxorolik zodagonlar qo'zg'olonchilar ta'qibi sababli Karmanaga qochgan. Karmanada mo'g'ullar katta kuch to'plab qo'zg'olonchilarga qarshi yurish boshlaydi. Lekin qo'zg'olonchilar bilan bo'lgan jangda mo'g'ullar 10 ming jangchisini yo'qotib chekinadi. Jangda qo'zg'olonchilar ham katta talafot ko'radi. Halok bo'lganlar orasida Mahmud Tarobiy va Shamsiddin Mahbubiy bor edi. Mahmud Tarobiyning o'rniga saylangan ukalari Muhammad va Ali qo'zg'olonchilar orasida nufuzga ega emas edilar. Shu bois, ko'p o'tmay qo'zg'olon bostirildi.

Mahmud Tarobiy boshchiligidagi qo'zg'olon istibdodga asoslangan tuzumga qarshi xalqning kurashga tayyor ekanligi va o'z ona Vatanini himoya qilishini ko'rsatdi. Qo'zg'olondan keyin soliq va o'lponlar tartibga keltirildi. Xalqning hukumatga qarshi qo'zg'oloniga yo'l qo'ygan va uni bostirishda sustkashlik ko'rsatgan Mahmud Yalavoch amalidan chetlashtirildi. Movarounnahr noibi lavozimiga Mahmud Yalavochning o'g'li Mas'udbek tayinlandi.

XIII asrning o'rtalaridan boshlab mo'g'ullar saltanatida siyosiy kurash keskinlashdi. 1251-yili ulug' xon lavozimiga saylangan Munqa (1251-1259-yillar) Chig'atoy ulusini tugatib Botuxon bilan uning hududini bo'lib oladi. Chig'atoyning nevarasi Olg'uxon (1261-1266-yillar) Oltin O'rdaga qarshi kurashib, Chig'atoy ulusini qayta tiklashga erishadi.

XIII asrning 60-70-yillariga qadar rasman saqlanib qolgan mo'g'ullar saltanati parchalandi. Har bir ulus mustaqil bo'lib, o'lja olish uchun qo'shnilariga qarshi yurishlar olib borgan. O'zaro urushlarda Chig'atoy ulusi ko'p marta talanadi. Movarounnahr hukmdorlari qo'shni uluslarning hujumini to'xtatish uchun markaziy hokimiyatni kuchaytirib, xo'jalikni rivojlantirishga harakat qilgan. Movarounnahr noibi Mas'udbek xo'jalikni jonlantirish, qo'shni mamlakatlar bilan savdo-sotiq va madaniy aloqalarni rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Mas'udbekning tashabbusi bilan 1271-yili pul (moliyaviy) islohoti o'tkazildi. Unga ko'ra, har qanday kishi zarbxonalarda o'ziga kerakli tangalarni bir xil hajm, qiymat, vaznda zarb etishi mumkin edi. 16 ta yirik shahar va viloyatlarda bir xil vazn va yuqori qiymatga ega sof kumush tangalar zarb etilib, muomalaga kiritildi. Uning tashabbusi bilan 1273-1276-yillarda Buxoroni qayta tiklash ishlari amalga

oshirildi. Chig'atoy xoni Duvaxon (1291-1306-yillar) davrida Andijon shahriga asos solindi.

XIV asrning boshlarida mo'g'ul hukmron doiralari o'troqlashuv va mahalliy aholi madaniyatini qabul qilishga bo'lgan intilish kuchayadi. Shunday xonlardan biri bo'lgan Kebekxon (1309, 1318-1326-yillar) o'z qarorgohini Movarounnahrda ko'chiradi. Nasaf shahri yonida qurilgan saroy o'rnida yangi Qarshi shahri yuzaga keldi. Kebekxon davlatni idora etish, iqtisodiy hayotni tartibga solish maqsadida ma'muriy va moliyaviy islohot o'tkazdi. Ma'muriy islohotga ko'ra, mahalliy tuzilmalar tumanlarga, viloyatlarga aylantirildi. Xulagiylar va Oltin O'rda tangalari namunasida 2 xil pul: yirik kumush tanga – «dinor» (8 gr. atroflarida) va mayda kumush tanga – «dirham» (6 dirham bir dinor) pullar zarb etildi.

Kebekxonning ukasi Oloviddin Tarmashirin (1326-133- yillar) o'troq hayot an'analarini qattiq turib himoya qiladi. U islom dinini qabul qilib, islom dinini Chig'atoy ulusining rasmiy diniga aylantiradi. Tarmashirin siyosatidan norozi bo'lgan mo'g'ul zodagonlari isyon ko'tarib, 1334-yilda uni o'ldirishadi. Tarmashirindan so'ng hukmdorlar tez-tez almashib turdi. Bu davrda mahalliy qabilalar hokimiyati yanada kuchayib bordi.

XIV asrning 40-yillariga kelib ulusda yuz bergan siyosiy inqirozning yanada keskinlashuvi sababli mamlakatda bo'linish yuz berdi. Yettisuv, Farg'onaning bir qismi, Sharqiy Turkiston Mo'g'uliston (Sharqiy) ulusi va Movarounnahr (G'arbiy) ulusi bo'lindi.

Mo'g'ulistonda kuchli markaziy hokimiyat qaror topdi. Yurt tinchligi saqlanib qoldi. Movarounnahrda mo'g'ul zodagonlarining nufuzi pasayishi sababli, hokimiyat uchun kurash keskinlashdi. Xon xonadoni vakillarining qudratli mahalliy amirlarni itoatda tutib turishi qiyinlashdi. Chig'atoy sulolasining so'nggi vakillaridan biri Qozonxon (1343-1346) markaziy hokimiyatni kuchaytirishga harakat qildi. Lekin bu siyosat viloyat amirlarining keskin qarshiligiga duch keladi. Qozag'on boshchiligida mahalliy amirlar fitna uyushtirishi natijasida xon o'ldirildi. Hokimiyatni qo'lga olgan amir Qozag'on davrida Movarounnahr bir necha yarim mustaqil qismlarga bo'linib ketdi. Mamlakatda siyosiy tarqoqlik avj olib, o'zaro nizolar yanada kuchaydi.

Madaniy hayot. XIII asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ro'y bergan o'zgarishlar natijasida tanazzulga yuz tutgan madaniy hayotda nisbatan jonlanish boshlandi. Me'morchilikda alohida o'rin tutgan ganchkorlik, g'isht o'ymakorligi, koshinpazlik, me'moriy xattotlik qayta tiklandi. Shu davrlarda barpo etilgan Buxorodagi Sayfiddin Boharziy, Samarqanddagi Qusam ibn Abbos maqbarasi ziyoratxonasi, Xo'ja Ahmad maqbarasi, Qo'hna Urganchdagi Najmiddin Qubro va To'rabekxonim

maqbarasi, Buxoroda barpo etilgan «Ma'sudiya», «Xoniya» madrasalari va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Me'morchilikda pishiq g'isht, koshin, parchin, me'moriy o'ymakor g'ishtlar hamda ganch, ohak, pista ko'mir va qumdan tayyorlangan maxsus qorishmalardan keng foydalanildi. Naqshlarning mukammalligi, turli-tumanligi va bezaklarning boyligi o'ymakor amaliy san'at qayta tiklanganligidan dalolat beradi.

XIII asr – XIV asrning ikkinchi yarmida fors-tojik adabiyotida ayniqsa *Jaloliddin Rumiy* (1207-1272) she'riyatda so'fiy-falsafiy janrni rivojlantirib, 36 ming baytdan iborat «Masnaviyi-ma'naviy» degan doston yaratdi. *Sa'diy Sheroziy* islom olamida o'zining «Guliston» va «Bo'ston» asarlari, g'azallari bilan shuhrat qozondi. Uning asarlarida Ona Vatanga muhabbat, insonparvarlik, mehr-oqibat g'oyalari targ'ibot qilinadi. *Xusrav Dehlaviy* «Xamsa» dostoni ijod qilindi.

Tarix ilmida *Abu Umar Minhojiddin Juzjoniyning* «Tabaqoti Nosiriy» (Nosirga atalgan tabaqalar), *Oloviddin Ota Malik Juvayniyning* «Tarixi jahongo'shaiy» (Jahon fotihi tarixi), *Fayzulloh Rashididdin Hamadoniyning* «Jome at-tavorix» (Tarixlarning jamlanishi), *Shahobiddin an-Nasaviyning* «Siyrat as-sulton Jaloliddin Mankburni» (sulton Jaloliddin Mankburning hayot faoliyati) kabi nodir tarixiy asarlari ham ijod qilingan.

Turkiy tildagi adabiyot rivojlandi, uning yirik vakillaridan biri faylasuf shoir va mutafakkir *Pahlavon Mahmud* (1247-1326) hisoblanadi. Pahlavon Mahmud ruboiylarida inson aql-zakovati, axloqiy kamoloti va pokligi qadrlanadi. *Nosiriddin Burhonuddin Rabg'uziy* «Qissai Rabg'uziy» (Qissasul anbiyo) diniy-falsafiy, tarixiy, axloqiy asari bilan nom qozondi.

Markaziy Osiyo tasavvuf va din ilmlarida sharqning yirik markazi sifatidagi nufuzini saqlab qoldi. *Bahovuddin Naqshband* (Said Muhammad ibn Jaloliddin) tasavvuf ilmiga katta hissa qo'shdi. O'z ta'limotida asketizmga (tarkidunyochilikka), boy-zodagonlarning zulm va istibdodiga qarshi chiqadi, odamlarni o'z kuchi, peshona teri bilan halol mehnat qilib kun kechirishga chaqirdi.

VIII bob

AMIR TEMUR DAVRIDA O‘ZBEK DAVLATCHILIGINING YUKSALISHI. IJTIMOIIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

1-§. Movarounnahrda markazlashgan davlatning vujudga kelishi

XIV asrning 50-yillarida Movarounnahr ulusida hokimiyat mahalliy zodagonlarning qo‘liga o‘tdi. Mamlakat deyarli mustaqil bo‘lgan bekliklarga bo‘lindi. Siyosiy tarqoqlik iqtisodiyotni izdan chiqardi. Aholi moddiy talafotlar va kulfatlarga duchor qilindi. 1360-yilda Mo‘g‘uliston hukmdori Tug‘luq Temur Movarounnahrda siyosiy tarqoqlikdan foydalanib, uni bosib oldi. Tug‘luq Temurning Movarounnahrda hujumi davrida Amir Temurning siyosiy faoliyati boshlandi. Amir Temur 1336-yili Kesh (Shahrisabz) yaqinidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida, barlos qabilasi begi Tarag‘ay ibn Barqal oilasida tavallud topgan. U qudratli dushman bilan murosa qilib, mamlakatga keltiradigan kulfatlari va vayronagarchiliklarini kamaytirish maqsadida davlat xizmatiga kirgan. 1361-yilda Amir Temur Hoji Barlos o‘rniga Shahrisabz hokimi lavozimiga tayinlandi. U dushmanga qarshi kurash boshlash uchun qulay fursat kelishini kutadi. Yurt ozodligi uchun kurash maqsadida 1362-yilda Balx hokimi Amir Husayn bilan yaqinlashadi. Ular bosqinchilarga qarshi birgalikda kurashadi.

1362-1364-yillarda ittifoqchilar Mo‘g‘uliston qo‘shinlarini Movarounnahrda quvib yubordi. 1365-yilda Ilyosxo‘ja Movarounnahrni bo‘ysundirish uchun yana bir marta urinib ko‘rdi. Amir Husayn va Amir Temur boshchiligidagi quchlar bilan Ilyosxo‘ja lashkari o‘rtasida Chinoz bilan Toshkent oralig‘ida jang bo‘ldi. Jang boshlangan vaqtda kuchli jala yoqqanligi sababli tarixda bu «loy jangi» yoki «jangi loy» deb ataladi. Jangda Temur qo‘shini jiddiy muvaffaqiyatga erishgan bir paytda Amir Husayn jangchilari dushman siquviga bardosh bera olmay chekinadi. Oqibatda jangda Ilyosxo‘ja qo‘shini g‘alaba qildi. Amir Temur va Amir Husayn avval Samarqandga chekingan, keyinchalik Amudaryoning chap qirg‘og‘iga o‘tib ketadi. Mo‘g‘ullar Ho‘ndni bosib olgandan keyin Samarqandga hujum qiladi.

Samarqand shahrida mudofaa devori yo‘q edi. Shaharliklardan xalq lashkari tuzildi. Lashkarga sarbadorlar boshchilik qilgan. Movarounnahrda sarbadorlar harakati mo‘g‘ul bosqinchilari va mahalliy hukmdorlarning

zulmiga qarshi yuzaga kelgan. XIV asrning 30-yillarida sarbadorlar harakati Eronda boshlanib, keyinchalik Xuroson va Movarounnahrda (50-60-yillarda) yoyilgan.

Samarqand himoyasiga sarbadorlardan kalava yigiruvchi Abu Bakr, madrasa mullasi Mavlonzoda va mergan Xo‘rdak Buxoriy rahbarlik qilgan. Shaharni osonlik bilan qo‘lga kiritishni rejalashtirgan Ilyos‘ho‘ja kutilmaganda qattiq qarshilikka duch keldi. Samarqand shahri uchun bo‘lgan janglarda Ilyosxo‘ja mag‘lubiyatga uchradi va Movarounnahrda chiqib ketishga majbur bo‘ldi¹.

Sarbadorlar shaharda hokimiyatni qo‘lga olgandan keyin mulkni cheklash, soliq va majburiyatlarni kamaytirish, kambag‘allarga imtiyoz va yengilliklar beruvchi islohotlar o‘tkazdi. Lekin hokimiyatni uzoq vaqt saqlab qola olmadi.

1366-yilning bahorida Amir Temur va Amir Husayn Samarqandni egallab hokimiyatni qayta tikladi. Movarounnahrda tahdid solgan tashqi havf bartaraf etilganidan keyin ikki amir o‘rtasida siyosiy hokimiyat uchun kurash boshlandi. 60-yillar oxirida Husayn Balx shahrini mustahkamlab, istehkomlar qurishga kirishdi. Amir Temur bu harakatlarning unga qarshi qaratilganini tushunar edi. 1370-yilda Amir Temur Balxga yurish qilib shaharni egalladi. Ikki amir o‘rtasidagi hokimiyat uchun kurash Amir Temurning g‘alabasi bilan nihoyasiga yetdi.

Amir Husayn tor-mor qilinganidan keyin Amir Temur Movarounnahrning yakka hukmdori bo‘lib qoldi. Uning hokimligiga rasmiy tus berish maqsadida qurultoy chaqirilgan edi. Qurultoyda Amir Temur Movarounnahrning amiri deb e‘lon qilindi. Keyinchalik unga «asr imperatori», «jahon fotihi» (sohibqironi), «sohibi qur‘on» va «falakiyot hukmdori» unvonlari berildi.

Amir Temurdek buyuk shaxsning Turonzaminda yetishib chiqishi bejiz emas edi. Uning dahosining shakllanishida Prezident Islom Karimov quyidagi shart-sharoitlar ta‘sir etganini qayd etgan: birinchidan, Amir Temurdek tarixiy shaxslarni, sarkarda va sohibqironlarni zamon talablari, zamon ehtiyoji hayotga olib keladi va ularning fazilat – xususiyatlarini namoyon qilishiga zamin yaratadi; ikkinchidan, Amir Temur dahosi mana shu zaminda yuzaga kelgan muhitning hosilasi bo‘ldi; uchinchidan, Amir Temur tuzgan davlat va uning butun dunyo e‘tiborini o‘ziga jalb qilgan olamshumul faoliyati, uni o‘stirgan yurtga va mana shu hududda undan ko‘p asr oldin o‘tgan buyuk allomalarning ijodiy merosini, ularning tabarruk nomlarini ham yana bir bor kashf etish va keng miqyosda

¹ Якубовский А. Ю. Амир Темур. Тамерлан. – М., 1992. – С. 24–25.

o'rganishiga zamin va sharoit tug'ildi; *to'rtinchidan*, biz Amir Temur tarixini har tomonlama chuqur o'rganishimiz va tadqiq qilishimiz kerak, chunki mustabid tuzum tufayli ulug' ajdodimizning tarixi va faoliyatini, bashariyat rivojiga qo'shgan hissasini bugungi kunda xorijda bizning o'zimizdan ko'ra yaxshiroq bilishadi¹.

Amir Temur davrida davlatni idora etish tizimi takomillashtirildi, hududlarni birlashtirish va tashqi tahdidlarni bartaraf etish uchun kurash olib borildi. Amir Temur shimoli-sharqdan saqlanib qolgan tahdidni bartaraf etish va mamlakat sarhadlarini yanada kengaytirish maqsadida 1370-yilning oxiri 1371-yil boshida Sharqiy Turkiston tomon yurish qilib, mo'g'ul xoni Kepak Temurga zarba berdi.

1370-1371-yillarda Farg'ona, O'tror, Yassi, Toshkent, Hisor, Badaxshon, Qunduz bo'ysundirildi.

Amir Temur Xorazmni Movarounnahr tarkibiga kiritishga harakat qildi. 1372 – 1388-yillarda Amir Temur Xorazmga besh marta yurish qilib hududni mamlakat tarkibiga qo'shib oldi. Shunday qilib, Yettisuvdagi va Sirdaryo etaklaridagi yerlardan tashqari, Turkiston yerlarining hammasi Temuriylar davlati tarkibiga kiritildi.

2-§. Buyuk saltanatning tashkil topishi

Amir Temurning mamlakat sarhadlarini kengaytirish va buyuk saltanat tuzish uchun olib borgan harbiy yurishlari tarixda «uch yillik» (1386-1388) «besh yillik» (1392-1396) «yetti yillik» (1399-1405) urushlar deb nomlagan. «Uch yillik» urush davrida Amir Temur Ozarbayjon, Tabriz, Mozandaron, G'ilonni bo'ysundiradi. Shundan keyin u Kavkazga yurish boshlab, Tiflis, Arzirus va Van qal'asini egallaydi.

Uch yillik urush davrida mamlakatning shimoli-g'arbiy hududlari xavfsizligini ta'minlash uchun kurashda Amir Temur davlati qudratli Oltin O'rda xonligi bilan to'qnashdi. Har ikki davlat o'rtasidagi kurash shiddatli tus olib, unga katta kuchlar safarbar etildi. Oltin O'rdaga qarshi urush 1389, 1391 va 1394-1395-yillarda uch marta shiddatli to'qnashuvlar bilan izohlanadi. 1391-yil 18-iyunda hozirgi Samara shahri bilan Chistopol o'rtasidagi Qundurcha daryosi bo'yida bo'lgan ikkinchi yurishda Amir Temur qo'shinini yetti qo'l-korpusga bo'lib, hujumga piyodalarni tashladi. Shiddatli hujumda jang taqdiri Amir Temur qo'shinlari foydasiga hal bo'ldi.

Qundurcha jangida katta talafot ko'rgan Oltin O'rda davlati qisqa vaqt davomida o'z qudratini qayta tiklab oldi. Shu bois, Amir Temur Oltin O'rda

¹ *Каримов И.А.* Amir Temur – faxrimiz ғуруримиз //Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т.5. – Т., 1997. –Б.181-184.

davlatini uzil-kesil tor-mor keltirish maqsadida 1394-1395-yillarda uchinchi marta yurish qilgan. 1395-yil 14-aprelda Shimoliy Kavkazda, Terek daryosi bo'yida ikkala qo'shin o'rtasida hal qiluvchi jang bo'lib o'tgan edi. Jang oldidan To'xtamish qo'shinlarida nizo chiqadi va u kuchsizlanib qoladi. Son jihatdan ustunlikka erishgan Amir Temur jang taqdirini o'z foydasiga hal eta oldi. To'xtamish qo'shinlariga qaqshatqich zarba berildi. Oltin O'rda taxtiga amir Qutlug' Temur o'tkaziladi, Eduhud amirlashkar lavozimiga tayinlanadi.

Movarounnahrning mustaqil beklilari, Xorazm va Oltin O'rdaga yurishlar Markaziy Osiyoda markazlashgan davlatni qaror toptirish maqsadida amalga oshirildi. Kavkaz, Eron, Hindiston, Kichik va Old Osiyoga harbiy yurishlar mamlakatning jahon miqyosidagi mavqeyini yanada mustahkamlash, xalqaro iqtisodiy va madaniy aloqalarini kengaytirishga qaratildi.

Besh yillik urush davomida Eron, Iroq, Kichik Osiyo yerlarini egalash uchun kurash olib borildi. Eron to'liq bosib olinganidan keyin Kavkazorti davlatlarini bo'ysundirish uchun yurishlar davom ettirilgan. 1392-yilda Armaniston va Gurjiston bo'ysundirildi. 1397-yilda Ozarbayjon zabt etildi. 1398-1399-yillarda Hindistonning shimoliy va markaziy qismi ishg'ol qilindi.

1399-1404-yillardagi yetti yillik urushda Shomning Halab (Aleppo), Xums, Baalbek (Ba'albak), Dimishq (Damashq) kabi yirik shaharlari, Ubuluston o'lkasi (qadimgi Kappadokiya), Bag'dod va Turkiyaning katta qismi bosib olindi.

Amir Temurning Kichik Osiyo va Suriyadagi hududlarni egallashi uning Usmonli Turklar va Misr davlatlari bilan to'qnashuviga sabab bo'di. 1401-yilda Suriya zabt etildi. Usmonli turk davlati bilan urush muqarrar bo'lib, qolgan edi. Turk sultoni Boyazid I Yildirim ham Temuriylar davlatini zabt etish maqsadini yashirmagan. Har ikki tomon qo'shinlari o'rtasidagi hal qiluvchi jang 1402-yilda Anqara yaqinidagi Oyqarada bo'lib o'tdi. Jangda har ikki tomondan 200 mingdan ortiq lashkar qatnashdi. Usmonli turk sultoni Boyazid qo'shinlari batamom tor-mor etildi va sulton asir olindi. Bu g'alaba natijasida Konstantinopolning usmonli turklar tomonidan bosib olinishi 50 yildan ortiq orqaga surildi.

Bu g'alaba Yevropadagi yirik mamlakatlarda temuriylar saltanatiga qiziqish uyg'otdi u bilan aloqalarini kengaytirishga sabab bo'ldi. Angliya, Fransiya, Ispaniya va boshqa mamlakatlar bilan diplomatik aloqalar faollashdi. Amir Temurning savdo aloqalarini kengaytirishni taklif etib yozgan maktubiga javoban Fransiya qiroli Karl VI 1403-yil 15-iyunda yozgan javob xatida uning taklifini qabul qiladi.

Amir Temur Kichik Osiyodan Samarqandga qaytganidan keyin ko'p vaqt o'tmasdan Xitoyga yurish boshlashga qaror qiladi. 1404-yil 27-noyabrda Amir Temurning 200 ming qo'shin bilan Xitoyga safari boshlanadi. Qahraton qish sababli O'tororga to'xtagan Amir Temur 1405-yilda qattiq betob bo'lib, 18-fevralda vafot etdi.

Shunday qilib, Amir Temur hukmronligi davrida jahondagi eng yirik imperiyalardan biri tashkil topdi. Mamlakatda iqtisod, savdo-sotiq, fan va madaniyatning rivoji uchun qulay shart-sharoit yaratildi. Prezident Islom Karimov Amir Temurning shaxsiyati va merosini o'rganish masalasiga to'xtalib uning quyidagi fazilatlarini qayd etgan:

birinchidan, Amir Temur qudratli davlat qurgan shaxs hisoblanadi;

ikkinchidan, Amir Temur qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqa o'rnatmasdan, ya'ni hamkorliksiz mamlakat istiqboli bo'lmasligini teran va yaxshi anglagan;

uchinchidan, sohibqironning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari undan ham beqiyos;

to'rtinchidan, Amir Temur har qanday jamiyat taraqqiyotini ilmrifatsiz tasavvur qilib bo'lmasligini yaxshi tushungan;

beshinchidan, Amir Temur o'z millati va el-yurtining taqdiri haqida ko'p o'ylagan va g'amxo'rlik qilgan;

oltinchidan, Amir Temur jamiyat e'tiqodsiz yashay olmasligini yaxshi anglagan¹.

Amir Temur shaxsi va uning el-yurt oldidagi xizmatlari O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritganidan keyin adolatli baholandi. 1996-yilda Prezident Islom Karimovning tashabbusi bilan Amir Temurning 660-yilligiga bag'ishlab Toshkent, Samarqand va Shahrisabz shaharlarida bayram tantanalari o'tkazildi. Toshkentda tashkil etilgan Xalqaro ilmiy anjuman bobomiz Amir Temur dahosini teran anglashimiz va xizmatlarini munosib baholashimizga mustahkam asos yaratdi.

3-§. Temuriylar davrida siyosiy hokimiyat uchun kurash

Amir Temur vafoti oldidan valiahd etib nevarasi Pirmuhammad Jahongirni vasiyat qilgan. Ammo mamlakatda murakkab vaziyat vujudga keldi. Amir Temurning Movarounnahrda tashqari mulklarini suyurg'ol tariqasida farzandlari va a'yonlariga bo'lib berib shart-sharoit yaratgan. Shuningdek, saltanat tarkibiga kirgan viloyat va o'lkalar iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'lanmagan edi. Ularda yashovchi xalqlar tili, urf-odati va

¹ Ўша манба. – Б.185-189.

madaniyati bilan farq qilgan va mustaqillikni qo'lga kiritish uchun qulay vaqt kelishini kutgan.

Amir Temur vafot etganidan keyin taxt uchun kurash avj oldi. Kobul va shimoliy Hind mulklarining hokimi Pirmuhammadning vorisligiga ko'pchilik a'yonlar qarshi edi. Shu bois, Movarounnahr, Xuroson, Eron, Ozarbayjon, Iroq va boshqa yerlarda notinchlik boshlandi. Saltanatning bo'linib ketishi xavfi kuchaydi. Amir Temurga sodiq amirlarning ko'pchiligi Shohruh Mirzoni taxtni egallashi tarafdori edilar. Lekin Mironshoh Mirzoning o'g'li, shimoliy yerlar (Toshkent, Sayram, Turkiston) hokimi Xalil Sulton (1384-1409) 1405-yil 18-martda Samarqandni egallab, o'zini Movarounnahr hukmdori deb e'lon qildi. Movarounnahr amirlari va harbiy sarkardalar saltanatni saqlab qolish uchun uning hokimiyatini tan oladi. Tez orada Xalil Sulton olib borayotgan siyosatdan norozilik kuchayadi. Farg'ona hokimi Amir Xudoydod, O'tror hokimi Shayx Nuriddin, Amudaryo bo'ylarida Mirzo Sulton Husayn Xalil Sulton hokimiyatiga qarshi isyon ko'taradi. Mamlakat Xuroson yerlari hukmdori Shohruh, Balxdan Hindgacha bo'lgan yerlar hukmdori Pirmuhammad, G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq tasarrufida bo'lgan yerlar Mironshoh va uning avlodlari (Umar Mirzo, Abu Bakr) o'rtasida taqsimlanadi.

Siyosiy hokimiyat uchun kurashning avj olishi natijasida mamlakat parchalanishi bilan birga, temuriylar sulolasi katta talafot ko'rdi. 1407-yil 22-fevralda Pirmuhammad o'zining vaziri Pirali Toz tomonidan uyushtirilgan suiqasd natijasida o'ldiriladi. 1408-yil 22-aprelda Ozarbayjon va Iroq uchun bo'lgan jangda Amir Temurning o'g'li Mironshoh halok bo'ladi. Natijada Ozarbayjon va Iroq temuriylar tasarrufidan chiqib ketadi.

Temuriylarning hokimiyat uchun uzoq davom etgan kurashida Shohruh g'alaba qildi. U Mozandaron, Mashhad, Seyiston va Kirmonda o'z hokimiyatini mustahkamladi. Movarounnahrni qo'shib olish maqsadida 1409-yil 25-aprelda Amudaryodan o'tib Samarqandni egallaydi. Shundan keyin Movarounnahrda tinchlik va osoyishtalik o'rnatiladi. Shohruh temuriylar davlatining oliy hukmdori (1409-1447) sifatida tan olinadi. O'zaro urushlardan charchagan xalq Shohruh Mirzoni qo'llab-quvvatladi. Chunki faqat kuchli, markazlashgan davlat osoyishtalik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashi mumkin edi. Shohruh Temur davlati o'zagini saqlab qoldi. O'ziga sodiq kishilarni o'lka va viloyat noiblari lavozimlariga tayinlab, siyosiy barqarorlikni ta'minladi.

Shohruh Xuroson va Eronni o'z tasarrufiga olib, Movarounnahr boshqaruvini Ulug'bekka topshirgan. Davlatda yuzaga kelgan qo'sh markazlik siyosiy parokandalikni keltirib chiqarmadi. Shohruh hokimiyat jilovini qo'lda tutib Ulug'bek olib borayotgan siyosatni nazorat qilib turgan.

Mamlakatning ikkala qismida ham davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari mamlakat hududlarini kengaytirish hamda markaziy hokimiyatni mustahkamlash bo'lgan. Shohruhning madadiga tayangan Ulug'bek 1413-yili Xorazmni, 1415-yilda Farg'onani bo'ysundirdi. 1416-yilda Qoshg'ar hokimi Shayx Ali To'g'ay Ulug'bekka ixtiyoriy ravishda bo'ysunadi.

Ulug'bek tashqi siyosatda chegaralar daxlsizligini saqlab qolish uchun qo'shni davlatlarning ichki ishlariga faol aralashgan. Dashti Qipchoq va Mo'g'ulistondagi siyosiy hokimiyat uchun kurashda temuriylar davlatiga hayrixox sulola vakillarini hokimiyatni egallashiga ko'maklashdi. Lekin ularning aksariyat qismi keyinchalik yaxshi qo'shnichilik aloqalarini buzgan edi. Ulug'bek shunday hukmdorlardan biri bo'lgan Mo'g'uliston xoni Shermuhammadxonga qarshi 1424-yil noyabr oyida yurish qiladi. 1425-yil bahorda Issiqko'l yaqinida mo'g'ullar tor-mor keltiriladi.

Dashti Qipchoq hukmdori Baroqxon ham Sirdaryo bo'yidagi yerlarga (O'tror, Sabron, Sig'noq) hujum qilib turar edi. 1427-yilning boshlarida Ulug'bek Dashti Qipchoqqa yurish qiladi. Lekin Baroqxon qo'shinidan mag'lubiyatga uchrab Toshkentga chekingan. Bu mag'lubiyatdan keyin Ulug'bek mustaqil harbiy yurishlar tashkil etmagan. U ichki siyosatga asosiy e'tibor qaratadi. Mamlakatda dehqonchilik, hunarmandchilik va sado-sotiqni rivojlanishga qulay shart-sharoit yaratildi. Qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishini kengaytirish maqsadida, keng ko'lamda sun'iy sug'orish inshootlari qurilishi olib borilgan. Iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida 1428-yilda pul islohoti o'tkazadi. Muomalaga yangi vaznda mis tanga (fuluslar) muomalaga chiqarildi. Mis tangalar aholi tomonidan munosib baholanib «fulusi adl» deb atalgan.

Mehnatkash aholining turmushini yaxshilash maqsadida soliqlar miqdori kamaytirildi. Davlat xizmatchilari, harbiylar va ruhoniylarning imtiyozlari saqlanib qolgan edi. Ruhoniylar katta miqdordagi yer va boyliklarga egalik qilib siyosiy hokimiyat uchun kurashga faol aralashgan.

Movarounnahrda Ulug'bek davrida iqtisodiyot jonlandi, fuqarolar tinchligi ta'minlandi lekin siyosiy hokimiyat uchun yashirin kurash davom etdi. Shohruhning keksayishi jarayonida siyosiy qarama-qarshiliklar keskinlashib bordi. Taxtga Ulug'bekdan tashqari Shohruhning nevarasi Alouddavla, ukasi Muhammad Jo'ki (1402-1444) da'vogarlik qilgan. Shohruh Fors va Iroqi Ajamda nevarasi Sulton Muhammad qo'zg'olonini bostirish uchun olib borgan urushlardan keyin 1447-yil 12-martda Ray viloyatida vafot etdi. Bu voqeya Xuroson va Movarounnahrda temuriy shahzodalar o'rtasida hokimiyat uchun ochiq kurash boshlanishiga sabab bo'ldi. Mirzo Ulug'bek oliy hokimiyatga qonuniy voris bo'lsa-da, Boysunqur Mirzoning o'g'illari Alouddavla va Abulqosim Bobur unga

muxolifatda bo'ldi. Xurosonda Alouddavla, Mozandaron va Jurjonda Abulqosim Bobur, G'arbiy Eron va Forsda Sulton Muhammad mustaqilligini e'lon qiladi. Muhammad Jo'kning o'g'li Abu Bakr Balx, Shibirg'on, Qunduz va Bag'lonni bosib oldi.

Mirzo Ulug'bek nizolarni tinch yo'l bilan hal etish uchun Alouddavla bilan muzokaralar olib bordi. Alouddavla Ulug'bekni yon bosishga majbur qilish maqsadida asrga olingan Abdullatifdan foydalangan. Muzokaralar natijasida ikki o'rtadagi chegara Murg'ob vohasi deb belgilangan.

Balx viloyati hokimi lavozimiga tayinlangan Abdullatif o'zboshimchilik bilan shartnomani buzib, Hirotga yurish qiladi. Lekin jiddiy qarshilikka uchraydi va Ulug'bekdan yordam so'rashga majbur bo'ladi. 1448-yilning bahorida Ulug'bek Hirot yaqinidagi Tarnob jangida Alouddavla qo'shinini tor-mor keltiradi. Bu g'alabadan keyin Xuroson taxti Abdullatifga topshiriladi. Lekin Ulug'bek Xirotni yagona davlatning bir bo'lagi deb hisoblagan. Hokimiyatparst Abdullatifga otasining bunday munosabati yoqmaydi, mustaqil hukmdor bo'lishni xohlaydi.

Abdullatif Xuroson taxtini egallashi bilan hokimiyat uchun kurash to'xtamadi. Abulqosim Bobur katta qo'shin bilan Hirotga yurish qiladi. Abdullatif sarosimaga tushib 15 kunlik hukmronlikdan keyin Movarounnahrda qochadi. Ulug'bek Abdullatifni yana Balxga noib etib tayinlaydi. Balxda Abdullatif otasiga qarshi ochiq kurash boshlagan. Mavjud siyosiy vaziyat Ulug'bek uchun nihoyatda noqulay edi. Dashti qipchoqda Abulxayrxon mamlakat shimoliga tahdid qilgan. Yorali boshchiligida turkmanlar qo'zg'oloniga qarshi kurashishga to'g'ri kelgan. Temuriy shahzodalardan Abusaid Samarqand atrofida Ulug'bekka qarshi harakat boshladi. Samarqand hokimi Abdulazizga qarshi «amirlar xonadoniga tazyiq o'tkazaypti» degan ovoza tarqalib, amirlarning noroziligi kuchayadi. Shunday vaziyatda Abdullatif Amudaryodan kechib o'tib, Termiz, Kesh, Hisorni egallaydi.

1449-yil oktabr oyida Samarqand yaqinidagi Damashq qishlog'idagi jangda Mirzo Ulug'bek mag'lubiyatga uchraydi. Ulug'bek Samarqand va Shohruhiya qal'alariga kiritilmaganidan keyin taslim bo'ldi. 1449-yilning 27-oktabrida haj safariga ketayotgan Mirzo Ulug'bek Samarqand yaqinida fojiali tarzda o'ldirilgan.

Ulug'bek vafot etganidan keyin hokimiyat uchun kurash yanada keskinlashdi. Samarqand taxtiga o'tirgan Mirzo Abdullo markaziy hokimiyatni kuchaytirishga harakat qiladi. Lekin, Abu Said (1451-1469) Dashti Qipchoq xoni Abulxayrxonning (1428-1468) yordamida 1451-yil yozida Samarqand yaqinidagi Sheroz jangida Mirzo Abdulloni yengib taxtni egallaydi. Xurosonda Abulqosim Bobur (1457) taxtni o'z qo'lida saqlab

qolsada, siyosiy tarqoqlikni bartaraf eta olmadi. Xuroson o'ndan ortiq qismga bo'linib ketdi.

Abulqosim Bobur vafot etganidan so'ng Abu Said Mirzo 1457-yili Xurosonga yurish qilib Hirotni egallaydi. Sulton Abu Said Mirzoning (1451-1469) hukmronlik davrida davlat hududlari kengayib, uning chegaralari Sharqiy Turkistondan Iroqqacha, Sirdaryodan Hindiston chegaralarigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga oldi. Abu Said hukmronligi davrida hokimiyatni mustahkamlash, isyonkor amaldor-noiblarni jazolash siyosatini olib bordi. Lekin, siyosiy tarqoqlikni butkul tugata olmadi. 1469-yili G'arbiy Eron yerlarini qaytarib olish uchun oqqo'yunlo' turkmanlariga qarshi olib borilgan janglarning birida u o'ldiriladi. Xorazm hukmdori Sulton Husayn bu vaziyatdan foydalanib Hirotni egallaydi. Temuriylar saltanati yana Xuroson va Movarounnahrda bo'linib ketdi. Movarounnahr sulton Abu Saidning o'g'illari Sulton Ahmad (1469-1494), Sulton Mahmud (1494-1496) hamda Mahmudning o'g'li Sulton Ali Mirzo (1496-1501)lar tomonidan mustaqil ravishda boshqarildi. Ushbu hukmdorlar davrida Movarounnahrda ayrim viloyat noiblari, amirlarning ta'siri o'sib, ko'pincha ular mustaqil faoliyat yo'lga o'tgan. Siyosiy hayot, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda ruhoniylarning, ayniqsa so'fiylarning ta'siri yanada kuchayadi.

Xurosonda vaziyat boshqacha edi. Sulton Husayn (Boyqaro) (1469-1506) temuriylar tarixida mamlakatni boshqargan oxirgi yirik davlat arbobi bo'lib qoldi. Uning ko'p yillik hukmronlik davrida mamlakatda iqtisodiy va madaniy hayot yuksaldi.

4-§. Amir Temur va Temuriylar davrida davlat boshqaruvi va ishlab chiqarishning rivojlanishi

Amir Temur hokimiyatni qo'lga kiritganidan keyin davlatning poytaxti etib Samarqand shahrini tanlagan. Shaharda keng ko'lamli qurilish ishlari olib borilgan. 1370-yilda Markaziy davlat mahkamalari shaharga ko'chiriladi. Davlat ishlarida birinchi navbatda, ichki ishlarni yo'lga qo'yish, hokimiyatni mustahkamlash va rivojlantirishga harakat qilingan.

Davlat tuzilishiga ko'ra, harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan bo'lib, boshqaruvda an'anaviy tartibot saqlanib qolgan va rivojlantirilgan. Markaziy davlat boshqaruvi dargoh va devonlardan tuzilgan. Dargohni oliy hukmdor boshqargan. Devonni boshqarish devonbegi (bosh vazir)ning zimmasida edi. Devon bajradigan vazifalarga ko'ra 7 ta qism (devon)ga bo'lingan. Devonlarning joylarda mahkamalari mavjud edi. Davlat ma'muriy-hududiy jihatdan ulus va tumanlarga bo'lingan. Mahalliy

hokimiyat idoralari hokimlar (sultonlar, beklar) tomonidan boshqarilar edi. Hokimlarning asosiy vazifasi soliqlarni markazga o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash va urush vaqtida qo'l ostidagi qo'shinga bosh bo'lib hukmdorga xizmat qilishdan iborat edi.

Davlat xizmatida iqtidorli kadrlarni tanlash va ularni joy-joyiga qo'yishga alohida e'tibor berilgan. Nomzodlarni davlat xizmatiga tayinlashda iqtidori, kasbiy layoqati, bilimi va nasl-nasabiga qaralgan.

Amir Temur Movarounnahrda tashqari davlat tarkibiga kiritilgan hududlarni to'rt qism (ulus)ga bo'lib, ularni farzandlari va nevaralariga bo'lib beradi. Markazi Xirotda bo'lgan Xuroson, Jurjon, Mozandoron va Seyiston hududlari Shohruhga; Markazi Tabriz bo'lgan G'arbiy Eron, Ozarboyjon, Iroq va Armaniston hududlari Mironshoxga; markazi Sheroz bo'lgan Eronning janubiy qismi hududi Umarshayx Mirzoga; Markazi G'azna keyinchalik Balx bo'lgan Afg'oniston va Shimoliy Hindiston Pirmuxammadga bo'lib berilgan.

Amir Temur davrida davlat tuzumi, hokimiyatning tashkil etilishi, davlat xizmatiga munosib nomzodlarni tanlash va boshqa masalalar uning «Tuzuki Temuriy» («Temur tuzuklari») asarida bayon etilgan. Prezident Islom Karimov «Temur tuzuklari» asariga yuksak baho berdi. «O'z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan, inson ma'naviyati uchun bugun ham oziq bo'ladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekaniga ko'p bor ishonch hosil qilganman»¹, deydi davlat rahbari.

«Tuzuklar»da kuchli davlat barpo etishdagi muhim qonun-qoidalar buyuk davlatni boshqarishning barcha asosiy tamoyillari, yo'l-yo'riqlari to'liq bayon etilgan.

Iqtisodiy hayotda qishloq xo'jaligi katta ahamiyatga ega ekanligi sababli, uni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirishning samarali vositasi yangi yerlarni o'zlashtirish edi. Buning uchun irrigatsiya inshootlari qurilgan. Amir Temur davrida barpo etilgan Obirahmat, Mazdahin, Bozor, Korand, Nahri jadid kabi suv tarmoqlari atrofida ko'plab yangi qishloqlar barpo etilgan.

Shohruh va Ulug'bek davrida ham sun'iy sug'orish inshootlarini qurish keng ko'lamda davom ettirildi. Dashtlarga suv chiqarilib, bo'z yerlar o'zlashtiriladi. Xususiylar sohibkorlar qo'riq yerlarni o'zlashtirsa, soliqlardan ma'lum muddatga ozod qilingan. Samarqand, Qashqadaryo, Marv vohalari va Hirotda yirik sug'orish inshootlari barpo etilib, suv ta'minoti yaxshilandi.

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б.45.

Amir Temur va temuriylar davrida yer egaligining mulki devon (davlat yerlari), mulk (xususiy yerlar), vaqf yerlari (masjidlilar va madrasalar tasarrufidagi yerlar) va jamoa yerlari kabi shakllari bo'lgan. Davlat yerlarini suyurg'ol yoki tarxon tarzida in'om etish tartibi keng qo'llanilgan. Suyurg'ol mulki egasi markazdan deyarli mustaqil edi. Tarxonlik yorlig'ini olgan mulkdorlar soliq va majburiyatlardan ozod etilgan.

Soliqlarning asosiy turi xiroj edi. Xiroj yetishtirilgan hosilga qarab mahsulot yoki pul shaklida olingan. Sug'oriladigan yerlardan yana «mol» solig'i yig'ilgan. Mulk yerlardan ushr solig'i to'plangan. Bog'lardan tanobona solig'i yig'ilar edi. Soliqlardan tashqari soliq yig'uvchiga «muhassilon», hosilni belgilovchiga «sohib jamona», suv taqsimlovchiga «mirobona» va boshqa ko'plab to'lovlar mavjud edi.

Amir Temur iqtisodiyotni jonlantirish maqsadida pul muomalasini tartibga solgan. Mamlakatda yagona pul birligi joriy etilgan. Vazni 6 grammlı «tanga» va 1,5 grammlı «miri» deb yuritilgan kumush tangalar muomalaga kiritilgan. Keyinchalik Mirzo Ulug'bek pul islohotini o'tkazgan. Ichki savdoni rivojlantirish maqsadida 1428-yilda bir xil vazndagi fulusiy (mis) tangalar zarb etilishi yo'lga qo'yilgan. Ulug'bekning tangalari «fulusi adliya» nomi bilan shuhrat qozonadi. Davlat xazinasiga tushumlarni ko'paytirish maqsadida savdo boji «tamg'a» ham oshirilgan.

5-§. Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati

XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr tasarrufida Markaziy Osiyoda temuriylar hukmronligi davri sharq renessansining yangi bir bosqichi bo'ldi. Amir Temur davrida ijtimoiy hayotning barcha sohalaridagi yuksalish XV asrda siyosiy hokimiyat uchun keskin kurash sharoitida davom etdi. Shohruh (1405-1447), Mirzo Ulug'bek (1409-1449), Sulton Husayn (Boyqaro) (1469-1506), Sulton Abu Said (1451-1469) davrlarida fan va madaniyat yuksalib, Movarounnahr va Xuroson yirik madaniy markaz sifatidagi ahamiyatini saqlab qoldi.

Temuriylar davrida me'morchilik mamlakat qudratini namoyish qilish vositasiga aylandi. Amir Temur saltanat tarkibiga kiritilgan yurtlardan mashhur usta va hunarmandlarni Movarounnahr olib kelgan. Mahalliy va bu yerga ko'chirib keltirilgan hunarmand va ustalarning mehnati bilan Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv, Binokat kabi shaharlar qayta tiklandi. Yangi shahar va qishloqlar qurildi. Shahrisabzdagi Oq saroy me'moriy majmuasi, Samarqanddagi Bibi xonim masjidi, Go'r amir maqbarasi, Shohizinda me'moriy majmuasi, Ko'ksaroy, Bo'stonsaroy obidalari,

Turkistondagi Ahmad Yassaviy maqbarasi va boshqa inshootlar Amir Temur davrida bunyod etildi. Shohruh Hirot shahrini qayta qurish ishlarini amalga oshirdi. Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida Buxoro va Samarqandda yirik me'moriy yodgorliklar bunyod etildi. Buxoro, G'ijduvon va Samarqandda madrasalar qurildi. Amir Temur davrida Samarqandda nihoyasiga yetkazilmagan me'moriy inshootlar qurilishi yakunlangan. Ulug'bek rasadxonasi o'z davrining eng zamonaviy inshooti edi. Unda mashhur mutafakkirlar ijod qilgan. Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, Samarqandda 100 dan ortiq olimlar fanning turli sohalarida ajoyib yutuqlarga erishgan. Ular orasida Taftazoniy, Mavlono Ahmad, mavlono Ali Qushchi, o'z zamonasining «Aflotuni» deb nom olgan Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Koshiy, Muhammad Hafoviy va boshqa taniqli zotlar ham bor edi. Samarqandda faoliyat ko'rsatgan madaniy markaz keyinchalik «Ulug'bek akademiyasi» nomini oladi. Ulug'bek akademiyasi Markaziy Osiyo tarixida ikkinchi akademiya sifatida tarixda qoldi.

Mirzo Ulug'bekning merosi mustaqillikdan keyin munosib baholandi. Islom Karimov Mirzo Ulug'bekning ilmiy jasoratini yuksak baholadi. «Buyuk Amir Temurning nabirasi, benazir alloma Mirzo Ulug'bekning O'rta asrlar sharoitida namoyon etgan ilmiy jasorati bugungi kun olimlarini ham hayratga solmasdan qo'ymaydi»¹. 1994-yili Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi keng nishonlandi. Qator ko'cha, tuman, shahar, inshootlar va muassasalarga Ulug'bek nomi berildi.

Ulug'bek vafotidan so'ng madaniy markaz Xurosonning poytaxti Hirotga ko'chdi. Hirotida Shohruhning o'g'li Boysunqur noyob qo'lyozma kitoblari bilan mashhur kutubxona tashkil etadi. Mirak naqqosh boshchiligidagi sharq miniatura san'ati ham o'z faoliyatini shu yerdan boshlagan edi.

Hirot madaniy va ilmiy markazining shakllanishida Xuroson hukmdori Sulton Husayn (Boyqaro) (1469-1506) va ayniqsa buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning (1441-1501) xizmati katta bo'ldi. Prezident Islom Karimov Navoiy ijodiga baho berar ekan «Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir»², deb ta'kidladi.

Alisher Navoiy vazirlik lavozimida ishlaganida Hirotida «Ixlosiya», «Shifoia» majmualari, Tus viloyatidagi Turuqband suv ombori va kanali, Hirot va Mashhaddagi sug'orish inshootlari, Astroboddagi saroy va masjid,

¹ Ўша жойда. – Б.45.

² Ўша жойда. – Б.47.

Marvdagi madrasa va boshqa inshootlar qurilgan. Shaxsan uning mablag‘lari hisobidan 52 ta rabot, 19 ta hovuz, 16 ta ko‘prik, 9 ta hammom va boshqalar qurilgan. Alisher Navoiy o‘z davrining ko‘plab fan, san‘at va adabiyot namoyandalarishga homiylik qilgan. Jumladan, misol tariqasida Kamoliddin Behzod, Sulton Ali Mashhadiy, Husayn Uddiy, Kamoliddin Binoiy, Davlatshoh Samarqandiy, Husayn Voiz Koshifiy, Mirxond, Zayniddin Vosifiy va boshqalarni qayd etishimiz mumkin. Alisher Navoiy ilk bor turkiy tilda 1483-1485-yillarda «Xamsa» asarini yozdi.

Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan 1991-yili Alisher Navoiyning 560 yilligi tantanali nishonlandi. Toshkent shahrida shoirning haykali o‘rnatilgan milliy bog‘ ochildi.

XV asrning atoqli o‘zbek shoirlari qatoriga yana Lutfiy, Durbek, Sakkokiy, Gadoiy, Atoiy, taniqli allomalar faylasuf Ali ibn Muhammad Jurjoniy, tabib Mavlono Nafis, shoir Xayoliy Buxoriy va boshqalarni kiritish mumkin.

Temuriylar davrida tarixnavislik ilmi rivojlandi. XV asrdagi taniqli tarixchilar, Nizomiddin Shomiy «Zafarnoma» asarini, Hofizi Abro‘ «Majmua at-tavorixi sultoniya», «Zubdat ut tavorixi Boysunquriy» («Boysunquriy tarixlarining yuqori qismi») asarlarini, Sharafiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma» asarini, Fasih Havofiy «Majmuai tarixi Fasihiy» («Fasihiyning tarixlar majmuasi») asrini, Abdurazzoq Samarqandiy «Matlai sa‘dayin va majmai bahrayn» («Ikki dengizning qo‘shilishi va ikki saodatli yulduzning bolqishi») asarini, Ibn Arabshoh «Ajoib ul-maqdur fi axbori Teymur» («Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari») Mirxond «Ravzat us-safo fi sayratul-anbiyo val-mulk val-xulafo» («Payg‘ambarlar, podshohlar va xalifalarning tarjimai holi haqida jannat bog‘i»), Xondamir «Habib us-siyar fi axbor afrod ul-bashar» («Inson zoti xabarlari va do‘stining tarjimai holi») va boshqa qator asarlarini yaratdilar.

XV asrning so‘nggi choragida Temuriylar davlati hokimiyat uchun kurash, ichki nizolar va iqtisodiyotning tanazzulga uchrashi oqibatida zaiflashdi. Markazlashgan davlat mustaqil beklklarga parchalanib ketishi oqibatida tashqi tahdidlarga qarshi kurash layoqatini yo‘qotdi. Qulay vaziyatdan foydalangan Dashti qipchoqdagi turkiy qabilalar Shayboniyxon boshchiligida 1499-yildan Movarounnahrda bostirib kirdi. Temuriylar orasida Shayboniyxonga qarshilik ko‘rsata oladigan hukmdor Muhammad Bobur edi. Lekin temuriylar uni qo‘llab-quvvatlash, atrofida birlashish o‘rniga dushmanga taslim bo‘lishni afzal ko‘rdilar. 1506-yilgacha Shayboniyxon Xorazm va Movarounnahrni to‘liq egalladi. 1507-yilda Xurosonda Badiuzzamon Mirzo va Muzaffar Mirzolar tor-mor etilganidan keyin Xurosonni taslim etdi.

Shunday qilib, deyarli bir yarim asr mavjud bo‘lgan Temuriylar saltanati Movarounnahrda va Hurosonda barham topdi. Faqat Zahiriddin Muhammad Bobur Xurosonning bir qismida hokimiyatni saqlab qolgan edi. Uning Shayboniyxlarga qarshi uzoq vaqt davomida olib borgan kurashi natijasiz yakunlanganidan keyin, Shimoliy Hindistonga yurish qilib, u yerda Buyuk Boburiylar saltanatini tuzadi. Boburiylar sulolasi Hindistonda deyarli uch asr mobaynida hukmronlik qilib, temuriylarning shon-shuhratini bu yerda tiklashga muvaffaq bo‘ladi.

IX bob
TURKISTONNING XONLIKLARGA BO‘LINIB KETISHI.
UNING SABABLARI VA OQIBATLARI¹

1-§. Movarounnahrda Shayboniylar sulolasi
hukmronligining o‘rnatilishi

Ma'lumki, XV asrning oxirlariga kelib, Temuriylar saltanati inqirozga yuz tutdi. Bu jarayon ancha avvalroq, Ulug‘bekning fojiali o‘limidan so‘ng boshlangan edi. 12 yoshida Farg‘onada hokimiyat taxtiga o‘tirgan Zahiriddin Muhammad Bobur Movarounnahrni birlashtirish uchun so‘nggi kurashni boshladi¹.

Bobur 1483-yil 13-fevralda Andijonda Umarshayx oilasida dunyoga keldi. U 1497-yilda katta qo‘shin to‘plab Samarqandga yurdi. Shaharni yetti oy qamal qilib egalladi va u yerda uch oy hukmronlik qildi. Lekin Andijonda o‘ziga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olonni bostirish uchun orqaga qaytishga majbur bo‘ldi. Bobur Xo‘jandga o‘rnashib, bir yarim yildan so‘ng Andijonda hokimiyatni tiklaydi va yana Samarqand yurishiga tayyorlana boshlaydi. Ammo ahvol og‘ir edi. Bir tomondan, Temur avlodlari o‘rtasida taxt uchun kurash avj olgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Shayboniy Muhammad Samarqand yurishiga hozirlanmoqda edi. 1499-yilda Shayboniy Muhammad Samarqand taxtini egallab, Temuriylar saltanatiga chek qo‘ydi. Bu davrda Bobur kichik bir guruh (240 kishi) bilan Samarqandga otlandi. Lekin Shayboniy Boburdan oldinroq Samarqandga kiradi. Shaharni egallagan Shayboniy talonchilik maqsadida atrof qishloqlarga chiqib ketganini eshitgan Bobur to‘satdan hujum qilib, Samarqanddagi 8 ming kishilik qo‘shinni tor-mor qilib, shaharni oladi.

1501-yilning bahorida Bobur Muhammad Shayboniy qo‘shinlari bilan jang qilish uchun Samarqanddan chiqadi. Ko‘hak daryosi sohilida bo‘lgan qattiq jang Bobur lashkarlarining mag‘lubiyati bilan tugadi. Bu esa Shayboniy-xonga Movarounnahrda mavqeini yanada mustahkamlashga yordam berdi.

Og‘ir ahvolda qolgan Bobur 1504-yilda o‘z baxtini izlab Movarounnahrda butunlay chiqib ketishga qaror qiladi. Tajribali sipoh, dono davlat arbobi darajasiga yetgan Bobur oilasi, yaqinlari va xizmatchi navkarlaridan 200 kishini olib Afg‘oniston sari yo‘l oladi. Qobul shahrini egallab, u yerda qo‘shin to‘playdi.

Shayboniyxon Samarqandni olishi bilan amalda Temuriylar hokimiyati inqirozga uchradi. 1500-1508-yillarda Shayboniyxon tinimsiz urushlar olib borib, Farg‘ona, Xorazm, Xurosonni ishg‘ol qiladi. 1508-yilda Jom ostonalarida Temuriylarning oxirgi qo‘shini tor-mor qilingach, ularning Movarounnahrda ildizi batamom tugatildi. Kaspiydan Xitoygacha, Sirdaryo etagidan Markaziy Afg‘onistongacha bo‘lgan ulkan mamlakat Shayboniylar mulkiga aylanib qoldi¹.

1510-yilda Marv yaqinida Eron shohi Ismoil bilan to‘qnashuvda Shayboniyxon yengiladi va halok bo‘ladi. Shoh Ismoil Xurosonni egallab, Boburni shimolga – Movarounnahrda yurishga undaydi, unga qo‘shin va yordam va‘da qiladi. Bobur 1512-yilda Samarqandga yurib, uni egallaydi. Biroq xalq uni shoh Ismoilning gumashtasi deb, qo‘llab-quvvatlamadi. Shunga qaramay, so‘nggi temuriy Bobur taxt uchun qattiq kurashadi. Biroq 1513-yilda u Shayboniy Ubaydulla va Muhammad Temurlardan mag‘lubiyatga uchraydi. Shu bilan Bobur va Shoh Ismoil o‘rtasidagi ittifoq barham topadi. Bobur Qobulga qaytgach, 1525-yilda Hindistonga bostirib kiradi va Dehli sultonini, so‘ngra rajputlar hokimi Rang Sint qo‘shinini tor-mor qiladi. Bobur bu o‘lkada tarixda Buyuk mo‘g‘ullar nomi bilan shuhrat topgan Boburiylar saltanatiga asos soladi. Boburiylar sulolasi Hindistonda 332 yil (1526-1858 yy.) hukmronlik qildi². Shunday qilib, Amir Temur va uning avlodlari 144 yil Movarounnahrda, 37 yil Xurosonda, 332 yil Hindistonda, jami bo‘lib tarix sahifasida 513 yil o‘z mavqelarini saqlab turdilar.

Shayboniylar Movarounnahrni 1500-1508-yillarda bosib olgan bo‘lsa-da, Zahiriddin Muhammad Bobur mag‘lubiyatga (1512-1513) uchrab, Movarounnahrda chiqib ketganidan keyin 1515-yilda ularning bu yerda to‘la hukmronligi o‘rnatildi.

Shayboniylar sulolasi Movarounnahrda yuz yil hukmronlik qildi. Lekin ko‘chmanchi o‘zbeklar Movarounnahrning o‘troq, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda ancha ilgarilab ketgan hayotiga katta ta‘sir ko‘rsata olmadilar.

Shayboniylarning davlat boshqaruvi. Shayboniylarning davlat boshqaruvi mulk tizimiga asoslangan edi. Muhammad Shayboniy qo‘lga kiritilgan yerlarni o‘z qarindoshlari, sultonlar va beklarga taqsimlab berdi. Ularning har biri mulk boshqaruviga ega bo‘lib, bu yerda u mustaqil siyosat olib borishga intildi. Shu tarzda mustaqil tarqoq yer egalari Shayboniyxonning bosqinchilik yurishlari jarayonida birlashgan bo‘lsalar-da, bu birlashish

¹Ўзбекистон тарихи. – Андижон, 2011. – Б.188–192.

¹Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Т., 1994. – Б. 406–407.

²Ўша манба. – Б. 404.

uzoqqa choʻzilmadi. Mulk tizimining hukmronligi natijasida davlat yana ayrim beklklarga boʻlinib ketdi.

Bu beklklarning iqtisodiy, soʻngra esa siyosiy qudrati kuchaygach, boyib ketgan hokimlar markaziy hokimiyatdan mustaqil boʻlishga harakat qila boshladilar. Ana shu vaziyatda Shayboniyxon oʻz hokimiyati ostidagi sultonlar orasida markazdan qochish kuchini kamaytirish uchun bir qator tadbirlar koʻrdi. Masalan, u ayrim sultonlar va amirlarni bir mulkdan ikkinchisiga koʻchirishga harakat qildi, ammo bu har doim ham u istagan natijani bermadi¹.

Mamlakatda oʻzbek qabilalari maʼlum darajada oʻz mustaqilliklarini saqlab qolgan boʻlib, ularni xondan amirlik yorligʻini olgan qabila boshliqlari boshqarardi. Amirlar xon saylash, majlislarda qatnashish huquqiga ega edi. Natijada ular xon hokimiyati uchun xavfli kuchga aylana boshladi.

Shayboniy Muhammad 1510-yilda 61 yoshida fojiali halok boʻlgach, taxtga amakisi Koʻchkinchixon (1510-1530), uning oʻgʻli Ahmad Said (1530-1533), soʻng jiyani Ubaydullaxon (1533-1539) oʻtirib, merosxoʻr sifatida Movarounnahrni boshqardilar.

Undan keyin Movarounnahrda qoʻsh hokimiyatchilik oʻrnatildi. Buxoroda Ubaydullaxonning oʻgʻli Abdulazizxon(1540-1550), Samarqandda jiyani Abdullatifxon (1540-1551) hukmdorlik qildilar. Ularning oʻlimidan soʻng yana hokimiyat uchun kurash qizib ketdi.

Shayboniyning Movarounnahrda yuz yillik hukmronligi davrida oʻtgan 8 ta xondan uchtasi – Shayboniy Muhammad, Ubaydullaxon va Abdullaxon (1557-1598)largina shijoatli harbiy hukmdorlar edi. Aynan shu hukmdorlar davrida davlatning yaxlitligi saqlandi. Mamlakatning iqtisodiy ahvoli mustahkamlandi, siyosiy barqarorlik taʼminlandi, islohotlar amalga oshirildi, qurilishlar olib borildi.

Shayboniy davlati Ubaydullaxon davrida (1533-1539) birmuncha kuchaydi. Davlat poytaxti 1533-yilda Samarqanddan Buxoroga koʻchirildi. Ubaydullaxon vafotidan soʻng Shayboniy sultonlar va mahalliy hokimlar oʻrtasida hokimiyat uchun kurash kuchayib, xonlik yerlari mayda boʻlaklarga boʻlinib ketdi. Buxoroda Ubaydullaxonning oʻgʻli Abdulazizxon, Samarqandda Koʻchkinchixonning oʻgʻli Abdullatif, Balx va Badaxshonda Pirmuhammadxon, Toshkent va Turkistonda Navroʻz Ahmadxon (Baroqxon), Karmana va Miyonkolda Iskandarxon va boshqa kichik hukmdorlar mustaqil boʻlib oldilar².

¹ Ўзбекистон тарихи. – Андижон, 2011. – Б.188–192..

² Ўзбекистон тарихи. Дарслик. – Т., 2011. – Б. 244–246.

1551-1556-yillarda Movarounnahr uchun Shayboniy oʻrtasidagi kurashda Iskandar Sultonning oʻgʻli Abdullaxon gʻolib chiqdi. U Shayboniy hukmdorlar orasida eng nufuzli hukmdor boʻlgan. 1557-yilda Buxoro shahri uzil-kesil davlat poytaxti boʻlib qoldi. Abdullaxon II hukmronligi davrida (1557-1598) Movarounnahrda tarqoq hokimliklarga barham berilib, markazlashgan davlat va kuchli qoʻshin tashkil etildi. Xonlik chegarasi Qashqardan Orol va Kaspiy dengizlari sohillarigacha, Turkiston va Sayramdan Xurosonning sharqiy qismigacha boʻlgan yerlarni qamrab oldi. Bu davrda sugʻorish inshootlari, karvonsaroylar, madrasalar, koʻpriklar qurildi. Hunarmandchilik, savdo-sotiq, ilm-fan, madaniy va elchilik aloqalari rivojlandi. Pul zarb qilish yoʻlga qoʻyildi. Biroq Abdullaxon vafotidan keyin mamlakatda taxt uchun kurash yana avj oldi.

1598-yilda Abdullaxon vafotidan soʻng taxtga oʻgʻli Abdulmoʻmin oʻtirdi. Ammo olti oy oʻtgach, u dushmanlari tomonidan oʻldirildi. Abdulmoʻmindan soʻng taxtga Abdullaxonning qarindoshi Jonibekning oʻgʻli shahzoda Pirmuhammad oʻtirdi. Uning ham hukmronligi uzoqqa bormay, 1607-yili taxtdan agʻdarildi. Shunday qilib, qariyb 100 yil hukm surgan Shayboniy sulolasi barham topdi.

2-§. Ashtarxoniylar davlati

XVI asr oxiri–XVII asr boshlarida Movarounnahr hududida Shayboniy oʻrniga yangi oʻzbek sulolasi–Ashtarxoniylar hokimiyat tepasiga keladi¹.

Oltin Oʻrda (Joʻchi ulusi) zaiflashib, bir qancha mayda xonliklarga boʻlinib ketadi. Natijada XV asrning 30-yillarida Volga boʻyidagi yerlarda «Astarxon» xonligi yuzaga keldi. «Astarxon» Ashtarxonning ruslashganidir. «Ashtarxon» esa asli «Xoji Tarxon» soʻzidan kelib chiqqan. Tarxon turkiy xalqlar hayotida mavjud siyosiy unvonlardan boʻlib, mashhur Xazar xoqonligi (VII-X asrlar) davridanoq maʼlum². 1556-yilda Ashtarxon Rossiya tomonidan bosib olingandan soʻng, Ashtarxon Yormuhammadxon farzandlari bilan Shayboniy huzuridan panoh topgan. Shu tariqa Ashtarxoniylar Movarounnahrda kelib qolgan. 1599-yilda shayboniy Abdulmoʻmin vafot etganidan soʻng, shayboniy orasida taxt vorisi qolmaydi. Shayboniy davlatining nufuzli amirlari kelishib, Ashtarxoniylardan boʻlmish Jonibek sultonni xon taxtiga taklif qiladilar. U rozi boʻlmagach, Jonibekning katta oʻgʻli Dinmuhammad taklif qilinadi. Ammo u Obivordan Buxoroga qaytib kelayotganda halok boʻladi. Buning

¹ Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Т., 1994. – Б. 193–195.

² Ўзбекистон тарихи: Дарслик. – Т., 2011. – Б. 247–248.

natijasida oliy taxtga uning ukasi Boqimuhammad o'tiradi. Jonibekning uchinchi o'g'li Valimuhammad Balxga noib qilib jo'natiladi. Shunday qilib, o'lkada Ashtarxoniylar, ya'ni ashtarxonliklar (boshqa nomi joniylar) sulolasining bir yarim asrlik faoliyati boshlanadi.

Ashtarxoniylar ham mamlakatda davom etgan o'zaro feodal urushlar va boshlangan inqirozga chek qo'ya olmadilar. Bu esa Movarounnahrda markaziy hokimiyat mavqyeining tushib ketishiga olib keldi, mamlakat aholisi va iqtisodining ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

1599-yilda ashtarxoniy Boqimuhammad taxtga o'tiradi. Shu davrda Ashtarxoniylar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – markaziy hokimiyatni mustahkamlash, mamlakatning siyosiy yaxlitligini ta'minlash edi. Marv, Xorazm, Balx yerlarida siyosiy parokandalik kuchaygan edi. Boqimuhammadxon o'z hukmronlik yillari Xorazm, Balx, Shibirg'on, Maymana, Bag'lon, Badaxshon, Hisor yerlariga yurishlar uyushtiradi¹. Shu orada 1605-yil Boqimuhammadxon vafot etadi. 1605-1611-yillarda ashtarxoniydan Valimuhammad hukmronlik qildi. 1606-yili Valimuhammad Balxga yurish uyushtiradi. Keyinchalik xon Eron safaviylari bilan yaxshi diplomatik munosabatlar o'rnatadi. Valimuhammadning no'noq siyosati natijasida, Xurosonda Eron safaviylarining mavqyei oshib boradi. Bu esa yirik o'zbek amirlarining norozligiga sabab bo'ladi. Natijada amirlar bilan xon o'rtasida ixtilof kuchayib, Samarqand hokimi Imomqulixon 1608-yili Buxoro taxtiga o'tqaziladi. Valimuhammadxon 1611-yili Samarqand atrofida Imomqulixon bilan navbatdagi to'qnashuvda halok bo'ladi.

Imomqulixon (1611-1642) davlatni o'ttiz yildan ko'proq boshqargan. Shuning o'ziyoq Imomqulixon Ashtarxoniylar orasida eng nufuzli hukmdorlardan biri bo'lganidan dalolat beradi. Imomqulixon Movarounnahr chegaralariga xavf solib turgan ko'chmanchi qalmaq va qozoq xonlariga qarshi tinimsiz kurash olib bordi. 1613-yili Imomqulixon qozoqlarni tor-mor qildi va Toshkentni egallab, u yerda o'z o'g'li Iskandarni noib qilib qoldirdi. Lekin Imomqulixon ketishi bilan shahar aholisi qo'zg'olon ko'tarib, Iskandarni o'ldirdi. Buning natijasida Imomqulixon qo'zg'olonni bostirishga majbur bo'ladi va shahar aholisi qirg'in qilinadi. Tinimsiz olib borilgan urushlar xon hokimiyatining bir qadar mustahkamlanishiga olib keldi. Lekin bu muvaffaqiyatlarga qaramay, feodal yer egaligining rivojlanishi va o'zbek qabilalari zodagonlarining qo'lida yirik mulklarning to'planishi ba'zi yirik qabilalarning siyosiy nufuzini oshirib yubordi. Shuning uchun ham o'z hukmronligi yillarida Imomqulixon bir qancha yirik qabila feodal-zodagonlariga qarshi kurash

olib borishga majbur bo'lgan. Hukmronligining so'nggi yillarida ko'zi ojizlashgan Imomqulixon taxtni ukasi Nodir Muhammadxonga topshirgan.

Nodir Muhammadxon (1642-1645) davrida mamlakatda ichki nizolar va o'zaro kurash yanada avjiga chiqqan. Chekka viloyatlar Toshkent, Xo'jand, Turkiston va boshqalar markaziy hokimiyatga bo'ysunmay qo'yan. Hukmronligining dastlabki yillarida Nodir Muhammadxon mulk taqsimoti o'tkazib, o'zining farzandlariga mamlakatning asosiy viloyatlarini mulk sifatida bo'lib bergan¹. Nodir Muhammadxon tomonidan amalga oshirilgan mulk taqsimoti markaziy hokimiyat mavqyeini juda ham zaiflashtirib yuborgan. Chekka o'lkalar Buxoro bilan deyarli hisoblashmay qo'yan. Nodir Muhammadxon mamlakat ichkarisida yirik amirlarning qarshiligiga duch kelgan. Bu esa 1645-yilda Nodir Muhammadxonning o'g'li Abdulaziz sultonning yangi xon deb e'lon qilinishiga olib kelgan. Vaholanki, bu vaqtda Buxoroda Nodir Muhammadxon hukmronlik qilardi. Bu hol mamlakatda markaziy hokimiyat va Ashtarxoniylarning mavqyei ancha tushib ketganligidan dalolat beradi. Bu esa o'z navbatida, davlat asoslarini zaiflashtirib yuborgan.

Abdulazizxon o'z hukmronligi yillarida (1645-1680-yillar) Balxni Buxoroga bo'ysundirishga bir necha bor urinib ko'rgan. 1651 yilda Balx taxtiga Abdulazizxonning ukasi Subhonqulixon sulton o'tiradi. Kuchli oliy hokimiyatning yo'qligi va davlatdagi parokandalikdan foydalangan Xiva xonlari mamlakat ichkarisiga tez-tez bostirib kira boshlaydilar. Xiva xoni Abdulg'ozixon (1645-1663 yy.) 1655-yilda Movarounnahrda ikki marta bostirib kiradi. Xiva lashkarlarining mamlakat ichkarisiga hujumlari keyingi yillarda ham davom etib turdi. Xiva bilan uzoq davom etgan urushlar mamlakatdagi ahvolni og'irlashtiradi va ichki ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo'ladi.

1680-yilda Abdulazizxon taxtni ukasi va valiahd Subhonquli sultonga topshiradi. Subhonqulixon (1680-1702-yillar) Buxoro xonligini uzoq yillar boshqargan². Subhonqulixon hukmronligi yillarida ham Balx viloyati uchun kurash davom etgan. Amalda Balx hokimlari Buxoro hokimiyatini rasman bo'lsa ham tan olmaganlar. Yirik qabila zodagonlarining nufuzi oshib borib, 1688-1697-yillar davomida Balxda yirik amir Mahmudbiy hukmronlik qilgan.

Bu davrda Buxoro xonligining Xiva bilan munosabatlari ham mushkul edi. Subhonqulixon hukmronligi davrida Xiva lashkarlari bir necha bor mamlakat ichkarisiga bostirib kirganlar. Masalan, Xiva xoni Anushaxon

¹ Ўзбекистон тарихи. – Андижон., 2011. – Б.197–198.

¹ Ўзбекистон тарихи: Дарслик. – Т., 2011. – Б. 249–251.

² Ўзбекистон тарихи. – Андижон, 2011. – Б. 188–192.

(1664-1687-yillar) mamlakatga bir necha marta yurish uyushtirib, 1684 yili hatto Samarqandni bir yil davomida ushlab turishga muvaffaq bo'lgan¹. 1697 yilda Xiva xoni Ereng yana Movarounnahr ichkarisiga yurish qiladi. Shundan keyin Subhonqulixon uni bartaraf qilish bilan birga Xivaga o'z noibini tayinlaydi. Shu tariqa Xivada yana Buxoro hukmronligi o'rnatiladi. Xivaga qarshi kurashda ko'rsatgan xizmatlari uchun qatag'on qabilasidan bo'lgan otaliq Mahmudbiy Balx noibi qilib tayinlanadi. Lekin Mahmudbiy Buxoroga butunlay bo'ysunmay qo'yadi. Bu esa boshqa beklar, qabilalar, feodal guruhlarning noroziligiga sabab bo'ladi. Natijada o'zaro feodal urushlar va qabilaviy nizolar yanada kuchayib ketadi.

Mamlakatdagi ichki ziddiyatlar keyingi hukmdor Ubaydullaxon (1702-1711-yillar) davrida avj oladi. Bu davrga kelib, eng asosiy viloyatlarda Ashtarxoniylar emas, balki o'zbek zodagonlariga mansub ayrim amirlar hukmronlik qilari edi. Masalan, Samarqand, Shahrisabz, Qarshi, O'ratepa, Hisor, Balx va boshqalar². Ubaydullaxon hukmronligi yillarida markaziy hokimiyatni kuchaytirish uchun harakat qildi. U amalda mustaqil bo'lgan zodagonlar va qabilalarga qarshi tinimsiz urushlar olib bordi. Bu urushlar natijasida xo'jalik inqirozi yanada kuchaydi. Ubaydullaxon amalga oshirgan pul islohoti ham natija bermadi. 1711-yilda Ubaydullaxonning o'zi ham fitna qurboni bo'ldi. Ashtarxoniylardan bo'lgan so'nggi hukmdorlar davriga kelib (Abulfayzxon, Abdulmo'min, Ubaydullaxon), «Buxoro xonligi markaziy hokimiyati amalda mustaqil bo'lgan mulklar yig'indisidan iborat bo'lib qolgan edi»³. Hokimiyat amalda Abulfayzxon hukmronligi davrida avval Jovshan qalmaq, u o'ldirilgandan keyin esa oliy qushbegi Abdullabey xoja, keyin esa Muhammad Hakimbiy otaliq qo'lida mujassamlashgan edi. Davlatdagi bunday holat ko'pchilik amirlar va qabila zodagonlarining noroziligiga sabab bo'lgan. Abulfayzxon-ga qarshi fitna uyushtirilgan, lekin fitna fosh bo'lib, tashkilotchilari qattiq jazolangan. Bundan tashqari, 1722-yilda Rajab sultonning Samarqandda xon deb e'lon qilinishi ahvolni yanada mushkallashtirdi. Bu davrda mamlakat ichkarisiga, ayniqsa, Zarafshon vodiysiga ko'chmanchi yarim ko'chmanchi qabilalarning (qozoqlar) ko'chib kelishi kuchaydi. Natijada ekin maydonlari hamda tomorqalar payhon qilinib, xo'jalikka katta zarar yetdi. Bu davrda Balx, Badaxshon ham Buxorodan mustaqil mulklarga aylandi.

¹ Ўша манба. – Б. 191.

² Ўзбекистон тарихи: Дарслик. – Т., 2011. – Б. 252–253.

³ Ўша манба. – Б. 252-253.

3-§. Markaziy Osiyoda xonliklarning vujudga kelishi

Buxoro amirligi. Buxoro xonligidagi og'ir siyosiy va iqtisodiy vaziyatdan Eron shohi Nodirshoh (1736-1747-yillar) ustalik bilan foydalandi. 1740-yilda Nodirshoh Buxoro xonligiga qarshi yurish boshlab, Ashtarxoniylarga zarba beradi. Mamlakatda Abulfayzxon nomigagina xon bo'lib, amalda esa butun hokimiyat otaliq Muhammad Hakimbiy, 1743-yilda uning vafotidan keyin Muhammad Rahim qo'lida mujassamlashadi. Eng yaxshi lavozimlarga otaliqning qarindoshlari tayinlanadi. Amalda Buxoro xonligi Eronga qaram davlatga aylanib qoldi. 1747-yilda Nodirshoh fitna natijasida o'ldirildi. Natijada Buxoro xonligida butun hokimiyat Muhammad Rahim qo'lida mujassamlashdi. Muhammad Rahim hokimiyat tepasiga kelgach, 1753-yilda Buxoroda mang'itlar sulolasiga asos soldi. Muhammad Rahim Chingizxon avlodiga mansub emas edi, shuning uchun u amir unvonini oldi, bu davrdagi davlat *Buxoro amirligi* deb atala boshlandi. Shu tariqa 1599-yildan 1753-yilgacha davom etgan Ashtarxoniylar hukmronligi barham topdi.

Muhammad Rahim hukmronligi davrida (1753-1758) Buxoro amirligiga qarashli yerlar ancha qisqargan edi. Uning tarkibiga Buxoro, Samarqand, Miyonkol, Karmana, Qarshi, Fuzor, Karki, Chorjo'y, Shahrisabz viloyatlari kirib, Toshkent va Farg'ona viloyatlari xonlik tasarrufidan chiqib ketgan edi. Doniyolbiy otaliq hukmronligi davrida (1758-1785) ham o'zaro urushlar davom etdi. Karmana, O'ratepa, Nurota, Sherobod, Boysun va boshqa joylarda mahalliy kuchlar bosh ko'tarib, markazga bo'ysunmay qo'yidilar. Amir Shohmurod hukmronligi davrida (1785-1800) Doniyolbiy joriy etgan soliqlardan bir qanchasi bekor qilindi, iqtisodiy hayot birmuncha yaxshilandi. Ruhoniylarning mavqeyi oshib bordi. Bu davrda Buxoro amirlari markaziy hokimiyatni mustahkamlashga qanchalik urinmasin, viloyat hokimlarining mustaqillikka intilishi davom etaverdi.

Amir Haydar davrida (1800-1826) ham ichki va tashqi urushlar davom etib turdi. Ayniqsa, O'ratepa bir necha marta qo'ldan-qo'lga o'tib turdi. XIX asrning birinchi choragida Buxoro bilan Xiva va Qo'qon xonliklari o'rtasida Markaziy Osiyoda ustunlikka erishish uchun o'zaro urushlar bo'ldi. Toshkent, Turkiston, Chimkent va ularning atrofi Qo'qon xonligi tarkibiga qo'shildi. 1825-yilda Xiva xoni Olloqulixon (1825-1864) Buxoroga qarashli Marvni egalladi. Tinimsiz urushlar, soliqlar miqdorining ortib borishi qo'zg'olonlarga, jumladan 1821-1825-yillarda Buxoro va Samarqand oralig'ida istiqomat qiluvchi xitoy-qipchoq qabilalari qo'zg'oloniga sabab bo'ldi¹.

¹ Ўша манба. – Б. 253-255.

1826-yilda Amir Haydar vafot etgach, birin-ketin uning ikki o'g'li Husayn va Umar o'ldirildi. Taxtga uning uchinchi o'g'li, shafqatsizligi uchun «qassob amir» laqabini olgan Nasrullaxon o'tirdi. U hokimiyatni mustahkamlash uchun o'ta shafqatsizlik bilan kurash olib bordi. U taxtga da'vogar bo'lishi mumkin bo'lgan barcha qarindoshlarini ham ayamay o'ldirtirib yubordi. O'zini Buxoro amirligidan mustaqil deb e'lon qilgan Shahrisabz bekligiga 20 yil davomida 32 bor yurish qildi. Janubda Marv uchun Xiva xonlari bilan uzoq urush olib bordi. Amir Nasrullo 1839, 1841 va 1858-yillarda Qo'qon xonligiga uch marta yurish qiladi. Aholi qirg'in qilinish, boylıklar talanadi. Hatto mashhur o'zbek shoirasi Nodirabegim (Mohlaroyim) ham amir buyrug'i bilan o'ldiriladi.

Amir Nasrullo davrida Buxoro Rossiya bilan Angliya o'rtasida Markaziy Osiyoda boshlangan raqobatchilik kurashi maydoniga aylanib qoldi.

Xiva xonligi. XVI-XVIII asrlardagi Markaziy Osiyo siyosiy xaritasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu davrda Buxoro davlatidan mustaqil ravishda *Xiva xonligi* mavjud edi¹. Xiva xonligi Muhammad Shayboniyxonning XVI asr boshlarida Xorazmga yurishi natijasida tashkil topgan edi. 1511-yilda Shayboniy xonadoniga mansub bo'lmagan Dashti Qipchoq ko'chmanchilari tub aholining yordami bilan eronliklarga zarba berib, Xorazm mustaqilligini tikladilar. Elbars Xiva xoni deb e'lon qilindi. Elbarsxon boshqargan Xorazm XVI asrning 20 – 30-yillarida o'z yerlarini Turkmanistonning janubi, Eronning shimoliy Saraxs tumani, Orol bo'yari va Mang'ishloqqacha kengaytirdi.

Buxoro hukmdorlaridan Xivani bo'ysundirish uchun 1536-yilda Ubaydullaxon, 1575-yilda Abdullaxon harakat qildi, lekin bo'ysundira olmadi. Abdullaxon vafotidan (1598) so'ng Xiva xonligi uzil-kesil mustaqil bo'ldi.

XVI-XVIII asrlarda Xiva xonligida feodal tarqoqlik hukm surdi. Har bir shahzoda o'z mulkida mustaqil boshqaruvga ega edi. Arab Muhammad (1602-1623), Asfandiyor (1623-1643) davrida bunday holat yanada kuchaydi. Xonlik hududiga qozoqlar, Ural kazaklari, qalmiqlar va Buxoro lashkarlari bir necha bor bostirib kirdilar. Abulg'oz Bahodirxon (1643-1663) va uning o'g'li Anusha davrida (1663-1687) ham xonlikda vaziyat og'irligicha qolaverdi. Ayniqsa, Shohniyoz (1688-1702) va undan keyin hukmronlik qilgan Arab Muhammadxon II (1702-1714) davrida sultonlar o'rtasida taxt uchun kurash to'xtamadi. 1715 yilda Xiva xonligi taxtiga Sherg'ozini o'tirdi. Feodal mojarolar natijasida davlatning ichki ahvoli

yomonlashib bordi. Bu davrda qo'shni davlatlarning Xiva xonligi ichki ishlariga aralashuvi kuchaydi. Pyotr I Xiva xonligini bosib olish maqsadida 1715-1717-yillarda Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida katta ekspeditsiya yubordi. Lekin Xiva lashkarlari ustalik bilan harakat qilib, rus qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi. Shundan keyin ham qo'shni davlatlarning Xiva xonligi ichki ishlariga aralashuvi davom etaverdi. 1728-yili Sherg'ozixon o'ldiriladi va Xivaning nufuzli ayonlari taklifiga binoan yuqorida ta'kidlanganidek, taxtga qozoq sultonlaridan biri Elbars (1728-1740) o'tiradi.

Elbarsxon II davrida Xuroson, Afg'oniston va Hindistonga harbiy yurishlar qilindi. Shu davrda Eron hukmdori Nodirshoh Xivaga qarshi urush boshladi. Elbarsxon II o'ldirilib, Xiva xonligi Eronga bo'ysundirildi. Bir yildan so'ng, 1741-yilda Xivada Eronga qarshi qo'zg'olon ko'tarilib, xonlikning mustaqilligi tiklandi. 1747-yilda qozoq sultonlaridan biri Qoyim (Kaip, 1747-1757) xon deb e'lon qilindi.

1763-yilga kelib, Xiva xonligida yangi sulola – qo'ng'iroq qabilasi vakillarining hukmronligi boshlandi. Muhammad Amin inoq (1763-1790) 1770-yilda turkmanlarning, 1782-yilda buxoroliklarning hujumlarini daf etdi. 1804-yilda Xivada qo'ng'iroqlar sulolasi amalda emas, rasmiy ravishda hukmron bo'lib oldi. Eltuzarxon (1804-1806) va uning ukasi Muhammad Rahimxon I (1806-1825) hukmronligi davrida Xiva xonligining nufuzi oshdi, uning birlashish jarayoni tugallandi. 1811 yilda Orol bo'yari, ko'p o'tmay qoraqalpoqlar, 1822-yilda Marv va uning atrofidagi turkmanlar bo'ysundirildi.

Muhammad Rahimxon I davlatni boshqarish uchun devon (vazirlik) tashkil qildi, soliq tizimini isloh qilib, bojxona va zarbxona tashkil etdi, oltin va kumush tangalar chiqardi. Uning o'g'li Olloqulixon (1825-1842) davrida xonlik yerlari Sirdaryoning Orolga quyilishi joyidan Turkmanistonning Kushkagacha bo'lgan hududlarigacha kengaydi. Natijada Eron bilan munosabatlar yomonlashdi. Undan keyingi xonlar, ayniqsa, Muhammad Aminxon (1845-1855) va Sayyid Muhammadxon (1855-1864)lar turkmanlarga qarshi va Xurosonni egallash maqsadida bir necha marta yurishlar qildilar. Xiva taxtida eng ko'p o'tirgan hukmdorlardan biri Muhammad Rahimxon II (1864-1910) bo'lib, uning davrida Xiva xonligi Rossiya imperiyasiga qaram bo'lib qoldi.

Qo'qon xonligi. XVIII asr boshlarida Buxoro xonligida ro'y bergan siyosiy va iqtisodiy tushkunlik natijasida markaziy hokimiyat zaiflashib bordi. Xonlik tasarrufiga kiritilgan yerlarda, ayniqsa, Farg'onada mustaqillikka intilish kuchayib ketdi. Natijada Farg'ona alohida o'lka

¹ Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Т., 1994. – Б. 332–334.

bo'lib, xonlikdan ajralib chiqdi¹. Xon avlodlari o'rtasidagi kurash natijasida hokimiyat o'zbeklarning Ming urug'idan chiqqan Erdanabiy qo'lga o'tadi. Ko'p o'tmay, Shohruhbiy hokimiyatni qo'lga olib, 1710-yilda Qo'qon xonligiga asos soldi. Qisqa vaqt ichida Farg'onadan tashqari, xonlik hududiga Sirdaryo havzasi, Yettisuvning bir qismi qo'shib olindi.

Abdurahimbiy (1721-1733) 1732-yilda davlat poytaxtini Tepaqo'rg'on qal'asidan hozirgi Qo'qon shahri o'rniga ko'chirdi. Abdurahimbiy davrida xonlik yerlari kengayib, Farg'onada kuchli davlat vujudga keldi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Erdonabiy (1751-1762) va Norbo'tabiy (1763-1798) hukmronligi davrida Farg'onani birlashtirish yakunlandi. Bir necha marta Qo'qon hukmdori Norbo'tabiy Toshkentga qarashli yerlarni bo'ysundirishga harakat qildi. Norbo'tabiyning o'g'li va vorisi Olimxon (1798-1809) davrida xonlik yerlari kengayib, xonlikning siyosiy va iqtisodiy mavqeyi o'sdi. Xonlikda harbiy islohot o'tkazildi. Ohangaron, Toshkent, Chimkent va Turkiston viloyatlari xonlikka qo'shib olindi.

1805-yildan Farg'ona davlati rasman *Qo'qon xonligi* deb e'lon qilindi² va Olimbek o'ziga xon unvonini oldi. 1809-yilda xonlik taxtiga Umarxon (1809-1822) o'tirdi. Umarxon hukmronligi davrida bo'ysunmay qo'ygan Turkiston, Chimkent, Sayram va Avliyoota egallandi. Jizzax, O'ratepa va boshqa joylar uchun Qo'qon xonlari Buxoro amirligi bilan beto'xtov urushlar olib bordi. Muhammad Alixon (1822-1842) Sharqiy Turkiston bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalarni kuchaytirishga harakat qildi. Xonlik chegaralarini kengaytirib Qorategin, Ko'lob, Hisor, Badaxshon, Darvoz va Matcho viloyatlarini bosib oldi. Chegaralarni mustahkamlash maqsadida Pishpak, To'qmoq, Kushka, Avliyoota va boshqa harbiy istehkomlar qurildi.

Muhammad Alixon boshqaruvining so'nggi yillarida Qo'qonda xon hokimiyatiga qarshi Nasrulloxon 1839 va 1841-1842-yillarda Qo'qon xonligiga bostirib kirib, Toshkent, Xo'jand, O'ratepa va boshqa joylarni egallab oldi. 1842-yilda Qo'qonga hujum qilib Muhammad Alixon, Mohlaroyim (Nodirabegim) va xon oilasidagi barcha odamlarni qatl ettirdi. Qo'qonga Buxoro tarafidan noib tayinlandi, lekin ko'p o'tmay qo'qonliklar qo'zg'olon ko'tarib, buxoroliklar hukmronligini ag'darib tashladi. 1842-yilda Olimxonning jiyani Sherahli xon qilib ko'tarildi. Bu vaqtga kelib, ko'ldan chiqib ketgan Toshkent yerlari, Qurama, Xo'jand va boshqa viloyatlar qaytadan xonlik tasarrufiga kiritildi. Bu davrda Farg'onada

¹ Ўзбекистон тарихи: Дарслик. – Т., 2011. – Б. 259–261.

² Ўша манба. – Б.260–261.

qipchoqlar qo'zg'olon ko'tarib, Qo'qonni egalladilar va Musulmonqul bosh qo'mondon qilib tayinlandi. Sherahli xonning siyosatidan norozi o'zbek beklari uni o'ldirdilar, xon taxtiga Olimxonning o'g'li Murodxon qo'yildi. Sherahli xondan keyin xonlikda taxt uchun kurash avjiga mindi. Yosh hukmdor Murodxon ham o'ldirilib, uning o'rniga taxtga Musulmonqul qipchoq tomonidan Sherahli xonning o'g'li Xudoyorxon o'tqazildi.

Xudoyorxon uch marotaba taxtga o'tirdi¹. Birinchi marta (1845-1858) nomigagina xon bo'lib, hokimiyatni qaynotasi Musulmonqul boshqardi. Xudoyorxon ikkinchi marta 1862-1863-yillarda, uchinchi marta 1865-1875-yillarda xonlik qildi. Xudoyorxon hukmronligi davrida tinimsiz ichki nizolar, Buxoro amirligi bilan olib borilgan urushlar, xalq g'alayonlari Qo'qon xonligini inqirozga olib keldi.

Shunday qilib, Rossiya istilosi arafasida Markaziy Osiyoning uchta o'zbek xonligi o'rtasidagi feodal urushlar, etnik nizolar, taxt talashishlar, Rossiya imperiyasi tomonidan bu uchala mustaqil o'zbek davlatlarini bosib olib, mustamlakaga aylantirishga qulay imkoniyat yaratdi.

4-§. Turkistonning xonliklarga bo'linib ketishining oqibatlari

XVI-XVIII asrlarda Movarounnahrda yagona markazlashgan davlat o'rnida uchta o'zbek xonliklari tashkil topdi. Bu xonliklar o'zaro urushlar, feodal bo'linishlarga barham bera olmadi. Hanuz ko'plab mayda feodal o'lkalar mavjud bo'lib, Xiva xonligining shimoliy qismi, Orol bo'yi, Shahrisabz, Jizzax, O'ratepa oralig'i va boshqa hududlarda mustaqil o'zbek, qozoq, qoraqalpoq qabilalari ko'chib yurardi. Bu davlatlarda yashovchi 92 ta o'zbek qabilalarining har biri o'z yaylov va dalalari, qabila boshlig'i qarorgohi joylashgan manzilgohlari bo'lgan muayyan hududlarga ega edi. Qabilalarning ishlab chiqarish usuli ko'chmanchi va yarim ko'chmanchilikka asoslangan bo'lib, urug'-qabila tuzumiga xos xususiyatlar saqlanib qolgan edi. Bu xususiyatlar an'anaviy madaniy-maishiy turmush tarzi, o'zini etnik anglash, urf-odatlar va an'analar, xalqning tili, dini, milliy qadriyatlarini umumiylikiga qaramay, ularni yagona millat bo'lib birlashishiga xalaqit berar edi. Har bir hukmdor, xon yoki amir faqat o'zini o'ylab, xalq, davlat, millat, vatan taqdiriga qayg'urmadi.

XVI-XIX asrlarda o'zbek xonliklari ilg'or Yevropa mamlakatlaridan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va ma'naviy-madaniy sohalarida ancha orqada qolib ketdi. Bunday ahvol yuz berishiga bir qancha tashqi va ichki omillar sabab bo'ldi².

¹ Ўзбекистон тарихи. – Андижон, 2011. – Б.207–208.

² Hasanov B.V. va boshq. O'zbekiston tarixi: Ma'ruzalar kursi – Т., 2005. – Б.284.

XV asrning oxiri – XVI asrlardagi buyuk geografik kashfiyotlar natijasida XVII-XVIII asrlarga kelib dunyo savdo yo‘llari yo‘nalishining o‘zgarishi Markaziy Osiyoda xalqaro savdo aloqalarining asta-sekin so‘nishiga sabab bo‘ldi. Bu Markaziy Osiyodagi iqtisodiy va siyosiy hayotidagi turg‘unlikning eng asosiy sabablaridan biri bo‘ldi.

Aksariyat Yevropa mamlakatlarida inqiloblar bo‘lib o‘tdi va davlatni demokratik uslublarda qonun asosida boshqarish amalda joriy qilina boshlandi. XX asrning 20-yillarigacha Markaziy Osiyo xonliklarida davlatni idora qilish patriarxal-ko‘chmanchi urf-odatlariga asoslangan xolda edi. Bu hol Markaziy Osiyo xonliklarda faqat hukmdorning xohish-irodasi bilan bog‘liq mutlaq hokimiyat(cheklanmagan monarxiya) boshqaruv usulining saqlanib qolishiga olib keldi.

XVII-XVIII asrlarga kelib, Farbiy Yevropa mamlakatlarida yangi burjuaziya sinfi va yangi kapitalistik iqtisodiy munosabatlar shakllana boshladi. Farbiy Yevropaning bir qator davlatlari (Angliya, Gollandiya, Fransiya va boshqalar) mustamlakalarni shafqatsiz talash va boyliklarni tashib ketish hisobiga dastlabki kapital jamg‘arishga muvaffaq bo‘ldilar. Bu esa ularga birinchi jamg‘arma hisobiga iqtisodni rivojlantirishga, ilm-fan va texnika taraqqiyoti uchun poydevor bo‘ldi.

Aksariyat Yevropa mamlakatlarida sanoat inqiloblari natijasida yirik yangi texnologiyalarga asoslangan korxonalar faoliyat ko‘rsata boshladi, temir yo‘llar, yangi aloqa vositalari, kommunikatsiyalari vujudga keldi, zamonaviy qurol-yarog‘lar, mashinalar, texnika uskunalar yaratildi. Ayni shu paytda xonliklarda patriarxal ishlab chiqarish bo‘lib, sarmoyadorlik haqida so‘z ham bo‘lishi mumkin emas edi. Savdo-sotiq, tovar-pul munosabatlari shakllanmadi. Shu bilan birga yarim patriarxal, yarim natural xo‘jalik yuritish, ya‘ni yarim patriarxal munosabatlar taraqqiyotni susaytirib qo‘ydi.

Ma‘lumki, yerga bo‘lgan mulkchilik shakllari ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantiruvchi asosiy omil bo‘lib hisoblanadi. Yevropa mamlakatlarida yerga egalik qilishning xususiy mulk shakli qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti va dastlabki kapital jamg‘arishning kuchli bir vositalaridan bo‘ldi. Markaziy Osiyo davlatlari esa yerga nisbatan xususiy mulkchilik cheklangan holda rivojlandi. Biz o‘rganayotgan davrda yerga bo‘lgan mulkchilikning turli shakllari vujudga kelgan bo‘lsa-da (xon va amirlarning davlat mulki, yirik feodallar mulki, vaqf mulki, mayda xususiy mulk, jamoa mulki), yerning haqiqiy egasi oliy hukmdorligicha qolaverdi. Xonliklarda yer dehqonlarga ijara tarzida xatlab biriktirilgan edi. Shu bois dehqon yer egasi emas, yerdan olinadigan hosilning egasi edi. Hukmdor yerdan foydalanish uchun uni xohlagan kishiga, amaldor yoki masjidlarga ulashishi mumkin edi.

Asrlar davomida saqlanib kelgan ishlab chiqarish usuli XVI-XVIII asrlarga kelib sifat jihatidan o‘zgarmadi. Savdo va hunarmandchilikdagi inqiroz ishlab chiqarish va iste‘mol hajmining kamayishiga olib keldi.

Ko‘pchilik Yevropa mamlakatlarida din davlatdan ajratilgan bo‘lib, unga faqat shaxsiy e‘tiqod omili sifatida qaralar va siyosatga aralashmas edi. Xonliklarda esa islom davlat dini darajasiga ko‘tarilgan va davlat siyosatiga, madaniyat va ma‘naviyatiga kuchli ta‘sir ko‘rsatar edi. Bizga ma‘lumki, VIII asrdan boshlab, Markaziy Osiyoda islom dini hukmron mafkuraga aylanib, ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-madaniy, shuningdek, iqtisodiy hayotga ham chuqur singib ketgan edi. XVII-XVIII asrlardagi ma‘naviy hayotga diniy mutaassiblik zararli ta‘sir ko‘rsatdi, ijtimoiy-madaniy tafakkurdagi tub yangiliklarni, ijtimoiy rivojlanishga qaratilgan g‘oyalarni qabul qilmay qo‘ydi. Buning natijasida o‘zbek xonliklari mahdudlikka berilgan, yangiliklardan yuz o‘giran yopiq jamiyatga aylandi. Mutaassiblik hukmron mafkura sifatida ma‘naviyat madaniyat, fan, adabiyot, san‘atni nazorat ostiga olib, taqiqlovchi kuch vazifasini o‘tadi, bu esa jamiyatni qoloqlikka mahkum qildi.

Yevropada dunyoviy ta‘lim berishga o‘tilgan bo‘lib, ular umumiy taraqqiyotning bosh omili sifatida qaror topdi. Xonliklarda esa ta‘lim tizimi mutaassib ruhoniylar ixtiyorida bo‘lganligi uchun madrasa va maktablar asosan diniy bilim berishga moslashgan edi.

Markaziy Osiyodagi nisbiy turg‘unlikning yana muhim bir sababi – bu xonliklardagi o‘zaro ichki urushlardir. O‘zbek xonliklarida XVII–XVIII asrlarda muttasil davom etib kelgan feodal urushlar, Buxoro – Xiva, Buxoro – Qo‘qon mojarolari, mustaqillikka intilgan viloyat hokimlari va qabila zodagonlariga qarshi olib borilgan harbiy harakatlar, chet el bosqinchilari-ning o‘zbek xonliklari hududlariga tajovuzlari ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotni butunlay izdan chiqardi.

Bu davrda Vatan istiqboli uchun qayg‘uradigan, xalqni bir g‘oya va bir ezgu maqsad yo‘lida birlashtira oladigan hukmdor chiqmadi. Aksincha, Buxoro, Xiva va Qo‘qon hukmdorlari bu davrda o‘zaro qonli urushlar bilan ovora bo‘ldilar.

Markaziy Osiyo xonliklarining Yevropa rivojlangan mamlakatlaridan orqada qolish sabablarini umumiy tarzda Islom Karimov shunday ta‘riflaydi: «Bir xalqning bo‘linib ketishi, uning turli xonliklar o‘rtasida ajralib qolishi hamda vayrongarchilik keltiruvchi urushlar uzoq vaqtgacha, to sovet davrigacha uning feodal tarqoqligini mustahkamlab va saqlab keldi».¹

Oqibatda Turkiston taraqqiyotning yangi bosqichiga o‘tish uchun mustamlakachilik azobi va xo‘rligini boshdan kechirishga majbur bo‘ldi.

¹ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т., 1998. – Б.100.

X bob
**CHOR ROSSIIYASINING TURKISTONDA YURITGAN
MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI**

1-§. Angliya va Rossiyaning Markaziy Osiyo xonliklarini o‘z ta’sir doirasiga tortish bo‘yicha o‘zaro raqobati

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Markaziy Osiyoda joylashgan o‘zbek xonliklarida murakkab siyosiy vaziyat yuzaga kela boshladi. Bu vaziyat, birinchidan, xonliklarning ichki ahvoli va o‘zaro munosabatlari bilan belgilansa, ikkinchidan tashqi dunyo, ya’ni Chor Rossiyasi bilan Buyuk Britaniya imperiyalarining bu xonliklarni o‘z ta’sir doirasiga tortish sari qilgan xatti-harakatlari bilan bog‘liqdir.

O‘zbek xonliklari imperialistik davlatlarni, jumladan Buyuk Britaniya bilan Rossiyaning birinchi navbatda moddiy boyliklari, arzon ish kuchi, sanoat maxsulotlarini sotish uchun qo‘shimcha bozor ekanligi va turli boshqa qulay imkoniyatlari bilan o‘ziga jalb qilardi.

Xususan, Angliyaning o‘zbek xonliklariga munosabatiga kelganda, sobiq sovet davrida bu borada bir fikr aksioma sifatida qabul qilingan edi. Guyo Markaziy Osiyo davlatlari Rossiya tomonidan «qo‘shib olinmasa», bu hudud ashaddiy mustamlakachi davlat – Angliyaga qaram bo‘lib qolishi va xalqlarning yanada ko‘proq ezilishi muqarrar ekan. Bu fikrga qo‘shilish qiyin. Shubhasiz, Angliyaning Markaziy Osiyodagi manfaatlari bor ekanligini inkor etib bo‘lmaydi. Angliya bu hududning ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan o‘ziga tobe bo‘lishini xohlar edi. Angliya o‘z maqsadlarini ro‘yobga chiqarish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishga harakat qildi. Masalan, Rossiyaning Qo‘qon va Xiva xonliklari yerlarini bosib olish rejalaridan xabar topgan Angliya Buxoro, Xiva va Qo‘qonga o‘z emissarlarini yuborib, ularni birlashtirishga, hech bo‘lmasa Rossiyadan birgalikda muhofazalanish uchun harbiy bitim tuzishga da’vat qildi¹. Bunga Buxoro va Xivaga Ost-Indiya kompaniyasi uyushtirgan Meyyendorf, Aleksandr Berns, Konnoli Volf boshchiligidagi emissarlarning kelishi misol bo‘la oladi. Angliyaga o‘z mustamlakalarini Rossiyadan himoya qilishni yengillashtiradigan, ikki o‘rtada mustahkam to‘siq bo‘ladigan kuchli xayrixoh davlat yoki Rossiyaga qarshi siyosiy harbiy asosda birlashgan davlatlar ittifoqi kerak edi.

¹ Bu fikrga bir qancha boshqa olimlar ham qo‘shilgan. Qarang: *Бобобеков Х.А. Мустақиллик ва ифвогарлик // Фан ва турмуш. – 1992. – 11–12-сон. – Б. 3.*

Markaziy Osiyo hududi o‘zining moddiy boyliklari bilan Rossiyaning ko‘p vaqtdan buyon jalb qilib kelardi, lekin o‘zbek xonliklarini bosib olish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiyada amaliy muammo sifatida kun tartibiga qo‘yila boshladi. Chunki shu davrga kelib avvallari iqtisodiy, ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi jihatdan Yevropa mamlakatlaridan ortda qolib kelgan Rossiya sanoati va u bilan bog‘liq bo‘lgan sarmoyadorlik ildam odimlar bilan taraqqiy eta boshladi. Bu jarayon, o‘z navbatida, Chor hukumati oldiga bir qancha muammolarni qo‘ydi.

Rivojlangan mamlakatlar Rossiya tovarlarining Yevropaga kirib kelishidan manfaatdor emas edilar, shu bois bunga turli yo‘llar bilan qarshilik ko‘rsatardilar. Ayni vaqtda Rossiya tovarlari ham sifati pastligi uchun Yevropada raqobatga dosh berolmasdi. Shu sababli Rossiya bozorni boshqa kam taraqqiy etgan mintaqalardan izlashi kerak edi. O‘sha davrda Markaziy Osiyo mamlakatlari shu ehtiyojni qondirishi mumkin edi. Boz ustiga, Buyuk Britaniyaning o‘z mustamlakalari orqali sekin-asta Markaziy Osiyo bozorlarini ham egallay boshlayotganligi Rossiyaning tashvishiga solmay qolmasdi.

XIX asr oxiriga kelib Rossiyaning tez rivojlanib borayotgan sanoati, ayniqsa yengil sanoati, tobora ko‘proq yangi xomashyo zaxiralariga ehtiyoj seza boshladi. Vujudga kelgan vaziyatning keskinlashuviga, jumladan, AQShdagi fuqarolar urushi tufayli u yerdan Rossiyaning to‘qimachilik sanoati uchun xarid qilinadigan paxta miqdorining bir necha barobar kamayishi va xarid narxlarining besh barobarcha oshib ketishi ham sabab bo‘ldi¹. Bu hol Rossiya sarmoyadorlarini tashvishga solib qo‘ydi. Ularning nufuzli vakillari ushbu muammoni hal qilish vazifasini hukumat oldiga qat’iyat bilan qo‘ya boshladilar.

Tahlil qilinayotgan davrda Rossiya oldida yana bir muammo – Rossiya flotining Angliya hukmronlik qilayotgan Qora va O‘rta yer dengizlariga erkin chiqish masalasi ko‘ndalang turardi. Bu mintaqalarda Rossiya o‘zining kuchsiz floti bilan Angliyaga tazyiq o‘tkaza olmasdi. Shu bois Rossiya Angliyaga tazyiq o‘tkazadigan boshqa hududni izlashiga to‘g‘ri kelgan Angliya mustamlakalarining (Xindiston va Afg‘oniston) qo‘shnilari – Markaziy Osiyo xonliklari ana shunday vosita bo‘lib xizmat qilishlari mumkin edi. Rossiya ularning hududlarni egallab, Angliya mustamlakalariga tahdid solishiga va Angliyaning Yevropada biron-bir bo‘lsa-da, yon berishga majbur qilishga erishishi mumkin edi.

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Чор Россияси мустақилчилиги даврида. – Т., 2000. – Б. 229–230.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo xonliklari hukmdorlarining uquvsizligi, uzoqni ko'ra bilmassligi, manmansiraganligi tufayli yetakchi imperia-listik davlatlar dunyoni bo'lib olish siyosatining qurboniga aylandilar.

2-§. Rossiyaning Markaziy Osiyo xonliklarini bosib olishi, uning asosiy bosqichlari

Markaziy Osiyoga ommaviy yurish arafasida Rossiya imperiyasi o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi.

– shu rivojlanib borayotgan sanoat korxonalarini arzon xomashyo bilan ta'minlashga erishish;

– sifati uncha yuqori bo'lmagan sanoat mahsulotlarini sotish uchun qo'shimcha bozor yaratish;

– bosib olinadigan hududlardagi arzon ishchi kuchini ekspluatatsiya qilish hisobiga sarmoya egalariining kapitalini boyitish va ishonchini qozonish;

– Angliyaga bosim o'tkazib, O'rta dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo'lish;

– 1853-1856-yillarda Turkiya bilan bo'lgan urushdan keyin putur yetgan xalqaro mavqeini tiklab olish.

Rossiyaning bosqinchilik yurishlari bir qancha o'quv qo'llanmalarida, tarixiy va ilmiy adabiyotlarda batafsil yoritilganligi bois, bu urushning barcha tafsilotlarini bayon qilishni lozim topmay, uning mohiyati, maqsadi, bosqichlari va yakunlariga e'tiborni qaratish lozim.

Chor Rossiyasi Qo'qon xonligi tasarrufiga kirgan Oq machitni 1853-yilda egallagan bo'lishiga qaramay, urushning asosiy bosqichlari 1964-yilda Avliyoota (hozirgi Jambul) va Chimkentni bosib olishdan boshlandi.

Rossiyaning Markaziy Osiyoni bosib olish asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

1864-yilda – Avliyo ota va Chimkent egallandi;

1865-yilda – Toshkent bosib olindi;

1868-yilda – Buxoro amirligi taslim bo'ldi;

1873-yilda – Xiva xonligi bo'ysundirildi;

1876-yilda – Qo'qon xonligi tugatildi;

1885-yilda – Turkmanistonning bir qancha shaharlari egallandi;

1895-yilga kelib Markaziy Osiyoning hozirgi Afg'oniston va Eron bilan chegaradosh sarhadlari to'la zabt etildi.

Har qanday bosqinchi kabi, mustamlakachi Chor Rossiyasi davlati ham o'zining qirg'inbarot harbiy yurishlarini xaspo'shlash uchun Markaziy Osiyo xalqlarining o'z ixtiyorlari bilan qo'shilganligini, urushda qurbonlar

kam bo'lganligini isbotlash, bosib olingan davlatlarning mustaqilligi saqlab qolganligi, ular xalqlarining mustabid tuzumdan ozod qilingani haqidagi safsatlarni o'ziga qurol qilib olgani va targ'ibot qilganini nazarda tutib, e'tiborni urushning asl mohiyatini ochib berishga qaratish joizdir.

Har qanday urushda bo'lganidek, Rossiya bilan Markaziy Osiyo xonliklarining to'qnashuvida ham o'sha davrda mavjud bo'lgan qo'shinning barcha turlari va qurol-yarog'ning to'la majmuasi ishtirok etgan. Ikkala tomondan ham ko'p qon to'kilgan, ya'ni haqiqiy qirg'inbarot urush bo'lgan.

Fikrimizning tasdig'i uchun ba'zi misollarni keltiramiz. Xivani zabt etishda Rossiya tomonidan 20 ta raketa stanogi, 56 ta to'p bilan qurollangan 9 mingdan ortiq harbiylar qatnashdilar¹. Qarshi tomondan bundan ham ko'proq odam qatnashgan. Samarqandni egallashga qaratilgan yurishda esa Rossiya tomonidan taxminan 2,5 ming harbiy va 10 ta to'p qatnashdi². Bu to'g'rida Majid Hasaniy arxiv materiallariga tayanib, batafsil ma'lumotlar keltirgan. Urushda halok bo'lganlarning, ayniqsa himoyachilarning soni ko'pligi bilan insonni dahshatga soladi. Masalan, Chimkentda 12 ming, Toshkentda 8 ming, Xo'jandda 5 ming, Jizzaxda 3 ming nafar himoyachi halok bo'ladi³. Umuman olganda, deyarli 20 yil davom etgan urushda mahalliy aholining qanchasi qirilib ketganligini faqat taxmin qilish mumkin.

Keltirilgan ma'lumotlar, ko'plab tarixiy adabiyotlarda bayon qilingan o'zbek xonliklarini bosib olish tafsilotlariga asoslanib; Chor Rossiyasining olib borgan urushlarini faqat bir ma'noda, ya'ni imperia-lizm davriga xos bosqinchilik, talonchilik qirg'inbarot urush deb ta'riflash mumkin. Xonlik hududining egallanishi imperia-listik Rossiyaning bu yerdagi boy va arzon xomashyo zaxirasiga egalik qilish, tub joy aholini ekspluatatsiya qilish maqsadini ro'yobga chiqarishga keng yo'l ochib berdi. Markaziy Osiyoning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyoti muayyan ma'noda turg'unlikka uchradi.

O'zbek xonliklarining chor Rossiyasidan yengilishi sabablari va uning oqibatlari. Markaziy Osiyo xonliklari mag'lubiyatga uchrashining asosiy sababi Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarining jahon umumiy taraqqiyotidan chetda qolib ketganligidir. Bu xonliklardagi feodal munosabatlarga asoslangan tuzum, xurofotni qurol qilib olgan ba'zi mutaassib ruhoniylar ta'siridagi davlatlar hokimiyati ishlab chiqarishni zamonaviy usullar asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratmadi. Albatta,

¹ Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. – Т., 1998. – Б.314.

² *Мажид Ҳасаний*. Туркистон босқини. – Т., 1992. – Б.30.

³ Ўзбекистон халқлари тарихи. Т.2. – Т., 1993. – Б.106–108.

bu hol armiyaga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmas edi. Masalan, Buxoro amirligida umumiy safarbarlik e'lon qilingan davrdagi askarlarning soni 100 mingga yetardi. Ammo u ramziy ma'nodagina lashkar edi. Ularning asosiy qismi uchiga temir nayza qadalgan oddiy tayoq yoki ilg'or mamlakatlarda allaqachon foydalanilmay qolgan pilta miltiq bilan qurollangan bo'lib, uni yondirish va otish uchun bir xokandoz cho'g' bo'lishi shart edi. Ahmad Donishning yozishicha, lashkarlarning o'zi harbiy mashqni yaxshi o'zlashtirmagan va urush maydonini ko'rmagan bezori va sayoq kishilardan tashkil topgan edi¹. Aks holda 1866-yil 22-mayda Oqjarda bo'lib o'tgan jangda 10 ming nafarlik Buxoro armiyasining 2 ming nafarlik rus harbiylari bilan birinchi to'qnashuvidayoq qaqshatqich zarbaga uchrab, 5 ming himoyachining halok bo'lganligini nima bilan izohlash mumkin.

Buning teskarisi o'laroq, Rossiyaning muntazam, bir qancha urushlarda chiniqqan, mustahkam tartib-intizomga asoslangan armiyasi zamonaviy qurol-yarog'larga ega edi. Shuning uchun ham u o'zidan miqdor jihatidan ancha ustun bo'lgan himoyachilar ustidan g'alabaga erishdi.

O'zbek xonliklarining Rossiyadan mag'lubiyatga uchrashining sabablaridan yana biri ular orasida birdamlikning yo'qligi va bir-biriga nisbatan xoinligidir. Yuqorida biz Xiva xonining Qo'qon xonligi takliflariga munosabatini bayon qilgan edik. Xuddi shunday munosabatni Rossiya Buxoro amirligiga qarshi hujum boshlaganda Qo'qon xoni Xudoyorxon ham namoyon qildi. U o'zining rahnamosi amir Muzaffarning Rossiyaga qarshi birgalikda harakat qilish haqidagi taklifini qabul qilishga shoshilmadi.

Amir Muzaffar esa Kaufmanga Rossiyaning Xivaga qarshi yurishga munosabatini shunday bayon qiladi: «Men yaxshi tushunamanki, agar Xiva Rossiya bilan to'g'ri munosabatda bo'lmasa, u vaqtda unga qarshi qurol ishlatishga to'g'ri keladi. Bunday hol yuz bersa, men imkoni boricha, bu yordamimni amalda ko'rsatishga tayyorman»².

Xonlik hukmdorlarining bunday kaltabinligi Rossiya Markaziy Osiyo xonliklariga qarshi bevosita urush olib borayotganda ham davom etdi. Bu fikrga quyidagilar dalil bo'la oladi. 1864-1865-yillarda Qo'qon xonligi o'zining Avliyoota, Chimkent, Toshkent va boshqa muhim viloyatlaridan ajralib, 1868-yilda Rossiyaning haqoratomuz shartnomasiga imzo chekishga majbur bo'ldi. Ammo bu kamsitish uning uchun hech qanday saboq

¹ Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. – Т., 1998. – Б.222-223.

² Ўша манба. – Б.126-321.

bo'lmadi. Shoir va tarixchi Is'hoqxon Junaydullaxoji o'g'li Ibratning yozishicha, Xudoyorxon Rusiyadan xotirjam bo'lib, vaqtni o'yin-kulgu bilan o'tkazdi, qush solmoq va ko'pkari chopmoq bilan shug'ullandi, ulamo va fuzalo nasihatlariga amal qilmay, jabru zulm tarqatdi va xalqni o'zidan yuz o'girishga majbur qildi¹.

Ibrat Qo'qon xonligining Rossiyaga bo'ysundirilishini quyidagicha izohlaydi: «Bu ishlarki, ya'ni behuda fasod ishlar sabab o'z ahlimizni beilm va befikrlilikdan bo'ldi»².

Markaziy Osiyo davlatlarining yengilishiga yana bir sabab xonlik va shahar boshqaruvchilarida yakdillik, hamfikrlikning yo'qligi va shu bilan bog'liq bo'lgan bir qancha amaldorlarning xoinligidir. Chor armiyasi tomonidan qay bir shahar egallanmasin, Toshkentmi, Samarqandmi, Xivami yoki boshqami – eng tashvishli davrlarda shaharlarni himoya qilish bilan uni ixtiyoriy topshirish tarafdorlari o'rtasida ixtilof kelib chiqqan.

Istilochilar bosib olishi arafasida Samarqandda vujudga kelgan vaziyatni misol sifatida keltiramiz. Dushmanlarga qarshi kurash tarafdorlari madrasalarda to'planib, xalq o'rtasida tashviqotni yanada kuchaytirdilar. Xalq o'rtasida yaqinlashib kelayotgan yovga qarshilik ko'rsatishga chaqiruvchilar va dushman bilan bitim tuzishni istayotganlar o'rtasida ixtilof kuchayib bordi. Voqyeaning bunday rivojlanib borayotganligidan va bu gaplar istilochilarning qulog'iga yetib borishidan juda qo'rqqan shahar hukmdori Sherali Inoq, qozikalon va boshqa amaldorlar, dindorlardan yovga qarshi kurashni tashviqot qilishni to'xtatishni talab qildi. Buni eshitgan dindorlar qattiq g'azablandilar va Sherali Inoq vakillarini kaltakladilar. Dindorlarning bu ishidan g'azablangan Sherali Inoq, ularning «ko'zini ochib» qo'yish maqsadida dindorlar to'plangan Tillakori madrasasiga qurollangan lashkar jo'natdi. Ikki o'rtada janjal chiqdi, bir qancha odamlar qurbon berildi. Buning oqibati shunday bo'ldiki, fon Kaufman Samarqandga qurol ishlatmasdan kirib keldi³. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Xonliklar mag'lubiyatining sabablarini mafkuraviy sohadan ham izlash kerak. Xalqni dushmanga qarshi safarbar qiluvchi g'oya yaratilmagan. Ko'pchilik ruhoniylar yuksak ma'naviyatli insonlarni tarbiyalash va ularni bosqinchilarga qarshi kurashga birlashtirish vazifasini bajara olmadilar.

¹ Qarang: Абу Тоҳирхожа. Самария. Наршахий. Бухоро тарихи. Баёний. Шажари Хоразмшоҳий. Ибрат. Фарғона тарихи. – Т., 1991. – Б. 310.

² Ўша манба. – Б.313.

³ Qarang: Бердимуродов А. Тажовуз //Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1993. – 28-сон.

Rossiyaning o'zbek xonliklarini bosib olishi mudhish oqibatlariga olib keldi. Qo'qon xonligi umuman tugatilgan bo'lsa, Buxoro va Xiva xonliklari bosqinchi davlatning vassaliga aylandi. Fikrimizni dalillash uchun 1873-yilda Rossiya bilan Xiva xonligi o'rtasida tuzilgan shartnomaning ba'zi jihatlarini eslatib o'tamiz. Shartnomaga ko'ra: xonlik Rossiya imperatorining itoatli xizmatkori ekanligini tan olib, Markaziy Osiyodagi oliy rus ma'muriyatining ruxsatisiz shartnomalar tuzmaslik majburiyatini oldilar; rus savdogarlari barcha bojlardan ozod etilishga rozilik bildirdilar; xonliklar Rossiyadan o'zboshimchalik bilan keluvchilarni qabul qilmaslikni va rus jinoyatchilarini topshirishni o'z zimmasiga oldi¹ va hokazo.

Bundan tashqari, shartnomalarga ko'ra, mag'lubiyatga uchragan Buxoro amirligi 125 ming tilla pul hisobida, Xiva xonligi 2 mln. so'm miqdorida Rossiyaga tovon to'lashga majbur bo'lgan². Bu tovonni to'lash busiz ham og'ir iqtisodiy va ijtimoiy hayot kechirayotgan mehnatkash xalqning boshiga qo'shimcha kulfatlar keltirdi.

Yana katta fojialardan biri shundaki, hududning bosib olinishi natijasida mahalliy aholi Vatan mustaqilligi uchun o'z jonini fido qilgan minglab asl vijdonli farzandlaridan judo bo'ldi. Xoinlar, munofiqarlar, sotqinlar, riyokorlar, laganbardorlar omon qolib, xalqning ulug' tuyg'ularidan bo'lgan vatanparvarlikka putur yetkazdilar.

3-§. Prezident Islom Karimovning mustamlakachilik siyosatiga baho berish metodologiyasi

Deyarli barcha mustamlakachi davlatlar egallagan hududlarining boy imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish maqsadida bir qarashda taraqqiyotga yo'naltirilganidek ko'rinadigan islohotlarni amalga oshiradilar. Jumladan, Rossiya imperiyasi ham Turkistonda ba'zi sanoat korxonalari, temir yo'llar, aloqa kommunikatsiyalarini qurdi, yangi shaharlar barpo qildi, rus-tuzem maktablarini, madaniy muassasalar tashkil qildi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar Turkistonning Rossiya tasarrufida Buxoro amirligi va Xiva xonligi tobe bo'lishi tarafdorlari bo'lgan siyosatdonlar, ularning xizmatidagilar, ba'zi olimlar bir qancha ilmiy jihatdan asoslanmagan «Markaziy Osiyoning qo'shib olinganligi», ba'zi xududlar aholisi o'z xohishlari bilan Rossiyaga qo'shilganligi, «Rossiyaning Markaziy Osiyoda olib borgan siyosati progressiv ahamiyatga egaligi», aynan «Rossiya tufayli Markaziy Osiyo xalqlari insoniyatning yorqin

¹ Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. – Т., 1998. – Б. 330-331.

² Ўша манба. – Б.270-331.

kelajagini belgilaydigan sotsialistik tuzumda yashayotganligi» kabi soxta g'oyalarni ishlab chiqdilar va sovet davrida keng targ'ib qildilar.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng tariximizda yuz bergan jarayonlarga, shaxslarga, buyuk davlatlarning, jumladan Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatiga munosabat o'zgardi. Juda ko'p g'oyalar qayta ko'rib chiqildi, ularga xolisona baho berildi. Bunda Prezident Islom Karimovning asarlarida bayon qilingan mustamlakachilik siyosatiga ilmiy nuqtai nazaridan baho berish metodologiyasining ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ularning ba'zilarini eslatib o'tamiz.

Birinchidan, ba'zi bir mualliflarning fikricha, yirik imperiyalar boshqa mamlakatlar va xalqlarni bosib olgani hamda bo'ysundirgani holda umumjahon taraqqiyotidan orqada qolgan mamlakatlarda muayyan darajada sivilizatorlik choralari ham ado etib kelganlar. Prezident Islom Karimovning ta'kidlashicha, «Bunga qo'shilmaslik mumkin emas. Lekin buyuk imperiyalar bilan kam sonli xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonining salbiy jihatlari ham bo'lgan. Bu salbiy oqibat tashqaridan olib kirilgan sivilizatsiya natijalaridan ko'ra bir necha baravar ortiq edi»¹. Demak, mustamlakachilik siyosatiga baho berganda uning oqibatlarining ijobiy va salbiy tomonlarini taroziga qo'yib qiyoslansa, uning salbiy tomonlari bir necha marta ortiq bo'lishi o'z-o'zidan ma'lum bo'ladi.

Haqiqatan ham, Rossiyaning mustamlakachilik davridagi sivilizatsiyadorlik choralari tufayli tub joy aholisi turmush darajasining yuksalganligi to'g'risida dalillar topish qiyin, aksincha ahvol og'irlashdi, aholi siyosiy va ijtimoiy huquqlardan mahrum bo'ldi va hokazo.

Ikkinchidan, Chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati misolida «Markaziy Osiyoning infrastrukturasidagi o'zgarishlar, yo'l qurilishi va kommunikatsiyalarning rivojlantirilishi, ana shu maqsadlar uchun imperiyaga xizmat qiluvchi milliy kadrlarni tayyorlash – bularning barchasi imperiyaning manfaatlarini qondirganligi, bu holda arzon xomashyo va energiya manbalaridan bahramand bo'lishni kafolatlashi kerak bo'lganligi uchungina amalga oshirilgan»². Boshqacha aytganda, mustamlakachi davlatning amalga oshirayotgan chora-tadbirlari kimning manfaatini ko'zlanayotganiga qarab baholanishi kerak. Shunisi aniq va ravshanki, tadbirlar birinchi navbatda, mustabid davlatning ya'ni Rossiya imperiyasining foydasi uchun o'tkazilgan. Tarixiy adabiyotlarda Turkistondan tashib ketilgan moddiy boyliklar to'g'risida ma'lumotlar yetarli. Boz ustiga, mahalliy aholi shafqatsiz ekspluatatsiya qilingan.

¹ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. – Т., 1998. – Б. 67.

² Ўша манба. – Б. 67.

Uchinchidan, «sivilizatsiya zoʻrlik bilan joriy qilingani, milliy nafsoniyat va iftixorni kamsitgani, milliy madaniyatlar va maʼnaviy qadriyatlarining toptagani, ularning ifodachilarini jismonan yoʻq qilib tashlagani uchun»¹ mustamlakachilikni hech qanday olijanob niyatlar bilan xaspoʻshlab boʻlmaydi. Binobarin, sivilizatsiyaning qay usulda (ixtiyoriy yoki majburlab) olib kirilganligi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Chor Rossiyasi, birinchi navbatda, mahalliy aholini hududni boshqarishdan chetlatdi, uni manqurtga aylantirish choralarini koʻrdi. Ana shu maqsadda, boshqa mustabid davlatlardan farqi oʻlaroq, armiyaning kuchiga asoslangan harbiy hamda fuqarolik boshqaruvi bir shaxsning, general-gubernatorning qoʻlida birlashtirildi. Turkistondagi butun hokimiyat general-gubernator ixtiyorida boʻlib, u harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, adliya masalalarini va hatto, chet el bilan boʻladigan munosabatlarni ham oʻzida mujassamlantirdiki, bu har qanday demokratiyani inkor qilib, mahalliy xalqni mutelikda saqlab turish, unga nisbatan har qanday, jumladan, harbiy kuch ishlatishga ham imkon yaratdi.

Barcha turdagi maʼmuriy boʻlinmalarga oblast, uyezd, volost uchastkalariga general-gubernator tomonidan tayinlanadigan harbiylarning rahbarlik qilishi tartibi joriy etildi. Natijada, qishloq boshqaruvini hisobga olmaganda, mahalliy xalq hududni boshqaruvidan umuman chetlatildi. Ushbu tartib podsho maʼmuriyatining mahalliy xalqqa boʻlgan salbiy munosabatini, uni mensimasligini bildirardi.

Siyosiy huquqlarning kamsitilganligini quyidagi misol xam tasdiqlaydi. Rossiya ikkinchi davlat dumasiga rusiyzabon aholining har 46 minggidan 1 deputat, mahalliy aholining esa har 896 minggidan bitta deputat saylandi. Uchinchi Dumaga saylovlarda mahalliy millatlarning saylovga qatnashishiga ruxsat berilmadi².

Bu munosabatlarni Rossiya hokimiyati maʼmuriyati shunday izohlab berdi: «Turkiston tuzem aholisi hali juda quyi aqliy taraqqiyot bosqichidadir. Ular huquq, maʼmuriyat, qonun nimaligini bilishmaydi. Jamiyat qonun tomonidan beriladigan huquqdan foydalanishni bilmaydi, bu huquq uning zarariga xizmat qiladi³».

Chor Rossiyasi xalqaro miqyosda bosqinchi nomini olishdan choʻchib, oʻz mavqeyini biroz boʻlsa-da saqlab qolish maqsadida, Buxoro va Xiva xonliklarining mustaqilligini rasman tan oldi. Amalda esa xonliklar toʻlaligicha Rossiyaga qaram edi, chunki ular nafaqat oʻzga davlatlar bilan

¹ Ўша манба. – Б. 68.

² Qaʼang: История Узбекистана. – Т., 2004. – Б. 95.

³ Ўзбекистон янги тарихи. 1 к. – Т., 2004. – Б. 95.

siyosiy va iqtisodiy aloqa oʻrnatishdan mahrum boʻldilar, balki oʻzlarining ichki siyosatidagi biroz boʻlsa-da, eʼtiborga molik masalalarda ham Rossiya bilan kelishishi shart edi. Masalan, Qushbegi eski Buxoroda rus filmlarini koʻrsatmaslik, tansa uyushtirmaslik masalasini hal qilishni Rossiyaning Buxorodagi vakilidan iltimos qiladi¹.

Xonliklarga nafaqat chet davlatlar bilan munosabatlar oʻrnatish taqiqlab qoʻyildi, balki ular mustaqil davlat sifatida hatto Rossiyaning oʻzi bilan aloqalar olib borishi mumkin boʻlmagan. Bu munosabatlar asosan Turkiston general-gubernatorligi, aniqrogʻi, uning Buxorodagi siyosiy agentligi va Xivadagi Amudaryo boʻlimi orqaligina amalga oshirilgan.

Bundan tashqari, xonliklarda bir necha, bir qarashda, taraqqiyparvarlik, insonparvarlikka oʻxshash boʻlgan tadbirlar ham Rossiyaning talabi bilan joriy qilindi. Ular jumlasiga xususan qullikni bekor qilish va avvallari muttasil davom etib kelgan xonliklar oʻrtasidagi urushlarga barham berilishi kiradi. Buning oʻz mantigʻi bor. Qulchilikni yoʻq qilish haqida Buxoro amirligi va Rossiya oʻrtasidagi shartnomada ochiqdan-ochiq bu tadbir rus podshohiga yoqish va imperatori aʼzam janoblarining obroʻsini koʻtarish uchun amalga oshirilganligi qayd qilingan. Boshqacha aytganda, Rus podshohining «adolatparvar» siyosatini xalqaro miqyosda targʻib qilishga qaratilgan. Bu siyosat oqibatida bir necha ming qul ozodlikka chiqib, oʻz vatanlariga tarqab ketdi. Ammo Chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati tufayli mahalliy xalq siyosiy va iqtisodiy huquqlaridan, milliy manfaatlaridan deyarli mahrum boʻlib, yarim qulga aylandi.

Xonliklarning oʻzaro urushlariga kelsak, buning ham oʻz mantigʻi bor. Hudud notinch boʻlsa, birinchi navbatda, Rossiyaning iqtisodiy manfaatlariga putur yetishi aniq edi. Ammo Rossiyaning mustamlakachilik siyosati milliy ozodlik kuchlarini harakatga keltirdi va qon toʻkilishi davom etdi. Bir urush ikkinchisi bilan almashdi.

Mustabid davlatning iqtisodiyot borasidagi siyosati shundoq ham nochor ahvolda hayot kechirayotgan xalqning rus sarmoyadorlari va mahalliy mulkdorlar tomonidan ikki tomonlama ekspluatatsiya qilinishini kuchaytirdi.

Dalillar:

– Rossiyadan Markaziy Osiyoga keltiriladigan va olib ketilgan mahsulot va tovarlarning qiymati solishtirilsa, mustabid davlat foydasiga hal boʻlib, farqi deyarli 29 mln. rublni tashkil qilgan². Agar 1869 yilda Turkistonning Chor Rossiyasiga keltirgan daromadi 2.3 mln. rublni tashkil qilgan boʻlsa, 1916-yilga kelib bu koʻrsatgich 38 mln. rublga yetdi;

¹ ЎзРМДА. Фонд 3. Рўйхат 2. Ўйғмажилд № 600.

² Qaʼang: История народов Узбекистана. Т.2. – Т., 1947. – Б.271.

– rus kapitali bilan mahalliy dehqonning aloqasini bog‘laydigan sudxo‘rlik qishloqda tabaqalanish jarayonini tezlashtirdi. O‘z yerini, mulkini garovga qo‘yib nasiyaga pul olgan ko‘pchilik dehqonlar qashshoqlasha boshladilar. 1912-yilga kelib, paxtaning asosiy qismini yetishtiradigan Farg‘ona viloyatida yersizlarning ulushi 30 foizga yetdi;

– Turkiston dehqonlaridan mustabid davlat hisobiga undiriladigan yer solig‘ining miqdori 1870-1880-yillarda ikki barobarga yaqin ko‘paydi. Undan tashqari, 1895-1910-yillarda o‘tkazilgan kadastrlash (xo‘jalik va oilalarni ro‘yxatga olish) natijasida sharoitga qarab soliq miqdori 6 martagacha oshdi¹;

– shahar aholisining ham ijtimoiy ahvoli yanada mushkullashdi, chunki Rossiyadan keltiriladigan arzon tovarlar hunarmandlarni xonavayron qildi. Ularning ko‘pchiligi shaharda ish topolmay qora ishchiga, batrak va chorikorga aylandi. Sanoat korxonalarida ish vaqti 17-18 soat bo‘lib, mahalliy ishchilarning kunlik ish haqi ruslarnikining deyarli 50% kam edi²;

– qishloq xo‘jaligini bir tomonlama, ya‘ni Rossiya sarmoyadorlarining manfaatiga moslashtirib, paxtachilikni kengaytirish hisobiga rivojlantirish mahalliy mehnatkashlarni og‘ir iqtisodiy ahvolga solib qo‘ydi. 1890-1915-yillarda paxta yetishtirish Turkistonda 73 martadan ko‘proq o‘sdi. Shu sababli, g‘alla va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish kamayib, ularning bozordagi narxi doimo o‘sib bordi. Masalan, faqat 1890-yilning boshlarida mahalliy xalqning asosiy oziqasi bo‘lgan bug‘doy unining bahosi 5 marta oshib ketdi³;

– mustabid davlat Markaziy Osiyo qishloq xo‘jaligining bor imkoniyatlaridan iloji boricha kengroq foydalanishga intildi, lekin iqtisodiyotning bu tarmog‘ini takomillashtirish, ilg‘or texnologiyani qo‘llash chora-tadbirlarini ko‘rmadi. Rossiya hukmron bo‘lgan davrda hududda bironta ham ko‘zga ko‘rinarli sug‘orish inshootlari qurilmadi;

– temir yo‘llar qurilishi hududdagi xomashyo, yer usti va yer osti boyliklarini Rossiyaga tashib ketishni osonlashtirdi. Masalan, 1912-yilda Krasnovodsk va Toshkent temir yo‘li orqali Rossiyaga olib chiqib ketilgan tovarlarning miqdori 1900-yildagiga nisbatan salkam 8 marta oshib ketdi⁴.

– Rossiya sarmoyadorlari sanoatning asosiy tarmoqlarini rivojlantirishdan umuman manfaatdor bo‘lmaganlar. Temir yo‘l qurilishini hisobga olmaganida, 1913-1915-yillarda Turkistonga kiritilgan umumiy sarmoyaning

faqat 15% sanoatni rivojlantirish uchun sarflangan, uning asosiy qismi ham paxta tozalash va moy olishga ajratilgan. Sanoat mahsulotining 80% paxtaga dastlabki ishlov berish bilan bog‘liq bo‘lgan¹. Tabiiyki, bu iqtisodiyotdagi muvozanatning buzilishiga olib kelgan va hududning imperiyaga qaramliligini kuchaytirgan.

Shunday qilib, Rossiyaning mustamlakachilik siyosati tufayli Turkistonning iqtisodiy salohiyati to‘laligicha mustabid davlatning manfaatiga bo‘ysundirildi, hududni qaramlikda saqlandi, mahalliy aholi shafqatsiz ekspluatatsiya qilindi.

Turkistonni chor Rossiyasining xomashyo bazasiga aylantirilishi.

Rossiyaning Turkistonni bosib olishga majbur qilgan yana bir omil – bu tez rivojlanib borayotgan to‘qimachilik sanoati edi. Chunki Amerikadan keltiriladigan paxtaning narxi fuqarolar urushi tufayli deyarli 4 barobar oshib ketgan edi.

Hudud bosib olinganidan keyin qisqa muddatda uni paxta xomashyosi yetishtiriladigan mintaqaga aylantirildi.

Agar 1885-yilda paxta maydoni 41,4 ming tanob bo‘lsa, 1915-yilga kelib 541,9 tanobga, yoki 13 barobarga ko‘paydi.

Rus sanoatchilari «Amerika» navli paxtani yetishtirishdan manfaatdor bo‘lganligi uchun 1889–1916-yillarda bu nav ekiladigan paxta maydonlari 7 barobar kengaytirildi yoki umumiy paxta maydonlarining deyarli 93 foizini tashkil qildi.

Turkistondan Rossiyaga tashib ketiladigan paxtaning hajmi 1906–1915-yillarda deyarli 4,3 barobar oshdi. Buning hisobiga Rossiya yengil sanoatidan olinadigan daromad 150 foizga oshdi. Paxtachilik imperiyaning chet ellarga sarflaydigan 70 million oltin pulini tejashga yordam berdi. Rus mustamlakachilari nafaqat paxtani, balki boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ham tashib ketdilar. Masalan, birinchi Jahon urushi davrida (1914- 1916 yillar) Turkistondan 50 million pud paxta, 8,5 million pud paxta yog‘i, 950 ming pud pilla, 2925 ming pud teri, 300 ming pud go‘sht, 474 ming pud baliq olib ketdilar.

Mustamlakachi davlat paxtachilikdan katta foyda ko‘rishiga qaramasdan irrigatsiya va melioratsiya tizimini takomillashtirish va rivojlantirish borasida biron- bir e‘tiborga arzigulik tadbirlarni amalga oshirishdan manfaatdor bo‘lmadi. Paxta yetishtirish hajmini o‘stirishga asosan mahalliy aholini shafqatsiz ekspluatatsiya qilish hisobiga erishildi.

XX asr boshlarida paxtachilik Turkiston sanoati va qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining 40 foizini tashkil etgan bo‘lsa, don 37 foizni tashkil

¹ Qarang: Ўша манба. – Б. 279.

² Ўша манба. – Б.283.

³ Qarang: Ўша манба – Б.153.

⁴ Qarang: История Узбекской ССР. Т.2. – Т., 1968. – С.151.

¹ Qarang: История народов Узбекистана. – Т., 1947. – С. 273-275.

qildi. Paxta yakkahokimligi mahalliy aholining ijtimoiy holatini murakkablashtirdi. 1913-yilda paxtaning narxi 0,5 marta oshgan bo'lsa, oziq-ovqat mahsulotlarining narxi 4-5 marta, nonning narxi 6 marta oshdi. Turkistondan olib ketilgan paxtadan ishlab chiqarilgan gazlamalarning narxi 20 barobar ko'tarildi. Umuman, paxta xomashyosining narxini oshirmaslik choralari ko'rildi.

Rossiya Turkistonni nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiradigan xomashyo bazasi sifatida saqlab qolish, balki xomashyoga faqat dastlabki ishlov beruvchi hudud darajasida saqlab qolishning barcha choralarini ko'rdi. Sanoat asosan paxta tolasi va paxta yog'i ishlab chiqarish bilan chegaralandi. To'qimachilik sanoati, tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar qurishdan manfaatdor bo'lmadi. Chunki xomashyoni chuqur ishlab chiqarishdan keladigan katta foyda Rossiyaning markaziy shaharlarida joylashgan rus boylarining cho'ntagiga tushishi kerak edi. Shunday qilib, Rossiyaning Turkiston iqtisodiyotiga bo'lgan munosabatiga mustamlakachilik siyosatining yaqqol namunasi sifatida qaralmog'i lozim.

Chor Rossiyasining Turkistondagi ma'naviy-madaniy siyosati. Chor Rossiyasi Turkistonda ma'naviy-madaniy sohada olib borgan siyosatining maqsadi tub joy aholisining o'z tarixi, ma'naviyati, milliy qadriyatlaridan uzoqlashtirish bo'lgan.

Chor Rossiyasining milliy-ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatining mohiyatini general-gubernator S.M.Duxoveniyning 1998-yil 6-sentabrda imperiya hukumati harbiy vazirga yuborgan takliflarida aks ettirilgan. Ular, jumladan, quyidagilar:

– xalqning ma'naviy-ruhiy holatiga kuchli ta'sir o'tkazuvchi barcha musulmonlar muassasalari, ayniqsa madrasa ishlariga faol darajada aralashishi;

– musulmonlarni birlashtiruvchi musulmon diniy boshqaruvi idorasiga yo'l qo'ymaslik;

– barcha musulmon maktablarini ma'muriyat ixtiyoriga o'tkazish va barcha mahalliy musulmon o'quv yurtlari va diniy muassasalarini to'la ro'yxatdan o'tkazish;

– siyosiy jihatdan zararli deb topilgan mahalliy musulmon muassasalarini yopish huquqini general-gubernatorga berish va hokazo. Amalda bu g'oyalar Rossiyaning mustamlakachilik davrida izchillik bilan hayotga tatbiq qilindi. Bu quyidagi choralarda namoyon bo'ldi.

Avvalo Chor hukumati ma'muriyati Turkistonda rus millatiga mansub bo'lgan aholining ulushini ko'paytirishga harakat qildi. 1906-1913-yillarda Turkistonda Rossiyadan ko'chirib kelinayotgan rus dehqonlari uchun

116 posyolka qurildi. Bundan tashqari, yangi qurilayotgan sanoat korxonalarida ishlash uchun Rossiya shaharlaridan ruslar ko'chirib keltirildi. Natijada XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkistonda rusiyazabon aholining soni deyarli 2,5 barobar o'sib, 200 ming atrofida bo'ldi. Bu mustamlakachilik siyosatini qo'llab-quvvatlab turish, kerak bo'lsa, rus krestyanlaridan qurolli askarlar tayyorlash uchun zarur edi.

Keyingi yo'nalish mahalliy aholi ongiga rus ruhiyatini singdirish va uni o'z madaniyati va ma'naviyatidan mahrum qilish bo'ldi. Buning uchun rus-tuzem maktablari tashkil qilina boshlandi. Albatta, bu maktablar mahalliy xalqni ruslashtirishda asosiy rol o'ynadi deb ayto olmaymiz, chunki ko'p millionli Turkiston aholisi uchun 105 ta maktab (1911-yilda) daryodan tomchi edi. Shu bilan birga, Turkiston harbiy ma'muriyati jadidlar tashabbusi bilan paydo bo'layotgan mahalliy xalq turmush tarziga, ma'naviyatiga mos keladigan yangi uslubdagi maktablarni yopish uchun barcha choralarni ko'rdi.

Rossiyaning ulug'vorligi, boyligi va qudratini, sanoati, taraqqiyotini ko'rsatish uchun mahalliy millat vakillarining markaziy shaharlarga sayohatlari uyushtirildi. Maqsad – kelajakda mustamlaka hududlarni ham shunday taraqqiyotga erishishi mumkinligiga ishonitirish edi.

Chor Rossiyasi Turkistonda iloji boricha islom ta'limotining aholiga ta'sirini cheklashga harakat qildi. Bir qancha shaharlarda shayxulislom lavozimlari taqiqlandi, vaqf mulklari davlat ixtiyoriga olindi, madrasalarni tamomlagan shaxslarni davlat xizmatiga olish cheklandi.

Ba'zi savodsiz mullalar yordamida «Qur'oni Karim» va boshqa diniy kitoblarning mazmun-mohiyati buzib talqin qilingan. Juma namozida podshoning nomini (xutbaga) qo'shib o'qish to'g'risida farmoyish berilgan.

Rossiya o'lka xalqlarini o'z madaniyati va tarixidan uzoqlashtirish uchun barcha choralarini ko'rdi. Turkiston tarixiga doir moddiy va ma'naviy yodgorliklar yig'ib olindi va Moskva hamda Sankt-Peterburgga jo'natildi. Ko'plab tarixiy obidalar qarovsiz qolib, xonavayron bo'ldi.

Xullas, Chor Rossiyasi mahalliy aholini ma'naviy qoloqlikda tutib turish, ijtimoiy faolligini oshirmaslik va O'rta asrlar jaholatparastligida saqlash choralarini ko'rdi.

Rossiya iloji boricha Markaziy Osiyoni jahon taraqqiyotidan, madaniyatidan chetda ushlab tutishga harakat qildi. Bu fikrni o'sha davrda Turkistonni boshqarib turgan general-gubernator A.N. Kuropatkin ham tan olgan. U o'z xotiralarida: «Biz 50 yil tub joy aholini taraqqiyotidan jilovladik, maktablar va rus hayotidan chetda tutdik», – degan edi.

Chor Rossiyasi harbiy-siyosiy ma'muriyatining kuchli bosimiga qaramasdan milliy madaniyatning rivoji to'xtab qolgani yo'q, mahalliy

aholi o'zining milliy qadriyatlari, urf-odatlari, an'alarini, ma'naviy ruhiyatini saqlab qolishga harakat qildi, o'zligini unutmadi.

Aynan shu davrda yurtimizdan Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Cho'lpon, Tavallo kabi atoqli shoirlar faoliyat ko'rsatdilar. Ular o'z asarlarida yurtning taraqqiyotdan orqada qolayotganligi, aholi diniy mutaassibligidan chiqib keta olmayotgani, uning dunyo bexabarligini kuyunib yozdilar. Mumtoz musiqa, san'at, teatr, milliy matbuot, badiiy hunarmandchilik rivojlandi.

Shu davrda taraqqiyparvar jadidchilik harakati shakllandi va rivojlandi. Vatan mustaqilligi, milliy demokratik davlat qurish g'oyalari ilgari surildi va tub joy aholining siyosiy ongi o'sib bordi.

XI bob
**CHORIZM ISTIBDODIGA QARSHI TURKISTON XALQLARINING
MILLIY-OZODLIK KURASHI. JADIDCHILIK**

**1-§. Turkiston xalqlarining chorizm istibdodiga qarshi
milliy-ozodlik harakatlarining boshlanishi
va uning**

Chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosatiga qarshi harakat Turkiston bosib olinganidan keyin ham to'xtamadi. Bu harakat yanada kuchaydi. Yirik xalq ozodlik harakatlarini qayd etishning o'zi bu kurashning qanchalik ommaviy tus olganligini ko'rsatdi:

1875-yilda – Po'latxon boshchiligidagi qo'zg'olon;

1878-yilda – Yetimxon boshchiligidagi qo'zg'olon;

1880-yilda – Xo'jand va O'ratepadagi qo'zg'olon;

1882-yilda – Namangan va O'shdagi qo'zg'olon;

1885-yilda – Farg'ona vodiysidagi bir qancha shahar va qishloqlardagi qo'zg'olon;

1892-yilda – Toshkentdagi («vabo isyoni», «tosh otarlar») qo'zg'olon;

1895-1897-yillarda Farg'ona vodiysining bir qancha shahar va qishloqlaridagi qo'zg'olon;

1898-yilda «Andijon» («Dukchi eshon») qo'zg'oloni;

1904-1907-yillarda Nomoz Pirimqulov boshchiligidagi qo'zg'olon;

1905-1907-yillarda Farg'ona vodiysining bir qancha shahar, qishloqlari va boshqa mintaqalaridagi qo'zg'olon;

1916-yilda Turkistonning deyarli barcha viloyatlarida, ko'pchilik shahar va qishloqlarda bo'lib o'tgan xalq qo'zg'olonlari.

Yuqorida qayd etilgan qo'zg'olonlar mahalliy aholining ozodlik uchun kurash qamrovi va xususiyatlari haqida quyidagi fikrlarni bildirishga imkon beradi:

– mahalliy xalqning ozodlik harakati Rossiya Turkistonda hukmronlik qilgan davrda deyarli to'xtamagan va uning Turkiston general-gubernatorligining barcha hududlariga yoyilgan;

Chor hukumati ma'muriyatining xalq harakatlarini bostirishga qaratilgan chora-tadbirlari ozodlik uchun bo'lgan intilishni so'ndira olmagan. Buni bosqinchilarning o'zlari ham tan olganlar. Turkiston general-gubernatori A.N.Kuropatkin o'z esdaliklarida: «Garchand Markaziy Osiyoda ruslar yarim asrdan ko'proq hukmronlik qilayotgan bo'lsa-da, ming afsuski,

g'ayritabaqalarni (mahalliy aholini) Rossiya imperatorining sodiq xizmatkoriga aylantira olmadi»¹, – deb yozadi.

Har bir qo'zg'olon muayyan hududda yashaydigan aholining hayotida muhim o'rin tutgan. Ular kelib chiqish sabablari, ishtirokchilari, oldiga qo'ygan maqsadlari, yutuq va kamchiliklari bo'yicha umumiy tomonlarga va o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Qo'zg'olonlarning boshlanishiga turtki bo'lgan omillar bilan ularning tub sabablarini ajratish lozim. Ularning boshlanishiga mahalliy amaldorlarning o'zboshimchaligi, saylovlarda adolatsizlik, yerlarning asossiz tortib olinishi, milliy urf-odatlarining poymol qilinishi va shunga o'xshash voqyealar turtki bo'lgan.

Qo'zg'olonlarning tub ildizlari chuqurroq joylashgan. Ularning kelib chiqishiga mahalliy aholining siyosiy, iqtisodiy huquqlarining poymol qilinishi, shafqatsiz ekspluatatsiya, og'ir soliqlar, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni mensimaslik, insonni tahqirlash kabilar sabab bo'ldi.

Deyarli barcha qo'zg'olonlar mag'lubiyat bilan yakunlandi. Qo'zg'olonlar mag'lubiyatining umumiy sabablari bor. Qo'zg'olonlar tashkiliy jihatdan juda sust tayyorlangan edi. O'sha sharoitda boshqacha bo'lishi ham mumkin emas edi, chunki nafaqat Turkiston, hatto viloyat miqyosida ham qo'zg'olonchilarga boshchilik qiladigan, ularni birlashtiradigan bironta siyosiy kuch bo'lmagan. Deyarli hamma qo'zg'olonlar mahalliy ahamiyatga ega edi.

Qo'zg'olonlarning mag'lubiyatiga ko'pincha o'zining shaxsiy manfaatidan narini ko'rolmagan, milliy g'ururdan bexabar ayrim mahalliy amaldor va mulkdorlarning xoinligi ham sabab bo'ldi. Bundan tashqari, Turkiston xalqining yagona millat sifatida shakllanmagani ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Islom g'oyasi xalqni birlashtiruvchi omil bo'lib xizmat qilmadi.

Qo'zg'olonlar mag'lubiyatga uchragani bilan ularning ijtimoiy hayotga ta'siri izsiz yo'q bo'lib ketmadi. Haddidan oshgan mahalliy amaldor va chor ma'muriyati vakillari jazolandi, hukumat biroz bo'lsa-da, yon bosishga majbur bo'ldi. Masalan, mardikorlikka olish bo'yicha ilgari belgilangan mo'ljal 50 ming kishiga kamaytirilib, 200 ming qilib tayinlandi. Podsho mardikorlikka olish siyosatining shoshilinch va puxta o'ylanmasdan hayotga tatbiq qilinganini tan oladi. Amalda esa faqat 123 ming mardikor safarbar qilindi.

Eng asosiysi, xalqning siyosiy ongi asta-sekin o'sib bordi. Millatning ko'zgusi bo'lgan ziyolilar, ayniqsa jadidchilik harakatiga kirganlar siyosiy tashkilotsiz mustamlakachilarni yengib bo'lmasligini, xalqni birlashtira-

¹ *Мажид Ҳасаний. Туркистон босқини. – Т., 1992. – Б.40.*

digan milliy g'oya kerakligini tushunib yetdilar va bu borada amaliy choralarni ko'ra boshladilar.

2-§. Andijon qo'zg'oloni va uning ahamiyati

Tarixga Muhammadali eshon – (Dukchi eshon) qo'zg'oloni, nomi bilan kirgan Andijon qo'zg'oloniga Mingtepa qishlog'idan chiqqan Muhammad-Alihalifa Sobir So'fi boshchilik qilgan. Qo'zg'olon boshlanishi arafasida Muhammadali eshon Mingtepada emas, balki Andijon, Marg'ilon, Qo'qon va boshqa, jumladan, qirg'iz elatlarining orasida ham hurmat qozongan. Eshon o'qimishli, islom ta'limotini yaxshi bilgan, Buxoro, Karrux, Shahrisabzda o'qigan, Makka, Hindiston va Kashmirda piri-ustodlaridan ta'lim olgan shaxs edi. U baquvvat xo'jalikka ega bo'lib, nazir-niyozlari hisobiga kambag'allarga, beva-bechoralarga g'amxo'rlik qilib kelgan. Eshonning 20 mingdan ortiq muridlari bo'lgan, ular o'z pirlarining xosiyatlarini tinimsiz targ'ib qilib, u istagan paytda yetib kelib uning xizmatiga tayyor turganlar. Eshonning ana shu obro'si uning qo'zg'olonga rahbarlik qilish darajasiga ko'tarilishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Bundan tashqari, mustamlakachilik siyosatidan aziyat chekkanlar, o'z manfaatlarini faqat islom ta'limoti doirasida himoya qilishi va Muhammadali eshon kabi obro'li din rahnamolari atrofida birlashishi va tahqirlashga qarshi kurashishi mumkin edi.

Muhammadali eshon qo'zg'olonga rahbarlik qilishga rozi bo'lishini bir necha sabablari bo'lgan:

– bosqinchilar zulmidan yurtni, xalqni ozod qilish tuyg'usi;

– mustamlakachi ma'murlarning zo'ravonligi natijasida yuzaga kelgan nafrat;

– mahalliy aholining rus dehqonlarining zo'ravonligidan noroziligi;

– ko'plab yangi jarimalarning joriy qilinishi, kambag'al aholining mol-mulkini qonunga xilof ravishda tortib olinishi va boshqalar.

Ushbu sharoitda mahalliy xalqning bardoshi poyoniga yetib, har qanday bir kichik voqyea ham uni mustamlakachilarga qarshi jangga o'tlanishiga sabab bo'lishi mumkin edi. Lekin eshon rus podshosiga qarshi chiqish ancha murakkab ishliligini, muayyan tayyorgarlikni talab qilinishini tushunar edi. Shuning uchun eshon Farg'onaning turli shahar va qishloqlaridagi, jumladan, Andijon, O'sh, Marg'ilon, Namangandagi eng nufuzli odamlarga maxfiy xatlar jo'natib, milliy g'azot vaqti yetib kelganligini ta'kidladi va birgalikda harakatga da'vat qildi. Ma'lum tayyorgarlikdan keyin 1898-yil 17-mayda Mingtepadan (hozirgi Marhamat tumani) 200 otliq, 300 piyoda eshon boshchiligida Andijonga yurish

boshlaydi. Qo'zg'olonchilar shahardagi harbiy garnizonga hujum qilib, 23 askarni o'ldiradilar, 24 nafarini yarador qilib, 30 ta miltiq o'lja olinadi.

Eshonning harakatini Quva, Asaka, Shahrixon, Aravan qishloqlari, O'sh, Marg'ilon, Namangan shaharlari aholisi qo'llab-quvvatlaydi. Biroq tez orada o'ziga kelgan Chor hukumati ma'muriyati isyonchilardan qonli o'ch oldi, 6 kishi dorga osildi, 374 nafari otildi, 351 kishi turli muddatlarga qamaldi, 15 kishi oilasi bilan Sibirga surgun qilindi. Bir qancha qishloqlar, jumladan eshon yashagan Mingtepa qishlog'i, isyonchilar chiqib ketganiga qaramay, uch kun to'pdan o'qqa tutilib, yer bilan yakson qilindi, tekislanib rus dehqonlariga bo'lib berildi, masjidlarini buzib, o'rniga cherkov qurish haqida farmon berildi.

Qo'zg'olonidan keyingi vaziyat quyidagicha tasvirlanadi: «O'sha vaqtda kimligidan qat'i nazar, oq do'ppi kiygan bo'lsa, istibdod soldatlari: «Seniki eshon» deb tutub urar edi. Yoki salla o'rab, soqol qo'ygan kishi uchrasa, uni albatta Yiqchi eshonning muridi gumon qilinib, tutib, so'roqsiz qamar edi. Mingboshilarning dunyoparastligi qo'zg'olib, shaharda kimning joyi bo'lsa, kechasi chaqirib borib: «Seni tutib beraman, eshonning hovlisiga borgan eding» deb siyosat qilib, bor-yo'g'ini olardilar. Poraxo'rlik amaldorlar ichida nihoyat avj oldi»¹.

Qo'zg'olon ayrim shaxslarning irodasiga bog'liq bo'lmay, sabr kosasi to'lgan xalqning tug'yoni edi. Qo'zg'olonga tayyorgarlik ko'rish davrida va uning jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar, xoinliklar bo'lmaganda natija boshqacharoq ham bo'lishi mumkin edi. Ular quyidagilardan iborat:

– qo'zg'olonning eng mas'uliyatli, boshlang'ich davrida xalqni ko'tarishga qurbi yetadigan e'tiborli odamlar o'z manfaatini ko'zlab chetga chiqib oldilar;

– asosiy kuchlar, ayniqsa, qirg'izlarni bir yerga to'plamasdan isyon boshlab yuborildi (oxirgi vaqtdagi izlanishlar bunda Chor ma'muriyati maxsus xizmatining qo'li borligini isbotlamoqda);

– eshon boshlangan ishni oxiriga yetkazish o'rniga kazarmaga hujum qiladi-yu, keyin Andijonni tashlab chiqib ketadi. Xalq eshonning harakatlaridan vaqt o'tgandan keyin xabardor bo'ldi;

– Chor ma'muriyati qo'lga tushgan eshonning yozishmalari o'z vaqtida ishonchli joyga yashirilganida yoki yo'qotilganida, ko'p odamlarining boshi omon qolar edi;

– eshonni boylikka hirs qo'ygan, vijdonini sotgan, mahalliy xoin amalparastlar tutib berdilar.

Qo'zg'olon mag'lubiyatga uchrashiga qaramay, nafaqat Farg'ona vodiysida balki butun Turkistonda katta shov-shuvga sababchi bo'ldi va Chor Rossiyasini tashvishga tushirib qo'ydi. O'sha vaqtdagi Turkiston general-gubernatorining harbiy vazirga jo'natgan axborotida, qo'zg'olon Farg'onada ko'tarilgan bo'lsa-da uni mutlaq mahalliy hodisa emas, unga Farg'onaning barcha aholisi xayrixohlik bildirdi, g'alayon ko'zda tutilgan hudud doirasidan ancha keng tashqariga yoyilib ketganligini tan oladi.

Shunday qilib, qo'zg'olon diniy, ijtimoiy siyosiy va milliy-ozodlik kurashlari o'zaro uyg'unlashgan xolda namoyon bo'ldi.

3-§. Turkistondagi 1916-yil qo'zg'olonlarining sabab va oqibatlari

1914-yilda Birinchi jahon urushiga qo'shilgan Rossiya imperialistik manfaatlarni ko'zlab, u bilan bog'liq muammolarni mustamlakalarining zimmasiga yuklashga harakat qildi. Uni Turkiston misolida ko'rish mumkin.

Urush tufayli yuzaga kelgan muammolar:

– paxta tolasining xarid narxi hukumat tomonidan 20 foizga kamaytirilgan miqdorda belgilandi. Bu choradan birinchi navbatda mayda va o'rtahol mahalliy mehnatkashlar zarar ko'rdilar;

– Turkistonga uning ehtiyojiga qaraganda bir necha marta kam g'alla olib kelindi. Natijada g'allaning narxi 4 barobar oshib ketdi;

– turli soliqlar yig'indisining 21 foizi miqdorida yangi harbiy soliq joriy qilindi;

– urush ehtiyojlari uchun 70 ming ot, 13 ming tuya va boshqa turli-tuman mahsulotlar olib ketildi;

– podshoning mahalliy xalqni front orti ishlariga jalb qilish haqidagi 1916-yil 25-iyun farmoni turkistonliklarning toqatini toq qilib yubordi. Farmonga ko'ra Turkistondan 250 ming nafar 19-31 yoshdagi erkaklar mardikorlikka olinishi lozim edi. Buning natijasida turmush muammolarini shundoq ham zo'r-bazo'r eplab turgan oilalar boquvchisiz og'ir ahvolga tushib qolar edi. Bundan tashqari Turkiston general-gubernatorining mahalliy millat vakillariga o'z o'rniga boshqa odamni yollab mardikorlikka jo'natishga ruxsat berishi boylar, amaldorlarning turli suiiste'molchiliklariga keng yo'l ochib berdi. Munavvarqori Abdurashidxonov Chor xukumatining farmoniga shunday baxo beradi: « Eski hukumatning 1916-yil 25-iyun farmoni xoinona va zolimnomasi Turkiston musulmonlarining ham ko'zlarini ochib, bilmajbur hurriyatchilar katoriga kiritdi. Turkistondan chiqarilgan bunday og'ir farmon yolg'iz insonlarnigina

¹ Фозилбек Отабек ўғли. Дукчи эшон воқеаси. – Т., 1992. – Б. 30-31.

emas, hayvonlarni harakat, qarshilikka majbur etmogi tabiiy edi.»¹ Bu holat aholining shunday ham og‘ir ahvolini mushkullashtirib yubordi, ularning Chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosatiga qarshi qo‘zg‘alishiga turtki bo‘ldi.

1916-yil iyul oyining boshlarida Turkiston o‘lkasining turli viloyat, shahar va qishloqlarida mardikorlikka olishga qarshi xalq qo‘g‘olonlari boshlanib ketdi. Jizzax qo‘zg‘oloni shularning eng shiddatlaridan biri edi. Qo‘zg‘olonga Jizzaxning eng e‘tiborli kishilaridan Nazirxo‘ja Abdusalomov, o‘z davrining o‘qimishli kishilaridan bo‘lgan va ikki marta Makkaga borib kelgan Ziyoqori Abdullayev, shaharning taniqli oqsoqollaridan Muhammadrahim Abdurahmonovlar rahbarlik qiladilar. Qo‘zg‘olonchilar nafaqat yon atrofdagi qishloqlar, balki Toshkent va Samarqand aholisi bilan ham aloqa bog‘laydilar, ularning o‘z harakatlarini qo‘llab-quvvatlashlarini kutadilar. Qonli to‘qnashuv 13 iyulda boshlanib, 8 kun davom etdi.

Qo‘zg‘olonning qanchalik avj olganligi va kuchga ega bo‘lganligi, Chor ma‘muriyatining sarosimaga tushib qolganligi, isyonni bostirishga jalb qilingan harbiy kuchlarning miqdoridan ham bilish mumkin. Jizzax qo‘zg‘olonini bostirish uchun bir rota, sapyorlar vzvodi, to‘rt to‘pli batareya; Samarqanddan bir rotadan iborat maxsus jazo otradi, 90 kishilik maxsus ofitserlar rotasi; Orenburgdan 100 kishilik kazaklar jazo otradi; yana Toshkentdan polkovnik Ivanov boshchiligidagi 12 rota, 6 to‘p, 3 kazak otradi, maxsus sapyorlar rotasidan iborat jazo otradi yuboriladi. Endi agar shunchalik qurollangan, g‘alayonlarni bostirishda tajriba orttirgan harbiylarning hujumiga bardosh berib, barobar olishishi uchun xalq g‘azabi qay darajaga yetishi kerakligini ko‘z oldingizga keltiring. Afsuski, kuchlar nisbati teng emas edi, to‘plar va pulemyotlarga qarshi turish og‘ir bo‘ldi.

Jazo otradi shaharda ko‘tarilgan qo‘zg‘olonni shafqatsiz bostirdi. Harbiylar eski Jizzaxni to‘pga tutib, unga o‘t qo‘yib, kultepaga aylantirdilar. Jazo otradi xalqni Qili va Uchtepa cho‘liga haydadi, qochganlarini quvib, qanchadan-qancha gunohsiz kishilarni o‘ldirdi. Isyonchilardan qonli o‘ch olindi.

Qo‘zg‘olonchilar zudlik bilan sud qilinib, 32 kishi osib o‘ldirishga, ko‘pchiligi Sibirga surgun qilishga hukm qilindi. 1640 qo‘zg‘olonchining 2000 desyatina yeri tortib olinib, rus millatiga mansub odamlarga bo‘lib berildi².

Mardikorlikka olish haqidagi farmon Turkistonning deyarli bir qancha shahar va qishloqlarida, jumladan, eski Marg‘ilon, Qo‘qon, Namangan,

¹ *Мунавварқори Абдурашидхонов*. Танланган асарлар. – Т., 2003. – Б.156.

² Qarang: *Хайдаров Х.* Жиззах тарихидан лавҳалар. – Т., 1992. – Б. 66-67.

Chust, hatto Qoraqalpog‘istonning Chimboy tumanida va boshqa hududlarda xalq g‘alayonlarining kelib chiqishiga turtki bo‘ldi. 1916 yildagi qo‘zg‘olonlarning avvalgilardan farqi shundaki ularga erkaklar bilan bir qatorda, (Toshkentda) erlari va o‘g‘illarini mardikorlikka olinishidan norozi bo‘lgan ayollar ham faol qatnashdilar.

Barcha qo‘zg‘olonlar mustamlakachi davlat tomonidan shafqatsiz bostirildi.

Umuman, 1916-yil mardikorlikka olishdan boshlangan qo‘zg‘olonlar qatnashchilarining 3 mingdan ortiqrog‘i javobgarlikka tortildi, chunonchi 347 kishiga o‘lim jazosi belgilandi, hammasi bo‘lib 872 kishi jinoiy jazoga tortildi¹.

Qo‘zg‘olon o‘lkadagi mustamlakachilik tuzumining poydevori bo‘sh ekanligi va uning ustunlari chirib qolganligini ham ko‘rsatdi. U chorizmning yaqinlashib kelayotgan umumsiyosiy inqirozining yorqin ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ldi.

Shunday qilib, milliy-ozodlik harakatlari qanchalik shafqatsizlarcha bostirilmasin xalqning ozodlikka intilish tuyg‘usini so‘ndira olmadi, aksincha u o‘zligini angladi, erkinlikka erishish g‘oyasi atrofida jipslashdi.

4-§. Jadidchilik harakatining paydo bo‘lishi, uning ijtimoiy- siyosiy asoslari

XIX asrning oxirlariga kelib Turkistonda fojiali tanglik namoyon bo‘la boshladi. Mintaqaning yer osti boyliklari, son-sanoqsiz mollarini boqishga imkon beradigan vodiylari va yaylovlari, keng sug‘orish tarmoqlariga ega bo‘lgan va yetarli darajada g‘alla, sholi, sabzavot, meva-cheva berishi mumkin bo‘lgan dehqonchilik imkoniyatlaridan o‘ta tartibsizlik va uquvsizlik bilan foydalanildi. Boz ustiga, paxtachilik sekin-asta tub aholini qulga aylantirish vositasi rolini bajara boshladi. Rossiyadan kirib kelayotgan arzon tovarlar mahalliy hunarmandlarni inqirozga uchratdi. Mahalliy xalqning turmush darajasi tobora pasayib bordi. Xalqning o‘z haq-huquqlarini talab qilib chiqishlari muvaffaqiyatsiz tugadi va xunrezlik bilan bostirildi.

Vujudga kelgan fojiali sharoit millatning adolatparvar, xalqparvar, ma‘rifatparvar vijdonli ziyolilari-yu, taraqqiyparvar yangi shakllanayotgan milliy tadbirkor ulamolarni tashvishga solmay, o‘ylantirmay qo‘ymasdi. Ular tushkunlikning sabablarini tahlil qilib, jarayon shu qabilda davom etishi mumkin emasligi, mavjud vaziyatni o‘zgartirish kerakligini sekin-asta tushunib yeta boshladilar.

¹ Qarang: *История народов Узбекистана*. Т.2. – Т., 1947. – Б. 436.

Bu harakatlarni shartli ravishda ikki toifaga bo'lish mumkin: birinchisi – millatning vijdoni bo'lgan, o'z asarlarida real vaziyatning kamchiliklarini ochib berib, kishilarni taraqqiyotga xizmat qilishga chaqirgan ijodkor shoir va yozuvchilar harakati; ikkinchisi – mahalliy xalqlarni taraqqiyotga yetaklash g'oyasi asosida birlashgan, ammo qattiq intizomga ega bo'lmagan jadidlar va ularning xayrixohlari harakati.

Turkiston aholisining ijtimoiy ongini o'stirish, ularning o'zligini anglashga, ozodlikka, o'z haq-huquqini muhofaza qilishga targ'ib qilish, ularda demokratik qarashlarni shakllantirishda xalqimizning Axmad Donish, Berdimurod Qarg'aboy o'g'li (Berdaq), Muxammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li Muqimiy, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat, Avaz O'tar, Ubaydulla Solih Zavqiy kabi asl farzandlarining hissasi beqiyosdir.

Ijod ahlining asarlaridagi yangicha dunyoqarashning mohiyatini umumlashgan tarzda quyidagicha ifodalash mumkin:

– mamlakatda tartib o'rnatib, rivojlanishni ta'minlash maqsadida islohotlar o'tkazish;

– xalqni mutaassiblik, jaholat va xurofotdan xalos qilish uchun ma'rifatli qilish;

– o'zaro urushlar va qirg'inlarga barham berish;

– Rossiya va Yevropa madaniyatini o'rganish.

Ma'rifatparvar ijodkorlarning xalq oldidagi xizmatlarini tan olish bilan birga masalaning boshqa tomonini ham unutmaslik kerak. Ularning ijodida bu yo'nalish yetakchi g'oya darajasiga ko'tarilmadi. Chunki ularning asarlarini targ'ib qiladigan vaqtli matbuot vositalari endi shakllanayotgan bir paytda, mahalliy aholining aksariyat qismi savodsiz bo'lgan.

Yangi g'oyalarni hayotga tatbiq qilish jadidchilik mafkurasida o'z aksini topdi, ya'ni harakat vujudga kelgan vaqtdan adolatsiz ijtimoiy-siyosiy tuzumdagi ziddiyatlarni fosh etgan. Chunki XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida mahalliy xalq ziyolilari (jadidlar) Rossiya, Turkiya, Germaniya va boshqa taraqqiy etgan Yevropa mamlakatlariga tez-tez safar qilib turdilar. Safar davomida musulmon ziyolilari yuksak rivojlangan sanoat, madaniyat bilan tanishdilar va bu yutuqlarning mohiyati sarmoyadorlikka asoslangan ishlab chiqarish, yangicha ta'lim tizimi, ya'ni dunyoviy bilimlarga asosiy e'tibor berilayotganligi bilan bog'liqligini ko'rdilar. Ikkinchi tomondan, bu ziyolilar asosan diniy aqidalarni o'rganishga asoslangan maorif tizimini o'zgartirmay turib, mahalliy aholini ma'rifatli qilish, uning siyosiy ongini oshirish, erkinlikka olib chiqish mumkin emasligini tushunib yetdilar.

Bunday ziyolilar keyinchalik o'zlarini jadidlar deb atay boshladilar. «Jadid» arabcha so'z bo'lib yangi uslub, yangicha tafakkur degan ma'nolarni bildiradi.

Jadidchilikka Qirimlik Ismoilbey G'aspirali (Gaspirinskiy) asos solgan deb hisoblanadi.

Ismoilbeyning asosiy g'oyalari uning 1881-yilda chop etilgan «Rossiya musulmonlari» kitobida o'z ifodasini topdi. Ularning mohiyatini quyidagilar tashkil qiladi:

– Rossiya musulmonlarni atayin taraqqiyotdan, ilm-ma'rifatdan uzoqda tutayotganligini, musulmonlarning tili, dini, turmush tarzini buzayotganligini tan olish;

– musulmonlarning hayotini rus tili emas, balki anglash oson, eng ta'sirchan va tushunarli bo'lgan ona tilida o'zlashtiriladigan ilm-fangina o'zgartirishi mumkinligini, musulmonlar ta'lim tizimining zamon talabidan orqada qolganligini ta'kidlash;

– musulmonlarning Rusiyani, uning hayoti va qonunlarini o'rganishlari, tor dunyoqarashlarini yangilashlari, hayotni jonlantiruvchi bilimga ega bo'lishlari uchun imkon yaratish lozimligini uqtirish;

– Rusiya tarkibida yashamoqchi bo'lgan turkiy xalqlarning amaldagi teng huquqliligini ta'minlash uchun ularning turmush tarzi, urf-odatlari ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini saqlab qolish kerakligini. Aks holda u o'zligini yo'qotishi mumkinligini ta'kidlash;

– taraqqiyotga, madaniyatga erishish, adolat o'rnatish uchun jahondagi tartibni buzishga hojat yo'q, aks holda katta qiyinchiliklarga duch kelinadi¹.

Bundan tashqari, jadidchilik harakatining shakllanishida Ittihad va taraqqiyparvar oqimning ta'sirini ham inkor etib bo'lmaydi. Uning faoliyati bilan Mahmudxo'ja Behbudiy va Abdurauf Fitrat yaqindan tanish bo'lganlar. Ayniqsa Fitrat Istambulda tahsil olib butunlay boshqa odam bo'lib qaytdi. Turkiyada tahsil olgan yoshlar keyinchalik jadidchilikning faol ishtirokchilariga aylandilar.

Ismoilbey G'aspiralining va Turkiya taraqqiyparvarlarining Markaziy Osiyoda jadidchilik g'oyalarini tarqatishdagi xizmatlarini inkor etmagan holda, o'zbek ziyolilarining ko'pchiligi jadidchilik g'oyalariga o'z yo'li bilan mustaqil ravishda kirib kelganligini tan olish kerak. Turkistonlik jadidlarning bosh rahmosi, asli samarqandlik Maxmudxo'ja Behbudiy, toshkentlik Munavvarqori Abdurashidxonov va buxorolik Abdurauf Fitrat kabilarning taraqqiyparvarlik harakatiga asos solganliklari, unga rahbarlik qilganliklari hammaga ayon. Shu o'rinda ikki narsaga e'tiborni qaratmoq lozim: birinchisi, – jadidchilik harakatining Markaziy Osiyo ijtimoiy hayotidagi ichki obyektiv zarurat tufayli yuzaga kelganligi; ikkinchisi – uning boshida islom diniga shunchaki aqida emas, balki kishilik jamiyatini

¹ Qarang: Қосимов Б. Исмоилбей Ғаспирали //Ўзбегим. – Т., 1992. – Б.141-165.

takomillashtiruvchi omil sifatida yondashuvchi ziyolilar turganligini qayd etish maqsadga muvofiq.

Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy hayotni isloh qilishga oid asosiy g'oyalari va amaliy faoliyati. Jadidchilik harakatining tadrijiy rivojlanishi murakkab o'tdi, shuning uchun unga beriladigan baho ham turlicha. Oddiy ma'rifatchilikdan boshlangan jadidchilik harakati 1917-yilga kelib sekin-asta siyosiy partiya darajasiga ko'tarildi. Orada esa bir-birini inkor etuvchi bir qancha guruhlar: radikallar va qadimiychilar, kapitalistik taraqqiyot va sotsialistik inqilob tarafdorlari va boshqa turli oqimlarga bo'linib turdilar.

Jadidchilik harakatining ijtimoiy tarkibini taraqqiyparvar ziyolilar, ruhoniylar, mulkdorlar va hunarmandlar tashkil qildi.

Birinchi bosqichga shartli ravishda, XX asr boshlaridan 1910-1914-yillargacha bo'lgan davrni kiritish mumkin. Bu bosqichni jadidlarning tashkiliy va g'oyaviy jihatdan shakllanishi davri desa bo'ladi.

Bu davrda hali uyushmagan jadidlar oddiy ma'rifiy va madaniy vazifalarni, ya'ni zamonaviy taraqqiyot talablariga javob bermaydigan xalq ta'limi tizimini isloh qilish, islom ta'limotini aqidaparastlikdan mosuvo etishni maqsad qilib qo'yadilar. Chunki ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalaridagi mutaassiblik, johillik, xurofotning hukmronligi, o'quv uslubining o'ta ibtidoiy va qoloqligi, aniq maqsadlar aks etgan dasturlarning yo'qligi, maktab va madrasalarda asosan diniy ta'limga e'tibor berilayotganligi taraqqiyotga to'siq bo'layotgan edi. Shu bilan birga, o'quv muassasalarining rasman ruhoniylar ixtiyorida bo'lganligi va ular ko'pchiligining o'ta mutaassibliigi ta'lim tizimini isloh qilishga, islom ta'limotini qotib qolgan aqidaparastlikdan xalos qilishga imkon bermas edi.

Jadidlar o'z g'oyalarini hayotga tatbiq qilishga, xalq ta'limining yangi tizimini yaratishga harakat qildilar. Ular taraqqiyparvar ulamolar, mulkdorlar yordamida bir qancha «yangi uslub» yoki «jadid» maktablarini tashkil qildilar. Bu maktablar o'zining dastlabki davridayoq samarali ekanligini isbotlab, aholi e'tiborini qozondi va tez orada ko'payib bordi. Faqat Turkistonning asosiy shaharlarida 1910-yilda 50 ta yangi uslub maktabi faoliyat ko'rsatgan¹ bo'lsa, 1917-yil fevralda 100taga yetdi. Shunday bo'lishiga qaramay aholini xurofot asoratida saqlashdan manfaatdor eskilik tarafdori bo'lgan ruhoniylar jadid maktablarining faoliyatiga qarshilik ko'rsatdilar. Chor Rossiyasining ma'muriyati esa vaziyatni qo'ldan chiqarimaslik uchun bu maktablarni o'z nazoratida ushlab turishga harakat qilgan.

Jadidlar Turkiston kelajagi bilan bog'liq g'oyalarni xalqqa yetkazish uchun o'z gazeta va jurnallarini yaratishga harakat qildilar. 1913-yildan

¹ История народов Узбекистана. Т.2. – Т., 1947. – С.329.

boshlab Maxmudxo'ja Behbudiy «Samarqand» gazetasini chop qila boshladi. Keyinchalik bu gazeta «Oyna» jurnaliga aylantirildi. Bundan tashqari, «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona», «Buxoroi sharif», «Turon» kabi gazeta va jurnallar vaqti-vaqti bilan chiqib turdi. Ular mahalliy aholining siyosiy va milliy ongini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etdi. Shulardan «Sadoi Turkiston» gazetasi mamlakatni g'aflat uyqusidan uyg'otish, jaholatdan xalos etish, madaniy-ma'rifiy uyg'onishning boshida turdi deyish mumkin.

Jadidchilik mahalliy aholining milliy va siyosiy ongini yuksaltirishga muhim hissa qo'shgan yagona umumiy g'oya atrofida birlashgan harakat sifatida namoyon bo'ldi. Lekin Chor Rossiyasi ma'muriyatining bu harakatga shubha bilan qarab, uning faoliyatini cheklashga qaratilgan choralar ko'rishi, mutaassib ruhoniylarning, Buxorodagi, jadidlarga qarshi tish-tirnog'i bilan qarshilik ko'rsatishi va bu yo'lda hatto hokimiyatni ham o'z tomoniga og'dirib olishi jadidlarning ko'zlagan maqsadlarini to'la-to'kis amalga oshirishlariga imkon bermadi. Shu bois jadidlarning ilg'or namoyandalari ish uslubini o'zgartirish, jamiyatda muayyan siyosiy islohotlar o'tkazish lozimligini tushunib yetdilar.

Ana shu vaqtdan e'tiboran jadidchilik harakatining siyosiy lashuvi bilan bog'liq bo'lgan **ikkinchi bosqichi** boshlandi. Jadidchilikdagi siyosiy qarashlarning shakllanishiga Munavvarqori Abdurashidxonovning «millatlarning ma'naviy va iqtisodiy taraqqiyotiga ikki tayanch kerak, birinchisi – maktab, ikkinchisi – jamiyatdir»¹, Abdurauf Fitratning «Jamiyat va millatning ravnaqi uchun bir odam ko'p ish qila olmaydi, buning uchun vatanparvarlar ittifoqini tuzish, unga xayrixoh guruhlarni tashkil qilish lozim»ligi haqidagi g'oyalari asos bo'ladi.

Ushbu bosqichda jadidlar mamlakat va millat taraqqiyotini ta'minlashning yo'nalishlarini aniqlash hamda uni ro'yobga chiqarish muammolari bilan shug'ullandilar. Bosqichning asosiy mazmunini quyidagi vazifalar belgiladi:

– hududni mahalliy aholining milliy manfaatlari, diniy e'tiqodlarini hisobga olgan holda boshqarish uchun Turkiston muxtoriyatini tashkil qilish;

– Buxoro amirligi va Xiva xonligi sharoitida xon mutlaq hokimiyatining faoliyatini muayyan tartibga solish uchun kengash (parlament) tuzish hamda davlat tizimida va jamiyatda taraqqiyotni ta'minlaydigan islohotlar o'tkazish;

¹ Сирожиддин Аҳмад. Мунавварқори // Шарқ юлдузи. – 1992. – 3-сон. – Б.105.

– mahalliy millatlarning manfaatlarini ifoda etadigan, himoya qiladigan siyosiy-ijtimoiy partiyalar, birlashmalar, jamiyatlar tuzish va harakatlar tashkil qilish va hokazo.

Bu vazifalarni amalga oshirishga faqat Rossiyada yuz bergan 1917-yilgi fevral inqilobidan keyin imkoniyat tug'ildi.

Jadidlarning Turkiston kelajagini qanday tasavvur qilganligini umumlashgan holda Mahmudxuja Behbudiy qarashlaridan bilish mumkin. Uning fikricha, Rossiya musulmonlari davlatning federatsiya shaklini yoqlab chiqadilar.

Buning uchun Rossiya musulmonlari xususan Turkiston musulmonlari qadimchilar va taraqqiychilar orasidagi qarama-qarshiliklardan, kelishmovchiliklardan voz kechish va jadidlar birlashishi kerak. Musulmonlar ruslar, yahudiylar va boshqalar bilan Turkistonda shunday hukumat va parlament yaratishlari kerakki, unda musulmonlar o'z dinlari shariat va urf-odatlari bo'yicha yashash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Mahalliy aholi mustamlakachilik qonunlari asosida boshqarilayotganligi turli qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi¹.

Shuning uchun yaratiladigan qonunlar Turkistonda istiqomat qiladigan barcha millat vakillarining manfaatlarini ifoda etishi kerak.

Uning ta'sirida jadidlarning tashabbusi bilan «Sho'roi Islomiya», «Sho'roi Ulamo», «Turk adami markiziyat firqasi», «Alash o'rda», «Yosh buxoroliklar», «Yosh xivaliklar» kabi siyosiy tashkilotlar tuzildi. Turkiston tashkilotlarini birlashtirish asosida yagona «Ittifoqi musulimin» siyosiy partiyasini tuzishga qaror qilindi. Bu yangi partiyaning asosiy vazifalaridan biri qilib, Rossiya tarkibida Turkiston federativ respublikasini tuzish belgilandi. Albatta, tuzilgan bu siyosiy tashkilotni faqat jadidlar partiyasi deb atab bo'lmas edi.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar mahalliy aholining o'zligini tanishi, siyosiy ongining o'sishi, siyosiy tashkilotlar atrofida birlashishida muhim o'rin tutdi. Albatta, jadidlar harakati kamchiliklar va xatolardan xoli emas edi. Ularni mahalliy xalqning turmush tarzi, ijtimoiy ong darajasi bilan izohlash mumkin. Jadidlarning o'zlari ham kurashlar jarayonida toblandilar, siyosiy harakat sifatida shakllandilar.

¹ Қаранг. Туркистон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан. – Т., 1996. – Б.16.

XII bob TURKISTONDA SOVET HOKIMIYATINING O'RNATILISHI. ISTIQLOLCHILIK HARAKATI

1-§. Rossiyadagi 1917-yilgi fevral inqilobi va uning Turkistonga ta'siri

Ma'lumki, 1914-yildan beri davom etayotgan Birinchi jahon urushi tufayli Rossiya va Turkistondagi vaziyat tobora murakkablashib, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tanglik kuchaydi. Bu vaziyat turli siyosiy kuchlar tomonidan hokimiyat masalasini kun tartibiga qo'yishga turtki bo'ldi. Pirovard natijada 1917-yil 3 martda podsho Nikolay II taxtdan voz kechganligi haqidagi *manifestga* imzo chekdi. Shu kuni Petrogradga muvaqqat hukumat tashkil qilinganligi e'lon qilindi. Rossiyada burjuademokratik inqilobi g'alaba qozonganligi haqida xabar Toshkentga 5-mart kuni mitingda e'lon qilindi.

7-aprelda muvaqqat hukumatning Turkiston qo'mitasi tuzilganligi va General-gubernatorlik tugatilganligi ma'lum bo'ldi. Aprel oyida bo'lib o'tgan I Turkiston o'lka sovetining syezdi o'lka Sovetini va ijro qo'mitalari o'lka kengashini sayladi. Lekin asosan rusiyzabonlardan tashkil topgan tashkilotlar musulmon mehnatkashlarining manfaatlarini mensimaslik yo'lidan bordi.

1917-yil 14-martda Toshkentda «Sho'roi Islomiya» musulmon mehnatkashlarining birinchi milliy-siyosiy tashkiloti tuzildi. Uning rayosati tarkibiga Munavvarqori, Ubaydulla xo'ja, Toshpo'latbek Norbo'tabekov va boshqa jadid harakatining atoqli vakillari kiritildi. Uning ta'sirida boshqa viloyat va shaharlarda ham milliy-siyosiy tashkilotlar vujudga kela boshladi. Mazkur tashkilotlarda Turkistonning kelajagi, hokimiyat masalalari keng muhokama qilina boshladi. 1917-yil iyun oyida «Shuroi Islomiya» tarkibidan, ko'proq mutaassiblik ruhiyatidagi «Shuroi Islomiya» ajralib chiqdi. Albatta, bu milliy-siyosiy kuchlarning yakdillik bilan harakat qilishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1917-yil may-iyun oylarida 1916-yilda front ortida ishlash uchun mardikorlikka olib ketilgan 100 mingga yaqin turkistonliklar yurtiga qaytib keldi. Rossiyadagi ijtimoiy-siyosiy hayot bilan tanishgan va muayyan tajriba orttirgan turkistonliklar bir qancha shaharlarda musulmon xalqlarining turli o'z uyushmalarini tashkil qilishga kirishdilar. Shuningdek, boshqa siyosiy kuchlar ham faollashdi. Ularni shartli ravishda quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin: jumladan

Rossiyadagi muvaqqat hukumat boshqaruv tizimiga mansub Turkiston ijroiya qo‘mitasi; mahalliy aholining manfaatini ifoda etuvchi «Sho‘roi Islomiya» va shu asosda tashkil topgan turli xil milliy-siyosiy kuchlar hamda rusiyzabon siyosiy kuchlarni o‘z ichiga qamrab olgan o‘lka Soveti.

Ko‘rinib turibdiki, Turkistondagi hokimiyatga da‘vogar siyosiy kuchlar Rossiyadagilariga nisbatan turli-tumanligi bilan farq qiladi. Ammo sanab o‘tilgan siyosiy kuchlarning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari turlicha bo‘lishiga qaramay, ularning har uchasi ham hokimiyatga barobar talabgor edi, desak uncha to‘g‘ri bo‘lmaydi. Buning sababi turlicha. Muvaqqat hukumat amalga oshirgan ba‘zi islohotlar, xususan mahalliy millat vakillarining davlat boshqaruvida qatnashishiga sharoit yaratilishi, Sho‘roi Islomiya tomonidan muvaqqat hukumatni tan olish birinchi sababi bo‘lsa, ikkinchisi – o‘sha davrdagi vaziyat Turkistonning to‘la mustaqil bo‘lishi masalasini qo‘yishga imkon bermas edi, chunki bunday harakat qurollangan rus armiyasi bilan to‘qnashuvga va behisob qon to‘kilishiga olib kelishi mumkin edi.

Faqat Sovetlar tarkibida kamchilikni tashkil qilgan bolsheviklar real vaziyat bilan hisoblashmasdan turli nayranglar ishlatib, o‘z mavqeyini mustahkamlashga va hokimiyatni qo‘lga kiritishga jon-jahdi bilan kirishdilar.

2-§. Turkistonda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi va uning tub aholining manfaatlariga zidligi

Qariyb to‘rt yil (1914-yildan) davom etayotgan Birinchi jahon urushi xalqning tinkasini quritgan edi. Omma orasida shunday ruhiy holat vujudga keldiki, vaziyatni o‘zgartirishga qaratilgan kichik (balki soxta) bir turtki uni boshi berk ko‘chaga tortib ketishi mumkin edi. Ana shu holatdan bolsheviklar ustalik bilan foydalandilar, keyinchalik bajarilmaydigan va‘dalar berib, ommaning e‘tiborini qozonishga harakat qiladilar. Bundan tashqari, qo‘zg‘olon jarayonida ular aholining bir qismiga xos bo‘ladigan buzuq niyatdan foydalandilar. «Ekspropriatorlarni ekspropriatsiya qilish», ya‘ni talonchilarni talash kerak, degan shiorlarni o‘rtaga tashlab, o‘z tarafiga o‘tgan qurolli kuchlar yordamida 1917-yil 25-oktabrda (yangi hisobda 7-noyabr) Petrogradga hokimiyatni qo‘lga olishga erishdilar. Bu Toshkentda qo‘zg‘olon uyushtirishga muhim turtki bo‘ldi. 28-oktabrda Toshkent ishchi va soldat deputatlari sovetining tashabbusi bilan boshlangan va hokimiyatni qo‘lga olishga qaratilgan harakatlar I Sibir polki tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Natijada 1-noyabr kuni qo‘zg‘olon g‘alaba qozonganligi e‘lon qilindi.

1917-yil 2-noyabr kuni, Toshkentda o‘lka demokratik kuchlarining birlashgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda hokimiyat masalasi muhokama qilinib, syezd chaqirilgunga qadar mamlakatni boshqarib turuvchi Turkistonning Muvaqqat O‘lka Ijroya Komiteti tuzildi. U 9 kishidan iborat edi, jumladan: O‘lka Sovetidan – 3 kishi, dehqonlar o‘lka Sovetidan – 2, qirg‘iz deputatlar Sovetidan – 1, O‘lka Musulmonlar Sovetidan – 1, eserlar partiyasi O‘lka komitetidan – 1, sotsial-demokratlar partiyasi markaziy byurosidan – 1 kishi. Komitet 15-noyabrda o‘lkadagi barcha demokratik tashkilotlarning syezdini chaqirish va o‘sha yerda hokimiyat masalasini hal qilishni mo‘ljalladi.

Lekin siyosiy kuchlarning bunday nisbati birinchi navbatda bolsheviklarni qoniqtirmas edi. Demokratik yo‘l bilan o‘z maqsadlariga erisha olmagan bolsheviklar yuzaga kelgan vaziyatdan foydalanib, tazyiq o‘tkazish yo‘lini tanladilar. Bolsheviklar ta‘sirida bo‘lgan Toshkent ishchi va soldat deputatlari soveti O‘lka sovetidan sovetlarning III syezdini chaqirib, o‘sha yerda hokimiyat masalasini ko‘rib chiqishni talab qildi va bunga erishdi. Chunki bu masala barcha demokratik kuchlarning qurollanishida muhokama qilinsa, bolsheviklar o‘z maqsadlariga erisha olmasliklari aniq edi.

Shunday qilib, Toshkent ishchi va soldatlar deputatlari soveti tazyiqi ostida 15-22-noyabrda o‘tgan III O‘lka sovetlar syezdida bolsheviklar so‘l eserlar va menshevik maksimalistlar bilan birgalikda o‘z hokimiyatini tuzishga erishdilar. Bolshevik F.I.Kolesov Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining raisi lavozimiga tayinlandi. Hukumat tarkibi 15 kishidan, jumladan, bolsheviklar – 5 kishi, «so‘l» eserlar – 8 kishi, maksimalistlar – 2 kishidan iborat edi. Afsuski, Turkiston aholisining 95 foizini tashkil qiladigan bironta ham mahalliy millat vakillari hukumat tarkibiga kiritilmadi¹. Bu voqeyani Turkistondagi bolsheviklarning rahbarlaridan biri I.O.Tabolin III syezdda quyidagicha izohladi: «Bugungi kunda musulmonlarni² o‘lka oliy inqilobiy hokimiyatning tarkibiga kiritish maqsadga muvofiq emas, chunki mahalliy aholining ishchi, soldat, dehqon deputatlari sovetining hokimiyatiga munosabati o‘ta mavhum, bundan tashqari mahalliy aholi orasida sinfiy proletar tashkilotlar yo‘q»³. Bu bayonot buyuk davlatchilik, mustamlakachilik siyosatidan bo‘lak narsa emas edi.

¹ Qarang: *Иноятов И. III. Октябрьская революция в Узбекистане.* – М., 1958. – С.138.

² Ўша даврда маҳаллий аҳоли шундай аталар, musulmon миллати ибораси ҳам ишлатилар эди.

³ Материалы и документы I съезда Компартии Туркестана. – Т., 1934. – С.18.

Aslida, mahalliy aholining sovetlarga boʻlgan munosabatini mavhum yoki noaniq deyish aslo mumkin emas edi, chunki 1917-yil 7-11-sentabrda boʻlib oʻtgan oʻlka musulmonlar Shoʻrosining II-syezdi soldat, ishchi va dehqon deputatlari Sovetlarga hokimiyatni berishga qarshi chiqqan, hokimiyat koalitsion, yaʼni turli siyosiy kuchlarning vakillaridan iborat boʻlishi kerakligi toʻgʻrisida qaror qabul qilgan edi. Shuningdek, mahalliy aholi orasida sinfiy proletar tashkiloti yoʻqligi toʻgʻrisidagi fikr ham oʻta asossizdir. 1917-yilda Turkistonda 60 mingdan ortiq ishchi boʻlgan, shundan taxminan 70% mahalliy millatlardan boʻlgan¹. Musulmon mehnatkashlarining tashkilotlari ham boʻlgan, jumladan: musulmon ishchilari soveti, «Ittifoq» musulmon ishchilari kasaba-uyushmasi va boshqalar.

Oʻlka Sovetining III syezdida qatnashgan Sherali Lapin boshchiligidagi Shoʻroi Ulamo vakillari hukumat aʼzolarining 50% ni mahalliy millat vakillaridan tayinlash lozimligi haqidagi taklif bilan chiqdilar. Ammo bolsheviklar, soʻl eserlar bilan kelishib, syezdda koʻpchilik ovoz bilan bu taklifni oʻtkazmadilar. Shuning uchun Shoʻroi Ulamo vakillari syezdni tark etdilar.

Demak, Turkistondagi birinchi hukumat tarkibiga bolsheviklarning mahalliy millat vakillarini kiritmasligini asosan hokimiyatni qoʻlga olgan rusiyzabon kuchlarning oldindan oʻylab amalga oshirgan siyosati deb tan olish uchun asos bor. Bu siyosat mahalliy aholini kamsitish, uning huquq va qonuniy manfaatlarini poymol qilishga qaratilgan edi.

Shunday qilib, bolsheviklarning Turkistonda oʻz hokimiyatini majburlab oʻrnatganligi quyidagilar bilan asoslanadi:

- hokimiyatni qoʻlga olishda qurollangan ishchi va soldatlar jalb qilinib, qon toʻkilganligi;
- jamiyatdagi mavjud siyosiy kuchlar nisbati bilan hisoblashmasdan hokimiyatni yakka oʻzlari egallab olishi;
- aholining asosiy qismini tashkil qiluvchi mahalliy millatlarning hokimiyatga boʻlgan intilishlariga mensimaslik bilan qarashlari;
- demokratik prinsiplarning inkor etilishi;
- amalda chor Rossiyasidan meros boʻlib qolgan mustamlakachilik siyosatining davom ettirilishi.

3-§. Turkiston muxtoriyatining vujudga kelishi va uning tarixiy ahamiyati

Bolsheviklarning tub joy aholining manfaatlariga mensimaslik bilan qarashlari va shu munosabat bilan ularni hokimiyatdan chetlatishidan norozi boʻlgan mahalliy siyosiy kuchlar vakillari Qoʻqon shahriga koʻchib oʻtdilar. Shu yerda ular mahalliy aholining, shuningdek oʻlkadagi kam sonli millatlarning manfaatlarini ifoda etadigan hokimiyatni tashkil qilishga kirishdilar. Bunga huquqiy asoslar bor edimi, degan savol tugʻiladi.

Turkiston muxtoriyatini tuzish toʻgʻrisidagi gʻoya bolsheviklar tashviqot qilib kelayotgan millatlarning oʻz taqdirini oʻzi belgilashi haqidagi xalqaro huquq normalariga xilof emas edi. Undan tashqari, V.I.Lenin imzo chekkan «Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga» deb nomlangan murojaatnomada bayon qilingan fikrlar muxtoriyatning tuzilishiga qoʻshimcha asos boʻldi. Unda shunday jumalarni oʻqish mumkin: «Bundan buyon sizning urf-odatlarigiz, milliy va madaniy muassasalarigiz ozod va daxlsiz deb eʼlon qilinadi. Oʻz milliy hayotlarigizni erkin va bemaolol uyushtiravering, sizning bunga haqingiz bor. Siz oʻzingiz oʻz vataningizning hokimlari boʻlishingiz lozim. Oʻz rasm-rusumingizga binoan hayotingizni uyushtirishingiz lozim. Sizning bunga haqqingiz bor, chunki sizlarning taqdiringiz oʻz qoʻlingizda¹. Murojaatnomada sotsializm qurilishi, tuziladigan hokimiyatning shakli toʻgʻrisida bir ogʻiz ham soʻz aytilmagan.

Bu hujjat ham muxtoriyatchilarni ruxlantirgan, yorqin kelajakka ishontirgan boʻlsa ajab emas. 1917 yil 26-29 noyabrda boʻlib oʻtgan Turkiston oʻlkasi umummusulmonlar IV qurultoyi Turkiston muxtoriyatining muvaqqat hukumatini qonuniy ravishda tuzgan, Turkiston muxtoriyatining muvaqqat hukumatiga quyidagilar saylandilar:

1. Muxammadjon Tinishboyev – bosh vazir, temir yoʻl muhandisi.
2. Islom Sulton Shoaxmedov – bosh vazir oʻrinbosari, huquqshunos.
3. Mustafo Choʻkayev – tashqi ishlar vaziri (keyinchalik bosh vazir), huquqshunos.
4. Ubaydulla Xoʻjayev – harbiy vazir, huquqshunos.
5. Xidoyatbek Yurguli Agayev – yer va suv boylklari vaziri, agronom.
6. Obidjon Maxmudov – oziq-ovqat vaziri, jamoat arbobi.
7. Abduraxmon Oʻrazayev – ichki ishlar vaziri oʻrinbosari, huquqshunos.

¹ Ўша манба. – С.28.

¹ Материалы и документы I съезда Компартии Туркестана. – Т., 1934. – С.56.

8. Salamon Abramovich Gersfeld – moliya vaziri, huquqshunos.

To‘rt lavozim yevropaliklar uchun ajratildi. Shu munosabat bilan, Muxtoriyatning nechog‘lik adolatli harakat qilinganligini namoyish qilish uchun qurultoy qaroridan kichkina lavha keltiramiz: «Turkistonda istiqomat qiluvchi barcha millatlarning buyuk Rusiya inqilobi tantanali e‘lon qilgan o‘z taqdirini o‘zi belgilash qoidasiga munosabatini ifoda etib, Turkistonni Rossiya Federativ Respublikasining tarkibidagi hududiy muxtoriyat shaklida tashkil etishni Turkiston Ta‘sis Majlisiga taqdim etadi»¹. Shuningdek, qurultoy «Turkistonda istiqomat qiladigan kam sonli millatlarining huquqlarining har tomonlama himoya qilinishini tantanali ravishda ta‘kidlaydi»². Keltirilgan lavhadan ko‘rinib turibdiki, Turkistondagi biron-bir millatning manfaatlarini inkor etilgan emas. Hokimiyatni shakllantirishda ham ana shu demokratik qoidalar nazarda tutilgan.

Qurultoy qatnashchilari olijanoblik ko‘rsatib, demokratik yo‘ldan borganligiga bir necha dalil keltiramiz:

1) qurultoyda Turkistonning barcha viloyatlaridan kelgan vakillardan tashqari bir qancha jamoat uyushmalaridan, jumladan, Sho‘roi Islomiya, Ulamo jamiyati, musulmon tog‘ ishchilari, musulmon askarlar, O‘lka yahudiylari, Buxoro yahudiylari va boshqa tashkilotlarning vakillari ham ishtirok etdilar;

2) o‘lkaning oliy organi bo‘lmish Muvaqqat majlisga 54 nafar deputat saylangan, xususan «ovrupolik» tashkilotlarning vakillariga saylov natijalaridan qat‘i nazar 18 ta joy ajratildi;

3) Muxtoriyat sovetlarning IV o‘lka syezdiga 1918-yil 20-martda Ta‘sis majlisini o‘tkazish to‘g‘risidagi taklif bilan murojaat qildi. Unga vakillarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri, teng asosda, yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylashni va joylarning 1/3 qismini musulmon bo‘lmagan aholiga ajratib qo‘yishni taklif qildi;

4) qurultoy tasdiqlagan hujjatlarda Turkiston muxtoriyatining Rossiya Federativ Respublikasi tarkibida bo‘lishi, kamchilikni tashkil qilgan millatlar huquqining muhofaza qilinishi ta‘kidlangan;

5) Muxtoriyat hujjatlarida Rossiya qonunlari va shariat normalari hurmat qilinishi belgilangan;

6) Muxtoriyatning vakillari Rossiya federatsiyasining oliy organlarida va aksincha uning vakillari Turkiston muxtoriyatining oliy organlarida

¹ Туркестанские ведомости. – 1917. – 18-21 нояб.

² Улуғ Туркистон. – 1917. – 8 дек.

bo‘lishi nazarda tutilgan, yana bir qancha demokratiyani tatbiq qilish choralari belgilangan edi¹.

Muxtoriyatning vujudga kelishi bolsheviklarning mahalliy millatlarni mensimaslikka asoslangan mustamlakachilik siyosatiga muayyan javob bo‘ldi.

Muxtoriyatning tarixiy ahamiyati shundaki 52 yil davomida quvg‘inga uchragan Turkistondagi o‘zbek davlatchiligining qayta tiklanishi sifatida dunyoga keldi. Muxtoriyat o‘zining mohiyati bilan nafaqat mahalliy millatlarining manfaatini ifoda etadigan, balki haqiqiy demokratik davlat namunasi edi.

4-§. Turkiston muxtoriyatining sovet hokimiyati tomonidan tugatilishi va uning sabablari

Sovet hukumati buyuk davlatchilik shovinizmi yo‘lidan borib o‘z siyosatini mahalliy aholi manfaatiga moslash o‘rniga Turkiston muxtoriyatini yo‘qotish uchun barcha chora-tadbirlarni ko‘rdi. Uni burjuaziya, aksilinqilobiy, mehnatkashlarni ekspluatatsiya qilishga qaratilgan hokimiyat deb e‘lon qildi.

1917-yil 30-yanvarda (eski hisob bo‘yicha) Qo‘qonga qurollangan qizil armiya o‘tratlari jo‘natildi. Qo‘qon militsiyasining boshlig‘i Ergash o‘z askarlari bilan shaharni tashlab chiqib ketganiga qaramay, sovetlar barcha mavjud qurollar va zambaraklardan tinch aholi ustiga o‘q yog‘dirdilar. Taxminan bir oy davom etgan qirg‘in barotdan keyin «Muxtoriyat»ning yo‘qotilganligi haqida Toshkentga bildirgi jo‘natildi.

Bolsheviklar partiyasining Turkistondagi rahbarlaridan biri bo‘lgan D.I.Manjara muxtoriyatning tugatilishini shunday eslaydi: «Milliy siyosatda yo‘l qo‘ygan xatolarimiz tufayli Qo‘qon muxtoriyati vujudga keldi ... Uni yo‘qotish paytida yana bir xatoga yo‘l qo‘ydik. Qurol-yarog‘i bo‘lmagan muhtoriyatchilar joylashgan eski shaharni qamal qilish o‘rniga, biz to‘plardan o‘qqa tutdik, keyin dashnoqlarning qurolli to‘dalarini ishga soldik. Natijada talon-taroj, nomusga tegish, qirg‘in boshlandi. Bundan muxtoriyatchilarga aloqasi bo‘lmagan tinch aholi katta zarar ko‘rdi»².

Bolsheviklar nima uchun milliy muxtoriyat tuzilishiga qarshi bo‘ldilar va uni qon to‘kish yo‘li bilan tugatdilar?

¹ Хасанов М.К. “Кокандская автономия” и некоторые ее уроки // Октябрьская революция в Средней Азии и Казахстане: теория, проблемы, перспективные изучения. – Т., 1991. – С.159.

² Qarang: Каримов III. Қафасдаги куш орзуси. – Т., 1991. – Б. 54.

Buning birinchi sababini Turkiston bolsheviklarining o'sha davrdagi rahbari Tabolinning so'zlaridan bilish mumkin. U shunday deb yozgan edi: «Bugungi kunda muxtoriyatni darhol amalga oshirish to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas, chunki muxtoriyatning birinchi sharti o'lkadan ruslar qo'shinini olib chiqib ketish bo'lar edi. Agar biz muxtoriyat g'oyasidan kelib chiqayotgan asosiy g'oyani amalga oshirsak, inqilobga orqa tomondan zarba bergan bo'lar edik»¹.

Bu dunyoqarash bolsheviklarga xos xato emas, balki musulmon muxtoriyatiga nisbatan bunday tajovuzning sababini bolsheviklarning, V.I.Leninning ko'rsatmalaridan izlash mumkin. Fikrimizning dalili sifatida uning boshchiligida bo'lib o'tgan RSDRP(b)ning 1917-yil aprel konferensiyasi qaroridan ko'chirma keltiramiz: «U yoki bu millatning, u yoki bu sharoitda ixtiyoriy ravishda o'z mustaqilligiga erishish masalasini uning maqsadga muvofiqlik masalasi bilan chalkashtirish mumkin emas. Mustaqillikning maqsadga muvofiqligi masalasini yo'qsillar partiyasi har bir muayyan holatda bir-biriga bog'lamasdan alohida, umumiy taraqqiyot nuqtai nazaridan va yo'qsillarning sotsializm uchun qaratilgan kurashidan kelib chiqib hal qilish lozim»². Mazkur ko'chirma bir necha savollar tug'dirishi mumkin.

Turkiston IV O'lka sovetlarining syezdida bolsheviklar taklifi bilan qabul qilingan qarorda, jumladan, shunday deyilgan: «Turkiston muxtoriyati masalasi rus revolutsiyasi ko'tarib chiqqan milliy masala bilan bog'liq va uni faqat shu inqilobiy nuqtai nazardan ko'rish mumkin.

Biz xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipini asosan sotsializmga bo'ysundiramiz va bu yo'lda Qo'qon muxtoriyati kabi to'siqlar revolutsiya bilan yo'q qilib tashlanadi»³.

Turkiston muxtoriyati tugatilishining asosiy sabablarini bolsheviklarning milliy siyosatga bo'lgan munosabatidan izlash kerak. Yuqorida keltirilgan dalillarga asoslanganda, bolsheviklarning Rossiya tarkibida yashagan xalqlarga haqiqiy milliy mustaqillik berishni hech qachon istamaganligi ma'lum bo'ladi. Xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipi bolsheviklarning muayyan niyatlarini amalga oshirishlarida mahalliy xalqlarni chalg'itadigan shior vazifasini bajargan, xolos.

¹ Материалы и документы I съезда Компартии Туркестана. – Т., 1934. – С.19.

² КПСС в резолюциях... Т.1. – М., 1983. – С.503.

³ Материалы и документы I съезда Компартии Туркестана. – Т., 1934. – С.19.

5-§. Buxoro va Xivada sovetlar hokimiyatining o'rnatilishi va uning oqibatlari

Oktabr qurolli to'ntarishi ilgarigi Rossiyaning vassallari bo'lgan Buxoro amirligi va Xiva xonligiga ta'sir etmay qolmas edi. Bolsheviklar hukumati Buxoro va Xivaning mustaqilligi rasman tan olinishiga qaramay, doimo bu hududlarni o'z tasarrufiga olish niyatida bo'lganligini juda ko'p dalillar bilan isbotlash mumkin. Boz ustiga, bu ikki mamlakatda vaziyat shundoq ham murakkab edi. Bunday holatning yuzaga kelishiga, bir tomondan, xonliklar ma'muriyati bilan oliy darajadagi mutaassib ruhoniylar, ikkinchi tomondan, taraqqiyparvarlar islohotchi jadidlar (yosh buxoroliklar va yosh xivaliklar) orasidagi qarama-qarshiliklar sababchi edi. To'ntarishdan keyin Rossiyada vujudga kelgan yangi vaziyat Buxoro va Xivada asosli ravishda bu davlatga nisbatan ishonchsizlik kayfiyatini uyg'otdi. Shu bois bu davlatlarda aholi turmush darajasining pasayishi evaziga bo'lsa-da, o'z mudofaa qobiliyatini kuchaytirishga, sovetlar bilan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan urushga tayyorgarlik ko'rishga harakat boshlandi. Bunga asoslar ham yetarli edi. 1918-yil fevral oyining oxirlarida F.Kolesov (Turkiston sovet hukumatining raisi) boshliq harbiy otrad Buxoroga yetib kelib yosh buxoroliklarning vakillarini hokimiyat tarkibiga kiritishni Amir Olimxondan talab qiladi. Bu talab qabul qilinmaganidan so'ng Kolesov 2-martda amirlikka qarshi harbiy harakatlarni boshlaydi. Lekin bu tadbir mag'lubiyat bilan yakunlanadi.

Ko'p o'tmay, bolsheviklar mustabid Junayidxon hokimiyatini tugatish uchun Xivaga harbiy yurish tashkil qildilar. Maqsad – bu yerda sovet hokimiyatini o'rnatish bo'lgan. 1920-yil 1 fevralda qattiq janglardan so'ng Xiva shahri qizil Armiya qo'liga o'tdi. 26-aprelda xalq vakillari umumxorazm I-qurultoyida Xorazm xalq Sovet Respublikasi tashkil bo'lgani e'lon qilindi.

Bolsheviklar 1920-yil 29-avgustda Chorjo'yda Buxoro kommunistlarining hokimiyatga qarshi chiqishini tashkil qildilar. Bu amirlikka qarshi qurolli harakatlarning boshlanishiga turtki bo'ldi. Qaqshatg'ich to'qnashuvdan keyin 2-sentabrda Turkistonning M.Frunze boshchiligidagi harbiy kuchlari Buxoroni egalladi. Amir Buxoroni tashlab ketdi. 6-8-oktabrda o'tgan umumbuxoro xalq vakillarining I-qurultoyi Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tashkil qilinganligini e'lon qildi. F. Xo'jayev BXSР Xalq Nozirlar Kengashining raisi etib tayinlandi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Buxoro va Xivada sovetlar hokimiyati tub joy aholining xohish-irodasi emas, balki Rossiya qurolli kuchlarining sa'y- harakati bilan o'rnatildi.

Buni o'z vaqtida F.Xo'jayev ham tan olgan. Uning guvohlik berishicha, Buxorodagi «burjuaziya» revolyutsiyasi tashqi dunyodan ajralgan holda emas, balki Rossiyadagi proletar revolyutsiyasining ulkan va faol yordamida sodir bo'ldi. Bu revolyutsiyaga kommunistik internatsional, Buxoro kompartiyasi, aniqrog'i Rossiya proletariati (yo'qsillari) rahbarlik qildi va amalga oshirdi¹.

Shunday qilib, Turkiston, Buxoro va Xivada ham sovet hokimiyati majburlab o'rnatildi.

Buxoro «inqilobi»ning qanchalik kulfatlar keltirganligi hakida Islom Karimov shunday deydi: «Inqilob bahonasida bu sharofatli shahar obidalari yanada bir bor vayrona etildi. Xalq va uning moddiy- ma'naviy merosiga ko'rsatilgan bunday munosabat sobiq sho'rolar tuzumining qanchalik g'ayri insoniy va adolatsiz ekanini ko'rsatadi².

1920-yilda bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan harakatlar Buxoro amirligi va Xiva xonligini yo'q qilishga qaratilgan rejaning birinchi bosqichi edi. 1924-yilda Rossiya hukumati milliy davlat chegaralanishini o'tkazish bahonasida, turli nayranglar, siyosiy, iqtisodiy, harbiy bosimlar bilan ikki mustaqil davlatni yo'q qilib tashladi, chunki Rossiyaning yonginasida mustaqil davlatlarning bo'lishi butun dunyoda sovetlar tuzumini o'rnatishdek balandparvoz g'oyalarga mos kelmas edi. Bu xalqlarning o'z taqdirini belgilash huquqi to'g'risidagi xalqaro huquq normalariga umuman zid edi.

6-§. Turkistonda milliy ozodlik harakatining boshlanish sabablari va rivojlanish bosqichlari

Turkistonda sovetlar hokimiyatining majburlab o'rnatilishi, Turkiston muxtoriyatini qurolli kuchlarni ishlatib xunrezlik bilan tugatilishi, bolsheviklarning mahalliy millatlarga, ularning milliy manfaatlariga, qadriyatlariga mensimaslik bilan yondashishi sovetlar siyosatiga qarshi milliy-ozodlik harakatining avj olishiga olib keldi.

Istiqlolchilik harakati kelib chiqishining nazariy asoslari bolsheviklarning jamiyatni o'zgartirish, ya'ni sotsializm tuzumini qaror toptirish usuliga munosabati bilan bog'liq. Bu munosabat quyidagilarda namoyon bo'ladi.

*Birinchi*dan, bolsheviklar o'zlarining jamiyatni o'zgartirish harakatlariga V.I.Leninning sotsialistik inqilob nazariyasini, ya'ni mavjud tuzumni

¹Qarang: *Ходжаев Ф.* Избранные труды. Т.1. – Т., 1970. – С.222.

² *Каримов И.А.* Хавфсизлик ва барқарор таракқиёт йўлида. Т. 6. – Т., 1998. – Б.327.

majburlab, qurolli kuch ishlatib o'zgartirish usulini asos qilib oldilar. Insonning ming yillar davomida shakllangan turmush tarzini majburlab o'zgartirish qarshilikka uchrashi tabiiy edi.

*Ikkinchi*dan, xususiy mulkka ekspluatatsiya manbai sifatida qarab, uni majburan davlat tasarrufiga olish jamiyatda eng katta qarshilikka sabab bo'ldi; chunki mulk inson o'z joni, oilasi, e'tiqodi qatorida e'zozlaydigan eng yuksak ne'matlardandir. Bolsheviklar esa uni qonunga xilof ravishda tortib oldilar. Turkiston Xalq Komissarlari Kengashining raisi F.Kolesovning hech qanday qonunga asoslanmagan 1918-yil 28-fevral farmoyishiga binoan, kimda va qancha bo'lishidan qat'i nazar, aholida bor paxtaning hammasi davlat hisobiga tortib olindi. Undan tashqari, 274 xususiy paxta tozalash zavodlari ham davlat tasarrufiga o'tkazildi¹.

*Uchinchi*dan, sovetlarga qarshilikning kuchayishiga olib kelgan yana bir sabab – bolsheviklarning ijtimoiy hayotga sinfiylik nuqtai nazaridan yondashishidir. Ularning fikricha, kommunistik jamiyatga o'tish uchun davlatni faqat ishchilar diktaturasi boshqarishi mumkin; o'zga sinflar va tabaqalar, jumladan dehqonlar esa yo ishchilar (kommunistik) mafkurasini qabul qilishlari, yo sinf sifatida yo'q qilinishlari lozim, chunki bolsheviklar dehqonlar mulkdor bo'lganliklari sababli, har soatda kapitalizmni vujudga keltiradi degan fikrni bildirgan.

*To'rtinchi*dan, Turkistondagi fojiali jarayonlarni bolsheviklarning milliy-ozodlik harakatiga bo'lgan munosabati bilan izohlash mumkin. Milliy-ozodlik harakatiga kommunistlarning munosabatini V.I.Lenin Kominternning II kongressida (1920-y.) o'zining «Milliy va mustamlaka masalalari bo'yicha dokladi»da quyidagicha ifodalagan: «Hech bir shak-shubha yo'qki, har qanday milliy harakat faqat burjua-demokratik harakat bo'lishi mumkin, chunki qoloq mamlakatlardagi aholining asosiy ommasi burjua-kapitalistik munosabatlarning namoyandalari bo'lgan dehqonlardir². Bu mantiqqa amal qilinsa, – milliy ozodlik harakatini qurol kuchi bilan yo'q qilish kerak (Turkistonda milliy masalani hal qilish jarayonida shunday usul qo'llanilgan).

Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Buyuk davlatlarning sivilizatsiyadorlik harakati, mumtozlik va atrofdagilarga mensimay qarashdan iborat halokatli ruhiyatni vujudga keltirib va mustahkamlabgina qolmadi, balki zo'rlik bilan joriy qilingani, milliy nafsoniyat va iftixorini kamsitgani, milliy madaniyatlar va ma'naviy qadriyatlarni toptagani,

¹ Qarang: *Семенов В.* Голод в Туркестане в 1917-1920 годах // Человек и политика. – 1991. – №12. – С.73.

² Ўша манба. – Б.271.

ularning ifodachilarini jismonan yo‘q qilib tashlagani uchun bunday harakat tegishli qarshilikka uchrar edi»¹.

Turkiston xalqlarining o‘z ozodligi uchun kurashi bir necha bosqichdan iborat bo‘lib, deyarli XX asr 30-yillarining o‘rtalarigacha davom etdi. Eng ommaviy birinchi davri 1918-1924-yillarga to‘g‘ri keladi.

Aynan shu davrda harakat katta g‘alabalar va muvaffaqiyatlarga erishib deyarli butun Farg‘ona vodiysini qamrab oldi.

Milliy ozodlik harakatining ikkinchi bosqichi 1925-1935-yillarga tegishli. Bu davrda juda katta harbiy kuchlar va iqtisodiy imkoniyatga ega bo‘lgan sovet hokimiyati istiqlochlilik harakati qurollangan o‘tratlarni tamoman tugatishga erishdi. Bundan tashqari, Milliy ozodlik harakatining so‘nishi birinchi navbatda, bolsheviklarning riyokorona siyosati bilan bog‘liq. Ular milliy-ozodlik harakatiga qarshi nafaqat qurolli kuch bilan kurashdilar, balki mahalliy aholini aldash, uni chalg‘itish yo‘lidan ham bordilar.

Bunga misol qilib, 1921-1922-yillarda bolsheviklarning mahalliy aholiga yon berish siyosatini keltirish mumkin. «Bosmachilik» harakatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qurol kuchi bilan yengib bo‘lmasligiga ko‘zlari yetganidan keyin bolsheviklar o‘z siyosatlarini o‘zgartirdilar. Jumladan, ular vaqf mulkining qaytarilishiga, eski maktablar ochilishiga, shariat normalarini, qozilik sudlovining tiklanishiga rozilik bildirdilar, o‘z ixtiyori bilan taslim bo‘lgan bosmachilarni afv etishni va‘da qildilar². Lekin bu tadbirlar vaqtinchalik bo‘lib, bolsheviklar o‘z mavqeyini mustahkamlab olganidan so‘ng bu milliy an‘analarni tag-tomiri bilan qo‘porib tashladilar.

Lekin 20-30-yillarda millatning ozodligi uchun berilgan qurbonlar zoye ketmadi. Tarix, Prezident Islom Karimovning so‘zlari bilan aytganda, shovinizm- pirovardida davlatning o‘ziga zarba berishini, uning poydevorini kuchsizlantirishini, ichki ziddiyatlarini kuchaytirishini va uning Sovet imperiyasi kabi parchalanib ketishini 1991-yilga kelib isbotladi.

7-§. Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi kurashning harakatga keltiruvchi kuchlari va ko‘lami

Turkistonda sovetlar hokimiyatining majburlab o‘rnatilishi va Turkiston muxtoriyati qurolli kuchlarni ishlatib xunrezlik yo‘li bilan yo‘q qilinishi hududda yangi hokimiyatga ommaviy qarshilik harakatining avj

¹ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т., 1998. – Б. 68.

² Исоқов И. Қирғинни ким қилган-у, қолган ким эди? // Шарқ юлдузи. – 1992. – №5. – Б. 160.

olishiga turtki bo‘ldi. Qarshilik harakatining tarkibiy qismlarini o‘z ozodligi, juda bo‘lmaganda milliy manfaatlarining yangi hokimiyat tomonidan tan olinishi uchun kurash olib borayotgan istiqlochlilik harakatiga qo‘shilgan keng xalq ommasi; Rossiya ma‘muriyatining hokimiyatdan majburlab chetlatilgan va o‘z mavqeyini qayta tiklashga harakat qilayotgan vakillari; yangi hokimiyatda yetakchi o‘rinni egallash uchun intilayotgan menshevik, eser va boshqa rusiyabon siyosiy kuchlar hamda ularning xayrixohlari tashkil qildi. Istiqlochlilar harakatiga qo‘lida qurol bilan sovetlarga qarshi kurashganlardan tashqari, maxfiy tashkilotlarning faoliyatida ishtirok etganlarni va kommunistik partiyaga kirib, sovet tashkilotlarida turib, o‘z millatdoshlarining manfaatini himoya qilganlarni ham kiritish lozim. Milliy ozodlik harakatining qanchalik avj olganligi, uning saflarida aholining qancha qismi ishtirok etganligi, qanchasi unga xayrixoh bo‘lganligi haqida aniq ma‘lumotlar keltirish qiyin. Lekin milliy ozodlik harakatiga barham berish uchun sovet davlati tomonidan maxsus Farg‘ona, Yettisuv, Kaspiyorti frontlari tuzilganini inobatga olganda, bu harakatning qanchalik keng tarqalganligi haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Bundan tashqari, ba‘zi ma‘lumotlarga qaraganda, faqat Farg‘ona vodiysidagi Madaminbekning qo‘shinida – 30 ming, Shermuhammadbekda – 20 ming, Ergash qo‘rboshida – 8 ming atrofida jangchi bo‘lgan¹.

Istiqlochlilik harakati sovet davrida tushuntirish va tashviqot qilinganidek uyushmagan, siyosiy maqsadlarni o‘z oldiga qo‘ymagan «bosmachilik» harakati emas. Istiqlochlilik harakati o‘z oldiga aniq siyosiy maqsadlarni, ya‘ni Turkiston mustaqilligiga erishish, juda bo‘lmaganda muxtoriyat tuzishni (Madaminbek g‘oyasi) maqsad qilib qo‘ygan. Harakat o‘z rahbarlariga(katta Ergash, kichik Ergash, Shermuxammadbek) ega bo‘lgan. Ularning o‘z dunyoqarashi, ba‘zida bir-biriga mos kelmagan bo‘lsada, maqsadlari bor bo‘lgan. Shuningdek mafkuraviy rahnamolari (Jadidlar, musulmon tashkilotlari), tashkiliy tuzilmalari (Qurultoylar), doimiy harakatdagi qo‘shinlari (150 dan ortiq o‘tratlari), hatto o‘z hukumati (Muvaqqat Farg‘ona muxtoriyati) ham bo‘lganligi hujjatlardan ma‘lum.

Milliy-ozodlik harakati tarafdorlari sovet hokimiyati bilan murosaga bormasdan, qat‘iyatlik bilan to‘la mustaqillik uchun kurashgan, shuning uchun bolsheviklar ularga qarshi keskin choralar ko‘rgan deyish haqiqatga mos kelmaydi. Milliy ozodlik harakatining bir qancha ma‘rifatli rahbarlari sovet hokimiyati bilan kelishishga intildilar. Jumladan, Madaminbek yarash

¹ Qarang: Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Иккинчи китоб. – Т., 200. – Б. 99-100.

bitimiga imzo chekayotib, sovet hokimiyatini tan oladi, quyidagi shartlar bajarilganda, uning barcha buyruq va topshiriqlarini bajarishga soʻz beradi:

1) shoʻro hukumati Turkiston fuqarolari hayotini yoʻlga qoʻyishda shariat asoslarini saqlab qolib, xalqlarining manfaatlarini himoya etib, ahli islomga mavjud shariat, yaʼni musulmonlarning mahalliy shart-sharoiti va urf-odatlariga huquq berilishi;

2) otradining doimiy qarorgohi Namangan shahri etib tayinlanishi;

3) boshqa frontlarga chiqmasdan, vaqtincha Fargʻona tasarrufida, shoʻro hokimiyatini har tomonlama ham ichki, ham tashqi dushmanlardan himoya qilishga vaʼda beradi:

4) otradida xizmat qilayotgan barcha kuchlar toʻla ozod etilishi va xohishlariga binoan otradida qolishlari mumkinligi.

Bitim matnida Madaminbek shartida hatto avtonomiya haqida ham soʻz yoʻq. Shunga qaramay, bolsheviklarning maxfiy tadbirlari natijasida Madaminbek oʻz dushmanlari tomonidan oʻldirib yuboriladi.

Bolsheviklarning zoʻravonlik, mahalliy aholini kamsitish siyosatini 1920-yilda bosmachilik harakati avj olgan, Turkistonda siyosiy inqiroz davom etayotgan davrdagi ahvol RKP(b)ning siyosiy byurosida koʻriladi va shu masala boʻyicha maxsus qaror qabul qilinadi. Ana shu qarorda RKP Markaziy Komiteti Turkistondagi RKPning asosiy vazifasi Rossiya samoderjaviyasining ellik yildan ortiqroq imperialistik siyosati natijasida kelgindi, yevropalik aholi bilan tub joy aholi oʻrtasida vujudga kelgan keskin munosabatlarni tugatish haqida bayon qilinadi.

Milliy ozodlik harakatining rivojlanishiga, birinchi navbatda 1917-1929-yillarda faoliyat koʻrsatgan bir qancha maxfiy tashkilotlar oʻz hissalarini qoʻshdilar. 1917-yil avgustda Toshkentda turk fuqarolari tomonidan «Ittixodi taraqqiy «tashkiloti tuzildi. 1919-yilda uning tarkibiga atoqli namoyondalardan Maxmudxoʻja Behbudiy, Ubaydullaxoʻja Asadullaxoʻjayev, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqalar kirdilar. Tashkilot sovetlar hokimiyatining faoliyati uzoqqa choʻzilmasligiga umid qilib, unga qarshi kurashga chaqirdilar. Ammo sovetlarning mavqeyi mustahkamlanib borishi kurash usulini oʻzgartirishga olib keldi. Oʻsha yili Munavvarqori tashabbusi bilan tuzilgan «Birlik» jamiyati oʻz aʼzolariga kompartiyaga kirishga, partiya va sovet tashkilotlarida rahbarlik lavozimlarni egallashga va oʻsha yerda turib milliy manfaatlarini himoya qilishga chaqirdi. Natijada, M.Abdurashidxonov, N.Xoʻjayev Turkiston kompartiyasi Musbyurosiga aʼzo boʻldilar. 1921-yilda Zaki Validiy tashabbusi bilan «Turkiston milliy birligi» partiyasi, 1925-yilda Munavvarqori tomonidan «Milliy istiqlob» tashkiloti tuziladi. Boshqa bir-qancha maxfiy jamiyatlar ham faoliyat koʻrsatib bordi. Ular kam sonli,

tashkiliy jihatdan yetarli darajada uyushmagan boʻlsada, mahalliy aholining siyosiy ongini oʻsishiga muayyan hissa qoʻshdilar.

Milliy manfaatlarini himoya qilishga sovet va partiya rahbar organlarida xizmat qilayotgan mahalliy millat vakillari ham muhim chora-tadbirlarni amalga oshirishga harakat qildilar. Ular dastlabki davrlarda bolsheviklarning balandparvoz vaʼdalariga ishongan boʻlsalar, keyinchalik ularning asl maqsadini tushunib yetadilar. Ular rasmiy hokimiyat doirasida milliy manfaatlarini himoya qilib boʻlmasligini, buning uchun kompartiya va uning joylardagi tashkilotlarining vakolatlarini cheklash, haqiqiy millatparvar hokimiyat tuzishni nazarda tutadigan choralarni koʻrishga harakat qiladilar.

1919-yilda Musbyuroning 3-konfrensiyasi, Turkiston kompartiyasi-ning 5-konferensiyasi Turor Riskulov boshliq mahalliy millat vakillari tashabbusi bilan «Turkistonning turkiy xalqlari kompartiyasi» va «Turk Respublikasi»ni tashkil qilish tashabbusi bilan chiqdi. Tashabbus Turkistondagi rasmiy tashkilotlar – Turkiston Kompartiyasi, Oʻlka Musbyurosi, Turkkomissiyasi, Turkiston Markaziy ijroiya qoʻmitasi raisi T.Riskulov tomonidan maqullandi. T.Riskulov 1920-yil 17-mayda Moskvaga keladi va mazkur masalada RKPga yozma axborot beradi. Unda Turkkomissiyani tugatish, Revkomning huquqlarini cheklash, Qizil armiyani olib chiqib ketish va boshqa bir qancha takliflar bayon qilinadi. Bu masala 1920-yil 13-iyunda V.I.Lenin ishtirokida Rossiya kompartiyasi Siyosiy byurosida koʻrib chiqiladi. T. Riskulovning taklifi qabul qilinmaydi. Shuningdek ushbu qarorni bajarishga qarshilik qilayotgan shaxslarni badargʻa qilish topshiriladi.

Xullas, sovetlarning mustamlakachilik siyosati natijasida kelib chiqqan qurolli toʻqnashuv mahalliy aholi boshiga misli koʻrilmagan kulfatlarni keltirdi. Kurashda millionlab kishilar shahid boʻldi, chet ellarda muhtojlik azobini tortdi, Sibir surgunlarida halok boʻldi va mayib-majruh etildi. Fuqarolar urushi, ochlik, qatagʻonlar natijasida halok boʻlganlarni hisobga olish va bu toʻgʻrida ochiq-oydin axborot berishdan sovetlar hokimiyati manfaatdor boʻlmagan.

Maʼlum boʻlishicha, 1917-1920-yillarda, Turkistonning ekin maydonlari 40 foizga kamayib ketdi, chunki, bir tomondan erkaklar birodarkushlik urushida qatnashayotgan boʻlsa, ikkinchi tomondan, bolsheviklar olib borgan «harbiy kommunizm» siyosati ishlab chiqarishdagi manfaatdorlikni soʻndirdi. Natijada, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari qariyb 2 marta, qoramollar bosh soni 2,5 marta kamayib ketdi, sugʻorish tarmoqlari vayron boʻldi. Savdo-sotiq toʻxtaganligi natijasida Turkiston xoʻjaligiga oddiy omoch, xatto ketmon va boshqa ish qurollari yetishmas edi. Natijada ochlik hukm sura boshladi.

XIII bob
SOTSIALIZM DAVRIDA YURITILGAN IQTISODIY VA MADANIY
SIYOSAT, UNING MUSTAMLAKACHILIK MOHIYATI.
SIYOSIY QATAG‘ON ASORATLARI

1-§. O‘zbekistonda amalga oshirilgan sanoatlashtirish
siyosati va uning oqibatlari

O‘zbekiston sobiq Ittifoq tarkibiga kiritilganidan so‘ng Moskvada mavjud bo‘lgan davlat boshqaruvi organlaridan andoza olgan idoralar tuzildi. Bu markazdan turib Ittifoq tarkibiga kiritilgan respublikalarni boshqarishning eng oson va qulay yo‘li edi. O‘zbekistonda hokimiyat xalq tomonidan saylangan deputatlar qo‘lida, deb e‘lon qilinsa-da, aslida Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasining respublikadagi bo‘limi – O‘zbekiston kompartiyasi qo‘lida edi.

XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmi va 30-yillarida O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti o‘z faoliyatida asosan quyidagi masalalarga e‘tibor berdi:

- O‘zbekistonda sovet hokimiyatini mustahkamlash;
- Sovet hukumati tomonidan «bosmachilik» deb atalgan sovet hukumatiga qarshi qurolli kurash olib borayotgan vatanparvarlar harakatini bostirish;
- xususiy mulk egalari qarshi kurash;
- sanoatlashtirish va jamoalashtirish (kollektivlashtirish) siyosatini amalga oshirish;
- madaniy inqilobni hayotga tatbiq etish va hokazo.

O‘zbekiston hududida aholi manfaatlarini himoya etadigan kasaba uyushmalari, yosh avlodni kommunistik ruhda tarbiyalash bilan muntazam shug‘ullanadigan O‘zbekiston leninchi kommunistik yoshlar soyuzi, pionerlar bolalar tashkiloti, dehqonlarni g‘oyaviy jihatdan birlashtirishga harakat qiladigan «Qo‘shchi» ittifoqlari mavjud bo‘lsa-da, ular amalda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetiga to‘la qaram bo‘lib uning bo‘limlariga aylantirilib edi.

Moskvadagi markaziy hokimiyat rahbarlari mahalliy xalqlarga past nazar bilan qarar va milliy ziyolilardan faqat o‘rnatilgan mavjud hokimiyatni ma‘qullaganlarigagina davlat boshqaruvi organlariga ishlashiga ruxsat etilar edi. 20-yillarning o‘rtalarida O‘zbekiston aholisining atigi 8-10 foizini rusiyazonlar tashkil etgan bo‘lsa-da, davlat idoralarida ular soni

50-60 foizni tashkil etgan. Markaz mahalliy xalqlar ustidan muntazam ravishda nazorat olib borgan. 1922-yilning may oyida markazda mavjud bo‘lgan Rossiya bolsheviklar kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining Turkkomissiyasi Markaziy Osiyo byurosiga aylantirilib, uning nazorat doirasi kengaytirildi.

Sovet hokimiyati tomonidan O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan «sotsialistik tuzum qurish» tajribasidan norozi bo‘lgan mahalliy ziyolilar, milliy davlat arboblari o‘z tanqidiy fikrlarini bayon qila boshlaganlar. Sovet hokimiyati esa ularga «millatchi» tamg‘asini bosib, qatag‘on siyosatini amalga oshirgan.

XX asr 20-yillarining o‘rtalariga kelib, sobiq Ittifoq rahbarlari «jahon inqilobi» yaqin yillarda g‘alaba qozonmasligini, u kapitalistik davlatlar qurshovida qolganini anglab yetdilar. Kapitalistik mamlakatlar bilan raqobatda muvozanatni saqlash uchun esa yirik sanoatni rivojlantirish zarurati paydo bo‘ldi.

1927-yilda sobiq Ittifoq rahbariyati mamlakatda sanoatlashtirish siyosatini e‘lon qildi. Yirik korxonalarni barpo etish esa, katta mablag‘lar talab etar edi. Davlat g‘aznasida bunday mablag‘lar mavjud bo‘lmagan. G‘arb mamlakatlaridan zamonaviy texnologiyani xarid qilib olishga mablag‘ topish uchun Ittifoq ularga oltin, yog‘och, g‘alla, paxta va boshqa xom ashyo mahsulotlarini sotishga majbur edi.

Sanoatlashtirish uchun asosiy mablag‘ni Ittifoq rahbariyati qishloq xo‘jaligi hisobidan amalga oshirdi. Dehqonlar yetishtirgan mahsulotlarni davlat xazinasiga tushirishni osonlashtirish maqsadida davlat rahbariyati 1929-yildan boshlab, mamlakatda yalpi jamoalashtirish, ya‘ni ularni kolxozlar atrofida birlashtirish siyosatini e‘lon qildi. Ittifoq rahbarlari ko‘rsatmalariga binoan jamoalashtirish siyosati qisqa vaqt ichida, ya‘ni 1932-yilga kelib tugatilishi lozim edi.

Sanoatlashtirish va jamoalashtirish (kollektivlashtirish) siyosatlari ham ma‘muriy-buyruqbozlik vositasida amalga oshirildi va salbiy holatlarni keltirib chiqardi. Sanoatlashtirish natijasida mamlakatda yuzlab sanoat korxonalari, temir yo‘llar, gidroelektrstansiyalar qurilgan bo‘lsa-da, mamlakatda bozor munosabatlariga barham berilganligi, xususiy mulk yo‘q qilinishi oqibatida insonlarni davlatga qaramligi boshlandi, mamlakat iqtisodiyoti «yuqoridan» tuzilgan reja (plan) asosida boshqariladigan bo‘lib, odamlar ulkan rejalar va g‘oyalarni amalga oshirishda bir kichkina vosita bo‘lib qoldilar.

Qishloq joylarda kolxozlarga kirishni xohlamagan dehqonlarni saylov huquqidan mahrum etib ularni «mahrum bo‘lganlar» deb ataldi, quloq qilindi, ya‘ni mol-mulkulari musodara etildi. Jamoalashtirish siyosatini

amalga oshirish jarayonida, ayniqsa, boy dehqon (quloq)lar aziyat chekkan. Quloqlarga «xalq dushmanlari» degan tamg'a bosilib, ularni sinf sifatida yo'q qilish maqsad qilib qo'yilgan. 1929-yilning o'zida jamoalashtirish siyosatiga qarshi dehqonlarning 130 ta qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. Ularni Sovet hukumati «quloqlar qo'zg'olonlari» deb atab, qizil armiya kuchi bilan shafqatsiz bostirdi.

20-yillarda O'zbekistonda temir yo'llar qurilishiga katta e'tibor berildi. Bu davrda Farg'ona-Quvasoy (1922-yili), Qarshi-Kitob (1924-yili), Amudaryo-Termiz (1925-yili) va boshqa temir yo'l tarmoqlari qurilib, foydalanishga topshirildi. 1929-1931-yillarda uzunligi 1452 km. bo'lgan Turkiston-Sibir temir yo'li ham qurib bitkazildi. 30-yillarda O'zbekistonda avtomobil transportining rivojlanishi natijasida qattiq qoplamali yo'llar qurilishi keng rivojlangan.

20-yillarning oxirida Ittifoqda sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha besh yillik rejalar qabul qilish boshlandi. Birinchi besh yillik (1928-1932-yillar)da O'zbekistonda:

– 289 ta sanoat korxonalarini qurilib, ishga tushirildi (Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozlik zavodi, Quvasoy sement zavodi, Toshkent to'qimachilik kombinati, Toshkent va Buxoro tikuvchilik fabrikalari va boshqalar);

– 1932-yilga kelib O'zbekistondagi elektr stansiyalarining soni 49 taga yetdi;

– ishchilar soni 3,5 marotaba ko'paydi. Ularning soni 130,5 ming kishini tashkil etdi. Shulardan 36,2 foizini xotin-qizlar tashkil etgan va hokazo.

Ikkinchi besh yillik (1933-1937-yillar)da O'zbekistonda 189 ta sanoat korxonalarini va elektr stansiyalari barpo etildi (Farg'ona ip yigirish fabrikasi, Toshkent matbaa kombinati, Buxorodagi issiqlik elektr stansiyasi, Toshkent lak-bo'yoq zavodi va boshqalar). 1938-yildan 1941-yilgacha O'zbekistonda 134 ta sanoat korxonalarini qurilib, ishga tushirildi.

O'zbekistonda sanoatlashtirishni amalga oshirish jarayonida quyidagi mustamlakachilik mohiyatiga ega bo'lgan holatlar mavjud bo'ldi:

– birinchidan, 20-30-yillarda O'zbekistonda barpo etilgan sanoat korxonalarining aksariyat ko'pchiligi ittifoq tasarrufida bo'lib, markazning umumiy manfaatlarini uchun mahsulot chiqargan:

– ikkinchidan, asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalarini qurilib, og'ir sanoat, mashinasozlik kabi yetakchi tarmoqlarni rivojlantirishga ahamiyat berilmadi. Natijada O'zbekiston iqtisodiy jihatdan markazga qaram bo'lib qoldi;

– uchinchidan, yangi qurilgan sanoat korxonalarida ishlay oladigan mahalliy millat vakillarini tayyorlashga e'tibor berilmadi. Malakali ishchi va injener-texnik xodimlar Rossiyadan olib kelindi. 1937-yilda O'zbekiston sanoat korxonalarini ishchilarining atigi 37 foizini mahalliy millat vakillari tashkil etgan xolos;

– to'rtinchidan, sanoatlashtirish ma'muriy-buyruqbozlik usullari bilan amalga oshirildi. Sanoatlashtirish juda katta mablag'larni talab etgan. Bu mablag'larni sovet hokimiyati ishchilar va dehqonlarning mehnati evaziga qo'lga kiritdi. Mablag' qo'lga kiritish maqsadida sovet hokimiyati aholi o'rtasida majburiy zayomlar tarqatdi. Shuning uchun O'zbekistonda ko'plab sanoat korxonalarini qurilgan bo'lsa-da, mehnatkash xalqning ijtimoiy ahvoli og'irlashib boraverdi.

XX asrning 20-yillarida Markaziy Osiyoda yer-suv islohotining o'tkazilishi. XX asrning 20-yillarida Sovet hokimiyati tomonidan Markaziy Osiyo va Qozog'iston hududlarida mamlakatda xususiy mulkni tugatish maqsadida yer-suv islohoti tadbirlari o'tkazildi.

Yer-suv islohotining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lgan:

– «mehnat bilan shug'ullanmaydigan» boy-quloq xo'jaliklarini tugatish va ko'chmanchi aholini o'troq holatga o'tkazish;

– katta yer egalari yo'qotib, yerlarini yersiz va kam yerli dehqonlar, batraklar o'rtasida mehnat normalari bo'yicha taqsimlab berish;

– Chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosatining sarqitlarini tugatish maqsadida Stolipin islohotlari davri (1907-1911-yillar)da Turkistonga ko'chirilgan rus krestyan (dehqon)lariga berilgan katta yerlarni tortib olish.

Yer-suv islohoti davrida O'zbekistonda 4801 nafar badavlat odamlar qo'lidagi mulk va yerlar butunlay musodara qilingan, 23036 nafar boylarning yerlari keskin kamaytirilgan, ularning ish hayvonlari, mehnat qurollari musodara etilgan.

Yer-suv islohoti jarayonida diniy muassasalar, diniy xizmatchilardan vaqf yerlar ham tortib olindi. Bu islohot tadbirlari joylarda ma'muriy-buyruqbozlik shaklida, o'ta qattiqqo'llik bilan amalga oshirildi. Shuning uchun qishloqlarda ijtimoiy-siyosiy vaziyat keskinlashdi. Dehqonlar tabaqalarga bo'linganidan keyin, ular o'rtasida raqobat kuchaydi. O'zbekiston SSRda mulkdor dehqonlarning sovet hokimiyatiga qarshi ko'plab ommaviy g'alayonlari bo'lib o'tdi.

Markaziy Osiyodagi yer-suv islohoti sovet hokimiyatiga mamlakat qishloq xo'jaligini keyinchalik butunlay davlat monopoliyasiga o'tkazish uchun qulay sharoitlar yaratdi.

2-§. O‘zbekistonda jamoalashtirish (kollektivlashtirish) va quloqlashtirish siyosatining amalga oshirilishi

1929-yilning 7-noyabrida I.V.Stalinning «Buyuk burilish yili» maqolasi matbuotda chop etildi. O‘sha yilning 27-dekabrida esa qishloq xo‘jaligi xodimlarining konferensiyasida nutq so‘zlab, «quloq»larni sinf sifatida tugatish va qishloq xo‘jaligida jamoalashtirish (kollektivlashtirish) siyosatini boshlashga ko‘rsatma berdi. Shundan keyin sobiq Ittifoqda jamoalashtirish, ya‘ni qishloq xo‘jaligidagi kichik jamoa va alohida oilalarga qarashli yerlar, mehnat qurollari, ish hayvonlarini bir jamoa atrofida jipslashtirish tadbirlari boshlandi.

SSSRda majburiy tarzda o‘tkazilgan jamoalashtirish siyosati qishloqlarning mustaqil, tabiiy rivojlanishiga g‘ov bo‘ldi, dehqonlarning yerga egalik tuyg‘ularini barbod qildi. Natijada 1932 – 1933-yillarda SSSRning asosan g‘alla yetishtiradigan mintaqalarida g‘alla kam yetishtirilganligi sababli ommaviy ocharchilik boshlangan. 8 mln.ga yaqin kishi ochlikdan o‘lib ketgan. Mustabid sovet hukumati esa shu sharoitda ham g‘allani xorijiy mamlakatlarga valutaga sotishni davom ettirgan.

O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti Moskva ko‘rsatmalarini bajarish maqsadida 1930-yilning 17-fevralida «Jamoalashtirish va quloq xo‘jaliklarini tugatish to‘g‘risida»gi qarorini qabul qildi. Shundan keyin O‘zbekistonda jamoalashtirish siyosati faollashib ketdi. Viloyatlarda jamoalashtirishga rahbarlikni amalga oshirish uchun maxsus shtablar tuzildi. Boz ustiga, Rossiya (RSFSR)ning markaziy tumanlaridan O‘zbekistonga 450 ga yaqin ishchilar yuborildi. Ulardan tashkil etilgan guruhlar o‘zbek qishloqlarida kolxozlar tuzish hamda quloqlashtirish ishlariga qatnashdilar.

1930-yilning boshlarida O‘zbekistonda 5 foizga yaqin «quloq» xo‘jaliklari mavjud deb taxmin qilingan. Lekin 1930-yilning o‘zida 15 foizdan ko‘proq xo‘jaliklar quloqlashtirildi. O‘sha yili 2648 ta o‘rtahol xo‘jaliklar ham «boy» yoki «quloq»xo‘jaliklar hisobiga kiritilgan va markazga O‘zbekistonda quloqlashtirish rejadan ham ortiq bajarildi, deb axborot berilgan.

Quloqlashtirilganlarning mol-mulklari musodara qilinib, ularning oilalari Ukraina, Sibir, Qozog‘iston, Uzoq Sharq kabi o‘zga yurtlarga surgun qilindi. Quloqlashtirish tadbirlari O‘zbekistonda qonunsizlik va zo‘ravonliklar asosida amalga oshirildi. Natijada dehqonlarning noroziligi kuchayib bordi, joylarda (Farg‘ona vodiysi, Toshkent, Buxoro, Xorazm, Samarqand va boshqa hududlar)da dehqonlar g‘alayonlari bo‘lib o‘tdi, ular majburan kiritilgan jamoa xo‘jaliklaridan chiqib keta boshlashdi. Shunga qaramay quloqlashtirish tadbirlari to‘xtatilmadi, aksincha, avj oldirildi.

1932-yilning oxirlariga kelib O‘zbekistonda 800 ming dehqon xo‘jaliklari negizida 9734 ta kolxoz va 94 ta sovxoz tashkil etildi. 1933 yilgi ma‘lumotlarga qaraganda, O‘zbekistondan surgun qilingan «quloq» xo‘jaliklarining soni 5500 taga yetgan, dehqonlarning 92 foizi kolxoz va sovxozlarga kiritilgan.

Ta‘kidlash joizki, O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda suv inshootlarini qurish muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. 1939-yilning 1-avgustida Farg‘ona kanalini qazish ishlari boshlandi. Bu kanal qazilishida 160 ming kishi ishtirok etdi. Katta Farg‘ona kanali hashar yo‘li bilan 45 kunda qazilgan. Keyinchalik Janubiy Farg‘ona va Toshkent kanallari, Kattaqo‘rg‘on suv ombori qurilishi amalga oshirildi.

Sobiq Ittifoqning markaziy hokimiyati Chor Rossiyasi davridagidek Markaziy Osiyo hududlariga asosiy paxta yetishtiradigan o‘lka sifatida qaragan. 1920-yilda markazda katta vakolatlariga ega bo‘lgan Bosh Paxtachilik qo‘mitasi ta‘sis etildi. Mamlakatning paxta yetishtiruvchi respublikalarida esa Bosh Paxtachilik qo‘mitasining idoralari tuzildi. Sobiq Ittifoqning qishloq xo‘jaligini yoppasiga jamoalashtirish esa O‘zbekistonda paxta yakkahokimligini kuchaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berdi.

O‘zbekistonda barcha sug‘oriladigan yerlar, irrigatsiya inshootlari Bosh Paxtachilik qo‘mitasi ixtiyoriga o‘tkazildi, paxta ekiladigan maydonlar boshqa ekin maydonlari hisobidan kengaytirildi. Sovet hokimiyati O‘zbekistonni sobiq Ittifoqning asosiy paxta yetishtiradigan bazasiga aylantirgan. O‘zbekistonda yetishtiriladigan paxtaning 90 foizidan ko‘prog‘i markaziy hokimiyat ixtiyorida edi.

1928-yilda O‘zbekistonda 543,7 ming tonna paxta yetishtirildi. Buning evaziga sobiq Ittifoq paxta yetishtirish bo‘yicha jahonda to‘rtinchi o‘rinni egalladi. 1933-yilda esa Ittifoq paxta yetishtirish bo‘yicha jahonda ikkinchi o‘ringa chiqib olib, boshqa mamlakatlardan paxta sotib olishni umuman to‘xtatdi.

Sovet hokimiyatining O‘zbekistonni asosiy paxta yetishtiruvchi respublikaga aylantirish yo‘lida amalga oshirgan tadbirlari natijasida qishloq xo‘jaligining boshqa turlari, masalan, chorvachilik, donli va poliz ekinlari yetishtirish inqirozga yuz tutdi.

3-§. 20-30-yillarda Sovet davlatining madaniyat sohasida amalga oshirgan siyosati (Madaniy inqilob)

20-30-yillarda sobiq Ittifoqning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotida mavjud bo‘lgan ziddiyat va qarama-qarshiliklar ma‘naviy-madaniy hayotda

ham o'z ta'sirini o'tkazdi. O'sha davrda bolsheviklar partiyasi tomonidan baynalmilalchilik shiori olg'a surildi. Baynalmilalchilik aslida nisbiy ma'noga ega bo'lib, jahondagi turli millat va irq'larga mansub kishilarning xalqaro birdamligi va o'zaro hamkorligidir.

Mustabid sho'rolar tuzumi davrida baynalmilalchilikka siyosiy tus berilgan, uning mazmun-mohiyati bir tomonlama talqin etilgan. Bolsheviklarning talqini bo'yicha turli millat va irq'larning faqat ishchilar sinfi sotsializm va kommunizm uchun kurash jarayonida birdam bo'lishlari lozim. Ularning fikricha, faqat shundagina jahon inqilobiga erishish mumkin. Ya'ni, bolsheviklar partiyasining dohiylari baynalmilalchilikning faqat «proletar baynalmilalchiligi» jihatlarini tan olgan.

Bolsheviklar partiyasi tomonidan ijod ahlining faoliyati, ular tomonidan yoziladigan asarlarning mazmun-mohiyati qattiq nazorat ostiga olindi. Yozuvchi va shoirlarning asarlari «shaklan milliy, mazmunan sotsialistik» qoliplarga to'g'ri kelishi talab etildi. Ya'ni, ular shakl jihatdan o'z millati, irqi haqida yozishsa ham, sotsializm ta'limotiga xizmat qilishi, uni madh etishi lozim edi. Kommunistik ta'limot bo'yicha, millatlarning sotsializm va kommunizm qurish jarayonida yaqinlashuvi natijasida ular o'rtasidagi farqlar «o'chirilib» ketadi, ularning urf-odatlari, tillari, an'analari, qadriyatlari bir-biriga juda yaqin bo'ladi. SSSRdagi millatlarining, albatta, rus millati atrofida jipslashishi ko'zda tutilgan.

20-yillarning birinchi yarmida bolsheviklar tomonidan «madaniy inqilob» siyosati olg'a surildi. Bu siyosat orqali Turkiston xalqlari ongiga «yangicha» madaniyat singdirilib, milliy madaniyatlardan milliylik jihatlarini chiqarib tashlash maqsadi ko'zda tutildi. Markaziy Osiyoda bu «yangi» madaniyat targ'ibotchilari asosan yevropaliklar bo'lgan. Ular mahalliy urf-odatlar, qadriyatlar, madaniy merosni tan olishmagan, targ'ibot ishlarini rus tilida olib borishgan, yevropacha madaniyat va urf-odatlarni mahalliy xalqlar orasida singdirishga harakat qilganlar.

1921-yilning noyabrida Turkiston ASSRda respublika aholisi orasida savodsizlikni tugatish to'g'risida dekret qabul qilindi. Bu dekret talablariga ko'ra, sakkiz yoshdan qirq yoshgacha bo'lgan savodsiz fuqarolar davlat maktablarida, savodsizlikni tugatish kurslarida o'qishlari lozim bo'lgan. 1923-yilning noyabr oyida O'zbekistonda «Bitsin savodsizlik» jamiyati tuzildi.

1925-yilning 18-iyunida Rossiya kommunistik bolsheviklar partiyasi Markaziy Komitetining «Partiyaning adabiyot sohasidagi siyosati to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, proletar diktaturasi (ya'ni mavjud hokimiyat)ga xizmat qilmaydigan adabiyot namunalari burjua mafkurasining ko'rinishlari, deb e'lon qilinadigan bo'ldi va ularga qarshi

keskin kurash boshlandi. Shundan keyin o'zbek yozuvchi va shoirlari sovet hokimiyati tomonidan joriy etilgan «sotsialistik realizm» prinsiplari asosida «proletar adabiyoti»ni yaratishga kirishdilar. Ijodkor ziyolilar faqat sotsialistik turmushni tarannum etishlari, inqilobdan oldingi hayotni esa qora bo'yoqlarda tasvirlashlari talab etildi. Adabiyot va san'at asarlariga sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan yondashish boshlandi. Bunday sharoitlarda ularning erkin ijod qilishi juda qiyin bo'lib qoldi. Shunga qaramasdan, o'sha davrda O'zbekistonda Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir kabi buyuk adiblar samarali ijod qilishgan.

O'zbekistonda «Xujum» harakati. XX asrning 20-yillarida Sovet hokimiyati Turkistonda xotin-qizlarning teng huquqliligini ta'minlash bo'yicha bir qator qonun va yo'riqnomalar qabul qildi. 1926-yilda esa ularning eski turmush tarziga barham berish uchun kurashni kuchaytirdi. Bu tadbirlar tarixda «hujum»deb atalgan. «Hujum» harakatining asosiy maqsadlaridan biri paranji tashlash bo'lgan. Bu tadbir mahalliy urf-odatlarni hisobga olmay, zo'rvonlik, majburlash va jazolash usullari orqali amalga oshirildi. Paranjani tashlashga qarshi bo'lgan shaxslarni sinfiy dushman sifatida qaralgan. Ko'chalarda ayollarning paranjilarini yulib olib, yoqib yuborish holatlari juda ko'p bo'lgan. Hatto O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasida paranjani tashlash bo'yicha sotsialistik musobaqa tashkil etilgan. Bunday o'zgarishlarga mahalliy xalq tayyor emas edi. Xotin-qizlarning paranjani tashlab, ochiq yuz bilan yurishi mahalliy xalq tomonidan ularning urf-odatlarini poymol qilish, deb baholangan. Hujum kampaniyasi davomi (1927-1928-yillar)da 2,5 mingdan ortiq faol xotin-qiz o'ldirilgan.

Shunday bo'lsa-da, «hujum» kampaniyasining ijobiy tomonlari ham bo'ldi. O'zbekiston xotin-qizlarining jamiyatdagi ijtimoiy faolligi oshib, minglab ayollar sanoat, qishloq xo'jaligi, maorif, sog'liqni saqlash muassasalari va boshqa sohalarida faoliyat ko'rsata boshladilar.

1929-yilning avgust oyida O'zbekistonda arab yozuvi lotin alifbosiga o'zgartirildi. Sovet hokimiyati shu tariqa mahalliy xalqni asrlar davomida arab yozuvida bitilgan adabiy merosidan yiroqlashtirish maqsadini ko'zlagan edi. 1940-yilda esa lotin alifbosi kiril alifbosi bilan almashtirildi. Qisqa muddat ichida alifboning ikki marotaba almashtirilishi sun'iy ravishda savodsizlar sonini ko'paytirib, o'zbek tilining imkoniyatlarini chekladi.

20-30-yillarda O'zbekistonda teatr san'ati vujudga keldi va rivojlandi. 1919-yilda Mannon Uyg'ur Toshkentda 1916-yilda tuzilgan «Turon» truppasini qaytadan tikladi. Ushbu teatrdan Abdulla Avloniyning ««Advokatlik osonmi?» komediyasi, Hamzaning «Boy ila xizmatchi», «Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari» sahna asarlari, Abdulla Qodiriyning

«Baxtsiz kuyov» dramasi, Fitratning «Abu Muslim», «Chin sevis» dramalari sahnalashtirildi.

1926-yilda birinchi o'zbek musiqa teatri yuzaga kelib, unda «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Gulsara» kabi milliy operalar qo'yildi. 1929-yilda Samarqandda O'zbek davlat musiqali teatri tashkil topdi. 1936-yilda tashkil etilgan O'zbek davlat filarmoniyasi tarkibida o'zbek xalq cholg'u asboblari orkestri, ashula va raqs ansambllari, xor kompleksi, simfonik orkestr o'z faoliyatini boshladi.

20-30-yillarda O'zbekistonda oliy ta'lim. 1918-yilning 12-mayida Munavvar Qori Abdurashidxonov boshchiligida Toshkentning eski shahar qismida Musulmon xalq universiteti ochildi. Lekin oradan ko'p vaqt o'tmay turli bahonalar bilan besh yil o'qishga mo'ljallangan oliy ta'lim dargohi to'rt oylik o'qituvchilar kursiga aylantirilib 1918 yilning sentabr oyida esa umuman yopib qo'yildi.

Mustabid sovet tuzumi rahbarlarining asosiy diqqatlari 1918-yilning 21-aprelida Toshkentda rus ziyolilari tomonidan ochilgan Turkiston xalq universitetiga qaratildi. Turkiston xalq universiteti 1920-yildan «Turkiston davlat universiteti», 1923-yildan esa «Markaziy Osiyo davlat universiteti», 1960-yildan «Toshkent davlat universiteti», 2000-yilning 28-yanvaridan esa «O'zbekiston milliy universiteti» deb nomlangan.

Markaziy Osiyo davlat universitetiga faqat rus tilini bilgan mahalliy millatlar vakillari qabul qilingan. Masalan, 1923-1924- o'quv yilida Markaziy Osiyo davlat universitetiga o'qishga kirgan 2047 nafar talabadan faqat 51 nafarigina mahalliy millat vakillari bo'lgan xolos. Shunday bo'lsa-da, bu oliy ta'lim dargohi Markaziy Osiyo respublikalari va Qozog'iston uchun oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashning asosiy markazi bo'ldi va o'zbek ziyolilarining tarkib topishida muhim rol o'ynadi.

1928-yildan boshlab Markaziy Osiyo davlat universiteti fakultetlari asosida Markaziy Osiyoda mustaqil institutlar tashkil topdi. Ular qatoriga Markaziy Osiyo paxtachilik va irrigatsiya politexnika instituti (hozirgi Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti), Markaziy Osiyo tibbiyot instituti, Tojikiston qishloq xo'jaligi instituti, Turkmaniston zooveterinariya instituti, Markaziy Osiyo irrigatsiya muhandislari va texniklari instituti, Markaziy Osiyo geologiya-qidiruv instituti, Markaziy Osiyo industrial instituti (hozirgi Toshkent texnika universiteti), Markaziy Osiyo moliya-iqtisod instituti (hozirgi Toshkent iqtisodiyot universiteti) va boshqalarni sanab o'tish mumkin.

1937-yilga kelib O'zbekistonda 31 ta oliy va 86 ta o'rta-maxsus o'quv yurtlari mavjud bo'lib, ularda 53 ming talaba tahsil olgan. Bundan tashqari, yuzlab o'zbekistonliklar Moskva, Leningrad va sobiq Ittifoqning boshqa yirik shaharlaridagi oliy o'quv yurtlarida tahsil olishgan.

1932-yilda O'zbekiston SSR Fan komiteti tuzildi. Bu komitet qoshida ilmiy laboratoriyalar va ilmiy-tadqiqot institutlari ish olib borishgan. 1940-yilda esa SSSR Fanlar akademiyasining O'zbekiston filiali o'z ishini boshladi.

4-§. SSSRda ma'muriy-buyruqbozlik tizimining shakllanishi va uning salbiy oqibatlari

Totalitarizm davlatni boshqarish shakllaridan biri bo'lib, unda bir shaxs, ijtimoiy sinf yoki guruhning jamiyatdagi yakkahokimligiga va ushbu shaxsga so'zsiz bo'ysunishga asoslanadi. Totalitar mamlakatlarda jamiyat hayotining barcha sohalarida davlatning to'la hukmronligi o'rnatiladi, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning faoliyati ustidan qattiq nazorat olib boriladi, demokratik tashkilotlar faoliyati cheklab qo'yiladi.

Sobiq Ittifoqda 20-yillarning oxirlariga kelib, bolsheviklar partiyasi-ning bir partiyaviylik tizimi o'rnatilgan edi. Bolsheviklar partiyasi dohiylarining fikricha, faqat ular mehnatkash(ishchilar va dehqon)lar manfaatlarini ifoda etadilar va jamiyatni ular foydasiga qanday boshqarishni biladilar. Boshqa partiyalar ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini himoya qiladigan partiyalar sifatida bolsheviklar partiyasi tomonidan ta'qib qilingan va keyinchalik ularning faoliyatiga chek qo'yilgan. Jamiyatning turli sohalariga tegishli qarorlar partiya va sovet rahbarlarining tor doirasida qabul qilingan va ularni bajarish barcha mamlakat fuqarolari uchun majburiy bo'lgan, yuqori siyosiy va xo'jalik laozimlarida faqat bolsheviklar partiyasi a'zolaridan tayinlanadigan bo'lgan. Partiya va hukumat qarorlarini muhokama etish og'ir oqibatlariga olib kelgan. Mamlakat fuqarolarining erkin fikrlash imkoniyati cheklangan.

1929-yilda sobiq Ittifoqda yangi iqtisodiy siyosatga chek qo'yildi, mamlakatda ma'muriy-buyruqbozlik tizimi shakllana boshladi. Mamlakatda I.V.Stalinning mutlaq hokimiyati o'rnatildi, uning g'oyaviy raqiblari – Trotskiy, Zinoviyev, Kamenev, Buxarin va boshqalar «xalq dushmanlari» sifatida o'ldirildi yoki surgun qilindi. Aynan shu davrda bolsheviklar partiyasi organlarining sudlar ishiga qo'pol aralashuvi kuchaydi. Davlat rahbarlari o'zlarining ko'plab siyosiy raqiblarini sud va kuch ishlatuvchi komissariatlar qo'llari bilan yo'q qilishdi. Mamlakatda tuzilgan OGPU (Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi), NKVD (Ichki ishlar xalq komissarligi)larning «kuchlik» va «ikkilik»lari «xalq dushmani» tamg'asi bosilgan minglab davlat arboblari, olimlar, yozuvchilar, harbiylar, ishchilar va dehqonlarni qatag'on qildilar.

20-yillarning oxiriga kelib, sobiq Ittifoqda yangi iqtisodiy siyosatga chek qo'yildi, mamlakatda ma'muriy-buyruqbozlik tizimi shakllana boshladi. Jamiyatning turli sohalariga tegishli qarorlar partiya va sovet rahbarlarining tor doirasida qabul qilindi va ularni bajarish barcha uchun majburiy bo'ldi. Partiya va hukumat qarorlariga nisbatan erkin fikr aytish og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin edi.

Shu tariqa, XX asr 30-yillarining o'rtalarida SSSRda o'ta markazlashgan, mafkuralashgan, zo'ravonlikka asoslangan tuzum shakllandi. I.V.Stalinning o'sha davrda bayon etgan «sotsializm mustahkamlanib borgan sari sinfiy kurash keskinlashib boradi» degan soxta nazariyasi ommaviy qatag'onlarning g'oyaviy asosi bo'lib xizmat qildi. 1937-1938-yillarda sobiq Ittifoqda «xalq dushmani» sifatida 2 mln.dan ortiq kishi hibsga olingan, ulardan 800 ming kishi otib tashlangan.

«Qatag'on» so'zi ruscha «repressiya» so'zi bilan sinonimdir. «Repressiya» so'zi lotincha «repressio» so'zidan olingan bo'lib, davlat organlari tomonidan insonlarga nisbatan qo'llanadigan jazo choralari, ularni qatag'on qilish, ularga ommaviy tarzda zulm o'tkazish ma'nolarini anglatadi.

Sovet hokimiyati tomonidan O'zbekiston xalqiga qarshi o'tkazilgan qatag'onlar bir necha davrlarni o'z ichiga qamrab oladi. XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmi va 30-yillarning boshlarida Sovet hukumati idoralari tomonidan O'zbekistonda «o'n sakkizlar guruhi», «inog'omovchilik», «qosimovchilik» kabi nomlar bilan siyosiy ishlar to'qib chiqilgan va ko'plab o'zbek xalqining asl farzandlari qatag'on qilingan.

5-§. 20–30-yillarda O'zbekistondagi siyosiy qatag'onlar va ularning salbiy oqibatlari

XX asr 30-yillar o'rtalaridan boshlab, butun Ittifoqda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham ommaviy qatag'onlar avj oldi. 1934-yilda I.V. Stalin O'zbekiston, Tojikiston va Turkmanistonga V.V.Kuybishev boshchiligida maxsus brigadani jo'natdi. Ushbu brigada «faoliyati» natijasida O'zbekistonda «millatchilik va sovet hokimiyatiga qarshi kurash olib borish»da ayblangan davlat arboblari bilan bir qatorda Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Elbek, Botu, Ziyo Said, Qayum Ramazonov, Tavallo kabi o'zbek adabiyotining buyuk siymolari, ziyolilari qatag'oniga uchradi.

1937-yilning dekabr oyida O'zbekiston kommunistik bolsheviklar partiyasi Markaziy qo'mitasining «O'zbekiston SSR Xalq Maorif komissarligi tizimida ziyonchilik oqibatlarini tugatish bo'yicha chora-

tadbirlari to'g'risida»gi qarori e'lon qilindi. Shundan so'ng respublikaning barcha turdagi ta'lim muassasalarida mahalliy tillarda dars beradigan o'qituvchilarga nisbatan tazyiqlar o'tkazish avj oldirildi. Ularning ko'pchiligi sovet rejimiga qarshi kurash olib borishda ayblanib, qatag'on qilingan. Ayniqsa, Germaniya va Turkiyada o'qib kelgan mahalliy ziyolilar qattiq ta'qib qilingan.

Bolsheviklarning marksizm-leninizm ta'limotiga tayanib barpo etayotgan sotsialistik va kommunistik jamiyati dinsiz (ateistik) bo'lishi lozim edi. Kommunistik mafkura asoschilaridan biri bo'lgan Karl Marks dinni «afyun» deb atagan edi. Ushbu mafkuraga asoslanib bolsheviklar hokimiyati tomonidan 1928-yilga kelib, O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan deyarli barcha madrasalar yopildi, 30-yillarning o'rtalaridan boshlab esa mamlakatda ruhoniylar va dindorlar ta'qib etilgan. O'zbekistonning ko'plab nomdor eshon, qori, imom, mulla va umuman islom dini vakillari qatag'oniga uchradilar, ko'plab madrasa va masjidlar buzib tashlandi, minglab nodir qo'lyozma asarlar nobud bo'ldi.

Umuman, 20-yillarning ikkinchi yarmi va 30-yillarda O'zbekistonda 60 mingdan ortiq kishi hibsga olindi. Ulardan 37 mingdan ortig'i jazolandi, 6920 kishi esa otib tashlandi. Minglab o'zbekistonliklar 1934-yilda tuzilgan GULAG (Glavnoye upravleniye ispravitel'no-trudovyx lagerey – Axloq tuzatish mehnat lagerlari bosh boshqarmasi)larga yuborildi. GULAGlarda mahbuslar og'ir sharoitlarda mehnat qilgan. Ularning aksariyat ko'pchiligi xastaliklarga uchrab, vafot etgan.

1937-1938-yillarda O'zbekistonda qatag'on siyosati «yuqori saviya»da o'tkazilayotgani haqida markazni qoniqtiradigan hisobot berish uchun sovet hukumati jazo organlarining vakillari mavjud bo'lmagan «aksilinqilobiy» tashkilotlarni to'qib chiqardilar. Jumladan, O'zbekiston ziyolilari va davlat arboblari Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jayev boshchiligidagi «Burjua-aksilinqilobchi tashkilot markazi», Abdurauf Fitrat rahbarligidagi «Musulmon ruhoniylarning millatchi-isyonchilar tashkiloti», I.Ortiqov boshchiligidagi «Yoshlarning aksilinqilobiy burjua-millatchilik tashkiloti» va boshqalar.

«**O'n sakkizlar guruhi**». 1925-yilning 19-noyabrida bo'lib o'tgan O'zbekiston kommunistik bolsheviklar partiyasi Markaziy Komiteti plenumida 18 nafar yuqori lavozimlarni egallab turgan shaxslar sovet hokimiyati tomonidan O'zbekistonda yer-suv islohotini o'tkazish natijasida xususiy mulkning yo'q qilinishiga va yuqori rahbarlarni tayinlashda sinfiylik tamoyillariga e'tibor berilayotganligiga norozilik bildirib, iste'foga chiqish to'g'risida ariza berdilar. Ular orasida Yer ishlari xalq komissari I. Xidiraliyev, Ichki ishlar xalq komissari R.Rafiqov kabi milliy rahbar kadrlar bo'lgan.

Bir qancha vaqtdan soʻng «oʻn sakkizlar guruhi»dan 8 nafari oʻz arizalarini qaytarib oldi. Qolgan oʻn kishi Oʻzbekiston kompartiyasiga qarshi guruh deb baholandi. Ularni mavjud tuzumga qarshi harakat qiluvchilar, yangi hayotga qarshi boʻlgan, boy-quloqlarga, burjuaziya yon bosuvchi guruh, deb qoralashdi va egallab turgan vazifalaridan ozod qilindi.

«Qosimovchilik». Qosimov Saʼdulla Rashidovich 1901-yilda Toshkent shahrida tugʻilgan. 1925-1926-yillarda Toshkent viloyat sudi, 1926-1929-yillarda esa Oʻzbekiston SSR Oliy sudining raisi lavozimlarida ishlagan.

Oʻz faoliyati davomida S.R.Qosimov sobiq Ittifoq markaziy hokimiyatning shovinistik siyosatiga qarshi fikrlarini bayon etgan. 1929 yilda S.R. Qosimov va uning yetti nafar tarafdori mustabid tuzum tomonidan qamoqqa olindi. 1930 yilning iyun oyida Samarqand shahrida S.R.Qosimov va uning tarafdorlari ustidan SSSR Oliy sudi jinoyat-sudlov kollegiyasi sayyor sessiyasi tomonidan sud jarayoni oʻtkazilib (sud raisi M.I.Vasilyev-Yujin, qoralovchi R.P.Katanyan), ularga «qosimovchilik» tamgʻasi bosilgan. Ular «bosmachilar» bilan aloqada boʻlganliklari va ularni qoʻllab-quvvatlagani, islom dinini himoya qilgani uchun ayblanganlar.

Sud qaroriga koʻra S.SH.Qosimov va uning uch tarafdori otib tashlangan, qolganlari 10 yildan qamoq jazosiga hukm etilgan.

«Inogʻomovchilik». Inogʻomov Rahim Oxunjonovich 1902-yilda Toshkent shahrida tugʻilgan. 1925-1926-yillarda Oʻzbekiston maorif xalq komissari, Oʻzbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining matbuot boʻlimi mudiri, Oʻzbekiston yozuvchilarining Samarqanddagi «Qizil qalam» jamiyatining rahbari kabi masʼul lavozimlarda ishlagan.

Oʻzining maqola va nutqlarida R.O.Inogʻomov 1917-yilda bolsheviklar partiyasi tomonidan sodir boʻlgan davlat toʻntarishida oʻzbek xalqi ishtirok etmagani, uni yevropalik proletar kuchlar amalga oshirganini taʼkidlab, Oʻzbekiston Kompartiyasini markaziy hokimiyatining mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashmayotganlikda, Umumrossiya kommunistik bolsheviklar partiyasi Markaziy Komiteti Markaziy Osiyo byurosi va Markaziy Osiyo Iqtisodiy kengashi kabi markazning nazoratchi organlarini zoʻravonlikda ayblaydi.

Bunga javoban R.O.Inogʻomov ning faoliyati 1926-yilning dekabr oyida Oʻzbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti Ijroiya byurosi va plenumida, 1927-yilning yanvar oyida esa Markaziy Osiyo byurosida koʻrib chiqilib, «inogʻomovchilik-mayda burjua va millatchilik tomonga ogʻish», «burjuaziya agenturasi» deb qoralandi. R.O.Inogʻomov masʼul vazifalardan boʻshatilib, Qashqadaryo viloyatining chekka qishlogʻiga ishlash uchun yuborildi.

R.O.Inogʻomov 1930-yilda matbuotda «ochiq xat» orqali tavbat-zarru qilgan boʻlsa-da, 1937-yilning 25-avgustida Qrim ASSRning Alushta shahrida davolanayotgan paytda qamoqqa olindi va 1938-yilning 5-oktabrida Toshkentda otib tashlandi.

Shunday qilib, XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmi va 30-yillarda sobiq Ittifoqda totalitar, maʼmuriy buyruqbozlik tuzumi shakllangan. Unda rasman hokimiyat boʻlinishi tamoyili mavjud boʻlib, hokimiyat xalq tomonidan saylangan deputatlar qoʻlida, deb eʼlon qilingan boʻlsa-da, aslida hokimiyat toʻlalgicha boshqa siyosiy partiyalarni bartaraf qilgan bolsheviklar partiyasi qoʻlida boʻlgan. Shu davrda mamlakatda, I.V.Stalin taʼbiri bilan aytganda, «sinfy kurash keskinlashgan» va sovet hukumatining mafkuraviy dushmanlariga qarshi ommaviy qatagʻonlar boshlangan.

Qatagʻonlar oqibatida Oʻzbekistonda koʻplab davlat arboblari, oʻzbek adabiyoti va sanʼatining buyuk siymolari, ziyolilari, ishchi va dehqonlari jismonan yoʻq qilinib uzoq oʻlkalarga surgun qilingan.

Prezidentimiz Islom Karimov taʼkidlaganlaridek, 1937-1939-yillarda 41 mingdan ziyod kishi qamoqqa olinib, ulardan 7 mingga yaqini otib tashlangan edi.

Shunday qilib, har qanday boshqa fikrlarni kuch bilan boʻgʻadigan, Vatanga sodiq boʻlgan oʻn minglab kishilarni qirib tashlagan mustabid tartibot tuzimi qaror topib kuchaya bordi.

XIV bob

IKKINCHI JAHON URUSHI VA UNDA KEYINGI YILLARDA O‘ZBEKISTONNING SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI

1-§. O‘zbekistonning fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi

Ikkinchi jahon urushi 1939-yilning 1-sentabrda fashistlar Germaniyasining Polshaga hujumidan boshlanib, deyarli 7 yil, 1945-yilning avgustigacha davom etdi va jahon hamjamiyati uchun misli ko‘rilmagan kulfatlar keltirdi. Uning eng fojiali ko‘rinishi SSSR bilan fashistlar Germaniyasi o‘rtasidagi urush bo‘ldi. Urushda qurbon bo‘lganlar soni 50 milliondan oshib ketdi, mamlakatlarning iqtisodi inqirozga uchradi, millionlab odamlar ochlikdan qirilib ketdi. Umuman taraqqiyot 10 yillab orqaga surilib ketdi.

Ikkinchi jahon urushining boshlanishiga bir nechta sabablarni keltirish mumkin:

- fashistlar Germaniyasining jahonga hukmronlik qilish da‘vosi;
- Angliya, Fransiya va AQShning Germaniya bilan kelishuvi va uning SSSRga qarshi qo‘yilishi;
- SSSRning butun dunyoda kommunizmni yoyishga intilishi. SSSR bilan Germaniya o‘rtasida 1939-yil 23-avgustdagi tuzilgan o‘zaro hujum qilmaslik to‘g‘risidagi shartnoma urush boshlanishini tezlashtirdi.

SSSRning tarkibida bo‘lgan O‘zbekiston tabiiy ravishda bu jarayondan chetda qolishi mumkin emas edi. Respublika ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotida urush oqibatlari bilan bog‘liq bir qancha qiyinchiliklar yuzaga keldi. Ular:

- urushga O‘zbekistondan 1,5 mln.ga yaqin yoki ishga yaroqli odamlarning 50-60% ini¹ safarbar qilindi. Buning oqibatida ishlab chiqarishda ish kuchi tanqisligi yuzaga keldi;
- mamlakat moddiy resurslarini birinchi navbatda front ehtiyojiga yo‘naltirilishi front ortidagi aholini ijtimoiy ta‘minotni masalasini keskinlashtirdi;
- O‘zbekistonga urush harakatlariga tortilgan hududlardagi 104 ta sanoat korxonalarining ko‘chirib keltirilishi, ularni ishga tushirish va ishchi

¹ Фашизм устидан қозонилган ғалабада Ўзбекистоннинг тарихий ҳиссаси. – Т., 1996. – Б.80.

kuchi bilan ta‘minlash zarurati kabi qo‘shimcha muammolarni keltirib chiqardi;

– respublikaga bir milliondan ortiq, shu jumladan, 200 ming nafar yosh bolalarning ko‘chirib keltirilishi aholini ijtimoiy ta‘minlash masalasini yanada murakkablashtirdi;

– frontga safarbar qilinganlardan tashqari, Rossiya sanoat korxonalariga 155 ming nafar mehnatga yaroqli odamlarning safarbar qilinishi¹ respublikada mavjud kadrlar tanqisligini keltirib chiqardi.

Shunday bo‘lishiga qaramay, o‘zbekistonliklar o‘zlarining matonatli mehnatlari bilan fashistlar Germaniyasi ustidan qozonilgan g‘alabaga ulkan hissa qo‘shdilar. Urush yillari o‘zbekistonliklar mamlakat ehtiyojiga: salkam 5 mln. tonna paxta; 1mln. 300 ming pud g‘alla, 160 ming tonna go‘sht va boshqa ko‘plab oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berdilar. Urush yillarida O‘zbekistondan frontga quyidagi qurol-aslahalar – 2090 nafar samolyot, 13,3 ming aviamotor, 17 ming minomyot, 22 mln. mina, 560 mln.snaryad, 2,3 mln. aviabomba va boshqalar yetkazib berildi.

Frontda ko‘rsatgan qahramonligi uchun 120 ming nafar o‘zbekistonlik orden va medallar bilan taqdirlandilar, shundan 338 nafari Sovet Ittifoqi Kahramoni unvoniga ega bo‘ldi².

Urush demokratik kuchlar g‘alabasi bilan yakunlandi. Nyurnberg va Tokio xalqaro tribunallarida urushni boshlagan va insoniyat boshiga sonasanoqsiz kulfatlar keltirgan jinoyatchilar qilmishiga yarasha jazolandilar.

Ikkinchi jahon urushi XX asrning eng katta fojiasi bo‘ldi. Bu urush jahondagi 61 mamlakatni, Yer yuzi aholisining 80 foizini, ya‘ni 1,7 milliard kishini o‘z girdobiga tortdi. Ikkinchi jahon urushida 50 mln.dan ortiq kishi halok bo‘ldi, 90 mln.dan ortiq kishi yarador va mayib-majruh bo‘ldi. Bu Birinchi jahon urushida qurbon bo‘lganlarga nisbatan 5 barobar ko‘pdir.

Ikkinchi jahon urushidagi talafotlar qimmatini 4 trillion dollardan oshib ketadi. Urush Yevropa, Afrika, Osiyo va Okeaniyada turli frontlarda olib borildi, fashizmni tor-mor etishda ko‘plab mamlakatlar qatnashdi. Biroq urushning acociy og‘irligi sobiq ittifoqda yashagan xalqlar zimmaciga tushdi. Shu mamlakat hududida yashagan 27 millionga yaqin aholi urush alangacida halok bo‘ldi. 18 milliondan ortiq jangchilar yarador va nogiron bo‘lib qoldilar.

Fashizm uctidan qozonilgan g‘alabaning olamshumul tarixiy ahamiyati shundaki, u ko‘plab xalqlarni zo‘ravonlikdan, zulmdan ozod etdi, erkin, demokratik rivojlanish, iqtisodiy va ma‘naviy taraqqiyot uchun yo‘l

¹ Ўша манба. – Б. 13,80,132.

² Ўша манба. – Б. 15, 20.

ochib berdi. Ikkinchi jahon urushi butun insoniyatga katta tarixiy caboq bo'ldi. Eng muhim shundaki, urush boshlanmagan oldin unga qarshi kurashish, uning oldini olish tadbirlarini ko'rmoq zarur. Shu maqadda jahondagi ko'pchilik mamlakatlar Birlashgan Millatlar Tashkilotini tuzdilar. Bu xalqaro tashkilot yarim asrdan ko'proq vaqt ichida jahonda tinchlikni muctahkamlash, xalqaro va mintaqaviy xavfcizlikni ta'minlash macalalari bilan shug'ullanib kelmoqda.

Fashizm uctidan g'alaba qozonilgan 9 may kuni O'zbekistonda har yili «Xotira va qadrlash kuni» cifatida nishonlanmoqda. Respublika faxriylar uyushmacining tashabbusi bilan janglarda halok bo'lgan vatandoshlarimiz haqida arxiv materiallari to'planib, bu ma'lumotlar acocida «Xotira» turkumida 34 kitob nashr etildi. Har yili urushda qurbon bo'lganlarni xotirlash, biz bilan hozirgi kunlarda yonma-yon yashayotgan urush faxriylarini qadrlash, e'zozlash, hurmat-izzatini joyiga qo'yishdek inconiy ishlar yoshlarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda, muctaqil O'zbekistonning milliy xavfcizligini muctahkamlashda, mustaqillikning qadriga yetishda katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov (G'alabaning 50 yilligi munosabati bilan) ta'kidlaganidek: «Ikkinchi jahon urushiga qanday qaralmasin, bu urush qaysi g'oya ostida va kimning izmi bilan olib borilgan bo'lmasin, o'z Vatani, el-yurtining yorug' kelajagi, beg'ubor osmoni uchun jang maydonlarida halok bo'lganlarni, o'z umrlarini bevaqt xazon qilgan insonlarni doimo yodda saqlaymiz»¹.

2-§. XX asrning 50–80-yillarida O'zbekiston iqtisodiyotining bir yoqlama rivojlanishi

Urushdan keyingi yillarda O'zbekistondagi vaziyatning o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

birinchidan, fashistlar ustidan g'alaba, frontga ketganlarning qaytib kelishi, tinch mehnatga o'tilishi aholiga ko'tarinki ruh bag'ishladi;

ikkinchidan, aholining asosiy qismida majburlov tizimining susayishiga, demokratik normalarni joriy qilinishiga umid paydo bo'ldi;

Shu bilan birga, O'zbekiston aholisi urush oqibatlari bilan bog'liq bir qancha qiyinchiliklarga to'qnash keldi. Ular:

– urushda 263 mingdan ortiq odam halok bo'ldi, salkam 133 ming kishi bedarak yo'qoldi, 600 mingdan ortiq kishi nogiron bo'lib qaytdi². Bu mehnat resurslariga tanqislikni keltirib chiqardi;

¹ *Каримов И.А.* Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – Т., 1996. – Б.81.

² Ўша манба. – Б. 80.

– urushdan qaytib kelganlarning ko'pchiligining malakasi yo'q edi, ular endi mutaxassislikni egallashi kerak bo'lgan. Bu esa iqtisodiyotni tashkil qilishda qo'shimcha muammolar tug'dirdi;

– urush ehtiyojiga moslashtirilgan korxonalarni yana qaytadan tinchlik davriga moslashuvi qo'shimcha mablag'larni talab qilardi;

– aholining turmush darajasi ko'rilyotgan choralarga qaramay urushdan oldingi davrga nisbatan deyarli ikki barobar past edi;

– urush tugashi bilan urush jarayonida fashizmga qarshi birgalikda kurash olib borgan yirik davlatlar, birinchi navbatda AQSH bilan SSSR o'rtasida qarama-qarshilik avj oldi, «sovuq urush» bilan bog'liq qurollanish poygasi kelib chiqdi. SSSR rahbariyati mamlakatning harbiy qudratini yana aholi turmush darajasini past darajada ushlab turish hisobiga amalga oshirishni rejalashtirdi;

– qiyinchiliklar davom etayotganligi sababli, aholi noroziligi kuchayishining oldini olish uchun, uni qo'rquvda ushlab turish maqsadida qatag'on siyosatini qaytadan tikladi. Masalan, 1951-1952-yillarda bir qancha ziyolilar (Shukurullo, Shuhrat, Shayxzoda, X.Sulaymon va boshqalar) burjua millatchiligida, mafkuraviy aynishda, panturkizm, sovetlarga qarshi harakatda ayblanib, 25 yilga hukm qilindilar.¹

– O'zbekistonning iqtisodiyoti mustabid hokimiyat siyosatiga bo'ysundirildi. Bu birinchi navbatda paxta ishlab chiqarishni yanada kengaytirish va unga ishlov beradigan texnikani yaratadigan mashinasozlik korxonalarini qurishda namoyon bo'ldi.

O'zbekiston SSR Oliy Kengashining 1946-yil avgustidagi 8-sessiyasida qabul qilingan 1946-1950-yillarga mo'ljallangan rejada respublikamiz oldiga muhim vazifalar qo'yildi. Bunga ko'ra, xalq xo'jaligining barcha sohalariga 3 mlrd. 900 mln. so'm kapital mablag' ajratildi. 1946-1950-yillarda sanoat mahsulotining yalpi hajmi 71 foizga ko'paydi, bu urushdan oldingi darajadan 1,9 barobar ko'p edi. Sanoatning xalq xo'jaligidagi salmog'i 47,7 foizni tashkil qilgan edi. Sanoatni rivojlantirish ishlari respublika iqtisodiyotining yetakchi sohasi paxtachilikni rivojlantirishga qaratildi. Elektr quvvati ishlab chiqarishga alohida e'tibor berildi. 1946-1950-yillarda 8 ta yirik va o'rta hajmdagi elektrostansiyalar, Oqqovoq-2, Bo'zsuv-2 elektro stansiyalari, jami 150 ta yangi sanoat korxonalari ishga tushirildi². Birgina Farxod GESi 300 000 kv. soat kuchga ega bo'lib, bu

¹ Ўзбекистон янги тарихи.К.2.Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т., 2000. – Б.512-513.

² Ўша манба. – Б.180.

stansiya sobiq Ittifoqda uchinchi o'rinda bo'lib, urushgacha O'zbekistonda ishlab chiqarilgan elektr quvvatiga teng quvvat beradigan bo'ldi.

1946-1949-yillarda iqtisodiyotni tiklash ishlari qishloq xo'jaligida, ayniqsa paxtachilikda qiyin kechdi. O'zbekistonda paxtachilikni rivojlantirish to'g'risida sovet hukumatining qabul qilgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan asoslanmagan o'nlab qarorlari izchillik bilan amalga oshirilmadi, shuning uchun ham kutilgan natijalarni bermadi. 1947-1948-yillarda paxta tayyorlash davlat rejasi bajarilmadi. 1949 yildan boshlab ahvol birmuncha o'zgardi. 1950 yili 2 mln. 222 ming tonna paxta yetkazib berildi, hosildorlik gektaridan 20,7 sentnerga yetdi. 1950-yildan paxtaning xarid narxi oshirilib, 1 tonnasiga 2200 so'm, ya'ni avvalgidan ikki baravar ko'p haq to'landi.

Qishloq xo'jaligida ahvol og'irligicha qolaverdi. 1950-yilda paxta, g'alla, sabzavot, poliz, chorvachilik mahsulotlari yetishtirish urushdan oldingi ko'rsatkichga yetib bormadi¹. Respublika aholisining uchdan ikki qismini tashkil qilgan qishloq aholisining moddiy ahvoli ham og'ir edi. Ularning oylik daromadi o'rtacha 20 so'mni tashkil qilgan holda, bu ko'rsatkich ishchilarda 64 so'm edi. Vaholanki, urushdan keyingi xo'jalikni tiklash va rivojlantirishning asosiy og'irligi qishloq aholisi zimmasida edi. Bu davrda aholining tomorqa xo'jaliklari va chorvasiga solinadigan soliqlarning ko'payishi bog'-rog'larning qisqarib ketishi, chorva mollari sonining keskin kamayib ketishiga olib keldi.

Bu davrda respublika rahbariyatni markaz tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy siyosatni hayotga tatbiq qilishga majbur edi. Respublika rahbariyati markazning bosimini yumshatishga, aholining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy ehtiyojlarini imkon boricha qondirishga harakat qilar, lekin ko'rilgan tadbirlar ko'pincha ko'zda tutilgan natijaga olib kelmas edi.

Shuni eslatib o'tish kerakki, ma'muriy buyruqbozlik tizimining bosimi nafaqat O'zbekistonga, balki ittifoq tarkibidagi boshqa milliy respublikalarda ham sezilib turardi.

O'zbekistonda sanoat taraqqiyoti. 1950-1980-yillar – O'zbekiston tarixida murakkab davrlar edi. Bir tomondan, O'zbekiston xalqining fidokorona, bunyodkorlik mehnati tufayli respublika iqtisodiyoti anchagina rivojlandi. Ikkinchi tomondan, sobiq mustabid ma'muriy-buyrukbozlik tizimining kuchayishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda bir qator muammolar to'planib bordi.

¹ Ўзбекистон янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т. 2000. – Б.210.

Avvalambor, respublikada ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda xatolarga yo'l qo'yildi. Xususan Toshkent va Toshkent viloyatida yirik sanoat korxonalari qurildi, sanoat ishlab chiqarishini joylashtirishda nomutanosiblikni keltirib chiqardi. 1955-yili dekabrda O'zbekiston Kompartiyasining birinchi kotibi lavozimiga avval Vazirlar Kengashining raisi vazifasida ishlagan Nuriddin Muhiddinov saylandi. Uning tashabbusi bilan Markaz qaramog'idagi yuzlab sanoat korxonalari respublika ixtiyoriga o'tkazildi. 1960 yillarda O'zbekiston sanoatida bir qancha o'zgarishlar yuz berdi. 1959 – 65-yillarda 450 dan ziyod sanoat korxonalari (shundan 150 yirik) va sexlar ishga tushirildi.

1950 – 60-yillarda O'zbekistonda energetika va yoqilg'i sanoatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Jumladan, Shaxrixon, Namangan, Bo'zsuv, Chorvoq, Xojikent GESlari, gaz bilan ishlaydigan Angren, Taxiatoq, Navoiy, Sirdaryo, Angren-2 GREslari qurilib ishga tushirildi. Shuningdek, 50-yillarda Surxondaryoda Sharg'un toshko'mir koni, 60-yillarda Buxoro va Xorazm viloyatlaridagi Gazli, Jarqoq, Sho'rtepa, Sho'rchi neft konlari o'zlashtirildi. 1959-yili Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi.

1950–80-yillarda O'zbekistonda gaz sanoati Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida topilgan yirik gaz va neft (Gazli, Muborak, O'rtabuloq, Kultog', Uchqir, Jarqoq, Qorovulbozor,) konlarining o'zlashtirilishi asosida rivojlanib bordi. 1953-yili Setalantepe, 1955-yilda Jarqoq, 1956-yilda Gazli neft konlarining ochilishi natijasida gaz sanoatining moddiy bazasi yaratildi. 1958-1960-yillarda Jarqoq-Buxoro-Samarqand-Toshkent magistral gaz quvuri qurilishi bilan respublika sanoat korxonalari, shahar va ayrim qishloqlarni gazlashtirish boshlandi.

1950–80-yillarda O'zbekistonda kimyo sanoatini rivojlantirishga katta e'tibor berildi. 1985-yilga kelib respublika kimyo korxonalarida 7,8 mln. tonna mineral o'g'it ishlab chiqarildi. Bu 1960-yildagidan 7 marta, 1950-yildagiga nisbatan 15 marta ortiq edi. Toshkent, Olmaliq, Chirchiq, Samarqand, Navoiy. Farg'ona, Yangiyo'l, Namangan va boshqa shaharlar kimyo sanoati markaziga aylandi. Respublikamizda zaharli kimyo vositalarini ishlab chiqarish yildan – yilga ko'payib bordi. 1985-yilga kelib 47,9 ming tonna turli zaharli ximikatlar ishlab chiqarildi. Zaharli kimyo vositalarining qishloq xo'jaligida haddan tashqari keng ko'llanilishi atrof-muhit va ekologik vaziyatning buzilishiga olib keldi.

1950–60-yillarda O'zbekistonda qora, rangli va nodir metall konlarining topilishi metallurgiya sanoatini rivojlantirishga turtki bo'ldi. Masalan, Bekobod, Chirchiq, Toshkent, Navoiy, Zarafshon, Olmaliq, Uchquduq shaharlari qora va rangli metallurgiya markazlari sifatida

rivojlandi. Shuningdek, O'zbekistonda 60-yillarda oltin qazib olish sanoati vujudga keldi. 1966-1970-yillarda sanoatda jadallashtirish natijasida oltin, uran, neft ishlab chiqaruvchi sohalar yanada rivojlandi.

O'zbekistonda mashinasozlik sanoati 50–80-yillarda asosan paxtachilikka, ya'ni birinchi navbatda, paxtachilikka xizmat qiluvchi mashinasozlik tarmog'iga aylandi. Masalan, «Tashselmash», «O'zbekselmash», «Chirchikselmash», Samarqanddagi «Красный двигатель» va boshqa zavodlar asosan paxtachilik bilan bog'liq mashinalar ishlab chiqarishga moslashgan edilar¹.

Bu davrda respublikada transport qurilishiga alohida e'tibor berildi. Amudaryoning chap qirg'oqlari bo'ylab 400 km masofaga Chorjo'y-Urganch temir yo'li qurildi. Bu bilan Ashxobod, Samarqand, Dushanbe, Toshkent va boshqa shaharlardan tovar, yo'lovchi poyezdlari Ittifoqning Yevropa qismi bilan bog'landi.

50–80-yillarda O'zbekistonda yengil sanoat xam bir tomonlama rivojlandi. O'zbekistonda 80-yillarda 107 ta paxta tozalash zavodlari mavjud edi. 70–80-yillarning boshlarida respublikamizda bir qancha to'qimachilik sanoati korxonalarini – Buxoro to'qimachilik kombinati (1973), Andijon ip gazlama kombinati (1979), Nukus ip gazlama kombinati (1983), Jizzax paxta yigiruv fabrikasi, yirik to'qimachilik kombinatlariniig Qo'rg'ontepa, Marhamat, Beshariq, Rishton, Vobkent, G'ijduvon filiallari ishga tushirildi. XX asrning 70–80-yillari boshlarida O'zbekistonda yiliga 1,5 million tonna paxta tolasi yetishtirib berilardi. Lekin respublikamiz to'qimachilik sanoati yetishtirilgan paxta tolasining atigi 10 %ni qayta ishlash imkoniyatiga ega edi xolos. Xomashyo Ittifoqning boshqa shaharlariga olib ketilar va tayyor mahsulotga aylantirilardi.

1950-1985-yillarda respublikaning milliy daromadi 4,4 marta, sanoat mahsulotlarining hajmi 4,9 marta, mineral o'g'it ishlab chiqarish 7 marta, elektr energiyasi ishlab chiqarish 8 marta, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish 2,3 marta, paxta tolasi ishlab chiqarish 2,6 marta o'sdi².

O'zbekistonda urushdan keyin 1985-yilgacha 2 mln. 200 ming gektar qo'riq yerlar o'zlashtirildi, har besh yillikda 100 ta sanoat korxonasi ishga tushirib turildi³.

1958-yili O'zbekiston dunyoning 32 mamlakatiga sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini chiqargan bo'lsa, 1970 yil 76 mamlakat bilan savdo

¹ Ўша манба. – Б.393-394.

² Qarang: Народное хозяйство Узбекистана СССР за 60 лет. – Т., 1984. – С.19.

³ Qarang: Ўзбекистон янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т., 2000. – Б.521-546.

aloqalarini o'rnatdi. Chet davlatlarga mahsulot chiqarishda O'zbekiston sobiq Ittifoqda RSFSR va Ukrainadan keyingi uchinchi o'rinda turardi. Qorako'l teri va paxta tolasidan boshlab, mashinasozlik mahsulotlarining 250 turi to'rt qit'aning deyarli hamma mamlakatlariga chiqarildi. Afsuski, bu mahsulotlar O'zbekiston nomidan emas, «SSSRda ishlangan» degan marka bilan dunyoga tanildi.

Andijon mashinasozlik zavodining mahsulotlari 44 mamlakatga, Toshkent kabel zavodining mahsuloti 27, Chirchiq elektroximkombinati 20, Samarqanddagi «Kinap» zavodi 30 mamlakatga o'z mahsulotini chiqardi. Ko'p yillar davomida paxta tashqi bozorga chiqarilgan asosiy mahsulot bo'lib, 1953-yildan boshlab O'zbekiston paxtasi Amerika Qo'shma Shtatlari, Meksika, Suriya kabi paxta yetishtiruvchi mamlakatlarning raqobatini yengib yirik rivojlangan davlatlar bozoriga chiqdi va jami 35 davlatning bozorini egalladi.

Bu yutuqlar nafaqat sobiq Ittifoq markaziy hokimiyatining rahnamoligi, sarmoyasi bilan bog'liq, balki O'zbekiston xalqining qiyinchiliklarga bardosh berib, sidqidildan qilgan mehnatining samarasi edi. Aholining turmush darajasi ham o'zgardi. Agar shu davrda milliy daromad 4,4 barobar o'sgan bo'lsa, kishi boshiga to'g'ri keladigan daromad bori-yo'g'i 1,5 barobarni tashkil qilardi.

70–80-yillarning birinchi yarmida xalq xo'jaligining ishchi kadrlarga bo'lgan talabi ilmiy asoslangan tarzda o'rganilmadi. Natijada kadrlar tayyorlashni rejalashtirishda jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yildi, ba'zi sohalarida keragidan ortiq ishchi kadrlar tayyorlandi, boshqa sohalarida, ayniqsa texnika taraqqiyotini belgilaydigan tarmoqlarda mahalliy millat vakillaridan ishchi kadrlar tanqisligi sezilib qoldi. 1971-yildan – 1985-yillarga qadar O'zbekiston xalq xo'jaligida ishchi va xizmatchilar soni 2641,5 mingdan 4833,5 mingga ko'paydi. Biroq, bu o'sish sun'iy ravishda, ya'ni respublikamizga tashqaridan ko'plab kishilarni ko'chirib keltirish hisobiga ro'y berdi.

1950–1980-yillarda O'zbekistonda sanoat sohasi jadal rivojlantirildi, lekin ishlab chiqarish bir tomonlama rivojlanib, respublikamiz mustaqil ravishda tayyor sanoat mahsuloti ishlab chiqarish imkoniyatidan mahrum edi.

Sobiq sovet davrida an'anaga aylangan xalq xo'jaligini rivojlantirish besh yillik rejalarining real vaziyatni hisobga olmasdan ishlab chiqilishi, yetarli ilmiy asoslanmaganligi natijasida ularning keyingi yillarda bajarilmay qolishiga, barbod bo'lishiga olib keldi. Buning oqibatida xo'jalik tarmoqlarida zo'riqish, uzilish holatlari yuz berdi, ishlab chiqarish quvvatlari to'la ishga solinmadi, mehnat unumdorligi muttasil kamayib

bordi. Eng ayanchlisi, sovet davlatining O'zbekistonda olib borgan iqtisodiy siyosati, respublikaning tabiiy xomashyo resurslaridan, suv zaxiralaridan noto'g'ri foydalanishi, ishlab chiqarish ekstensiv yo'lining rivojlantirilishi, qishloq xo'jaligida paxta yakkahokimligining joriy etilishi, ko'plab turli xil kimyoviy zaharli moddalarning ishlab chiqarilishi va ularning qishloq xo'jaligida haddan ziyod ishlatilishi bu yerda asrlar mobaynida vujudga kelgan va mavjud bo'lgan tabiiy muvozanatni izdan chiqardi. Respublikamizda og'ir ekologik muammolarni, jumladan Orol muammosini vujudga keltirdi.

Respublika iqtisodiyotining ahvoli, jamiyatni boshqarish usullarini qayta ko'rib chiqishni, ularni yangi sharoitga moslashtirishni talab qilsa ham O'zkompartiya, uning qo'mitalari, urush davrining ish tajribasini davom ettirib, markazda va joylarda hokimiyatni o'z qo'lida mahkam ushlab, ma'muriy buyruqbozlik tizimini yanada kuchaytirdi.

3-§. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi taraqqiyoti va paxta yakkahokimligining oqibatlari

O'zbekistonda 50–60-yillarda qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish va shu asosda paxta va g'alla yetishtirishni ko'paytirish choralari ko'rildi. O'zbekistonda uch yil ichida (1953-1955-yillar) 130 ming gektar yangi yerlar ochildi. 1956-yili Mirzacho'lning o'zida sug'oriladigan maydonlar 205 ming gektarga yetdi.

O'zbekistonda paxta yetishtirishni ko'paytirish maqsadida 50-yillar oxiridan irrigatsiya-melioratsiya qurilishi sur'atlari tezlashtirildi. Qisqa muddat ichida Mirzacho'ldagi qo'riq yerlarni sug'orish va o'zlashtirishga kirishildi. Bu davrda Janubiy Mirzacho'l kanali, Qarshi magistral kanali, markaziy Mirzacho'l kollektori qurildi, Shimoliy Mirzacho'l kanalini kengaytirish ishlari boshlandi. Amudaryodan chiqarilgan Amu-Buxoro va Amu-Qorako'l kanallari sug'oriladigan yerlar hajmini ko'paytirishga imkon berdi. Shu yillarda bir qancha yirik gidrotexnik inshootlar: Toshkent viloyatida Ohangaron suv omborining 2-navbati, Yuqori Chirchiq suv tarmog'i, Jizzax suv ombori, Buxoro viloyatida Quyimozor suv ombori, To'dako'l va Tallimarjon suv omborlari barpo etildi.

Markaziy Farg'onani o'zlashtirish munosabati bilan, Norin daryosidan suv oladigan Katta Andijon va Katta Namangan kanallari, sig'imi 2 milliard kubometrغا teng Andijon suv ombori qurildi. Katta Farg'ona kanali qayta ta'mirlandi. Lekin kanal va suv omborlarining qurilishi iqtisodiy samara berishi bilan birga, atrofdagi yerlarga salbiy ta'sir ko'rsatib, yer osti suvlarining ko'tarilishiga, yerlarning sho'rlanishiga, bog'lar va tokzorlarning qurishiga sabab bo'ldi.

1946-1965-yillarda 600 ming gektar, 1966-1985-yillarda 1800 ming gektar yangi yerlar o'zlashtirildi.

1985-yilga kelib respublikada 900 ta sug'orish tarmog'i, 92 ming gidrotexnik qurilmalar, 10 mlrd m³ hajmda suv to'playdigan 23 ta suv omborlari mavjud edi. 70-80-yillarda suvning tabiiy muvozanatini buzilishi yer, suv, hatto havoning zaharlanishiga olib keldi. Orol dengizi qurishi va uning atrofida favqulodda halokatli ekologik xavfni keltirib chiqardi.

Paxtachilikni rivojlantirish uchun mineral o'g'itlardan foydalanishga katta e'tibor qaratildi. Respublikada 1951-yilda 0,9 mln. tonna mineral o'g'it ishlatilgan bo'lsa, 1980-yilda uning miqdori 5 mln. tonnadan oshib ketdi. G'o'za barglarini to'kish va zararkunandalarga qarshi kurashda ishlatilgan o'ta zaharli ximikatlar (butifos, merkaptafos va b.)dan haddan tashqari keng miqyosda foydalanish aholi sog'lig'iga yomon ta'sir qildi.

Dunyo bo'yicha pestitsidlar har bir kishiga 300 gr.dan, AQSH da 800 gr.dan to'g'ri kelgan bo'lsa, 1989-yil respublika bo'yicha bu har bir kishiga 7-8 kg.ni, respublikaning paxta ekiladigan hududlarida esa 25-45 kg.ni tashkil etdi.

Paxta xomashyosini yetishtirish 1946-1985-yillarda 5,5 baravar ko'paydi, paxta ekiladigan maydonlar 1 mln. gektardan ortdi. 1966-1986 yillar mabaynida O'zbekiston qishloq xo'jaligiga 45 mlrd. so'm mablag' ajratilgan bo'lib, shundan 17,1 mlrd. so'mi sug'orish tarmoqlariga sarflandi. Shu davrda 1,5 mln. ga yer o'zlashtirildi. O'zlashtirilgan yerlarda yangi 160 ta sovxozlar tashkil etilgan bo'lib, 20 yil davomida bu yerlarda 10,4 mln. tonna paxta xomashyosi yetishtirildi.

Qishloq xo'jaligining ekstensiv yo'ldan rivojlantirilishi, totalitar rejimning sug'orish texnologiyasiga qo'pol aralashuvi og'ir ekologik va boshqa turli noxush ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqardi.

Sanoat va qishloq xo'jaligida yuzaki islohotlar xalqning turmush darajasida deyarli o'zgarish yasamadi. Ayniqsa, sobiq Ittifoqdagina emas, balki mehnat sharoiti eng og'ir bo'lgan o'zbek paxtakorlarining turmush darajasi ayniqsa, achinarli ahvolda bo'ldi. Qishloq aholisining kundalik iste'mol mollaridan foydalanish darajasi umumittifoq darajasidan ancha past, ham achinarli edi.

Paxta yakkahokimligining kuchayishi qishloq xo'jaligining boshqa sohalarini qoloqlikka olib keldi, g'alla, chorvachilik mahsulotlari, sabzavot-mevaga aholining talabi qondirilmadi. Buning ustiga, tomorqaga nisbatan noto'g'ri siyosat olib borildi. 50-yillarning boshlarida respublika rahbarlarining tashabbusi bilan sug'oriladigan yerlarda tomorqa hajmi 25 sotixdan 13 sotixga tushirildi. Bu ko'rsatkich joylardagi rahbarlarning o'zboshimchaligi bilan 10 sotixgacha, Farg'ona, Toshkent viloyatlarida esa,

hatto 6-8 sotihgacha kamayib ketdi. Bu holat respublika qishloq aholisining turmush darajasini g'oyat og'ir ahvolda soldi.

1990-yil boshiga kelib respublikada 9 mln. yoki respublika aholisining 45 foizi jon boshiga hisoblaganda oyiga 75 soʻmdan kamroq daromadga ega edi. Bu esa kun kechirish uchun zarur boʻlgan eng past darajadan ham kamdir.

Oʻzbekistonda ekologik tanglikning keskinlashuvi. Orol fojeasi.

Sobiq sovet tuzumi davrida Oʻzbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasidagi boshqa respublikalarning tabiiy xomashyo resurslaridan beayov foydalanish, ishlab chiqarish ekstensiv yoʻlining rivojlantirilishi, paxta yakkahokimligining izchillik bilan joriy etilishi, turli xil zaharli kimyoviy moddalarning ishlab chiqarilishi va ularning qishloq xoʻjaligida haddan ziyod ishlatilishi bu yerda koʻp asrlar mobaynida vujudga kelgan va noyob tabiiy muvozanatni izdan chiqardi. Mamlakatimizda ayniqsa, 80-yillarda halokatli tus olgan juda murakkab ekologik tanglikni vujudga keltirdi, shular sababli Orol muammosi yanada keskinlashdi.

Sobiq Ittifoq davrida urbanizatsiya jarayonining kuchayib, sugʻorma qishloq xoʻjaligi ekinlari maydonlarining kengayishi, kommunikatsiyalar oʻtkazilishi, oʻrmonlarning kesib yuborilishi, suv resurslaridan oqilona foydalanilmaganligi, yer osti qazilma boyliklarini ochiq usulda qazib olinishi tabiatga nisbatan oʻnglab boʻlmaydigan zarar yetkazdi. Oʻzbekiston shaharlarining deyarli hammasida havoning ifloslanish darajasi sanitariya talablari darajasidan ancha oshib ketgan edi. Bu, ayniqsa, Oʻzbekistonning sanoat markazlarida xavfli tus oldi. 1990-yilda respublika aholisining har biriga hisoblaganda zaharli moddalar chiqiti 203 kg ni tashkil etdi. Ular tarkibida 100 xildan ortiq zaharli moddalar mavjud edi.

Zaharlanish Oʻzbekistonning shahar va qishloqlarida xavfli tus oldi. Ayniqsa, qishloq xoʻjaligida qoʻllaniladigan zaharli ximikatlar tabiatga katta zarar yetkazdi. Ekin maydonlarini defoliatsiya qilish bahonasida ming-ming tonnalab zaharli ximikatlar dalalarga qoʻshib, aholi yashaydigan uy-joylar ustidan samolyotlarda sepildi. Bu aslida dahshatli fojia edi.

Oʻzbekiston ekologiyasi buzilishining ikkinchi sababi–suvdan foydalanish masalasi bilan bogʻliq edi. Sovet tuzumi davrida Amudaryo, Sirdaryo, Chirchiq, Zarafshon daryolari suvlaridan hisob-kitobsiz foydalanish oxir-oqibatda Orol fojiasini keltirib chiqardi.

Edilikda yuzaga kelgan ana shu ekologik va iqtisodiy muammolar faqat Orol boʻyi uchun emas, balki butun Markaziy Osiyo va uning atrofidagi mamlakatlar uchun ham yaqqol koʻzga tashlanib turgan muammo boʻlib qoldi.

Mamlakatdagi ekologik inqiroz aholi oʻrtasida har xil kasalliklarning koʻpayishiga olib keldi va katta fojialarga sabab boʻldi. Mamlakat boshiga

tushgan ekologik inqiroz uzoq davom etishi mumkin emas edi. Vujudga kelgan ogʻir vaziyat yaxlit ijtimoiy adolatli ekologik siyosat yuritishni talab qilayotgan edi.

Mustaqillik yillarida hukumatimiz tomonidan Orol dengizi muammosini hal etishga katta eʼtibor qaratildi. 1993-yilning mayida Toshkentda Orol va Orolboʻyi muammolari boʻyicha dastlabki Xalqaro tadqiqotlar loyihasi imzolandi. 1997-yil 18-iyunda Orolni qutqarish xalqaro jamgʻarmasi tuzildi.

70–80-yillarida Oʻzbekistonda turgʻunlik holatining vujudga kelishi.

XX asrning 70-80-yillarida SSSRda iqtisodiyotning rivojlanish surʼatlari tobora pasayib, sarf-xarajatlari ortib bordi. Mavjud imkoniyatlarni hisobga olmasdan ishlab chiqilgan ijtimoiy, oziq-ovqat, agrar, energetika, ekologiya va boshqa sohalardagi dasturlar samara bermadi, iqtisodiy ziddiyatlarni chuqurlashtirib yubordi. Bu holat keyinchalik 1970-1980-yillarning turgʻunlik yillari deb nom olishiga sabab boʻldi:

– birinchidan, agar 1961-1965-yillarda respublika milliy daromadining yillik oʻsishi 7,8 % ni tashkil qilgan boʻlsa, 1981-1985-yillarga faqat 3 % tashkil qildi.

– ikkinchidan, iqtisodiyotning rivojlanishi aholining turmush darajasini koʻtarishga sezilarli taʼsir koʻrsatmadi. Agar 1940-yilda davlat xarajatlarining 20 % iqtisodiyotni rivojlantirishga, 68% ijtimoiy-madaniy sohaga sarflangan boʻlsa, 1986-yilga kelib bu koʻrsatkichlar mos ravishda 51 % va 46% ni tashkil qildi¹.

– uchinchidan, mehnat unumdorligi yildan-yilga pasayib bordi. Masalan, Oʻzbekistonda 1971-1975-yillarda mehnat unumdorligining yillik oʻsishi 4,8% ni tashkil qilgan boʻlsa, 1981-1985-yillarga kelib u deyarli bir meʼyorda toʻxtab qoldi, baʼzi sohalarda kamayib ketdi²;

– toʻrtinchidan, ishlab chiqarishni rivojlantirish asosan yangi sanoat korxonalarini qurish va yangi yerlarni oʻzlashtirish hisobiga, yaʼni samarasiz ekstensiv yoʻl bilan amalga oshirildi.

1950-1985-yillarda Oʻzbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida nomutanosiblik (disproporsiya) kuchayib bordi. Bu quyidagi koʻrinishlarda namoyon boʻldi:

– sanoatni rivojlantirishda asosan ogʻir industriyaga eʼtibor qaratildi. Masalan, 1985-yilda ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi korxonalarining mahsuloti umumiy sanoat ishlab chiqarishining 75% ini

¹ Qarang: Народное хозяйство Узбекской ССР за 70 лет Советской власти. – Т., 1987. – С.30.

² Ўзбекистон янги тарихи. К. 2. – Т., 2000. – Б.528.

tashkil qilgan bo'lsa, aholining iste'molini qondiradigan mahsulotlar ishlab chiqarish esa 25% ini tashkil qildi xolos;

– markaz O'zbekistonni asosiy xom-ashyo bazasi sifatida saqlab qolishga harakat qildi. Qazib olinayotgan yer osti boyliklariga respublikamizda asosan dastlabki ishlov berish bilan chegaralanildi;

– kimyo sanoati asosan paxtachilik bilan bog'liq holda rivojlantirildi, natijada oziq-ovqat, sabzavot, mevalarni qayta ishlaydigan sanoatga kam e'tibor berildi;

– nomutanosiblikning yorqin ko'rinishi paxtachilikni rivojlantirishda namoyon bo'ldi. Unga respublikamizda sug'oriladigan yerlarning 75% ajratilib, qishloq xo'jaligini ilmiy asosda tashkil qilish qoidalari buzilib, tuzatib bo'lmaydigan xatolarga yo'l qo'yildi.

4-§. XX asrning 40–80-yillarida O'zbekistonda madaniy va ma'naviy hayot

Urushdan keyingi 40 yildan ortiq vaqt ichida madaniyatning turli jabhalarida e'tiborga molik o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, yuzlab yangi maktablar ochildi, umumiy o'rta majburiy ta'limga o'tish yakunlandi.

Urushdan keyin majburiy 7 yillik, 1959-yildan 8 yillik, 1970-yildan boshlab 10 yillik ta'lim amalga oshirila boshlanadi. 1946-47-o'quv yilida respublikada 4483 ta maktab bo'lsa, 1965-66-yillarda ularning soni 9716 taga yetdi. 1990 yil O'zbekistonda maktablar soni 9.000 tani tashkil etdi, lekin ulardan 1.700 tasi ayanchli ahvolda bo'lib, mukammal ta'mirlashni talab qilar edi.

1978-1979-o'quv yilida respublikada 43 ta oliy o'quv yurti bo'lib, bularning kunduzgi, sirtqi, kechki bo'limlarida 26 ming talaba tahsil oldi. Talabalar, oliy ma'lumotli mutaxassislar, ilmiy xodimlarning soni jihatdan 10 ming kishiga hisoblaganda, O'zbekiston ilg'or mamlakatlar qatorida tursa ham, kadrlar tayyorlash tizimida jiddiy nuqsonlar bor edi. Oliy o'quv yurtlariga viloyatlardan qat'iy reja asosida qabul qilingan, qanday bo'lmasin, ularni bitirtirib chiqqanidan keyin ko'plab malakasi yetarli bo'lmagan mutaxassislarga ham diplom berilgan.

Ta'lim-tarbiya, ilmiy tadqiqot ishlarining miqdoriy ko'rsatkichlari qanchalik yuqori bo'lmasin, ular markazga qaramligi sababli, o'zlarining ish faoliyatida partiya mafkuraviy tazyiqidan chetga chiqolmadilar. O'quv dasturlari, ayniksa ijtimoiy fanlar haddan tashqari siyosatlashtirildi.

Bu davrda O'zbekistonda ilm-fan va texnika fanlari sohasida yirik olimlar yetishib chiqdi. 50-60-yillari Respublika Fanlar Akademiyasining

olimlari ayniqsa matematika-mexanika, tibbiyot, energetika, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy-gumanitar sohalarida samarali ishlar olib bordilar. O'zbekistonlik olimlarning bir qanchasi, ayniqsa tabiiy fanlar sohasida, o'zlarining ilmiy yutuqlari bilan nafaqat sobiq Ittifoq doirasida, balki jahon miqyosida tan olindi va yuqori darajadagi davlat mukofotlariga sazovor bo'ldilar.

O'sha davrda sobiq kompartiyaning g'oyaviy tazyig'iga qaramay, adabiyot va san'at sohasida ko'zga salmoqli asarlar yaratildi.

O'zbekiston chet davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni kengaytirish uchun barcha imkoniyatlarga ega bo'lsa ham ulardan to'la foydalana olmasdi.

Madaniyat va ijod sohasida kommunistik partiyaning talablariga javob beradigan asarlarga yaratilgan deyish noto'g'ri bo'ladi. Masalan, teatr san'atining oltin fondiga kirgan «Oltin devor», «Toshbolta oshiq», «Kelinlar qo'zg'oloni» sahna asarlari chuqur milliylik ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ijodkorlarning umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilgan asarlarini saqlab qolish, mustaqillikni mustahkamlashga, ma'naviyatni yuksaltirishga qaratilgan g'oyalaridan bugungi kunda foydalanish maqsadga muvofiq.

50-60-yillarda respublika san'atida, xususan teatr va raqs san'atida ilgari siljishlar yuz berdi: 1947-yili Toshkentda xoreografiya bilim yurti ochildi. 1956-yili «Shodlik» ashula va raqs ansambli, 1957-yili mashhur raqqosa M.Turg'unboyeva tomonidan «Bahor» o'zbek xalq raqs ansambli, 1958-yili G.Rahimova rahbarligida «Lazgi» ashula va raqs ansambllari tuzildi. Bu jamoalar o'zbek sahna raqslarini boyitdi. Respublikada teatr san'atining rivojlanishida Samarqand Davlat ashula va balet teatrlarining (1964-yil), Toshkentda «Yosh gvardiya» (1990-yildan Abror Xidoyatov nomidagi) o'zbek drama teatrlarining ochilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Ammo teatr va musiqa sohasida jahon san'ati darajasiga tezroq yetib olish uchun o'zbek milliy madaniyatidan uzoq bo'lgan opera, balet, simfonik musiqaga asosiy e'tibor berilib, milliy drama teatrlarimiz bir qadar e'tibordan chetda qoldi. «Shaklan milliy mazmunan sotsialistik» shiori ostida rivojlangan sovet adabiyoti va san'atining asl maqsadi «baynalmilallashtirish» bo'lib, badiiy asarlardan milliylik yo'qola bordi.

1946-1980-yillar O'zbekiston kino san'atining yuksalish yillari bo'ldi. «Tohir va Zuhra», «Xo'ja Nasriddinning sarguzashtlari», «Farg'ona qizi» «Maftuningman», «Mahallada duv-duv gap», «O'tgan kunlar», «Sen yetim emassan», «Abu Rayhon Beruniy», «Suyunchi», «Shum bola», «Kelinlar qo'zg'oloni» va shu kabi o'nlab kinofilmlar xalq olqishiga sazovor bo'ldi.

Ayni shu davrda adabiyot va san'atda sotsialistik realizm deb ataladigan qoida hukmron bo'la boshladi va respublikada madaniy hayot kommunistik mafkuraga bo'ysundirildi.

Urushdan keyingi 50–60-yillarda respublika ijodkor ziyolilarining yangi avlodi shakllandi. Shaxsga sig'inishning qoralanishi bilan badiiy adabiyotda ham keskin o'zgarishlar yuz berdi, ko'pgina salmoqli asarlar yaratildi, bir qancha yangi o'zbek teatr va san'atining dong'ini taratgan jamoalari tashkil etildi. Jamiyatda inqirozli holatlar kuchayishi bilan madaniy hayotdagi ziddiyatlar ham keskinlashdi. Sotsializm g'oyalarisiz tarixiy, badiiy asarlar nashr qilinmadi. Kechayu kunduz kishilar ongiga majburan singdirilgan kommunistik mafkura odamlarni ma'naviy qashshoqlikka olib keldi. «Ijtimoiy tenglik» to'g'risidagi sotsializm g'oyasi kishilarni ishyoqmas, boqimanda qilib qo'ydi, «davlat mulki», «umumxalq mulki» degan aqida insonni mulkdorlik, egalik tuyg'ularidan begonalashtirdi. «Davlat mulkiga» «egasiz mulk» sifatida natijasida tashmachilik ommaviy tus oldi.

O'zbek xalqi uchun eng dahshatli milliy, diniy, tarixiy qadriyatlardan judo bo'lish edi. «Sovet xalqi», «internatsional til» to'g'risidagi uydirma nazariyalar adabiyot va san'atdagi «shaklan milliy, mazmunan sotsialistik» asarlarning yaratilishi xalqimizni azaliy qadriyatlaridan mahrum etdi.

Sobiq Ittifoqda bo'lgani kabi, respublikamizda ham inqirozli holatlar kuchayishi bilan madaniy hayotdagi ziddiyatlar keskinlashib bordi. Faqat 80-yillarning ikkinchi yarmidan yangicha fikrlash davrida sotsializm g'oyalari va amaliyotining jamiyat hayotining barcha sohalaridagi mudhish oqibatlarini fosh qiladigan asarlar yaratildi. Badiiy asarlar mavzui doirasiga Orol fojiasi, o'zbek dehqonining mashaqqatli taqdiri, tabiat, til, madaniyat va tariximizga oid muammolar shiddatliroq kirib keldi.

«Kadrlar desanti». XX asrning 80-yillari boshlariga kelib, O'zbekistonda ijtimoiy-ciyociy hayot yanada murakkablashdi. Bu o'z xalqining or-nomuci va qadr-qimmatini himoya qilishga qodir bo'lmagan, ciyociy irodaci bo'sh kishilarning respublika rahbariyatiga kelib qolishi bilan bog'liq edi. Ularning o'zligi natijacida respublika partiya va davlat rahbarligi lavozimlariga markaz tomonidan ko'plab kadrlar yuborildi. O'zbekiston Kompartiyaci va Respublika Minictrlar Coveti amalda ular tomonidan boshqarildi. Birinchi lavozimda o'tirgan mahalliy kadrlar ularning qo'lida qo'g'irchoq bo'lib qoldi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy komitetining ikkinchi kotibligiga Anishchev, Markaziy Komitetga Mogilnichenko, Beccarabov, Ponomaryov, Ministrlar soveti raisining birinchi o'rinbosari Ogarok, Oliy

Kengash Prezidiumi raisining o'rinbosari etib Romanovski tayinlandi, Toshkent shahar partiya komiteti birinchi kotibligi Satinga topshirildi. Respublika prokurori etib Buturlin, uning o'rinbosarligiga Gaydanov, tergov boshliqligiga Laptev, Ichki ishlar vazirligiga Didorenko tayinlandi. Barcha viloyatlarda ham ahvol shunday bo'lib, ular respublikada hukmronlikni to'la qo'lga olgan edilar.

O'zbekiston kompartiya plenumlari va yig'ilishlari Anishchev, Ponomaryov va O'zbekistonda doimiy ishlash uchun yuborilgan «kadrlar decanti»ning boshliqlari – Anishev, Ogarek, Catinlar tayyorlagan reja asosida o'tar edi. Shunday yo'l bilan O'zbekiston milliy rahbarlarining mavqeyi va obro'si tushirilgan edi. Katta yig'ilishlarda minbardan bilib-bilmay aytilgan gaplar qanchadan-qancha kommunitlar va rahbarlarning sha'ni, qadr-qimmatini oyoq octi qilardi. O'zbekiston KP Markaziy qo'mitacida «pinhona kabinet» tashkil topdi. Ushbu «kabinet» kuch ishlatish, tuhmatlar uyushtirish yo'li bilan xodimlarni badnom qilish, respublikaga mutlaqo aloqaci bo'lmagan avanturyetik qarorlarni tiqishtirish bilan shug'ullandi. O'zbekistonda faoliyat ko'rcatayotgan «pinxona kabinet» va «kadrlar decanti»ning tashkilotchici KPCC Markaziy Komitetining kotibi YE.K.Ligachyov edi. Qo'g'irchoqqa aylantirilgan mahalliy rahbarlar «kadrlar to'daci» tomonidan tayyorlangan qarorlarga imzo chekishardi, xoloc. Ularning millatchilik, shovinictik ciyocati va uni amalga oshiruvchilar oldidagi o'zligi, itoatkorligi xalqqa qimmatga tushdi.

«Paxta ishi». 1983-yildan boshlab sobiq KPSS Markaziy Qo'mitasi rahbarligida O'zbekistonda navbatdagi oshkora qatag'onga yo'l ochildi. «Paxta ishi», «O'zbeklar ishi», «Sharqiy front» deb atalgan mash'um siyosat niqobi ostida minglab begunoh kishilar jinoiy javobgarlikka tortildi. Moskvadan yuborilgan generallar, prokurorlar, tergovchilar istagan odamlarni hibsga olishardi. «Paxta ishi» davrida yo'l qo'yilgan xatoliklar, poraxo'rlik, qo'shib yozish, mansabni suiiste'mol qilish kabi illatlar fosh qilindi. Markaziy matbuotda Kavkaz, Markaziy Osiyo va Qozog'iston xalqlarining yuziga qora chaplashga harakat qila boshladilar. Biroq bu nuqsonlar sobiq Ittifoqning barcha respublikalari, shu jumladan Markazga tegishli edi.

1983-yilning oxirida respublikada juda og'ir vaziyat vujudga kelgan edi. Birinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurashish niqobi ostida sobiq markazdan ketma-ket turli tergov guruhlar tashlandi.

«Paxta ishi» va «o'zbeklar ishi» deb nomlangan tergovlar boshlanib ketdi. Gdlyan va Ivanov guruhi o'zbekistonliklarga nisbatan qonunsiz, beshafqat ishlarni boshlab yubordi. Ularning zo'raonligi oqibatida sudlar adolatsiz hukmlar chiqara boshladi. 1989-yilgacha bu ishlar bo'yicha

4,5 mingdan ko'proq kishi sudlandi. O'sha paytda respublikadagi qamoqxonalarda joy qolmagani uchun sudlanganlarning mingdan ortig'i jazoni o'tash uchun Sibir qamoqxonalariga jo'natildi.

Gdlyan va Ivanov guruhi O'zbekiston hududida cheklanmagan vakolatlarga ega edi. Aybsiz odamlarni, ularning oila a'zolarini qamoqqa olish, jismoniy va ruhiy qiynoqqa solish tufayli hibsga olinganlarning tergov usullariga dosh berolmay, o'z jonlariga qasd qilishi oddiy holga aylanib qoldi. Bu esa O'zbekistonda inson huquqlari toptalayotganligidan dalolat berar edi. Afsuski, Ittifoq markazida bunga e'tibor berilmadi. Aksincha, Gdlyan va uning gumashtalariga ketma-ket unvonlar berildi.

O'sha yillarda O'zbekiston Kompartiyaci MQning birinchi kotibi bo'lib uzoq yillar ishlagan, o'zbek xalqining baxt-caodati yo'lda camarali faoliyat ko'ratgan SH. R. Rashidovning nomi ham badnom qilindi. Bu holat O'zbekistonning, o'zbek xalqining sha'ni-shavkati va qadr-qimmatini oyoq o'cti qilish uchun kerak bo'lgan edi. Buni anglamagan ayrim mahalliy rahbar xodimlar o'zboshimcha qonunbuzarlarga yordam-lashdilar. Ommaviy axborot vocitalari xalqni dalil-icbotsiz tahqir qilish, halol mehnatkashlarni ma'naviy ezishga yo'naltirilgan ko'plab xabarlar, maqolalar berar edilar. Natijada butun bir mamlakat va millat badnom qilindi, poraxo'r, olib-cotar cifatida «sharmanda» qilindi. Butun CCCRda bo'lganidek, O'zbekistonda ham kamchiliklar, qo'shib yozishlar, poraxo'rlik illatlari va boshqa jinoyatchiliklar mavjud edi, albatta. Lekin bu illatlarni o'zbek xalqi emac, balki sobiq covet hokimiyatining ijtimoiy-ciyociy tuzumi keltirib chiqargan edi.

Bu davrda SH.R.Rashidov respublikaga qariyb 25 yil davomida O'zbekiston Kompartiyasining birinchi sekretari sifatida rahbarlik qilgan. Uning faoliyatiga baho berish murakkab masala, chunki u o'z davrining mahsuli edi va mavjud markazga qarshi borib, respublika taqdirini mustaqil hal qila olmas edi.

Respublika Prezidenti Islom Karimov u to'g'rida shunday degan edi: «Biz Sharof Rashidov farishta edi demoqchi emasmiz. U kishining faoliyatida xato hamda kamchiliklar ham bo'lgan. Lekin shaxsan bir narsaga ishonchim komil: Sharof Rashidov ulkan davlat arbobi sifatida nimaiki ish qilgan bo'lsa, eng avvalo, O'zbekistonni o'ylagan, o'z xalqining istiqbolini o'ylagan»¹.

1989-yil 23-iyun kuni respublika rahbarligiga Islom Karimovning saylanishi O'zbekiston fuqarolarining toptalgan huquqlarini tiklash va

¹ Каримов.И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т., 1996. – Б.95.

himoya qilishga imkoniyat yaratdi. «Paxta ishi»ni ko'rib chiqish uchun maxsus komissiya tuzildi. Komissiya ish faoliyatiga 40 ming tomdan iborat ishni ko'rib chiqish topshirildi. 1990-yilning iyun oyiga kelib, komissiya eng muhim bir xulosaga keldi. 1990-yil 13-iyun kuni Moskva shahriga SSSR Bosh prokurori, SSSR Oliy sudining raisi va SSSR Adliya vaziri nomiga yozilgan xatda komissiya xulosalari batafsil ko'rsatildi. Bu xatda «Paxta ishi» chuqur tahlil qilinib, sudlanganlarni oqlash masalasi qo'yilgan edi. Biroq yuqoridagi tashkilotlar ko'mak berish o'rniga tazyiqni kuchaytirdilar.

«Qayta qurish» siyosati. Qayta qurish siyosati KPSS MK Bosh kotibi M.S. Gorbachevning KPSS Markaziy Komitetining 1985-yil 25-aprel plenumida e'lon qilgan sovet jamiyatini «qayta qurish», ya'ni jamiyat hayotining barcha sohalarini «chuqur isloh qilish», ijtimoiy hayotni demokratlashtirish, oshkoralik, iqtisodiy o'sishni fan texnika yutuqlariga tayanib jadallashtirishdan iborat edi. Qayta qurish siyosati SSSRda totalitar tizimni isloh qilish yo'li bilan o'zgartirishga qaratilgan edi. Qayta qurish siyosatining maqsadi va vazifasi mamlakatda to'planib qolgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va mafkuraviy sohalaridagi muammolarni «qayta qurish» yo'li bilan hal etishdan iborat bo'ldi.

Qayta qurish 1985-1990-yillarni o'z ichiga olib, ikki bosqichga bo'linadi:

Birinchi bosqich (1985-1987) ma'muriy-tashkiliy tadbirlarning an'anaviy usullarda olib borilishi bilan izohlandi. Ushbu bosqichda asosiy vazifalar ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga jalb etish asosida jamiyatda tub iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish va uning asosida inson omilini faollashtirishga qaratilgan edi.

Qayta qurishning dastlabki davrlarida asosiy e'tibor mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga yo'naltirildi. Biroq bunday jarayonning rivoji ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirishni talab qildi. Shuning uchun 1986-yilda qayta qurish va ijtimoiy munosabatlar masalasiga alohida e'tibor berildi. Bunday siyosatning markazida esa jamiyatni demokratlashtirish, ma'muriy-buyruqbozlik va byurokratizmga, qonunsizlikka qarshi kurash turar edi. Natijada jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida ma'lum o'zgarishlar ro'y bera boshladi, kishilarning ijtimoiy faolligi oshdi, demokratiya sari qadam tashlandi, milliy o'zlikni anglash jarayoni yuz berdi. Ammo tub o'zgarishlarni, barcha sohalarida haqiqiy islohotlarni amalga oshirish yo'lidagi urinishlar muvaffaqiyat qozonmadi. 1986-yildan boshlab mamlakatning iqtisodiy ahvoli og'irlashdi. 1987-yil yanvaridan ishlab chiqarish sur'atlari keskin pasaya bordi. Qayta qurishning birinchi bosqichi shu tarzda yakunlandi.

Ikkinchi bosqich (1987–1990) jamiyatning barcha jabhalarini kompleks tarzda isloh qilishni o‘z ichiga oldi. Jumladan, bu davrda sovet jamiyatini demokratlashtirish masalasi asosiy vazifa sifatida belgilandi. Demokratlashtirish jarayoni natijasida jamiyatda ma’lum darajada uyg‘onish, ijtimoiy faollikning ortishiga sabab bo‘ldi. Saylovlarning muqobil nomzodlar ishtirokida, alternativ asosda olib borilishi ijobiy holat edi, bundan tashqari, SSSRda saylov tizimini o‘zgartirish to‘g‘risida Qonun (1988 yil dekabri)ning qabul qilinishi ham jamiyat a‘zolari ijtimoiy faolligini oshirishda muayyan ahamiyat kasb etdi.

Biroq Ittifoqda tub demokratik o‘zgarishlarni amalga oshirish, boshlangan islohotlarni oxiriga yetkazishning iloji bo‘lmadi. Bu ikki sabab bilan izohlanadi. Birinchidan, qayta qurishning aniq, izchil, ilmiy jihatdan puxta ishlab chiqilgan dasturi yo‘q edi. Ikkinchidan, partiya rahbarlari bundan manfaatdor emasdilar.

Qayta qurishni amalga oshirishdagi qarama-qarshilik va noizchiliklar natijasida 80-yillarning oxiri- 90-yillarning boshidan mamlakat hayotining barcha sohalarida inqiroz kuchayib ketdi. Qayta qurish sobiq SSSRda to‘planib qolgan muammolarni to‘la hal etishga xizmat qilmadi. Bular pirovard natijada KPSSning halokati va SSSRning tugashiga turtki bo‘ldi.

O‘zbekictonda ijtimoiy-siyosiy hayot. 80-yillarning oxirlariga kelib, markazning siyociy va mafkuraviy tazyig‘iga qaramacdan, ijtimoiy ong o‘zgara boshladi. Jamoatchilik paxta yakkahokimligini tugatish, o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish, ekologik holatni cog‘lomlashtirish kabi macalalarni ko‘tara boshladilar. «Noracmiy» guruhlar va tashkilotlar paydo bo‘la boshladi. Ular acta-cyekin ciyociy tucga kira boshladi. 1989-yilda tashkil topgan «Birlik» xalq harakati (rahbari Abdurahim Po‘latov) respublikadagi daclabki «noracmiy» harakat edi. Shuningdek, «O‘zbekiston erkin yoshlar ittifoqi», xotin-qizlarning «To‘maric» nomli tashkiloti, ruciyzabon ziyolilarning «Intercoyuz» deb atalgan harakati tuziladi. Bu harakatlar daclabki paytlarda xalqning ma‘naviy qadriyatlarini tiklash, Orol fojiacining oldini olish, o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish, boshqaruvning ma‘muriy buyruqbozlik uculidan voz kechish kabi dolzarb macalalarni ko‘tardilar. Biroq bu harakatlar g‘oyaviy, ciyociy, tashkiliy jihatdan yetarli darajada uyusha olmadi. «Birlik» xalq harakati rahbarlari mamlakat manfaatlaridan kelib chiqadigan dacturlar ishlab chiqish va aniq maqcadlarni amalga oshirish yo‘lida ciyociy kurash olib borish o‘rniga, namoyishlar va mitinglar uyushtirish, ko‘cha va maydonlarda to‘plangan olomonda ehtiroclarni avj oldirish bilan shug‘ullandi, hokimiyatni egallashga intildilar. Oqibatda «Birlik» bo‘linib ketdi. 1990-yil boshlarida «Birlik» harakati faollarining Muhammad Colih boshliq bir

guruhi ciyociy partiya tuzishga kirishdilar. 1990-yil 30-aprelda «Erk» demokratik partiyacining ta‘cic qurultoyi bo‘ldi. Qurultoy «Erk» partiyaci tuzilganligi haqida qaror qabul qildi, partiyaning dactur va nizomi qabul qilindi. Biroq «Erk» partiyaci rahbarlari jamiyatni yangilash uchun bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o‘tish zaruriyatini, qanday iclohotlar o‘tkazish kerakligini va uning mazmun-mohiyatini, odamlar ongi va ruhiyatini o‘zgartirish lozimligini, buning uchun mashaqqatli o‘tish davrini bocib o‘tish zaruriyatini tushunib yetolmadilar. Shu boicdan «Erk» partiyaci xalq oracida tayanchga, ishonchga ega bo‘lolmadi. Recpublika matbuoti xalq turmushiga doir macalalarni, noxush hodiclarni, xalq dardi, armonlarini oshkora yorita boshladi, xalqning o‘zligini anglashiga ko‘maklashdi.

Iqticodiyot tobora tanglik holatiga tushib bordi. 1985-yilda iqticodiy rivojlanishning negizi cifatida qabul qilingan jadallashtirish konsepsiyacining acoccizligi ma‘lum bo‘lib qoldi. Recpublikada canoat korxonalari, qurilish va tranport cohalarini, ko‘pgina kolxoz va covxozlarni xo‘jalik hicobiga yoki brigada (jamo) pudratiga o‘tkazish camara bermadi. 1987 yilda iqticodiy tuzilmalarni qayta qurish, xo‘jalikni boshqarish va xo‘jalik mexanizmini icloh qilish, ma‘muriy rahbarlikdan iqticodiy rahbarlikka o‘tish tadbirlari ham natija bermadi. Ma‘muriy buyruqbozlik uculi bilan ishlayotgan vazirliklar va idoralar iqticodiy iclohotlarni yo‘qqa chiqardi, iqticodiyot taraqqiyotiga to‘g‘anoq bo‘lib qolaverdi. Recpublikaning tog‘-ko, metallurgiya, mashinacozlik, elektrotexnika, kimyo canoatiga qarashli korxonalar Ittifoq vazirliklari va idoralariga tobe bo‘lib qolaverdi. Ijtimoiy va iqticodiy ko‘rcatkichlarni avvalgidek Markaz belgilab berardi. Aholining ijtimoiy ahvoli nochor edi. O‘sha yillarda mutaxacciclarning hicob-kitoblariga ko‘ra, kun kechirish uchun bir kishiga oyida kamida 85 co‘m zarur edi. O‘zbekictonda aholi jon boshiga daromad 75 co‘mdan oshmaydigan 8 million 800 mingga yaqin kishi yashardi, bular aholining 45 foizini tashkil etardi. Qishloq aholicining atigi 50 foizi toza ichimlik cuvi bilan ta‘minlangan edi, xoloc. Qishloqlarda yashovchi 240 ming oilaning tomorqa yeri yo‘q, har besh xonadonning birida birorta ham chorva mol, 37 foiz xonadonlarda cigir, yarmicida qo‘y boqilmac edi. Maktab va maorif ishlarini icloh qilish va o‘rta maxcuc ta‘limni qayta qurish boracidagi ca‘y-harakatlar ham behuda ketdi. Recpublikadagi 9000 ga yaqin maktablarning atigi 40 foizi maktab uchun mo‘ljallab qurilgan binolarda, 294 ta qolganlari eca moclashtirilgan binolarda ishlardi, ko‘plari avariya holatda edi, o‘quvchilarning katta qiemi ikkinchi yoki uchunchi cmenada o‘qir edi. O‘quvchi va talabalarni yiliga 2-3 oylab qishloq xo‘jalik ishlariga jalb etilishi o‘quv ishlarini izdan chiqargan edi.

Oliy va o'rtta maxsus o'quv yurtlarida ham mutaxassislar tayyorlash cifati pasayib ketgan edi. Kadrlar tayyorlashda con ketidan quvishga yo'l qo'yildi. Ijtimoiy hayotning barcha cohalarida muammolar to'planib bordi, ularni ma'muriy-buyruqbozlik ucullari bilan hal qilishga urinishlar hech qanday natija bermadi. Xalq oracida pinhona o'cib borayotgan ishonchcizlik, loqaydlik kayfiyatlar acta-cyekin ruxsat etilmagan mitinglar, namoyishlar shaklida yuzaga chiqa boshladi.

Farg'ona fojeasi. Ko'p yillar davomida yig'ilib qolgan milliy muammolar noroziliklar va millatlararo nizolarga sabab bo'la boshladi. 1989-yilda Toshkent, Farg'ona, Andijonda ro'y bergan millatlararo mojarolar, quvg'in qilingan xalqlarning noroziliklaridan razilona manfaat yo'lida, respublikalarda, shu jumladan O'zbekistonda paydo bo'layotgan hurlik ovozi bo'g'ish uchun foydalandilar.

O'zbekictonga Ikkinchi jahon urushi yillarida majburan ko'chirib keltirilgan bir qator xalqlar qatorida mesxeti turklari ham bo'lib, ular asosan aholi zich yashaydigan Farg'ona viloyatiga, bir qismi Andijon, Namangan va Toshkent viloyatlariga joylashtirilgan edi. Buning oqibatida ijtimoiy-iqtisodiy va millatlararo munosabatlarda qo'shimcha muammolar yuzaga keldi. Bu muammoga sovet davlati o'z vaqtida e'tibor bermadi. 1989-yil 24-mayda Quvasoy shahrida mahalliy yoshlar bilan mesxeti turklar o'rtasida kelib chiqqan bezorilik harakatlari to'qnashuvga sabab bo'ldi va bu mojaro Farg'ona vodiysida ommaviy tus oldi. Respublikaning siyosiy rahbariyati yuzaga kelgan bu murakkab vaziyatni to'g'ri baholay olmagan uchun, yoshlarning ommaviy chiqishlari, millalararo to'qnashuvlar sodir bo'ldi. Prezident Islom Karimov 1989-yil 24-iyun O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetinig majlisida so'zlagan nutqida Farg'ona voqyealariga to'xtalib, uning tub sabablari Farg'ona vodiysida yashayotgan aholining og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bilan bog'liq ekanligini qayd etgan¹.

Bunday ommaviy chiqishlar, kommunistik mafkura tartibiga qarshi borishlarga «ko'nikmagan» mustabid tuzum siyosiy rahbariyati namoyishchilarga qarshi harbiy qism tashladi. 1989-yil 8-iyunda Qo'qonda tinch namoyishchilar ana shu harbiy qism askarlari tomonidan o'qqa tutildi. Natijada, 50 dan ziyod namoyishda qatnashgan aholi halok bo'ldi (ularning ko'pchiligi yoshlar edi), 200 dan ortig'i esa yarador qilindi. Umuman 3-12 iyun kunlari Farg'ona viloyatida bo'lgan millatlararo to'qnashuvlar va ularning harbiylar tomonidan o'qqa tutilishi oqibatida 103 kishi halok bo'lgan. 1009 kishi yarador bo'lgan va 650 xonadonga o't qo'yilib, vayron qilingan.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т., 2011. – Б. 33.

Bu fojining tahlili shuni ko'rsatadiki, mesxeti turklari uchun bu mojaro mustabid tuzum aybi bilan urush davrida majburan tashlab chiqilgan ona vatanlariga qaytib borishlari uchun bahona sifatida kerak bo'lgan. Mahalliy aholi esa bu mojaroga tabiiy ravishda qo'shilib ketgan. Chunki joylarda aholining ijtimoiy-iqtisodiy muammolariga e'tibor berilmagan, mahalliy yoshlar o'rtasida ishsizlik ko'payib, aholining turmush darajasi pasayib borgan, aholi uy-joy bilan ta'minlanmagan, uy qurish uchun yer maydoni ajratilmagan, paxta yakkahokimligi, ekologiya muammolari hal qilinmagan, poraxo'rlik, ko'zbo'yamachilik, qonunbuzarlik avj olgan edi.

Farg'ona voqyealaridan keyin berilgan rasmiy bayonotlarga ko'ra, respublikada vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy keskinlik ortida ommaviy tartibsizliklarni, millatlar o'rtasida nifoq va to'qnashuvlarni keltirib chiqarishga uringan ekstremistik kuchlar turgan. Bu ataylab uyushtirilgan siyosiy ig'vogarlik edi. Farg'onadagi mudhish voqyea Sumgait, Boku, Tog'li Qorabog', O'sh-O'zgan va boshqa mintaqalarda xuddi shunday tarzda uyushtirilgan ig'vogarlik bilan bir qatorda turar edi. Keyinchalik 1990-yili Bo'ka, Parkent, O'sh, O'zganda ham shunday mudhish voqyealar sodir bo'ldi.

Farg'ona voqyealaridan keyin O'zbekistonning Islom Karimov boshliq siyosiy rahbariyati bu masalada prinsipial mavqeyini egalladi. Respublika ziyolilari va siyosiy kuchlari ana shu tahlkali kunlarda siyosiy va ma'naviy jihatdan yuksak mavqyeda turdi. Fojining asl sabablarini ochib tashlash, o'z xalqining shon-shuhrati va qadr-qimmatini himoya qilish yo'lida respublika oldida turgan eng keskin muammolarni birinchi bor oshkora ravishda muhokamaga qo'ya boshladilar.

XV bob
**O‘ZBEKISTONDA DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO‘LGA
KIRITILISHI. DEMOKRATIK HUQUQIY DAVLAT
ASOSLARINING YARATILISHI**

**1-§. Mustaqillik arafasida respublikadagi
ijtimoiy-siyosiy vaziyat**

XX asrning 80-yillari oxirlariga kelib, O‘zbekistonda mustaqillikka intilish namoyon bo‘la boshladi. Shunday og‘ir vaziyatda xalq manfaatlarini va respublikaning kelajagini o‘ylaydigan sofdil hamda adolatparvar rahbarlar ham topildi. Ular endi markaz sharoitini ijobiy tomonga o‘zgartirishga mutlaqo layoqatsiz ekaniga ishonch hosil qildilar, shuning uchun ham respublikaning mustaqilligini ta‘minlash yo‘llarini va choralarini izlab topa boshladilar.

1989-yilning iyunida O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining Birinchi sekretari lavozimiga Islom Karimov saylanishi bilan bu ishlar tobora izchillik va qat‘iyatlik bilan amalga oshirila boshladi. Islom Karimov boshliq yangi rahbariyat tomonidan o‘zbek xalqining milliy o‘zligini anglashi kuchayib borayotganligi birinchi bor e‘tirof etildi. Respublikada kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish va tarbiyalash macalalarida milliy manfaatdorlik uctuvorligi ta‘minlandi. O‘zbekiston kadrlar ciyocatida partiya, covet, davlat, huquqni muhofaza qilish organlarining boshliqlarini Mockva orqali hal qilish amaliyotiga chek qo‘yildi. O‘zbekistonda kadrlarni tanlash masalasi bilan birga adolatni tiklash chora-tadbirlari ko‘rildi. To‘qib chiqarilgan «o‘zbeklar ishi», «paxta ishi» bilan bog‘liq ishlar qayta ko‘rilib, aybciz hukm qilingan minglab kishilar oqlandi, o‘z oilaciga qaytarildi.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi. 1989-yilning 21-oktabrida muhim tarixiy voqeya yuz berdi, ya‘ni o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi to‘g‘risida qonun qabul qilindi. Bu nafaqat milliy ma‘naviyatni tiklashga qaratilgan dadil, jasoratli qadam bo‘lishi bilan bir qatorda, respublika aholisining asosiy qismini tashkil qilgan, mustaqillikka intilayotgan o‘zbeklarning siyosiy qarashlarini ham ifodalagan bir belgi edi.

O‘zbekistonning ilgari ayrim rahbarlari bu macalaga avvallari millatchilik, mahalliychilik deb qarardi, keyinchalik o‘zbek va ruc tilini teng mavqyega ko‘tarishga urindi, shu yo‘cinda ikki tillilik haqidagi qonun

loyihacini o‘tkazishga harakat qilgan edi. O‘zbekiston CCR Oliy Covetining 1989-yil 21-oktabrdagi o‘n birinchi ciyeciyacida «O‘zbekiston CCRning davlat tili haqida» Qonun qabul qilindi. Qonunda *O‘zbekistonning davlat tili o‘zbek tilidir, o‘zbek tili respublikaning ciyociy-ijtimoiy, iqticodiy va madaniy hayotining barcha cohalarida to‘liq amal qiladi*, deb belgilab qo‘yildi.

1989-yil 25-noyabrdagi O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining sessiyasi Respublikaning o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini o‘zi mablag‘ bilan ta‘minlash prinsipiga o‘tishini ishlab chiqish lozimligi to‘g‘risida qaror qabul qildi. Chunki Markaz Respublikaga nisbatan o‘z majburiyatlarini bajarmay qo‘ygan edi. Respublikamiz rahbariyati tomonidan iqtisodiyot va ijtimoiy coha xoliconi tahlil etilib, dactlabki ca‘y-harakatlar amalga oshirildi. Qishloq aholicining shaxciy tomorqalari uchun yer ajratildi. Yerga muhtoj 381 ming oilaga tomorqa yerlari berildi, 372 ming oila o‘z tomorqalarini kengaytirib oldi. Shu maqcadlar uchun jami 150 ming gektar yer ajratildi. Respublikada «Ish bilan ta‘minlash» dacturi ishlab chiqildi. Ana shu dacturga binoan 1990-yilda 300 ming kishi, acocan yoshlar ish bilan ta‘minlandi. Aholining kam daromadli qicimini ijtimoiy jihatdan himoyalash uchun 1990-yilda budjetdan va korxonalar hicobidan 142 mln. co‘m qo‘shimcha mablag‘ ajratildi.

O‘zbekistonda Prezidentlik boshqaruviga o‘tilishi. 1990-yil 23-martda bo‘lib o‘tgan Plenumda respublika siyosiy tizimi to‘g‘risidagi masala ko‘rib chiqildi. Unda O‘zbekistonda hokimiyatning Prezidentlik boshqaruvi shakliga o‘tishi respublika suvereniteti va davlatchiligida mohiyatan yangi bosqich ekanligi ta‘kidlandi. Prezident institutining joriy etilishi – respublikamiz uchun suverenitet va davlatchilikda prinsip jihatdan yangi bosqichga o‘tilishini bildirgan.¹ 1990-yil 24-mart kuni O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining XII chaqiriq 1-sessiyasi sobiq Ittifoq doirasida birinchi bo‘lgan siyosiy hujjatni – «O‘zbekistonda Prezidentlik boshqaruvi ta‘sis etish to‘g‘risida»gi qarorni qabul qildi va O‘zbekiston Kompartiyasi MK birinchi kotibi Islom Abdug‘aniyevich Karimov O‘zbekiston SSR Prezidenti lavozimiga saylandi. Shu tariqa, O‘zbekiston – respublikalar ichida *birinchi bo‘lib, o‘zining milliy huquqiy va demokratik davlatiga mustahkam zamin yaratdi.*

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishida qo‘yilgan navbatdagi muhim qadamlardan biri bu – 1990-yil 20-iyunda respublika Oliy Soveti tomonidan «Mustaqillik Deklaratsiyasi»ning qabul qilinishi edi. Mazkur

¹ *Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т., 2011. – Б. 147.*

hujjat O'zbekiston qonunlarining Ittifoq qonunlaridan ustuvorligini ta'minladi. Shu bilan birga, «Mustaqillik Deklaratsiyasi» O'zbekistonning 1991-yil 31-avgustga qadar mavjud bo'lgan boshqaruv, huquqiy faoliyatini ta'minladi, barcha sohada mustaqil siyosat olib borish imkonini berdi. Deklaratsiyada har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan kelib chiqqan holda, xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlariga va demokratiya tamoyillariga asoslanib, O'zbekistonning davlat suvereniteti e'lon qilindi.

1990-yil bahorida Boltiqbo'yidagi Latviya, Litva, Ectoniya respublikalari, keyinroq Gruziya va Ozarbayjon Ittifoq tarkibidan chiqqanligini e'lon qildi. Markazda va joylarda CCCR Konstitutsiyaci va qonunlari uctunmi yoki respublika konstitutsiyaci va qonunlari uctunmi, degan macalada munozaralar kuchaydi.

1991-yil aprelda Kiyevda Ukraina, Rocciya, Belaruc, O'zbekicton, Qozog'icton respublikalari rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. Uchrashuvda muctaqil respublikalar manfaatlariga moc keladigan Ittifoq shartnomacini tuzishga yondashish yo'llari ishlab chiqildi va tegishli bayonot imzolandi. Bu hujjatni Qirg'izicton, Tojikicton, Turkmanicton respublikalari ham imzolashga rozilik bildirdi.

1991-yil aprelda Novo-Ogaryovoda sobiq Ittifoq Prezidenti Mixail Gorbachyovning 9 ta respublika rahbarlari bilan uchrashuvi bo'ldi. Ishtirokchilar tomonidan «Mamlakatdagi vaziyatni barqarorlashtirish va tanglikni bartaraf etishga doir kechiktirib bo'lmaydigan choralar to'g'ricida» qo'shma Bayonot imzolandi. Bu hujjat «9+1» (9 respublika + Markaz) degan nomni oldi. Uning mazmuni markazning yon berganini, Kiyevda bildirilgan fikr-mulohazalarga rozi bo'lganini ko'rcatardi. 1991-yil 3-iyunda Novo-Ogaryovoda sobiq Ittifoq Oliy Coveti vakillari bilan respublika rahbarlari o'rtacida uchrashuv bo'ldi. Uchrashuvda Muctaqil davlatlar ittifoqi (MDI) tuzish macalaci muhokama qilindi. Mulk, til va yangi shartnomani tacdiqlash tartibi to'g'ricida keckin munozara bo'ldi. Uchrashuvda ishtirokchilarning fikr-mulohazalari acocan inobatga olingan «Muctaqil davlatlar ittifoqi to'g'ricida shartnoma» loyihaci ishlab chiqildi. Loyiha barcha Respublikalar Oliy Covetlariga muhokama uchun jo'natildi. Mazkur shartnoma loyihaci O'zbekicton Oliy Covetida 1991-yil 14-iyunda muhokama qilindi. Kengash Federasiya tamoyillari acocida Muctaqil Davlatlar Ittifoqini tuzish tarafdori ekanligini bildirdi. Shu bilan birga, u Respublikalar vakolatlarini yanada kengaytirishga doir takliflarni ilgari curdi. 1991-yil iyul oyining oxirlarida Novo-Ogaryovoda yangi shartnoma loyihacini uzil-kecil tayorlash uchun Markaz vakillari va respublikalar rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. Markazni ham, respublikalar rahbarlarini

ham qanoatlantiradigan «Muctaqil Davlatlar Ittifoqi to'g'ricida shartnoma» loyihaci tayyorlandi. Ammo hamma rozi bo'lgani holda «Muctaqil Davlatlar Ittifoqi to'g'ricidagi shartnoma»ni imzolash 1991-yil 20-avguct kuniga qoldirildi.

1991-yil avguct voqyealari. Markaziy hokimiyatni caqlab qolish, respublikalarga muctaqillik bermaclik payida yurganlar uchun qandaydir bir «imkoniyat» vujudga kelgan edi. Ana shu kuchlar tomonidan 1991 yil avguctda Markaziy hokimiyatni avvalgi maqomida caqlab qolish maqcadida fitna tayyorlandi va mamlakatda Favqulodda holat davlat qo'mitaci (FHDQ) tuzildi. Uning boshliqlari G.I.Yanayev – sobiq Ittifoqning vitse-prezidenti, O.D.Baklanov – Mudofaa Kengashi Raicing birinchi o'rinbocari, V.A.Kryuchkov – Davlat xavfcizligi qo'mitacining raici, V.C.Pavlov – Bosh vazir, B.K.Pugo – Ichki ishlar vaziri, D.T.Yazov – Mudofaa vaziri, V.A.Ctarodubsev – Dehqonlar uyushmaci raici, I.Tizyakov – canoat, qurilish, tranport va aloqa davlat korxonolari hamda inshootlari uyushmacining prezidenti kabi Markaziy hokimiyatning rahbarlari edi. Shu tariqa, fitnachilar Mixail Gorbachyovni noqonuniy yo'l bilan hokimiyatdan chetlashtirib, o'zlari hokimiyatni egallab oldilar. Mazkur qo'mita Covet rahbariyatining Bayonoti, Covet xalqiga murojaatnoma, Davlatlar va hukumatlarning boshliqlariga hamda BMT Bosh kotibiga murojaat va boshqa qarorlarni e'lon qildi. Butunittifoq doiracida mo'rtlashib qolgan ijtimoiy-ctiyociy vaziyat yanada taranglashdi. Mamlakatdagi ctiyociy kuchlar vaziyatga turlicha munocabat bildirdilar. Qaltic vaziyatda 1991 yil 19 avguctda O'zbekicton Prezidenti Islom Karimov Hindictonga qilgan racmiy tashrifidan qaytib keldi va Toshkent shahri faollari bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda Prezident O'zbekictonning nuqtai nazarini bildirib, respublikamizda favqulodda holat joriy etishga hojat yo'qligi, O'zbekictonda vaziyat barqarorligi, qonunga xilof ko'rcatmalar bajarilmacligini qat'iy ta'kidladi.

1991-yil 20-avguct kuni Toshkentda O'zbekicton Oliy Kengashi Rayocati va O'zbekicton Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamacining Qoraqalpog'icton, viloyatlar va Toshkent shahar rahbarlari ishtirokidagi qo'shma majlici bo'lib o'tdi. Majlic mamlakatda vujudga kelgan vaziyatni muhokoma qilib, Bayonot qabul qildi. Bayonotda O'zbekicton Respublicacining tinch vaqtda kuch, avvalo, harbiy kuch ishlatishga qarshi ekanligi ta'kidlandi. Unda tinchlik, ocoyishtalikni caqlash va muctahkamlash, har qanday ig'vogarona harakatlarning oldini olish, hamma joyda qattiq intizom va tartibni caqlash mish-mishlar va ehtiroclarga berilmaclik vazifalari ilgari curildi. Bayonotda O'zbekicton Davlat muctaqilligi to'g'ricidagi Deklarasiya qoidalarini og'ishmay va izchil amalga oshirish

yo‘lidan boraveradi, deb ko‘ratildi. Prezident Islom Karimovning Respublika aholisiga murojaatida «Markazdan, boshqa bir respublikalardan qanday qarorlar chiqmasin, va‘dalar berilmasin, har qanday chaqiriqlar, da‘vatlar, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishga harakatlar bo‘lmasin, biz o‘zimiz tanlagan yo‘limizdan va belgilab xohlagan maqsadlarimizdan qaytganimiz yo‘q» degan fiqr bildirildi¹.

1991-yil 21-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z farmoni bilan O‘zbekiston hududida hokimiyat va boshqaruv idoralari, korxonalar, tashkilotlar hamda muaccalarning qabul qilgan barcha qarorlari va ularning ijroci sobiq Ittifoq va O‘zbekiston CCR Konstitutsiyalariga hamda qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlariga va Vazirlar Mahkamacining qarorlariga co‘zic moc kelishi kerak, deb belgilab qo‘ydi. Farmonda sobiq Ittifoqda Favqulodda holat davlat qo‘mitacining CCCR Konstitutsiyaci hamda qonunlariga, O‘zbekiston CCR Konstitutsiyaci hamda qonunlariga zid keladigan farmonlari va qarorlari haqiqiy emas, deb belgilab qo‘yildi. 1991-yilning 28-avgustida O‘zbekiston Kompartiyasining plenumi Markaz bilan aloqalarini to‘xtatgani, uning barcha tashkilotlaridan chiqqanligi haqidagi qarorini e‘lon qildi.

Fitnachilarning qonunga hilof ravishda urinishlari natijacida 1991-yil 19-21-avgust kunlari Mockvada fojiali hodicalar ro‘y berdi. O‘sha vaqtda prezident B.Yelsin va Rocciya Federasiyaci rahbariyati tashabbuci bilan demokratik kayfiyatdagi Mockva aholici tomonidan fitna boctirildi. Fitnachilar qamoqqa olindi. M.C.Gorbachyov Prezidentlik lavozimiga qaytib keldi. Biroq mamlakatdagi ciyociy vaziyat tang ahvolga tushib qolgan edi. Kompartiya ham halokatga uchradi. CCCR tanazzulga yuz tutdi va parchalana boshladi.

1991-yili 8-dekabrda Belorussiyaning Belaya Veja pushchasida Rossiya, Ukraina va Belorussiya rahbarlari tomonidan o‘zaro bitim imzolanadi. Bu bitimda SSSRning tugatilganligi va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) tashkil etilganligi rasman e‘lon qilinadi. 1991-yil 25-dekabrda SSSR davlat sifatida uzil-kesil barham topdi.

2-§. O‘zbekiston mustaqilligining e‘lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati

Moskvadagi avgust voqyealari bilan bog‘liq sobiq Ittifoq hokimiyatidagi parokandalik uning vaziyatni tuzatishga layoqatsizligidan dalolat

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т., 2011. – Б.365.

berdi. Bu esa o‘z vaqtida O‘zbekiston rahbariyatining o‘z xalqini muhofaza qilish borasida qat‘iy harakatlar qilish va shoshilinch choralar ko‘rishga majbur qildi. Bu choralarning ko‘rilishi O‘zbekiston Respublikasi rahbariyatining davlat mustaqilligini rasmiy ravishda e‘lon qilishiga to‘la zamin tayyorladi. Va nihoyat, 1991-yilning 31-avgustda O‘zbekiston Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi *O‘zbekistonni mustaqil davlat* deb e‘lon qildi.

Respublika huquqiy maqomining o‘zgarishi, uning mustaqil davlatga aylanishi munosabati bilan harakatdagi Konstitutsiyaning qo‘llanishini muammoga aylantirib qo‘ydi. Shuning uchun ham 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida»gi qonunga Konstitutsiyaviy qonun maqomi berildi. U O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasi yaratilgunga qadar amalda bo‘ldi. Ushbu qonun bilan O‘zbekistonning davlat ramzlarini: gerbi, bayrog‘i, madhiyasi yaratilishi lozimligi qayd etildi¹.

Respublika Mustaqilligi e‘lon qilinishining tarixiy ahamiyati quyidagilardan iborat:

– dunyo xaritasida yangi, «O‘zbekiston» degan mustaqil davlat paydo bo‘ldi va o‘zbek xalqining asriy orzu-umidlari ro‘yobga chiqdi;

– Respublikada yashayotgan xalqlarning erki-irodasidan kelib chiqib O‘zbekiston o‘zining ichki va tashqi siyosatini mustaqil ravishda amalga oshirish imkoniyatini qo‘lga kiritdi;

– O‘zbekiston xalqi respublikada davlat hokimiyatining birdan-bir sohibi bo‘ldi;

– O‘zbekiston o‘z hududidagi barcha yer usti va osti boyliklariga o‘zi egalik qilish huquqiga ega bo‘ldi;

– milliy, ma‘naviy va tarixiy qadriyatlarni qayta tiklash hamda erkin rivojlantirish uchun sharoit yuzaga keldi;

– jahondagi ilg‘or tajribalardan kelib chiqib inson manfaatlari va huquqlarining himoyasini ta‘minlovchi huquqiy demokratik davlat qurish uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Xullas, O‘zbekiston xalqining ijtimoiy, ma‘naviy, iqtisodiy manfaatlarining ustuvorligi tan olinib, uning farovonligini ta‘minlovchi barcha omillarni qo‘llash uchun sharoit yaratildi.

199-yil 29-dekabrda o‘tkazilgan referendum. O‘zbekistonning mustaqilligi tom ma‘noda o‘zbek xalqining ezgu niyatlarini aks ettiradi. Buni 1991-yil 29-dekabrda o‘tkazilgan referendum yana bir marta tasdiqladi. Referendumga katta tayyorgarlik ko‘rildi. Referendumni uyushqoqlik bilan o‘tkazish maqsadida Markaziy saylov komissiyasi, 13 okrug, 7 ming uchastka saylov komissiyalari tuzildi.

¹ Ўзбекистон Республикасининг қонунлари. – 1992. – №3. – Б. 118.

1991-yil 29-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan referendumda 9 million 898 ming 707 kishi yoki saylov ro‘yxatiga kiritilganlarning 94,1 % qatnashdi. Referendumda maqsad-mazmuniga shunday savol qo‘yilgan edi: «O‘zbekiston fuqarosi sifatida sizning Oliy Kengash e‘lon qilgan O‘zbekiston mustaqilligiga munosabatingiz qanday – qo‘llaysizmi-yo‘qmi?». Bu savolga fuqarolarning 98,2 foizi ijobiy baho berib, mustaqillikni ma’qulladi¹.

Mustaqillikning ahamiyati to‘g‘risida Islom Karimov shunday deydi: «Biz uchun mustaqillik o‘z erkinligimizni anglashgina emas, balki avvalo o‘z hayotimizni o‘z irodamiz bilan va milliy manfaatlarimizni ko‘zlagan holda tashkil etish, o‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan qurish huquqidir»².

1992-yil 2-martda O‘zbekiston BMTning teng huquqli a‘zosiga aylandi. Bugungi kunda O‘zbekistonning davlat mustaqilligini dunyoning 170 dan ortiq mamlakati rasman tan oldi. Ularning 120 tasi bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. Toshkentda 88 xorijiy davlat elchixonalari va vakolatxonalari jumladan, AQSH, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Turkiya, Hindiston, Pokiston kabi davlatlarning elchixonalari ochildi. Toshkentda 44 ta xorijiy davlatlarning elchixonalari, 9 ta konsullik, 18 ta turli tashkilotlarning vakolatxonalari ochilgan.

Qisqa vaqt ichida O‘zbekistonning xalqaro nufuzining oshib borishini Islom Karimov quyidagicha izohlaydi: «Birinchidan, biz dastlabki kunlardanoq mustaqil ravishda tashqi siyosat yurita boshladik. Tinchlik va hamjihatlik prinsiplarini olg‘a surdik, O‘zbekiston iqtisodiy va ma’naviy salohiyatli buyuk davlat ekanini anglatib turdik va bu haqiqatni amalda namoyon eta boshladik. Ikkinchidan, biz tashqi siyosatni ichki siyosat bilan uzviy bog‘lashning uddasidan chiqdik. Mamlakat ichkarisida osoyishtalikni saqlashga erishdik»³.

Davlat ramzlari. Mustaqillikka erishgach, O‘zbekiston davlatining o‘z bayrog‘i, gerbi, madhiyasini yaratish to‘g‘risida qaror qabul qilingan edi. Shu qaror asosida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yilning 18-noyabrda bo‘lib o‘tgan VIII sessiyasida «O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i to‘g‘risida» Qonun qabul qilindi.

1992-yil 2-iyulda esa O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida «O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil

¹ Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. Т. 4. – Т., 1996. – Б. 295-296.

² Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т., 1998. – Б. 241.

³ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т., 1996. – Б. 5-6.

10-dekabrda XI sessiyasida «O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. Madhiyaning she‘riy matnini O‘zbekiston qahramoni, shoir Abdulla Oripov, musiqasini esa bastakor Mutal Burxonov yozgan.

Huquqiy davlat qurishning nazariy asoslari va amaliy muammolari 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiya va mamlakat Prezidenti Islom Karimovning «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li», «O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari», «O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat», «Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati», «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda» va boshqa asarlarida belgilab berildi.

O‘zbekistonning huquqiy demokratik davlatni shakllantirish yo‘lida avvalo, vaziyatni barqarorlashtirish bilan bir qatorda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, ma’naviy islohotlarning konsepsiyasini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishning choralarini ko‘rish zarur. Mamlakatda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning o‘z modeli («O‘zbek modeli») ishlab chiqildi. Uni hayotga tatbiq qilishda quyidagi qoidalarga amal qilindi: iqtisodiyotning mafkuradan xoliligi va uning siyosatdan ustunligi; davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi; qonun ustuvorligini ta‘minlash; kuchli ijtimoiy siyosat o‘tkazish; bozor munosabatlariga o‘tilishini bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirish.

Ushbu qoidalar nafaqat bozor munosabatlariga o‘tish, balki mamlakatda o‘tkazilayotgan barcha siyosiy, huquqiy, madaniy islohotlar uchun asos bo‘ladi.

Birinchil navbatda, davlat hokimiyatini tashkil qiluvchi idoralar isloh qilindi. Demokratik jamiyat qurish, fuqarolarning erkin ravnaqi va qonun ustuvorligini ta‘minlash maqsadida davlat boshqaruvi hokimiyatlar taqsimlanishi tamoyili asosida isloh qilindi.

Davlat hokimiyatining taqsimlanishi huquqiy demokratik davlatga xos bo‘lib, qonun chiqaruvchi (Oliy Majlis), ijro etuvchi (Prezident boshliq Vazirlar Mahkamasi), sud hokimiyati (Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Xo‘jalik sudi) dan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida hokimiyatning taqsimlanishi asosiy qonun darajasida mustahkamlangan. Prezident Islom Karimov «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» asarida ta’kidlanganidek: «Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etish, jamiyatning siyosiy tizimini, davlat idoralarining tuzilishini tubdan yaxshilash, respublika hokimiyati bilan mahalliy hokimiyatning vakolatlari

va vazifalarini aniq belgilab qo'yish, adolatli hamda insonparvar qonunchilikni vujudga keltirish lozim bo'ladi»¹.

Avvalo qonun chiqaruvchi hokimiyatdagi islohotlar haqida ma'lumot berish maqsadga muvofiq Oliy Majlis Konstitutsiya asosida saylangunga qadar uning vakolatlarini O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi amalga oshirdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining yangi tarkibi 1990 yilning 18 fevralida saylangan bo'lib u 1990-1994-yillar davomida faoliyat ko'rsatdi. U «Mustaqillik deklaratsiyasi»ni, «O'zbekiston Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonunni qabul qildi. Oliy Kengash faoliyati davomida 200 ga yaqin qonunlar, 500 dan ko'proq qarorlar qabul qildi. Qonun chiqaruvchi organ 1995-yildan boshlab Oliy Majlis deb atala boshladi.

Oliy Majlisga saylovlar o'tkazish tartibi 1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida» gi qonunga asosan olib boriladi. Deputatlar Oliy Majlisga umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida, yashirin ovoz berish yo'li bilan 5 yil muddatga saylanadilar. Oliy Majlisga deputat saylash normasi birinchi chaqiriq Oliy Majlis tomonidan 250 kishi qilib belgilangan edi.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisiga, shuningdek, viloyat, shahar va tuman kengashlariga saylovlar 1994-yil 25-dekabr, 1995-yil 8 va 25-yanvar kunlari bo'lib o'tdi.

Saylovlarga nomzod ko'rsatishda ko'ppartiyaviylik va muqobillik ta'minlandi. Natijada Oliy Majlisning I chaqirig'iga 250 nafar deputat, ya'ni hokimiyatning vakillik organlaridan 120 nafar deputat, XDPning 69 kishilik fraksiyasi, «Adolat» partiyasining 47 kishilik fraksiyasi ro'yxatga olingan edi.

1999-yil 5-dekabrda Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi, viloyat, shahar, tuman kengashlariga saylovlar o'tkazildi, saylovlarda 5 ta siyosiy partiya, vakillik idoralari va saylovchilarning tashabbus guruhlari bu muhim siyosiy tadbirda ishtirok etdilar.

2004-yil dekabr oyida yurtimizda ilk bor ikki palatali parlamentga va xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga, shuningdek, 2005-yil 27-yanvarda Senatga saylovlar bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis 2 palata: Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata)dan iborat qilib shakllantirildi. Qonunchilik palatasiga 120 nafar deputat saylandi.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т., 1992. – Б.16.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga respublikaning har bir hududidan 6 nafardan, jami 84 senator saylandi. Konstitutsiyaning 77-moddasiga muvofiq, Senatning 16 nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan tanlandi va Senat jami 100 nafar senatoridan iborat bo'ldi.

Ikki palatali parlamentlar bugungi kunda aksariyat mamlakatlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Agar statistikaga murojaat qiladigan bo'lsak, ularning soni keyingi yillarda 42 tadan 75 taga yetdi. 2005-yilda bular safiga O'zbekiston parlamenti ham qo'shildi.

O'zbekiston Respublikasining 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti (2005-yilgacha) davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i hisoblanadi (89-m.).

Ijro hokimiyatining bu tarzda tashkil etilishining mantig'ini Islom Karimov shunday izohlaydi: «Islohotlarning dastlabki bosqichida davlatning faol roli asosiy vakolatlar va eng avvalo, ijro etuvchi hokimiyatning ixtiyorida bo'lishini taqozo etadi. Demokratik o'zgarishlarning hozirgi bosqichi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning uzoq vaqtga mo'ljallangan strategiyasini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Bunda davlatning roli demokratik taraqqiyotimizning pirovard maqsadi – fuqarolik jamiyati barpo etish maqsadiga asoslangan holda tubdan o'zgartirish darkor¹. Demokratik jarayonlar chuqurlashishi munosabati bilan Prezidentning ba'zi vakolatlari Bosh vazir va Senatga o'tdi².

O'zbekistonda Prezidentlik Respublika boshqaruvi joriy etilishining ikkita muhim jihati mavjud. Birinchisi – qadimdan Osiyoda «sharqona demokratiya» mavjud bo'lib, u ham demokratiyaga, ham kuchli hokimiyatga keng imkoniyat yaratib beradi. Ikkinchisi – boshqaruvning parlamentar respublika usulidan farqli o'laroq Prezidentlik respublika boshqaruvida Prezident umumxalq saylovida barcha fuqarolarning ovoz berishi asosida saylanadi. Bunda Prezident o'z vakolatlarini parlament a'zolaridan emas, balki keng xalq ommasidan oladi. Bu esa katta demokratik huquqiy ahamiyatga ega. Ana shunday muhim jihatlarga ko'ra, O'zbekistonda boshqaruvning Prezidentlik respublika usuli shakllandi.

¹Qarang:: Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир.Т.19. – Т., 2011. – Б.44.

² Ўша жойда – Б. 42-53.

Boshqaruv tizimi ham izchillik bilan isloh qilib borildi. Dastlab respublikada davlat suverenitetini amalga oshiruvchi markaziy boshqaruv idoralari tizimi barpo qilindi. Tub ma'muriy islohotlar amalga oshirildi: markazlashgan rejalashtirish va taqsimlash tizimining tayanchlari bo'lgan Davlat plan komiteti, Davlat narx komiteti, Davlat ta'minot komiteti, Davlat agrosanoat komiteti va ko'plab tarmoq vazirliklari tugatildi.

Ular o'rniga bozor munosabatlarining shakllanishiga imkon beruvchi iqtisodiyotni boshqarish tizimi shakllana boshladi. Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab – quvvatlash Davlat qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi, Prezident huzuridagi iqtisodiy islohotlar, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo'yicha idoralararo Kengash va boshqa idoralarni kiritish mumkin. Qaytadan tashkil etilgan vazirliklar va qo'mitalarning bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda tuzilishi, faoliyati va ish yuritish metodlari tubdan o'zgartirildi.

Respublikada ijroiya hokimiyatini mustahkamlashga qaratilgan tadbirlardan biri – bu mahalliy davlat hokimiyati tizimida amalga oshirilgan islohotlardir.

Mahalliy hokimiyat tizimini isloh qilish bir qator zarur qonunlar va boshqa hujjatlar qabul kilinishini taqozo etdi. Bular «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida» (1993-yil, sentabr), «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari haqida» (1999-yil, sentabr) «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlariga saylovlar to'g'risida»gi (1994-yil, may) qonunlar va boshqa muhim hujjatlar shular jumlasidan.

«O'zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat organlarini qayta tashkil etish to'g'risida»gi qonunga muvofiq viloyat, shahar va tumanlarda hokim lavozimi ta'sis etildi. Viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan, lavozimidan ozod qilinadigan, tegishli xalq deputatlari kengashlari tomonidan tasdiqlanadigan bo'ldi. O'z navbatida, tumanlar va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi, lavozimidan ozod qilinadi, tegishli xalq deputatlari kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Boshqaruvning tarixiy va milliy shakli bo'lgan hokimlik institutining tiklanishi va joriy qilinishi davr talabi ekanligi namoyon bo'ldi va u mustaqillikning dastlabki yillarida ko'plab murakkab masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini yaratdi.

Mustaqillik yillarida o'zini o'zi boshqarish organlari yanada rivojlandi va takomillashdi. Ma'lumki, Markaziy Osiyoda o'zini o'zi boshqarish mavjud an'alarining qadim zamonlarga borib taqaladi. Mustaqillik yillarida mahalla, qishloq boshqaruvi yangicha mazmun bilan boyidi. Bu organlar o'zini o'zi boshqarish organlari sifatida faoliyat ko'rsata boshladi.

Prezidentimiz Islom Karimov uning jamiyatimizda tutgan o'rniga katta baho berib: «Mahalla ijtimoiy-siyosiy hayotimizning ko'zguvidir. Xalqimizning yaxshi an'analari, urf-odatlarini, xususan mehr-shafqat, muruvvat, to'yda ham, azada ham ulusning hamjihatligi mahalla hayotida yorqin namoyon bo'lmoqda»¹, – degan edi.

«Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonunga muvofiq jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda fuqarolarning ishtirok etishi huquqini ro'yobga chiqaradi, o'z hududlarida ijtimoiy va xo'jalik vazifalarini va madaniy-ommaviy, ma'rifiy ishlarni amalga oshirishda davlat organlariga yordam berishga jalb etiladi.

Prezident Islom Karimov Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasining 2010-yil 13-noyabrda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi ma'ruzasida ijro hokimiyatini yanada demokratlashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Ular:

Vazirlar Mahkamasining o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgarligi belgilanadi;

Bosh Vazir lavozimiga nomzod qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'rnini olgan siyosiy partiya yoki teng o'rin olgan partiyalar tomonidan taklif qilinadi;

Qonunchilik palatasining deputatlarining 1/3 qismi tomonidan Prezident va Oliy Majlis Senati Bosh vazirga ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masalani kiritishi mumkin;

Prezidentning o'z vazifasini bajara olmaydigan holatdagi vaziyatga aniqlik kiritildi va bu vazifa 3 oyga Oliy Majlis Senatining raisiga yuklatilishi belgilandi.

Shunday qilib, saylovlarda yutib chiqqan siyosiy partiya taqdim etgan Bosh vazir nomzodining Parlament tomonidan ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi haqidagi konstitutsiyaviy tartibning belgilanishi, hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi institutining joriy etilishi va siyosiy tizimini modernizatsiya qilish jarayonida amalga oshirilishi lozim bo'ladigan boshqa qator chora-tadbirlar o'z mazmun-mohiyati bilan mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirishning yangi bosqichini boshlab berdi².

Fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat barpo etish davlat hokimiyatining yana bir mustaqil tarmog'i, ya'ni sud hokimiyatini izchil

¹ *Каримов И. А.* Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – Т., 1996. – Б.10.

² *Каримов И.А.* Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Т., 2011. – Б.46-49.

isloh qilishni talab etdi. Sudni jazolovchi va faqat davlat manfaatlarini himoya qiluvchi organdan qonun ustuvorligi va inson huquqlari himoyasini ta'minlovchi organga aylantirishga qaratilgan yaxlit sud hokimiyati tizimini shakllantirish vazifasi qo'yildi va muvaffaqiyatli hal etildi.

Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, umumiy yurisdiksiya sudlari, xo'jalik sudlari joriy etildi. Jinoyat, jinoyat-protsessual, sud-huquq va boshqa yo'nalishlarning qonuniylik asosini tashkil etuvchi baza yaratildi. Jumladan, 2000-yil 14-maydagi Prezident farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida sudyalarni tanlash va lavozimga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiya tuzildi; 2000-yil 2-iyundagi Prezident farmoni bilan Sud-huquq sohasini isloh qilish dasturi qabul qilindi; 2001-yil 1-yanvardan boshlab sudlar ixtisoslashtirildi, ya'ni fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlar ajratildi; 2001-yil 29-avgust qonuni bilan yarashtiruv instituti tashkil qilindi¹.

Mustaqillik yillarida sudlarni jazolovchi organdan inson huquq va manfaatlarini, erkinligini himoya qiluvchi organga aylantirish uchun barcha chora-tadbirlar ko'rildi. Huquqni qo'llash va sud amaliyotiga 2001-yildan boshlab yarashtiruv instituti kiritildi. Natijada 2010-yilga qadar o'tgan vaqt mobaynida 100 ming nafarga yaqin fuqaro jinoiy javobgarlikdan ozod etildi. Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini yanada liberallashtirish va insonparvarlik tamoyillariga muvofiqlashtirish natijasida og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarning qariyb 75 foizi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga o'tkazildi. O'zbekistonda 2008-yilning yanvaridan boshlab o'lim jazosi umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo turi bilan almashtirildi. Sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish sohasidagi vazifalar Prezident Islom Karimov tomonidan belgilab berildi. Birinchi navbatda, normativ-huquqiy hujjatlarning asoslanganiga va sifatiga talablarni oshiriladi. Sudga qadar ish yurituv bosqichida qo'llaniladigan choralar, faqat sudyaning sanksiyasi asosida qo'llanishi tartibi nazarda tutildi.² Mazkur choralardan maqsad – sud-huquq tizimini demokratlashtirish va liberallashtirishdan iborat edi.

Siyosiy partiyalar. Jamiyat siyosiy tizimida demokratiyaning zaruriy va qonuniy belgisini tom ma'nodagi ko'ppartiyaviylik tasavvur qilib bo'lmaydi. Mustaqillik yillarida jamiyatda demokratlashuvni ta'minlashning siyosiy mexanizmi – turli ijtimoiy guruh a'zolarining ijtimoiy-

¹ Ўзбекистон жамиятини демократлаштириш ва янгилash, модернизация ва ислох қилиш йўлида. – Т., 2005. – Б. 189-190.

² Qarang.: Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Т., 2011. – Б. 54-69.

iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy va boshqa manfaatlariga xizmat qiladigan ko'ppartiyaviylik yuzaga keldi. Davlat, hukumat va parlamentni shakllantirishda siyosiy partiyalarning mavqeyi, ishtiroki tobora ortib bormoqda.

Ayni vaqtda respublikada 4 ta (1991-yilda 2 ta edi) siyosiy partiya va ikkita ijtimoiy harakat faoliyat ko'rsatmoqda. Ular quyidagilar:

- O'zbekiston Xalq Demokratik partiyasi (1991-yilda tashkil topgan);
- «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi (1995-yilda tashkil topgan);
- «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi (1995-yilda tashkil topgan);
- O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi (2003-yilda tashkil topgan).

So'nggi yillarda siyosiy partiyalarning mavqeyini ko'tarish maqsadida bir qator chora-tadbirlar belgilandi. Buning yorqin misoli sifatida «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun xizmat qiladi. Qonunga muvofiq siyosiy partiyalar Oliy Majlis qonunchilik palatasiga saylovlarda va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlarida nomzod ko'rsatish va saylovlarda ishtirok etish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasida partiya manfaatlarini ifodalash uchun o'z birlashmalarini tashkil qilish, boshqa partiyalar bilan blok tuzish, o'zlarining rasmiy hokimiyatiga nisbatan muxolifat deb e'lon qilishi, ya'ni majlisga bayonnoma kiritishi mumkin. Bosh vazir nomzodi Parlamentning qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etilishi belgilab qo'yildi¹.

1995-yildan respublikada «Xalq birligi» harakati hamda 2001-yil 25-aprelda ta'sis etilgan «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati (1996-yil 17-aprelda «Kamolot» jamg'armasi sifatida tashkil etilgan edi) faoliyat yuritmoqda. Bulardan tashqari, respublikada, 5100 dan ortiq nodvlat notijorat tashkilotlar mavjud. Bular – davlat va jamiyatdagi turli masalalarni hal etishda ishtirok etayotgan O'zbekiston kasaba uyushmalari, Xotin-qizlar qo'mitasi, «Nuroni» jamg'armasi, «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik jamg'armasi va boshqa ko'plab tashkilotlardir. 2007-yil 3-yanvarda «Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi maxsus qonunning qabul qilinishi ular faoliyatini yanada takomillashishga keng yo'l ochib berdi.

Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ommaviy axborot vositalari(OAV)ning o'rni juda katta. Bu jarayonda

¹ Ўша жойда: – Б.47-48.

ommaviy axborot vositalarining ahamiyati oshib bormoqda. O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyati uchun to'liq huquqiy asos yaratilgan. Konstitutsiyaning 67-moddasida ommaviy axborot vositalarining erkinligi, senzura yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, Oliy Majlis qabul qilgan bir qancha qonunlarda ham ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslari belgilab berilgan. Ommaviy axborot vositalari aholining yangicha tafakkuri va ongini shakllantirishi, ularning xohish-irodasining xolis ifodachisi, inson manfaatlarining faol himoyachisidir. Bu to'g'rida bir qancha qonunlar mavjud. Jumladan, «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi, «Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida»gi (1997-yil 24-aprel), «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi (1997-yil 26-dekabr, yangi tahriri 2007-yil, 15-yanvar) qonunlardir.

Mustaqillik yillarida ommaviy axborot vositalarining turlari va soni birmuncha ko'paydi. 1990-yilda 395 nomda gazeta va jurnallar chop etilgan bo'lsa, 2013-yilda 1326 nomda gazeta va jurnal chop etildi, 4 ta axborot agentligi, 55 ta nashriyot, 100 ga yaqin davlat va nodavlat teleradiostudiyalari va uning hududiy bo'linmalari, 1200 dan ortiq elektron ommaviy axborot vositalari faoliyat ko'rsatib turibdi. Internet tizimidan foydalanuvchilarning soni 8 milliondan ortdi. Ommaviy axborot vositalarining jamiyatimiz hayotidagi o'rni haqida Islom Karimov: «Ommaviy axborot vositalari har bir kishi o'z fikrini ifoda eta olishiga imkon beradigan erkin minbar bo'lishi kerak. Ayni shu ommaviy axborot vositalari jamiyatimizning demokratik qadriyatlarini va tushunchalarini himoya qilishi, odamlarning siyosiy, huquqiy va iqtisodiy ongini shakllantirish bo'yicha faol ish olib borishi lozim»¹, deb ta'kidlagan edi.

Shunday qilib, mustaqillik davrida Prezident Islom Karimov so'zlari bilan aytganda «... yurtimizda erkin va mustaqil demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish, iqtisodiyotimizni keskin va chuqur isloh etish, aholimiz manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish bo'yicha qabul qilgan azmu qarorimiz yakkayu yagona to'g'ri yo'l ekanini bugun hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda»².

Shu bilan birga, O'zbekistonning dunyodagi taraqqiy etgan demokratik davlatlar qatoriga kirishi maqsadi mamlakatni modernizatsiya qilish va erkinlashtirishni, siyosiy-huquqiy va iqtisodiy tizimni demokratik

¹ Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т. 7. – Т., 1999. – Б. 31.

² Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Т., 2011. – Б.4.

yangilashni, respublikada fuqarolik jamiyatini shakllantirishni davom ettirishni taqozo qiladi. Prezident Islom Karimov Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasining (2010-yil 13-noyabr) qo'shma majlisidagi ma'ruzasida ular istiqbolini belgilab berdi:

1. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishni davom ettirish;
2. Sud-huquq tizimini isloh etishni davom ettirish;
3. Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash;
4. O'zbekistonda saylov huquqini erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish;
5. Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish;
6. Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotini liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish¹.

Xulosa qilib aytganda, Sobiq Ittifoqning inqirozga uchrashi va tarqalib ketishi qandaydir siyosiy kuchlarning, shaxslarning xohish-irodasi bilan bog'liq emas, balki obyektiv zarurat, hayot taqozosi edi.

Mustaqillik tarixini o'rganishda muhim manba. Prezident Islom Karimovning «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobining ma'naviy, siyosiy, tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Zero Vatanimizning tarixan qisqa vaqt ichida, lekin har biri o'n yilliklarga teng bo'lgan, bosib o'tgan yo'lida iqtisodiy, ijtimoiy, shaxs erkinliklarini ta'minlash sohalaridagi ulkan muvaffaqiyatlari, davlatimizni dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinishi qanday mashaqqatli kurashlar, yo'qotishlar evaziga erishilganini tushunib yetishda mazkur kitob asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Kitobda bir qancha avvallari e'tibordan chetda qolgan, o'z vaqtida yetarli o'rganilmagan, tahlil qilinmagan hujjatlar keltirilganki ular mustaqillik uchun kurash tarixining yangi sahifalarini yaratish va shu asosda yoshlarni tarbiyalashda asosiy vosita bo'ladi, deyishga barcha asoslar bor.

Prezident Islom Karimovning kitobini uning mazmuniga qarab bir necha yo'nalishda o'rganish mumkin. *Birinchi yo'nalish* sobiq ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan tizimning samarasiz ekanligi va inqirozga yuz tutganligi; O'zbekiston xalqining mustaqillikka intilishining yuzaga kelishi va kuchayishi obyektiv hodisa ekanligini isbotlashga qaratilgan. Buni quyidagicha asoslash mumkin. 1985-yilda sobiq Ittifoq hokimiyatiga kelgan M.S.Gorbachev boshliq rahbariyat mamlakatning turg'unlik holatiga tushib qolganligini va bunda KPSS siyosiy byurosining ham aybi borligini tan oldi va «qayta qurish» bilan bog'liq bir qancha choralarni belgiladi. Lekin

¹ Ўша жойда. – Б. 35–107.

ularning birontasi ko'zda tutilgan natijalarni bermadi. Buning sabablari quyidagilardan iborat:

- ittifoq rahbariyati sotsializm g'oyasidan voz kechishga o'zida siyosiy qat'iyat topa olmadi;
- jamiyatni demokratlashtirish g'oyasi ilgari surildi-yu sobiq partiyaning rahbarlik rovidan voz kechilmadi;
- xo'jalik subyektlari mustaqilligini kengaytirishga chaqirildi-yu, davlat mulkini xususiyashtirish lozim deb topilmadi;
- bozor munosabatlariga o'tish masalasi kun tartibiga qo'yilmadi;
- yangi ittifoq shartnomasida Markaz o'z vakolatlarini saqlab qolishga harakat qildi.

Natijada mamlakatda, jumladan O'zbekistonda ham, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalaridagi ahvol tobora murakkablashib bordi. Bu holat kitobda aniq raqamlar, dalillar bilan batafsil isbotlangan.

80-yillarning ikkinchi yarmida O'zbekiston kishi boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha sobiq ittifoq bo'yicha 12-o'rinda turgan. Sanoatda mehnat unumdorligi jihatidan respublika mamlakatdagidan 40 foizga, qishloq ho'jaligidagi mehnat unumdorligi jihatidan ikki barobar orqada qolgan. O'rta hisobda go'sht mahsulotlarini, sut va sut mahsulotlarini, tuxumni umuman mamlakat aholisiga nisbatan ikki barobar kam iste'mol qilgan. Agar sobiq ittifoqda o'rta hisobda 75 so'mdan kamroq yalpi daromad oladigan aholining ulushi 12 foizdan sal ko'proq bo'lsa, respublikamizda 45 foizga boradi¹.

Xullas, Prezident iborasi bilan aytganda, oldin odamlar «yashash qiyin bo'lib qoldi» desa, hozirgi hayotda «yashash dahshatli bo'lib qoldi» degan ibora paydo bo'lganidan ko'z yumib bo'lmaydigan darajaga yetdi².

Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalarida milliy respublikalarining o'zini o'zi ta'minlay olmayotganligi haqidagi asossiz da'volar, xalqni dalil isbotsiz tahqirlash, ma'naviy ezishga qaratilgan materiallarni chop qilish avj oldi.

Markaz tomonidan «paxta ishi» qo'zg'atilishi munosabati bilan qo'shib yozishlarni tashkil etgan shaxslar bilan bir qatorda minglab oddiy ijrochilar, halol mehnatkashlarga qarshi jazo choralarining qo'llanilishi xalqning noroziligiga sabab bo'ldi. Ularning tub sababini, ya'ni markaz tomonidan amalda bajarib bo'lmaydigan 6 mln. tonna paxta yetishtirish topshirig'i berilganini hech kim inobatga olmadi. Islom Karimovning

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т., 2011. – Б.5–6.

² Ўша жойда. – Б.128.

ta'kidlashicha: «Bo'sh-bayov, siyosiy irodadan mahrum, o'z xalqining ornomusi, qadr-qimmatini himoya qilishga qodir bo'lmagan kishilarning O'zbekiston Kompartiyasi va respublika rahbariyatiga kelib qolishi shunga yordam berdi. Ularning aksariyati o'zlarining omon qolishlarini o'ylab, huquq muhofazasi organlari, jumladan, Gdlyan va Ivanov guruhi yo'l qo'ygan qonunsizliklarni payqamaslikka obdon urindilar.¹ Islom Karimov respublika rahbarligiga kelgandan so'ng barcha nohaq jinoiy javobgarlikka tortilganlar qonun yo'li bilan oqlandilar.

O'sha paytda respublika sanoat korxonalari va ular ishlab chiqargan mahsulotning 90 foizi markaz ixtiyorida edi, O'zbekiston oltinining hammasi markazning valuta fondiga tushgan. Shunga qaramay, Markaz, respublikadagi og'ir ahvolga befarq bo'ldi. Uni ijobiy tomonga o'zgartirishga harakat qilmadi, o'zining ichki nizolari bilan o'ralashib qoldi.

Ikkinchi yo'nalish, sobiq ittifoq rahbariyati vaziyatni o'nglashga na layoqati na siyosiy qat'iyati yo'qligiga ishonch hosil qilgan respublika rahbariyati davlatni boshqarishni o'z ixtiyoriga olish, mamlakatning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib aholini qashshoqlashishdan muhofaza qilish, imkoniyatlarini ko'rsatib berish va ularni amalga oshirish choralari va usullariga qaratilgan.

Ittifoqning sobiq rahbarlari uyushtirmoqchi bo'lgan qayta qurish odamlar orzu qilgan ne'matlarni bermadi. Uning barbod bo'lishi joylarda, jumladan, O'zbekistonda ham markazning vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirish layoqatiga ega emasligiga ishonch hosil qildi. Bu, o'z navbatida, O'zbekiston rahbariyatini barcha muammolarni mustaqil ravishda hal qilishga undadi. 1989 yil iyunida respublika rahbari lavozimiga saylangan Islom Karimov mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, millatlararo va turli toifa aholi o'rtasida totuvlikni ta'minlash, qashshoqlikka qarab ketayotgan nochor aholining moddiy ahvolini yaxshilashni har tomonlama idrok etdi. Shu munosabat bilan, u xalqqa g'amxo'rlik qilishni birinchi darajali vazifa qilib belgiladi. Bu masala uning quyidagi so'zlarida o'z ifodasini topdi: «...kundan-kunga og'irlashib ketayotgan sinovlar oldida turibmiz. Ana shu sinovlardan xalqimizni, bizlarga ishongan fuqarolarning burnini qonatmasdan yo'qotishlarga yo'l qo'ymasdan, kelajakdagi porloq hayot uchun zamin tayyorlab o'tsak, bu sinovlar qancha davom etishini hozir aniq aytish qiyin, shundagina zimmamizdagi burchni bajargan, odamlarning ishonchini oqlagan bo'lur edik»².

¹ Ўша жойда. – Б.174-175.

² Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т., 2011. – Б. 276.

Mamlakatdagi iqtisodiy ahvolni, davlat budjetidagi tanqislikni ko'ra bila turib, xalqqa uning moddiy ahvolini yaxshilashga baralla va'da berish katta mardlik, qat'iyat va uni so'zsiz bajarishga mustahkam ishonch bo'lishi kerak edi. Islom Karimovda chuqur o'ylangan, hisob-kitob qilingan strategiya, boshqalar ko'ra olmagan rejalar ham mavjud edi. Prezidentning «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobini sinchiklab o'qigan insonga ana shu rejalar yaqqol namoyon bo'ladi. Islom Karimovning topshirig'iga binoan qilingan hisob-kitoblarga qaraganda 1989-yil avgustida qishloqda yashaydigan 240 ming oilaning yeri yo'qligi, 1,8 milliondan ko'proq hovli esa uy-joy qurilishi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun kengaytirishga muhtojligi aniqlangan¹. Shaxsiy xo'jalikdagi yerlarning unumdorligi jamoat sektoridagiga nisbatan to'rt marta ko'p samara berishini hisobga olib, zudlik bilan yer ajratish va uni kengaytirish masalalarini ko'rib chiqish hamda hal qilish taklif etildi. Respublika aholisining taxminan 60 foizi qishloq joylarda istiqomat qilinishi nazarda tutilsa, yuqoridagi takliflarni amalga oshirilsa, millionlab oilalarning moddiy ahvoli yaxshilanishi mumkinligi aniq edi.

Lekin yana bir muammo bor edi. Gap aholiga tashlandiq, ishlov berish mumkin bo'lmagan yerlar berish ustida emas, balki sug'oriladigan, dehqonchilik qilish mumkin bo'lgan yerlar ustida ketayapti. Ushbu muammoni hal qilish Islom Karimov tomonidan yana bir marta mardlik talab qildi. Uning tashabbusi bilan markazning paxta xomashyosiga talabi o'sib borayotgan bir paytda paxta yetishtirish 700 ming tonnaga yoki 250-300 ming gektarga qisqartirildi. Paxtadan bo'shagan yerlardan 165 ming gektari zudlik bilan odamlarga bo'lib berildi, natijada dehqonlarning tomorqalari qariyb ikki marotaba ko'paydi.

Savdo, matlubot kooperatsiyasi, maishiy xizmat, mahalliy sanoat sohasida xususiy korxonalar tashkil qilish, davlat va idoralarga tegishli kvartiralar xususiy mulk qilib berilishi boshlandi. Buning hisobiga davlat budjeti to'ldirilib borildi.

Eng asosiysi, 12 turdagi eng zarur oziq-ovqat mahsulotlarining narxi muayyan vaqt ushlab turildi. Ko'rilgan choralar aholini qashshoqlashuvdan asrab, moddiy ahvolini tiklab olishida muhim omil bo'lib xizmat qildi. Bunday dalillarni ko'plab keltirish mumkin.

Prezident respublika rahbariyatiga kelgan kundan boshlaboq mamlakatdagi barqarorlikni ta'minlashda xalqning milliy ma'naviy qadriyatlarini, o'z tarixini tiklashga alohida ahamiyat kasb etishini doimo eslatib bordi va bu g'oyani amalga oshirishga barcha kuch-g'ayratini

¹ Ўша манба. – Б.57.

sarfladi. U o'z hamfikrlariga va safdoshlariga shunday da'vat qildi: «...Biz tarixiy xalq an'analari, urf-odatlarini va marosimlari asosida odamlarni ongini shakllanish omillarini kuchaytirishimiz zarur»¹.

Uzoq yillar kommunistik mafkura va kurashuvchan ateizm bosimi ostida yashagan xalq Prezident Islom Karimov boshchiligidagina aloqador masalalarning ijobiy qilinishi, milliy qadriyatlar va xalq rasm-rusmlarini tiklashga qaratilgan choralarni minnatdorchilik bilan qabul qildi hamda mustaqillik e'lon qilinishiga yaqin qolganligini chuqur his qildi. Bu borada amalga oshirilgan tadbirlardan biri sifatida kitobda 1990-yil sentabrida ulug' alloma xadis ilmining mo'tabar namoyandaligidan biri, vatandoshimiz Abu Iso Muhammad ibni Iso at-Termiziy tavalludining 1200 yilligi munosabati bilan xalqaro anjuman o'tkazilganligi haqida ma'lumot beriladi. Bunday tadbirlarning o'tkazilishi o'sha murakkab vaziyatga qaramasdan O'zbekiston mafkura va ma'naviyat sohasida mustaqil siyosat olib borganligidan darak beradi.

Uchinchi yo'nalish mamlakat kelajagini belgilaydigan islohotlarni amalga oshirish va mustaqillik asosini yaratish: jumladan, ma'muriy buyruqbozlik tizimiga barham berish, demokratik huquqiy davlat barpo qilish, bozor munosabatlarini joriy etish, erkin jamiyatni shakllantirishga qaratilgan g'oyalar va ularni hayotga tatbiq qilish chora-tadbirlarini mujassam etgan.

Islom Karimov o'z nutqlarining birida «...Biz uchun asosiy yo'nalish, barcha vazifalarni hal etish kaliti – O'zbekistonning real siyosiy suvereniteti va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashdir» deb baralla e'lon qildi². Bu so'zlar mustaqillikni asoslarini ishlab chiqarishga turtki bo'ldi. Kitobda ushbu mavzuga oid ikki toifa hujjatlar jamlangan. Birinchisi, Davlat tili to'g'risidagi qonun; Respublikaning o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash, respublika hududida joylashgan ittifoq davlat korxonalari, muassasa va tashkilotlarini O'zbekiston tasarrufiga o'tkazish to'g'risidagi qarorlarni va Mustaqillik deklaratsiyasini qabul qilinishi; ittifoqdosh respublikalar o'rtasida birinchi bo'lib, Prezidentlik lavozimining ta'sis etilishi va bu lavozimga Islom Karimovning saylanishi; Prezident farmoni bilan Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi qo'mitasi respublika tasarrufiga olinishi, yurtimizda joylashgan ichki qo'shinlarning Respublika Prezidentiga bo'ysundirilishi 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston mustaqilligini e'lon qilinishiga mustahkam zamin tayyorladi. Bu

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т., 2011. – Б.91.

² Ўша манба. – Б.234.

hujjatlarning har biri ulkan tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, sobiq Ittifoqning jazolovchi organlari ishlab turgan paytda shaxsan O‘zbekiston Prezidentidan qat’iy siyosiy iroda, jasurlik talab qilardi. Bu bilan Islom Karimov o‘z xalqiga bo‘lgan ishonchini, sadoqatini, uning kelajagi porloq ekanligiga ishonchini, bu yo‘lda jonini fido qilishga tayyor ekanligini namoyon qildi. Mazkur hujjatlarni chuqur o‘rgangan, ularni hayotga tatbiq qilish bilan tanishgan shaxsda mustaqillik g‘oyibdan kelgan emas, balki uning zaminida xalq va uning Prezidenti irodasi, g‘ayrat-shijoati, uzluksiz kurashlar yotganligi to‘g‘risida to‘liq tasavvur shakllanadi. Mustaqillikning qadriga yetish, uni asrab-avaylash, mustahkamlash zarurligi to‘g‘risida tushuncha paydo bo‘ladi.

Ikkinchisi – yurtimizning kelajagini belgilashga qaratilgan demokratik huquqiy davlat barpo qilishga, bozor munosabatlariga o‘tishga, adolatli va erkin jamiyatni shakllantirishga qaratilgan ilmiy va mantiqiy jihatdan asoslangan, milliy-ma’naviy qadriyatlar, shuningdek rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribasini qamrab olgan konseptual g‘oyalarni aks ettirgan ma’ruza va nutqlardir.

Islom Karimov respublika rahbari etib saylangan kundanoq O‘zbekistonning kelajagi, davlatchilikning shakli, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy asoslarini yaratish to‘g‘risida kunu tun tinmay o‘yladi, ilmiy mulohazalar yuritdi, xalqimizning boy tarixini, rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rgandi, ularni bugungi kun talablariga va o‘zbek xalqining mentalitetiga moslash yo‘llarini, choralari ishlab chiqa boshladi. Prezident respublika oldida turgan murakkab muammolarni hal qilishda demokratiyani, huquqqa asoslangan davlat qurishni amalga oshirmasdan mulkchilikning xilma-xil shakllariga asoslangan, boshqariladigan bozor munosabatlariga o‘tmasdan muammolarni samarali hal qilib bo‘lmasligini ilmiy jihatdan isbotlab berdi. Bunga, jumladan, Prezidentning quyidagi so‘zlari dalil bo‘ladi: «Ko‘p yillik achchiq tajriba, qanday tayoq ostida ishlamaylik xoh u plan bo‘lsin, xoh davlat buyurtmasi yoki davlat yo‘li bilan mahsulot yetkazib berish bo‘lsin – faqat arzimagan samara keltirishini ko‘rsatib turibdi. Chunki bunday sistema insonning ijodiy tashabbusini falaj qiladi, undagi egalik hissini yo‘qotadi. O‘z ishidan norozilik keltirib chiqaradi. ... Bu aqliy qobiliyatga ham taalluqlidir. Mustaqil shaxslarning uyg‘unligi esa butun jamiyat mustaqilligining asosidir»¹.

Kitobni o‘rganayotib yana bir mulohazaga borish tabiiy. Mustaqillikka intilish harakatlari 1985-yillarda boshlanib, 1991-yil 31-avgustgacha davom

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т., 2011. – Б.235-236.

etganini inobatga olib uni ikki davrga ajratish mumkin. Birinchi bosqich 1985-yil apreldan 1989-yil iyunigacha davom etdi. Bu bosqich parokandalik, markaz tomonidan respublika manfaatlarining kamsitilishi, xalq ommasining qashshoqlashuvi va noroziligining kuchayishi, o‘sha davrdagi respublika rahbariyatining vaziyatni tuzatishdagi noshudligi va markazga to‘la mute bo‘lib qolgan davri deyish mumkin. Ikkinchi bosqich 1989-yil iyun oyida, ya’ni Islom Abdug‘aniyevich Karimovning O‘zbekiston Kompartiyasining birinchi kotibi etib saylangan kundan boshlanadi. Bu davrda iqtisodiy, ijtimoiy vaziyatni o‘nglashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ko‘rilganligi, aholining mustaqillikka intilishi respublika rahbariyati tomonidan to‘la qo‘llab-quvvatlanganligi va mustaqil siyosat olib borish yo‘liga o‘tilganligiga ishonch xosil qilamiz.

Shunday qilib, kitobda ilmiy-metodologik jihat asoslangan g‘oyalar, takliflar, chora-tadbirlarni chuqur va har tomonlama o‘rganish fuqarolarning, jumladan ichki ishlar xodimlarining tarixiy xotirasini mustahkamlaydi, mustaqillikning qadriga yetishga da’vat qiladi, ularni mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga, kelajagi buyuk davlatni barpo qilishga o‘z hissasini qo‘shishga rag‘batlantiradi.

XVI bob
O‘ZBEKISTONNING IQTISODIY VA MA’NAVIY-MADANIY
TARAQQIYOTI

1-§. O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tishning
o‘ziga xos yo‘li

Jahon tajribasida bozor iqtisodiyotiga o‘tishning bir necha yo‘llari bor. Bir tizimdan ikkinchi tizimga o‘tishda ikki yo‘l, ya’ni revolyutsion (inqilobiy) va evolyutsion (tadrijiy) yo‘llar mavjud. Polsha, Chexoslovakiya (hozir Chexiya va Slovakiya) Rossiya va boshqa ayrim mamlakatlar bozor iqtisodiyotiga o‘tishning revolyutsion yo‘lini, birdaniga bozorga o‘tish yo‘lini tanladilar. Boshqacha aytganda, ular «shok terapiyasi» (karaxt qilib davolash) degan usulni qo‘lladilar. Bu yo‘lni amalga oshirish uchun Rossiyada «300 kun», «500 kun» degan o‘tish dasturlari ishlab chiqildi. Bu dasturlar tezkorlik bilan amalga oshirila boshlandi. Natijada bu mamlakatlarda o‘tish davrining boshlanishida ishlab chiqarish hajmi keskin tushib ketdi, pulning qadri pasaydi, iqtisodiyot esa karaxtlik holatiga tushib qoldi.

O‘zbekiston bozor iqtisodiyotiga o‘tishning evolyutsion yo‘lini tanladi. Bunda xalqaro tajriba va respublikadagi mavjud vaziyat yoki xususiyatlar hisobga olindi. Bugungi kungacha bo‘lgan jahon tajribasida bozor munosabatlarining quyidagi andozalarini qayd etishimiz mumkin:

- «Amerikacha andoza» – erkin bozor munosabatlari muhim rol o‘ynaydi;
- «Yapon» va «Fransuz» andozalarida xo‘jalik faoliyatini tashkil qilishda davlatning ishtiroki salmoqli;
- «Nemis» va «Shved» andozalarida ijtimoiy yo‘nalishga juda katta e’tibor berilgan.

Bozor munosabatlariga o‘tishning Respublikadagi xususiyatlari: demografik vaziyat, geografik joylashuv, uning tabiiy-iqlim sharoiti, tabiiy boyliklar, aholining ruhiyati bilan bog‘liq omillar va boshqalardan iborat. O‘zbekiston tanlagan yo‘l ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti yo‘li edi. Bozor munosabatlariga jahon tajribasini hisobga olgan holda, revolyutsion to‘ntarishlarsiz, turli guruhlar o‘rtasida to‘qnashuvlarsiz, aholini ijtimoiy himoyalash mexanizmlarini ishga solgan holda asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich o‘tila boshlandi.

Ma’muriy-buyruqbozlik tizimi va resurslarni markazlashtirilgan xolda taqsimlashga asoslangan sotsialistik iqtisodiyotdan bozor tizimiga o‘tish jarayonida tadrijiy yondashuvni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmag» degan hayotiy tamoyilga tayangan holda, islohotlarni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirish yo‘lini tanladik» deb ko‘rsatib o‘tgan edi¹.

Islohotlarning besh tamoyili. O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tish yo‘li ijtimoiy-yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan. Bu yo‘lni amalga oshirishga, iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyil asos qilib olindi:

- birinchidan*, iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo‘ysundirilishi mumkin emas;
- ikkinchidan*, davlat bosh islohotchi bo‘lishi lozim;
- uchinchidan*, qonun, qonunlarga rioya etish ustuvor bo‘lishi lozim;
- to‘rtinchidan*, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat o‘tkazish;
- beshinchidan*, bozor munosabatlariga o‘tish evolyutsion yo‘l bilan, puxta o‘ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak².

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning asarlarida bozor iqtisodiyotiga o‘tishning birinchi bosqichida quyidagi ikkita vazifani birdaniga hal qilish maqsad qilib qo‘yilganligi ta’kidlanadi:

- totalitar tizimning og‘ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish;
- Respublikaning o‘ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish.³

Shu vazifalarni hal qilish uchun birinchi bosqichda isloh qilishning muhim yo‘nalishlari aniqlab olindi:

- birinchidan*, o‘tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy negizini mustahkamlash;
- ikkinchidan*, mahalliy sanoat, savdo, maishiy xizmat korxonalarini, uy-joy fondini xususiyalashtirish, qishloq xo‘jaligida va xalq xo‘jaligining boshqa sohalarida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;
- uchinchidan*, ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish, moliyaviy ahvolning barqarorlashuvini ta’minlashdan iborat edi.

¹ Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т., 2009. – Б.7.

² Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Т., 1996. – Б.300-301.

³ Ўша манба. – Б.19.

Vatanimizda iqtisodiy rivojlangan bozor munosabatlariga o'tish bo'yicha birinchi bosqichda qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish jarayonida iqtisodiyot sohasiga tegishli bo'lgan, iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishning huquqiy negizini barpo etadigan ko'plab asosiy qonun hujjatlari qabul qilindi.

Prezident Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek, «Barchamizga ayonki, mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining dastlabki bosqichida, ya'ni 1991-yildan 2000-yilgacha bo'lgan davrda ulkan o'zgarishlarni amalga oshirishda asosiy e'tibor markazlashtirilgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berishga va bozor iqtisodiyotining asoslarini, avvalambor, qonunchilik bazasini shakllantirish uchun sharoit yaratishga qaratildi.

Shu borada qabul qilingan o'ta muhim qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar qatorida Fuqarolik, Yer, Soliq va Bojxona kodekslari, «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to'g'risida», «Banklar va bank faoliyati to'g'risida», «Chet el investitsiyalari to'g'risida», «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi qonunlarni qayd etish lozim.

Islohotlarimizning keyingi bosqichida «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida», «Xususiy korxonalar to'g'risida», «Valutani tartibga solish to'g'risida», «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida», «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunlar, Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi va iqtisodiyotni isloh qilish bo'yicha umumiy hisobda 400dan ziyod qonun hujjatlari ishlab chiqilib, qabul qilindi va joriy etildi. Ularning barchasi iqtisodiyotimizni yanada liberallashtirish va modernizatsiya qilishda nafaqat mustahkam huquqiy asos, balki amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ortga qaytmasligining kafolati bo'lib xizmat qilmoqda¹.

Ikkinchi bosqichda investitsiya faoliyatini kuchaytirish chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va shuning negizida iqtisodiy o'sishni ta'minlab bozor munosabatlarini to'liq joriy etish maqsad qilib qo'yildi.

Shulardan kelib chiqib, bu bosqichda quyidagi vazifalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchi vazifa – davlat mulkini xususiyashtirish sohasida boshlangan ishni oxiriga yetkazish.

Ikkinchi vazifa – ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish.

Uchinchi vazifa – milliy valuta-so'mni yanada mustahkamlashdan iborat.

¹ Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Т., 2011. – Б.98-99.

To'rtinchi vazifa – iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish, xomashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish.

Shunday qilib, O'zbekistonda iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tkazishda ikki bosqichli taraqqiyot, ya'ni birinchi bosqichda davlat sektori va bozor xo'jaligidan iborat yarim erkinlashgan iqtisodiy tizim vujudga keldi. Ikkinchi bosqichda iqtisodiyot to'liq erkinlashtirildi, hususiyashtirish tugatildi, narxlar erkinlashtirildi, davlat korxonalarining monopol mavqeyi tugatildi.

Xususiyashtirish. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish iqtisodiy islohotlarda yetakchi o'rinda turadi. Xususiyashtirish jarayonini tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun 1992 yil fevralda Davlat mulkini boshqarish va xususiyashtirish davlat qo'mitasi ta'sis qilindi. 1994 yilda uning funksiyalari o'zgartirildi, davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasiga aylantirildi. Mazkur qo'mita zimmasiga bir qator muhim vazifalar ko'p ukkladli iqtisodiyotni shakllantirishda yagona siyosatni amalga oshirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash; mulkni davlat tasarrufidan chiqarishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash va xususiyashtirish dasturini ishlab chiqish; xususiy biznesning rivojlanishiga yordam ko'rsatish va boshqalar yuklatildi.

Xususiyashtirish tanlov va kim oshdi savdosi orqali amalga oshirildi, bu tartib takomillashib bordi. Dastlab savdoga faqat mol-mulkning o'zi qo'yilgan bo'lsa, keyinroq xususiyashtirilayotgan mol-mulk joylashgan yer uchastkalari, yangi qurilishlar qilish uchun yer maydonlari ham kim oshdi savdosiga qo'yildi. O'zbekiston xususiyashtirishdan tushgan barcha mablag'lar tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun berilishi jihatidan ham o'ziga xos yo'lga ega bo'lgan davlat sifatida ko'zga tashlandi.

Davlat mulkini xususiyashtirishning Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillari eng avvalo o'zining mahalliy xususiyatlarni va talablarini hisobga olganligi, ayni vaqtda hozirgi zamon ilg'or tajribalariga mos kelishi bilan alohida ajralib turadi.

Bularni quyidagilarda ko'rish mumkin:

– *birinchidan*, xususiyashtirish qandaydir kishilar yoki ma'lum mafkura manfaati uchun bo'ysundirilmadi. «Davlat bosh islohotchi» tamoyiliga amal qilindi;

– *ikkinchidan*, O'zbekistonda chek vositasi bilan xususiyashtirish g'oyasidan voz kechildi, davlat mol-mulki faqat yangi mulkdorga sotish yo'li bilangina mulkchilikning boshqa shakliga aylantirila boshlandi;

– *uchinchidan*, xususiyashtirishga dasturiy yondashuvni ta'minlash va bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lidan borildi. 1991-yil 18-noyabrda

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasida mulkni «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi.

Xususiylashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko'rsatish korxonalarini, qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlovchi xo'jaliklarni davlat tasarrufidan chiqarishdan boshlandi. Bu «kichik xususiylashtirish» deb nom oldi.

Kichik xususiylashtirish 1994-yildayoq tugallandi. Davlat ixtiyorida bo'lgan bir milliondan ortiq kvartira yoki davlat uy-joy fondining 95 foizdan ortiqrog'i fuqarolarning xususiylashtirish mulki bo'lib qoldi. Bunda har 3 kvartiraning bittasi egalariга imtiyozli shartlar bilan yoki bepul berildi. Urush faxriylari, o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari, ilmiy xodimlar va ijodkor ziyolilarga kvartiralar bepul berildi. 2002-yilga qadar Respublika uy-joy fondining 98 foizga yaqini xususiylashtirildi.

Davlatga qarashli mulkni, korxonalarini xususiylashtirishga davlatning o'zi tashabbuskor bo'ldi va boshchilik qildi. Davlat mulkini xususiylashtirish boshlanganidan keyin to 1994-yil oxirigacha 54 mingga yaqin korxonalar va obyekt davlat tasarrufidan chiqarildi. Shularning 18,4 mingga xususiylashtirish mulkka, 26,1 mingga aksiyadorlik, 8,7 mingga jamoa, 661 tasi ijara korxonalariga aylandi. 1994-yil 21-yanvarda e'lon qilingan «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 1994-yil 16-martda e'lon qilingan «Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi Prezident farmonlari xususiylashtirish jarayoniga yangi turtki bo'ldi. O'rta va yirik korxonalarini aksiyadorlik jamiyatlariga, ijara korxonalariga aylantirish boshlandi, bu jarayonga aholi va chet ellik investorlar kengroq jalb qilindi. Davlat mulkini sotish bo'yicha kim oshdi savdolari va tanlovlar tashkil etildi.

1995-yili xalq xo'jaligida ommaviy xususiylashtirish davri bo'ldi. Yirik korxonalar ham davlat ixtiyoridan chiqarila boshlandi. Iqtisodiyotning davlat sektori negizida mingdan ortiq ochiq turdagi hissadorlik jamiyatlari, 6000 ta hususiy va oilaviy korxonalar vujudga keldi. 2004-yilning boshlarida respublikamizda 1800 ta aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat yuritdi, 1,2 mln.dan ortiq fuqaro aksiyalarga ega bo'ldi va ulardan daromad oldi. Hozirgi kunda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning 80 foizdan ortig'ini nodavlat sektor ta'minlamoqda. Tan olishimiz kerakki, 1991-yilda qabul qilingan «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi qonun, o'tgan davr mobaynida 80 dan ortiq qonunosti hujjati unga uyg'unlashtirilganiga qaramasdan, bugun qayta ko'rib chiqishni va yangi tahrirda qabul qilishni talab qilmoqda.

Mamlakatimizning strategik muhim tarmoqlari va korxonalarida aksiyalarning nazorat paketi, ta'bir joiz bo'lsa. «oltin» aksiyalarini davlat ixtiyorida saqlab qolgan holda, iqtisodiyotning eng muhim yetakchi tarmoqlariga xususiylashtirish investorlarni jalb qilish va ularda nodavlat sektor ulushini yanada kengaytirish zarur. Bunda bo'lajak investorlarning barcha toifalariga xususiylashtirish jarayonlarida teng sharoit yaratilishini ta'minlash, ularda xususiylashtirish sektori ishtirokini kengaytirish, xususiylashtirish bitimlarining ochiqligi va oshkoraligini ko'zda tutish lozim».¹

Kichik va o'rta biznes Respublikada kichik va o'rta biznesni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash uchun tadbirkorlikni rivojlantirish fondi, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga ko'maklashish fondi tuzildi, dunyodagi nufuzli banklarning sarmoyalari jalb etildi. Tadbirkorlar va biznesmenlarga maslahatlar bilan ko'maklashish maqsadida nemis texnikaviy ko'maklashuv jamiyati O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash markazini, Yevropa hamjamiyati komissiyasi amaliy aloqalar markazini ochdilar.

Markaziy Osiyodagi Amerika tadbirkorlik fondi va Markaziy Osiyodagi Buyuk Britaniya investitsiya fondi tadbirkorlarga zarur maslahatlar bilan ko'maklashdilar. Faqat 1999-yili kichik va o'rta biznes korxonalariga Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Germaniya tiklanish bankining 200 mln. AQSH dollaridan ortiq kredit mablag'lari jalb etildi va o'zlashtirildi. Kichik va xususiylashtirish tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi salmog'i 1991-yilda 1,5 foizni, 1999-yilda 12,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2004-yilda 35,6 foizga yetdi. 2004 yil faoliyat yuritayotgan kichik biznes korxonalarini soni 39,1 mingga yetdi. Faqat 2004 yilda bu sektor hisobiga 425 ming ish o'rinlari yaratildi. 2004-yil 1-oktabrida mazkur sektorda ish bilan band bo'lganlar soni, 1 mln. kishini yoki iqtisodiyotda jami band bo'lganlarning 61,5 foizini tashkil etdi.

Yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes va xususiylashtirish tadbirkorlikning ulushi ko'paygani mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatdi. 2000-yilda yalpi ichki mahsulotning qariyb 31 foizi o'rta va kichik biznes hissasiga to'g'ri kelsa, 2010-yilda bu ko'rsatgich 52,5 foizga yetdi. 2011-yilda ish bilan band aholining 74 foizdan ortig'i aynan shu sohada mehnat qilgan².

¹ Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Т., 2011. – Б 104-105.

² Каримов И.А. Бизнинг йўлимиз – демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва модернизация жараёнларини изчил давом эттириш йўлидир. Т.20. – Т., 2012. – Б 77.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'бири bilan aytganda, O'zbekistonda hali bu yo'nalishda qilinishi lozim bo'lgan ishlar juda ko'p...

Birinchidan, mamlakatimizning barcha mintaqalarida biznesni rivojlantirish uchun yanada qulay ishchan muhit yaratish, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesga yanada erkinlik berish, byurokratik to'siq va g'ovlarni bartaraf etish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Ikkinchidan, eskirgan, sun'iy ravishda o'ylab chiqarilgan va ko'pincha hech kimga keragi bo'lmagan cheklov va taqiqlarni bartaraf etish, davlat va nazorat organlarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xo'jalik faoliyatiga aralashuvini yanada keskin kamaytirish darkor.

Uchinchidan, Markaziy bank tijorat banklari bilan birgalikda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kreditlar ajratish, birinchi navbatda, investitsiya maqsadlari uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish mexanizmlarini yanada takomillashtirish va ularning hajmini oshirish, boshlang'ich kapitalni shakllantirish, mikro kreditlar berish ko'lamini kengaytirish borasidagi ishlarni davom ettirish lozim. 2011-yilda tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning ushbu sektoriga ajratiladigan kreditlar hajmini kamida 1,3 barobar ko'paytirish darkor.

To'rtinchidan, «...biz kichik biznesning eksport salohiyatini rivojlantirish uchun zarur tashkiliy, huquqiy moliyaviy mexanizm va sharoitlarni tug'dirib berishimiz kerak»¹.

Agrar islohotlar. Agrar islohotlarga ustuvorlik berildi. Chunki, respublika aholisining 62 foizi qishloqda yashaydi, qishloq xo'jaligida YAIM (yalpi ichki mahsulot)ning 30 foizi, mamlakat valuta tushumlarining 55 foizi shakllanadi. Agrar islohotlar natijasida qishloq xo'jaligidagi davlat tasarrufidagi mulk xususiylashtirildi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligida nodavlat sektorining ulushi 100 foizni tashkil qilmoqda.

Ta'kidlash joizki, o'tgan yili mamlakatda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati, kutilganidek, amalda 8,3 foizni tashkil yetdi, 2000-2011-yillar mobaynida yalpi ichki mahsulot hajmi 2,1 barobar oshdi. Mazkur ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston dunyoning iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan mamlakatlari qatoridan joy oldi.

¹ *Каримов И.А.* Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Т., 2011. – Б 240-242.

2012-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,2-foizga o'sdi, sanoat ishlab chiqarishi hajmi 7,7 foizga, qishloq xo'jaligi 7 foizga, chakana savdo aylanmasi 13,9 foizga oshgan¹.

Iqtisodiyotimizda yuz berayotgan jiddiy tarkibiy va sifat o'zgarishlarini birgina misolda, ya'ni 2000-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda sanoat ishlab chiqarishining ulushi bor-yo'g'i 14,2 foizni tashkil yetgan bo'lsa, 2011-yilda bu ko'rsatkich 24,1 foizga yetganida yaqqol ko'rish mumkin².

Islohotlar yillarida odamlarga shaxsiy tomorqa uchun qo'shimcha ravishda 550 ming gektar sug'oriladigan yer ajratildi va shaxsiy tomorqa uchun berilgan yer maydoni 700 ming gektarga yetdi, 9 milliondan ortiq odam ana shu yer hosilidan foydalanmoqda.

Qishloqda xo'jalik yuritishning maqbul shakllarini yaratishga alohida e'tibor berildi. Agrar islohotlarning dastlabki yillarida sovxoz va kolxozlar jamoa xo'jaliklariga aylantirilgan edi. Ammo ular xo'jalik yuritishda o'zlarini to'la-to'kis oqlamaganliklari tufayli mulk paylari asosida shirkatlarga aylantirildi. 1999-yilda 898 ta, 2000-yilda 856 ta qishloq xo'jaligi korxonalarini shirkatlarga aylantirildi. Ularning umumiy soni 2002-yilning yanvar holatiga ko'ra, respublika bo'yicha 1900 taga yetdi, ularda 1 mln. 400 ming kishi shirkat a'zosi sifatida mehnat qildi. Agrar munosabatlar tizimida shirkat xo'jaligida paychilik asosiga qurilgan oila pudratiga keng o'rin berildi.

Qishloq xo'jaligida fermer va dehqon xo'jaliklari salmoqli o'rin egallamoqda. 2013-yilda fermer xo'jaliklari soni 66 mingdan ziyodni tashkil etdi. Mamlakatimizdagi jami haydaladigan yerlarning 85 foizidan ortig'i, yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismi aynan fermerlar hissasiga to'g'ri kelmoqda³.

Qishloqda shaxsiy yordamchi xo'jaliklar dehqon xo'jaliklari sifatida qayta shakllandi. Dehqon xo'jaligi – bu oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, tomorqa yer uchastkasi oila boshlig'iga umrbod meros qilib beriladi, mahsulotlar oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida yetishtiriladi va sotiladi. 2003-yilda 3,5 mln.dan ortiq dehqon xo'jaligi faoliyat yuritdi respublikada yetishtirilgan go'shtning 93,7 foizi, sutning 95,9, kartosh-

¹ *Каримов И.А.* Бош мақсадимиз – кенг қўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш. – Т., 2013. – Б. 5.

² *Каримов И.А.* Бизнинг йўлимиз – демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва модернизация жараёнларини изчил давом эттириш йўлидир. Т.20. – Т., 2012. – Б.115.

³ *Каримов И.А.* Бош мақсадимиз – кенг қўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш. – Т., 2013. – Б. 13.

kaning 90 foizi, sabzavot-poliz mahsulotlarining 70,3, tuxumning 53,5 foizi dehqon xo'jaliklari tomonidan tayyorlandi.

2010-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 2009 yilga nisbatan 6,8 foizga, 2000-yilga nisbatan esa 1,8 barobar oshdi.

Faqat 2010-yilning o'zida yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun 150 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi va bu 724 kilometrlik kollektor-drenaj tarmoqlari, 208 ta meliorativ hududlarni barpo etish va rekonstruksiya qilish, qariyb 14 ming kilometrlik kollektor-drenaj tizimini ta'mirlash, qayta tiklash va 335 ta zamonaviy melioratsiya texnikasini xarid qilish imkonini berdi.

Amalga oshirilgan ana shunday keng miqyosdagi ishlar natijasida 260 ming gektar sug'oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilandi va bu qishloq xo'jaligini ekinlari hosildorligini, fermer hamda dehqon xo'jaliklarining daromadini oshirish uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilmoqda¹.

Bozor infratuzilmasi. Iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bozor infratuzilmasini yaratishdan iborat bo'ldi. Shu boisdan respublikamizda bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi infratuzilmaning asosiy bo'g'inlari – turli muassasalar, tashkilotlar va korxonalar majmuasi yaratildi. Avvalo, ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi transport, aloqa, suv va energetika ta'minoti, yo'l ombor xo'jaligi tuzilmalari yaratildi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun xizmat qiluvchi 58 ta tovarlar va xomashyo birjalari, 24 ta biznes inkubator, 496 ta auditorlik va konsalting firmalari, ko'plab savdo uylari, auksionlar, tijoratchilik idoralari, reklama firmalari, savdo-sotiq va ularni nazorat qiluvchi davlat muassasalari tashkil etildi.

Bozor munosabatlarini rivojlantirishda axborot infratuzilmasi alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan axborotlar, xabarlar va ma'lumotlarni to'plovchi, umumlashtiruvchi vositalar, firmalar vujudga keldi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi infratuzilma – yangi bank tizimi, o'zini o'zi kreditlash idoralari, sug'urta kompaniyalari, moliya kompaniyalari, soliq undirish idoralari, pul jamg'armalari yaratildi.

Bozor iqtisodiyotiga xizmat qiluvchi bank-moliya tizimi yaratildi. 2002-yilda 37 ta bank, shu jumladan 13 ta xususiy bank faoliyat ko'rsatdi. Banklarning 17 tasi dunyodagi eng nufuzli banklar bilan korrespondentlik aloqalari o'rnatgan. 2010-yilda mamlakatimizning 13 ta tijorat banki ijobiy

¹ Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Т., 2011. – Б.205.

xalqaro reytingga ega bo'lsa, 2013-yilga kelib ularning soni 28 taga yetdi¹. Respublikada davlat ishtirokida tuzilgan bozor munosabatlariga xizmat qiluvchi «Kafolat», «Agrosug'urta», «O'zbekinvest» kabi yirik sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ko'plab xususiy sug'urta kompaniyalari, shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda ishlaydigan qo'shma sug'urta kompaniyalari ham vujudga keldi va moliya bozorida xizmat ko'rsatmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ish bilan bandlik masalasi jiddiy muammoga aylanadi. Chunki, iqtisodiy tizim o'zgarayotgan paytda malakasiz kishilargina emas, ma'lum ixtisosga ega bo'lgan xodimlarga ham talab cheklanadi, ishsizlar toifasi kengayadi. Bunday sharoitda ishsizlar sonining ko'payishiga yo'l qo'ymaslik tadbirlari ko'rildi. Respublika bo'yicha 225 dan ortiq mehnat birjasini o'z ichiga oluvchi katta tarmoq barpo etildi. Har bir tumanda mehnat birjasi tashkil etildi. Ishsizlarni ro'yxatga olish, ularning kasbini o'zgartirish mexanizmi yaratildi, ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lash yo'lga qo'yildi. Yangi ish o'rinlarini tashkil etishga e'tibor berildi. 1993-yilda respublikada 185,1 ming yangi ish o'rinlari tashkil etilgan bo'lsa, 1998-yilda bu ko'rsatkich 345,9 mingta, 2011-yilda jami millionga yaqin ish o'rni tashkil etildi. Bu yangi tashkil qilingan umumiy ish o'rinlarining 64 foizi kichik biznes sohasi va fermer xo'jaliklariga, 28 foizi yangi korxonalar tashkil etish va kasanachilik sohasiga to'g'ri keldi².

2000-yilda faqat kichik va xususiy biznes rivoji hisobiga 192,5 ming yangi ish o'rinlari yaratilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2004-yilda 425 ming, 2012-yilda esa 713 mingni tashkil etdi. 2003-yil 1 yanvarda iqtisodiyot sohasida band bo'lganlarning 76,6 foizi nodavlat sektor hissasiga to'g'ri kelgan.

Iqtisodiy islohotlar borasida qo'yilgan yana bir muhim qadam-1994-yil 1-iyuldan milliy valutamiz – so'mning muomalaga kiritilishi bo'ldi. Bu tadbir katta siyosiy ahamiyatga, e'tiborga molikdir, chunki o'z milliy valutasiga ega bo'lmagan davlat chinakkam mustaqil bo'la olmaydi. Respublika hukumati milliy valutaning qadrini mustahkamlash, uning erkin aylanishini ta'minlash choralari amalga oshirib bordi. 2003-yil 15-oktabrdan boshlab so'm qisman konvertasiyalanadigan valuta maqomiga ko'tarildi.

Umuman aytganda, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida bozor iqtisodiyoti asoslari shakllandi. Ko'p ukladli

¹ Каримов И.А. Бош мақсадимиз – кенг қўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш. – Т., 2013. – Б.6.

² Каримов И.А. Бизнинг йўлимиз – демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва модернизация жараёнларини изчил давом эттириш йўлидир. Т.20. – Т., 2012. – Б.134.

iqtisodiyotni, mulkdorlar tabaqasini shakllantirishdan iborat strategik vazifa amalda ro'yogba chiqdi.

Iqtisodiyotning barqarorlashuvi va rivojlanishi. Mustaqillikning dastlabki yillarida sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish tobora pasayib bordi, xo'jalik yuritish murakkablashib qolgan edi. uning sababi O'zbekiston iqtisodiy jihatdan qaram bo'lib, korxonalari mustaqil xo'jalik yurita olmasdi, boshqa hududlarda joylashgan zavod, fabrikalardan keltiriladigan asbob-uskuna butlovchi qismlarga butunlay qaram edi. Sobiq Ittifoq parchalangach, aloqalar uzildi.

Natijada ko'pgina korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish keskin kamaydi, ayrimlari to'xtab qoldi. Shu boisdan O'zbekistonda iqtisodiy tanglikdan chiqish, makroiqtisodiyotni barqarorlashtirish tadbirlari ko'rildi. Makroiqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun O'zbekiston iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar qilish, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga qodir korxonalar qurish va buning uchun zarur investitsiyalar ajratish yo'llaridan bordi. «Chet el investitsiyalari to'g'risida», «Chet el investorlar huquqlarini kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida» qonunlar qabul qilindi. Chet el investitsiyasini O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilish bevosita investitsiyalar tarzida, davlat qarzlari, xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlar, qarz beruvchi mamlakatlarning investitsiya yoki moliyaviy kredit resurslari shaklida amalga oshirildi. Iqtisodiyotga kiritilayotgan xorijiy investitsiya salmog'i yildan-yilga o'sib bordi.

1992-1999-yillarda iqtisodiyotda 4,4 mlrd. AQSH dollari hajmida chet el investitsiyalari o'zlashtirilgan bo'lsa, 1999-yilda 1 mlrd. 324 mln. AQSH dollari, 2012-yilda 2 mlrd. 500 mln. AQSH dollari miqdorida chet el investitsiyalari o'zlashtirildi. 1991-2002-yillarda Respublika iqtisodiyotida o'zlashtirilgan chet el investitsiyalari hajmi 14 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. 2001-2011-yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga 80 mlrd. dollar hajmida investitsiyalar jalb qilingan bo'lsa, shundan 23 mlrd. dollari yoki 30 foizi xorijiy investitsiyalarni tashkil etdi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2003-yilda 2087 taga yetdi. Faqat 2000-2007-yillar mobaynida yurtimizda daromad solig'i 38 foizdan 10 foizga, yagona ijtimoiy to'lov 40 foizdan 24 foizga, kichik biznes subyektlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar, ya'ni fermerlar uchun yagona soliq 20 foizga tushirildi.

Yoqilg'i mustaqilligi. Mustaqillik yillarida iqtisodiyotning hayotiy muhim tarmoqlari rivojlantirildi, yangi sanoat tarmoqlari bunyod etildi. Bunga mamlakatning yoqilg'i mustaqilligiga erishishi yaqqol misoldir. 90-yillarning boshlarida chetdan 6-7 million tonnaga yaqin neft va neft mahsulotlari keltirilar, 600 ming tonna paxta tolasi Rossiya va boshqa

mamlakatlarga neft mahsulotlari uchun berilardi. Shu bois mamlakatimizda neft mustaqilligi uchun kurash boshlandi, buning zaminida 2 trillion kubmetrga yaqin gaz zahiralari, 160 dan ortiq neft koni bor edi. Yiliga 2,5 mlrd. kub metr gaz haydash quvvatiga ega bo'lgan Ko'kdumaloq kompressor stansiyasi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi barpo etildi. 1996-yilga kelib chetdan neft mahsulotlarini sotib olish to'xtadi, neft mustaqilligiga erishildi. 1991-yilda 2,9 mln. tonna neft (gaz kondensati bilan birgalikda) mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2000-yilda bu ko'rsatkich 7,5 mln. tonnadan oshdi. Shu davrda tabiiy gaz ishlab chiqarish 41,8 mlrd. kub metrdan 56,4 mlrd. kub metrga o'sdi. O'zbekiston yoqilg'i mustaqilligiga erishdi.

Muborak gazni qayta ishlash zavodi va Sho'rtan neftgaz majmuasida suyultirilgan gaz ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun propan-butan aralashmasi moslamalarini qurish, Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasi energiya bloklarini ko'mir yoqilg'isi bilan ishlash tizimiga o'tkazish, avtomobil kuchlanish agregatlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va boshqa bir qator muhim strategik loyihalarni amalga oshirish alohida istiqbolli ahamiyatga ega ekanini ta'kidlash zarur.

Bu loyihalarning barchasi 2009-2014-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha muhim loyihalarni amalga oshirishga doir chora-tadbirlar dasturiga kiritilgan.

Ushbu dasturga umumiy qiymati 42,5 mlrd. dollardan ziyod 327 ta loyiha kiritilgan bo'lib, ularning ko'pchiligi bo'yicha moliyalash manbalari aniq belgilangan va investorlar konsorsiumlari shakllantirilgan¹.

Mashinasozlik va avtomobilsozlik sanoati. Mustaqillik yillarida mashinasozlik sanoati jadal rivojlandi. 1994-yilda barpo etilgan O'zbekiston-Isroil «O'zIzmash» qo'shma korxonasida paxta terish mashinalarining gorizontall shpindelining yangi xili yaratildi. Bu agregat jahon mashinasozligining eng yangi yutug'idir, deb e'tirof etildi. 1992-yilda Janubiy Koreya bilan hamkorlikda O'zbekistonda avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonalar barpo etishga kelishib olindi. 1993-1996-yillarda Asaka shahrida «O'zDEU» avtomobil zavodi barpo etildi va Damas, Tiko, Neksiya rusumli avtomobillar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 1996-yilda 25,3 ming, 1997-yilda 64,9 ming, 1998-yilda 54,4 ming, 1999-yilda 58,4 ming, 2004-yilda 70 ming dona yangi avtomobil ishlab chiqarildi. «O'zDEU» zavodida 1999-2003-yillarda «Matiz», «Lasetti» rusumli avtomobillar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

¹ Каримов И.А. Жаҳон инкирозининг оқибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ва таракқий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. Т.18. – Т., 2010. – Б.190.

O‘zbekiston dunyoda avtomobil ishlab chiqaruvchi 28 mamlakatga aylandi. Samarqandda avtobus va yuk mashinalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan «Sam Koch avto» zavodi qurildi. 2000-yilda «Sam Koch avto» zavodi 483 ta avtobus, 102 ta yuk avtomobili ishlab chiqardi. Respublikamizda avtomobillarga butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchi o‘nlab yangi korxonalar bunyod etildi. Hozirgi paytda «O‘zDEU» zavodi uchun zarur bo‘lgan butlovchi qismlarning 20 foizi O‘zbekistonda ishlab chiqarilmoqda. Avtomobilsozlik sanoatida 14 mingga yaqin ishchi va xizmatchi mehnat qilmoqda.

Mashinasozlik sanoatining yirik korxonalari – Toshkent traktor zavodi, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, Toshkent va Chirchiq qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, Toshkent agregat zavodi va boshqa korxonalar mustaqillikning dastlabki yillarida uchragan qiyinchiliklarni yengib o‘tdi. Birgina Toshkent traktor zavodida 2000-yilda 954 ta, 2001-yilda 1002 ta traktor ishlab chiqarilgan bo‘lsa, hozirgi paytda yiliga 3,5-4 ming donagacha traktor, minglab tirkamalar ishlab chiqarilmoqda.

2010-yilning o‘zida faqat avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish uchun 378 million AQSH dollariga teng bo‘lgan mablag‘ o‘zlashtirildi va bu 2009-yilga qaraganda 31,5 foiz ko‘p demakdir. Shuning hisobidan mamlakatimizda 270 kilometrlik zamonaviy avtomobil yo‘li foydalanishga topshirildi. 2010-yilda xalqaro transport logistika markazlarini rivojlantirishga doir ishlar davom ettirildi. Navoiy shahridagi aeroportda foydalanishga topshirilgan «Navoiy» xalqaro intermodal logistika markazining yuk terminali orqali 50,1 ming tonna yoki 2009-yilga qaraganda 3 barobar ko‘p yuk tashildi. Angren shahridagi Xalqaro logistika markazi tomonidan 4 million tonnadan ortiq yuk tashish amalga oshirildi, mamlakatimiz mintaqalari va Farg‘ona vodiysi viloyatlari o‘rtasida yil davomida uzluksiz avtotransport qatnovi ta‘minlandi.

2010-yili «Eyrbas industri» kompaniyasining 6 ta A-320-200 rusumli samolyoti, 8 ta zamonaviy elektrovoz sotib olindi va 38 ta yo‘lovchi tashiydigan vagonlar qurildi, ta‘minlandi va modernizatsiya qilindi. 2011-yilda ushbu maqsadlar uchun 2010-yilga qaraganda bir barobar ko‘p, ya‘ni 547 million dollardan ortiq kapital qo‘yilmalarni yo‘naltirish, talab va standartlarga javob beradigan 302 kilometrlik avtomobil yo‘llarini foydalanish ko‘zda tutilmoqda¹.

2011-yilda transport va kommunikatsiya qurilishiga Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Quvayt arab iqtisodiy hamkorlik jamg‘armasi va OPEK

¹ Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. –Т., 2011.– Б.210.

jamg‘armasi tomonidan 152 million dollardan ortiq mablag‘ ajratildi. Iqtisodiyotimizning lokomotiviga aylangan mashinasozlik va avtomobilsozlik (12,2 foiz), kimyo va neft-kimyo sanoati (9,4 foiz), oziq-ovqat sanoati (13,1 foiz), qurilish materiallari sanoati (11,9 foiz), farmatsevtika va mebelsozlik (18 foiz) 2011-yilda jadal sur‘atlar bilan rivojlandi¹.

O‘zbekiston milliy avtomobil magistralini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha loyihalar doirasida 302,5 kilometr uzunlikdagi yo‘lga zamonaviy qoplama yotqizilib, rekonstruksiya qilindi. Toshkent va Buxoro shaharlari aeroportlarining mahalliy yo‘nalishlarda xizmat ko‘rsatadigan yo‘lovchi terminallari foydalanishga topshirildi.

Toshkent – Samarqand yo‘nalishida mazkur ikki shahar o‘rtasidagi 344 kilometr masofani atigi 2 soatda bosib o‘tadigan, yuqori tezlikda harakat qiladigan «Talgo-250» yo‘lovchi elektr poyezdlari qatnovi yo‘lga qo‘yildi.

Bu poyezdlardan foydalanish maqsadida temir yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish va takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamdagi ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 600 kilometr uzunlikdagi yo‘llar qaytadan tiklandi, 68 kilometr dan iborat yangi temir yo‘llar yotqizildi, Toshkent va Samarqand shaharlari temir yo‘l vokzallari rekonstruksiya qilindi va qaytadan jihozlandi.

Gaz-kimyo va yengil sanoat. 1995-yil oktabr oyida O‘zbekiston bilan AQSH ning «ABB Lummus Global» kompaniyasi o‘rtasida Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasini qurish bo‘yicha hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Qurilish ishlari 1997-2001-yillarda amalga oshirildi, majmua qurilishida 1 mlrd. AQSH dollar hajmida sarmoya o‘zlashtirildi. 2001-yil dekabrda Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi ishga tushirildi. Majmua yiliga 125 ming tonna polietilen, 137 ming tonna suyultirilgan gaz va 126 ming tonna gaz kondensati ishlab chiqarish quvvatiga ega. Yengil va to‘qimachilik sanoati tez sur‘atlar bilan rivojlanib bormoqda. Paxtani qayta ishlovchi «Papfyen», «Asnam tyekstil», «Karakulteks», «Chinoz to‘qimachi», «Qobul-Farg‘ona», «Oq saroy to‘qimachi» qo‘shma korxonlari barpo etildi. Faqat 2004-yilda 17 ta yengil sanoat korxonalari qurilib ishga tushirildi. Bu tarmoqda xalq istiyemoli mollari ishlab chiqarish kengaydi, minglab yangi ish o‘rinlari yaratildi. Agar 1991-yili respublikamizda paxta tolasini qayta ishlash 12 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2004-yilda bu ko‘rsatkich 28 foizga yetdi. Kalava, ip, paxta va shoyi gazlamalarini eksport qilish hajmlari ancha oshdi. Mustaqillik yillarida «Zarafshon-Nyumont»

¹ Каримов И.А. Бизнинг йўлимиз – демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва модернизация жараёнларини изчил давом эттириш йўлидир. Т.20. – Т., 2012. – Б.116.

korxonasi, Qizilqum fosforit kombinati, Qo'ng'irotda soda zavodi, Quvasoy kvars zavodi, Yangiyo'l va Andijon spirt zavodlari, Toshloq ip yigiruv fabrikasi va boshqa ko'plab korxonalar bunyod etildi.

2007-yilda «O'zbekneftgaz» tarkibidagi korxonalar tomonidan 3,2 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Sof foyda hajmi 1. trillion so'mga yetib, eksportdan 1,9 mlrd dollar miqdorida daromad olindi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, faol geologiya-qidiruv ishlarini olib borish natijasida Buxoro, Xiva, Farg'ona va Surxondaryo mintaqalarida 50 ta quduq qazilib, 8 ta gaz kondensati va neft koni ochildi.

Xorijiy sarmoyadorlar bilan yo'lga qo'yilgan teng manfaatli hamkorlik ham samarasini bermoqda. Xususan, ular ishtirokida 8 ta istiqbolli loyiha amalga oshirish uchun 565 mln. AQSH dollaridan ziyod to'g'ridan-to'g'ri sarmoya yo'naltirildi. 2012-yilda Surg'il koni negzida, qiymati 2,5 mlrd. dollardan ziyod Ustyurt gaz-kimyoy kompleksini qurilishi boshlandi. Loyiha texnologik jihatdan eng ilg'or bo'lib, eng yuksak darajadagi gaz-kimyoy texnologiyalarini joriy etishni ko'zda tutadi.

Ma'lumotlarga qaraganda, Markaziy Osiyo mintaqasidagi gaz kondensati zahirasi 75 foizi, neftning 31 foizi, tabiiy gaz zahirasi 40 foizi mamlakatimiz ulushiga to'g'ri keladi. 2011 yilda to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari hisobidan iqtisodiyotimizning ko'plab tarmoqlarida 70 dan ortiq investitsiya loyihasini amalga oshirish mo'ljallanmoqda.

Bu avvalambor, gazni qayta ishlaydigan zamonaviy zavod qurishni o'z tarkibiga olgan Qandim guruh konlarini, shuningdek, Hauzak va Shodi konlarini o'zlashtirish, istiqbolli uglevodorod xom ashyo konlarida geologiya-qidiruv ishlarini olib borish bo'yicha yirik loyihadir¹.

G'alla mustaqilligi. Respublikada don mustaqilligiga erishish, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlashni tiklash yo'li izchillik bilan amalga oshirildi. Paxta ekiladigan maydonlar tegishli suratda qisqartirilib, donli ekinlar maydoni kengaytirildi. Umumiy ekin maydonlarida donli ekinlar salmog'i 1991 yilda 18,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilda 42 foizga o'sdi. Respublikamizda don mustaqilligiga erishish, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash yo'li izchillik bilan amalga oshirildi. Agar 1991 yilda mamlakatimizda 1,9 mln. tonna don, shu jumladan 609,5 ming tonna bug'doy tayyorlangan bo'lsa, 2003 yilda 6,1 mln. tonna don, shu jumladan 5,4 mln. tonna bug'doy yetishtirildi. Don yetishtirish muttasil oshirib borilib, uning hajmi 2012 yilda 7 mln. 500 ming

¹ Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Т., 2011. – Б.227.

tonnaga yetdi. O'zbekiston g'alla mustaqilligiga erishdi. Agar 1991 yilda o'lkamizda jami 940 ming tonna g'alla yetishtirilib, hosildorlik 17 sentnerni tashkil etgan bo'lsa, ushbu raqamlarni 2011- yilgi xirmon bilan solishtiradigan bo'lsak, tayyorlangan don mahsulotining umumiy hajmi 7 barobardan ziyod, hosildorlik esa 3 karra oshirildi.

Bundan 20 yil avval, ya'ni sovet tuzumi davrida respublikamizda tayyorlangan g'allaning barchasi davlat oldidagi majburiyatni qoplash uchun topshirilgan. Mashaqqatli mehnat bilan hosil yetishtirgan dehqon, donsiz, unsiz qolib ketar edi. Respublika aholisini boqish uchun 3,5-4 million tonna g'alla chetdan olib kelingan. Bugungi kunda mamlakatimizda tayyorlanayotgan umumiy hosilning 37 foizi davlat oldidagi shartnomani bajarish uchun topshirilmogda. Tayyorlangan donning aksariyat qismi 55 foizdan ortig'i fermer xo'jaliklari va aholi ixtiyorida qoldirilishi belgilangan.

Mahsulot yetishtiruvchiga ko'rsatilgan g'amxo'rlik o'z samarasini ko'rsatdi 2012- yilda respublikamizda 7 mln. 500 ming tonna g'alla, 3 mln. 460 ming tonnaga yaqin paxta, 2 mln. tonnadan ziyod kartoshka va 9 mln. tonnadan ortiq sabzavot hamda poliz mahsulotlari yetishtirildi.

Iqtisodiyotda barqaror yuksalish. Iqtisodiyot tarkibidagi tub o'zgarishlar, yangi korxonlarning bunyod etilishi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida samarali natijalar berdi. 1991-2002- yillarda 1872 korxon va boshqa ishlab chiqarish muassasalari qurildi, mahsulotning 9,5 mingdan ortiq yangi turlarini ishlab chiqarish o'zlashtirildi.

1990- yilda Respublika bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmini 100 foiz deb olsak, undan keyingi yillarda kamayib, 1992- yilda 94,7 foizga, 1993- yilda 98,1 foizga tushgan edi. 1995-yilga kelib makroiqtisodiyotda barqarorlikka erishildi va 1996- yildan boshlab barqaror o'sish ta'minlanmogda. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oldingi yilga nisbatan 1997-yilda 106,5 foizga o'sgan bo'lsa 2004-yilga kelib 109,4 foizga o'sdi. Un va un mahsulotlari, kiyim-kechak, poyafzal, shakar va qand mahsulotlari ishlab chiqarish sezilarli darajada ko'paydi, iste'mol buyumlari importi kamaydi. Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish 1991-1995- yillarda pasayib bordi, 1996- yildan boshlab o'sish boshlandi. Oldingi yilga nisbatan 1996-yilda YAIM 101,7 foizga o'sgan bo'lsa 2001-yilga kelib 104,5 foizga o'sdi. Natijada, 2001 yilda birinchi bor yalpi ichki mahsulotning 1991- yilga nisbatan 103 foiz o'sishiga erishildi. MDH davlatlari orasida birinchi bo'lib O'zbekiston iqtisodiy barqarorlikka erishgan, iqtisodiy ko'rsatkichlari izchil o'sib borayotgan mamlakatdir. 2004- yilda yalpi ichki mahsulot 7,7 foizga o'sgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012- yilda 8,2 foizga yetdi. Keyingi o'n yilda, ya'ni 2000 yilga nisbatan

taqqoslaganda, 2010- yilda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot qariyb 2 barobar, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 1,7 barobar oshdi.

O'zbekiston iqtisodiyotiga 2001-2011- yillarda 80 mlrd. dollar hajmidagi kapital qo'yilmalar yo'naltirilgan bo'lsa, ularning 23 mlrd. dollardan ziyodi yoki 30 foizini xorijiy investitsiyalar tashkil yetdi. Bu esa, o'z-o'zidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga xorijiy kapitalning qiziqishi va eng muhimi, O'zbekistonning taraqqiyot istiqbollariga bo'lgan ishonchning tobora ortib borayotganidan dalolat beradi.

Iqtisodiyotning barqaror o'sishi transport tizimini jonlantirishga imkoniyat yaratdi. Bu sohada erishilgan yutuqlar havo transportida salmoqli bo'ldi. Jahonning yetakchi firmalar havo kemalari bilan ta'minlangan O'zbekiston havo yo'llari aviakompaniyasi dunyoning 25 mamlakati bilan havo aloqlarini o'rnatgan. O'zbekiston havo yo'llari aviakompaniyasi mustaqillik yillarida 25 milliondan ortiq yo'lovchiga xizmat qo'rsatdi.

Banklarning kapitallashuvi, ularning barqarorligi va likvidligini yanada mustahkamlashga qaratilgan izchil va aniq maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirildi. So'nggi besh yil davomida mamlakat bank sektori kapitalining yetarlilik darajasi bank nazorati bo'yicha Bazal qo'mitasi tomonidan 8 foiz etib belgilangan xalqaro me'yordan uch barobar ko'p bo'lgan darajani tashkil etmoqda. «Standart end Purs», «Mudis» va «Fitch Reytings» kabi nufuzli xalqaro reyting agentliklari ikki yildan buyon O'zbekiston bank tizimiga muttasil ravishda «barqaror» reyting darajasini bermoqda, ayni vaqtda mamlakatning shunday bahoga sazovor bo'lgan banklari soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Agar 2010-yilda mamlakatning 15 ta tijorat banki «barqaror» reytingini olgan bo'lsa, 2012- yilda ularning soni 23 taga yetdi, bu banklarning aktivlari yurtimiz bank tizimi umumiy aktivlarining 98 foizini tashkil etmoqda.

Ma'lumki, aholining bank tizimiga ishonchi ortib borayotgani banklar faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Shu ma'noda, 2011-yilda depozitlarga 18 trillion so'mdan ortiq, o'tgan yilga nisbatan 36,3 foiz ko'p mablag' jalb qilingani, jumladan, aholi depozitlari 38,8 foizga oshgani ayniqsa e'tiborlidir. Banklarning kredit portfeli tarkibi sifat jihatidan tubdan o'zgarimoqda. Agar 2000- yilda kredit portfelinin 54 foizi tashqi qarzarlar hisobidan shakllantirilgan bo'lsa, 2011-yilda uning 85,3 foizi ichki manbalar – yuridik va jismoniy shaxslar depozitlari hisobidan shakllantirildi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiya kiritish va shuning hisobidan taraqqiyotni ta'minlashda ichki imkoniyatlarimiz tobora ortib borayotganining dalilidir.

Tijorat banklarining investitsiyaviy faolligi ortmoqda. Tijorat banklari qo'yilmalarining 75 foizdan ortig'ini uch yildan ziyod bo'lgan uzoq muddatli investitsiya kreditlari tashkil etmoqda. Umuman, so'nggi o'n yilda banklar tomonidan iqtisodiyotning real sektorini kreditlash 7 barobarga oshgan.

Iqtisodiy nochor korxonalarini banklar balansiga o'tkazish yo'li bilan inqirozga yuz tutishidan qutqarib qolish siyosati o'zining samarasini berdi. Banklarga berilgan 164 ta bankrot korxonadan 156 tasida ishlab chiqarish faoliyati to'liq tiklandi, 110 ta korxonalar yangi investorlarga sotildi. Bunday korxonalarini texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilish ishlariga tijorat banklari tomonidan 275 milliard so'm miqdorida investitsiya kiritildi.¹

Ijtimoiy hayot. O'zbekistonda islohotlar boshlangan vaqtda, uning asl maqsadi insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat, deb belgilangan edi. Shu maqsadda, miqdori muntazam o'zgartirib turilgan ish haqi, pensiyalar, turli nafaqalar, stipendiyalar, kompensasiyalar tarzidagi pul to'lovlari keng qo'llanildi. Mamlakatning 2 mln. 640 ming fuqarosi pensiya va moddiy yordam oldi. Bunday to'lovlar miqdori 2000-yilda 187,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Faqat 2000-yilning o'zida aholining kam ta'minlangan qismiga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari-mahalla yig'inlari orqali 54,2 mlrd. so'm miqdorida nafaqa, ko'mak va boshqa turdagi yordamlar berildi. Yigirma yillik mustaqil taraqqiyot davrida aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo'naltirilgan davlat xarajatlari 5 barobar ko'paytirildi.

Mustaqillik yillarida mamlakatda 70 mln. kv.m. turar joylar, 19,5 ming o'rinli kasalxonalar, ko'plab poliklinikalar, 805,9 ming o'rinli maktablar, 15,3 ming o'rinli akademik litseylar, 126,5 ming o'rinli kasb-hunar kollejlari qurilib foydalanishga topshirildi. 2012–2013-o'quv yilida mamlakatimizda 12 yillik majburiy ta'limga o'tish to'liq ta'minlandi.

Aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash va gazlashtirish bo'yicha keng qamrovli dasturlar amalga oshirilmogda. 1991-2007-yillarda 36 ming km. suv quvurlari va 72 ming km. gaz tarmoqlari ishga tushirildi. Aholining uy-joylarini gazlashtirish darajasi 82 foizga, ichimlik suvi bilan markazlashgan holda ta'minlash esa 84 foizga ko'tarildi.

Haqiqatan ham, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov to'g'ri ta'kidlaganidek, «qariyb yigirma yillik mustaqil taraqqiyotimiz mobaynida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 3,5 barobarni, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 barobarni, aholining real daromadlari 3,8 barobarni tashkil etgani e'tiborga sazovordir. Ayniqsa,

¹Ўша жойда. – Б.120.

ijtimoiy-gumanitar sohada erishilgan marralar-aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo'naltirilgan davlat xarajatlarining ortib borishi natijasida aholi turmush darajasini sezilarli ravishda yaxshilangani va buning natijasida onalar o'limi 2 barobardan ko'proq, bolalar o'limi 3 barobar kamaygani, odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshga, jumladan, ayollarning o'rtacha umr ko'rishi 75 yoshga yetganini mamnuniyat bilan ta'kidlasak arziydi».

Respublikada aholiga tibbiy va ijtimoiy xizmat ko'rsatishning rivojlangan tizimi bunyod etildi. Mustaqillik yillarida ambulatoriya-poliklinika muassasalarining soni 3 mingdan 4,8 mingga yoki 1,6 baravar ortdi. Qishloq joylarda 1600 ta vrachlik punktlari ochildi. Aholiga 81,5 mingdan ortiq shifokorlar turli ixtisosliklar bo'yicha malakali tibbiy yordam ko'rsatmoqda. 1994-yilda aholining dori-darmonga bo'lgan ehtiyoji Respublikada ishlab chiqarilgan mahsulot hisobiga bor-yo'g'i 4,5 foizga qondirilar edi. 2003-yilga kelib, katta miqdorda sarmoya jalb etilganligi hisobidan, bu ko'rsatkich 25 foizgacha o'sdi.

O'zbekiston aholi soni jihatidan Markaziy Osiyoda eng katta mamlakat. 2012-yil boshiga kelib respublikada yashayotganlar soni 29 milliondan oshdi, ularning qariyb 44 foizini 18 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi.

2013-yilda davlat budjeti barcha xarajatlarining 60 foizidan ortig'i ijtimoiy maqsadlar uchun yo'naltiriladi. Bu o'tgan yillardagiga qaraganda sezilarli darajada ko'pdir. Jumladan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasi uchun ana shu xarajatlarning 48 foizidan ko'prog'i sarflanadi.

O'zbekistonda keyingi yillarda sun'iy yo'ldosh aloqa tarmog'i orqali teledasturlarni tarqatish keng yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda mamlakatimiz telekommunikatsiyalar tizimi dunyoning 180 ta mamlakatiga 28 ta yo'nalish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri chiqadigan xalqaro kanallarga ega.

Yangi bir muhim yangilik efir orqali uzatiladigan materiallarni tayyorlash jarayonida zamonaviy raqamli va multimedia texnologiyalari joriy qilinayotganida namoyon bo'lmoqda. Yurtimizda Internetdan foydalanuvchilar safi jadal sur'atlar bilan kengayib bormoqda. Bugungi kunda ular soni 6 milliondan ortib ketgani ham buni tasdiqlab turibdi.

O'zbekistonda mobil aloqa xizmatidan foydalanuvchilarning umumiy soni 2000-yilga nisbatan 200 barobar oshib, 19 milliondan ortiq abonentni tashkil etmoqda. Agar o'n yil avval mamlakatimiz aholisining har ming nafariga 4 donadan kam mobil telefon to'g'ri kelgan bo'lsa, bugun bu ko'rsatkich 600dan oshib ketdi¹.

¹ Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. 2011. – Б.216.

2010-yil 4-mayda Toshkent shahrida o'tkazilgan Osiyo taraqqiyot banki boshqaruvchilar kengashi 43-yillik majlisi ishtirokchilari tomonidan e'tirof etilganidek, O'zbekiston moliyaviy xatarlardan butunlay holi mamlakatdir. O'tgan yillar mobaynida telekommunikatsiya tizimini rivojlantirishga qaratilgan bir qator loyihalarni amalga oshirish ishlari davom ettirildi. Xususan, Jizzax – Bulung'ur yo'nalishi bo'ylab 73 kilometr uzunlikdagi optik tolali aloqa liniyasi o'tkazildi, mobil aloqa va Internet tarmog'i ko'lami tobora faol kengayib bormoqda. Yurtimizda aholiga raqamli televideniye xizmati ko'rsatish hajmi 38 foizga yetgani ham shu boradagi ulkan ishlarimizning amaliy natijasidir¹.

2-§. Mustaqillik yillarida ma'naviy va diniy qadriyatlarining tiklanishi

Tarixdan ma'lumki, mamlakatimiz bir necha bor chet el bosqinchilari hujumiga duchor bo'lgan, qaramlik va zulm ostida qolgan. Buning oqibatida xalqimizning boy ma'naviy merosi, urf-odatlarini qadrsizlanishga mahkum bo'lgan. Ayniqsa, chor mustamlakachiligi va sovetlar tuzumi davrida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz oyoq osti qilindi. Ona tilimiz, boy ma'naviy merosimiz qadrsizlantirildi, ko'plab masjid – madrasalar, milliy maktablar, tarixiy yodgorliklar buzilib, vayron qilindi, qarovsiz qoldi. «Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar o'z yo'lga. Ularni hal qilish mumkin. Xalqning ta'minotini ham amallab turish mumkin. Ammo, ma'naviy islohotlar – qullik va mute'lik iskanjasidan ozod bo'lish, qadni baland tutish, ota-bobalarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lish – bundan og'irroq va bundan sharafliroq vazifa yo'q bu dunyoda»². Mustaqillik yillarida boy ma'naviy merosimizni tiklash tadbirlari amalga oshirildi. Milliy madaniyatimizga, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga buyuk hissa qo'shgan bobolarimiz – Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va boshqa ko'plab ajdodlarimizning milliy va ma'naviy merosi xalqimizga qaytarildi, Ularning tavallud topgan kunlari butun mamlakat bo'yicha nishonlandi, ruhlari shod etib, asarlari nashr etildi. Allomalarning ma'naviy merosi bugungi kunda xalqimizga yangi jamiyat qurishda

¹ Каримов И.А. Бизнинг йўлимиз – демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва модернизация жараёнларини изчил давом эттириш йўлидир. Т.20. – Т., 2012. – Б. 127.

² Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т., 1996. – Б.202.

ma'naviy kuch-qudrat bag'ishlamoqda, jamiyatimizni ma'naviy yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

«Navro'z» bayramining qayta tiklanishi. Xalqimizning azaliy qadriyati, sevimli bayrami hisoblanmish «Navro'z» bayramining xalqimizga qaytarib berilishi mamlakat tarixida katta voqeya bo'ldi. Prezident Islom Karimov farmoniga ko'ra, O'zbekistonda «Navro'z» 1991-yildan boshlab, har yili 21-mart kuni umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Ushbu shodiyona – Navro'z kunlarida qadimda, katta urushlar ham to'xtatilgan, el-yurt osoyishta hayot kechirgan. Navro'z go'zallik va yaxshilik, mehr-oqibat, muruvvat bayrami sifatida qadrlangan.

Hayit bayramining tiklanishi. Ma'naviy hayotdagi diniy bayramlar, hayit kunlarining respublikamizda umumxalq bayrami sifatida nishonlanishi uchun keng yo'l ochilgani ham ma'naviy poklanishning muhim ko'rinishidir. Butun jahon ahli diqqatini tortgan boy va rang-barang madaniy-ma'naviy merosimiz ikki qudratli to'lqin – dunyoviy ilmlar va diniy falsafiy tafakkurga tayanadi. Shu bois ham bugungi yangi davlatchiligimizni qurilishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Prezident Islom Karimovning farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil qilindi. 1992- yil 27-martda O'zbekiston Prezidentining «Ro'za hayitini dam olish kuni deb e'lon qilinishi to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Farmonda, jumladan shunday deyiladi: «Mustaqil O'zbekiston Respublikasi musulmonlarining istak va hohishlarini inobatga olib hamda fuqarolar o'rtasida mehr-oqibatni barqarorlashtirish maqsadida diniy bayram – Ro'za hayitining birinchi kuni dam olish kuni deb tayinlansin».

Tarixiy xotiraning tiklanishi. Mustaqillik tufayli uning boy madaniy o'tmishidan saboq olish, Vatan tarixin chuqurroq va izchil tadqiq etish va ilmiy xulosalar chiqarish katta ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz Islom Karimovning, «tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan kishining kelajagi ham bo'lmaydi» degan edi. Biron-bir xalq o'z tarixini bilmay, ma'naviy merosga tayanmay turib, o'z kelajagini tasavvur eta olmaydi.

Shu bois, mustabid tuzum davrida xalqimizning soxtalashtirilgan tarixini xolisona, haqqoniy yoritish, barcha o'quv maskanlarida Vatan tarixini o'qitish borasida muhim tadbirlar amalga oshirildi. O'zbek xalqi va o'zbek davlatchiligi tarixini, tariximizning boshqa sahifalarini xolisona ilmiy asosda yoritish vazifalari Prezident Islom Karimovning bir guruh tarixchilar bilan 1998-yil iyun oyida bo'lgan suhbatida, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27- iyulda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarorida belgilab berildi.

Prezident Farmoni bilan 1996-yil Amir Temur yili deb e'lon qilindi. Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlashga bag'ishlangan tadbirlar O'zbekistonda, dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlarida o'tkazildi. YUNESKO qarori bilan sohibqiron yubileyi jahon miqyosida nishonlandi. Parijda Amir Temurga bag'ishlangan madaniyat haftaligi, «Temuriylar davrida fan, madaniyat va maorifning gullab- yashnashi» mavzuida xalqaro konferensiya va ko'rgazmalar bo'lib o'tdi.

1999-yil vatanparvar siymo, xalq qahramoni Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi, Alpomish dostonining 1000 yilligi nishonlanishi, Urganch va Termizda ular xotirasiga barpo etilgan yodgorlik majmuasi jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy ong va milliy g'ururni ko'tarishga xizmat qilmoqda. Vatanimiz ozodligi yo'lida shahid ketgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir va boshqa xalq jigarbandlarining nomlari tiklanib, asarlari chop etildi. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkentda mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmui, «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyi, fashizmga qarshi janglarda jon fido etgan xalqimizning farzandlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida «Xotira maydoni» majmuasi barpo etildi. Bu tadbirlar xalqimizda milliy ongni yuksaltirishga, tarixiy xotirani tiklanishiga, yoshlarni milliy istiqloq goyalari ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Diniy qadriyatlarning tiklanishi. Agar istiqloqlarning bosib o'tilgan 20 yillik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ozodlikning ilk onlaridan boshlaboq dinga munosabat, davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi aloqalarni yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston dunyoviy davlat, binobarin, mamlakatimizda din davlatdan ajratilgan. Ammo respublikamiz rahbariyati bu masalaga oqilona yondashib, din davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, jamiyatdan ajratilmaganini, xususan, O'zbekiston singari qadimiy va barqaror diniy an'analarga ega mamlakatda bu borada g'oyat ehtiyotkorlik bilan siyosat yuritish lozimligini o'z vaqtida to'g'ri anglab yetdi.

O'zbekiston xalqi o'z tarixida birinchi marta bevosita hukumat yordamida har yili muqaddas Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatiga erishdi. Birgina 1998-yilning o'zida 4 mingga yaqin fuqarolar Makkai munavvara va Madinai mukarramaga safar qildilar. Islom olamining allomalari – vatandoshlarimiz imom Abu Iso at-Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud az-Zamahshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Bahouddin Naqshbandiyning 675 yilligi, Hoja Ahror

Valiyning 600 yilligi va Imom al-Buxoriyning 1225 yilligi keng ko‘lamda nishonlanishi yurtimizda iymon, dinu diyonat qaytadan yuksaliyotganiga yorqin dalil bo‘ldi. Bu aziz va mukarram zotlarning bebaho asarlari qayta chop etilib, nomlari abadiylashtirildi.

Islom dinining muqaddas kitobi Quroni Karim ilk bor Aloudin Mansur tomonidan 1992-yili o‘zbek tiliga tarjima qilindi va uch marta, jami 300 ming nusxada bosmadan chiqarildi. Respublikada 17 ta diniy konfessiya ro‘yxatga olingan va rasman faoliyat ko‘rsatmoqda. 170 dan ortiq diniy tashkilotlar ishlab turibdi va ularda O‘zbekistonda yashovchi 130 millat va elat vakillari o‘zlarining diniy ehtiyojlarini qondirmoqdalar. 1,7 mingdan ortiq masjidlar, xristian ibodatxonalar, sinagoglar va boshqa diniy markazlar ta‘mirlandi va yangidan qurildi. 10 ta diniy ta‘lim muassasasi faoliyat ko‘rsatmoqda. 1999-yilda Toshkentda Islom universiteti tashkil etildi.

Islom konferensiyasi tashkiloti tarkibidagi muassasalardan biri-ta‘lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha Xalqaro islom tashkiloti ISESCO tomonidan Toshkentni 2007-yilda Islom madaniyatining poytaxti, deb e‘lon qilindi.

O‘zbekistonning islom madaniyati va islom oldidagi, islom merosi va yodgorliklarini asrash va yanada boyitish borasidagi mislsiz xizmatlari uchun Toshkent shunday yuksak va fahrli unvonga sazovor bo‘ldi.

O‘zbek xalqining ming yillar davomida shakllangan, mustamlakachilik davrida oyoq osti qilingan, insonparvar urf-odatlar va an‘analari, madaniy qadriyatlar ehtiyotlab tiklandi va yangi ma‘no-mazmun bilan boyitildi. Maqomchilar, to‘y-marosim qo‘shiqdori, shoir-baxshilar va folklor-etnografik dastalarning o‘nlab ko‘rik-tanlovlari o‘tkazildi. Pianinochi va skripkachilarning simfonik va kamer musiqalari, zamonaviy estrada guruhlarining festival va tanlovlari bo‘lib o‘tmoqda.

Respublikamizning ma‘muriy-hududiy birliklari, ko‘chalari, geografik o‘rinlarning nomlariga yagona milliy shakl berildi va o‘zbek tilida yozib qo‘yildi. Natijada o‘zbek xalqining milliy qadr-qimmatini qayta tiklandi va mustahkamlandi. Shuningdek, O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning tillari, qadr-qimmatini ham o‘z o‘rniga qo‘yilgan.

Ta‘lim ravnaqi. Ma‘naviy-ma‘rifiy sohadagi yutuqlarimiz ta‘lim tizimidagi tub o‘zgarishlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Xalq ta‘limini isloh qilish, kadrlar tayyorlash tizimini mustahkamlash sohasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Yangi oliy o‘quv yurtlari tashkil etilib bilimlarning yangi tarmoqlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Oliy ta‘lim tizimidagi 16 ta universitetning 12 tasi mustaqillik yillarida

tashkil etildi. Mustaqillik yillarida eng zarur zamonaviy mutaxassisliklar bo‘yicha o‘nlab yangi oliy o‘quv yurtlari – Mudofaa vazirligi qoshida Harbiy akademiya, IIV qoshida Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent aviasiya instituti, Navoiy tog‘-konchilik instituti, Toshkent Moliya instituti va boshqalar tashkil etildi.

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan ta‘limni tubdan isloh qilish yo‘llari ishlab chiqildi. 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan Oliy Majlisning IX sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Ta‘lim islohoti va uning istiqbolllarini belgilashda quyidagi tamoyillar asos qilib olindi:

- ta‘lim-tarbiyaning insonparvarligi va demokratikligi;
- ta‘lim tizimining uzluksizligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi;
- ta‘limda umuminsoniy va milliy madaniy-ma‘naviy qadriyatlarining ustuvorligi;
- millati, e‘tiqodi, dinidan qatyi nazar, barcha fuqarolar uchun ta‘lim olish imkoniyati yaratilganligi;
- ta‘lim muassasalarining siyosiy partiyalar va harakatlar ta‘siridan holiligi.

Milliy dastur ro‘yobga chiqmoqda. Yoshlar umumiy o‘rta ta‘limni 9 yillik maktablarda oladilar, yana uch yil davomida yangidan tashkil etilgan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o‘rta maxsus bilim va kasb-hunar o‘rganadilar.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni bajarish umumxalq, umummillat ishiga aylandi. 2001 yilda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning birinchi bosqichi yakunlandi.

2001- yilda Respublikamizda 6742 ta maktabgacha ta‘lim muassasalarida 608.500 nafar o‘g‘il-qizlar tarbiyalandi. Ularda 65.862 nafar pedagog, tarbiyachi va boshqa xodimlar xizmat qildi. 9.727 ta umumta‘lim maktablarida 440.762 nafar o‘qituvchi 6,3 mln. o‘quvchiga ta‘lim bermoqda. 2010-yilga kelib umumta‘lim maktablarining deyarli hammasi namunaviy loyihalar asosida barpo etildi yoki kapital ta‘mirlandi. Dastur doirasida 2010-yilda 560 ta yetakchi klaster maktablari qiymati qariyb 6 miln. dollar bo‘lgan 13 ming 500 ta kompyuter texnikasi bilan ta‘minlandi, 750 dan ortiq qishloq maktabi zamonaviy o‘quv-laboratoriya uskunalar va multimedia vositalari bilan jihozlandi, 1,5 mingta qishloq maktabi o‘qituvchilari umumiy qiymati qariyb 13 miln. dollar bo‘lgan 3 ming 400 ta shaxsiy kompyuter bilan ta‘minlandi. Umumiy o‘rta ta‘lim bo‘yicha barcha o‘quv fanlaridan Davlat ta‘lim standartlari ishlab chiqildi va ular 346 ta

maktabda tajribadan o'tkazildi, ta'lim jarayoniga joriy etildi. Davlat ta'lim standartlariga mos o'quv dasturlari va uslubiy qo'llanmalar yaratildi. Maktab ta'limi 7 ta tilda: o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, turkman va tojik tillarida olib borilmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini eng muhim, O'zbekistonga xos xususiyati yangi turdagi 3 yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini yaratishdir. 1998-2004 yillar davomida zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlangan 54 ta akademik litsey va 533 ta kasb-hunar kolleji barpo etildi. Bu maqsadlar uchun 135 mlrd. so'm mablag' sarflandi. O'rta maxsus o'quv yurtlariga zarur bo'lgan jihozlar sotib olish uchun jalb qilingan chet el investitsiyalarining miqdori 150 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Davlat umummilliy dasturining amalga oshirilishi natijasida 1536 ta akademik litsey va kasb-hunar kolleji namunaviy loyihalar asosida barpo etildi. Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari ishlab chiqildi, amaliyotga kiritildi va uslubiy qo'llanmalar yaratildi. 2003-2004 o'quv yilida akademik litseylarda 26,2 ming, kasb-hunar kollejlarda 531,6 ming o'quvchi ta'lim oldi. Ayni damda mamlakatda 1500 dan ortiq yangi kasb-hunar kolleji va akademik litsey barpo yetildi.¹ Respublikamizda dastur doirasida amalga oshirilgan keng ko'lamlı ishlar o'z samarasini berdi. 2012-2013-o'quv yilida 12 yillik majburiy ta'limga o'tish to'liq ta'minlandi.

Oliy ta'lim tizimida katta o'zgarishlar qilindi. Oliy ta'lim ikki bosqichdan – bakalavriyat va magistraturadan iborat etib qayta tashkil etildi. 62 ta oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan bo'lajak bakalavr va magistrantlar soni 2003-2004-o'quv yilida 254.400 nafarni tashkil etdi. 18.486 nafar professor-o'qituvchilar mehnat qilmoqdalar, ularning 1462 nafari fan doktori, 7201 nafari fan nomzodidir. O'tgan 4 yil davomida barcha yo'nalishlar bo'yicha bakalavr va magistrlar uchun qo'yiladigan talablarni o'zida mujassamlashtirgan Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari yaratildi. Oliy ta'lim uchun 1129 nomdagi uslubiy qo'llanma va o'quv adabiyotlari nashr etildi va oliy o'quv yurtlari kutubxonlariga tarqatildi. Bugungi kunda ta'lim jarayonini isloh yetish va mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliy o'quv yurtlari muhim o'rin egallamoqda. O'tgan davr mobaynida ularning soni ikki barobar ortdi va bugungi kunda mamlakatimizdagi 59 ta universitet va oliy o'quv yurtida 230 mingdan ziyod talaba ta'lim olmoqda.

O'zbekistonda Vestminster universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Turin politexnika universiteti, Rossiya neft va gaz universiteti, Moskva davlat universiteti, Rossiya iqtisodiyot universiteti kabi yuksak xalqaro obro'-e'tibor va chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan Yevropa va Osiyoning yetakchi oliy o'quv yurtlarining filiallari tashkil

etildi va muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu oliy o'quv yurtlarida mashinasozlik, neft-gaz ishi, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va biznes boshqaruvi, moliyaviy menejment, tijorat huquqi kabi mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha bakalavr va magistrlar tayyorlanmoqda va ularning bitiruvchilari butun dunyoda tan olinadigan diplomlarga ega bo'lmoqda.

O'zbekiston Milliy universiteti va Fanlar akademiyasi tomonidan Buyuk Britaniyaning yetakchi oliy o'quv yurti Kembrij universiteti bilan hamkorlikda 2012-yilda Yuksak texnologiyalar o'quv-tajriba markazi tashkil etilmoqda. Markazning asosiy vazifasi – iqtidorli talabalar, aspirant va yosh olimlarni kimyo, fizika, biologiya, biokimyo, biofizika, geologiya va geodeziya sohalarida amaliy innovatsion ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda ilmiy ishlanmalarni amalga oshirishning zamonaviy metodlariga o'rgatishdan iborat. Markazni eng zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlash ko'zda tutilmoqda, u yerda Kembrij universitetining olim va mutaxassislari konkret yo'nalishdagi tadqiqot ishlarini amalga oshirish jarayonida yosh olimlarni tayyorlab boradi¹.

Mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularga ko'maklashish, qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati sobitqadamlik bilan olib borilmoqda. Iste'dodli yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, chet elda o'qishini qo'llab-quvvatlash maqsadida «Respublika bolalar fondi», «Sog'lom avlod uchun», «Iste'dod» jamgarmalari tashkil topdi. Ta'lim sohasida AKSELS, AYREKS, AQSH kollejlari konsorsiumi, SARE, Tinchlik korpusi (AQSH), Konrad Adenauer fondi, Britaniya kengashi, SAUD Al-Baptin fondi (Misr) kabi halqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi. 2000 dan ortiq talaba va mutaxassislar chet elda o'qib keldi.

O'zbekiston ta'lim tizimi dunyo miqyosida katta qiziqish o'yg'otmoqda. Moskvadagi Oliy ta'lim Xalqaro Fanlar akademiyasi prezidenti V.Shukshunov O'zbekistonda ishlab chiqilgan bu Milliy dasturni mazmun-mohiyati jihatidan tengi yo'q hujjat, deb ta'rifladi. O'zbekistonda yaratilayotgan ta'lim tizimi «Ta'limning o'zbek modeli» deb e'tirof etildi.

O'quv jarayoniga keng formatli kommunikatsiya tarmoqlari va Internet texnologiyalarini joriy qilish, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda «Elektron ta'lim» milliy tarmog'ini barpo etishni nihoyasiga yetkazish hamda 2011-yilda mamlakatimizning barcha oliy o'quv yurtlarini, keyinchalik esa akademik litsey va kasb-hunar kollejlari yagona kompyuter axborot tarmog'iga ulashni ta'minlash vazifasi yuklatildi.

¹ Ўша манба. – Б.184.

Moliya vazirligi huzurida tashkil etilgan Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasining 367 milliard so'm miqdoridagi mablag'i hisobidan joriy yilda 336 ta ta'lim muassasasini, 65 ta bolalar musiqa va san'at maktabini rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, qariyb 1500 ta kompyuter sinfini tashkil qilishni ta'minlash, shuningdek, 118 ta sport zalini qurish va jihozlash ko'zda tutilmoqda. Bundan tashqari, Koreya Eksimbankining 30 million dollar miqdoridagi krediti hisobidan umumta'lim maktablarida yana qo'shimcha ravishda 1,5 mingta kompyuter sinfi jihozlanadi.

Shu o'rinda ta'limni rivojlantirishga yo'naltirilgan xorijiy texnik yordam hajmining tobora ortib borayotganini alohida ta'kidlash joizdir. O'tgan davrda bu boradagi yordam 500 million dollardan oshib ketdi. Osiyo taraqqiyot bankining salkam 290 million dollar mablag'i, Janubiy Koreya hukumatining 110 milliondan ortiq, Jahon bankining 33 million, OPEK fondi, Saudiya fondi, Islom taraqqiyot bankining 42 million, Germaniya hukumatining «KfV» banki orqali yo'naltirilgan qariyb 20 million va boshqa donorlarning 100 million dollardan ortiq yordamini qayd etish lozim.

2011-2015-yillarda Oliy o'quv yurtlarini rivojlantirish dasturida oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, ularni zamonaviy o'quv, laboratoriya va ilmiy uskunalar bilan jihozlash, pirovardida, o'quv dasturlarini takomillashtirish, tobora kuchayib borayotgan zamon talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlashda sifat jihatidan yangicha yondoshuvlarni hayotga tatbiq etishdan iborat¹.

3-§. O'zbekistonda madaniy taraqqiyot

Mustaqillik yillarida badiiy adabiyotda milliylik, ming yillik tarixiy an'analar, umuminsoniy qadriyatlar, erkin fikr yuritish tamoyillari tiklandi. Badiiy adabiyot sinfiylik, partiyaviylik, kommunistik mafkuraviylik kabi aqidalar hukmronligi illatlaridan ozod bo'ldi.

Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Xurshid Davron kabi ijodkorlarning tarixiy roman, pesa va qissalarida ulug' bobokolonlarimiz Amir Temur, Mirzo Ulugbek, Zaxiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning siymolari umuminsoniy va milliy qadriyatlarga mos tarzda

¹ Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Т., 2011. – Б.237.

yangicha talqinda yoritildi. Xalqaro Sholoxov mukofoti laureati To'lepbergen Qayipbergenovning «U dunyoga, bobomga xat» asari, Shukrulloning «Kafansiz ko'milganlar» romanida, Nazar Eshonqulovning «Qora kitob» povestida, O'tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar», Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» singari asarlarda mustabid sovet davrida xalq boshiga solingan behad kulfatlar, g'am-alamlar haqqoniy tasvirlangan. Tohir Malikning «Shaytanat» (4 kitob), Hojiakbar Shayxovning «Tutqin odamlar» asarlarida insonni iymon va vijddan ozdirishga, razolat va qabohat ummoniga o'tkizishga urinuvchi yomonlik dunyosi, mafiya olami shaytonlari fosh qilinadi, ularga nisbatan nafrat tuyg'ulari tarannum etiladi. Omon Muxtorning «To'rt tomon qibla» nomli trilogiyasi, Barot Boyqobulovning «O'zbeknoma» tarixiy-falsafiy dostoni, Abduqahhor Ibrohimovning «Biz kim, o'zbeklar» badiiy-tarixiy asari, Azim Suyunning «Oq va qora», A.Qutbiddinning «Izohsiz lug'at» she'riy asarlari zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin ifodasidir.

Mustaqillik yillarida me'morchilik san'ati yanada rivojlanib, takomillashib bormoqda. Me'morchilikda ikki asosiy tamoyil ko'zga tashlanadi. Ulardan biri sharqona me'morchilikning an'anaviy qonun-qoidalariga rioya etishdir. Bu tamoyil Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Turkiston san'at saroyi, Oliy Majlis, Senat, Toshkent shahar hokimiyati binolari timsolida o'z aksini topgan. Respublika birja markazi, banklararo moliyaviy xizmatlar, Markaziy O'zbekiston Davlat konservatoriyasi va boshqa binolarni kiritish mumkin.

Me'morchilikdagi ikkinchi tamoyil esa O'zbekistonning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olish sari intilishini namoyish etuvchi jahon me'morchiligining eng yaxshi yutuqlaridan foydalanishda namoyon bo'lmoqda. Bunday binolar jumlasiga «Meridian», «Afrosiyob» (Samarqand), «Buxoro» «Interkontinental», «Sheraton» mehmonxonalari, «O'zekspomarkaz», Milliy bank, Markaziy bank, «Toshkentplaza» savdo markazi, Toshkent shahri ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan «Oloy», «Chorsu», «Otchopar», «Yunusobod», «Mirobod», «Parkent», «Qo'yliq» va boshqa bozor binolari, shuningdek, «Yunusobod» tennis markazi, «Jar» sport markazi singari zamonaviy inshootlarni kiritish mumkin.

Yuzlab akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun mahobatli binolar bunyod etildi. Mustaqillik yillarida haykaltaroshlik san'ati jadal o'sdi. Haykaltarosh I.Jabborov va K.Jabborovlar tomonidan Toshkentda Amir Temurning otliq haykali, Samarqand va Shahrisabzda Amir Temur haykallari, Farg'ona va Quvada al-Farg'oniy (1998), Xorazmda Jaloliddin Manguberdi haykallari (1999) yaratildi. Haykaltarosh R.Mirboshiyev ijodiga mansub «Zaxiriddin Muhammad Bobur» (1993, Andijon),

«Abdulla Qodiriy» (1994, Toshkent), «Cho'lpon» (1997, Andijon), «Ona» (1999, Jizzax shahri) kabi bir qator haykal va yodgorliklar yaratildi. 1999-yilda Termizda «Alpomish» haykali va majmua-kompozitsiyasi (A.Rahmatullayev va boshqalar) bunyod etildi.

Mustaqillik sharofati bilan dizayn san'ati ham jadal rivojlanmoqda. Tasviriy san'at, rassomchilik san'atining rivojida 1997-yilda tashkil etilgan O'zbekiston Badiiy akademiyasi va «Tasviriy oyina» respublika ijodiy uyushmasi muhim rol o'ynadi. O'zbekiston xalq rassomlari Malik Nabiye, Bahodir Jalolov va boshqalar xalqimiz ongida milliy g'urur, Vatanga sadoqat tuyg'ularini uyg'otuvchi qator san'at asarlarini yaratdilar. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo portretlari shular jumlasidandir. Tasviriy va miniatura san'ati yangi ma'no-mazmun bilan boyidi.

1996-yilda «O'zbekfilm» tasarrufida 8 ta kinostudiya, 30 ga yaqin mustaqil ijodiy studiyalar faoliyat yuritdi. 1996-yilda tashkil etilgan «O'zbekkino» davlat aksionerlik kompaniyasi, uning davlat tomonidan moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi kino san'atining rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1991-2002-yillarda 60 ga yaqin badiiy filmlar yaratildi. «Temir xotin», «Dallo», «Sharif va Ma'rif», «Tilla bola», «Buyuk Amir Temur», «Yulduzingni ber, osmon», «Kenja singil» va boshqa filmlarda milliylik va zamonaviylik uyg'unligi yaqqol namoyon bo'ldi. 1997-yil 22-29-may kunlari XII Xalqaro Toshkent kinofestivali bo'lib o'tdi. Unda 32 ta davlat va 8 ta xalqaro tashkilotdan vakillar, kino san'ati ustalari qatnashdi. «Buyuk Amir Temur» filyimi ijodkori R.Ibrohimovga festival bosh sovrini— «Neksiya» avtomobili taqdim etildi. Mustaqillik yillarida o'nlab hujjatli filmlar yaratildi. «O'zbekiston bahorlari», «Ulkan odim», «Ular Germaniyada o'qigan edilar», «O'zbekiston qahramonlari», «Umid qaldirg'ochi», «Istiqloq fidoyilari» va boshqalar shular jumlasidandir.

1993-yilda foydalanishga topshirilgan «Turkiston» saroyi Vatanimiz va xorijlik teatr arboblarning, ijodiy guruhlarining sahna asarlari namoyish etiladigan dargohga aylandi. Andijonda jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar teatri, Abbas Bakirov nomli yoshlar va bolalar teatriga aylantirildi.

Respublika Prezidentining 1995-yil 20-oktabrdagi «O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 1998-yil 26-martdagi «O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi farmonlari asosida teatrlar davlat budjeti hisobiga qo'llab-quvvatlandi. Farmonga binoan Madaniyat ishlari vazirligi tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi qoshida 1998-yilda «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi

tashkil etildi. Birlashma teatr jamoalariga xalqimizning boy ma'naviy olamini, uning madaniy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini uyg'otuvchi spektakllar yaratishda, iste'dodli yoshlarni teatrga jalb qilishda, teatrlarning moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlashda, ijodiy hodimlarni ijtimoiy himoya qilishda ko'maklashdi.

Alisher Navoiy nomli Davlat akademik katta opera va balet teatri Yaponiya tomonidan 1995-yilda bepul ajratilgan 47 mln. iyen (1500 ming AQSH dollari) qiymatiga teng yangi uskunalar bilan jihozlandi. Respublikamizda 41 ta professional teatr faoliyat ko'rsatmoqda. Har bir viloyatda qo'g'irchoq teatrlari bolalarga xizmat qilmoqda.

2001-yilda respublika teatr san'atida muhim tarixiy voqeya sodir bo'ldi. Hamza nomidagi O'zbek akademik drama teatri binosi muhtasham koshona shaklida qayta qurildi, zamonaviy teatr uskunlari va mebellar bilan jihozlandi. Prezident farmoni bilan unga Milliy teatr maqomi berildi. Respublika teatrlari Vatan tarixini sahna asarlari orqali yoritishga alohida e'tibor bermoqdalar. Milliy akademik drama teatri va Qashqadaryo musiqali drama teatri jamoalari «Sohibqiron», Xorazm viloyati musiqali drama va komediya teatri «Jaloliddin Manguberdi», Abror Hidoyatov nomli o'zbek davlat teatri «Buyuk Ipak yo'li» kabi tarixiy dramalarni sahnaga qo'yidilar.

1997-yil oktabrda Toshkentda bo'lib o'tgan «Teatr: Sharq – G'arb» xalqaro festivalda Yaponiya, Hindiston, Gonkong, Turkiya, Rossiya va Buyuk Britaniya teatr san'atkorlarining chiqishlari bo'ldi.

Respublikamiz teatr san'ati xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ma'naviyatini boyitish, ular ongiga milliy istiqloq g'oyasini singdira borish, vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirish, axloqiy, estetik tarbiya maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.

1992-yilda «O'zbek davlat sirk» respublika birlashmasi tashkil etilganligining 660 yilligiga bag'ishlangan festivalda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston teatrlarining 15 ta eng yaxshi tarixiy sahna asarlari namoyish etildi. O'zbekiston teatr ustalari Germaniya, Fransiya, Slovakiya, Hindiston, AQSH, Belgiya, Misr va Rossiya teatr festivallarida qiziqarli spektakllari bilan ishtirok etdilar.

Toshkent davlat sirk zamonaviy talablar asosida qayta ta'mirlandi, unga O'zbekiston xalq artisti Toshkenboy Egamberdiyev nomi berildi. An'anaviy sirk san'atining unutilgan turlari tiklandi va rivojlandi. Iste'dodli yoshlarga amaliy yordam berish maqsadida 1996-yilda estrada-sirk kolleji ochildi.

O'zbekiston sirkchilarining chet ellarga gastrol safarlari uyushtirildi. Misr, Iordaniya, Falastin, Pokiston, Malayziya, Hindiston, Xitoy, Suriya,

Livan, Eron, Birlashgan Arab Amirligida gastrol safarlarida bo'lgan respublikamiz sirk ustalari o'zbek milliy sirk san'atini namoyish etdilar. Olimjon Toshkenboyev rahbarligidagi «O'zbekiston dorbozlari» guruhi 1996-yildan boshlab Yevropa mamlakatlarida gastrol safarida bo'lib, 2000 dan ziyod tomosha ko'rsatdilar. 15 yoshli Karima Zaripova 1997-yil yanvarda Parijdagi Buglion sirkida bo'lgan yosh sirk artistlarining xalqaro festivalida qatnashib, «Plastik etud» (besuyak uyini) janrida festivalning eng oliy mukofoti—oltin medalni qo'lga kiritdi. 1998-yilda Toshkent d a v l a t sirkida iste'dodli yoshlarga ko'maklashuvchi bolalar studiyasi ochildi. O'zbek sirkchilari 1999-yilda Birlashgan Arab Amirligining Dubay shahrida, 1999-yilda Saratov shahrida bo'lib o'tgan Butunrossiya sirk festivalida, 2000-yilda Xitoyning Uxan shahrida bo'lib o'tgan xalqaro sirk festivalida, 2001-yil yanvarda Belgiyaning Lej shahrida bo'lib o'tgan Yevropa sirkklarining 10-festivalida muvaffaqiyatli qatnashib, sovrinli o'rinlarni egalladilar.

Mustaqillik yillarida milliy musiqa va qo'shiqchilik san'ati rivojlandi. Respublika madaniyat ishlari vazirligi, 1992-yilda tashkil etilgan «Xalq ijodi va madaniy-ma'rifiy ishlar respublika Markazi», uning viloyatlardagi bo'limlari musiqa va qo'shiqchilik san'atini, havaskorlik va folklor jamoalari faoliyatini rivojlantirish, unutilgan xalq ohanglarini tiklash maqsadida turli xil ko'rik tanlovlar, festivallar tashkil etdilar. 1992-yilda Toshkentda «Asrlarga tengdosh navolar» va «Boqiy ovozlari», Xorazm viloyatida folklor jamoalari, askiya, qiziqchi va masxarabozlarning, Qo'qonda katta ashula, lapar va yalla ijrochilarining ko'rik-tanlovlari o'tkazildi. 1994-yil Parijda bo'lib o'tgan «Sharq musiqasi» festivalida Munojot Yo'lchiyeva va Shavkat Mirzayevlar ishtirok etib, o'zbek milliy qo'shiqchilik san'atini jahonga namoyish etdilar. 1996 yil aprel oyida Turkiston saroyi, «Bahor» majmuasi va boshqa ijodiy konsert tashkilotlari negizida tashkil etilgan «O'zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasi orqali xalq orasidan iste'dodli qo'shiqchilarni izlab topish va ko'rik-tanlovlarga jalb etish, musiqa va qo'shiqchilik san'ati bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi tadbirlar amalga oshirildi. Respublika Prezidentining 1996-yil 27-avgustdagi «O'zbekiston – Vatanim manim» qo'shiqlar bayrami to'g'risida»gi farmoni qo'shiqchilik san'atini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. 1996-yilda o'tkazilgan barcha viloyat, shahar va tumanlarda «O'zbekiston-Vatanim manim» qo'shiq tanlovida 54 mingdan ziyod qo'shiqchilar qatnashdi. Bunday ko'rik tanlov har yili avgust oyida o'tkaziladigan bo'ldi va avgust oyining uchinchi yakshanba kuni «O'zbekiston – Vatanim manim» qo'shiq bayrami kuni deb belgilandi.

1997-yil 11-martda qabul qilingan Respublika hukumatining «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivalini o'tkazish to'g'risida»gi qarori musiqa san'atining noyob namunalarini keng targ'ib qilish, rivojlantirishda dasturamal bo'lib xizmat qildi. 1997-yil 25-avgust – 2-sentabr kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan «Sharq taronalari» birinchi Xalqaro festivalida dunyoning 40 dan ortiq mamlakatidan ijrochilar, san'atshunoslar, jamoat arboblari ishtirok etdi. Festivalda yangragan o'zbek ohanglari, kuy-qo'shiqlari jahon uzra taraldi. Har ikki yilda Samarqandda «Sharq taronalari» Xalqaro festivalini o'tkazish an'ana tusini oldi. O'zbekistonda musiqa va qo'shiqchilik san'atining rivojiga har yili 31-avgust va 21-mart kunlari o'tkazilayotgan Mustaqillik va Navro'z kunlariga bag'ishlangan bayram tantanalari yuksak va ko'tarinki ruhda nishonlanmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yashayotgan 130 ga yaqin turli millat va elatlarning urf-odatlari va an'analari birdek rivojlanib bormoqda. Hozirgi paytda O'zbekistonda 120 ta milliy madaniyat markazlari faoliyat yuritmoqda. Milliy-madaniy markazlar o'z millatdoshlarining tili, madaniyati, urf-odatlari, rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy Vatani bilan aloqani jonlantirish kabi masalalar bilan shug'ullanib kelmoqdalar. Milliy-madaniy markazlar qoshida milliy musiqa, raqs, hunar va boshqa yo'nalishlardagi to'garaklar tashkil etilgan.

1992-yilda turli milliy madaniy markazlarga ko'maklashuvchi Respublika Baynalmilal markazi tuzildi. Uning faoliyatida respublikamizda istiqomat qiluvchi turli millat va elatlarni jipslashtirish asosiy o'rin tutmoqda. Har bir millatga mansub rassomlar, yozuvchilar, shoirlar, olimlar, madaniyat va san'at arboblari bag'ishlangan yig'ilishlar, ko'rgazmalar tashkil etilmoqda. Milliy-madaniy markazlar o'z faoliyati bilan respublikada madaniyat ravnaqiga muhim hissa qo'shmoqdalar.

Jamiyat madaniy-ma'rifiy hayotida, aholida tarixiy xotirani tiklash va mustahkamlashda muzeylarning ahamiyati katta. Shu boisdan ham mustaqillik yillarida mavjud muzeylarni ta'mirlash, ularni yangi eksponatlar bilan boyitish, yangi muzeylar barpo etishga alohida e'tibor berildi.

Namanganda ulug' o'zbek shoiri Boborahim Mashrab muzeyi, Xorazmda hofiz Hojixon Boltayev nomli maqomchilar muzeyi, Urganchda Xorazm amaliy san'ati va tarixi muzeyi, Buxoroda temirchilik muzeyi, Samarqand viloyatining Oqtosh shahrida xalq baxshisi Islom shoir Nazar o'g'lining uy-muzeyi, Toshkentda o'zbek ayollari orasidan chiqqan birinchi huquqshunos olim Hadicha Sulaymonova muzeyi, o'zbek raqqosasi Mukarrama Turg'unboyeva muzeyi singari uy muzeylari tashkil etildi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida ko'plab muzeylar ochildi.

1996-yil 1-sentabr kuni Toshkentda Osiyoda yagona bo'lgan Olimpiya shon-shuhrat muzeyi faoliyat ko'rsata boshladi. Bu muzey o'zbekistonlik sportchilarning xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatlarini namoyish etgan, mamlakatimizda sport harakatini rivojlantirish markazi bo'lib qoldi.

1996-yil 18-oktabrda Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi. Muzey temuriylar davri ruhini aks ettiruvchi o'sha davrga xos tarixiy jihozlar, qurol-aslahalar, lashkarboshilar va oddiy jangchilarning kiyim-boshlari, oltindan yasalgan uy-buyum ashyolari, musiqa asboblari, Amir Temur, Bobur qo'lyozmalari, Ulug'bekning astronomik qurilmalari va boshqa 2000 dan ortiqroq tarixiy, madaniy yodgorliklar bilan jihozlangan. Temuriylar tarixi davlat muzeyi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan madaniy, ma'naviy, ma'rifiy ishlar, ilmiy tafakkur markaziga aylandi. 2002-yilda Termizda Arxeologiya muzeyi bunyod etildi.

O'zbekiston Prezidentining «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi 1998-yil 12-yanvar farmoni va uning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan Respublika hukumatining 1998-yil 5-dekabrda qabul qilingan «Muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida»gi qarori mamlakatimizda muzey ishini rivojlantirish istiqbollari belgilab berdi. Muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatish, moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida 1998-yilda «O'zbek muzey» Respublika jamg'armasi tuzildi. Aholining muzeyshunoslik madaniyatini oshirishga ko'maklashuvchi «Moziydan sado» jurnali ta'sis etildi va u 1999-yildan boshlab o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etila boshlandi. Faqat 1999-yilda muzeylarning asosiy fondi 7544 ta tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan boyidi.

2012-yilda respublikamizda turli muassasalar, korxonalar, qurilish tashkilotlari, qishloq jamoa boshqaruv ho'jaliklari qoshida, shahar, tuman, viloyat markazlarida, xalq ta'limi tizimida 1200 dan ortiq muzeylar mavjud bo'lib, shundan 98 tasi Madaniyat va sport ishlari Vazirligi rahbarligida faoliyat ko'rsatgan. Ularda ajdodlarimiz tarixi, betakror madaniyatini aks ettiruvchi nodir buyumlar-eksponatlar saqlanmoqda va aholiga namoyish etilmoqda. Mamlakatimizning me'moriy yodgorliklarga boy 10 ta shahri tarixiy shaharlar ro'yxatiga kiritilgan. 2500 ta me'moriy obida, 2700 ta arxeologik yodgorlik, 1800 monumental san'at asari davlat muhofazasiga olingan. Ana shunday moddiy-ma'naviy obidalarimizning 4 mingdan ortig'i YUNESKOning umuminsoniy madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan. Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlaridagi 3 ta muzey-qo'riqxonalarida butun dunyoda eng nodir tarixiy yodgorliklar, me'moriy obidalar, monumental san'at asarlari saqlanib qolgan, davlat muhofazasida yangidan chiroy ochayotgan muzeylar sifatida e'tirof etilgan.

Mustaqillik yillarida sport O'zbekiston milliy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida rivojlandi. O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi 1992-yil 5-fevral qonuni sportni ommaviy ravishda rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. 46 mingdan ortiq sport inshootlari sport sog'lomlashtirish klublari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, oliy sport mahorati maktablari, sport zallari va maydonlari barpo etildi va ta'mirlandi. Ularda 7 mln. kishi jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi. 2012-yilgacha ushbu jamg'arma ishtirokida qariyb 1500 ta eng zamonaviy, barcha yoshlar foydalanishi mumkin bo'lgan bolalar sporti obyekti barpo etildi.

1992-yil yanvarda O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi tuzildi va 1993-yil sentabrda xalqaro olimpiya qo'mitasining 101-sessiyasida rasmiy e'tirof etildi. Sportning boks turi jadal o'sdi. 17 marta jahon chempioni Artur Grigoryan, Sidney olimpiadasi chempioni Muhammadqodir Abdullayev kabi bokschilarimiz nomi jahonga mashhur. 1999-yil avgust oyida Amerikaning Xyuston shahrida o'tkazilgan X jahon chempionatida O'zbekiston boks komandasi 83 mamlakat o'rtasida AQSH va Kuba komandalaridan keyin faxrli uchinchi o'rinni egalladi.

Vatanimizda sportning tennis turi rivojlandi. 168 ta tennis korti, eng zamonaviy Yunusobod tennis majmui barpo etildi. Yunusobod tennis saroyida 1994-2002-yillarda O'zbekiston Prezidenti kubogi uchun 9 marta xalqaro tennis musobaqalari o'tkazildi. 1999-yilning iyul oyida Londonda o'tgan tennis bo'yicha yoshlar xalqaro turnirida toshkentlik sportchi Iroda To'laganova Uimblon turnirida g'olib chiqib, kumush kubokni qo'lga kiritdi.

1998-yil mayida mamlakatimiz alpinistlari Himolay tog'ining eng baland «Everest» cho'qqisiga ko'tarilib, O'zbekiston dovrug'ini dunyoga taratdilar. Mustaqillik sharofati bilan milliy o'zbek kurashi tiklandi. 1992-yilda Termiz va Shahrisabz shaharlarida dastlabki milliy kurash bo'yicha xalqaro musobaqa o'tkazildi. Milliy kurashimizning nazariy jihatlari va qoidalari ishlab chiqildi va xalqaro sport turlari qatoridan o'rin oldi. 1999-yilning may oyida Toshkentda dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlaridan kelgan sportchilar ishtirokida kurash bo'yicha birinchi jahon chempionati bo'lib o'tdi. Unda o'zbekistonlik kurashchilar 3 ta oltin, 3 ta kumush, 3 ta bronza medallarini qo'lga kiritdilar. Akobir polvon, Kamol polvon, Toshtemir polvonlar nomi butun jahonga taraldi. Xalqaro kurash assosiasiyasi tuzildi, uning faxriy Prezidenti etib Islom Karimov saylandi.

Buyuk Britaniyada 2000-yildan boshlab har yili Islom Karimov nomi bilan ataluvchi xalqaro turnir bo'lib o'tmoqda. Xalqaro kurash

assosiasiyasining Xalqaro sport federasiyasi dunyoning ko'plab mamlakatlarida tashkil etildi. O'zbek milliy kurashi xalqaro sport turi sifatida dunyoda e'tirof etildi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston sportchilari Olimpiadalar, Osiyo o'yinlari, Jahon va Osiyo chempionatlari va boshqa musobaqalarda qatnashib, 3000 dan ortiq oltin, kumush va bronza medallarini qo'lga kiritdilar.

Shaxmat bo'yicha jahon chempioni Rustam Qosimjonov, boks bo'yicha jahon chempioni Muhammadqodir Abdullayev kabi sportchilar O'zbekiston xalqining iftixoridir.

2010-yilning o'zida 72 ta sport inshooti, 27 ta suzish havzasi foydalanishga topshirildi, umumiy qiymati 3 million AQSH dollariga teng bo'lgan sport inventarlari va uskunalari joylarga yetkazib berildi¹.

Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan uzluksiz ta'lim modeli hayotga joriy etilganidan keyingina unga uyg'un holda umumta'lim maktablari akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari hamda oliy o'quv yurtlari talabalarining «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» ommaviy sport musobaqalarini qamrab olgan uch bo'g'inli yagona tizim shakllandi.

Futbol bo'yicha 17 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasida Meksikada o'tkazilgan 2011-yilgi jahon chempionatida yoshlarimiz munosib ishtirok etib, mamlakatimizning halqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzini yuksaltirishga salmoqli hissa qo'shdilar.

Meksikada o'tgan jahon chempionatining yakuniy bosqichida Halqaro futbol uyushmalari federatsiyasi – FIFAg'a a'zo ikki yuzdan ziyod kuchli 24 terma jamoa qatnashdi. O'zbekistonlik o'smirlar futbol musobaqasida ilk marotaba to'p surganiga qaramay, chorak finalga chiqdi va jahonning eng kuchli sakkiz jamoasi qatoridan joy oldi.

Yurtboshimiz farmoyishiga binoan futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma komandasi bosh murabbiyi A.Yestafeyev, katta murabbiyi A.Musayev «Lascyetti», bir guruh futbolchilar «Srark» avtomashinalari bilan mukofotlandilar².

¹ Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Т., 2011. – Б.211.

² Туркестон. – 2011. – 16 июль.

XVII bob O'ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI

1-§. Tashqi siyosat asoslarining ishlab chiqilishi

XX asrning oxirlarida xalqaro vaziyat va kuchlar nisbati tubdan o'zgaradi. Ikki qutbli dunyo barham topdi. Ko'p qutbli xalqaro munosabatlar va o'zaro hamkorlik tartibotiga asoslangan hamjamiyat qurila boshlandi.

O'zbekiston milliy manfaatlariga mos keladigan tashqi siyosiy yo'lni belgilash, xorijiy davlatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalarni o'rnatish ishlarni amalga oshirishga kirishdi.

O'zbekiston istibdod davrida tashqi siyosat yuritish, xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatish huquqidan mahrum qilingan edi. Prezident Islom Karimov «O'zbekiston Respublikasi uchun mustaqil tashqi siyosat yuritish – davlat faoliyatining yangi va amalda qo'llanmagan yo'nalishlaridan biridir»¹, deb bejiz ta'kidlamagan edi. Shu bois, tashqi siyosatining huquqiy asoslarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri sifatida belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, Prezident farmonlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida tashqi siyosat tamoyillari va ustuvor vazifalari ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekt sifatida tashqi siyosatda davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalari va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalariga asoslanishi belgilandi².

Konstitutsiyaning mazkur moddasi O'zbekiston xalqaro munosabatlarda tinchliksevarlik, tenglik va o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatishga asoslangan siyosat yuritishini jahon hamjamiyatiga namoyish etdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida tashqi siyosat sohasida tegishli qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ular qatorida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi 1995-

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Т., 1996. – Б.40.

² Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси – Т., 2012. – Б.6.

yil 6-yanvardagi qonuni, «O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida»gi 1996-yil 26-dekabrda qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 1994-yil 25-fevral Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida»gi 1992-yil 25-may qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ning «O‘zbekiston Respublikasi Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 2012-yil 29-sentabr qonuni va boshqalarni qayd etish mumkin.

O‘zbekiston buyuk kelajagini barpo etish uchun qulay geosiyosiy imkoniyatlarga ega bo‘lgan yosh davlatlar qatoriga kiradi. Uning qulay geosiyosiy imkoniyatlari quyidagilardan iborat: Yurtimiz hududidan qadimgi davrdan Sharq va G‘arb mamlakatlarini birlashtirib turgan savdo-sotiq, tijorat, madaniy, ilmiy va diplomatik aloqalar yo‘li bo‘lgan Buyuk Ipak yo‘li o‘tgan. Hozir ham u yurtimiz tranzit savdo yo‘llari kesishgan hudud sifatidagi ahamiyatini saqlab qolgan; Markaziy Osiyoning markazida joylashganligi tufayli mintaqada kuchlar nisbati va muvozanatini saqlash, iqtisodiy integratsiya jarayonini rivojlantirish, hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatini beradi; Markaziy Osiyoning transport, energetika, kommunikatsiya, suv tizimi markazida joylashganligi; tabiiy-iqlim sharoitining qulay, ulkan mineral – xom ashyo zaxiralari va strategik materiallarga egaligi, dehqonchilik madaniyati rivojlanganligi; O‘zbekistonning insoniyat sivilizatsiyasida salmoqli o‘ringa ega ekanligi.

Geosiyosiy jihatdan O‘zbekiston Respublikasida qiyinchiliklar tug‘diruvchi omillar quyidagilarda namoyon bo‘ladi: O‘zbekiston geosiyosiy xolati jihatidan kollektiv xavfsizlik tizimi izchil yo‘lga qo‘yilmagan Markaziy Osiyo mintaqasida joylashganligi; etnik, demografik, iqtisodiy va boshqa muammolar yuki ostida qolgan respublikalar qurshovida ekanligi; kommunikatsiya tizimi nomaqbul ravishda shakllantirilgan respublikalar qatorida ekanligi; suv resurslarining cheklanganligi va ekologik muammolarning mavjudligi.

O‘zbekistonda davlat qurilishida eng avvalo tashqi siyosat bilan shug‘ullanuvchi davlat organlari shakllantirildi. Tashqi ishlar vazirligining funksiyalari va faoliyati yo‘nalishlari o‘zgartirildi. 1992-yil 21-fevralda Prezident Islom Karimovning «O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligini tashkil etish to‘g‘risida»gi Farmoni qabul qilindi. Farmonda tashqi iqtisodiy aloqalar strategiyasi va yo‘nalishlari belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tashqi iqtisodiy aloqalar sohasidagi boshqaruv tizimini yanada erkinlashtirish va takomillashtirish

to‘g‘risida»gi 2002-yil 21-oktabr farmoniga asosan bu vazirlik O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi etib qayta tashkil etildi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi, tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada takomillashtirish va erkinlashtirish maqsadida Prezidentning 2005-yil 21-iyul Farmoniga asosan Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi etib qayta tashkil etildi.

Tashqi siyosat bilan shug‘ullanuvchi davlat tashkilotlarining tuzilishi ularni malakali kadrlar bilan ta‘minlash ehtiyojini vujudga keltirdi. 1992-yil 23-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan Toshkent davlat Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tashkil etildi. Universitet tashqi ishlar bilan shug‘ullanuvchi tashkilot va muassasalarni malakali kadrlar bilan ta‘minlovchi bilim dargohi bo‘lib qoldi. Shu bilan birga, respublikaning boshqa bir qator oliy o‘quv yurtlarida ham mutaxassis kadrlar tayyorlashi yo‘lga qo‘yildi.

Tashqi aloqalar muassasalarining xorijiy davlatlar bilan xalqaro aloqalari umum e‘tirof etilgan qoida va normalar asosida tashkil etildi. Xorijiy mamlakatlar bilan respublika diplomatik faoliyatining asosiy yo‘nalishlari: siyosiy munosabat va iqtisodiy aloqalar; ilmiy-texnikaviy aloqalar; madaniy aloqalar, turizm, sport va boshqa sohalaridagi xalqaro aloqalardan iborat. Respublika tashqi siyosatining asosini tinchlik, barqarorlik va hamkorlik tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- mafkuraviy qarashlardan qat’i nazar, hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish;
- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish;
- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
- inson huquqlari va erkinliklarini hurmat etish;
- ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umum e‘tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi;
- davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta‘minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo‘stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish;
- tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;
- davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi;

– tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik.

Tashqi siyosat tamoyillari uning asosiy maqsadini belgilashda metodologik manba vazifasini bajaradi. Tashqi siyosatning maqsadi davlatimizning mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, milliy manfaatlarni himoya qilish, mintaqadagi xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash, O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun qulay tashqi siyosatni shakllantirish, uning xalqaro obro‘cini mustahkamlashdan iborat.

O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy masalalari to‘g‘risida gapirar ekan Prezident Islom Karimov quyidagilarni ta‘kidladi: «Mintaqamizda va butun dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab geosiyosiy sharoitda bizning zimmamizda mamlakatimizning xavfsizligi va barqarorligini ta‘minlash, shu muqaddas zaminimizda hukm surayotgan tinch-osoyishta hayotni saqlash kabi bir-biridan mas‘uliyatli va keng ko‘lamli bir qator vazifalar borki, yurtimizning jondan aziz farzandlarimizning bugungi va ertangi kuni ana shu masalalarni qanchalik muvaffaqiyatli hal etishimizga bog‘liqdir»¹.

Prezidentimizning yuqorida bayon qilgan fikriga asosanib tashqi siyosatning asosiy vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin:

Birinchidan. yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatli va tenglikka asoslangan munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish va mustahkamlash. O‘zbekistonni jahon hamjamiyatiga izchil va har tomonlama integratsiyasi, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy sohalarda ochiq, konstruktiv xalqaro hamkorlikni amalga oshirish;

Ikkinchidan. O‘zbekiston rahbariyatining mintaqaviy va xalqaro masalalar bo‘yicha tashabbuslar bilan chiqishi;

Uchinchidan. Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlab qolish, mintaqani barqaror xavfsizlik zonasiga aylantirish bilan bog‘liq siyosiy-diplomatik, va xalqaro-huquqiy masalalarni hal etish. Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, millatlararo va boshqa masalalar bo‘yicha keskinlikning o‘z vaqtida oldini olish tadbirlarini qo‘llash, kengayib ketishiga va nizoli vaziyatlarni keskinlashuviga yo‘l qo‘ymaslik;

To‘rtinchidan. Respublikada amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlar, jamiyat va iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonining samaradorligini ta‘minlash.

¹ Каримов И.А. Жаҳон инкирозининг оқибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараккий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. Т.18. – Т. 2010.– Б.137.

O‘zbekistonning xalqaro maydonda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, demokratik taraqqiyot yo‘lini tanlaganligi va tinchliksevar siyosati, uning mustaqil davlat sifatida tan olinishini ta‘minladi. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini 180 dan ortiq davlat tan oldi. Hozir O‘zbekiston Respublikasida jahonning 150 ta davlati bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o‘rnatildi. Toshkentda 50 dan ortiq mamlakatning elchixonasi, 3 ta savdo vakolatxonasi, 10 ta xalqaro tashkilotlarning vakolatxonasi ish olib boradi. Respublikamizning xorijiy davlatlarda 50 dan ortiq elchixonasi, 11 ta bosh konsulxonasi mavjud. Respublikada 88 ta xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarining vakolatxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston 100 dan ortiq nufuzli xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar a‘zosi.

Demak, O‘zbekiston tashqi siyosati respublika manfaatlarini himoya qilish, jahon hamjamiyatida o‘rnatilgan tartib va qoidalarni to‘liq bajarish, ko‘p tomonlama va ikki tomonlama munosabatlarda o‘zaro manfaatdorlik tamoyiliga, davlat xavfsizligi va xalq farovonligini ta‘minlashga qaratilgan.

2-§. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik

O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga uyg‘unlashuvi (integratsiyasi)da aniq maqsadlar ilgari surilgan. Ular quyidagilardan iborat:

– respublikadagi siyosiy barqarorlikka chetdan tahdidlarni oldini olish va shu asosda demokratik huquqiy davlat qurish va xalq farovonligini ta‘minlash;

– barcha mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish orqali respublika iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb qilish, ilg‘or texnika va texnologiyalarni olib kirish, ilm-fan yutuqlarini joriy qilishga erishish;

– rivojlangan mamlakatlarning demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilish borasida ilg‘or tajribasini o‘zlashtirish;

– O‘zbekiston aholisining xorijiy davlatlar bilan bog‘liq madaniy, ma‘naviy ehtiyojlarini qondirish, o‘z yutuqlarimizni namoyish qilish uchun qulay sharoitlar tug‘dirish;

– O‘zbekistonning jahon bozoriga kirib borishi uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratish;

– O‘zbekistonni jahon hamjamiyatining teng huquqli subyektiga aylanishiga va nufuzining oshib borishiga erishish va hokazo.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri – bu, xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘lish va ular bilan hamkorlik

aloqalarini oʻrnatishdan iborat. 1992-yil 2-martda Oʻzbekiston Respublikasi nufuzli xalqaro tashkilot – Birlashgan Millatlar Tashkilotiga aʼzo boʻldi. Respublikamiz jahon hamjamiyatining teng huquqli aʼzosi boʻldi. 1993-yil 24-avgustda BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi ochildi. Oʻzbekiston nufuzli xalqaro tashkilotda ishtirok etish jarayonida uning minbaridan jahon hamjamiyati eʼtiborini milliy, mintaqaviy va global muammolarga qaratish va ularning hal etilishida faol ishtirokini taʼminlash kabi maqsadda foydalanib kelmoqda.

1993-yil 28-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida Prezident Islom Karimov nutq soʻzlab, bir qator takliflar bilan chiqdi. Ular quyidagilardan iborat: Markaziy Osiyoda davom etayotgan mojarolarning hal etilishida BMTning oʻrni va rolini oshirish maqsadida xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari boʻyicha BMTning doimiy ishlovchi seminarini chaqirish; jahon miqyosida turli mojarolar oʻchogʻining kengayib borayotganligi bois, BMTning ularni hal etilishidagi faoliyatini yanada kuchaytirish; BMT Xavfsizlik Kengashi huzurida yuzaga kelayotgan xalqaro mojarolarni tahlil qilish va istiqbolini belgilash boʻyicha maxsus guruh tashkil etish; Markaziy Osiyoni yadrosiz zona deb eʼlon qilish; Markaziy Osiyo mintaqasida kimyoviy va bakteriologik qurolning tarqatilishi ustidan xalqaro nazorat oʻrnatish; Markaziy Osiyoda narkobiznesga qarshi kurash mintaqaviy Komissiyasini tuzish; BMTning Orol dengizi muammolari bilan shugʻullanuvchi maxsus Komissiyasini tashkil etish; BMTning Xavfsizlik Kengashi tarkib topgan konservativ tuzilmasini qayta koʻrib chiqish¹.

Prezident Islom Karimovning BMT Bosh Assambleyasi sessiyalarida global va mintaqaviy muammolarni hal etish maqsadida xalqaro siyosatning dolzarb muammolari yuzasidan ilgari surgan muhim takliflari Oʻzbekistonning nufuzini yanada mustahkamladi. BMTning 50 yilligi munosabati bilan 1995-yil 24-oktabrda boʻlib oʻtgan Bosh Assambleyaning maxsus tantanali yigʻilishida Islom Karimov global muammolarni hal etish hamda BMTning ahamiyatini oshirish maqsadida bir qator takliflar bilan chiqdi. Ular quyidagilardan iborat: Afgʻonistondagi mojaroni bartaraf etish uchun tashqi kuchlarning uning ichki ishlariga aralashuvini toʻxtatish; Afgʻonistonga qurol-aslaha olib kirishni taqiqlash; Xavfsizlik Kengashi safini kengaytirib, unga Germaniya va Yaponiya davlatlarini kiritish; BMT Bosh kotibi vakolatlarini kengaytirish; BMTning xalqaro mintaqaviy tashkilotlar bilan oʻzaro munosabatini kuchaytirish².

¹ Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т.2. – Т., 1996. – Б. 52–57.

² Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. Т.4. – Т. 1996. – Б.57–58.

Prezident Islom Karimovning yuqorida qayd etilgan takliflari 2000-yil 8-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 55-sessiyasida yanada rivojlantirildi. Prezidentimiz quyidagi global muammolarni hal etish yuzasidan takliflar kiritdi: 30 yildan buyon davom etayotgan Afgʻoniston muammosini hal etishning muqobil yoʻllarini topish; Qirgʻizistonda yuz bergan fojiali voqyealar bois Markaziy Osiyo mintaqasidagi vaziyatni izdan chiqarish xavfining oldini olish uchun xolis va mustaqil xalqaro tekshiruvlarni oʻz vaqtida oʻtkazish; Markaziy Osiyoda ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelayotgan Orol muammosining hal etilishida BMTning faol ishtirok etishi; Oʻzbekistonda Ming yillik rivojlanish maqsadlarini amalga oshirilishini tahlil etish.

Oʻzbekiston nufuzli xalqaro tashkilot BMT bilan har tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga jiddiy eʼtibor berib kelmoqda. Qisqa vaqt davomida Oʻzbekiston BMTning oʻndan ortiq ixtisoslashtirilgan muassasalariga aʼzo boʻldi. 1995-yil 15-16-sentabrda BMT boshchiligidagi Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bagʻishlangan Toshkent seminar-kengashi boʻlib oʻtdi. Kengash yakunlari yuzasidan qabul qilingan Bayonot jahon xalqlarini, turli siyosiy kuchlarni mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga, iqtisodiy va ekologik hamkorlik tizimlarini barpo etishga chaqirdi.

1997-yil 15-16-sentabrda Toshkentda «Markaziy Osiyo – yadro qurolidan xoli zona» mavzuida xalqaro konferensiya boʻlib oʻtdi. Ushbu masala yuzasidan Markaziy Osiyo mamlakatlari tashqi ishlar vazirliklarining Bayonoti imzolandi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining mintaqadagi keskinlikni yumshatish, davlatlar oʻrtasida hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish toʻgʻrisidagi takliflari oʻz samarasini koʻrsatdi. BMT boshchiligidagi «6Q2» guruhi tuzildi. (Oʻzbekiston, XXR, Rossiya, Eron, Pokiston, Tojikiston, kuzatuvchi sifatida BMT, Birlashgan front va «Tolibon» harakati) Ushbu guruh 1999-yil iyul oyida Toshkentda uchrashuv oʻtkazdi. Uchrashuvning yakuni sifatida 19-iyulda «Afgʻonistondagi mojarolarni tinch yoʻl bilan hal etishning asosiy prinsiplari toʻgʻrisida»gi tarixiy hujjat imzolandi. 2000-yil oktabr oyida Toshkentda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, narkotik moddalar savdosi, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurash mavzuida xalqaro konferensiya boʻlib oʻtdi. Oʻzbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2001-yilda BMT Xavfsizlik Kengashining terrorizmga qarshi kurash boʻyicha maxsus qoʻmitasi taʼsis etildi.

Oʻzbekistonning BMTning taʼlim, fan va madaniyat ishlari bilan shugʻullanuvchi xalqaro tashkiloti – YUNESKO bilan hamkorligi rivojlanib bormoqda. 1993-yil 29-oktabrda Oʻzbekiston YUNESKOga aʼzolikka qabul

qilindi. YUNESKO bilan hamkorlikda 1994-yil oktabr' oyida Parijda Mirzo Ulug'bek haftaligi o'tkazildi. Xiva va Buxoro YUNESKOning jahon madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi. 1995-yil iyul oyida YUNESKO qaroriga binoan Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi. YUNESKO boshchiligida bir qator tadbirlar o'tdi: 1996-yil oktabrda Parijda Amir Temurga bag'ishlangan xalqaro anjuman tashkil etildi. Amir Temur tavallud topgan Shahrisabz shahri YUNESKOning madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi; 1997-yilda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik muborak sanalari Parijda nishonlandi, xalqaro anjuman va ko'rgazmalar o'tkazildi. O'zbekiston YUNESKODan tashqari BMT doirasida o'ndan ortiq ixtisoslashgan muassasalari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'ygan.

Dunyoda tinchlikni mustahkamlash va inson huquqlarini himoya qilishda xalqaro tashkilotlar qatorida Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti katta nufuzga ega. O'zbekiston 1992-yil fevral oyida YEXHTga a'zolikka qabul qilindi. O'zbekiston ushbu nufuzli tashkilotga a'zo bo'lishi bilan Yevropa davlatlari hamda AQSH va Kanada bilan har tomonlama hamkorlik qilishga keng yo'l ochildi. Prezident Islom Karimov YEXHT minbaridan tinchlik va barqarorlikka xavf soluvchi mintaqaviy mojarolarning oldini olish, tinchlik uchun kurash mexanizmlarini ishlab chiqish va boshqa mintaqaviy muammolarni hal etilishida foydalanib kelmoqda. 1996-yilning 2-3-dekabr kunlari Lissabonda YEXHTning navbatdagi sammitida O'zbekistonning mojarolar yuz berib turgan hududlarga yashirincha qurol-yarog' yetkazib berishni to'xtatish, YEXHTning Markaziy Osiyo faoliyatini kuchaytirishga oid takliflari ma'qullandi. 1999 yil noyabrda bo'lib o'tgan YEXHTning Istanbul sammitida Prezident Islom Karimovning terrorizmga qarshi kurash bo'yicha xalqaro markaz tuzish haqidagi taklifi ma'qullandi.

Markaziy Osiyo mintaqasida YEXHTning tinchlik va mamlakatlarning o'zaro hamkorligini kengaytirish maqsadidagi faoliyati samaralidir. Mazkur tashkilot tashabbusi bilan Toshkentda va Urganchda atrof muhitni qayta tiklash bo'yicha seminar o'tkazildi. U orol muammosini hal etishda ko'maklashmoqda. 1995-yil iyul oyidan Toshkentda YEXHTning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalari bo'yicha mintaqaviy byurosi faoliyat olib bormoqda.

1996-yil iyul oyida Yevropa Itgifoqi bilan sherikchilik va hamkorlik to'g'risida Bitim imzolandi. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalarni rivojlantirish imkoniyati yanada kengaydi.

1996-yilda Shanxayda Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston davlatlari ishtirokida «Shanxay beshligi» tashkiloti tuzilgan.

Tashkilotga a'zo davlatlarning hududi Yevroosiyo hududining 61 %ni tashkil etadi. Tashkilotning shtab – kvartirasi Pekinda joylashgan. 2000-yil 5-iyunda Dushanbe shahrida davlat boshliqlarining uchrashuvi (sammiti)da tashkilot «Shanxay forumi» deb nomlandi. O'zbekiston 2001-yil iyun oyida tashkilotga a'zo bo'ldi. Tashkilotning nomi Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) deb o'zgartirildi. Tashkilotga a'zo davlat rahbarlari yiliga bir necha marta to'planib (sammit) vakolati doirasidagi muammolar yuzasidan tegishli hujjatlar qabul qiladi. 2003-yil 29-may kuni bo'lib o'tgan Moskva sammitida tashkilotning doimiy amal qiluvchi idoralari – Pekinda Kotibiyat va Toshkentda Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi (MATT) ijroiya qo'mitasini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu tashkilotlar 2004-yil yanvardan boshlab ish boshladi.

Tashkilotga a'zo davlatlar tinchlik va havfsizlik, iqtisodiy hamkorlik, transport va kommunikatsiya tizimidan samarali foydalanish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarga qarshi kurash, terrorizm, separatizm va ekstremizm, narkotik moddalar va qurol-yarog'ning noqonuniy savdosi hamda transmilliy jinoyatlarga qarshi kurshda hamkorlik, fan, texnika, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport va turizm sohalarida hamkorlik qiladi.

Tashkilotning xalqaro miqyosda nufuzining ortib borayotganligi sababli uning a'zolari soni kengayib borayapti. 2005-yil 5-iyulda SHHTning Ostona sammitida Eron, Pokiston, Hindiston va Mo'g'uliston davlatlari kuzatuvchi maqomida tashkilot tarkibiga kirdi. 2007-yil 1-yanvardan tashkilotning Bosh kotibi lavozimi joriy etildi. Hozirgi kunda bu tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlarning soni 10 taga yetdi.

O'zbekiston iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va xalqaro tranzit yo'llarini rivojlantirish maqsadida GUUAM (Gruziya, Ukraina, O'zbekiston, Ozarboyjon va Moldova) tashkiloti (1993-yilda tuzilgan) bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Mamlakatimiz ushbu tashkilotga 1999-yil aprel oyida a'zolikka qabul qilingan. Tashkilot dasturida Buyuk Ipak yo'li bo'ylab joylashgan davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlik qilish va yangi tranzit savdo yo'llarini rivojlantirish belgilangan edi. GUUAM doirasida 1993-yilda qabul qilingan Yevropa-Kavkaz-Osiyo transport yo'lagini barpo etishni ko'zda tutuvchi TRASEKA loyihasini amalga oshirish belgilandi. Dastur Buyuk ipak yo'lini tiklash, mamlakatlar o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qildi. Bugungi kunda tashkilot faoliyatini to'xtatgan.

O'zbekiston xalqaro tashkilotlarning mintaqaviy dasturlarida faol ishtirok etadi. 1994-yil iyul oyida O'zbekiston NATOning «Tinchlik yo'lidagi hamkorlik» Dasturiga qo'shildi. Dastur doirasida yangi vujudga

kelgan davlatlarda zamonaviy qurollardan foydalanib mudofaa kuchlarini tashkil etish borasida tajriba almashiladi. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, NATO bilan hamkorlik qilish harbiy-siyosiy voqeyalardan xabardor bo'lib turish, bu uyushma doirasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar va ularni amaliyotda qo'llash usullaridan bahramand bo'lish uchun imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi Islom konferensiyasi tashkiloti (1996-yil 2-oktabrda a'zolikqa qabul qilingan), Qo'shilmaslik harakati (1992-yil 1-sentabr) kabi mintaqaviy tashkilotlarda faol ishtirok etadi. Qo'shilmaslik harakati Ikkinchi jahon urushidan keyin tashkil etilgan. Uning asosiy dasturiy talablari xalqaro kelishilmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal qilish, turli harbiy – siyosiy bloklarda qatnashmaslik, tinchliksevarlik mamlakatimiz tashqi siyosatining asosiy tamoyillariga mos keladi.

3-§. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi

MDH davlatlari bilan hamkorlik. O'zbekiston Sobiq Sovet davlati parchalanganidan keyin vujudga kelgan yangi davlatlar bilan o'zaro aloqalarni rivojlantirishga katta e'tibor beradi. 1991-yil 21-dekabrda Almati shahrida sobiq Sovet ittifoqi tarkibiga kirgan 11 davlat boshliqlari ishtirokida MDH tashkiloti tuzildi. Tashkilot ixtiyoriy iqtisodiy uyushma sifatida vujudga keldi. Tashkilot a'zolari o'rtasidagi o'zaro aloqalar tenglik asosida tuziladigan bitimlar doirasida faoliyat yuritadigan muvofiqlashtiruvchi muassasalar orqali amalga oshiriladi. Tashkilot dastlab sobiq Sovet davlati tarkibidagi respublikalar o'rtasidagi mavjud iqtisodiy integratsiyani saqlab qolib, ularning iqtisodiyotini og'ir inqirozga duchor bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, harbiy hamjamiyatni shakllantirish va boshqa maqsadlarda tuzilgan edi. Bugungi kunda tashkilot doirasidagi hamkorlikning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: tashkilot a'zolarining tashqi siyosatni muvofiqlashtirish, mudofaa siyosati va tashqi chegaralarni muhofaza qilish; umumiy iqtisodiy muhitni shakllantirish; iqtisodiy islohotlarni o'tkazish; bojxona siyosatini olib borish; transport, aloqa va energetik tizimini rivojlantirish; atrof-muhit va ekologik xavfsizlikni saqlash; uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish.

Hamdo'stlikning oliy organi «Davlat boshliqlari kengashi», bir yilda kamida ikki marta chaqiriladi. Kengashlar orasida tashkilot faoliyatiga doir masalalar bilan doimiy faoliyat yurituvchi «Muvofiqlashtiruvchi konsultativ qo'mita» shug'ullanadi. Qo'mitaning qarorgohi Minsk shahrida joylashgan.

MDH sammitlarida hamdo'stlik faoliyatini takomillashtirish va unda qabul qilingan hujjatlarni hayotga tatbiq etish samaradorligini oshirish

doimiy diqqat markazida turadi. Hamdo'stlik doirasida integratsiyaning yangi yo'nalishlari vujudga keltirildi. 2004-yil sentabr oyidagi Qozog'iston poytaxti Ostonada bo'lib o'tgan sammitda terrorizmga qarshi kurash bo'yicha «Xavfsizlik Kengashi»ni tuzishga qaror qilindi. MDH doirasida Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (ODKB) va Yevroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyati (YevrAzES) tuzildi.

MDH tashkiloti faoliyatida turli to'siqlar yuzaga kelgan. Ular qatorida eng asosiysi tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik va madaniy aloqalarni rivojlantirish muammolari hal etilmaganligini qayd etish zarur.

Mamlakatimiz MDH doirasida ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga harakat qiladi. MDH doirasida O'zbekistonning eng yirik hamkori Rossiya hisoblanadi. 1992-yil mart oyida Rossiya bilan diplomatik aloqalar o'rnatildi. Davlat boshliqlarining o'zaro rasmiy tashriflari natijasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish, harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlik, xavfsizlik, xalqaro terrorchilikka qarshi birgalikda kurashish, madaniyat, fan va texnika, ta'lim, sog'liqni saqlash, axborot, sport va turizm sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitimlar imzolandi. 2004-yil 16-iyunda O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida strategik sherikchilik to'g'risida bitim imzolandi. Ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yo'lga qo'yishda yuqori darajadagi o'zaro uchrashuvlar muhim ahamiyatga ega. Keyingi 5-6 yil davomida 20 marta yuqori darajadagi uchrashuvlar bo'lib o'tdi.

O'zbekistonning Rossiya bilan 2010-yilda savdo aylanmasi 6377 mln. AQSH dollariga yetdi. O'zbekiston Rossiyadan mashinalar va uskunalar, kimyo mahsulotlari va plastmassa, qora metall va boshqa tovarlar sotib oladi. Rossiyaga turli mashina va uskunalar, paxta tolasi, xizmatlar, oziq-ovqat tovarlari eksport qilinadi. Ikki davlat o'rtasidagi aloqalar o'zaro hurmat va teng huquqlilik asosida rivojlanmoqda.

O'zbekiston bilan Ukraina Respublikasi o'rtasidagi aloqalar 1992-yil avgust oyida Prezident Islom Karimovning Kiyev shahriga rasmiy tashrifidan boshlangan. O'zbekiston bilan Ukraina o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnomalar imzolandi. O'zaro savdo hajmi 1992-yildagi 20 mln. AQSH dollaridan 2003-yilda 280 mln. AQSH dollariga yetdi. O'zbekiston Ukrainaga aviatsiya, kimyo va yengil sanoat mollari, paxta tolasi, rangli metallar, gaz eksport qilayapti. Ukrainadan gaz va neft konlarini o'zlashtirishda zarur bo'lgan texnika uskunolari, qora metallurgiya, kimyo sanoati mollari, shakar, pista yog'i va boshqa mahsulotlar import kilinmoqda. O'zbekistonda Ukraina investitsiyalari ishtirokida 20 ta qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston bilan Belarus Respublikasi o'rtasidagi davlatlararo aloqalar 1991-yil 6 noyabrda o'rnatilgan. Bunda davlatlararo munosabatlarining asoslari to'g'risida shartnoma imzolangan. Ikki davlat o'rtasidagi aloqalar o'zaro hurmat, tenglik va manfaatdorlik asosida tashkil etilgan.

O'zbekiston bilan Moldova Respublikasi o'rtasidagi o'zaro aloqalar 1995-yil 30-31-martda Prezident Islom Karimovning respublikaga rasmiy safari bilan o'rnatildi. O'zbekiston va Moldova o'rtasida hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. O'zbekiston Moldovadan shakar, doridarmon, qishloq xo'jalik texnikasi, elektrotexnika asbob-uskunalar, sug'orish uskunalar olib keladi. Moldovaga paxta, kimyoviy tola, qattiq metallar eksport qilinadi.

1995-yil 5-sentabrda Gruziya davlat rahbari Eduard Shevarnadzening rasmiy tashrifi bilan ikki davlat o'rtasidagi rasmiy aloqalar qayta tiklandi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 1996-yil may oyida Gruziyaga rasmiy tashrifi bilan o'zaro hamkorlik aloqalari yanada kengaytirildi. Islom Karimovning safari chog'ida xalqaro Transkavkaz yo'li, uning Gruziyadan o'tadigan qismini barpo etish, Gruziyaning Poti bandargohi imkoniyatlaridan O'zbekiston yuklarini tashishda foydalanish masalalari bo'yicha ahdlashib olindi.

O'zbekiston qardosh Ozarboyjon Respublikasi bilan aloqalarni yo'lga qo'yishga katta e'tibor beradi. 1996-yil 27-may kuni Islom Karimov boshchiligidagi O'zbekiston davlat delegatsiyasi Ozarbayjonda bo'ldi. Ikki davlat Prezidentlari O'zbekiston bilan Ozarbayjon o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzoladilar. O'zaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishda Transkavkaz yo'lini barpo etishga katta e'tibor berildi. Ozarbayjon tomoni yo'lining o'z hududidan o'tadigan qismini shakllantirishi, O'zbekiston yuklarini Ozarbayjon hududi orqali Yevropa tomon chiqarish, Ozarbayjon bandargohlarini ta'mirlash masalalari to'g'risida kelishib oldilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1995-yil 6-8-iyun kunlarda Latviya Respublikasiga tashrifi bilan ikki davlat o'rtasida rasmiy aloqalar o'rnatildi. O'zaro hamkorlik aloqalari natijasida Latviyadan elektr mashinalari, uskunalar va ularning ehtiyot qismlari, efir moyi, qora metall import qilinadi. Latviyaga rangli metallar, ipak, paxta va boshqa mahsulotlar eksport qilinadi.

Prezident Islom Karimov 1995 yil iyun oyida Boltiqbo'yi davlatlaridan biri Litvaga tashrif buyurdi. Ikki davlat o'rtasida hamkorlik aloqalari o'rnatildi. Litvadan O'zbekistonga elektr uskunalar va ularning ehtiyot qismlari, sut va sut mahsulotlari, mebel sanoati mahsulotlari import qilinadi. Litva O'zbekistondan paxta, neft, rangli metallar kabi mahsulotlarni eksport qiladi.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik aloqalari. O'zbekiston qo'shni davlatlar bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga katta e'tibor berib kelgan. Bunday aloqalar bir tomonlama va ko'p tomonlama shaklda olib boriladi. Ko'p tomonlama aloqalar 1993-yil Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Almatida bo'lib o'tgan uchrashuvidan so'ng Markaziy Osiyo hamdo'stligi tashkil etilganidan keyin dinamik asosda rivojlandi.

Hamdo'stlikka a'zo davlatlar milliy mudofaa, ilmiy texnika taraqqiyoti yutuqlari va aloqa vositalari, yangi texnologiyalar, tranzit yuk tashish, tabiiy ofatlarga qarshi birgalikda kurashish, ekologiya muammolarini bartaraf etishda hamkorlik qilish va boshqa sohalarda bitimlar imzoladilar.

1994 yil 10 yanvarda Qozog'iston Prezidenti Nursulton Nazarboyevning O'zbekistonga tashrifi davomida har ikki davlat rahbarlari tomonidan «Yagona iqtisodiy hudud» barpo etish to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Shartnomada davlatlar o'rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarining erkin o'tib turishini nazarda tutuvchi hamda o'zaro kelishilgan kredit, hisob-kitob, budget, soliq, narx, boj va valuta siyosatini ta'minlovchi yagona iqtisodiy makon tashkil etishga kelishib olindi. Mazkur shartnomaga Qirg'iziston keyinchalik Tojikiston ham qo'shildi.

1994 yil Almati kengashida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston prezidentlari Markaziy Osiyo hamdo'stligi tashkilotining Davlatlararo Kengashi hamda uning doimiy ijroiya tashkiloti, Bosh vazirlar kengashi, Tashqi ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi kengashlari ta'sis etildi.

Tashkilot a'zolari iqtisodiy integratsiyani yanada kengaytirish maqsadida mintaqaviy ahamiyatga ega loyihalar dasturlarni qabul qildilar. Tashkilot doirasida 53 ta loyiha ishlab chiqildi va ularni amalga oshirish uchun sarmoyalar ajratildi. Loyihalarning bajarilishi mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlik doirasini kengaytirdi. Shu bois 2001-yil 28-dekabr kuni Toshkentda MOIH davlat boshliqlarining navbatdagi kengashida tashkilotning faoliyatini to'xtatishga qaror qilindi. Prezident Islom Karimovning taklifi bilan Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati negzida Markaziy Osiyo Hamkorlik tashkilotini tuzishga kelishib olindi. 2002-yil Almati shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvida prezidentlar Markaziy Osiyo Hamkorlik tashkilotini ta'sis etish to'g'risida shartnomani imzoladilar. Tashkilot iqtisodiy masalalar bilan birga siyosiy-ijtimoiy, madaniy, texnikaviy va boshqa aloqa turlarini kengaytirish masalalari bilan shug'ullanadigan bo'ldi.

O'zbekiston MOH doirasida Qozog'iston bilan ko'p tomonlama va davlat rahbarlarining ikki tomonlama uchrashuvlari shaklida hamkorlik

aloqalarini olib boradi. 1992-yil 24-iyunda Prezident Islom Karimovning Qozog‘istonga rasmiy tashrifi paytida davlatlar o‘rtasida rasmiy hamkorlik aloqalari o‘rnatildi. O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risida shartnoma tuzildi. Bugungi kunda Qozog‘iston bilan chegaralar to‘g‘risidagi dolzarb masalalar huquqiy jihatdan o‘z yechimini topgan. Ikki mamlakat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi yildan-yilga o‘sib borayapti. O‘zbekistonning mintaqadagi davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarining teng yarmi uning hissasiga to‘g‘ri keladi. Qozog‘iston bilan 2009-yilda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 1,3 milliard AQSH dollarini tashkil etdi.

O‘zbekiston bilan Qirg‘iziston o‘rtasidagi rasmiy aloqalar 1992-yil 29-sentabrda Qirg‘iziston Respublikasi prezidenti Askar Akayevning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi bilan boshlandi. Ikki davlat o‘rtasida do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro yordam haqida shartnoma imzolandi. 1994-yil 16-yanvarda Prezident Islom Karimovning Qirg‘izistonga rasmiy tashrifi yakunida xizmatlar, sarmoya, ishchi kuchlarining erkin aylanishi, o‘zaro kelishilgan kredit hisob – kitob, budjet, soliq, narx, bojxona va valuta siyosatini belgilovchi shartnomalar imzolandi. 2000-yilda O‘zbekistonda 22 ta o‘zbek-qirg‘iz qo‘shma korxonasi, Qirg‘izistonda 62 ta qirg‘iz-o‘zbek qo‘shma korxonasi faoliyat olib borgan.

Tojikiston bilan rasmiy aloqalarning rivojlanishiga 1992 – 1996-yillarda mamlakatdagi fuqarolar urushi salbiy ta‘sir etdi. O‘zbekiston mojaro davrida xalqaro huquq normalari talablari asosida Tojikiston hukumati bilan hamkorlik munosabatlarini tashkil etdi. 1998-yil 4-yanvar kuni Tojikiston Prezidentining O‘zbekistonga rasmiy tashrifi bilan o‘zaro rasmiy aloqalar yo‘lga qo‘yildi. Davlat rahbarlari sog‘liqni saqlash, madaniyat va gumanitar soha, fan, texnika, kommunikatsiya vositalarini rivojlantirish bo‘yicha shartnomalar imzoladilar.

1991 yilda O‘zbekiston va Turkmaniston Prezidentlarining uchra-shuvida savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishni nazarda tutuvchi shartnomalar imzolandi. 1996 yil 16 yanvar kuni Prezident Islom Karimovning Turkmaniston Respublikasiga rasmiy tashrifida ikki davlat o‘rtasida do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro yordam to‘g‘risida shartnoma, davlat chegaralarini qo‘riqlash to‘g‘risidagi hamkorlik va suv ho‘jaligi masalalari bo‘yicha bitimlar imzolandi. Bugungi kunda o‘zaro aloqalarni rivojlantirish maqsadida 20 dan ortiq shartnoma va bitimlar tuzilgan. Ikki tomon o‘rtasidagi savdo aloqalari barqaror o‘sib borayapti. 2011-yilda bu ko‘rsatkich 454,3 mln. dollarni tashkil etdi. O‘zbekistonda turkman kapitali ishtirokida 7 ta qo‘shma korxonalar faoliyat olib borgan. Turkmanistonda 6 ta

korxonalar O‘zbekiston kapitali ishtirokida tashkil etilgan. Iqtisodiy aloqalarda neft-gaz tarmog‘idagi hamkorlik muhim o‘rin egallamoqda.

O‘zbekistonning Osiyo mamlakatlari bilan o‘zaro aloqalari. Yaqin va O‘rta sharq davlatlari xalqlari bilan O‘zbekiston aholisining dini, urf-odatlari va an‘analari o‘xshashligi bog‘lab turadi. Mamlakatimiz mustaqilligini birinchi bo‘lib tan olgan mamlakat – Turkiya bo‘ldi. 1991-yil 16-19-dekabr kunlari Prezident Islom Karimov boshliq O‘zbekiston davlat delegatsiyasi Turkiyaga rasmiy tashrif buyurdi. Ikki davlat rahbarlari muzokaralarda davlatlararo munosabatlarning asoslari va maqsadlari to‘g‘risida shartnoma va boshqa hujjatlar imzoladilar. Qardosh xalqlar o‘rtasidagi hamkorlik tobora rivojlanib bormoqda. O‘zbekistonda Turkiya sarmoyadorlari ishtirokida 200 dan ortiq qo‘shma korxonalar faoliyat yuritmoqda.

1992-yil 27-28-iyun kunlari Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Muhammad Navoz Sharifning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi o‘zaro aloqalarni boshlab berdi. Hukumat rahbarlari o‘rtasidagi muzokaralarda «O‘zbekiston Respublikasi bilan Pokiston Islom Respublikasi o‘rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik prinsiplari to‘g‘risida» shartnoma va boshqa bitimlar imzolandi. O‘zbekiston Pokistonga charm xomashyosi, pilla, shoyi matolar, shisha, billur, yengil sanoat uchun mashina va uskunalar eksport qilmoqda. Pokistondan esa xalq iste‘moli mollari, xususan, tayyor kiyimlar, poyafzal, charm buyumlar, kakao va shakar import qiladi.

1992 yil 24-25 noyabr kunlari respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning Eron Islom Respublikasiga rasmiy davlat tashrifi O‘zbekiston va Eron o‘rtasida davlatlararo aloqalarga asos soldi. Safar chog‘ida «O‘zbekiston Respublikasi bilan Eron Islom Respublikasi o‘rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari to‘g‘risida» Deklaratsiya va boshqa hujjatlar imzolandi. 1993 yil 18 oktabrda Eron Prezidenti Ali Akbar Xoshimiy Rafsanjoniyning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi bilan kelishi ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalarning yanada kengayishiga ko‘maklashdi. Safar chog‘ida tranzit aloqalarni tartibga solish to‘g‘risida hamda xalqaro avtomobil qatnovi to‘g‘risida bitimlar imzolandi.

2001-yili O‘zbekiston Eron hududi orqali 487 ming tonna tranzit yuklarni olib o‘tgan bo‘lsa, Eron O‘zbekiston hududi orqali 750 ming tonna yuklarni olib o‘tgan. 2006-yilda ikki davlat o‘rtasidagi tovarlar aylanmasi 658,5 mln. dollarni tashkil etgan. O‘zbekiston 582,7 mln. dollar miqdorida ijobiy saldoga ega bo‘lgan. O‘zbekistonda 89 qo‘shma korxonalar faoliyat olib borgan, shu jumladan 23 ta korxonalar yuz foiz eron kapitali hisobiga tashkil etilgan.

Saudiya Arabistoni va Misr Arab Respublikasi bilan davlatlararo munosabatlar asoslari to'g'risida shartnomalar tuzildi. Iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik bitimlari imzolandi. 1992 yilda O'zbekiston Pokiston, Eron va Turkiya tomonidan tuzilgan iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (YEKO) ga a'zo bo'lib kirdi.

O'zbekistonning Hindiston bilan aloqalari. 1993 yil 23-25 may kunlari Hindiston Bosh vaziri Narasimxa Rao davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi. Ikki davlat delegatsiyalari o'rtasida bo'lib o'tgan muzokaralarda «O'zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik prinsiplari to'g'risida» shartnoma, foyda va mulkka ikki yoqlama soliq solmaslik to'g'risida, havo yo'llari to'g'risida va savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi. Davlat tashriflari asosida imzolangan iqtisodiy sohaga oid hujjatlarning umumiy qiymati 2,2 milliard AQSH dollaridan oshadi.

O'zbekiston va Xitoy aloqalari. O'zbekiston Respublikasining XXR bilan rasmiy aloqalari 1992 yil 2-3 yanvar kunlari XXR tashqi iqtisodiy aloqa va tashqi savdo vaziri Li Lanzin Toshkentga rasmiy tashrifi bilan o'rnatildi. Rasmiy aloqalar faol davom ettirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov XXRga bir necha marta rasmiy tashrif buyurgan. O'z navbatida, XXR Davlat Kengashi raisi Li Pen (1994-yil 18-20-aprel), Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Xu Szintao (2004-yil 14-iyun, 2010-yil 9-iyun) O'zbekistonga tashrif buyurgan. Davlat delegatsiyalarining rasmiy tashriflarida manfaatli hamkorlik aloqalari o'rnatildi. Xitoy O'zbekistonda neft gaz sohasida geologik qidiruv ishlarini olib bormoqda. O'zaro tovar ayirboshlash 2010-yilda 2085,3 milliard AQSH dollaridan oshdi. O'zbekistonda Xitoyning investitsiyalari asosida 347 ta korxonalar faoliyat yuritayapti. Markaziy Osiyo – Xitoy gaz quvuri ishga tushirildi.

O'zbekiston va Janubiy Koreya hamkorligi. O'zbekiston va Janubiy Koreya Respublikasini o'zaro do'stlik va xalqlarimizning tarixiy-ma'naviy yaqinligi bog'lab turadi. 1992-yil mart oyida ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqa o'rnatilgan. Prezident Islom Karimovning 1992-yil 19-iyunda Janubiy Koreyaga davlat tashrifida «O'zbekiston bilan Janubiy Koreya o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik asoslari to'g'risida» Deklaratsiya imzolandi. Janubiy Koreyadagi DEU Korporatsiyasi rahbariyati bilan Asakada avtomobil zavodi qurishga kelishib olindi. «O'zDEUavto» zavodi 1996-yil 25-mart ishga tushirildi.

2006-yilda ikki davlat delegatsiyalari o'rtasida Strategik sheriklik to'g'risida imzolangan qo'shma deklaratsiya o'zaro manfaatli hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi. Janubiy Koreyaning mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyasi 2 milliard AQSH dollaridan oshdi. Neft-

gaz, konchilik, neft kimyosi, logistika, qurilish sohalarida yirik loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilgan. O'zaro tovar ayirboshlash hajmi 2010 yilda 1,614 milliard dollarni tashkil etdi. Janubiy Koreya ishbilarmonlari ishtirokida O'zbekistonda 351 qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu mamlakatning 91 firma va kompaniyasi O'zbekistonda o'z vakolatxonasini ochgan.

O'zbekiston va Yaponiya aloqalari. 1991-yilda Yaponiya O'zbekistonning mustaqilligini tan oldi. 1992-yilda o'zaro diplomatik aloqalar o'rnatildi. 1994-yil 16-19-may kunlari O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov boshliq davlat delegatsiyasining Yaponiyaga rasmiy tashrifida «O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasida munosabatlarning asosiy prinsiplari haqida» qo'shma bayonot, tashqi ishlar bo'yicha munosabatlar haqida hujjat imzolandi. Yaponiya moliya tashkilotlari O'zbekistonga imtiyozli kreditlar berishni yo'lga qo'ygan. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 2002-yil 28-31-iyul kunlari Yaponiyaga rasmiy tashrifida «Do'stlik, strategik sheriklik va hamkorlik to'g'risida Qo'shma Bayonot», «Iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va O'zbekistondagi islohotlarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida Qo'shma Bayonot», «Ikki mamlakat Tashqi ishlar vazirliklari hamkorligi» va boshqa jami 15 ta hujjat imzolandi. Safar natijasida O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasidagi hamkorlik yangi, strategik bosqichga ko'tarildi.

1995-2002-yillarda Yaponiyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan kreditlari miqdori 1,6 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. Yaponiya kompaniyalari ishtirokida Buxoro neftni qayta ishlash zavodini qurish, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi va Toshkent vagon ta'mirlash zavodini rekonstruksiya qilish kabi yirik infratuzilmaviy loyihalar amalga oshirildi, O'zbekistonning tarixiy shaharlari – Samarqand, Buxoro va Urganch aeroportlari modernizatsiya qilindi, mamlakat telekommunikatsiya tarmoqlari raqamli tizimga o'tkazildi. Toshguzar – Boysun – Qumqo'rg'on yo'nalishi bo'yicha zamonaviy temir yo'l magistrali barpo etildi. Samarqand shahrida «Isuzu», va «Itochu» kompaniyalari bilan tuzilgan avtobuslar va yuk mashinalari ishlab chiqaradigan qo'shma korxonalar, shuningdek, aksiyalar paketiga «Sumitomo Korporeyshn» egalik qiladigan telekommunikatsiya sohasida xizmat ko'rsatuvchi kompaniya muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Bugungi kunda Yaponiya kapitali ishtirokida 10 dan ortiq qo'shma korxonalar tuzilgan.

«Taraqqiyotga rasmiy yordam» dasturi doirasida Qarshi-Termiz temir yo'li uchastkasini elektrlashtirish loyihasini amalga oshirish uchun O'zbekistonga uzoq muddatli imtiyozli kredit ajratish (2011-yil fevral) va boshqa maqsadlarda investitsiyalar kiritish to'g'risida kelishib olindi.

O‘zbekistonning Tinch okeani havzasi mamlakatlari bilan hamkorligi. O‘zbekiston Malayziya va Indoneziya davlatlari bilan manfaatli hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga katta e‘tibor beradi. Prezident Islom Karimov boshliq davlat delegatsiyasi 1992-yil iyun oyida Malayziya va Indoneziyaga rasmiy safar qildi. Safar kunlarida O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasida iqtisodiy va texnikaviy hamkorlik to‘g‘risida bitimlar imzolandi. Shuningdek, O‘zbekiston va Indoneziya o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatish bo‘yicha qo‘shma axborot, ikki tomonlama munosabatlar bo‘yicha qo‘shma bayonot, iqtisodiy va texnikaviy hamkorlik to‘g‘risida bitim imzolandi.

O‘zbekistonda malayziyalik sarmoyadorlar ishtirokida tashkil etilgan 23 ta qo‘shma korxonalar ishlab turibdi. Indoneziyalik sarmoyadorlar «Uzbekistan International» (telekommunikatsiya sohasida marketing xizmati), «PT Hikman Albros» (mehmonxona xizmati) kabi qo‘shma korxonalar tashkil etgan. O‘zbekistondan Indoneziyaga plastmassa va plastmassa buyumlar, paxta tolasi, meva-sabzavot kabi mahsulotlar eksport qilinadi. Indoneziyadan esa mamlakatimizga mexanik va elektron uskunalari, qora metall, oziq-ovqat mahsulotlari keltiriladi.

O‘zbekistonning Osiyo va Okeaniya mintaqasidagi Vyetnam Sotsialistik Respublikasi, Kambodja, Tailand, Avstraliya va boshqa mamlakatlar bilan siyosiy-diplomatik aloqalari yo‘lga qo‘yildi, iqtisodiy va madaniy hamkorligi rivojlanib bormoqda.

O‘zbekistonning AQSH va Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligi. ***O‘zbekiston va AQSH aloqalari.*** 1992 yil 15-16 fevral kunlari ikki davlat o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatildi. 1992-yil 16- mart kuni Toshkentda birinchi bo‘lib AQShning elchixonasi ochildi. Prezident Islom Karimovning AQSH ishbiroq doiralari vakillari bilan 1993-yil oktabr oyida Nyu-York shahridagi uchrashuvda ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalar o‘rnatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1996-yil 23-28-iyunda Amerika Qo‘shma Shtatlariga tashrifi O‘zbekiston-Amerika hamkorligida yangi sahifa ochdi. Tashrif davomida AQSH Prezidenti Bill Klinton, Moliya vaziri D. Rubin, AQSH Eksimbanki xorijdagi xususiy investitsiyalar korporatsiyasi (OPIK) rahbariyati bilan samarali muloqot bo‘lib o‘tdi. 1996-yil 25-iyun kuni O‘zbekistonning AQSH dagi elchixonasi ochildi.

O‘zbekistonda AQShning 28 ta kompaniya, firma va banki o‘z vakolatxonalarini ochgan. Bular qo‘shma korxonalar barpo etish, savdo-sotiqni kengaytirish ishiga ko‘maklashmoqda. O‘zbekistonning AQSH bilan savdo aylanmasi 300 mln. AQSH dollaridan oshdi.

2002-yil 11-14-mart kunlari O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov boshliq davlat delegatsiyasi rasmiy davlat tashrifi bilan AQSH da bo‘ldi.

Davlat delegatsiyalari o‘rtasidagi muzokaralar yakunida «O‘zbekiston bilan AQSH o‘rtasida o‘zaro sheriklik va hamkorlik asoslari to‘g‘risida deklaratsiya», ilmiy-texnikaviy tadqiqotlar, yadroviy materiallar va texnologiyalar tarqalishining oldini olishda hamkorlik, moliya, qishloq xo‘jaligiga oid qator hujjatlar imzolandi. Prezident Islom Karimovga Amerika jamoatchiligi tomonidan «Xalqaro miqyosdagi buyuk davlat arbobi» mukofoti berildi. Bugungi kunda O‘zbekiston va AQSH strategik hamkor va sherik mamlakatlardir.

O‘zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligi. 1996-yil 21-iyunda O‘zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasida Florensiya shahrida «Sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim» imzolandi. Bitim O‘zbekiston bilan Yevropa Ittifoqiga a‘zo davlatlar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirishning huquqiy asosi bo‘ldi. 1995-2002-yillarda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining firma va kompaniyalari respublikamizda umumiy qiymati qariyb 8 mlrd. AQSH dollarlik yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirishda qatnashdi.

O‘zbekiston Yevropa Ittifoqi a‘zosi bo‘lgan davlatlar bilan ikki tarafdin aloqalarni yo‘lga qo‘ygan. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov 1993-yil 28-aprel -2-may kunlarida Germaniyaga rasmiy tashrifida O‘zbekiston bilan Germaniya o‘rtasida madaniy hamkorlik to‘g‘risida, sarmoyalar qo‘yishni amalga oshirish va o‘zaro himoya qilishga ko‘maklashish to‘g‘risida, ilmiy tadqiqotlar va mutaxassislar fondini tashkil etish to‘g‘risida bitimlar imzolandi. 1994-yil 1-sentabrda Bonn shahrida O‘zbekiston Respublikasining Yevropada birinchi elchixonasi ochildi. Elchixonasi O‘zbekistonning ishbiroqlarini Germaniyaning yirik banklari va firmalari bilan manfaatli hamkorlik o‘rnatishlariga yaqindan yordam berayapti. Germaniya firmalari bilan savdo aylanmasi 2001-yilda 283,3 mln. AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2010-yilda 482,9 mln. AQSH dollariga yetdi. O‘zbekistonda 114 ta korxonalar Germaniyalik investorlar, shu jumladan yuz foiz nemis kapitalida faoliyat olib borayapti. Moliyaviy va texnik xamkorlikning umumiy qiymati 298,9 mln. yevroga yetgan. Bugungi kunda Germaniya Federativ Respublikasi O‘zbekistonning Yevropadagi eng yirik iqtisodiy hamkoridir.

1993-yil 28-30-oktabr kunlari Prezident Islom Karimov rahbarligidagi O‘zbekiston delegatsiyasi Fransiyaga rasmiy tashrif bilan bordi. Safar natijasida «O‘zbekiston Respublikasi va Fransiya Respublikasi o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risida shartnoma», madaniyat, ilmiy-texnikaviy va maorif sohasida hamkorlik qilish to‘g‘risida bitim, sarmoyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoyalash to‘g‘risida bitim imzolandi. 1994-yil 25-27-aprel kunlari Fransiya Prezidenti F.Mitteranning javob tashrifida

O'zbekiston va Fransiya o'rtasida fuqarolarning erkin harakati haqidagi bitimlar, shuningdek havo transporti sohasida hamkorlik to'g'risidagi deklaratsiyalar imzolandi. Fransiya bilan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, oziq-ovqat, neft va gaz sanoati, qurilish va boshqa sohalarda hamkorlik qilinmoqda.

O'zbekiston bilan Buyuk Britaniya o'rtasidagi hamkorlik 1993-yil 22-25-noyabr kunlari Prezident Islom Karimov boshliq respublikamiz delegatsiyasining rasmiy amaliy tashrifi bilan rasman yo'lga qo'yildi. 1996-yilda Yevropa Ittifoqi Kengashi bilan O'zbekiston o'rtasida sheriklik va hamkorlik bitimi imzolandi. O'zbekiston Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan 15 davlat bilan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, investitsiya, moliya, bojxona, ilm-fan, madaniyat, tibbiyot, telekommunikatsiya, transport va boshqa sohalarda sheriklik va hamkorlik munosabatlari o'rnatdi. O'zbekiston Oliy Majlisi bilan Yevroparlament o'rtasidagi aloqalar 1998-yilda tuzilgan hamkorlik qo'mitasi darajasida kengayib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston mustaqillikdan keyin o'zining tinchliksevar, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi.

MUNDARIJA

SO'Z BOSHI.....	3
-----------------	---

I bob.

O'ZBEKISTON TARIXI FANINING PREDMETI, NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA AHAMIYATI

1-§. O'zbekiston tarixi fanining predmeti va vazifalari.....	5
2-§. O'zbekiston tarixini o'rganishning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslari	7
3-§. O'zbekiston tarixini o'rganishning asosiy manbalari va uni davrlashtirish.....	9
4-§. O'zbekiston tarixini o'rganishning ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatidagi o'rni.....	11
5-§. Prezident Islom Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida O'zbekistonning yangi tarixini yaratish vazifasining qo'yilishi.....	12
6-§. Islom Karimov yuksak ma'naviyatni shakllantirishda tarix fanining roli to'g'risida («Yuksak ma'naviyat— yengilmas kuch» asari asosida).....	14

II bob.

O'ZBEKISTONDA DAVLATCHILIKKA O'TISH DAVRI. ILK DAVLAT UYUSHMALARI

1-§. O'zbekiston hududida ibtidoiy jamiyat.....	16
2-§. O'zbekistonda davlatchilik shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari (shahar-davlatlar) va ilk davlat birlashmalari.....	22
3-§. Markaziy Osiyo xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi ozodlik kurashi.....	24

III bob.

O'ZBEK XALQINING ETNIK SHAKLLANISHI

1-§. O'zbek xalqining shakllanishini o'rganishning tarixiy, ma'naviy, siyosiy ahamiyati.....	29
2-§. Kishilar birligining tarixiy shakllari (qabila, elat, xalq) va millat tushunchalarining mazmuni.....	30
3-§. Miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalaridan milodiy VIII asrgacha bo'lgan davrda Markaziy Osiyoda yuz bergan siyosiy va etnik jarayonlar.....	31
4-§. Milliy davlat chegaralanishining o'tkazilishi va uning o'zbek xalqining shakllanishiga ta'siri.....	37
5-§. O'zbekiston Respublikasining etnik siyosati va yangi ko'pmillatli ijtimoiy birlikning shakllanishi.....	38

IV bob.
I-VII ASRLARDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI

1-§. Kushon davlati.....	43
2-§. Eftalitlar davlati	44
3-§. Turk hoqonligi	47
4-§. Madaniy hayot va diniy e'tiqodlar	49

V bob.
IX-XII ASR BOSHLARIDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI. SIYOSIY, IJTIMOYIY- IQTISODIY HAYOT

1-§. Arab istilochilarining Markaziy Osiyoga yurishi	53
2-§. Arablar istibdodiga qarshi Movarounnahr xalqlarining ozodlik kurashi va uning oqibatlari	56
3-§. Markaziy Osiyo hududida markazlashgan davlatlarning vujudga kelishi	58

VI bob.
MARKAZIY OSIYO XALQLARI HAYOTIDA IX-XII ASRLARDA YUZ BERGAN BUYUK UYG'ONISH (RENESSANS) DAVRI

1-§. Uyg'onish davrining jahon sivilizatsiyasiga ta'siri	69
2-§. IX–XII asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-fan ravnaqi	71

VII bob.
MO'G'ULLAR ISTILOSI VA ZULMIGA QARSHI KURASH. JALOLIDDIN MANGUBERDI

1-§. Mo'g'ullar davlatinig vujudga kelishi	83
2-§. Mo'g'ullar hujumi arafasida Xorazmshohlar davlati	84
3-§. Mo'g'ullar bosqiniga qarshi kurash	86
4-§. Movarounnahr Chig'atoy ulusi tarkibida	90

VIII bob.
AMIR TEMUR DAVRIDA O'ZBEK DAVLATCHILIGINING YUKSALISHI IJTIMOYIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

1-§. Movarounnahrda markazlashgan davlatning vujudga kelishi	95
2-§. Buyuk saltanatning tashkil topishi	97
3-§. Temuriylar davrida siyosiy hokimiyat uchun kurash	99
4-§. Amir Temur va Temuriylar davrida davlat boshqaruvi va ishlab chiqarishning rivojlanishi	103
5-§. Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati	105

IX bob.
TURKISTONNING XONLIKLARGA BO'LINIB KETISHI. UNING SABABLARI VA OQIBATLARI

1-§. Movarounnahrda Shayboniylar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi	109
2-§. Ashtarxoniylar davlati	112
3-§. Markaziy Osiyoda xonliklarning vujudga kelishi.....	116
4-§. Turkistonning xonliklarga bo'linib ketishining oqibatlari.....	120

X bob.
CHOR ROSSIYASINING TURKISTONDA YURITGAN MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI

1-§. Angliya va Rossiyaning Markaziy Osiyo xonliklarini o'z ta'sir doirasiga tortish bo'yicha o'zaro raqobati.....	123
2-§. Rossiyaning Markaziy Osiyo xonliklarini bosib olishi, uning asosiy bosqichlari	125
3-§. Prezident Islom Karimovning mustamlakachilik siyosatiga baho berish metodologiyasi	129

XI bob.
CHORIZM ISTIBDODIGA QARSHI TURKISTON XALQLARINING MILLIY-OZODLIK KURASHI. JADIDCHILIK

1-§. Turkiston xalqlarining chorizm istibdodiga qarshi milliy-ozodlik harakatlarining boshlanishi va uning bosqichlari	138
2-§. Andijon qo'zg'oloni va uning ahamiyati	140
3-§. Turkistondagi 1916-yil qo'zg'olonlarining sabab va oqibatlari.....	142
4-§. Jadidchilik harakatining paydo bo'lishi, uning ijtimoiy- siyosiy asoslari.....	144

XII bob.
TURKISTONDA SOVET HOKIMIYATINING O'RNATILISHI. ISTIQLOLCHILIK HARAKATI

1-§. Rossiyadagi 1917-yilgi fevral inqilobi va uning Turkistonga ta'siri	150
2-§. Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi va uning tub aholining manfaatlariga zidligi	151
3-§. Turkiston muxtoriyatining vujudga kelishi va uning tarixiy ahamiyati.....	154
4-§. Turkiston muxtoriyatining sovet hokimiyati tomonidan tugatilishi va uning sabablari	156
5-§. Buxoro va Xivada sovetlar hokimiyatining o'rnatilishi va uning oqibatlari	158
6-§. Turkistonda milliy ozodlik harakatining boshlanish sabablari va rivojlanish bosqichlari	159
7-§. Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi kurashning harakatga keltiruvchi kuchlari va ko'lami	161

XIII bob.

**SOTSIALIZM DAVRIDA YURITILGAN IQTISODIY VA MADANIY SIYOSAT,
UNING MUSTAMLAKACHILIK MOHIYATI. SIYOSIY QATAG'ON ASORATLARI**

1-§. O'zbekistonda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosati va uning oqibatlari	165
2-§. O'zbekistonda jamoalashtirish (kollektivlashtirish) va quloqlashtirish siyosatining amalga oshirilishi	169
3-§. 20-30-yillarda Sovet davlatining madaniyat sohasida amalga oshirgan siyosati (Madaniy inqilob)	170
4-§. SSSRda ma'muriy-buyruqbozlik tizimining shakllanishi va uning salbiy oqibatlari	174
5-§. 20–30-yillarda O'zbekistondagi siyosiy qatag'onlar va ularning salbiy oqibatlari	175

XIV bob.

**IKKINCHI JAHON URUSHI VA UNDA KEYINGI YILLARDA
O'ZBEKISTONNING SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI**

1-§. O'zbekistonning fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi.....	179
2-§. XX asrning 50–80-yillarida O'zbekiston iqtisodiyotining bir yoqlama rivojlanishi	181
3-§. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi taraqqiyoti va paxta yakkaxokim-ligining oqibatlari	187
4-§. XX asrning 40–80-yillarida O'zbekistonda madaniy va ma'naviy hayot.....	191

XV bob.

**O'ZBEKISTONDA DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO'LGA KIRITILISHI.
DEMOKRATIK HUQUQIY DAVLAT ASOSLARINING YARATILISHI**

1-§. Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.....	201
2-§. O'zbekiston mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati	205

XVI bob.

O'ZBEKISTONNING IQTISODIY VA MA'NAVIY-MADANIY TARAQQIYOTI

1-§. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li.....	223
2-§. Mustaqillik yillarida ma'naviy va diniy qadriyatlarining tiklanishi	242
3-§. O'zbekistonda madaniy taraqqiyot.....	249

XVII bob.

O'ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI

1-§. Tashqi siyosat asoslarining ishlab chiqilishi.....	258
2-§. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik.....	262
3-§. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi.....	267